

У ВИ (Дания)  
А65



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Hans Kristian  
Andersen

# Qor odam



ВИ(Дания)

У А 65



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Hans Kristian  
Andersen

# Qor odam



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2014

РМПК УРХТВ

388379

ВИ(Дания)

У А 65



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Hans Kristian  
Andersen

# Qor odam



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2014

РИПК УРХТВ

388379

**UO'K: 398.21 821**

**KBK: 84.4(Dan)**

**A-70**

**Andersen H.K.**

Qor odam / Ertaklar. -T.: «Yangi asr avlodi», 2014.  
-384 b.

ISBN 978-9943-08-854-2

Andersenning ertaklari bugungi kunda ham eng ko'p o'qilayotgan asarlar sarasiga kiradi. Ularda bolalalarga xos bo'lgan beg'ubor kechinmalar, ezgulikning g'alabasi, orzu-umidlarning ushalishi, yorug' olamda har birimiz har qadamda duch kelib, kundalik hayotimizda yuz berayotgan oddiy voqeа, hodisalarning o'zgacha talqini tilga olinadi.

Mazkur ertaklar katta-kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ular tasavvuringizni boyitadi, aqlingizni charxlaydi. Olis manzillardagi ertaklarning mo'jizaviy ohangi Siz, aziz kitobsevarlarni maftun etadi.

**UO'K: 398.21 821**

**KBK: 84.4(Dan)**

**Ruschadan  
Sotiboldi YO'LDOSHEV  
tarjimasi**

ISBN 978-9943-08-854-2

© H.K. Andersen, «Qor odam», «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

## BOTQOQLIK SHOHINING QIZI

Laylaklar o'z bolalariga botqoqlik va baliqchilar haqida ko'p ertak aytib berishar ekan. Albatta, bu ertaklar ularning yoshiga, tushunchasiga mos qilib aytilarkan. Bordiyu, eng kichkina laylakchalarga ular yeydigan botqoq jonivorlari nomi zikr etilgan ertaklarni aytsangiz, juda qiziqib tinglasharkan, biroq yoshi kattaroq laylakchalar esa ertaklarda ko'proq u-bu narsalar bo'lishini, hech bo'limganda o'z xususiy oilalari haqida gap borishini talab qilishar ekan. Laylaklar orasida ma'lum va mashhur bo'lgan eng qadimiy va uzun ertaklardan birini biz ham bilamiz. Unda onasi savatga solib, Nil daryosiga tashlagan Moiseyni fir'avinning qizi topib olib, tarbiyalagani haqida hikoya qilinadi. Keyinchalik u ulug' odam bo'lib yetishgan, biroq qayerga dafn qilingani noma'lum. O'zi ko'pincha shunaqa bo'ladi.

Boshqa bir ertakni bizning yurtimizda to'qilgani uchun hali hech kim bilmaydi. Mana, ming yillardan beri bu ertak og'izdan-og'izga o'tayapti, ona laylaklar boshqalarga aytib beryapti, har bir ona laylak uni tobora yaxshiroq qilib aftyapti, endi biz ulardan ham durustroq qilib aytamiz.

Mana shu ertakni to'qigan va ertakdag'i voqealarda o'zлари ham ishtirok etган dastlabki bir juft laylak yozni Daniyadagi bog'larda, aniqrog'i, Yutlandiyaning shimolidagi Iyoring viloyatiga qarashli Venyussel shahrining yovuz botqoqligiga yaqin joylarida o'tkazishar ekan. Laylakning uyasi viking uyining yog'och tomida ekan. O'sha joyda hozir ham juda katta botqoqlik bor, buni muzofot haqidagi ma'lumotlardan ham bilib olish mumkin. O'sha ma'lumotda aytishicha, bu joylar bir

vaqtlar dengiz tubi bo'lgan ekan, keyinchalik ko'tarilib, endilikda bu yerlarda bir necha kvadrat mil botqoqlik maysazori, balchiqzor, buta va yakkam-dukkam daraxtlar o'sgan torf botqoqligi paydo bo'lgan ekan. Ana shu joyni hamisha qalin tuman qoplab turar ekan. Ming yil muqaddam bu yerlar qanday bo'lganini tasavvur qiling! O'sha zamonalarda ham ko'p narsalar hozirgi ko'rinishga ega bo'lgan. Masalan, to'q binafsharang gulli qamishlarning bo'yи hozirgiday baland, tanasi ko'm-ko'k bo'lgan; oq qayinlarning tanasi ko'zni qamashtiradigan darajada oqarib turgan, mayda yaproqlari shabadada raqsga tushgan, bu yerda yashaydiganlarga kelsak, pashshalar o'sha zamonda ham hozirgiday tiniq ko'yaklar kiyib yurishgan, laylaklar hozirgiday ola-bula rangni juda yoqtirishgan, qizil paypoqlarni afzal ko'rishgan, o'sha zamonda faqat odamlargina boshqacha kiyinishgan. Har qanday odam, kimligidan qat'i nazar, ming yil ilgari ham hozirgiday balchiqqa ag'anab ketishi mumkin bo'lgan, axir, omonatraq qadam bosilsa bas, darhol kishi o'zini botqoqlik saltanatida ko'radi! Uni balchiq podshosi deb atasa ham bo'laveradi-yu, lekin botqoqlik shohi deyilgani ma'qul. Buning ustiga laylaklar ham uni ana shunday ulug'lashadi. Botqoqlik shohining idora qilish usuli ko'plarga ma'lum emas, ma'lum bo'lmagani ham yaxshi.

Botqoqlikka yaqin joyda, Lim-fiordning naq yuqorisida vikingning uch qavatli, minora va tosh yerto'lali yog'och qasri qad ko'targan ekan. Qasr tomiga laylaklar uya qurishgan ekan. Urg'ochi laylak katta umidlar bilan tuxum bosib yotar ekan!

Kunlarning birida laylakning eri qayerdadir hayallab qolibdi. Uyasiga hurpaygan, qattiq hayajonlangan holda qaytibdi.

– Hozir senga bir gap aytaman! Turgan-bitgani dahshat! – debdi u xotiniga.

– Oh, iltimos, bas qil bu gaplarni! – debdi xotini. – Tuxum bosib o'tirganimni, qo'rqib ketishim mumkinligini, bu esa bolalarimga yomon ta'sir qilishini unutma.

– Qulqoq solsang-chi! Misrlik xo'jamizning qizi bir iloji qilib yetib kelibdi! Shunchalik xatarli safardan qo'rqmabdi! Endi uning ismini bir eslab ko'r-chi!

– Nima? Misr malikasimi? Axir u hurlar zotidan-kul Qani, tezroq, tezroq gapira qol! Tuxum bosib o'tirganimda betoqatlanishim zararli ekanligini yaxshi bilasan-ku!

– Ko'rdingmi, demak u shifokorlarning, botqoqlikda o'sadigan gul otang dardiga shifo bo'ladi, degan gaplariga laqqa tushibdi. Esingdami, buni o'zing aytib bergen eding? Shunday qilib, u ikkita malika bilan birga patli kiyimda bu yoqqa uchib kelibdi. Bular esa har yili yasharish uchun shimolga cho'milgani kelishadi. Uchib kelishga kelibdiyu, him-m...

– Voy, muncha ezmalanding! – debdi ona laylak. – Axir tuxumlar sovib qolishi mumkin! Hayajonlanishim oqibati yomon bo'ladi.

– Hammasini o'z ko'zim bilan ko'rdim! – deb davom etibdi laylak. – Bugun kechki payt balchiq qattiqroq joylardagi qamishlar orasida yursam uchta oqqush uchib ketyapti. Ularning oqqushligi uchishidan bilinib turardi. O'sha zahoti o'zimga-o'zim, bular haqiqiy oqqush emas, ular patdan kiyim kiyib olishgan bo'lsa kerak, dedim! Onasi, sen ham juda ziyraksan! Nima gapligini darhol payqaysan!

– Bu to'g'ril! – debdi laylakning xotini. – Menga malika haqida gapir, pat kiyimlar haqidagi gaplaring jonimga tegdi!

– Botqoqlikning o'tasida, o'zingga ma'lum, uncha katta bo'lмаган ко'лга о'xshash joy bor. Sal bo'ylangsang, shu yerdan ham uning qirg'og'i ko'rindil! O'sha joyda o'sgan qamishzorda zirk daraxtining to'nkasi bor. Oqqushlar o'sha to'nkaga qo'nishdi, qanotlarini qoqishdi, atrofga nazar tashlashdi; keyin ulardan biri egnidagi oqqush kiyimni yechdi, men Misr malikasini darrov tanidim. Uning egnida hech qanaqa kiyimi yo'q ekan, uzun sochlari butun tanasini yopib turibdi. Suv tagida ko'ringan gulni olib chiqqunga qadar pat kiyimlarini qo'riqlab

turishni dugonalaridan iltimos qilganini ham eshitdim. Ular va'da berishdi, keyin uning pat kiyimlarini olishdi, osmonga ko'tarilishdi. «Eh-he, bular qayoqqa yo'l olishdi ekan?» deb o'yladim. Ehtimol, malika buni o'zi iltimos qilgandir? Lekin buning sababi tezda ravshan bo'ldi. Ular osmonga ko'tarilgach, malikaga: «Sho'ng'iyver, sho'ng'iyver! Endi oqqush bo'lib uchib bo'psan! Yurtningi ham ko'rib bo'psan! Botqoqlikda o'tiraver!» deb qichqirishdi, pat kiyimlarni to'zitib tashlashdi! Patlar osmonda qor uchqunlariday uchib yurdi, yaramas malikalar esa ko'zdan g'oyib bo'lishdi!

– Qanday dahshat! – debdi xotini. – Eshitishga ham madorim qolmadil! Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

– Malika yig'lab, faryod cheka boshladil! Ko'zyoshlari to'nka ustiga ariq-ariq bo'lib oqdi, to'satdan to'nka qimirlab ketdi! Bu to'nka emas, balki balchiqdha yashayotgan o'sha botqoqlik shohi ekan. Uning qanday o'girilganini ko'rdim, qarasam, to'nka emas! U loy va balchiqqa bulangan qollarini malikaga cho'zdi. Bechora shunaqayam qo'rqdiki, sakrab tushib, balchiq ustidan qocha boshladil. Qayoqqa qocha olardi! Men o'zim balchiq ustidan ikki qadam yura olmayman! Malika pastga cho'kib ketdi, uning orqasidan botqoqlik shohi ham sho'ng'idi. Axir uni cho'ktirgan ham o'sha-da! Suv betida pufakchalar paydo bo'ldi, vassalom! Bechora malika botqoqlikka tiriklayin ko'mildi. Endi gul olib, o'z vataniga qayta olmaydi. Oh, bu manzarani o'zing ko'rganingda toqat qilolmasding, xotinjon!

– Bunaqa hodisalarini menga aytmaganing ma'qul edi! Bu tuxumga ta'sir qilishi mumkin! Malika falokatdan qutuladi! Uni xalos qilishadi! Bordiyu, mening yoki sening, yo bo'lmasa o'zimiznikilardan birortasining boshiga shunday kun tushsa, adoyi tamom bo'lardik.

– Harholda hushyor bo'lib turaman! – debdi laylak, shunday qilibdi ham.

Oradan ko'p vaqtlar o'tibdi.

Kunlarning birida laylak qarasa, botqoqliknинг tubidan uzun, ko'm-ko'k poya bo'y cho'zib chiqibdi, keyin

suв betida yaproq paydo bo'libdi; u o'sib, tobora kattalasha boribdi. So'ng suvdan g'uncha ko'rнibди, laylak botqoq ustidan uchib o'tayotganda quyosh nurlarida g'unchaning ochilganini, gulning kosasida go'yo hozirgina cho'milib chiqqandek jajji qizchaning o'tirganiga nazari tushibdi. Qizcha Misr malikasiga juda-juda o'xsharmish, laylak avvaliga bu yana kichkina bo'lib qolgan malika deb o'yabdi, lekin durustroq bosh qotirib, u Misr malikasi bilan botqoqlik shohining qizi bolsa kerak, degan fikrga kelibdi. Shuning uchun ham u gulkosada o'tiribdi-da.

«Uning bu yerda qolishi mumkin emas! – deb o'yabdi laylak. – Bizning uyamiz ham tang-u tor! To'xta, to'xta, topdim! Vikingning bolasi yo'q, bola kerakligi haqida ko'p gapirgan... Baribir meni birovlarining uyiga bola tashlab ketadi, deyishadi, shu vajdan chindan ham qizchani vikingning xotiniga eltid bersam, rosa xursand bo'lardil»

Laylak qizchani olib, vikingning uyiga uchib boribdi, derazani tumshug'i bilan ochib, bolani vikingning xotini oldiga qo'yibdi, keyin uyasiga qaytib, bo'lgan voqeani xotiniga aytib beribdi. Bu gaplarni bolalari ham eshitibdi, ular ancha katta bo'lib qolishgan ekan-da.

– Mana, ko'rdingmi, malika o'lмabdi – qizchasini bu yoqqa yuboribdi, uni joylashtirib qo'ydim! – deb laylak hikoyasini tugatibdi.

– Avvalgi safar senga nimalarni tayinlagan edim? – debdi laylakning xotini. – Endi o'z bolalarining haqida ham qayg'урғин! Uchish vaqtimiz yaqinlashib qoldi! Hozir qanotlarim osti qichishib qoldi. Kakku bilan bulbullar allaqachonlar uchib ketishdi, bedanalar uchish maslahatini qilishyapti, hademay hamroh shamol ham esadi. Bolalarimiz uchish paytida o'zlarini ko'rsatishadi, ularni yaxshi bilaman!

Vikingning xotini erta tongda qo'ynida chiroyli jajji qizcha yotganini ko'rib juda sevinibdi! U qizchani o'pib, erkalata boshlabdi, lekin bola baqirib, qo'l-oyoqlarini tipirchilatib qarshilik ko'rsatibdi, erkalatish unga ma'qul

kelmabdi shekilli. Qizcha kuchi boricha yig'labdi, baqiribdi va nihoyat uqlab qolibdi, uqlaganda ham uning husniga tikilib, kishi to'yasmish! Vikingning xotini sevinganidan o'zini qo'yarga joy topolmabdi, quvonchdan terisiga sig'may ketibdi, hademay erim ham o'z drujinasi bilan manavi boladay qo'qqisdan kelib qolsa-ya, deb o'ylabdi. Qadrdon mehmonlarni munosib kutib olish uchun butun uyni oyoqqa turg'azibdi. Devorlarga o'zi va cho'rilari to'qigan gilamlarni ostiribdi, gilamlarga xudolardan Odin, Tor va Freylarning surati tushirilgan ekan. Qullar eski qalqonlarni tozalashibdi, ularni osishib, devorlarni bezashibdi; o'rindiqlarga yumshoq yostiqlar qo'yishibdi, eng katta yotoqxona o'rtasidagi o'choqqa gugurt chaqishi bilanoq lovillab yonib ketadigan quruq palyonlarni qalashibdi. Kechga yaqin vikingning xotini kunduzgi ishlardan horib-charchab dong qotib uqlab qolibdi.

Kun yoyilmasdan oldin, sahar paytida uyg'onib nihoyatda qo'rqib ketibdi: qizcha yo'qmish! O'rnidan sakrab turib chiroqni yoqib qarasa, o'trining chetida qizcha emas judayam katta, jirkanch bir baqa yotganmish. Viking xotini jirkanib qo'liga eshikning vazmin temir boltini olib baqani oldirmoqchi bo'libdi, lekin baqa unga judayam g'alati, qayg'uli nazar tashlagan ekan, ayol urgani jur'at etolmabdi. Xotin yana atrofga nazar tashlabdi, baqa ingrab yuboribdi: shunda ayol o'rindan nari ketib, deraza vazifasini o'taydigan darcha eshigini ochib yuboribdi. Bu payt quyosh chiqib kelayotgan ekan; uning nurlari ko'rpaga va baqaga tushibdi... O'sha zahotiyoq dahshatli, ulkan baqaning og'izlari yumilib kichrayibdi, chiroqli og'izchaga aylanibdi, tanasi tortishib, boshqa qiyofaga kiribdi – viking xotini qarshisida go'zal qizchasi namoyon bo'libdi, baqadan asar ham qolmabdi.

– Bu nima o'zi? – debdi vikingning xotini. – Yomon tush ko'rdimmikin-a? Bu yerda bolajonim yotibdi-ku! – U qizchani bag'riga bosibdi, yuz-ko'zlaridan o'pibdi, lekin qizaloq xuddi yovvoyi mushukday tipirchilab tishlab olaveribdi.

Viking o'sha kuni ham, ertasiga ham qaytmabdi, u yolda kelayotgan ekan. Laylaklarning uchishiga yordam berayotgan hamroh shamol uning yo'liga g'ov bo'libdi, laylaklar janubga uchayotgan ekan-da. Ha, ba'zilarga shamol hamroh bo'lsa, boshqalarga g'ov bo'ladi!

Oradan bir necha kun o'tibdi, ayol qizchani yovuz jodu ezayotganini payqab qolibdi. Kunduzi qizcha elf singari chirolyi, bejirim bo'larmish. Lekin fe'li yomon, beboshroqmish, kechasi esa jirkanch baqaga aylanarmish, ammo uning boqishlari ma'sum, qayg'uli emish. Qizchada ikkita fe'l-atvor mujassamlangan-daymish: kunduz kuni laylak viking xotiniga tashlab ketgan bolaga, shundoqqina Misr malikasi bo'lmish onasiga o'xsharmish, fe'li bo'lsa otasinikaga o'xsharmish; kechasi aksincha, tashqi qiyofasi otasiga o'xshab, ko'zlarida onasining ruhi va qalbi charaqlab turarmish. Ana shu yovuz jodudan qizni kim xalos qila oladi? Vikingning xotini g'am-hasratda, vahimada qolibdi, harholda bu sho'rlikka tobora mehri ortaveribdi. Bolani sehr o'tab olgani haqida eriga hech nima demaslikka jazm etibdi: eri o'sha zamoning rasm-rusmiga ko'ra bechora bolani kim xohlasa olib ketaveradigan serqatnov yo'lda chiqarib tashlashga amr qilishi mumkin ekan-da. Vikingning xotini bolaga achinibdi, u shunday yo'l tutibdiki, qizchani eriga faqat kunduz kuni ko'rsatibdi.

Kunlarning birida, tong chog'ida viking qasri ustida qushlarning qanot qoqishi eshitilibdi – kunduzgi safardan horigan yuz juft laylak kechasi tomda hordiq chiqarishgan ekan, endi ular uzoq safarga jo'nash uchun osmonga ko'tarilishibdi.

– Erkaklar shay! – deb qichqirishibdi ular. – Ayollar bilan bolalar ham tayyor!

– Naqadar yengilmiz! – deyishibdi yosh laylaklar. – Xuddi tirik baqalar to'dirilganday ich-ichimizning qitig'i kelyapti! Chet mamlakatlarga uchyapmiz! Qanday baxt!

– Galadan qolmanglar! – debdi ularga ota va onalari. – Ko'p vaysaqilik qilavermanglar, ko'krakka ziyoni bor!

Shunday qilib hamma laylaklar uchib ketibdi.

Xuddi shu lahzada cho'l ustida burg'u ovozi yangrabdi: viking navkarlari bilan qirg'oqqa yaqinlashibdi. Ular Britaniyadagi xalq dahshatga tushib: «Ey xudo, bizni yovvoyi normalardan o'zing asral» deb ibodat qiladigan Galli sohillaridan juda katta o'ja bilan qaytishibdi.

Vikingning qasrida xursandchilik boshlanibdi. Katta yotoqxonaga asal to'la bochkani dumalatib keltirishibdi; gulxan lovillabdi, otlar so'yishibdi, dovrug'i olamga taraladigan ziyofatga hozirlik boshlanibdi. Bosh kohin issiq ot qonlarini qullarga sochibdi. Quruq o'tin charsillab yonibdi, tutun shiftga o'rlabdi, uy to'sinlaridan ziyofatda o'tirganlarning ustiga mayda qurumlar yog'ilibdi, lekin bunga ular ko'nikib qolishgan ekan. Mehmonlarga katta tuhfalar berilibdi; janjallar, xiyonatkorliklarning hammasi unutilibdi; asallar daryo bo'lib oqibdi; ichib mast bo'lib qolganlar kayfichog'lik alomati sifatida bir-birlariga go'shti yeb olingan suyaklarni ota boshlashibdi. Bizning xonanda va sozandamizga o'xshagan, shuning bilan birga urushlarda qatnashgan jangchi bo'lmish skald nima haqda kuylayotganini bilgani holda erishilgan ajoyib zafarlar to'g'risida qo'shiqlar aytibdi. Har bir she'r: «Mol-mulk, qarindosh-urug', do'stlar, kishining o'zi – hammasi o'tkinchi, hammasi o'ladi; faqat yaxshi nom o'lmaydil» degan naqorat bilan aytilibdi. So'ng hammalari qalqonlarni mushtlashibdi, pichoq yoki go'shtsiz suyak bilan stolni urib taqillata boshlashibdi, osmon shovqin-suronga to'libdi. Vikingning xotini to'rda egniga ipakli ko'yvak kiyib, yasanib-tusanib o'tiribdi; qo'llarida oltin bilaguzuk, bo'yniga yirik-yirik donali qahrabo marjon taqibdi. Skald uning ham shuhratini ko'klarga ko'tarib kuylashni esidan chiqarmabdi. Eri farzand hadya etganini ham kuylabdi. Eri chiroyli qizchani ko'rib judayam quvonibdi, chunki u qizchani kunduzi butun latofati bilan ko'ribdi. Hatto uning yovvoyiligi ham juda yoqibdi. U, bu qizchadan o'zini dadil turib himoya qiladigan jasur harbiy chiqadi, bordiyu, tajribali qo'l o'tkir qilich bilan hazillashib qalin

qoshlarini qirganda ham miq etmaydi, ko'zini yummaydi, debdi.

Bochkadagi asal tugabdi, yangisini olib kelishibdi, o'sha zamonlarda asal ichishning havosini rosa olishgan ekan-da! To'g'ri: «Hayvon o'tloqni qachon tark etib uyiga qaytishini biladi, bema'ni odam bo'lsa o'z me'yorini bilmaydil», degan matalni o'sha vaqtarda ham bilishgan ekan. Buni har bir odam bilarkan-u, biroq bilish boshqa, bilganni qilish boshqa-da. Hammalari: «Bordiyu, me'yoridan ortiq o'tirib qolsa, aziz mehmon ham me'daga tegadi», degan boshqa matalni ham bilisharkan: lekin o'tirishaveribdi, axir go'sht bilan asal ajoyib narsa-da! Xursandchilik nihoyasidan oshibdi. Kechasi qullar iliqqina qo'rga cho'zilishib, yog'li qorakuyani titkilashib, barmoqlarini yalashibdi. Xo'p yaxshi damlar ekan!

Xuddi o'sha yili kuzgi bo'ronlar quturayotganiga qaramay, viking yana safarga otlanibdi. U o'z navkarlari bilan Britaniya sohillariga hujum qilmoqchi bo'libdi, chunki u yer juda yaqin ekan-da. «Qo'l uzatsak yetadi», debdi viking. Xotini jajji qizchasi bilan uyida qolaveribdi. Ko'p o'tmay ayloga ma'sum ko'zli, oh-voh chekadigan badburush baqa erkalashga tishlash va tirmash bilan javob beradigan yovvoyi go'zaldan ko'ra ko'proq yoqib qolibdi.

Xazonrezgilikni boshlagan, «kemshik bobo» nomini olgan oppoq kuz tumani o'rmon va cho'llarni qoplabdi. Patsiz qushchalar, ya'ni qor uchqunlari havoda o'ynoqlab qolibdi, qish eshik qoqib kela boshlabdi. Chumchuqlar laylaklarning uyasiga kirib olishibdi va uya egalari haqida gurung boshlashibdi. Bu uyalarning egalari qayerda ekan-a, bizning laylak xotini va bola-chaqalari bilan qayerda ekan?

\* \* \*

Laylaklar bizda yoz mavsumida quyosh qanday charaqlab nur sochsa, xuddi o'shanday serquyosh Misrda bolishibdi. U yerda tamarind va akatsiya daraxtlari gulga

ko'milgan ekan; ibodatxonalarning gumbazlarida yarim oylar charaqlab turganmish; adl minoralarga uzoq safardan horib-charchab kelgan laylaklar qo'nib olishibdi. Ularning uyalari hashamatli ustunlar va tashlandiq ibodatxonalarning yarim vayrona gumbazlariga qator qurilibdi. Kurmo daraxtlari soyabonsimon uchlarini osmon-u falakka ko'tarib turganmish. Ildam oyoq tuyaqushlar chopqillab yurgan sahro osmonining har yer-har yerida ehromlarning kulrang soyalari ko'rinish qolarkan, sher bo'lsa qumga yarmigacha ko'milgan yarim odam, yarim hayvon qiyofasidagi marmar haykalga katta, ma'no to'la ko'zlarini tikkan ekan. Nil daryosining suvi ko'payib, sohilga toshibdi, suv ichida g'ij-bij baqalar; laylaklar uchun bundan ham chiroyli manzara bo'lmasa kerak. Yosh laylaklar hatto o'z ko'zlariga ham ishonishmabdi – qayoqqa qarashsa ko'zları yashnarmish-dal!

– Ha, bu yer mana shunaqa yaxshi, hamisha shunday bo'ladi! – debdi urg'ochi laylak. Yosh laylaklarning esa nafslari hakalak otib ketibdi.

– Bu yerda boshqa narsani ko'rmaymizmi? – deb so'rashibdi ular. – Nahotki, mamlakatning ichkarisiga bormasak?

– U yoqda hech vaqo yo'q! – debdi onalari. – Manavi xudo yarlaqagan sohillarning naryog'ida chirmashib ketgan daraxtlar va o'simliklar o'sgan qalin o'rmon. U yerlardan faqat yo'g'on oyoqli fillargina o'ziga yo'l ocha oladi. O'rmonning ilonlari ulkan, kaltakesaklari chaqqon. Bordiyu, sahroga bormoqchi bo'lsak, ko'zing qumga to'ladi, bu holva, qum quyuniga uchrab qolsang rosa adabingni yeysan! Yo'q, har qalay shu yer yaxshi! Bu yerda baqa bilan chigirtka ancha serob! Men ham, sizlar ham shu yerda qolamiz!

Ular o'sha yerda qolishibdi. Ota-onalari adl minora ustidagi uyalarida o'tirishib dam olishibdi, o'zlariga oro berishibdi, patlarini silliqlashibdi, tumshuqlarini qizil paypoqlariga ishqalashibdi. Pardozlarini tugallashib,

bo'yinlarini cho'zishibdi, viqor bilan ta'zim qilishib, keng peshanali, ingichka, yarqiroq patlar qoplangan kibr bilan balandga ko'tarishibdi, mamnunlikdan ma'nodor qo'yko'zları chaqnabdi. Yoshgina oyimqiz-laylakchalar endigina bo'y cho'zayotgan qamishzor ichida sipogarchilik bilan sayr qilishibdi, yosh-yosh nar laylakchalarga mo'ralashibdi, ular bilan darrov tanishib olishibdi, har qadamda bittadan baqani yutishaveribdi, ba'zida tumshuqlarida ilonchani qisib olib silkitib yurishibdi, bu qilig'imiz o'zimizga juda yarashadi, deb o'ylashibdi, buning ustiga ilon ham juda mazali-da! Nar laylakchalar moda laylakchalarini talashib janjallashibdi, qanotlari bilan bir-birlarini urishibdi, tumshuqlari bilan cho'qib, bir-birlarini qizil qonga bo'yashibdi! Bir vaqt qarasangiz, bir unisi, bir bunisi kuyov bo'lib boribdi, moda laylakchalar esa birin-ketin kelin bo'lishibdi; ularning hammasi faqat shuning uchungina yashayotgan ekan-da. Yosh kuyov-kelinlar o'zlariga uya qurishga kirishibdilar, uya qurishda ham janjallar bo'libdi, issiq mamlakatlarda hamma qiziqkon bo'lib qolarkan-da, umuman aytganda, hayot totli, gashtli o'ta boshlabdi, qariyalar yoshlarga qarab quvonganicha umr o'tkazishaveribdi, chunki yoshlarga hamma narsa yarashadi-da! Quyosh kun sayin mo'l-ko'l nur sochibdi, laylaklarning yegani oldida, yemagani ketida bo'libdi.

Laylaklar aytganidek, Misr xo'jasining hashamatli saroyida xursandchilikdan nom-nishon ham yo'q ekan.

Devorlariga lolaning barglariga o'xshash gul va naqshlar solingan katta xonada qudratli podsho betob yotar ekan; uning qo'l-oyoqlari ishlamas, eti suyagiga yopishib, qurib qolgan ekan. Uni qarindosh-urug'lari va xizmatkorlari qurshab olishibdi. Uni o'lik deb ham, tirik deb ham bo'lmas ekan. Botqoqlik gulidan shifo topish umidi ham chippakka chiqibdi. Uni jonidan ham ortiq ko'radian qizi ana shu gulni olib kelish uchun uzoq shimolga uchib ketgan ekan. Yosh, sohibjamol qizning diydorini ko'rolmaydi endi! «U halok bo'dil!» deyishibdi

vataniga qaytib kelgan malika-oqqushlar. Hatto ular dugonalarining qanday halok bo'lgani haqida butun bir hikoya ham to'qishibdi.

– Uchovimiz osmonda uchib ketayotgandik, to'satdan bizni ovchi ko'rib qoldi, yoydan o'q uzdi. O'q dugonamizga kelib tegdi, bechora vidolashuv qo'shig'ini aytib, astagina o'rmon ko'lining suviga tushdi. Biz uni o'sha ko'lning qirg'og'ida oq qayin tagiga dafn qildik. Biroq uning o'limi uchun qasos oldik: ovchining kulbasida yashovchi qaldirg'ochlarning dumiga yonib turgan poxol bog'ladik, uy ham, ovchining o'zi ham yonib ketdi. Alanga nuri ko'lning qarama-qarshi tomonidagi oq qayin o'sib turgan, dugonamiz qora tuproqda yotgan sohilni yoritdi. Ha, endi dugonamiz o'z yurtini hech qachon ko'ra olmaydi!

Ularning ikkovlari ham yig'lashibdi. Bu gaplarni eshitgan laylak tumshuqlarini g'azab bilan taqillatibdi.

– Yolg'on, bo'hton! – deb qichqiribdi u. – Eh, ularning ko'ksiga tumshug'imni suqib olsam!

– Tumshug'ingdan ayrilarding! – debdi xotini. – Xo'p yaxshi bo'lardi-da! Undan ko'ra o'zing, oilang haqida qayg'ur, qolganini qo'yaver!

– Harholda ertaga bemorning kasali xususida kengashish uchun olimlar va donishmandlar to'planadigan xonaning ochiq peshtoqiga qo'nib turmoqchiman. Ehtimol, ular haqiqatni ro'yobga chiqarishar!

Olimlar va donishmandlar to'planishib, uzoq kengashibdilar, lekin laylak ularning gapidan hech narsa tushunmabdi: podshoning qizi u yoqda tursin, o'ziga ham naf keltiradigan bir qarorga kelishmabdi. Biroq, olimlarning gapini eshitsak zarar qilmaydi, ko'p narsani eshitishga to'g'ri keladi-ku, axir!

To'g'rirog'i, o'tmishdan biron-bir narsa eshitsak yo bilsak, tarix bilan yanada yaqinroq tanishamiz; harholda laylaklardan ko'ra ko'proq narsa bilib olamiz-da.

«Hayotning asosi – muhabbat! Muqaddas sevgi muqaddas hayotni barpo qiladi! Faqat muhabbat

sharofati bilan bemor hayotga qaytishi mumkin!» Donishmandlar podshoni darddan xalos qilish haqida gap ketganda ana shunday dono fikrlarni aytishibdi. Bu gaplar donishmandlarning aytishicha, o'ta dono va yaxshi fikrlar ekan.

- Fikrlari chakki emas! - debdi o'shanda laylak xotiniga.

- Men esa negadir mag'zini chaqa olmayapman! - debdi xotini. - Bu mening nuqsonim emas. Ha, aytganday, bularning menga dahli yo'q; busiz ham o'z tashvishlarim boshimdan oshib yotibdi.

Keyin olimlar muhabbatning turli ko'rinishlari haqida gapira ketishibdi: axir, muhabbatning muhabbatdan farqi bor-da, ota-onalarning o'z bolalariga yoki o'simlikning yorug'likka muhabbati. Masalan, quyosh nuri botqoqdan bo'sa oladi, natijada undan nihol unib chiqadi. Ularning nutqlari shunchalik chuqur ma'noli ekanki, laylak gapning kalavasini yo'qotib qo'yibdi. Hatto gap mazmunini xotiniga ham aytib berolmabdi. U chuqur o'ya tolib, ko'zlarini yumib, butun kun bir oyoqda tik turaveribdi. Bilimdonlikni eplay olmabdi.

Lekin laylak podshoning kasali butun mamlakat va xalq uchun katta baxtsizlik ekanini, aksincha, uni darddan xalos etish katta baxt ekanini yaxshi anglabdi. Barcha xalq - xoh kambag'al, xoh boy bo'lsin, shu haqda bosh qotirayotgan mish. Biroq, shifobaxsh gul qayerda o'sadi? - deb so'rashibdi odamlar bir-biridan. Ular ilmiy kitoblarni varaqlashibdi, bu haqda yulduzlardan bir narsa o'qishga urinishibdi, to'rt tomondan esadigan shamollardan so'rashibdi, xullas, turli yo'llar bilan zarur ma'lumotlarni olishga intilishibdi-yu, hamma harakatlari behuda ketibdi. Shu payt olimlar va donishmandlar oldin «Hayotga asos qurgan - muhabbat; u podshoni ham hayot kechirish uchun ato qilgan!» deb aytgan gaplariga qaytishibdi. Garchi buning ma'nosini ularning o'zi ham chuqur tushunib yetmasalar-da, bu gapda hikmat katta ekan. Shuning uchun ham bu gapni bir necha bor

takrorlab, hatto dori qog'oziga: «Hayotga asos qurban – muhabbat!» deb yozishibdi, lekin bu dori qog'ozи bilan dorini qanday tayyorlash mumkin? Xuddi shu xususda hamma mushkul ahvolda qolibdi. Nihoyat o'tirganlar bir ovozdan hamma yordamni otasini qizg'in, chin ko'ngildan yaxshi ko'radigan yosh malikadan kutishi kerak, degan qarorga kelishibdi. So'ng malika nima qilishi lozimligi ustida ham bosh qotirishibdi. Bundan roppa-rosa bir yil muqaddam yangi oyning o'rog'i botgan tunda malika sahrodagi marmar haykal tomon yo'l olgan ekan. Pastroqdagi eshik oldidagi qumlarni suribdi, katta ehromlarning biridagi uzun yo'lak bo'ylab yurib, qadimiy fir'avn jasadi qo'yilgan joyga boribdi – malika marhumning ko'ksiga boshini qo'yib, mojiza yuz berishini kutishi kerak edi.

U aytilganlarning hammasini bajo keltiribdi, tushida shimolga, Daniyaga uchib borishi, chuqr botqoqdan nilufar uzishi, u suv tubiga sho'ng'iganida gul uning ko'ksiga tegib ketishi, bu gul otasiga qayta hayot ato qilishi, gul uziladigan joyning o'zi namoyon bo'libdi.

Malika oqqush patida Yovuz botqoqligiga ana shuning uchun uchib borgan ekan. Buni laylak bilan xotini azaldan bilisharkan, endi bolsa biz ham uni yaxshiroq bilib olyapmiz. Shuningdek, botqoqlik shohi bechora malikani balchiq ostiga olib kirib ketganini, bu yerda esa uni halok bo'ldi deb yurganlarini ham bilamiz. Lekin donishmandlarning donishmandi urg'ochi laylakning: «Malika kulfatdan xalos bo'ladi!» deb aytgan gapini aytibdi. Oxiri kutishga ahd qilishibdi, bundan boshqa chora qolmabdi-da.

– Anov muttahamlardan oqqush patini sidirib olaman,  
– debdi laylak. – O'shanda ular botqoqlikka ortiq uchib borolmaydilar, shumlik ham qilolmaydilar. Patlarini esa har ehtimolga qarshi o'sha yoqqa yashirib qo'yaman.

– Qayoqqa? – deb so'rabdi xotini.  
– Botqoq yaqinidagi uyamizga-da! – debdi laylak. – Bolalarimiz patlarni o'sha yoqqa olib borishga

ko'maklashadi; bordiyu juda og'irlik qilsa, Daniyaga kelgusi uchishimizgacha biror joyga yashirib qo'yamiz. Malikaga bitta pat kiyim ham yetadi-yu, ammo ikkita bo'lsa yana yaxshi, shimolda ortiqcha kiyimga ega bo'lish ziyon qilmaydi.

– Bu ishing uchun rahmat aytishmaydi! – debdi xotini.  
– Harholda sen oila boshlig'isan. Mening esa faqat tuxum bosib o'tirganimdagina gapim o'tadi!

\* \* \*

Yovvoyi botqoqlik yaqinidagi, har yili bahorda laylaklar uchib keladigan viking qasrida boshpana topgan qizchaga Xelga deb ism qo'yishibdi, lekin bu ism uning uchun biroz mayinlik qilar ekan. Chunki bu chiroyli gul badanda yovuz qalb joylashgan-da. Oylar ketidan oylar, yillar ketidan yillar o'taveribdi, laylaklar esa har yili kuzda Nil sohillariga, bahorda Yovuz botqoqlik tomonga uchaveribdi, qizcha ham balog'atga yeta boshlabdi, hash-pash deguncha o'n olti yoshga kirib, sohibjamol qiz bo'lib qolibdi. Biroq uning tashi go'zal bo'lsa-da, ichi qo'pol, xunuk ekan. O'sha qahrli zulm avj olgan zamонларда ham Xelga o'zining yovvoyiligi va beboshligi bilan hammani hayratga solar ekan. U qurbanlik uchun yangi so'yilgan otning hovuri chiqib turgan qaynoq qonida qo'lini yuvgandagina ko'ngli taskin topib yupanarkan, yovvoyilarcha betoqatligi avjiga minganda qurbanlikka atab qo'yilgan qora xo'rozning kekirdagini tishlab uzib qo'yarkan. Kunlardan birida tutingan otasiga behazil shunday debdi:

– Kechasi dushmaning kelib, arqon bilan toming ustiga chiqib, yotoqxonang tomini ochib tashlaganini bilsam ham seni uyg'otmayman! Bundan ancha yillar oldin qulog'imda shovla qaynatganding, o'shaning jarangi hanuzgacha turibdi! Urganiningni unutganim yo'q!

Biroq, qiz behazil gapi rayotganiga viking ishonmabdi. Chunki u ham hamma qatori uning go'zalligiga maftun bo'lgan, qalbi bilan tashqi qiyoғasi ikki xilligidan bexabar

ekan. Xelga go'yo yovvoyi otning belidan o'sib chiqqanday, uni egarsiz minib jon-jahdi bilan choptirarkan, hatto ot yovvoyi otlar bilan urishib, tishlayotganda ham yerga tushmas ekan. U yechinmasdan baland qoya ustidan o'zini dengiz ko'rfaziga tashlab, sohilga yaqinlashayotgan viking qayig'iga tomon suzib borarkan. U ko'rkar, qalin sochlaridan eng uzun tutamni kesib olib yoy uchun chilvir to'qibdi.

– Kishi hamma narsani o'zi qilishi kerak! Shunisi ma'qul! – der ekan u.

Yillar va odatlanish viking xotinining ruhi va irodasini chiniqtiribdi, lekin baribir u qiziga nisbatan qo'rkoq, ojiza ayolligicha qolaveribdi. Bularning hammasiga qo'rqinchli qizni ezg'ilayotgan yovuz jodu sababchi bo'layotganini yaxshi bilarkan!

Xelga ko'pincha onasini qiy nab huzur qilar ekan: uning zina yoki hovliga chiqqanini ko'rishi bilanoq quduqning chetiga o'tirib, qo'l-oyoqlarini o'ynataverarkan, so'ng tor, chuqur quduqqa sho'ng'irkhan, suvda baqa singari sho'ng'ib, suzib o'ynarkan, keyin mushukday chaqqon harakat qilib, yuqoriga sakrab chiqarkan, hammayog'i shilta bo'lib, katta yotoqxonaga kirib borarkan, soch va ko'yaklaridan shovillab suv quyilarkan, polga to'shalgan ko'm-ko'k yaproqlarni yuvib, oqizib ketarkan.

Faqat qorong'i tushishigina Xelgani biroz jilovlab turarkan. Kechki payt u go'yo o'ya tolganday tinchanib qolarkan, onasining gapidan chiqmas ekan, bunga onasida bo'lgan tuyg'u sabab ekan. Quyosh botishi bilanoq Xelga yuvosh, ma'yus baqaga aylanib qolar va burchakda qunishib o'tiraverar ekan. U oddiy baqaga qaraganda ancha katta bo'lib, ko'rinishi dahshatl bo'lgan ekan. Uning ko'rinishi baqa boshli, panjalarning orasida suzgich pardasi bo'lgan badbashara trollga o'xsharkan. Ko'zlarida qayg'u uchqunlari chaqnab, ko'ksidan yosh go'dakning o'ksinib yig'lashiga o'xshash ayanchli tovushlar otilib chiqarkan. Xuddi ana shu paytlarda vikingning xotini uni tizzasiga olarkan, uning g'amgin

ko'zlariga boqib, badbasharaligini ham unutib yuborarkan.

– Rostini aytsam, hamisha soqov baqa qizim bo'lib qolishingga ham roziman! – der ekan u ko'pincha. – Husning qaytganda juda qo'rqinchli bo'lib ketasan, ko'ngilga esa g'ashlik tushadi!

So'ng u joduni yo'q qiladigan va dardlarni davolaydigan runlar chizib bechoraning boshidan oshirib tashlarkan, lekin natijasi ko'rinmas ekan.

– Bir vaqtlar nilufar gulkosasiga siqqaniga kim ishonardil – debdi laylak. – Endilikda u katta qiz bo'lib qoldi, xuddi onasi – Misr malikasining o'zi. Onasini esa boshqa ko'rmadik! Donishmand bilan sen karomat qilganingday, u kulfatdan xalos bo'lomadi, shekilli. Har yili botqoq ustidan uzunasiga ham, eniga ham uchib o'tyapman, lekin u zarracha bo'lsin hayot nishonasini bildirgani yo'q! Ha, ishonaver, menga! Shu yillar mobaynida bu yoqlarga uyamizning u yoq-bu yog'ini tuzatish uchun sendan oldinroq uchib keldim, tunlarni kunga ulab, boyqush yoki ko'rshapalakdek kechalari ham botqoq ustida uchdim, hammasi behuda! Zo'r qiyinchiliklar bilan qo'nga kiritganimiz va uch marta uchishda bu yoqqa keltirganimiz oqqushlarning pat kiyimlari ish bermadi! Mana, bir necha yildirki, ular uyamizda bekor yotibdi. Yong'in chiqib, manovi yog'och kuyib ketsa, undan nom-nishon ham qolmaydi!

– Uyamizning ham kuli ko'kka sovuriladi! – debdi xotini. – Lekin sen uyamiz xususida anavi pat kiyimlar hamda botqoqlik malikasiga qaraganda kam o'layapsan! O'zing ham o'shaning yoniga ketib qo'ya qol. Sen yaxshi ota bo'lmaiding! Bu haqda o'sha dastlab tuxum bosib o'tirgan vaqtlarimda aytganman! Hali qarab tur, bu shaddot qiz birontamizni otib qo'yishdan ham toymaydi! Axir u nima qilayotganini o'zi bilmaydi! Biz bo'lsak bu yerda unga qaraganda ko'proq yashaymiz, hech bo'lmasa shu tomonini o'ylagin! Zimmamizdag'i majburiyatni ham halol o'tayapmiz: bir yilda tegishli pat, tuxum, bitta bolani

beryapmiz. Hali sen meni oldingi yillardagiday yoki Misrdagiday pastga – hovlimga uchib tushadi, hamma bilan do'st-inoq bo'ladi, hech narsani o'ylamay tumshug'ini ko'za hamda qozonlarga tiqadi deb o'ylarsan? Yo'q, bu yerda, uyamda o'tirib anavi qizga g'ashim kelyapti! Senga ham! Uni gulkosada qoldiravermaysanmi, o'lib ketmasmidi!

– Tilingga qaraganda diling saxiyroq! – debdi laylak. – Seni o'zingdan ko'ra yaxshiroq bilaman!

Shunday debdi-yu, sakrab qanotlarini ikki marta og'ir qoqibdi, oyoqlarini orqaga uzatib, qanotlarini yelkanday ikki tomonga yozib yuksakka ko'tarilibdi. Quyosh nuri uning oppoq patlarida jilolanibdi, bo'yin va boshi oldinga cho'zilibdi. Ajoyib uchish!

– Erim tushmagur hozir ham hammadan chiroyli! – debdi urg'ochi laylak. – Biroq, bu gapimni unga aytmayman!

\* \* \*

Bu kuz viking uyiga ancha erta qaytibdi. U juda ko'p o'lja va asirlar olib kelibdi. Asirlar orasida qadimiy Shimol xudolarini rad etgan yoshgina xristian ruhoniy ham bor ekan. Keyingi paytlarda viking qasrining asosiy qismida ham Janub mamlakatlariga tarqalgan yangi din haqida gap aylanib qolibdi. Yangi din avliyo Angsariya sharofati bilan hatto Shimolda ham tarqay boshlabdi. Hatto Xelganing o'zi ham odamlarga bo'lgan muhabbat va ularni xalos etish uchun o'zini qurban qilgan xudolar haqidagi gaplarni eshitibdi. Bu gaplar qizning bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketaveribdi. «Muhabbat» degan so'z uning qalbiga faqat u baqa qiyofasiga kirib, qulflab qo'yilgan xonaning burchagiga qisilib o'tirgan paytlardagina yo'l topib kiribdi. Lekin vikingning xotini yakka-yu yagona, chinakam xudoning o'g'li haqidagi hikoya va rivoyatlarni berilib tinglabdi, bular uning qalbida yangi tuyg'ularni uyg'otibdi.

Uylariga qaytgan jangchilar o'yib, qimmatbaho toshlardan naqsh solingan va vasiyati faqat muhabbat bo'lgan xudoga atab qurilgan hashamatli ibodatxonalar haqida hikoya qilishibdi. Ular zo'r hunarmand yasagan, ichidan ajoyib muattar hid taralib turadigan ikkita vazmin oltin idish olib kelishibdi.

Bular mehrob oldida ibodat paytida xristianlarga buxo'r tutadigan, hech qachon qon sachramagan idishlar ekan. Ana shu mehroblarga vino va nonlar qonga hamda odamlarni, hatto tug'ilmagan avlodlarni qutqarish uchun jonini qurban qilgan Isoning tanasiga aylanib qolarkan.

Yosh ruhoniyning qo'l-oyoqlarini po'stloqdan eshilgan arqonlar bilan bog'lashibdi, qal'aning toshdan qurilgan chuqur yerto'lasiga qamab qo'yishibdi. U nihoyatda kelishgan yigit ekan! «Xuddi Baldur'ning o'zginasi!» – debdi vikingning xotini asirning og'ir ahvoldidan ta'sirlanib, Xelga bo'lsa uning tizzasi ostidan yo'g'on arqon o'tkazib, yovvoyi buqalarning dumiga bog'lanishini juda-juda xohlabdi.

– Men unga ikkita itni qo'yib yuborar edim: rosa maza qilib tishlashardil! Buqalar uni oldin o'rmon, botqoq orqali to'ppa-to'g'ri cho'lga olib chiqishardil! Maza bo'lardil! Orqasidan izma-iz borsang, undan ham yaxshi!

Biroq, viking asirni boshqacha usul bilan o'dirishga hozirlanibdi: ulug' xudolarni rad etgan va haqoratlagan xristianni ana shu xudolar uchun qurban qilmoqchi ekan. Muqaddas chakalakzordagi qurbanlik toshi ustida birinchi marotaba inson qoni to'kilishi lozim ekan.

Xelga xudo va xalq tasviriga qurbanlik qonini sachratish uchun ijozat so'rabdi, pichog'ini qayrab, yonidan chop-qillab o'tib ketayotgan judayam barvasta, qopog'on itning biqiniga shaxt bilan pichoq uribdi.

– Sinab ko'rdim-dal – debdi qiz, vikingning xotini esa yovvoyi, yovuz qizga tashvish bilan tikilibdi. Kechasi

<sup>1</sup> Baldur – Skandinaviya afsonalarida nur xudosи.

odatdagiday Xelganing qiyofasi o'zgarishi bilanoq uni ta'nali so'zlar bilan koyibdi, bu ta'na so'zlari og'zidan qanday chiqib ketganini o'zi ham bilmay qolibdi.

Badbashara, trollga o'xshash mudhish qiyofali baqa unga qayg'uli qo'yko'zlarini tikib turaveribdi, onasining har bir so'zini aqli odam singari tushunayotgandaymish.

– Sendan o'tgan alam haqida hech kimga, hatto erimga ham lom-mim demadim! – debdi vikingning xotini. – Senga shunchalik rahm qilaman deb o'zim ham o'ylamagandim! Ehtimol, onalik mehri beqiyosdir, ammo qalbing mehr nimaligini bilmaydil Ko'ngling o'zing bino bo'lgan sovuq balchiqqa o'xshaydi!

Bu so'zlar uning tanasini ruhi bilan bog'laydigan qandaydir ko'rinmas bir ipga ta'sir etganday badbashara jonivor titrab ketibdi; baqaning ko'zidan yirik tomchilar dumalab tushibdi.

– Seni sinaydigan vaqtlar ham keladil – davom etibdi vikingning xotini. – O'shanda mening boshimga ham katta kulfat tushadi! Oh, jajjigina paytingda ko'chaga chiqarib tashlasak bo'lmasmidi; tungi sovuq joningni olsa ham mayli edi!

Shu payt vikingning xotini achchiq-achchiq yig'labdi, qalbi g'azab va alamga to'lib yog'ochga ilingan, devor vazifasini o'tayotgan yirtqich hayvon terisidan tikilgan parda orqasiga o'tib ketibdi.

Baqa qunishib, burchakda yolg'iz o'tiraveribdi: sukunatni faqat uning og'ir, bo'g'iq xo'rsinishlarigina buzib turibdi: baqa qalbining to'rida iztirob ichida yangi hayot paydo bo'layotganday bo'libdi. To'satdan u eshik tomon yuribdi, biroz qulq solibdi, keyin yana yo'lida davom etib, ojiz panjalari bilan eshikning vazmin murvatiga tirmashibdi, uni sekin halqadan chiqaribdi. Qarasa, mehmonxonada tungi sham yonib turganmish; baqa uni olib tashqariga chiqibdi: kimningdir qudratli irodasi unga madad berayotgandaymish. Mana, u temir murvatni halqadan chiqarib, uxlab yotgan asirga yaqinlashibdi va uni sovuq, yopishqoq qo'li bilan turtibdi.

Asir uyg'onibdi, qarshisidagi badbashara hayvonni ko'rib, yovuz ruhning yo'ldan ozdiruvchi ko'lankasi oldida turganday qo'rquvdan titrab ketibdi. Lekin baqa uning qo'l-oyog'i bog'langan arqonlarni kesibdi, orqamdan yur, degan ishorani qilibdi.

Asir duo o'qibdi – yovuz ruh g'oyib bo'lmabdi, shunda u:

– Bu jonvorlarga oqilona munosabatda bo'lgan kishi tangri inoyatiga sazovordir. Parvardigor qiyomat kuni bundaylarga karam qilgusidir!.. – debdi. Kimsan o'zing! Nahotki, hayvon qiyofasidagi mavjudot qalbida shuncha rahm-shafqat, achinish bo'lsa?

Baqa yana bosh qimirlatibdi. Asirni torgina yo'lakdan devoriga gilamlar qoqilgan otxonaga boshlab kiribdi va otlardan birini ko'rsatibdi. Asir otga minibdi. Baqa ham uning oldiga sakrab chiqib, otning yolidan mahkam ushlab olibdi. Asir baqaning maqsadiga tushunibdi va bir o'zi hech topa olmaydigan aylanma yo'nga chiqib, ot qo'yibdi.

Ko'p o'tmay baqaning badbasharaligini ham unutibdi, bu maxluq xudoning inoyati deb o'ylabdi. U to'xtovsiz kalima keltirib, duo o'qiyveribdi. Baqa bu duolardanmi yoki tong salqinidanmi titrab ketibdi. Qalbida qandaydir tuyg'ular tug'yon uribdi. To'satdan u ot ustida tik turib, otni to'xtatmoqchi va pastga sakramoqchi bo'libdi. Xristian baqani mahkam ushlab olibdi va yovuz sehr-jodu ustidan g'olib chiqish niyatida baland ovoz bilan duo o'qishda davom etibdi. Ot yurishini tezlatibdi, tong yorisha boshlabdi. Mana, dastlabki quyosh tig'i bulut bag'rini yorib chiqibdi. O'sha lahzadayoq mo'jiza yuz beribdi: baqa jin qalbli yosh, chiroyli qizga aylanib qolibdi. Yosh xristian bag'ridagi go'zal qizni ko'rib qo'rqib ketibdi, otni to'xtatib, yerga sakrab tushibdi. Ruhoniy, qarshimda yangi jodu paydo bo'ldi, deb o'ylabdi. Lekin Xelga ham ko'z ochib-yumguncha yerga sakrab tushibdi: uning kalta ko'ylagi tizzasiga ham yetmasmish; qiz yonidan pichoq chiqarib, hayratdan qotib qolgan xristianga tashlanibdi.

- To'xtal - debdi qiz. - To'xtab tur, pichoqni bu yog'ingdan suqib, u yog'ingdan chiqaraman. Bo'zday oqarib ketganini qara-ya buning! Kull Ko'sal!

Qiz bilan asir o'rtaida olishuv boshlanib ketibdi, lekin yosh xristianga ko'rinmas kuchlar yordam berayotganday bo'libdi. U qizning qo'llini qattiq ezibdi, yo'l chetidagi qari eman daraxti qizni batamom yengishga ko'maklashibdi: Xelganing oyoqlari yerdan chiqib turgan dub ildizlariga kirib qolibdi. Xristian uni mahkam ushlaganicha o'sha joydag'i buloq oldiga olib boribdi. Qizning ko'krak va yuzlariga buloq suvini sepib, unga mahkam yopishib olgan jinlarga qarshi afsun o'qibdi, boshidan but aylantiribdi, biroq kishining dilini e'tiqod bilan yuvmay turib, suv bilan cho'qintirishning o'zi kifoya qilmas ekan-da.

Harholda xristianning sirli harakati va so'zlarida odamning kuchidan zo'r qandaydir qudrat bor ekan, ana shu qudrat Xelgani yengibdi. U qo'llarini tushiribdi, yosh yigitga hayajondan bo'zday oqarib ajablanib qarabdi. Yigit uning ko'ziga sirli bilimlarni suv qilib ichgan qudratli afsungar bo'lib ko'rinibdi. Axir u boshi ustida sirli ishoralarni chizib, afsun o'qibdi-dal Agar uning boshida o'tkir bolta yoki pichoqni aylantirishganda, miq etmas ekan-u, negadir yigit peshonasi va ko'ksida xoch belgisini chizganda qiz ko'zlarini yumib olibdi. Boshini quyi solib, o'rgatilgan qushday yuvosh bo'lib qolibdi.

Shunda yigit uning kecha tunda ko'rsatgan sevgi jasorati haqida, badbashara baqa qiyofasida kelib kishanlardan ozod qilgani, zindon qorong'iligidan yorug'lik va hayot sari olib chiqqani haqida qisqacha gapirib beribdi.

- Lekin, sen men bog'langan arqonlardan ham pishiqroq arqon bilan bog'langansan, endi ana shu arqonlarni yechib, seni yorug'lik va hayot sari yetaklab chiqish mening navbatim, - debdi yigit. Qizni hayot sari, Xedebadagi avliyo Ansgareyga olib borajagini, o'sha xristian shahrida undagi butun sehr-jodularni olib

tashlajagini aytibdi. Garchi qiz yuvosh bo'lib qolgan bo'lsada, uni otga mingashtirib olib ketishga jur'at etolmabdi.

- Sen old tomonimga emas, orqamga mingash! Husning yovuz kuchga ega, undan qo'rqaman! Biroq, Isoning qo'llab-quvvatlashi tufayli albatta g'olib chiqaman.

Shu payt u tiz cho'kib, astoydil duo o'qibdi, o'rmon sekin muqaddas ibodatxonaga aylanganday bo'libdi: qushlar cherkovning yangi namozxonlariday sayrab yuborishibdi, yovvoyi yalpiz buxo'r o'rnnini bosib, xushbo'y hidlar taratibdi. Quyidagi muqaddas so'zlar baland jaranglabdi:

«Zulmatda o'tirgan xalq yorug'likka chiqdi, o'lim soyasi mamlakatida o'tiruvchilarga nur taraldi».

Shunday qilib, ruhoniy qizga ma'naviy g'am-g'uissa tabiatda eng yuksak narsaga intilish haqida gapira boshlabdi, o'ynoqi ot esa bir joyda jimgina turib maymunjonning yaprog'ini chimchilab yeyishga tushibdi, sersuv, sershira mevalar go'yo Xelganining chanqog'ini qondirmoqchiday uning qo'lliga uzilib tusha boshlabdi.

Xristian qizni otning sag'risiga o'tqizayotganda qarshilik ko'rsatmabdi; Xelga tush ko'rayotganday bo'libdi. Xristian ikkita novdan xoch shaklida bog'lab baland ko'tarib olibdi. So'ng ular tobora qalinlashib yo'llari torayib, ba'zi joylarda esa butunlay yo'qolib torayib, ba'zi joylarda esa butunlay yo'qolib borayotgan o'rmon bo'ylab yo'lda davom etishibdi. Tikanli butalar ularning yo'liga g'ov bo'libdi, bunday joylardan aylanib o'tishga to'g'ri kelibdi. Buloq suvi oqmay, bir joyda tek turadigan botqoqqa aylanibdi, uni ham aylanib o'tishga to'g'ri kelibdi. O'rmon chakalakzorlaridan kishining ko'nglini xushnud etadigan, unga kuch-quvvat bag'ishlaydigan va yashartiradigan shabada esibdi. Xristianning zulmat qo'ynidan yorug'luk va hayot sari yetaklab chiqishga ruhlantiruvchi so'zları, kichkina qalbi ishonch va muhabbat bilan tepayotgan qizning ham ma'sum ko'ngliga orom bag'ishlabdi, uni mustahkamlabdi.

Yomg'ir tomchisi qattiq toshni ham o'yib tashlaydi, dengiz to'lqinlari qoyadan qulab tushgan xarsangtoshni

o'tkirlashtiradi yo dum-dumaloq qilib qo'yadi, deyishadi. Xelganing ruhiga sachragan ilohiy shafqat shabnami tomchilari ham uning qattiq qobig'ini teshib o'tib, anchagina muloyimlashtiribdi. Biroq, Xelga o'z qalbida nimalar bo'layotganidan bexabar ekan: axir, yerdan endigina bosh ko'targan o'simlik samarali shabnamidan qonib ichib, quyoshning iliq nurlaridan to'yib emarkan, o'ziga berilgan hayot urug'i va bo'lajak mevasi haqida o'ylamaydi-da.

Ma'nosi bir necha yillardan keyin oydinlashadigan, qulog'iga chalingan, lekin ma'nosini uqmagan ona allasining ayrim so'zлari ko'ngilga bilinmay ornashib olganday xristianning ham hayotbaxsh so'zлari Xelganing qalbiga ornasha boshlabdi.

Ular ormondan cho'lg'a chiqishibdi, so'ng qalin ormonzorga kirishibdi, kechga yaqin birdan qaroqchilarga duch kelib qolishibdi.

– Bunchalik go'zal qizni qayerdan ilashtirding? – deb baqirishibdi ular. Otni to'xtatib, yigit bilan qizni pastga tushirishibdi; ular ko'pchilik ekan-da.

Xristianda o'zini himoya qilish uchun Xelga bilan olishib undan tortib olgan pichog'i bor ekan, xolos. Qaroqchilardan biri unga bolta bilan hamla qilibdi, lekin yigit chap berib qolibdi, bo'lmasa turgan joyida til tortmay o'larkan. Bolta tig'i otning bo'yniga tegib, anchagina joygacha qirqib yuboribdi; sharillab qon oqibdi, jonivor yerga qulabdi. Shu payt Xelga qattiq uyqudan uyg'ongan kishiday, jon berayotgan otga mahkam yopishibdi. Xristian qizga qarab kelayotgan qaroqchilarning yo'llini to'sibdi, lekin ulardan biri oybolta bilan uning boshiga tushiribdi, qon va miya har tomonga sachrab ketibdi, yosh ruhoni o'sha zahotiyon jon beribdi.

Qaroqchilar Xelganing oppoq qo'llaridan mahkam ushlab olishibdi, biroq shu payt quyosh botibdi, u esa yana badbashara baqaga aylanibdi. Uning oq-ko'kish og'zi qulog'igacha yetibdi, qo'l va oyoqlari ingichka, shilimshiq bo'lib qolibdi, qo'l panjalari orasida esa

yelpig'ichga o'xshash pardalar paydo bo'libdi. Qaroqchilarni dahshat bosib, uni qo'yib yuborishibdi. Maxluq ular qarshisida ozgina turibdi-da, baland sakrab, o'rmon chakalakzorlari ichida ko'zdan g'oyib bo'libdi. Qaroqchilar Loke<sup>2</sup> biz bilan hazillashayapti deb o'ylashib, qochib ketishibdi.

\* \* \*

To'linoy nurlari atrofni yoritib yuboribdi. Badbashara baqa butalar orasidan chiqibdi. U xristian bilan ot jasadi oldida to'xtab, ko'zlariga jiqla yosh olib, ularga uzoq tikilibdi; ko'ksidan go'dakning asta hiqillab yig'lashiga o'xshagan ovoz otilib chiqibdi. So'ng u o'zini goh unga, goh bunga tashlabdi, o'liklarga pardali panjalari bilan hovuch-hovuch suv sepibdi. Biroq, o'likni tiriltirib bo'larmidil Buni o'zi ham bilar ekan. Hademay yovvoyi yirtqichlar kelib, ularni burdalab tashlamasa go'rga edi! Yo'q, bunga yo'l qo'ymayman, debdi. Ular uchun qo'lidan kelganicha qabr kavlaydigan bo'libdi. Qo'lida faqat yo'g'on buta shoxidan boshqa hech narsa yo'q ekan. Pardali panjalari esa yerni yaxshi kavlay olmas ekan. U shunchalik berilib ishlabdiki, panja pardalari yirtilib ketibdi; qo'lidan qon oqa boshlabdi. Shundagina qabr kavlay olmasligiga aqli yetibdi: u yana hovuchlab suv olib kelib, o'likning yuzini yuvibdi. Keyin jasadning ustiga yangi uzilgan ko'm-ko'k yaproqlar tashlabdi; ustidan shox bosibdi. Uning ustidan yana yaproq tashlabdi. Keyin uning ustidan katta-katta toshlar bostirib, oralariga yo'sin tiqibdi. Bunday qabrdagi jasad bexatar yotadi, deb o'ylabdi. Ana shu og'ir ishlar bilan tun o'tib ketibdi, quyosh chiqibdi. Xelga yana go'zal qizga aylanibdi, biroq uning qollarini qizil qonga bo'yalganmish. Qizning gul yuzlaridan umrida ilk da'fa ko'zyoshlari oqa boshlabdi.

---

<sup>2</sup> Loke – Skandinaviya afsonalaridagi makr va hiylagarlik xudosisi.

Qizga aylanish oldidan uning har ikkala fe'l-atvori omixtalanib ketganday bo'libdi. Dahshatli tushdan cho'chib uyg'onganday a'zoyi badani titrab, atrofga olazarak bo'lib boqarmish. Keyin tik o'sgan qora qayin daraxti shoxlariga tirmashib, mushukday epchil harakat qilib, daraxtning tepasiga chiqib ketibdi. U daraxtdagi shoxga mahkam yopishib, kimsasiz o'rmonda qo'rqoq olmaxonday o'tiraveribdi. Kimsasiz o'rmon! Ha, darhaqiqat, bu yer kimsasiz ekan, lekin havoda goh raqsga tushib, goh bir-birlari bilan olishib kapalaklar uchib yurganmish: chumolilar, mayda hasharotlar to'lib-toshib yotganmish; osmonda son-sanoqsiz chivinlar, g'ing'ilab ashula aytadigan pashshalar, tugmacha qo'ng'izlar va boshqa qanotli mavjudotlar uchib yurishganmish; yomg'ir chuvalchangi nam tuproqdan yer betiga chiqibdi; ko'rsichqonlar tuproq irg'ita boshlashibdi – xullas, bu yerdagi kimsasizlikni tinch, osoyishtalik degan ma'noda fahmlash kerak. O'rmonda yashovchilarning hech qaysisi Xelgaga e'tibor bermabdi, faqat u o'tirgan daraxt ustidan shovqin-suron bilan uchib o'tayotgan hakkalar unga qiziqib qolishibdi! Ular shoxdan shoxga sakrab, qizga ancha yaqinlashib kelishibdi – ular ana shunaqa jasur va juda qiziquvchan ekanda! Biroq qiz qarashi bilanoq hakkalar har yoqqa uchib ketishibdi; ular bu narsaning nimaligini bilishmabdi, umuman buni Xelganing o'zi ham durustroq tushunolmabdi!

Kun botish oldidan baqaga aylanib qolishi yaqinlashayotganini sezib, Xelga daraxtdan tushibdi; quyoshning so'nggi nuri ham so'nibdi, u yana qo'lining panja pardalari yirtilgan, qunishgan baqa qiyofasiga kiribdi. Lekin badbashara maxluqning ko'zlari go'zal Xelganing ko'zlaridan ham jozibaliroq bo'lib qolganmish. Bu ma'sum ko'zlarda chuqur his etadigan ruh va insoniy qalb aksi namoyon bo'libdi; bu ko'zalardan tinmay yosh to'kib biroz yengil tortibdi.

Qabr oldida xristian yasagan but hali yotgan ekan. Xelga uni qo'liga olib, o'zicha qabrga qo'yilgan toshlar

o'rtasiga qo'yimoqchi bo'libdi. Qabr tagida yotgan marhumni eslaganida Xelganing ko'zidan yana duv-duv yoshlari oqibdi. Qalbining eng tubidan chiqqan qandaydir da'vat kuchi bilan qabr atrofiga but belgilarini chizmoqchi bo'libdi – shunday qilsam ajoyib ihota hosil bo'lardi, deb o'yabdi. U ikkala qo'llab dastlabki butni chizishi bilanoq panjalari orasidagi parda dabdalasi chiqqan qo'lqopday yerga ko'chib tushibdi. U qo'lini buloq suvida yuvibdi, oppoq, chiroyli qo'llariga ko'zi tushib, hayron bo'libdi, xuddi o'shanday belgini o'zi bilan qabr o'tasida havoda chizibdi, lablari titrabdi, og'zidan yo'lda marhum bir necha marta takrorlagan Iso payg'ambarning nomi chiqib ketibdi.

O'sha zahotiyoy Xelganing egnidagi baqa choponi g'oyib bo'libdi, u yana yoshgina go'zal qizga aylanib qolibdi; lekin boshi horg'in egilibdi, butun vujudi hordiq talab bo'lib turganmish, shunday qilib, u uxbab qolibdi.

Biroq, u uzoq uxlamabdi; yarim tunga borib uyg'onibdi: qarasa, o'dirilgan ot qarshisida tirik, nur sochib turganmish, ko'zlaridan o't chaqnayotganmish; bo'ynidagi yarasidan ham nur taralayotganmish. Otning yonida esa vikingning xotini aytganday, «Baldurdan ham go'zalroq» o'dirilgan xristian turganmish, u ham nurga burkangan emish.

Uning ma'sum ko'zlarini kishi qalbiga bermalol kirib bora oladiganadolatli qozi ko'zlariday sinovchan, jiddiy nazar tashlab turganmish. Xelga titrab ketibdi, qiyomat kunidagiday xotirasi birdan jonlanibdi. Unga qilingan har bir xayrli ish, u eshitgan har bir shirin so'z xotirasida bir zum jonlanib, shu kungacha sinovda bo'lganmish, tirik ruh va o'lik botqoqning bolasini faqat mehr-muhabbat qo'llab-quvvatlaganini payqabdi. Bu o'rinda u nuqul ichki kayfiyati ovoziga quloq solganini, o'zi uchun hech narsa qilmaganini, unga berilgan hamma narsani u o'zi emas, balki allaqanday oliy irodaning rahnamoligida ro'yobga chiqarganini bilibdi. O'zining ojizligini yaxshi anglab nomus o'tida qovirilib, qalbining to'ridan o'tin olgan, mehr-

muhabbatiga sazovor bo'lgan odam oldida egilib, ta'zim bajo keltiribdi. Shu lahzada u o'zida chaqmoqday yorqin ilohiy uchqun, avliyo ruhining uchquni paydo bo'lganini sezibdi.

- Botqoqlik qizil - debdi xristian, - botqoqdan, tuproqdan yaralgansan, tuproqdan bosh ko'taryapsan. Senga hayot ato qilgan quyosh nuri o'z manbai bilan aylanib qo'shilishga intilmoxda, lekin uning manbai quyosh emas, xudoning o'zil Jahonda hech bir jon o'lmaydi, lekin yerdagi hayot asta davom etaveradi, abadiylikning yagona lahzasi bor, xolos. Men huzuringga marhumlar maskanidan keldim; qachonlardir sen ham katta vodiy orqali Shafqat va Kamolot maskani bo'lgan munavvar tog' qishloqlariga safar qilasan. Endi seni boshlab boray, faqat cho'qintirish uchun Xedebyaga eltmayman. Avvalo chuqur botqoq ustidagi pardani yirtishing, hayotingning tirik ildizini va beshagini ozod qilishing, shu bilan o'z burchingni ado etishing kerak. Shundan keyingina imon keltirishing mumkin.

So'ng qizni otga mingashtirib, uning qo'liga vikingning uyida ko'rgan va unga juda o'xshagan buxo'r tutatadigan oltin idish beribdi; idishdan xushbo'y isiriq hidi taralibdi. Kristianning boshidagi yara tillaqosh singari nur sochibdi. U qabr ustidagi butni olib, boshi uzra baland ko'taribdi, ular shovillagan o'rmonzorlar, qahramonlar dafn etilgan maqbaralar, qabr toshlari o'rniga ularning otliq turgan haykallari qo'yilgan joylar ustidan uchib o'tishibdi. Qudratli soyalar ko'tarilib harakatga kelibdi va maqbaralar ustida to'xtabdi; oy shu'lesi qahramonlar peshanasini bezab turgan oltin chambaraklarda o'ynabdi; kamzullari shamolda hilpirabdi. Xazinani qo'riqlab yotgan ajdar boshini ko'tarib, samo sayohatchilariga nazar tashlabdi. Ularga tepaliklar, omochda tortilgan egatlardagi past bo'yli o'simliklar moviy, qizil va yashil rangda tovlanib ko'rinishdi, go'yo qog'oz kuyib bo'lgandan keyin qo'r ustida yuzlarcha uchqunlar o'tayotganga o'xsharmish.

Ular o'rmonlar, cho'llar, ko'llar va botqoqliklar ustidan uchib o'tib Yovuz botqoqlikka yetib kelishibdi-da, uning ustida uchib yurishibdi. Xristian oltinday tovlanayotgan xochni baland ko'taribdi. Hech to'xtamasdan muqaddas duolarni o'qiyveribdi; Xelga ham onasining sayrashiga taqlid qilgan qush bolasiday duolarni takrorlab, buxo'r yonib turgan oltin idishni silkitaveribdi. Idishdan shunchalik kuchli, o'tkir, mo'jizakor isiriq hidi taralibdiki, qiyoq va qamishlar gullab, botqoqlik tubidan hayot pushtiga ega bo'lgan barcha o'simlik poyalari ko'm-ko'k bo'lib o'sib chiqibdi, barg yozibdi, Xudoi taoloning nuridan bahramand bo'libdi. Botqoqlik ustini nilufar gullarning hashamatli, ko'rkam gilami qoplabdi, ana shu gul gilami ustida husnda tengi yo'q yoshgina ayol dong qotib uxbab yotganmish. Xelga botqoqlik suvida o'z aksini ko'rganday bo'libdi, lekin bu Xelga emas, balki uning onasi, botqoqlik shohining xotini, Misr malikasi ekan.

Xristian uyqudag'i go'zalga, otga mining, deb amr qilibdi, ayol muallaq turgan kafandek og'ir otga asta o'tiribdi, xristian uning boshidan xochni aylantiribdi. Shunda ruh yana o'ziga kelibdi. Uchovlari qattiq yerga qo'nishibdi.

Vikingning hovlisidagi xo'roz qichqirib yuboribdi, xayol shamol haydagan tumanday tarqalibdi. Ona-bola bir-biri bilan yuzma-yuz qolishibdi.

- Chuqur suv ostida o'zimni ko'r mayotganmikanman?  
- debdi onasi.

- Bu suv oynasida ko'r inayotgan aksim emasmikan-a?  
- debdi qizi.

Ular bir-birlariga yaqinlashib, mahkam quchoqlashibdi. Onasining yuragi qattiq ura boshlabdi. U buning sababini tushunibdi.

- Bolaginam, qalbimning guli, suv tubidan o'sib chiqqan nilufarim!

U qizini yana quchoqlab ho'ng-ho'ng yig'labdi; bu ko'zyoshlar Xelgani hayot va muhabbatga qaytargan yangi cho'qintirish bo'libdi.

— Men botqoqqa oqqush kiyimida uchib keldim, shu yerda uni yechdim! — hikoyasini boshlabdi onasi. — Tubi yo'q yerga oyoq bosib, botqoqlikka botib ketdim. Bir zumda boshim ham ko'tinmay qoldi. Ko'p o'tmay toza suv oqib kelayotganini, allaqanday noma'lum bir kuch meni tobora pastga tortib ketayotganini payqab qoldim; qovog'im og'irlashib, uqlab qolibman... Tushimda yana Misr ehromi ichida turganmishman. Qarshimda botqoq ustida meni dahshatga solgan zirk daraxtining to'ngagi tebranib turganmish. Uning po'stloqlaridagi yoriqlarga ko'zim tushdi, o'sha yoriqlar nurlanib, mixxatlarga aylandi — ko'z oldimda mo'miyolangan murda paydo bo'ldi. Uning ustki qobig'i to'kilib, ichidagi ming yildan beri o'lik holda yotgan qumg'onday qop-qora, etlari semiz o'rmon qurtiday osilgan, botqoq loyidan ham qora qadimiylardan biri chiqdi. Qarshimda botqoqlik shohimi yo mo'miyolangan murdamni ajrata olmay qoldim. U qo'llari bilan meni mahkam quchoqlab oldi, shu payt joni chiqib ketayotganday bo'ldi. Ko'ksimni issiq bir narsa ilitayotgandek o'zinga keldim: ko'kragimda qanotlarini qoqib sayrab turgan qushchani ko'rdim. Keyin u ko'ksimdan yuqoriga, og'ir va timqora shipga qarab uchdi, lekin uni menga uzun yam-yashil bog'ich bog'lab turardi. Men uning «Erkinlikka, otamning yoniga» deb sayraganini fahmladim. Shu payt otam, serquyosh yurtim, kechirgan umrim, mehr-u muhabbatimni xotirladim. Bog'ichni yechib, qushchani otasining yoniga qo'yib yubordim! O'sha lahzadan buyon hech qanaqa tush ko'rmadim, manovi ohang va xushbo'y hidlar meni botqoq tubidan chiqargunga qadar uyg'otib bo'lmaydigan uyquda bo'ldim!..

Qushchani ona ko'ksiga bog'lab turgan yam-yashil bog'ich hozir qayerda hilpirab turibdi ekan! Uni faqat laylakkina ko'rgan ekan, yam-yashil o'simlik poyasi bog'ichi uning tuguni, chiroyli guli, jajji qizchaning beshigi bo'lgan ekan. Endilikda o'sha qizcha go'zal qizga aylangan ekan, shu topda u yana onasining ko'ksiga boshini qo'yib turgan ekan.

Ular bir-birlarini quchoqlashib, botqoqlik chetida turishganda ustlarida laylak aylana boshlabdi. U darhol orqaga – uyasiga qaytib borib, anchadan beri saqlab yurgan oqqush kiyimlarini olib kelibdi va ona-bola oldiga tashlabdi. Ular kiyimlarni darrov kiyishib, oqqush bo'lib, osmoni falakka ko'tarilishibdi.

– Endi gaplashib olaylik! – debdi laylak – Garchi qushlarning tumshuqlari har xil bo'sa-da, bir-birimizni tushunamiz! Shu bugun kechasi kelganlaring juda soz bo'ldi: ertaga biz bu yerda bo'lmas edik. Ertalab men ham, xotinim ham, bolalarim – hammamiz janubga uchib ketamiz! Sizning Nil sohillaringizning eski qadrdoni bo'lib qolganman! Mana, xotinim ham yonimda, uning qalbi tilidan ham yaxshiroq! U hamisha malika kulfatdan xalos bo'ladi, deb aytardi. Men bolalarim bilan bu yoqqa oqqush kiyimlarini olib keldik! Qisqasi, juda xursandman! Shu yerda bo'lganimdan juda baxtiyorman! Tong-saharda hammamiz janubga uchamiz! Biz oldinroqda uchamiz, faqat orqada qolib ketmanglar, yo'ldan adashib qolasizlar! Sizlarga ko'z-quloq bo'lib boramiz.

– Men bo'sa yurtimga nilufar gulini olib boryapman! – debdi Misr malikasi. – U yonginamda oqqush kiyimida uchib boradi! Yuragimning guli o'zim bilan, orzumga yetdim! Endi uygal!

Biroq, Xelga vikingning saxovatli xotini, tutingan onasi bilan diydor ko'rishmaguncha Daniyani tark eta olmasligini aytibdi. Xelga uning hamma yaxshiliklarini, mehr-u muhabbatga to'la har bir so'zini, asrandi qizi tufayli to'kkan har bir dona ko'zyoshlarini xotirlabdi, shu lahzada bu onasidan ko'ra bu onasini ko'proq sevayotganini his etibdi.

– Biz ham vikingning qasriga uchib borishimiz kerak! – debdi laylak. – U yerda meni xotinim, bolalarim kutishmoqda! Sizlarni ko'rib ko'zlari qinidan chiqquday quvonishadi-da, tumshuqlarini ham rosa taqillatishadi! Xotinim ko'p gapirmasa kerak! U juda kansuxan, fikrini oqilona, qisqa bayon qiladi, fikrlashi undan ham ziyoda!

Hozir kelganimizni ma'lum qilib, tumshug'imni taqillataman!

Shunday deb, u tumshug'ini rosa taqillatibdi. Hademay ular viking qasriga yetib borishibdi.

Qasrdagilar hammasi qattiq uyquda ekan. Vikingning xotinini ham uyqu elta boshlabdi. Lekin qo'rqinch va tashvish anchagacha unga uyqu bermabdi. Asir xristian bilan Xelganing yo'qolganiga ham uch kun bo'lgan ekan, ehtimol, asirning qochib ketishiga qiz yordam bergen bo'sha kerak deb o'yabdi. Chunki otxonada faqat uning oti yo'q ekan. Biroq, bu qanday sodir bo'ldi ekan? Vikingning xotini beixtiyor Iso payg'ambar va unga e'tiqod qo'yan kishilarning ajoyib karomatlar ko'rsata olishga qodir ekanligini eslabdi. O'ngida xayolidan nari ketmagan bu o'ylar tushida ham jonlanibdi. Tushida ko'rsa ustida Xelgani o'yab, avvalgiday chuqur xayolga berilib o'tirgan mish. Hammayoqni zulmat qoplab, bo'ron yaqinlashayotganmi. Har ikki tomonlar – Shimoliy dengiz va Kattegat tomonidan qahrli to'lqinning dahshatli ovozi eshitilayotgan mish. Dengizning tubida butun yerni egallab kulcha bo'lib yotgan juda katta bahaybat ilon jon talvasasidamish. Eskilarning gapiga ko'ra, qiyomat boshlanib, barcha xudolar ham qazo qiladigan rannar - eng so'nggi dahshatli tun yaqinlashayotgan mish. Mana, burg'uning jarangdor tovushi eshitilibdi, kamalak ustidan yarqiroqsovutlar kiygan otliq xudolar so'nggi jangga jo'nashibdi! Ularning oldida qanotli valxiriylar uchibdi, orqalaridan esa marhum qahramonlarning poyezdlari jo'nabdi. Osmon shamol shafagi nuriga to'libdi, lekin zulmat yengarmish. Dahshatli daqiqalar yaqinlashayotgan mish.

Qo'rquvdan yaproqday qaltirayotgan vikingning xotini yonida badbashara baqa qiyofasida Xelga o'tirgan mish, u dahshatdan titrab, unga yopishayotgan mish. U baqani tizzasiga olib badbashara bo'sha-da, mehr bilan bag'riga bosibdi. Osmon qilich va gurzilarning ovozidan larzag'a kelibdi. O'qlar hushtak chalib, osmondan do'lday

yog'ilibdi. Osmon qulab tushadigan, yulduzlar to'kiladigan, hammasi Surtur<sup>3</sup> alangasida yonib bitadigan payt kelibdi.

Biroq, vikingning xotini bulardan keyin yangi osmon va yer paydo bo'lishini, ilgarigi badjahl dengiz to'lqinlari o'ynoqlab oqqan sariq qumli o'zanda bug'doyzorlar chay-qalishini bilarkan. U allaqanday yangi xudo taxtga o'tirishini, uning yoniga soya podsholigidan ozod bo'lgan ma'sum, oyday ravshan Baldur ko'tarilishini ham bilarkan. To'satdan qarhisida o'shani ko'rib qolibdi. Uni bir qarashdayoq tanibdi – u asir xristian ekan.

– Iso payg'ambar! – debdi u va uning nomini takrorlab turib xunuk bolasi – baqani o'pibdi. O'sha zahoti baqanining to'ni egnidan tushibdi, qarhisida hamma vaqtdagidek go'zal, lekin o'ta ma'sum, ko'zlaridan mehriyo yog'ilib turgan Xelga namoyon bo'libdi! Xelga og'ir sinov kunlarida asrandi qiziga ko'rsatgan mehr-oqibatlari uchun, ko'nglida ezgu tuyg'ular va fikrlar uyg'otgani, Isoning nomini aytgani uchun minnatdorlik izhor qilganday ayolning qo'llarini o'pibdi. Xelga ham Isoning nomini takrorlabdi, to'satdan u osmonga oqqush bo'lib ko'tarilibdi: oq qanoti yozilib, ovozi hammayoqni tutibdi, osmonga bir gala qush ko'tarilganday bo'libdi.

Xuddi shu payt vikingning xotini uyg'onib ketibdi. Chindan ham hovlidan qushlarning qanot qoqqani eshitilibdi. U laylaklarning uchib ketish payti kelganini, bu shovqin o'shalarniki ekanini payqabdi. Laylaklarga bir nazar tashlab xayrplashgisi kelibdi. O'midan qo'zg'alib, darchani ochib yuboribdi. Qasrning qo'shimcha binolari tomidagi yuzlarcha laylaklarga ko'zi tushibdi. Baland daraxtlar ustida esa boshqa laylaklar ham gala-gala bo'lib uchishayotganmish; tutingan onasini qo'rqtigan go'zal Xelga hamisha o'tadigan deraza ro'parasidagi quduq chetida ma'no to'la ko'zlarini unga tikib ikkita oqqush

<sup>3</sup> Surtur – Skandinaviya afsonalarida zulmat podshosi.

qo'nib turganmish. O'zida chuqur taassurot qoldirgan hozirgi tushini o'ngida ko'rayotganday bo'libdi. U oqqush qiyofasidagi Xelgani, xristianni xotirlabdi, sevinchdan yuragi qinidan chiqayozibdi.

Oqqushlar qanot qoqishibdi, unga ta'zim qilganday bo'yinlarini egishibdi, ayol esa bunga javoban ularga qo'lini uzatibdi, yosh to'la ko'zi bilan o'ychan kulimsirabdi.

Laylaklar qanotlarini shovqin bilan qoqib, tumshuqlarini qaqrilatib janubga uchish uchun osmonga ko'tarilishibdi.

– Anovi oqqushlarni kutib o'tirmaymiz! – debdi laylakning xotini. – Biz bilan birga uchishadigan ekan, imillashmasin! Loyxo'raklar to'planguncha bu yerda kutib o'tirolmaymiz! Qizilto'shlar yoki boshqa qushlarning uchishiga qaraganda bizning oila bo'lib uchishimiz yarashadigan ish: ularning erlari o'z holiga, xotinlari o'z holiga uchishadi! Bu katta beadabgarchilik! Oqqushlar-chi, ularning uchishi ham uchish bo'dimi?

– Hamma o'z bilganicha uchadi! – debdi laylak xotiniga.  
– Oqqushlar qiyshi qiziq bo'ylab, turnalar uch burchak bo'lib, loyxo'raklar ilon izi bo'lib uchishadi!

– Iltimos, hozir ilonlarni esga solma! – debdi xotini. – Bolalarimizning ishtahasi ochilib ketadi, bu yerda ularni nima bilan boqamiz?

\* \* \*

– Eshitib yurganim baland tog'lar ana-ku! – debdi oqqush qiyofasida uchib ketayotgan Xelga.

– Yo'q, bular tog' emas, ostimizda qora bulutlar suzib yuribdi! – deb e'tiroz bildiribdi onasi.

– Anavi yuksaklikdagi oq bulutlar-chi? – so'rabdi qizi.

– Ular hamisha qor bilan qoplanib yotadigan tog'lar! – javob qaytaribdi onasi. Ular Alp tog'laridan oshib o'tib, O'rtayer dengizi tomon uchishda davom etishibdi.

\* \* \*

– Afrika! Misr! – sevinganidan qichqirib yuboribdi Nil sohilining qizi yuqorida o‘z yurtining sarg‘ish egri-bugri sohil chizig‘ini ko‘rib.

Laylaklar ham sohilni ko‘rishib, uchishni tezlatishibdi.

– Mana, Nil balchig‘i hamda sirg‘anchiq baqalarning ham hidi kelib qoldi! – debdi laylakning xotini bolalariga: – Voybo‘y, qornim tatalab ketyapti! Ularning qanchalik mazali boliшini o‘zlarинг yeb bilasizlar: iblis, marabu hamda turnalarni ko‘rasizlar. Ular ham bizning toifamizdan, biroq bizchalik chiroyli emas. Lekin judayam kerilishadi! Ayniqsa, iblislarning tumshug‘i osmonda, ularni misrliklar taltaytirib qo‘yishgan; ular ibislarning ichiga xushbo‘y o‘т-o‘ланларни tiqib mo‘miyo qilishadi. Mening ichimga tirik baqalar tiqishsa jon xudo derdim! Buning mazaligini o‘zingiz ham bilasiz! O‘lib muzeyga tushgandan ko‘ra, tirik va to‘q yurgan afzall! Mening fikrim shunaqa, bu juda to‘g‘ri fikr!

– Mana, laylaklar ham kelibdi! – deyishibdi. Nil sohilidagi qasr egalari. Usti ochiq xonada yumshoq o‘rinda, qoplon terisiga burkanib podsho yotganmish. U hali ham na tirikka, na o‘likka o‘xsharmish, shimolning teran botqog‘ida o‘sgan shifobaxsh nilufar gulni orziqib kutayotganmish. Qarindosh-urug‘lari va xizmatkorlari uni qurshab olishganmish.

To‘satdan bemor yotgan xonaga laylaklar bilan birga kelgan ikkita chiroyli oqqush uchib kiribdi. Ular egnilaridagi oqqush kiyimlarini yechib tashlashibdi, yerda turganlar bir-birlariga nihoyatda o‘xshash ikki go‘zalni ko‘rishibdi. Ular asta-sekin rangida qoni qolmagan, eti suyagiga yopishib ketgan cholga yaqinlashishibdi, uzun sochlarni orqaga tashlashibdi. Xelga bobosiga engashibdi, o‘sha zahotiyoq cholning yuziga qizil yuguribdi, ko‘zlari charaqlab ketibdi, qotib qolgan tanasida hayot jo‘sh ura boshlabdi. Chol o‘rnidan yashargan, sog‘lom, tetik bo‘lib turibdi! Qizi va nabirasi uzoq davom etgan uyqudan so‘ng ertalabki salom-alik qilganday, uning qo‘lini ushlashibdi.

Saroyda boshlangan shodiyonani aytmaysizmi? Laylaklarning uyalarida ham xursandchilik bo'libdi, chunki yeganlari oldida, yemaganlari ketida bo'lib, baqalar ham nihoyatda serob ekan-da. Olimlar shosha-pisha har ikkala malika hamda o'zi bilan butun mamlakatga, podsho xonadoniga baxt-u saodat keltirgan shifobaxsh gul tarixini yozishibdi. Laylaklar esa bu haqda o'z bolalariga hikoya qilib berishibdi, ammo buni o'z bilganlaricha, qorinlari baqaga liq to'lishi bilanoq aytib berishibdi, aks holda ularning boshqa mashg'ulotlari chiqib qolar ekan-da.

— Sen ham bir narsalik bo'lib qolasan! — deb shivirlabdi urg'ochi laylak eriga.

— Menga nima kerak? — debdi laylak. — Arzirli nima ham qilgandim! Hech nima!

— Boshqalardan ko'ra ortiq ish qilding! Sensiz bolalarimiz ham, malikalar ham Misr yuzini umrbod ko'tishmasdi. Cholni ham darddan xalos etisholmasdi. Bu xizmating, albatta, taqdirlanadi! Ehtimol, senga doktorlik unvonini berishsa kerak, bundan keyin tug'iladigan bolalarimiz ham, ularning bolalari ham xuddi ana shunday unvon egasi bo'lishadi! Menimcha, sen hozir ham Misr doktorisan!

Olimlar va donishmandlar bo'lsa butun voqealar bo'ylab qizil ip bo'lib o'tgan asosiy fikrni rivojlantirishda davom etishibdi, uni turlicha talqin qila boshlashibdi. «Hayotning asosi – muhabbat» – bu ularning asosiy fikri bo'lib, buni: «Misr malikasi quyosh nuriday botqoqlik mamlakatiga kirdi hamda ularning uchrashuvidan gul bunyodga keldi», deb talqin qilishibdi.

— Ularning nutqlarini gapirib bera olmayman! — debdi olimlarning gaplariga quloq solib turgan hamda shu gaplar mazmunini uyasida so'zlab berishi lozim bo'lgan laylak. — Ular shunaqayam uzoq hamda shunday oqilonaga gaplar aytishdiki, ularga o'sha zahoti unvonlar berildi, mukofotlar topshirildi: hatto shoh oshpazi ham orden oldi – ehtimol, u pishirgan suyuq oshi uchun taqdirlangandir!

- Senga nima berishdi? – deb so'rabdi urg'ochi laylak.  
– Eng muhim narsani ular unutmasliklari kerak edi, bu yerda eng asosiy shaxs – sensan! Olimlar valdirashdan nariga o'ta olganlari yo'q! Ammo sening navbating ham kelsa kerak!

Yarim kechadan keyin saroydagilar shirin uyquga ketishganda, u yerdagi uylardan birida faqat bitta tirik jon uxlamabdi. Garchi u uya yonida bir oyoqlab turgan, lekin qo'riqchilikda mudrayotgan bo'lsa-da, u laylak emas, Xelga ekan. U ayvonga chiqib, shimolda yurgen paytlarida ancha katta va yorqinroq bo'lib tuyulgan yulduzlar bilan bezangan tiniq, musaffo osmonga nazar tashlabdi. Lekin bular o'sha yulduzlarning o'zginasi ekan! Xelga viking xotinining ma'sum ko'zlarini va ana shu ko'zlardan baqa-qizi ustiga to'kilgan ko'zyoshlarini eslabdi. Endi bo'lsa u Nil sohilidagi yulduzli osmonni aniq zavq bilan tomosha qilayotir, muattar bahor havosidan to'yib-to'yib nafas olayotir. Bu budparastning hayvon holida jirkanch, kishi qo'l tekkizish u yoqda tursin, qarashga ham hazar qiladigan, odam qiyofasida esa hayvontabiat bo'lgan bu ayanchli mavjudotga qanday mehribonchiliklar ko'rsatganini, uni zo'r muhabbat bilan sevganini o'yabdi! Xelga charaqlab turgan yulduzlarga boqarkan, o'ldirilgan xristianning peshanasidan ular o'rmon va botqoqlar ustidan uchib o'tayotganda taralgan nurni xotirlabdi. U xristianning orqasiga mingashib ketayotganda eshitgan tovush va so'zları quloqlari ostida qayta jaranglaganday bo'libdi. O'shanda u qizga muhabbatning tuganmas manbai, butun inson zotini o'z og'ushiga olgan ulug' muhabbat haqida gapirgan ekan!

Ha, unga ko'p narsalar nasib qilibdi, murod-maqsadiga erishibdi! Xelga kecha-yu kunduz o'ziga nasib etgan baxt haqida o'yabdi, ajoyib yo'llar bilan uni eng oliy shodonlik va farog'at sari olib borayotgan o'z hayoti haqida mulohaza yurgizibdi, shu ikki narsa hech xayolidan ketmabdi. Bir hadya keltirgan kishiga, bir sovg'aga qaragan boladek bu mavzularga tez-tez qaytaveribdi. U butun vujudi bilan

chinakam baxti, kelgusida uni qarshi oladigan va kutayotgan istiqboli haqidagi o'ylarga berilib ketibdi, ammo bu baxtni unga kim berganini butunlay unutib yuboribdi. Uning qonida yoshlik g'ayrat-jasorati jo'sh uringdi, quvonchdan ko'zlar o'tday chaqnab ketibdi. Saroyda ko'tarilgan katta shovqin-suron qizning xayolini bo'libdi. U o'sha shovqin kelgan tomonga qarasa, ikkita bahaybat, kuchli tuyaqush oyoqlarini qo'liga olib saroy hovlisida chopib yuribdi. Xelga bunday vazmin, bahaybat, beso'naqay qushlarni umrida birinchi ko'rishi ekan, shu vajdan ularning qanotlari to'mtoq bo'lib ko'rinishibdi. Qushlar go'yo birov xafa qilganday, zo'r hayajon va hadik bilan yugurib yurishgan ekan. Xelga buning sababini so'rab, birinchi marotaba tuyaqushlar haqidagi Misr afsonasini eshitibdi.

Qadim zamonalarda tuyaqushlar o'z chiroyi bilan dovrug' taratishgan ekan: ularning qanotlari uzun va baquvvat bo'lgan ekan. Kunlarning birida kechki payt boshqa ulkan o'rmon qushlari tuyaqushga: «Og'ayni, ertaga, xudo xohlasa, daryoga suv ichgani boramiz!» – deyishibdi. Tuyaqush bo'lsa: «Xohlasam uchib boraveraman!» – deb javob qaytaribdi. Sahar paytida qushlar uchib ketibdi. Ular tobora yuqoriga ko'tarilaverishibdi, parvardigorning ko'zi – quyoshta yaqinlashib qolishibdi. Tuyaqush bo'lsa hammaning oldida yolg'iz o'zi kerilganicha yorug'lik manbaiga tomon o'z qudratiga ortiq bino qo'yib, uchib boraveribdi; u «Xudo xohlasa» demay, nuqul «xohlasam» der ekan. Bundan g'azablangan qasos farishtasi laqqa cho'g' quyosh yuzidan yupqa pardani pastga tortibdi – o'sha zahotiyoy tuyaqushning qanoti olov tekkanday kuyib tushibdi, u behol adoyi tamom bo'lib, yerga qulabdi. O'shandan beri u, hamda uning avlod-ajdodi ortiq osmonga ko'tarila olmabdil. Ular hozir ham biror narsadan qo'rqishsa, jon talvasasida yugurishaverar ekan, yugurishganda ham tor doiradan chiqishmas ekan, bu narsa insonlar uchun saboq bo'lishi kerak.

Xelga boshini g'amgin quyi solibdi, yo dahshatdan, yo oydin kechada oppoq devorga tushib turgan aksini ko'rib bema'ni xursandchilikdan xarsillab yugurayotgan tuyaqushlarga qarabdi, unda jiddiy bir kayfiyat paydo bo'libdi. Ha, unga baxt to'la umr nasib bo'ldi, lekin oldinda uni nimalar kutyapti? «Xudo xohlasa» eng oliv baxt!

\* \* \*

Erta bahorda, laylaklar shimolga uchishi oldidan Xelga tilla uzuk olib, unga o'z nomini yozibdi, o'ziga tanish laylakni huzuriga chaqiribdi. U kelganda uzukni laylakning bo'yniga taqib qo'yibdi, uni asrandi qizning sog'-salomatligi, baxtiyor onasini hamisha eslab yurganining nishonasi sifatida vikingning xotiniga yetkazishni iltimos qilibdi.

«Buni ko'tarib borish ancha qiyin! – o'ylabdi laylak. – Ammo oltin hamda kishi sha'nini yerga urmaslik kerak! Olib borsam, «Laylak baxt keltiradi!» – deb aytishadi shimoldagilar».

– Sen oltin olib boryapsan, men esa tuxum! – debdi xotini. – Lekin sen uni faqat bir marta olib borasan, men esa har yili tuxum qo'yaman! Taqdirlanish nimaligini ikkovimiz ham bilmaymiz! Shunisi alam qiladi!

– Ongimizning o'zi ham yetarli, xotinjon! – debdi laylak.

– Biroq, buni bo'yningga osib ololmaysan-kul! – javob qilibdi moda laylak. – Senga ozuqa ham, hamroh shamol ham yordam berolmaydi!

Shunday qilib ular uchib ketishibdi.

Tamarind chakalakzorlarida sayrab yurgan jajjigina bulbul ham shimol tomonga uchishga hozirlanibdi, ilgarigi Xelga Yovuz botqoqlik yaqinida uning sayrashlarini ko'p eshitgan ekan. U bulbulga ham topshiriq beribdi. Xelga oqqush kiyimida uchgandan beri qush tilida gapirishni o'rganib olgan ekan, tez-tez laylaklar va qaldirg'ochlar bilan suhbat quribdi, ular ham buni yaxshi tushunibdi. Bulbul ham uning gaplarini yaxshi uqibdi: qiz undan daraxt shoxlari va toshlaridan qad ko'targan

qabr joylashgan Yutlandiya yarim orolidagi qora qayin o'rmonida istiqomat qilishni tayinlabdi va undan sayroqi qushlarni qabrga qarab turishga, qabr ustida uchib, tinimsiz sayrashga undashni iltimos qilibdi.

Bulbul o'qday uchib ketibdi, vaqt ham shamolday tez o'ta boshlabdi.

\* \* \*

Kuz faslida ehrom cho'qqisida o'tirgan lochin katta karvonning yaqinlashib kelayotganini ko'ribdi: ustiga xazina yuklangan tuyalar, yasangan-tusangan qurolli chavandozlar arab tulporlarini gijinglatib kelishayotgan mish; quyuq yollari ingichka oyoqlarigacha o'sib tushgan kumushrang otlar kishnab o'ynoqlarmish. Aslzoda mehmonlar, ular orasida yosh va go'zal arab shahzodasi uyalari hozir bo'sh turgan laylaklarning xojasi, qudratli podshoning saroyiga kelishibdi. Bu payt laylaklar hali shimolda bo'lib, qaytish vaqtлari ham yaqinlashib qolgan ekan.

Laylaklar saroya xursandchilik avjiga chiqqan, to'y boshlangan kuni qaytib kelishibdi. Shoyi kiyimlarga burkangan, qimmatbaho bezaklar taqqan Xelga kelin, yosh arab shahzodasi kuyov emish. Ular to'y dasturxonni to'rida, bobosi va onasining o'tasida o'tirishgan mish.

Biroq, Xelga kuyovning qorachadan kelgan, qat'iyatl yuziga ham, yuziga husn bo'lib turgan mayin qo'ng'ir soqoliga ham, kelinka mehr bilan boqib turgan o'tli qora ko'zlariga ham qiyo boqmabdi. U nigohini yulduzlardan bezak taqqan osmonga tikibdi.

Osmonda to'satdan qanotlarning shovqini eshitilib qolibdi – laylaklar qaytib kelibdi. Xelganing eski qadr-donlari yo'lda juda charchaganiga, judayam hordiq chiqargilar kelib turganiga qaramay, ayvonnинг panjarasiga qo'nishibdi, ular ikkisi ham saroya dabdabali to'y bo'layotganidan xabardor ekan-da. Mamlakat chegarasiga yaqinlashishlari bilanoq bu xushxabar ularga yetib borgan ekan. Xelga ularning

tasvirini saroy devoriga chizishga amir qilgan ekan, bo'imasam-chi, laylaklar uning umr tarixi bilan chambarchas bog'langan-ku.

- Judayam chiroqli! – debdi laylak.
- Nihoyatda chiroqli! – debdi xotini ham, – bundan ortig'ini umid qilmasa ham bo'ladi!

Xelga laylaklarni ko'rgach, o'rnidan turib, ularning yelkasini silash uchun ayvonga chiqibdi. Keksa laylak bosh egib ta'zim qilibdi, bolalari esa uyada o'tirib juda ham quvonib ketishibdi.

Xelga yana osmonga nigoh tashlabdi, tobora yorqinroq nur sochayotgan yulduzlarni tomosha qilibdi. Birdan u o'zi bilan yulduzlar oralig'ida judayam tiniq, havodan ham musaffo kimsa uchib yurganini ko'ribdi. Mana, u Xelgaga yaqinlashibdi, qarasa, o'dirilgan xristianmish. U ham samoviy uyidan mana shunday tantanali kunda uchib kelibdi!

- Samoviy nur hamda go'zallik oddiy kishilar tasavvur qilgan hamma narsadan yuqori turadi! – debdi u.

Xelga undan yalinib, o'zini hech bo'lmasa bir lahzaga o'sha yoqqa olib ketishini iltimos qilibdi. Shu paytgacha hech kim bunchalik yalinmagan ekan. U samoviy hashamatga hech bo'lmasa bir marta ko'z qirini tashlash uchun izn so'rabdi.

U qizni yoniga olib, nur, yoruglik va go'zallik maskani sari uchibdi. Ajoyib, totli sado va fikrlar faqat Xelganing tevaragida emas, balki uning ikki dunyosida, qalbining eng chuqur yerlarida ham eshitilib, jilva qilibdi. U tatib ko'rgan shirin hislar hech ta'rifga sig'masmish.

- Qaytish vaqt yetdi! Seni qidirishyapti! – debdi u.
- Yana bir lahma! – deb yalinibdi qiz, – yana bir lahma!
- Qaytish vaqting yetdi! Hamma mehmonlar tarqab ketishdi!

– Yana bir lahma! Oxirgisi...

Mana, Xelga yana o'zini ayvonda ko'ribdi, biroq... bog' va saroy xonalaridagi hamma chiroqlar o'chibdi, laylaklar ko'rinmasmish, mehmonlar, kuyov ham yo'q emish; mana

shu uch daqiqa ichida ularning hammasini shamol uchirib ketgandaymish.

Xelga dahshatga tushibdi, katta kimsasiz zaldan boshqasiga o'tibdi. U yerda chet el jangchilar uqlab yotganmish! U o'zining yotoqxonasiga olib kiradigan yon tomondagi eshikni ohibdi, boqqa chiqib qolibdi. Hamma narsa boshqacha bo'lib ketganmish. Ufq qizarib, tong ota boshlabdi.

Qiziq, samoda o'tkazilgan uch daqiqa yerdagi bir tunga baravar kelibdi-ya! Shu payt Xelganing ko'zi laylaklarga tushibdi, ularni yoniga chaqiribdi, laylak esa boshini baland ko'tarib, uning gaplariga qulq solibdi va yaqinlashibdi.

- Sen bizning tilda gapiryapsanmi? - deb so'rabdi laylak. - Senga nima kerak? Hoy notanish qiz, o'zing qayerliksan?

- Axir, men Xelgaman! Nahotki meni tanimayotgan bo'sang? Bundan uch daqiqa burun sen bilan anavi ayvonda gaplashdim-ku!

- Yo'q, aldayapsan! - debdi laylak. - Bularning hammasini tushingda ko'rgan bo'sang kerak!

- Yo'q, yo'q! - debdi qiz va unga vikingning qasri, yovvoyi botkoqlik va bu yoqqa uchib kelishlarini eslatibdi.

Laylak ko'zlarini pirpiratib turib shunday debdi:

- E-he, bu qadimiy ertak-ku! Men bu ertakni momomning momosidan eshitganman. To'g'ri, shu yerda, Misrda Daniyadan kelgan bir malika bo'lgan ekan. Biroq, u juda ko'p yillar muqaddam to'yi kuni yo'qolib qolganmish! Bu haqdagi ma'lumotlarni bog'da turgan yodgorlik xatidan ham o'qib olishing mumkin. O'sha yodgorlikka oqqush va laylaklar surati o'yib naqshlangan, yodgorlikning eng tepasida esa oq marmardan yasalgan o'z haykalingni ko'rasan!

Haqiqatan ham xuddi shunday ekan! Xelga yodgorlikni ko'ribdi, hamma narsani tushunibdi va tiz cho'kibdi.

Quyosh chiqibdi. Ilgarilari quyosh nuri tegishi bilan Xelga baqa kiyimini tashlab, go'zal qizga aylangan bo'lsa,

hozir nur bilan tozalangan chirik tana qobig'idan osmonga, havodan ham tiniq go'zal ruh ko'tarilibdi. Shunday qilib, quyosh nuri o'z yaratuvchisiga qaytibdil

Tanasi esa kul bo'lib sovirilib ketibdi. Xelga tiz cho'kib turgan joyda so'lib qolgan nilufar yotganmiss.

- Ertakning yangicha tugallanishi! – debdi laylak, – kutilmaganda tamom bo'idi-ya! Hechqisi yo'q, u menga yoqadi!

- Bu xususda bolalar nima deydi? – debdi xotini.

- Ha, aytganday, bunisi juda muhim! – debdi laylak.

## QO'NG'IROQLI GIRDOB

Odense daryosining qo'ng'iroq tushib ketgan chuqur yeridan «darang-darang» degan tovush eshitiladi. «Bu qanaqa daryo?» dersiz. Bu daryoni Odense shahridagi katta-kichik – hamma biladi; u bog'lar chekkasidan, taxta ko'priklar ostidan, to'g'on darvozalaridan oqib o'tib suv tegirmonga borib, quyiladi. Daryo betida sap-sariq nilufarlar, qamishlarning to'q jigarrang popuklari va baland baxmalsimon qiyoqlar qalqib yuradi.

Monastir botqog'i hamda ohakchi o'tlog'i yaqinida o'sgan judayam qari, serbutoq, ichi g'ovak, egri-bugri tolalari suv betiga egilib yotibdi. Daryoning boshqa sohili bog'larga burkangan. Bog'lar ham har xil. Ba'zilarida anvoysi gullar o'sadi, har yer-har yeriga kishining havasini keltiradigan o'rindiqlar qo'yilgan, ba'zilarida esa karamdan boshqa hech narsa ko'rinxaydi, boshqalarida bu ham yo'q. Chunki daryo labigacha qalin, sershoh marjon daraxtlari qoplab yotibdi. O'sha joylarda eshkak botirib, daryo tubiga yetkaza olmaysiz. Daryoning eng teran joyi – Qizlar ibodatxonasining ro'parasi; u yer qo'ng'iroq girdobi deb atalarkan. Shu yerda, suv tubida alvasti yasharkan. Kunbo'yи quyosh nurlari suviga tushib turganda u uxlari, kechasi oy va yulduzlar nurida esa suv betiga chiqar ekan. U judayam qari ekan. Uning yakka-

yolg'iz yashashi va qadimiy cherkov qo'ng'iroq'idan boshqa suhbatdoshi yo'qligi haqida momom o'z momosidan eshitgan ekan. Bir vaqtlar bu qo'ng'iroq Sankt-Albani cherkovning qo'ng'iroqxonasida osilib turgan ekan; hozir esa qo'ng'iroqxonadan ham, cherkovdan ham nom-nishon qolmagan. «Darang-darang-darang» deb jaranglarkan qo'ng'iroq osig'liq turgan joyida. Kunlarning birida kechki payt qo'ng'iroq qattiq tebranibdi-yu, uzilib tushib ketibdi... Shunday qilib botayotgan quyosh nurida ajoyib mis qo'ng'iroq to'q qizil rangda yarqirab ketibdi.

Qo'ng'iroq «Darang-darang. Uyquga ketdim!» – deb jaranglabdi-da, to'ppa-to'g'ri Odense daryosining eng chuqur joyiga shaloplab tushibdi. O'shandan beri qo'ng'iroq tushgan joyni «qo'ng'iroq girdobi» deb atasharkan. Biroq, qo'ng'iroq uxolmabdi, orom ham ololmabdi; u suv alvastisining uyida ham jaranglabdi, uning tovushini ba'zida qирг'оqdagilar ham eshitib qolisharkan. Odamlarning aytishiga qaraganda, uning har bir jaranglashi biron odamning o'lishidan darak berarmish, biroq bu gap g'irt yolg'on. Qo'ng'iroq suv alvasti bilan suhbatlashayotganda jaranglar ekan, endi alvasti oldingiday yolg'iz emas ekan.

Xo'sh, qo'ng'iroq nimalar deb jaranglaydi? Qo'ng'iroq juda keksa; aytishlariga ko'ra, u qo'ng'iroqxonada momomning momosi tug'ilmasdan oldin ham osilib turgan ekan, biroq u ilonbaliq terisidan ishton kiygan, tanga bilan qoplangan kamzuliga tugma o'rniqa sariq nilufar gullari qadalgan, sochlardan qamish o'sib chiqqan, soqollari ko'kimtir balchiqqa botgan suv alvastiqa qaraganda, go'dakning o'zi ekan.

Alvasti nihoyatda badburush ekan!

Ammo qo'ng'iroq nimalar haqida jaranglayotganini aytib berish uchun bir necha yillar kerak bo'ladi. Qo'ng'iroq biron narsa to'g'risida hikoya qiladigan bo'lsa, ba'zan cho'zib, ba'zan qisqa, ko'ngliga yoqqanicha qilib jaranglarkan. U qadimiy, qayg'uli, qahrli zamonlar haqida jaranglarkan.

«Sankt-Albani cherkovining qo'ng'iroqxonasiiga yosh, kelishgan, ammo juda ham g'amgin va o'ychan kohin yigit chiqibdi. U tuynukdan o'sha paytlar o'zani juda keng bo'lgan Odense daryosiga, ilgarilari o'mnida ko'l bo'lgan botqoqlik va ko'm-ko'k monastir tepaligiga qarabdi. U yerda qizlar monastiri qad ko'targan ekan; monastir hujralaridan birida kohin qiz yasharkan, doim uning hujrasida chiroq yonib turarkan... Yigit uni tanirkан! Qizni o'ylaganida yuragi battar gupillab urarkan! Darang-darang!»

Qo'ng'iroq ana shular haqida jaranglarkan.

«Qo'ng'iroqxonaga monastir nozirining aqli zaif shogirdi ham chiqdi. O'zimning vazmin mis gardishim bilan peshanasini yorib qo'yishim mumkin edi. Axir, u tebranib daranglayotgan paytimda naq ostimda o'tirgan edi-da. Sho'rlik go'yo sitro chalayotganday ikkita cho'pni polga urib taqillatib ashula aytardi:

«Bor ekan, yo'q ekan, bir Kund degan qiroq bo'lgan ekan. U yepiskop va kohinlarga boshi yerga tekkuday ta'zim qilar ekan, biroq u yutlandlarni og'ir soliqlar bilan qiynab qo'yganda, qo'llariga qurol olib, uni yirtqich hayvonday haydab yuborishibdi. U cherkovga yashirinib, uning eshik va derazalarini yopib olibdi. Darg'azab bo'lgan olomon cherkovni qurshabdi; shu payt uning bo'kirkani qulog'imga chalindi, qarg'a va zag'chalar juda qo'rqib ketishdi va jon talvasasida bir qo'ng'iroqxonaga, bir tashqariga uchib chiqishardi, olomonga o'grayishar, cherkov derazasidan ichkariga mo'ralashib, u yerda ko'rganlari haqida baqirib-chaqirishardi. Qirol Kund mehrob qarshisida yotib, ibodat qilayotgan ekan; ukalari Erik bilan Benedikt uning yonida qilich yalang'ochlab qirolni himoya qilish uchun shay bo'lib turgan ekan; biroq yovuz niyatli xizmatkori Blake o'z xo'jasiga xiyonat qilibdi.

Olomon qirolning qayerdaligini bilib qolib, derazaga tosh otishibdi. Tosh qirolga tegib, u o'sha zahoti til tortmay o'libdi... O'shanda yovuz olomon rosa bo'kirgan, qushlar

chirqillagan, men bo'ssam darang-darang qilib ashula aytganman».

Cherkov qo'ng'irog'i juda balandda bo'lib, uzoq, uzoqlarni ko'rarkan! Uning huzuriga qushlar uchib kelisharkan, qo'ng'iroq ularning tilini bilarkan! Hatto shamol ham darchalardan, barcha yoriq va teshiklardan o'tib uning mehmoni bo'larkan. Shamol hamma narsani havodan bilib olar ekan. Qayerda hayot bo'lsa, o'sha yerda havo bor, hatto u kishining o'pkasiga kirib, har bir tovush, har bir so'z va har bir nafas olishga qulog soladi! Havo hamma narsani bilarkan, shamol esa bularni so'zlab berarkan, qo'ng'iroq unga diqqat bilan qulog solib, butun olamga «darang-darang-darang» qilib taratarkan.

«Men ko'p narsalarni eshitganman va bilib olganman, biroq bularning hammasini jaranglab hikoya qilishga madorim yetmaydi! Men charchadim, og'irlashdim, meni ko'tarib turgan xoda sinib ketdi, men esa havoda bir yalt etib, daryoning suv alvastisi istiqomat qilayotgan eng chuqur joyiga shaloplab tushdim. U yolg'iz, yil sayin ko'rgan-kechirganlarimni unga «darang-darang» qilib hikoya qilib beryapman!»

Odense daryosining qo'ng'iroq girdobidan ana shunaqa daranglash tovushlari eshitilarkan, men bu haqda buvimdan eshitganman.

O'qituvchimiz bo'lsa: «Daryo tubida qo'ng'iroq jarangi nima qiladi? U yerda hech qanaqa qo'ng'iroq yo'q! Suv alvastisi ham yo'q – umuman, suv alvastilari bo'limgan! Cherkov qo'ng'iroqlarining quvnoq jarangi eshitilib qolguday bo'lsa, bu jaranglayotgan qo'ng'iroq emas, havo, chunki havo o'zidan tovush chiqaradi», – deydi.

Buvim ham cherkov qo'ng'irog'i qissasidan hissa chiqarib, xuddi shu gapni aytgan edi, uning fikri o'qituvchiniki bilan bir joydan chiqdi, aslida ham shunday bo'lsa kerak.

– Hoy bola, har ikkalasi ham to'g'ri, ammo o'z bilganingdan qolma! – deyishadi buvim bilan o'qituvchim.

Ha, havo hamma narsani biladi! U atrofimizda ham, ichimizda ham bor. U butun fikrlarimizni, qilmishlarimizni suv alvastisi bilan daryo tubida yotgan qo'ng'iroqdan ham uzoq-uzoqlarga yoyadi. Bu tovushlar hamon balandga ko'tarilib, samoviy qo'ng'iroqqacha boradi, ular darang-darang qilgancha yo'lda davom etaveradi.

## SHAMOL VALDEMAR DO VA UNING QIZLARI HAQIDA HIKOYA QILADI

Shamol maysalar ustidan yelib o'tadi; o'shanda suv beti jimirlaganday maysa yengilgina titrab ketadi; bordiyu, ekinzorlar ustidan o'tsa, ular dengiz singari chayqaladi, bu – shamolning raqsi. Endi uning hikoyalariga qulog soling! U hikoya qilmaydi, balki kuylaydi, ovozi turli xil ohangda jaranglaydi: o'rmonda bir xil, deraza, teshik va yoriqlardan uy ichiga kirganda boshqa xil. Shamolning bulutni haydashiga ham bir qarab qo'ying; bulutlar qo'y podalari singari yugurishadi! Darvozada uvillashini eshityapsizmi? Xuddi qorovul burg'u chalganday! U mo'ri ichida va kaminda yana bir boshqacha ajoyib ovoz chiqaradi! Tarashalar charsillab yonadi, atrofga uchqun sachratadi; alanganing yorug' nuri xonanining eng xilvat burchaklarigacha yoritadi. Bunday xona shunaqayam issiq, shinamki, kamin oldida o'tirish shunaqayam rohatkil Yaxshisi buni shamolning o'zi hikoya qila qolsin! Uning yakka o'zi hammamizdan ham ko'proq ertaklarni biladi. Quloq soling, u ertak boshlayapti:

«G'uv-g'u-u! O'taver!» – bu uning naqorati.

– Katta Bel sohilidagi qo'rg'onda qizil g'ishtdan qurilgan bir boyning uyi bo'lgan, – deb hikoyasini boshlabdi shamol. O'sha yerdag'i har bitta g'isht menga tanish: Mark Stig qasrini qurishayotgandayoq bu g'ishtlarni ko'rganman; keyin qasr yiqildi, g'ishtlarini yana ishlatischdi. Ulardan Borrebyu qo'rg'onida yangi devor, yangi uy qurishdi, u hozir ham bor.

Qo'rg'onning barcha oliy nasab egalarini ham bilaman; ko'z oldimda juda ko'p avlodlar almashdi! Endi men Valdemar Do va uning qizlari haqida hikoya qilaman.

Valdemar Do doim gerdayib yurardi, chunki uning tomirlarida qiroq qoni ko'pirib oqardil Uning qo'lidan bug'u quvlash, qadah bo'shatishlardan tashqari boshqa ishlar ham kelardi. Nimani uddalardi deysizmi? «Vaqti kelib mat'um bo'ladi!» derdi u.

Kimxob ko'yylaklarga burkangan xotini esa gul sochilgan pol ustida viqor bilan qadam tashlardi, uy ichi juda ham serhasham edi: devor guldor gilamlarga, xonalar o'yib ishlangan mebellarga liq to'la edi. U sep tariqasida juda ko'p kumush va oltin idishlar ham olib kelgandi. Yerto'lalarda nemis musallaslari va boshqa narsalar saqlanardi. Otxonalarda esa ajoyib qora otlar kishnab turardi. Ha, Borrebyu hokimi juda badavlat edi, chunki davlat hali undan yuz o'girmagan edi-da.

Uning uchta bolasi – uchta nafis gul lolasi: Ida, Yohanna va Anna Dorteysa ismli qizlari bor edi, ularning ismi hali ham esimda.

Boshqa qadimiy qo'rg'onlarda ko'rganimdek, bu yerda ham oliy nasab xonimlarning qizlari bilan birga tantanalar o'tkaziladigan mehmonxonada charx yigirib o'tirishlarini ko'rishga muyassar bo'lganman. Biroq, bu xonim musiqa chalar, faqat qadimiy daniya qo'shiqlarinigina emas, balki boshqa tilda horijiy ashulalarni ham aytardi. Qo'rg'onda hayot gashtli o'tardi, uzoq va yaqinlardan har kuni aslzoda mehmonlar kelishardi, musiqlar yangrardi, qadahlar jaranglardi, shunchalik shovqin ko'tarilardiki, ba'zan hatto men ham uni bosishga ojizlik qilib qolardim! Ha, bu yerda juda ko'p shovqin-suron bo'lgan, bu yerda oliy zotlarning kibr-havosi hukmron edi, bu yerda janoblar serob edi-yu, xudo yo'q edi!

– May oqshomlaridan biri edi, – davom etibdi shamol, – men endigina g'arbdan qaytib kelgandim; o'sha yoqlarda Yutland sohillariga urilib pachag'i chiqqan kemalarni ko'rdim, ko'm-ko'k o'rmonlar bilan qoplangan sohillar

hamda cho'llar ustidan o'tayotib shovqin soldim. Fyun oroli va Katta Belt suvlarini ustida hushtagimni chaldim, faqat Zelandiya sohillariga kelib tinchlandim. Bu yerda Borrebyu yaqinidagi ajoyib eman o'rmonzorida hordiq chiqardim – o'sha paytlar bu o'rmon hali bor edi.

O'rmonda atrofdan kelgan yigit-qizlar sayr qilib yurishar, quruq shox-shabbalarni yig'ishtirishar edi. Ular bir bog'-bir bog'dan o'tin qilishib, qishloqlariga qaytishar, o'tinlarni bir joyga to'plab, gulxan yoqishar va uning atrofida qo'shiq aytib, o'yinga tushishar edi. Qizlar ham yigitlardan qolishmasdi.

– Men jimgina yotgandim, hikoyasini davom ettiribdi shamol, – faqat gulxanga eng chiroyli yigit qo'ygan shoxni astagina puflardim. U lovillab yonib ketdi, yigitni may qiroli qilib tanlab olishdi, u esa qizlar orasidan qirolicha tanladi. O'shanda rosayam xursandchilik bo'ldi! Bu xursandchilik oldida oliy nasablar uyidagi xursandchilik ip esholmay goldi!

Beshta ot qo'shilgan zarrin izvosh boy qo'rg'oni tomon yo'l oldi. Unda xonimning o'zi va uning qizlari – uchta nafis, yosh, chiroyli gullar, atirgul, nilufar va qorday oppoq sunbul o'tirardi. Qizlarning onasi xuddi barq o'rib turgan lolaga o'xshardi, u torday tarang tortib, gerdayib o'tirardi. Hech kimning salomiga alik olmasdi, hatto dehqonlarning qo'shiq va raqs bilan qilishgan ta'zimlari ham javobsiz qolardi, bordiyu, ta'zimga ta'zim bilan javob bersa, chiroyli qomati sinib qoladiganday qo'rqardi! «Xo'sh, sizlarchi, atirgul, nilufar va sunbulxonlar, vaqt kelganda kimi larning malikalari bo'lasiz? – deb o'yladim. Ular kechagiday ko'z o'ngimda! – Sizlarning tanlaganining olijanob ritsarlar, ehtimol, shahzodalar bo'lar!»

– G'uv-g'u-u! O'taver, o'taver!

Izvosh jo'nab ketdi, dehqonlar yana raqs boshlashdi.

Borrebyu, T'erebyu hamda boshqa atrof qishloqlarda yozni ana shunday kutib olishdi.

– Kechasi uyg'onib qarasam, – debdi shamol, – aslzoda xonim o'rniga yotganicha qaytib turmabdi. Boshqa

O'taver! O'taver! – deb uvillabdi shamol. – U ayanchli ahvolda edi!

Qishda, dalalarga qor oq gilamini yoyganda, Belt daryosida muzlar oqa boshladi, men bo'ssam to'lqinlarni qirg'oqqa haydadim, kemaga bir-biridan qora bir talay qarg'alar kelib qo'nishdi; qushlar bo'm-bo'sh, huvillab yotgan tashlandiq kemaga qo'nib olishib, kesilib ketgan o'rmon, buzib tashlangan qadrdon uyalari, o'zlarining boshpanasiz qolganliklari haqida alam bilan qag'ilay boshladilar.

Nima uchun shunday bo'ldi! Umrbod suv yuzini ko'rmay yog'och uyumi bo'lib yotadigan mana shu mag'rur kema deb shunday bo'ldi-da!

Qorlarni to'zitgandim, uchqunlari kema atrofiga to'lqinsimon shaklda qo'ndi. Kemaga qo'shiq va muzikamni eshitish imkonini berdim, mayli, eshitsin, ko'niksin, chunki u kema! G'uv-g'u-u! O'taver!

Qish ham o'tib ketdi; qish bilan yoz men kabi tez uchib o'tadi, daraxt shoxlaridan qor, bahorda gul, xazon-rezgilik paytida barg to'kilganday o'tib ketaveradi. O'tavering! O'tavering! Odamlar ham o'taversin!

Biroq, qizlarning hali o'n gullaridan bir gullari ham ochilmagan edi. Ida kemasoz yigit ko'ngil qo'ygan paytlardagidek hamon bir husniga o'n husn qo'shilib borardi. Men uning uzun oltinrang kokillarini o'ynardim; u esa olmaning tagida o'ychan turaverardi, parishon sochlariiga olma gullarini yog'dirayotganimni payqamasdi. U quyuq daraxtlar orasidan charaqlab turgan quyoshga, osmondag'i to'lin oyga tikildi.

Uning singlisi Yohanna boshini viqor bilan orqaga tashlagan adl, chiroli nilufar gulning o'zi edi, bellari onasinikiday ingichka, sambitdek edi. U ajdodlarining suratlari osilgan xonaga kirishni yaxshi ko'rardi. U yerda baxmal va shoyi kiyimlar kiygan, mayda kokillarini yopib turuvchi, gavharlar qadalgan shapkali aslzoda xonimlar tasvirlangan suratlar turardi. Ular juda ham chiroyl'i edilar. Erkaklar esasovut yoki tik va baland yoqali

kamzullarda tasvirlangan. Qilichlari beliga emas, balki yonlariga osilgan edi. Vaqt kelib bu yerga Yohannanining portreti ham qo'yiladi. Lekin olijanob umr yo'ldoshining qiyofasi qanaqa bo'larkin? Qiz faqat shu haqda o'ylar, lablari faqat shuni pichirlardi. Men yo'lakdan u yoq-bu yoqqa yurib, katta xonaga kirib, bularning hammasini eshitdim.

O'n to'rt yoshli oq sunbul gul Anna Dorteysa esa yuvosh va o'ychan qiz edi. Uning katta-katta moviy ko'zları jiddiy va g'amgin boqardi, lekin lablaridan tabassum arimasdi. Men unga hatto puflashga ham jur'at etolmasdim, buni xohlamasdim ham.

Men Anna Dorteysani ko'pincha bog'da, yo'lda va dalada uchratardim; qiz otasiga kerak bo'ladigan gullarni, o't-o'lanylarni yig'ib kelardi: otasi esa ulardan ichimlik hamda turli tomchilar tayyorlardi. Valdemar Do mag'rur, dadil, shu bilan birga bilmndon ham edi! U ko'p narsani bilardi! Hamma uni bilar va u haqda shivir-shivir qilardi. Uning xonasida olov hatto yozda ham o'chmasdi, eshigi doim qulflug'liq bo'lardi, kecha-yu kunduz o'sha yerdan chiqmas, o'z ishi xususida boshqalar bilan suhbatlashishni yoqtirmasdi; hademay u dunyoda eng yaxshi, eng qimmatbaho bo'lgan qizil oltinni topadil!

Mo'tisidan tutun to'xtovsiz burqsab chiqib turishining sababi ham shunda edi. «Kaminda o'tin charsillab yonardi! Uni puflashga o'zim yordam berardim! – deb hikoya qilibdi shamol. – Valdemar Doga mo'ri orqali: Bo'ladi! Bo'ladi! Hammasi tutun, qurum, is, kul bo'ladi! Ishingning pachavasi chiqadi. G'uv-g'u-ul! O'taver! O'taver! Bo'ladi! Bo'ladi! – deb uvullardim. Ammo Do o'jarlik qilaverdi».

Otxonasidagi ajoyib tulporlar qayoqqa yo'qoldi? Shkaflardagi kumush va oltin idishlar-chi, dalalaridagi sigir-buzoqlar-chi, butun mol-mulk-chi? Ha, bularning hammasini eritish, qizdirish... oltin eritadigan idishda eritish mumkin, ammo bulardan oltin olib bo'lmaydi-ku!

Omborlar, yerto'lalar, chordoqlar bo'shab qoldi. Odamlar kamayib sichqonlar ko'paydi. Deraza oynasining biri darz ketsa, boshqasi sinadi, endi mening faqat eshik orqali xonaga kirishim shart emas. «Qayerda mo'ridan tutun chiqsa, o'sha yerda taom tayyorlanadi», bu yerda esa qizil oltin olish uchun jamiki taomlarni kemiradigan mo'ridan tutun burqsiyapti!

Men qo'rg'on darvozasi oldida qorovul singari burg'u chaldim, lekin endi bu yerda qorovul turmasdi! Men minora ustidagi flyugerni aylantirdim, u bo'lsa mezanada qorovul xurrak otganday g'ijirladi, lekin u yerda ham qorovul yo'q edi! Faqat kalamush va sichqonlargina sanqib yurishardi. Uning uyiga qashshoqlik dasturxon yozdi, shkaf va bufetlarga joylashib oldi; eshiklar oshiq moshig'idan chiqib ketdi, hammayoqda yoriq va teshiklar paydo boldi – bu esa menga yaxshi: ichkariga kirish osonlashdi! Shuning uchun ham u yerda nima bo'layotganini yaxshi bilaman.

Tutun va kuldan, zo'r tashvish va uyqusizlikdan Borrebyu hokimining soch va soqollari oqarib ketdi, yuzi za'faron bo'lib ajin bosdi, lekin ichiga botib ketgan ko'zlar hamon orziqib kutayotgan oltin jilosini ko'rish ishtiyoqida boqardi.

Men uning yuzi va soqollariga kul bilan tutun puflayverdim. Lekin hadeganda oltindan darak bo'lavermadi, ammo uning qarzları kun sayin oshib bordi. Men singan derazalar, yoriq va teshiklarda qo'shig'imni aytaverdim, hatto qizlarniig kiyilaverib to'zigan, yirtilgan kiyimlari solingan sandiq ichigacha kirdim, kiyimlar hadeb kiyilaverganidan shu holga kelgan-da! Ha, qizlar beshiklari ustida aytilgan alladagi shirin orzular ro'yobga chiqmadi! Boy odamning turmushi g'am-kulfatga to'lib ketdi. Faqat mengina u yerda baland ovoz bilan kuylayverdim. Uylarni qorga ko'mib tashladim, aytishlaricha, qor isitarmish; ularning o'tini ham yo'q edi; o'rmon esa allaqachonlar kesilib ketgan. Sovuq kuchaygandan kuchaydi. Men uy ichida u yoq-bu yoqqqa

borib kelaverdim, yoriq va tuynuklardan kirib, tom hamda devorlar ustida charx urdim, axir, sal sergak turish ham kerak-da! Aslzoda qizlar bo'lsa sovuqdan ko'rpalariqa burkanib olishdi, otalari esa jun adyolning ostiga kirib ketdi. Na ovqat, na o'tin bor – boy odamning turmushi ana shunaqa bo'lib qolgandi! G'uv-g'u-u! O'taver! Bo'ladi! Bo'ladi! Biroq, Do janoblariga hamma narsa kam edi.

«Qishdan keyin bahor keladi, – derdi u, – Qashshoqlik o'mnini sho'xlik egallaydi! Biroq, u o'zini ancha kuttiradi. Endi yer-suv garovga qo'yilgan, ortiq kutish mumkin emas, hademay, pasxa bayramiga oltin albatta bo'ladi!»

Men uning o'rgimchakka: «Hafsalali jajji to'quvchisan, meni sabr-toqatga o'rgatyapsan. To'ringni yirtib yuborishsa, yangisini to'qiy boshlaysan, uni ilgarigi holiga keltirasan! Yana yirtib yuborishsa, yana, yana boshqatdan to'qiyerasan! Xuddi ana shunday qilish kerak! Mukofoti oldinda bo'ladi!» – deb shivirlayotganini eshitdim.

Mana, pasxaning dastlabki kuni ham yetib keldi; qo'ng'iroqlar jarangladi. Osmonda quyosh charaqladi. Valdemar Do tuni bilan o'lib-tirilib ishladi, bir narsalarni qaynatdi,sovutdi, aralashtirdi, siqli. Men uning xo'tsinganini, ibodat qilganini eshitdim, ish ustida nafas olishga ham qo'rqib o'tirganini ko'rdim. Uning chirogi o'chib qoldi, buni payqamadi. Men ko'mirni pufladim, cho'g'lar uning bo'rday oppoq yuzini va botiq ko'zlarini yoritdi. To'satdan uning ko'zları kattalashib ketdi, kosasidan chiqquday bo'ldi!

Shisha idishga qaral Yarqirayapti! Nuri olovday lovvillayapti... Qandaydir yarqiroq, vazmin! U shisha idishni titroq qollari bilan ko'tardi, hayajondan nafasi ichiga tushib: «Oltin! Oltin!» – deb baqirdi. U gandiraklardi, sal puflab uni yiqitishim mumkin edi. Lekin unday qilmadim, faqat ko'mirni pufladim, uni esa qizlari sovuqdan muzlab o'tirgan xonaga kuzatib qo'ydim. Uning kiyimlari ham, soqoli va hurpaygan sochlarini ham kul bosgan edi. U qaddini rostladi. Nozik idishdagi xazinani boshi uzra baland ko'tardi... «Topdim! Topdim! Oltin!» – deb qichqirdi

va quyoshda jilo berib turgan idishni ularga uzatdi, biroq... uning qo'li titrab ketdi. Idish yerga tushib chilparchin boldi! Oxirgi umidi ham sovun ko'pigiday o'chdi-qoldi! G'uv-g'u-u! O'taver! Men esa alximikning uyidan chiqib ketdim.

Qisqa kunlar boshlandi, tuman nam pardasini yoyib, suvini yalang'ochlanib qolgan daraxtlar, qizil mevalar ustidan tomiza boshlagan kech kuz payti edi. Men bardam va tetik holda qaytib keldim. Guvillab osmonni bulutlardan tozaladim, aytganday, chirib yotgan shoxlarni sindirib tashladim – bu ish xudo bilsin qanaqayu, ammo qilishga to'g'ri keldi. Borrebyudagi hokim uyi boshqacha did bilan yog' tushsa yalaguday qilib tozalab qo'yilgan edi. Valdemar Doning dushmani basneslik Ove Ramel Borrebyuga garov xat bilan keldi: endilikda uy ham, butun mol-mulk ham uniki bo'lgan edi! Men siniq derazalarga kuchimning boricha go'villab puflay boshladim, ilgagidan chiqqan eshiklarni taraqlatdim, yoriq va teshiklardan hushtak chalib o'tdim: «G'uv-g'u-u! Mayli, janob Ovega bu yer yoqmay qolsin, dedim! Ida bilan Anna Dorteya achchiq-achchiq ko'zyoshi to'kib yig'lashdi; Yohanna bo'lsa qaddini g'oz tutib turgan bo'lsa ham, yuzi murdaday oqarib ketgan edi, barmog'ini shunday tishladiki, qoni tirqirab ketdi. Lekin bundan hech qanday foyda yo'q edi! Ove Ramel Do janoblariga shu uyda umrining oxirigacha yashashga ijozat berdi, biroq bu marhamatga hech kim minnatdorchilik izhor qilmadi. Uysiz qolgan dvoryanning boshini mag'rur ko'targanini, qaddini rostlaganini ko'rdim. Shu payt tom va keksa arg'uvon daraxtiga jon-jahdim bilan shunaqayam zarba berdimki, chirimagan bo'lishiga qaramay, yo'g'on bir shoxi sinib, darvoza oldiga qulab tushdi. U supurish lozim bo'lganda supurgi bo'ladiganday o'sha yerda qolaverdi. O'sha supurgi bu yerning sobiq egalarini supurib yubordim!

Og'ir kun, mashaqqatli, aziyatli onlar yetib keldi, biroq ularning ruhi tetik, qaddilari bukilmagan edi.

Ularning kiyib yurgan kiyimlaridan ko'p narsalarni va'da qilib, oxiri umidlarni chippakka chiqarib to'kilib ketgan boyliklari solingan yangi sotib olingan shisha idishlaridan boshqa hech narsalari qolmagan edi. Valdemar Do xazinani qo'yniga yashirdi, qoliga hassa oldi: bir vaqtlar mana shu mulkning boy-badavlat egasi bo'lgan kishi yoniga uchala qizini olib Borrebyudan chiqib ketdi. Men muzdekkina shabadam bilan uning lovillab turgan yuzini sovutdim, soqollari va oppoq sochlarini siypadim, qolimdan kelganicha qo'shig'imni aytdim: «G'uv-g'u-u! O'taver! O'taver!»

Dvoryanlikka xos hashamat ana shunday barham topdi!

Ida bilan Anna Dorteya otalari yonida borishardi. Yohanna darvozadan chiqib, orqasiga o'girildi. Nega deysizmi? Axir, baxt qaytib kelmaydi-ku. Qiz Mark Stig qasrinining g'ishtlaridan qurilgan qizil g'ishtli devorlarga boqdi, uning qizlarini esladi.

*Kattasi kenjasin qo'lidan tutib  
Jahonni kezmoq-chun otlandi yo'lga.*

Yohanna bu qo'shiqni xotirladimikin? Hozir haydalganlar uch qiz, yonlarida otalari ham bor. Bir vaqtlar karetada yurgan yo'llardan sudralib keta boshlashdi. Yiliga o'n marka to'lash sharti bilan ijara ga olingan Samizstrun dalasidagi hujralari tomon yo'l olishdi. Boy odamning yangi manzili yalang'och devorlar, bo'mbo'sh idishlar. Qarg'a va zag'chalar esa zaharxanda bilan «Qag'l Qag'l Xonavayronlik! Qag'-qag'l» – deb qichqirishdi, bir vaqtlar Borrebyu o'rmonidagi daraxtlar kesilayotganda ham shunday qichqirishgan edi. Ularning quloqlariga bor kuchim bilan puflab tursam-da, Do janoblari va uning qizlari bu qichqiriqlarning ma'nosini yaxshi tushunishdi.

Ular hujralariga kirishdi, men esa botqoqliklar va dalalar, «yalang'och butazorlar va daraxtlari qiyratilgan o'rmonzorlar ustidan ochiq dengiz, boshqa mamlakatlar

tomon guvillaganimcha yo'l oldim. G'uv-g'u-ul O'taver!  
O'taver! Shu zaylda yillar o'tib bordi.

\* \* \*

Xo'sh, Valdemar Do bilan uning qizlarining taqdiri nima bo'ldi, dersiz? Buni hozir shamol hikoya qilib beradi.

– Oq sunbul gul Anna Dortejani oxirgi marta uchratganimda bukchaygan kampir bo'lib qolibdi, axir oradan ellik yil vaqt o'tib ketgandi-da. Qolganlari o'lib ketgan, u esa endi ko'pni ko'rgan bir kampir edi. Viborg shahri yaqinidagi cho'lda bir ruhoniyning qizil g'ishtdan qurilgan hashamatli uyi bor. Uning mo'trisidan quyuq tutun buralib chiqmoqda. Ruhoniyning mehribon xotini va go'zal qizi deraza oldida, bog'dagi tog'olcha butalari orasidan cho'lga qarab o'tirishardi. Xo'sh, u tomonda bularni nima qiziqtirib qoldi ekan? Ular yarim vayrona uycha tomidagi laylak uyasini kuzatishmoqda edi. U yerni yo'sin va yovvoyi piyoz qoplab olgan edi. Aslida esa tomni laylak uyası eplab turibdi! Uycha yamalib-yasqalib tursada, uni laylak epaqaga keltirib turardi.

– Uychaga faqat qarash mumkin edi, biroq zinhor unga tegib bo'imasdi! Bu yerdan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan esib o'tardim, – deb hikoya qilibdi shamol. – Faqat laylak uyasining borligidan uychani qoldirishgandi, bo'limasa uni allaqachonlar buzib yuborishardi. Ruhoniy oilasidagilar laylakni haydab yuborgilari kelmadи, shu vajdan uycha ormon qoldi, ichida esa bir bechora kampir yashardi. Shu yerda boshipana topib turgani uchun kampir laylakdan minnatdor, ehtimol bir vaqtlar Borrebyu o'rmonida yashagan qoramtilr akasining uyasini buzishga yo'l qo'yaganligi uchun laylak kampirdan xursanddir. O'sha zamonlarda qashshoq kampir muloyimgina qiz, dvoryan oilasidan chiqqan oq sunbul gul edi. Anna Dorteja bularning hammasini yaxshi xotirlaydi.

•Oh! – Ha, odamlar, ham shamol qamishzor yoki qiyogni zorda oh urganday oh uradil! – Oh, Valdemar Do, qabring ustida qo'ng'iroqxona qo'ng'iroqlari jaranglamadil Uysiz!

joysiz qolgan Borrebyu hokimini tuproqqa qo'yishayot-ganda bechorahol maktab o'quvchilari kuylashmadi ham! Ha, hamma narsaning, hatto baxtsizlikning ham oxiri bo'ladi! To'ng'ich opasi Ida bir dehqonga turmushga chiqdi. Ana shu hol otaga qaqshatgich zarba bo'lib tegdi. Axir, kuyovi har qanday janob biyaga o'tqizib qo'yishi mumkin bo'lgan jirkanch bir qul-da! Hozir, ehtimol u ham, opasi Ida ham tuproq ostida yotishgandir! Ha, shunaqa! Faqat men bechoraga xudo qazo yetkazmayapti! Ey, parvardigor, mendan ham omonatingni olsang-chil!

Anna Dorteja laylak sharofati bilan omon qolgan hujrasida o'tirib ana shunday iltijo qilibdi.

- Opa-singillarning eng sog'lom hamda eng dadiliga o'zim g'amxo'rlik qildim! – deb davom etibdi shamol. – U o'ziga ma'qul bo'lgan kiyimlarini kiydi: yigitchasiga kiyinib, kemaga matros bo'lib yollandi. Qiz kamgap, qat'iyatli edi, ammo o'z ishini do'ndirib bajarardi, bitta aybi shu ediki, yuqoriga tarmashib chiqolmasdi! Boshqalar uning ayol kishi ekanligini bilib qolishmasdan suvga puflab yubora qoldim, xo'p ish qildim!

Valdemar Do oltin topdim deb o'ylagan kunidagidek pasxaning dastlabki kunida laylak uya qurgan tom ustidan Anna Dorteyaning oxirgi toat-ibodat ovozini eshitib qoldim.

Hujraning derazasi ham yo'q edi, uning o'rnida dumaloq tuynukcha bor edi; oltin barkashday bo'lib chiqqan quyosh nurlari shu tuynuk orqali hujraga tushdi. Uy ichi munavvar bo'lib ketdi! Anna Dorteyaning nigohi bu nurga bardosh berolmadi. U ko'zini asta yumdi; yuragi esa urishdan to'xtadil! Bu o'tinda quyoshning hech qanday aybi yo'q edi, bordiyu u o'sha tongda yuz ko'rsatmaganida ham shunday bolardi.

Laylak Anna Dorteja vafot etgunga qadar unga boshpана berdi. Men esa uning qabri ustida ham, otasi qabri ustida ham ashulamni aytaverdim, boshqalar bilmasa ham, men ularning qabri qayerdaligini yaxshi bilaman.

Yangi zamonlar, boshqa zamonlar! Eski qatnov yo'l endilikda atrofi o'rabi olingan poliz yonidan o'tadi, qabrlar ustidan esa yangi yo'l o'tadi. Hademay qator vagonlarini sudrab, unutilgan qabrlar ustidan pishqirib parovoz o'tadi. G'uv-g'u-u! O'taver!

– Valdemar Do hamda uning qizlari qissasi ana shunaqa. Qo'lingizdan kelsa uni durustroq hikoya qilib bering! – deb gapini tugatibdi shamol va boshqa yoqqa qarab yo'l olibdi.

Shu bilan uning qorasi ham ko'rinxmay qolibdi.

### **NONNI BOSGAN QIZ**

Siz kavushim iflos bo'lib qolmasin, deb nonni bosgani uchun yomon ahvolga tushib qolgan qizcha haqidagi hikoyani eshitgansiz. Bu haqda yozilgan ham, bosilgan ham. U kambag'al, biroq mag'rur, kekkaygan bir qiz ekan. Uning bema'ni qiliqlari ko'p ekan. Jajjigina qizchalik paytlarida pashshalarni tutib olib, qanotlarini yulib tashlashni yaxshi ko'rarkan; uchadigan pashshalar o'rmalaydigan bo'lib qolganda juda quvonar ekan-da. U tillaqo'ngiz va go'ng qo'ng'izlarni tutib, to'g'nag'ich sanchib qo'yar yoki oyoqlarining ostiga yashil yaproq yo bo'lmasa bir parcha qog'oz yopishtirib qo'yar ekan. Bechora tirmashib, to'g'nag'ichdan ozod bo'lish uchun aylanib, bukilaverarkan, Inge bo'lsa qotib-qotib kulaverarkan:

– Tillaqo'ng'iz o'qiyapti! Sahifalarni varaqlashini qarang! – deyarkan u.

U katta bo'lgan sari yomon qiliqlari ko'payaveribdi. Baxtga qarshi, u juda chiroyli ekan. Uni ko'p urishishar ekan-u, lekin yaxshilab tanbeh berib qo'yishmas ekan.

– Yaxshilab bir adabingni berib qo'yish kerak! – der ekan onasi. – Bolaligingda peshbandimni rosa toptagan eding, katta bo'lganingda qalbimni toptamasang go'rga edi, deb qo'rqaman.

Xuddi shunday bo'libdi.

Inge uyidan zodagonlar xonadonida xizmat qilgani jo'nab ketibdi. Zodagonlar unga o'z qizlariday munosabatda bo'lishibdi. Inge yangi kiyimlarda yanada ochilib ketibdi. Shu bilan birga, uning dimog'dorligi oshgandan oshibdi. U xo'jayinining uyida bir yil yashabdi, kunlarning birida ular qizga:

- Inge, ota-onalaringni bir ko'rib kelsang yaxshi bolardi! - deyishibdi.

Shunday qilib, u yo'nga chiqibdi, biroq ota-onasini ko'rib kelish uchun emas, balki egnidagi liboslarini ko'z-ko'z qilish maqsadida uyiga yo'l olibdi. U hademay qadrdon qishlog'i chekkasiga yetib kelibdi. Bundoq qarasa, anhor yoqasida qiz va yigitlar chaqchaqlashib turishganmish. Sal nariroqda esa tosh ustida o'rmondan yiqqan bir bog'lam o'tinini quchoqlaganicha qari onasi dam olib o'tirganmish. Inge shartta orqaga qaytibdi: shunday yasangan-tusangan oyimqizning mana shunaqa juldurvoqi onasi bo'lishi, buning ustiga o'tinni o'rmondan o'zi terib kelishidan u or qilibdi. Inge ota-onasi bilan diydor ko'rismaganiga zarracha afsuslanmabdi, qaytaga zardasi qaynabdi, xolos.

Oradan yana yarim yil o'tibdi.

- Inge, ota-onalaringni ko'rib kelishing kerak! - deyishibdi yana xo'jayinlar, - Mana senga oq non, buni olib borib qariyalarni bir xursand qilib kelgin, haqingga duo qilishadil

Inge eng yaxshi liboslarini, oyog'iga esa yangi kavushini kiyibdi, etagini sal ko'tarib, kavushim iflos bo'lib qolmasin deb, ehtiyyotkorlik bilan yo'nga tushibdi, buning uchun uni koyimasa ham boladi. Biroq, yo'nga botqoq tomonga burilibdi; loy bosib yurishga to'g'ri kelib qolibdi: Inge o'ylab-netib o'tirmay qo'lidagi nonni loyga tashlabdi, uni bosib, ko'lma suvdan oyog'ini ho'l qilmay o'tib olmoqchi bo'libdi. U nonga oyog'ini qo'yishi bilanoq non qiz bilan birga pastga cho'ka boshlabdi, ko'lma suv ustida qop-qora puffakchalar paydo bo'libdi, qiz bilan nondan nom-nishon qolmabdi!

Ana shunaqa xunuk hodisa yuz beribdi.

Inge qayoqqa botib ketdi? U botqoqlik alvastisining pivo pishiradigan joyiga cho'kib ketibdi. Botqoqlik alvasti si alvastilar hamda o'rmon devlarining xolasi ekan, bu hammaga ma'lum narsa, bular haqida kitoblarda ham yozilgan, qo'shiqlar to'qilgan, bir necha bor ularning suratlari chizilgan, botqoqlik alvastisi haqida esa hali ko'p narsa ma'lum emas; yoz oyalarida o'tloqlar ustidan tuman ko'tarilsa odamlar: «Botqoqlik alvastisi pivo pishiryapti! – deyishadi. Shunday qilib, qiz ana shu pivoxonaga tushib ketibdi, u yerda uzoq turishga hech kim bardosh berolmas ekan! Axlat o'ra botqoqlikdagi pivoxonaga qaraganda ming bor pokiza ekan! Pivo pishiradigan har bir idishdan kishi ko'nglini behuzur qilib yuboradigan badbo'y hid kelib turganmish, idishlar bir-biriga zinch joylashganmish; oralari sal ochiq joylarga yiltiroq, semiz baqalar o'rashib olganmish. Inge ana shunday joyga tushib qolibdi! Qiz o'zini ana shunaqa sovuq, yopishqoq, jirkanch tirik qorishma ichida ko'rib dahshatdan titrab ketibdi; badani qota boshlabdi. Non uning oyog'iga yopishib olib, qahrabo soqqa xasni tortqilaganday hadeb pastga tortarmish.

Botqoq alvastisi uyida ekan; o'sha kuni pivoxonaga mehmonlar kelishgan ekan, bu mehmonlar shayton bilan uning eng katta momosi – zaharli kampir ekan. Kampir hech qachon bekor o'tirmas ekan, hatto mehmonga ham birorta ermak olib borarkan: teridan kavushlar tikarkan, bu kavushni kiygan odamlar oromini butunlay yo'qotib qo'yisharkan. Kampir yana tuhmatlarni yoki odamlarning og'zidan chiqqan bejo, shaloq so'zlarni to'qirkan, xullas, uning turgan-bitgani inson zoti uchun koni ziyon ekan! Ha, shaytonning momosi tikishga ham, to'qishga ham juda chechan ekan!

U Ingeni ko'rib qolibdi, ko'zoynagini to'g'rilab qizga qarabdi-da, so'ng:

– Ie, bundan ish chiqadiganga o'xshaydi-ku! <sup>Uni</sup> bugungi tashrifimdan xotira qilib menga berilishini iltimos

qilaman! Undan chevaramning dahlizi uchun ajoyib but chiqadi, – debdi.

Botqoq alvastisi Ingeli kampirga beribdi, u esa do'zaxga tushibdi, qo'lidan yomon ish keladigan odamlar do'zaxga to'g'ri yo'l bilan emas, balki aylanma yo'l bilan tusharkan!

Dahliz oxiri yo'q joyda ekan, qiz oldinga qarasa ham, orqaga qarasa ham boshi aylanaveribdi. Hammayoq holdan toygan, shafqat eshigining ochilishini zoriqib kutayotgan gunohkorlar bilan to'lib ketgan ekan. Ular ancha vaqtidan beri kutib o'tirishgan mish. Judayam bahaybat, semiz, arang lapanglab yurgan o'rgimchaklar ularning oyoqlarini ming yillik iplar bilan o'rab tashlabdi. Bu arqonlar ularni iskanjaday mahkam tutib turgan mish, mis zanjirlardan ham mustahkam kishanlangan mish. Bundan tashqari, gunohkorlarning jonlari abadiy azob beruvchi tashvishda qiynalayotgan mish. Masalan, xasislar kalitini pul soladigan yashigi qulfida qoldirgani uchun qiynalayotgan mish. Boshqa ba'zilar... hamma gunohkorlarning tortayotgan azob-uqubatlarini sanayveradigan bo'sak, ado bo'lmaydi!

Inge but bo'lib turish qanchalik qiyinligini tushunibdi, oyoqlari xuddi nonga parchinlab qo'yilgandaymi.

«Mana, oliftagarchilikning oqibati! Kavushim iflos bo'lmasin deb shu ahvolga tushib o'tiribman-a! – debdi u o'ziga-o'zi. – Anavilarning menga o'grayishini qarangi!»

Chindan ham gunohkorlarning butun hirslari ko'zlarida chaqnab, baralla sezilib turardi; ularga bir qarashning o'zi dahshat edi!

«Xo'sh, menga qaraganning bahri dili ochiladi-kul! – deb o'yabdi Inge. – Go'zalman, kiyimlarim ham chakki emas!»

– Qiz kiyim-boshiga ko'z qirini tashlabdi. Chunki uning bo'yni qotib qolgan ekan. Oh, u botqoq alvastisining pivoxonasida balchiqqa bulanib ketibdi-kul! Bu haqda o'ylamagandi ham! Kiyimlari boshdan-oyoq shilimshiq bo'lib ketibdi, sochlariiga ilon chirmashib olib, dumi bilan bo'yniga shapillatib urayotgan mish, ko'ylagining har bir

qatidan semirib ketgan laychaday hurayotgan baqalar mo'ralab turganmish. Naqadar ko'ngilsiz! «Boshqalarning ahvoli menikidan yaxshi emas-ku!» deb o'z-o'ziga tasallli beribdi Inge.

Biroq, hammasidan ham ochlik azobi yomon bo'libdi Nahotki egilib, o'zi bosib turgan nondon bir burda sindirib ololmasa? Yo'q, qaddi egilmabdi, qo'l-oyoqlari qimirlamabdi, hammayog'i toshday qotib qolganmish. Faqat ko'zlar u yoq-bu yoqqa qaray olarmish, xolos. Ko'z soqqasini aylantirib orqa tomonga ham qarab bo'larmish. Tfу, naqadar qabihlik! Bu ham yetmaganday pashshalar paydo bo'lib, uning ko'zidan u yoq-bu yoqqa yura boshlabdi; u kiprik qoqibdi, lekin pashshalar uchib ketmabdi, ularning qanotlari yulib olingan ekan, faqat o'rmalay olishar ekan, xolos. Bundan ortiq azob bormi? Buning ustiga ochlik azobil! Bora-bora Ingega ichi o'zini-o'zi yeb bitirganday, qorni judayam bo'm-bo'shday tuyulibdi!

— Agar bu ahvol uzoq davom etsa, ortiq chidolmayman! — debdi Inge, lekin chidashga majbur bo'libdi; hech nima o'zgarmabdi.

Birdan boshiga issiq bir tomchi tomibdi, yuzidan dumalab ko'ksiga, so'ng nonga tushibdi; shundan keyin issiq tomchilar duv-duv to'kilaveribdi. Inge uchun kim ham achchiq-achchiq yig'lashi mumkin?

Axir, yer ustida onasi qolmaganmi? Onaning bolasi uchun to'kkan achchiq ko'zyoshlari hammavaq farzandiga yetib boradi. Biroq, uni azobdan xalos qilolmaydi, balki uning azobiga azob qo'shib kuydiradi. Eng yomoni dahshatli, bardosh berib bo'lmaydigan ochlik edil! Nonni bosib turish, undan bir burda sindirib ololmaslik qanday dahshat! Nazarida ichi o'zini yeb bitirganday tuyulibdi, o'zi esa har bir ovozni ichiga tortib oladigan ingichka g'ovak qamishday bo'lib qolibdi. Uyuqorida, yer betida o'zi haqida aytilgan gaplarni ro'yি ro'eshitibdi, lekin hammasi yomon gaplarmish. Hatto unga chin yurakdan kuyib-yonib yig'layotgan onasi ham «Dimog'dorlik yaxshilikka olib bormaydi! Dimog'dorlik

seni xarob qildi, Ingel Meni judayam kuydirding-ku, qizim!» – deb zorlanayotgan mish.

Ingening onasi ham, tepadagilarning hammasi ham uning qilgan gunohidan, nonni bosib, yer tubiga cho'kib ketganidan xabardor ekanlar. Bularning hammasini bir podachi tepalik ustidan ko'rib turgan ekan, o'sha podachi bu haqda boshqalarga ham aytib bergen ekan.

– Onangni rosa kuydirding-ku, Ingel – deb takrorlabdi onasi. – Boshqa narsani sendan umid qilmagandim ham!

«Dunyoga kelmaganim ming marta yaxshi edi! – debdi Inge o'ziga-o'zi. – Endilikda onamning men haqimda kuyib-yonishining nima foydasi bor?»

Inge bir vaqtlar uni o'z qiziday ko'rib munosabatda bo'lgan hurmatli zotlar – xo'jayinlarning ham: «U og'ir gunoh egasi. U parvardigorning nasibasini behurmat qildi, oyog'i bilan ezg'iladi, unga marhamat eshigi haliberi ochilmaydil» degan gaplarini eshitibdi. «Menga qattiq turib, yaxshi tarbiya berishganda edi! – o'yabdi Inge, – yomon qiliqlarim qolib ketardi!»

Inge odamlarning o'zi haqida to'qigan «kavushim iflos bo'lmasin deb nonni bosgan dimog'dor qiz haqida»gi qo'shiqni ham tinglabdi. Qo'shiqni mamlakatning hamma yerida kuylashayotgan mish.

•Bu qulqoq o'lgur nimalarni eshitmayapti-ya! Aybim uchun qanchalar azob chekyapman-a! – deb o'yabdi Inge.

– Boshqalar ham qilmishiga yarasha jazolansalar edi! Anchagina odam qiyinalardil! Voy, jonim qiyinalib ketdi!»

Ingening joni yanada dag'allashib, yanada shafqatsizlanib ketibdi.

– Manovilar orasida yaxshi bo'lib bo'psan! Yaxshi bo'lishni xohlamayman ham! Bularning o'qrayib qarashini ko'ring! – debdi u, nihoyat o'sha yerdagilarni yomon ko'rib, zardasi qaynabdi. – Tomosha topildi bularga, sevinishlari qara. Voy, jonim qiyinalib ketyapti!

Qiz o'zi haqida to'qilgan qissani bolalarga aytib berishganini ham, go'daklar uni xudosiz deb aytishganini ham eshitibdi.

- U shunaqayam jirkanch, ablakki, asti qo'yavering  
Endi jazosini tortsin! – deyishibdi bolalar.

Inge bolalarning og'zidan ham faqat la'natlar eshitibdi

Yana boshqa gal u ochlik va g'azabdan azob chekib turganida o'z nonini va o'zi haqidagi qissani takror eshitibdi. Qissani norasida bir qizchaga aytib berishayot-gan ekan, qizcha, dimog'dor, hovliqma, Ingega rahmi kelib zor-zor yig'labdi.

- Nahotki, u hech qachon yuqoriga qaytib chiqmasa?

- deb so'rabi.

- Hech qachon qaytmaydi! – deb javob qaytarishibdi unga.

- Bordi yu kechirishlarini so'rasha-chi, endi hech qachon bunday qilmaslikka va'da bersa-chi?

- U umuman uzr so'ramoqchi emas!

- Uning uzr so'rashini juda-judayam xohlardim! – debdi qizcha, shunday keyin anchagacha tinchlanmabdi.

- Agar uni yerga qaytarishsa qo'g'irchoq uyimni berardim! Bechora, sho'rlik Inge!

Bu so'zlar Ingening qalbigacha yetib boribdi: ko'ngli ancha taskin topganday bo'libi: «bechora Ingel» degan tirik jon endi topildi-ya! Uning gunohi haqida bir og'iz ham lom-mim demadi-ya! Jajjigina begunoh qiz yig'lab uning gunohi kechirilishini tilabdil Ingening qalbini allaqanday tuyg'u egallabdi; yig'lab yuborgisi kelibdi, lekin yig'lolmabdi, chunki yana yangi azob boshlanarkan-da!

Yer ustida yillar shamolday tez o'ta boshlabdi, yer ostida esa ahvol avvalgiday qolaveribdi. Inge o'z nomini kamdan-kam eshita boshlabdil Yer ustida uning nomini tobora kamroq tilga oladigan bo'lishibdi. Biroq, kunlardan bir kun qulog'iga, «Ingel Ingel Meni rosa kuydirding-kul! Shunday bo'lishini bilardim-al» – degan nido kelibdi. O'shanda onasi jon berayotgan ekan.

Ba'zan Inge o'z nomini qari xo'jayinlari og'zidan ham eshitib qolarkan. Xo'jayinning xotini hammavaqt hokisorlik bilan: «Inge, ehtimol sen bilan yana diydot

ko'risharmiz! Kim qayoqqa tushishini hech kim bilmaydi», -der ekan.

Biroq, Inge xo'jayinining xotini o'zi tushgan joyga tushmasligini yaxshi bilarkan.

Vaqt juda sekin o'ta boshlabdi. Nihoyat, Inge yana o'z nomini eshitibdi, tepasida ikkita yorqin yulduz chaqnab ketibdi: yer ustida bir juft ma'sum ko'z abadiy yumilibdi. Jajjigina qizcha «bechora Inge!» deb betinim yig'lagandan buyon ko'p vaqtlar o'tibdi; o'sha qizcha balog'atga yetib, qarib, Xudoning dargohiga borishga ham ulguribdi. Butun umrining xotiralari jonlanadigan oxirgi lahzada o'layotgan ayol Inge uchun to'kkан ko'zyoshlarini eslabdi va beixtiyor: «E, Xudo, ehtimol, men ham Inge singari sen hadya etgan rizq-ro'zingni bilmay oyoq osti qilgandirman. Ehtimol, ruhim ham dimog'dorlik bilan zaharlangandir. Faqat sening marhamatinggina qo'llab-quvvatlab, tubanlikka tushishimga yo'l qo'ymadil! Umrimning oxirgi damlarida menga marhamatingni darig'tutmagin!» – deb yuboribdi.

O'layotgan ayolning ko'zlari yumilibdi, biroq jonining ko'zlari Inge tomon boqibdi, chunki oxirgi lahzada uning fikri-xayoli Inge bilan band bo'lgan ekan-da, natijada u o'zining ruhiy nigohi bilan yerdagilarga mavhum bo'lgan manzarani, ya'ni Ingening qanchalik tuban tushganini ko'ribdi. Bu manzarani ko'rgan taqvodor ruh yig'lab-siqtabdi, Xudoning dargohiga borib, gunohkor ruhning gunohidan o'tishni go'dakligidagiday yig'lab, yalinib-yolvorib iltimos qila boshlabdi. Bu yig'i va yolvorishlar azobdan qynalayotgan Jonni o'rabi olgan qobiqda aks-sado bo'lib yangrabdi, unga bo'lgan tasodifiy mehr-u muhabbatdan Ingening ruhi qayta tug'ilganday bo'libdi. Xudoning farishtasi ham uning holiga yig'labdi. U bunday marhamatga qanday musharraf bo'ldi? Azoblangan jon butun o'tgan umriga nazar tashlabdi, o'z qilmishlarini ko'z oldiga keltirib, to'lib-to'lib yig'labdi. Inge ilgari bunaqa yig'i nimaligini hech bilmagan ekan. U o'ziga bo'lgan shafqat hissi bilan to'lib ketibdi; nazarida uning uchun shafqat

eshigi mutlaqo ochilmaydiganday tuyulibdi! U xuddi ana shu narsani chuqur anglashi bilanoq yer qa'riga bolalar hovlida tikkaytirib qo'ygan qorboboni ham bir zumda eritib yuborishga qodir bo'lgan kuchli quyosh nuridan ham o'tkir bir nur tushibdi. Bu nur Ingening jonini o'rav turgan qattiq qobiqni eritib yuboribdi. Jajjigina qushcha tubanlikdan erkinlikka o'qday uchib chiqibdi. Biroq, u o'zini yorug' dunyoda ko'rib uyat va dahshatdan qunishib ketibdi. Shosha-pisha yarim buzilgan qandaydir devorning qorong'i kovagiga kirib yashirinibdi. U o'sha yerda kunini qunishib, butun vujudi titrab, hech bir ovoz chiqarmay o'tkazibdi, aytganday, ovozi ham yo'q ekan-da. U atrofni tomosha qilishga jur'at etolmay, o'sha yerda uzoq o'tirib qolibdi. Ha, atrofdan baxra olishga arzigulik manzaralar ko'p ekan! Havo musaffo, yoqimli ekan, oy mo'l-ko'l kumush nur taratar, daraxt va butalardan muattar hidlar anqib turarkan. Qushcha yashirinib olgan joy biram shinam, o'zining pat va parlari shunaqayam toza, chiroylı ekanki! Parvardigorning olami mehr-muhabbatga, go'zalliklarga to'lib-toshib yotganmish! Qushchaning qalbida uyg'ongan barcha o'y-fikrlar tashqariga qo'shiq bo'lib chiqqisi kelibdi. Biroq, u qancha chiranasini sayray olmabdi; u kakku singari kukulomabdi ham, bulbul kabi to'lib-toshib sayray olmabdi ham! Biroq, parvardigor qurtlarning ham unsiz hamd-u sanosi, shukronasini eshitadi. U qushchaning ham shukronasini eshitibdi. Bu shukrona Dovudning qalbida jaranglagan duoday so'zsiz, ohangsiz yetib boribdi.

Qushchaning unsiz shukur qilishi kun sayin ko'payabdi, xayrli ishlarga qo'shilish uchun fursat poylabdi

Rojdestvo bayrami arafasi ham kelibdi. Bir dehqon devorga yog'och qo'yib, uning uchiga boshog'i yanchilmagan bir bog' suli ilib qo'yibdi – qushlar ham rojdestvo bayramini huzur qilib o'tkazishsin, debdi.

Rojdestvo bayrami tongida quyosh chiqib, bir tutan sulini yoritibdi; unga sayroqi qushlar yopirilishibdi. Devor kovagidan ham chirq-chirq degan tovush eshitilibdi

Qushchaning fikrlari tovushga qo'shilib ketibdi, uning ojiz chiyildoq ovozi chinakam shodlik gimniday jaranglabdi; uning fikrlari xayrli ishlarda ko'zga tashlanish uchun hozirlanibdi, qushcha o'z qarorgohidan uchib chiqibdi. Osmondagilar uning qanaqa qushcha ekanligini yaxshi bilishar ekan.

Qish qattiq kelibdi, suv beti qalin muz bilan qoplanibdi, qushlar va o'rmon hayvonlari uchun og'ir kunlar boshlanibdi. Kichkinagina qushcha chanalar yurib o'tgan qorliyo'l ustida uchib yurib don axtarib topar, otxonalarda non uvoqlarini topib olsa, o'zi bir dona uvoqni yeb, qolganlariga och qolgan boshqa chumchuqlarni chaqirarkan. U shaharlarga ham uchib boribdi. Atrofni kuzatib borarkan, derazalarda saxiy qo'llar maydalab qo'yan non uvoqlarini ko'ribdi, yana ulardan faqat bir donagina yeb, qolganlarini boshqalarga beribdi.

Qish davomida qushcha juda ko'p non uvoqlarini topib, boshqa qushlarga ularshibdi, agar ularning hammasini jamlansa, Inge kavushini avaylab bosgan non og'irligiga teng kelarkan. Eng oxirgi uvoq topilib, boshqa bir qushchaga berilgach, uning kulrang qanotlari oqarib, keng quloch yoyibdi.

– Ana, dengiz qaldirg'ochi uchyapti! – deyishibdi oppoq qushni ko'rgan bolalar. Qush goh to'lqinlarga sho'ng'ib, goh quyosh nurlari tomon uchib, birdan ana shu nur ichida yo'qolib ketibdi. Uning qayoqqa yo'qolganini hech kim ko'rmabdi.

– U quyoshta uchib ketdi! – deyishibdi bolalar.

## QO'NG'IROQXONA QOROVULI OLE

U dunyoda hammaning martabasi yuqorilayveradi, pastlayveradi, yuqorilayveradi, pastlayveradi! Men bundan ortiq martabaga erisha olmasam kerak! – derdi qo'ng'iroqxona qorovuli Ole. – Martabang ulug'lashadi, pastlashadi, ulug'lashadi, pastlashadi, buni hamma sinab

ko'rgan! Borib-borib hammamiz qo'ng'iroqxona qorovulla  
riga aylanib qolamiz – hayotga hamda boshqa narsalar  
yuqoridan pastga qaraganday qaraymiz.

Xushchaqchaq, gapga chechan qo'ng'iroqxona qorovulli  
bo'l mish oshnam ana shunday derdi. Sirtdan qaraganda,  
dili nima desa, tili ham shuni aytayotganday bo'lardi-yu,  
ammo ko'p narsalarni ko'nglining to'rida yashirib yurardi.  
Uning nasl-nasabi ham chakki emas ekan, odamlarning  
aytishiga qaraganda, u ulug' martabali bir amaldorning  
o'g'li ekan, o'zi ham o'shanaqa odam bo'lishi mumkin  
ekan; ma'lumotli bo'lgach, avvaliga o'qituvchining qo'lida  
ishlabdi, so'ng ruhoniya yordamchilik qilibdi, biroq  
bundan hech foyda chiqmabdi!

Ole ruhoniynikida bo'lganida har ishga hozir-u nozir  
bo'lib turarkan; u o'sha vaqtarda yosh yigitcha  
bo'lganidan o'ziga ortiqcha zeb berarkan; bir kuni u etigi  
uchun yaltiroq moy talab qilibdi, ruhoni esa unga oddiy  
etik moyi beribdi, ana shu bahona bo'lib oralari buzilib  
qolibdi. Biri xassisan desa, ikkinchisi bekorchisan, debdi.  
Etik moyi bahona, ular bir-birlari bilan yuz ko'rmas bo'lib  
ketishibdi. Baribir Olening talabi qondirilmay qolaveribdi:  
u keyingi hayoti davomida ham dunyodan yaltiroq etik  
moyi talab qilsa, oddiy etik moyi olaveribdi; u odamlardan  
yuz o'giribdi, darvesh bo'lib ketibdi. Biroq, darveshlik  
hujrasini, bir burda nonni faqat katta shaharlardagi  
qo'ng'iroqxonalardangina topish mumkin ekan. Ole katta  
shahar qo'ng'iroqxonasiga boribdi, minora tepasida  
trubkasini tutatganicha yakka-yolg'iz yashayveribdi. U  
pastga ham qarabdi, yuqoriga ham, ko'rgan-bilganini,  
kitoblardan o'qigani-yu ko'nglida to'qigani haqida so'zlab  
berarkan. Men uni tez-tez yaxshi kitoblar bilan ta'minlab  
turardim: Ole pand-nasihatdan iborat ingliz kitoblarini,  
g'ir-g'ir shabada va gul yaproqlarini tarannum qiluvchi  
fransuz romanlarini yoqtirmasdi. U mendan kishilar  
turmushi, tabiat mo'jizalari haqida yozilgan kitoblardan  
keltirishimni ko'proq iltimos qilardi. Men Ole huzuriga  
kam deganda bir yilda bir marta, odatda yangi yildan

keyinroq tashrif buyurardim; bu paytgacha oshnam menga bir olam gap to'plab qo'yardi, uning bisotida albatta yil o'zgarishiga oid biror gap bo'lardi.

Bu o'rinda uning huzurida ikki marta bo'lganim haqida so'zlab beraman. Olening so'zlarini qanday bo'lsa, xuddi o'shanday bayon qilaman.

### Birinchi tashrif

Olega oxirgi marta olib kelgan kitoblarim orasida xarsangtoshlar to'g'risidagi bir kitob bor edi, shunisi unga juda ma'qul tushibdi.

– Xarsangtoshlar yubileyini o'tkazish kerak ekan! – dedi menga Ole. – Ularning yonidan o'tib ketaverishadiyu payqashmaydi. Yuzlarcha xarsangtoshlar yumalab yotgan dala va sohillar bo'ylab sayr qilib yurganimda o'zim ham shunday qilardim. Tosh yo'lga terilganlarini esa oyoq bilan bermalol toptashaveradi! Men ham shunday qilganman! Mana endi tosh yo'lning har bir toshiga chuqur ehtirom bilan qarayman! Manavi kitob uchun katta rahmat! Bu kitob meni o'ziga maftun qildi, odatdagi hamma fikrlarimni bir chetga surib qo'ydi, endi bo'lsa ana shunaqa kitoblardan ko'proq o'qisam deb betoqatlanyapman. Zamin romani boshqa romanlardan ko'ra maroqliroq! Afsuski, uning dastlabki boblarini o'qish mumkin emas: bular biz o'rganmagan tilda yozilgan: ularni yerdagi turli tosh davrlariga bo'lib o'qishga to'g'ri keladi, asosiy qahramonlar Odam Ato bilan Momo Havo faqat oltinchi bobda ko'rinishadi. Ayrim kitobxonlar uchun bu kechikib ko'rinishga tuyuladi: ularga qolsa romanning boshidayoq tirik qahramonlar qatnasha qolsa, menga esa baribir. Ha aytganday, bu roman judayam maroq bilan o'qiladi, bu romanda hammamiz tilga olinganmiz! Biz suvda shapir-shupir qilib cho'milamiz, g'imirlashamiz, o'rmalaymiz, biroq hech joyimizdan qimirlamaymiz, yer kurrasi bo'lsa okeanni ustimizga ag'darib yubormay aylanaveradi, aylanaveradi.

Biz yuradigan yer qatlami qattiq, shu sababli botib ketmaymiz. Roman million-million yillarni qamrab oladi, oxiri esa ko'rinmaydi. Toshlar haqidagi kitob uchun rahmat. Barakalla ularga! Gapirishni bilishganda ko'p narsalarni aytib berishardil Rostini aytsam, manovi yerda, minoraning ustida o'tirib olib, hammamiz o'zimizning yarqiroq etik moylarimiz, ordenlarimiz, oldinga intilishimiz – hammasi yer yuzida bir zumlik, chumolicha hayot singari ahamiyatsiz bir narsa ekanligini xotirlash juda qiziq narsa-da! Ha, million yoshli xarsangtoshlar oldida o'zingni bir go'dakday his etasan, o'ng'aysizlanib ketasan kishi. Men bu kitobni Yangi yil arafasida o'qib chiqdim. Kitobga shunchalik berilib ketibmanki, odatdagiday «Amagerga yovvoyi to'danining yelib borishi»ni huzur qilib kuzatishni ham unutibman. Aytganday, bundan siz bexabarsiz!

Alvastilarning jinlar bazmiga uchib borishini hamma biladi; ular Ivan tunida Broken tepaligiga uchib kelishadi. Biroq, biz tomonlarda Yangi yil kechasi Amagerda o'zimizning mahalliy, zamonaviy jinlar bazmi bo'ladi. Barcha no'noq shoir va shoiralar, sozandalar, jurnalistlar va boshqa hech vaqoga arzimaydigan ustabuzarmonlar Yangi yil kechasi Amagerga uchib kelishadi. Ular mo'yqalam yoki g'oz patlariga minishib uchishadi, po'latdan yasalganida uchisha olmaydi, chunki ular juda qattiq bo'ladi, egilmaydi. Men hali aytganimday, bu yovvoyi jin to'dalarini har yili tomosha qilaman, ana shu sayohatchilarning ba'zilarini nomma-nom aytib berishim ham mumkin, biroq yaxshisi, ularga ishingiz tushmasin! Har yili kechasi pat minib Amagerga uchib kelishlarini boshqalardan nihoyatda sir tutishadi. Lekin mening baliq bilan savdo qiladigan, uchta e'tiborli gazetani haqoratli so'zlar bilan ta'minlab turadigan bir qarindoshim bor. Ana shu ayol bir gal jinlar bazmida mehmon bo'lgan ekan. Patda ucholmagani uchun o'sha yoqqa uni jinlar ko'tarib olib borishibdi. Bu haqda u menga bat afsil gapirib berdi. U aytgan narsalarning yarmi g'irt yolg'on, qolgan yarmi ham yolg'ondan holi emas. Bayram qo'shiqlar bilan boshlanibdi.

har bir mehmon o'zi yozgan ashulasini kuylabdi. Shunday bolgach, har kimniki o'ziga yaxshi ko'rnaveradi-da! Baribir emasmi? Hamma bir maqomda ashula aytibdi! Keyin «til zahmatkashlari» kichik-kichik to'da bo'lib yurish boshlabdi. Bu to'dalarda uylarga qo'ng'iroq qiladigan qo'ng'iroqchilar bor ekan. Keyin esa istaganlar oddiy bo'yoqni yaltiroq moy o'tnida o'tkazish uchun imzosiz maqolalar yozadigan yozuvchilar bilan tanishisharkan. Ular orasida jallod bilan uning yordamchisi bor ekan; yordamchining tili o'ta zahar ekan, aks holda unga hech kim e'tibor bermagan bolardi. Bu yerda yashikdan har gal axlat ilib olayotganda: «Yaxshi, juda yaxshi, ajoyib!» – deb turadigan bir axlat yig'uvchi ham bor ekan! «Xursandchilik» rosa avjiga minganda axlat o'radaingichka poya, daraxt, judayam xunuk gul, haddan tashqari katta qo'ziqorin, butun bir tom o'sib chiqibdi; bu hurmatli anjumanning «archasi» ekan; archaga eski yil davomida nima yaratgan bo'lsalar, hammasini osishgan ekan. Archadan beqaror olovlar sachrarmish; bular o'zlashtirib olingan fikrlar va shu anjuman qatnashchilari foydalanayotgan ijara olingan g'oyalari ekan. Endi ular ozod bo'lib, mushak singari osmonga o'rlayotgan mish. Shundan keyin «darra o'yin» boshlanibdi, yosh ijrochilar «qalb yondi» o'yini qilishibdi, so'zamollar bir-biriga o'tkir so'zlarni qota boshlabdi. O'tkir so'zlar eshikka bo'sh ko'za yoki kul to'la ko'za urilib singanday gumburlay boshlabdi. Qarindoshimning gapiga qaraganda, ko'z ko'rmagan, qulqoq eshitmagan ajoyib xursandchilik bo'libdi! Rostini aytsam, u yana bir talay mudhish, lekin oqilona fikrlarni ham aytdi, men ularni takrorlab o'tirmayman; tanqidchi bo'lgandan ko'ra, ko'ngilchan odam bo'lgan ma'qul. Endi ana shunaqa bayramdan xabardor bo'lganim holda har yili Yangi yil kechasi jinlarning yovvoyi galasi ko'chishini ko'rishdan mahrum bo'lib qolishdan qo'rqishimni fahmlagan bo'sangiz kerak. Ba'zi yillar oldingi sayohatchilar yoniga yangilari qo'shilib qolganini ham ko'raman. Bu yil esa tomoshadan quruq qoldim. Men xarsangtoshlar bilan birga million yil

oldingi o'tmishga sayohat qildim, ularning Shimol qoyalaridan uzilib tushishlari, pastga qulashlari, muz ustida Nuh payg'ambar kemasi qurilguncha suzib yurganini, suvgaga dumalab tushganini, teranlikka cho'kib ketganini, keyin yana «Bu yer Yangi Zelandiya!» - deb baqirgan qumli sohil bilan yuqoriga ko'tarilganini ko'rdim. Ana shu toshlarning zoti bizga ma'lum bo'lmagan qushlar uchun boshpana bo'lganini, biz nomini bilmagan yovvoyi drujinalar boshlig'i uchun taxt vazifasini o'taganini ham ko'rdim; nihoyat, ba'zi xarsang toshlarni bolta bilan taroshlab, ularga turli belgilarni o'yishganini ko'rdim. Shunday qilib, ana shu toshlarga vaqt o'lchovida alohida o'rinni ajratilgan. O'zim esa vaqt haqidagi har qanday tasavvurni mutlaqo yo'qotdim, ahamiyatsiz bir narsa bo'lib qoldim... Shu payt osmonda uch-to'rtta chiroyli yulduzlar uchdi, fikrlarim ham o'zgarib ketdi. Uchar yulduzlar nimaligini bilasizmi? Olimlar buni bilishmaydi! Men ularga boshqacha ko'z bilan qarayman.

Ko'pincha odamlar ajoyib, xayrli ishlar qilgan kishilariga pinhona, unsiz rahmat yo'llaydilar; rahmat so'zi aytarli jarangdor bo'masa-da, hech behuda ketmaydi. Menimcha, ana shu unsiz, pinhona rahmat quyosh nuriga singib, so'ng rahmat olgan odam boshidan sochilsa kerak. Bordingu, butun bir xalq allaqachonlar o'lib ketgan yaxshi odamga minnatdorchilik yo'llasa, uning qabriga osmon dan yarqiroq guldasta, ya'ni yulduzlar uchib tushadi. Ana shunaqa minnatdorchilik guldstasi olishga sazovor bo'lgan yaxshilarni Yangi yil kechasi payqab olishdan olam-olam huzur qilaman. Eng oxirgi marta yulduz janubi-g'arbiy sohilga uchib tushdi; bu juda ko'p odamlarga yollanma, son-sanoqsiz rahmatlar edi! Kimlarga deysizmi? Menimcha, yulduz Flemsborg ko'rfazining qiyasohillariga, Shlepnegrel, Lesse hamda ularning o'rtoqlari

yotgan qabrlar ustiga, Dannebrog bayrog'i hilpirab turgan joyga tushgan bo'lsa kerak. Boshqa bir safar yulduz mamlakatning qoq o'tasiga - Soryoga, Xolberg qabriga tushganini ko'rdim. Bu uning antiqa komediyalari uchun kitobxonlar yo'llagan rahmatdir.

Qabringga ana shunday yulduz kelib tushganini payqash naqadar zo'r, quvonchli narsa! Mening qabrimga birorta ham yulduz tushmaydi, ozgina quyosh shu'lesi ham rahmat keltirmaydi - bunga arziyidigan ish qilganim yo'q! Men yarqiroq etik moyini ham qo'nga kirta olmadim: oddiy etik yog'iga qanoat qilish qismatim.

### Ikkinchchi tashrif

Yangi yilning birinchi kuni qo'ng'iroqxonaga chiqdim. O'sha kuni Ole eski yilni kuzatib Yangi yil kutilganda siperqariladigan qadahlar haqida gap boshladi. Shunda undan qadahlar haqidagi hikoyani eshittdim, bu fikrlari ham chakki emas.

- Yangi yil arafasida soatlar o'n ikkiga zang urishi bilanoq, odamlar qo'lda qadahlar bilan joylaridan turishadi hamda Yangi yilning yaxshi kelishi uchun qadah ko'tarishadi. Yilni qo'lda qadah bilan boshlashadi - ichkilikbozlar uchun bu yaxshi qadam! Yangi yilni uyquga yetish bilan boshlashadi - yalqovlar uchun bu ham yaxshii! Chindan ham uyqu bilan qadah yil bo'yli muhim rol o'ynaydi! Qadahning ichida nimalar borligini bilasizmi? - so'rab qoldi Ole mendan. - Uning ichida sog'liq, baxt va xursandchilik bor! Lekin ularda musibat va baxtsizlik ham yo'q emas! Qadahlarni hisoblash, bu mastlik darajasini hisoblashdir.

Dastlabki qadah - salomatlik! Unda salomatlik guli o'sadi; uni uyingga o'tkazsang, yil oxirida salomatlik kursisida o'tirasan!

Ikkinchchi qadahga kelsak, undan bir qushcha uchib chiqadi; u xursand, beg'araz sayraydi, kishi unga qulog solib o'tirib beixtiyor: «Hayot naqadar go'zal! G'amga

\* Bu yerda gap birinchi Daniya-Prussiya urushida (1848-1850) qahramonlarcha halok bo'lgan Daniya ofitserlari haqida boradi.

berilish kerak emas! Dadil olg'a intilmox lozim!» – deb yuboradi.

Uchinchi qadahdan kichkinagina qanotli bir maxluq uchib chiqadi, uni farishta deb bo'lmaydi – u uy jinlari zotidan, ammo sizni masxara qilmaydi, balki hazillashadi. U kishining qulog'iga yopishib olib, qiziq-qiziq uydirma to'la hikoyalarni shivirlab ayta boshlaydi, kishining qalbiga kirib oladi, uni shunaqayam isitadiki, kishi hazillashgisi, sho'xlik qilgisi keladi, o'ziga o'xshash askiyabozlarning fikricha, chindan ham askiyaboz bo'lib qoladi.

To'rtinchi qadahda na gul, na qush, na qanotli hazilkash bor; uning ichida kishi aqlini loyqatadigan shayton o'tiradi, shu vajdan to'rtinchi qadahga o'tmagan ma'qul.

Bordiyu beshinchi qadah sipqariladigan bo'lsa, kishi o'z ahvoliga yig'laydi, ko'ngli vayron bo'ladi yoki shovqin solib, dunyoni boshiga ko'taradi; qadah ichishdan sho'x, tilini jilovlay olmaydigan karnaval shahzodasi sapchib chiqadi! U seni ergashtirib ketadi, e'tiborli odam bo'lsang qadr-qimmatning ham yo'qotasan! Qo'lingdan kelgandan ham ko'proq narsani unutib qo'yasan. Qo'shiq, raqs, qadahlar jarangi!.. Niqoblar seni girdikapalak bo'lib aylanishga da'vat qiladi. Ko'z oldingda shaytonning qizlari harir, shoyi ko'yylaklarda sochlarini yozib g'amza qiladi, qomatlari kelishgan, chiroyli... Ulardan ko'z uzib bo'psan!

Oltinchi qadah! Uning ichida bashang kiyangan, so'zamol, istarasi issiq, o'ta xushfe'l qiyofadagi shaytonning o'zi o'tiradi! U seni yarim so'zingdayoq tushunadi, hamma fikrda sening haqligingni ta'kidlaydi, u sening ikkinchi bir timsolingga aylanadi, qo'lida bir fonus tutib seni uyiga boshlab ketaveradi. Aytganday, qadimiy afsonalardan birida bir avliyoga, yettita gunohdan birini tanlab ol, deyishibdi. U eng yengil gunoh deb ichkilikbozlikni tanlabdi, biroq ichkilikning kasofatu bilan qolgan gunohlarga ham botib ketibdi. Oltinchi qadahda shayton qoni bilan inson qoni aralashgan bo'ladi.

Uni ichishing bilanoq qalbingda yashirinib yotgan yomonlik urug'lari darhol unib barg yozadi, injildagi xantal urug'iday bir zumda shoxlab katta daraxtga aylanadi, o'z soyasi bilan butun olamni qoplaydi. Ko'p odamlar shundan keyin qaytadan o'ziga keltirish uchun jo'natiladi!

- Qadahlar tarixi ana shunaqa! – deb gapini tamomladi Ole. – Uni yarqiroq etik moyidek qiyomiga yetgan gaplar bilan ham, oddiy etik moyidek oddiy so'zlar bilan ham hikoya qilib berish mumkin. Men unaqasigayam, bunaqasigayam so'zlayveraman.

Bu Olening huzuriga ikkinchi tashrifim edi; yana hikoya tinglamoqchi bo'sangiz, uchinchi marta ham tashrif buyurishim mumkin.

## ANNE LISBET

Anne Lisbet yosh, quvnoq, husnda tengi yo'q, naqsh olmaday bir qiz edi. Tishlari ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq, ko'zlari yonib turardi, qushday yengil raqsga tushardi, hayot kechirishi esa undan ham yengilroq edil! Xo'sh, undan qanday farzand tug'ildi? Jirkanch bir o'g'il dunyoga keldi! Shunaqayam hunukki, asti qo'yavering! Uni tarbiyalash uchun yer qazuvchining xotiniga berishibdi. Anne Lisbetning o'zi esa graf qasrida, hashamatli xonada istiqomat qila boshlabdi; uni shoyibaxmallarga o'rab tashlashibdi, hatto unga shamolni ham ravo ko'rishmabdi, hech kimning unga qattiq gapirishga haddi sig'mas ekan: agar shunday qilishadigan bo'lsa, uning ko'ngli vayron bo'lishi, kasal bo'lib qolishi ham hech gap emas ekan. Axir u emizikli, yosh grafzodani boqarkan-dal Grafzoda shunaqayam muloyim, nozik ekanki, bu shahzodani ko'rsang xuddi farishtaning o'zi deysan. Anne Lisbet unga shunaqayam mehribon ekanki, asti qo'yaverasiz! Uning o'z o'g'li esa bo'tqa o'rniga sassiq ig've gaplar qaynab turgan yer qazuvchining uyida yashabdi, <sup>u</sup> xonada yolg'iz qolib, kuni bo'yи yig'lab baqiraverar ekan.

Hech kimning unga rahmi kelmas ekan! U holdan toyib uqlab qolguncha yig'lar ekan, uyquda esa kishi ochlikni ham, sovuqni ham sezmaydi, umuman olganda uyqu ajoyib kashfiyot! Yillar ketidan yillar o'tibdi. Anne Lisbetning o'g'li ham o'sib katta bola bo'libdi. U yer qazuvchining xonadonida qolib ketibdi. Anne Lisbet buning uchun ularga uzil-kesil haq to'labdi. O'zi shaharlilik xonim bo'lib qolibdi. U juda yaxshi yashay boshlabdi, hatto boshiga shlyapa kiyib yuribdi, biroq yer qazuvchi xotinning uyiga bir marta ham bormabdi. Borib nima ham qilardi. Bola endi ularniki bo'lsa. Bolaga non yeishni bilgandan keyin uni topishni ham bil, deyishibdi. Qolidan ish keladigan bo'lib qolgan ekan, unga Made Yensemning malla sigirini boqishni topshirishibdi.

Bo'yoqchining hovlisidagi zanjirband it havo ochiq kunlari uyasining tomiga chiqib olib, o'tgan-ketganlarga hurar, yomg'irli kunlar esa iniga kirib ketar ekan: u yer quruq va issiq ekan-da. Anne Lisbetning o'g'li havo ochiq kunlari ariq bo'yida yog'och yo'nib xayol surib o'tirarkan: bahorda ariq labidagi uch dona maymunjon gulini ko'zlab qo'yan ekan, «ehtimol, ular meva tugsa kerak», deb o'yabdi. Ana shu o'y unga dunyo-dunyo quvonch bag'ishlar, biroq mevaning pishishidan hech darak bo'lmasdi. U yomg'irda ham, shamolda ham ariq bo'yida o'tirarkan, kiyimlari ivib ketarkan, qattiq shamol uni yana quritib qo'yarkan. Bordiyu boyning uyiga borib qolsa, uni shapaloq va tepkilar bilan siylasharkan, qiz va yigitlar uni isqirt, xunuk, jirkanch deb atasharkan. U bo'lsa mehr-muhabbatsiz, shirin so'zsiz hayot kechirishga o'rganib qolibdi!

Xo'sh, Anne Lisbetning o'g'li bu yorug' dunyoda nima ko'rdi? Uning boshiga qanday kunlar tushdi? Har qanday mehribonchilik va erkalatishlardan bebahra yashabdil!

Nihoyat uni yer yuzidan ham surishibdi – shaloq <sup>bir</sup> kemada dengiz safariga jo'natishibdi. U rul boshqaribdi, kapitan esa hadeb ichaveribdi. Bola isqirt va badnafslig bilan nom chiqaribdi. U umrida to'yib ovqat yemagan

bo'lsa kerak, deb o'yasharkan odamlar. Ha, u ana shunaqa ekan.

Kech kuz, hammayoq nam, qorong'i, sovuq ekan; dengiz shamoli qalin kiyimlardan ham o'tib, suyaksuyaklarga zirqiratarkan. Suvda esa ichida ikkita, ikkita emas, bir yarimta odami bor bir yelkanli shaloq kema suzib borarkan. Bu bir yarimta odam kapitan bilan bola ekan-da. Kunbo'yi nimqorong'i bo'lib, quyosh yuzini ko'rsatmabdi, kechqurunga borib, hammayoq zimiston bo'lib ketibdi, sovuq kuchaygandan kuchayibdi. Kapitan sovgotmay deb ichaveribdi; stol ustidan shisha bilan ryumka tushmabdi; ryumkaning oyog'i sinib ketganidan o'niga moviy rangga bo'yalgan yog'och poya qo'yilgan ekan. «Bir qultumi yaxshi, ikki qultumi undan ham yaxshi», – o'ylabdi kapitan. Bola esa qoramoyga bo'yalgan dag'al qo'llari bilan rulni mahkam ushlaganicha o'tiraveribdi. U nihoyatda xunuk ekan: sochlari dag'al, yuzlari so'niq, turqi sovuq... Ha, yer qazuvchining bolasi, cherkov kitoblari bo'yicha esa Anne Lisbetning o'g'li boshiga ana shunday kunlar tushibdi.

Shamol suvni o'z bilganicha, kema ham o'z bilganicha to'lqinlantirib boraveribdi. Yelkan shishibdi, shamol kemani surib ketibdi, kema o'qday uchibdi. Hammayoq nam, qop-qorong'imish. Biroq, bu hammasi emas! To'xta, to'xta! Nima bo'ldi o'zi? Bu qanaqa silkinish bo'ldi? Kema nega ko'tarilib tushdi? Qanday voqeа yuz berdiykin? Mana, u aylanib, chirpirak bo'lib ketdi... Nima balo, jala quyib, kemani to'lqinlar qa'riga olyaptimi? Rul boshqarib borayotgan bola «e xudo!» deb baqirib yuboribdi. Kema suv osti qoyasiga borib urilibdi, u ariqqa tushib ketgan eski kavushday cho'ka boshlabdi. Odamlar aytganday, «barcha odamlari-yu sichqonlari» bilan g'arq bo'lib ketibdi. Kemada sichqon yo'q ekan-u, ammo bir yarimta odam: kema egasi bilan yer qazuvchining o'g'li bor ekan. Baqiroq chag'aloq va baliqlardan boshqa hech kim bu halokatni ko'rmabdi, hatto ular ham durustroq ko'risha olmabdi, chunki suv cho'kayotgan kemaga shovqin va qahr bilan

yopirüganda ular qo'rqqanlaridan har qayoqqa tiraqaylab qochib ketishgan ekan. Kema suv ostiga bor-yo'g'i bir sarjin chuqurlikka cho'kibdi! Kapitan bilan bola suv ostida qolib unutilib ketishibdi. Suv betiga moviy rangga bo'yalgan yog'och moyali ryumka suzib chiqibdi, ana shu yog'och taglik ryumkani yuqoriga suzib chiqishga majbur qilibdi-da. To'lqinlar uni surib ketibdi, sindiribdi *va* sohilga chiqarib tashlabdi. Qachon, qayerda? Baribir emasmi? Axir u yoshini yashab, oshini oshab olgan-ku. Anne Lisbetning o'g'lidan ko'ra arzandaroq bo'lgan-kul Biroq, samoviy qasr ichiga qadam ranjida qilgan har bir jon bir umr na mehr-oqibat, na mehribonchilikdan bahra olmaganligini butunlay unutib yuboradi!

Anne Lisbet shaharda yashay boshlaganiga ancha yil bo'libdi. Endi unga hamma «xonim» deb murojaat qilarkan. Bordiyu gap u graf uyida yashagan, karetalarda yurgan, grafinya va baronessalar bilan suhbat qurgan zamonlar xususida ketsa, burni juda ko'tarilib ketar ekan! Eh, grafning o'g'ilchasi judayam chiroyli, farishtalarga o'xshagan bola edi, uning jon-u dili edii! Ular bir-birlarini nihoyatda yaxshi ko'rishardi! Bir-birlarini o'pishardi, silab-siypalashardi; bolakay uning quvonchi, umridagi ishongan tog'i edi.

Endilikda kap-katta bola bo'lib qolgan, yoshi ham o'n to'rtda. U turli fanlarni egallahsga kirishibdi. Biroq Anne Lisbet uni qo'lida ko'tarib yurgan zamonlardan beri ko'rmagan ekan. O'shandan beri grafning qasrida ham bo'lmagan ekan, chunki u ancha uzoqda yashar ekan-da.

– Qachon bo'lmasin o'sha yoqqa bir borib kelaman! – debdi Anne Lisbet. – Davlatim, grafginamning diydoriga bir to'yishim kerak! U hozir meni rosa sog'ingandir, meni o'ylayotgandir, meni avvalgiday chuqur, mehr-muhabbat bilan sevsaga kerak! Axir, momiq qo'ichalari bilan bo'ynimdan quchoqlab, endi chiqayotgan shirin tilida *An Lis!* – degan paytlari ham bo'lgan. Ovozi yoqimi musiqaning o'zginasi edi! Ha, borib ko'rish, uning diydoriga to'yish kerak!

Shunday qilib, u yo'nga tushibdi; u tor va keng yo'llardan yura-yura oxiri graf qasriga yetib boribdi. Qarasa, qasr ilgarigiday ulug'vor, hashamatli emish, qasrga kiraverishdagi bog' ilgarigiday yashnab turganmish, ammo xizmatkorlar yangi emish. Ular Anne Lisbetning kimligini, ilgari bu xonadonda kim bo'iganini bilishmas ekan. Hechqisi yo'q, grafinyaning o'zi ham, grafning o'g'i ham bu haqda ularga uqtirishadi. Grafning o'gilchasini shunaqayam sog'inganki!

Mana, nihoyat Anne Lisbet ichkariga kiribdi, u ancha kutib qolibdi, kishi kutganda vaqt juda sekin o'tadi! Janoblar dasturxonga o'tirishlaridan oldin uni grafinya huzuriga chaqirishibdi, grafinya uni juda iliq, yaxshi kutib olibdi. Anne Lisbet aziz grafvachchasini tushlikdan keyingina ko'tibdi. Zodagonlar ovqatlanib bo'lishgach, uni huzurlariga yana chaqirishibdi.

Kichik grafning bo'yи ancha cho'zilib, ozg'inlashib qolibdi! Ammo ko'з va og'izlari hamon ilgarigidaymish! Kichik graf unga qarabdi-yu, hech nima demabdi. Tanimagan bo'lsa kerak. U ketmoqchi bo'lib endi burilgan ekan. Anne Lisbet uning qollarini mahkam ushlab, lablariga bosibdi. «Xo'п, yaxshi, yaxshil!» – debdi bola va xonadan chiqib ketibdi. Uning ishongan tog'i, mehr-u muhabbat, g'ururi u bilan shunchalik sovuq so'rashibdi-ya!

Anne Lisbet qasrdan xomush bo'lib chiqibdi. Kichik graf uni xuddi begonalarday qarshi olibdi, butunlay unutib yuboribdi. Bir vaqtlar kecha-yu kunduz qo'lidan qo'ymay ko'tarib, endilikda esa uni yod etib yurgan enagasiga bir og'iz bo'lsa-da, iliq so'z aytmabdi.

Birdan Anne Lisbetning oldidan kattakon qora qarg'a uchib o'tibdi va bir necha bor qag'illabdi.

– Eh, shum niyatli qush! – debdi Anne Lisbet. Anne Lisbet yer qazuvchining kulbasi yonidan o'tib ketayotgan ekan, qarasa, eshik oldida xotinlar gurunglashayotganmish.

– Voy-bo', munchayam lorsillab ketibsan! – debdi yer qazuvchining xotini. – Semiz, sog'lom! Turmushing yaxshiga o'xshaydi!

– Chakki emas! – debdi Anne Lisbet.

– Ular bo'lsa kemalari bilan g'arq bo'lib ketishdi! – deb  
gapida davom etibdi ayol. – Ilkovi ham: kapitan Lars bilan  
bola cho'kib ketishdi! Hammasi tamom! Men bo'sam bola  
ulg'ayib, yonimizga kirib qolar, degan umidda edim! Anne  
Lisbet, sen uchun uning bir chaqaliq qadri yo'q edil

– Ular g'arq bo'lismadi? – debdi Anne Lisbet, so'ng bu  
haqda boshqa gap bo'lmasdi. Axir u judayam xafa ekan-  
da. Chunki kichik graf u bilan ganlashmadi! Uni judayam  
sevardi, uni deb, diydoriga bir boqay deb qancha yo'l yurib  
kelgandi, qanchadan-qancha sarf-xarajatlar qilgandil  
Hammasi behuda ketdi. Lekin u bu haqda lom-mim  
demabdi, yer qazuvchining xotini oldida xasrat qilishni  
istamabdi. Anne Lisbet graf oilasida hurmatini yo'qtob  
qo'yibdi deb o'yashlari mumkin ekan-da! Shu payt uning  
boshi ustida yana qarg'a qag'illabdi.

– Hu qo'riqlamay o'lgur! – debdi Anne Lisbet. – Nega  
bugun meni hadeb qo'rqtaverasan?

U safarga chiqish oldidan yoniga qahva va unga qo'shib  
qaynatilgan ba'zi bir ildizlar solib olgan ekan; yer  
qazuvchining xotinini siylash uchun bulardan bir chim-  
dim berib qo'yishining o'zi boyaqish ayolga ko'rsatilgan  
katta himmat bo'larkan. O'zi ham undan bir piyolagina  
ichmoqchi bo'libdi. Yer qazuvchining xotini qahva  
qaynatgani chiqib ketibdi. Anne Lisbet esa stulga o'tirgan-  
cha pinakka ketibdi. Buni qarangki, g'aroyib bir tush  
ko'ribdi: tushida biror marta xayoliga kelmagan odamni  
uchratibdi. Uning tushiga xuddi shu kulbada och qolib  
yig'lagan, qarovsiz katta bo'lgan, hozir esa dengiz tubida  
yotgan o'z o'g'li kiribdi. Tushida hozir o'tirgan joyida  
o'tirgan mish, yer qazuvchining xotini qahva qaynatish  
uchun tashqariga chiqqan mish, mana, qahvaning xushboy'

hidi dimog'iga urilibdi, ostonada grafning o'g'ilchasidan  
ham xushro'y bir bola paydo bo'libdi, unga yuzlanib:

«Qiyomat boshlandi! Endi etagimdan mahkam ushla,  
harholda onamsan-kul! Samoda seni himoya qiluvchi  
farishtang bor! Etagimni mahkam tut!» debdi.

U bolaning etagidan mahkam ushlabdi, o'sha zahoti shunaqayam zo'r shovqin va momaqaldoiroq guldurabdi, dunyo go'yo chok-chokidan so'kilib ketganday bo'libdi. Farishta osmon-u falakka ko'tarilibdi. Anne Lisbet uning etagidan mahkam ushlab olibdi, yerdan oyog'i uzilganini ham payqabdi. To'satdan uning oyog'iga qandaydir og'ir narsa osilibdi, yelkasiga ham og'ir bir kimsa o'tiribdi. Uning oyog'iga yuzlarcha ayollar tarmashib olishibdi, hammasi: «Agar sen qutulib ketadigan bo'sang, biz ham qutulamiz! Unga tarmashinglar, tarmashinglar!» deb qichqirisharmish. Ular Anne Lisbetga mahkam yopishib olishibdi. Og'irlik ortgandan ortibdi. Qollari og'irlikka bardosh berolmay, qulab tushibdi. Dahshatdan uyg'onib ketibdi, sal bo'lmasa o'zi o'tirgan stuldan yiqilib tushay degan ekan. Miyasidagi fikrlar aralash-quralash bo'lib ketibdi. Hatto hozir nima tush ko'rganini ham xotirlay olmadi, yomon tushmish!

Qahva ichishib, biroz chaqchaqlashib o'tirishibdi. Anne Lisbet yaqinroqdagagi shaharchalardan biriga jo'nab ketibdi. U yerda uni shu bugun kechqurunoq uyiga kuzatib qo'ymoqchi bo'lgan dehqon kutib turgan ekan. Biroq, u dehqon ertaga oqshom paytidan oldinroq yo'lga chiqa olmasligini aytibdi. Anne Lisbet qarasa, shaharda yana bir kun qolib ketadigan. Agar u qatnov yo'l bilan emas, balki sohil bo'ylab ketsa ikki milya oz yurishiga aqli yetibdi. Havo ochiq, oydin kecha, hammayoq yop-yorug' ekan, shu vajdan Anne Lisbet piyoda ketaverishga qaror qilibdi. Shunda ertasigayoq uyida bo'lar ekan.

Quyosh allaqachon botib ketgan bo'lsa ham, qo'ng'iroqxonalar hadeb qo'ng'irog'ini chalaveribdi. Yo'q, umuman bu qo'ng'iroqlar ovozi bo'lmay, balki hovuzlardagi baqalarning vaqillashi ekan. Keyin ularning ham tovushi tinibdi, qushlarning sayrashi eshitilmay qolibdi; kichkina sayroqi qushlar uyquga ketishgan ekan, boyqushlar esa uylarida bo'lmasa kerak.

O'rmonda ham, sohilda ham sukunat hukmronmish. Anne Lisbet oyog'i ostida qumlar g'ijirlarmish, dengiz

to'lqinlari qirg'oqqa kelib urilmasmish, dengiz tubi ham osoyishta emish; dengiz jonivorlarining o'ligi ham, tirig'i ham sado bermasmish.

Anne Lisbet hech narsani o'ylamay yo'lida ketaveribdi O'ziga qolsa hech narsani o'ylagisi yo'q ekan-u, ammo har xil fikrlar unga tinchlik bermabdi. Fikr hech qachon odamdan ajralmaydi, hatto o'z ishini qilib, xotirjam bo'lib, bir lahzaga mudrab oladigan, ruhimizda hali uyg'onishga ulgurmagan fikrlar ham ortda qolmaydi. Biroq shunday payt keladiki, ular uyg'onadi, miyamizda darbadar kezadi, bizni aqli qiladi.

Bizga «yaxshi ish qilsang yetasan murodga!» deb o'rgatishgan. «Gunohda ajal urug'i yotadi», – bu ham azaldan ma'lum gap. Ko'pgina hikmatli gaplar bor, lekin hamma ham bularni xotirlarmikan? Anne Lisbet xotirlovchilar toifasiga kirmaydi. Biroq, har kimsa uchun ertami-kechmi uyg'onish, ko'z ochish payti keladi.

Qalbimizda, hammaning qalbida, senikida ham, menikida ham barcha illatlar hamda yaxshiliklarning kurtagi yashiringan bo'ladi. Ular ko'zga ko'rinas, mayda urug'lar holida yotadi; to'satdan kishi qalbiga quyosh nuri tushadi yoki unga yovuz qo'l tegadi. Shunda sen yo o'ngga, yo chapga burilasan, xuddi ana shu burilish hamma narsani hal qiladi: ko'zga ko'rinas urug' silkinadi, unadi, barg yozadi, uning shirasi qoning bilan aralashib ketadi, ana o'shanda hammasi tamom. Bu – o'ta dahshatli fikrlar! Biroq, kishi yarim uyquda yurganda buni payqamaydi, bu fikrlar miyada noaniq kezib yuradi. Anne Lisbet ham ana shunday yarim uyquda yurar edi. Fikrlar esa o'z navbatida uning vujudida keza boshlabdi! U holatdan bu holatga o'tgunga qadar kishi qalbi ko'p narsalarni hisob daftariga yozib qo'yarkan; uning har bir sahifasida kishi ruhining bir yillik hisobi jamuljam qilingan bo'larkan. Bu sahifaga hamma narsa, hatto biz unutib yuborgan narsalar ham kirarmish, gunohdan iborat bo'lgan barcha so'z va o'ylarimiz, hatto xudo va

odamlar hamda o'z vijdonimiz oldidagi gunohlarimiz o'z aksini topgan bolalar ekan!

Anne Lisbet singari biz ham bular haqida o'ylamaymiz. U davlat qonunlariga zid jinoyat qilgani yo'q, muhtaram ayol sifatida nom chiqardi, hamma uni hurmat qilardi, yana nimani o'ylasin?

U sohil bo'ylab tinchgina keta turib birdan to'xtab qolibdi; yo'lda yotgan nima o'zi?! Sohilga chiqarib tashlangani-chi? Qarasa, erkak kishining bosh kiyimimish. Bu yerda nima qilib yotibdi ekan? Kemadan tushib qolgani aniq. Anne Lisbet yaqinroq kelib qarabdi. Oh, bu nima o'zi? U qo'rquvdan titrab ketibdi, biroq qo'rqishga arzigulik hech narsa yo'q emish: qarshisida suv o'tlari bilan qoplangan uzunchoq tosh yotgan ekan, dastlabki qarashda u qumda cho'zilib yotgan odamga o'xsharmish. Endi bolsa u toshni ham, suv o'tini ham aniq ko'ribdi, biroq hamon qo'rqa veribdi. U yana yo'lida davom etibdi, bolaligida eshitib yurgan dafn qilinmaganlar arvohi haqidagi rivoyatni xotirlabdi. G'arq bo'lgan kishining o'zi hech qimga yomonlik qilmasa-da, uning arvohi yakka yolovchini ta'qib qilarkan, uning etagiga tarmashib, xristianchasiga dafn qilishini so'rarkan. «Tarmash! Tarmash!» – deb qichqirar ekan arvoh. Shunda u ko'rgan tushini eslabdi, etagidan mahkam ushlab olgan onalarning «Tarmashinglar! Tarmashinglar!» degan qichqirig'i aniq eshitilganday bo'libdi. U tushini: qiyomat kuni dunyoning ostin-ustun bo'lganini, yordamga kelgan o'glining qo'lidan yengi uzilib tushib ketganini xotirlabdi. Umrida xayoliga ham keltirmagan, hech qachon sevman o'z o'gli hozir dengiz tubida yotibdi. U hozir g'arq bo'lganlar arvohi sifatida paydo bo'lishi, «Tarmashaver! Tarmashaver! Meni xristianchasiga dafn qil!» deb baqirishi mumkin. Bu fikrlardan yuragi «shuv» etib ketibdi, qadami ni tezlatibdi. Birov uni sovuq ho'l qo'li bilan ezganday dahshat uning qalbini ezg'ilay boshlabdi. Esi og'ishiga sal qolibdi.

Shu orada dengiz ustidagi tuman quyuqlashib boribdi; sohildagi butun daraxt va butalar ham tuman bilan o'ralib

g'alati, dahshatli tusga kiribdi. Anne Lisbet oyga qarabdi Uning ko'rinishi naqadar sovuq va nursiz emish. Allaqanday dahshatli bir og'irlik bosib, u qo'zg'alolmay qolibdi. Xayoliga yana, «Tarmashaver! Tarmashaver!» – degan fikr kelibdi. U yana oyga boqibdi, nazarida oyning kumush nuri unga yaqinlashganday, yuziga tik qaraganday bo'libdi, tuman esa yelkalarida kafanday ilashib turganmish. U «Tarmashaver, tarmashaver! Meni dafn et!» – degan nido yana eshitilarmikan deb, qulog solibdi. Chindan ham allaqanday bo'g'iq, ayanchli nola qulogqa chalinibdi... Bu – ko'lmakdagi baqanining vaqillashi ham, qarg'aning qag'illashi ham emas ekan, chunki tevarak-atrofda bunaqa joy ko'rinmas ekan. Nihoyat, «Meni dafn et!» degan nido ro'yি rost eshitilibdi. Ha, bu uning dengiz ostida yotgan o'g'lining arvohil! Uning jasadini qabristonga olib borib, yer bag'riga qo'yilmaguncha orom nimaligini bilmaydi! Uni mumkin qadar tezroq qabristonga olib borib, dafn etish kerak! Anne Lisbet cherkovga yo'l olibdi, shunda u o'zini ancha yengil his etibdi. U yana orqaga, qisqa yo'l bilan uyiga qaytmoqchi ham bo'libdi-yu, ammo sira iloji bo'lmabdi. Unga yana og'ir bir narsa osilib olibdi. «Tarmashaver! Tarmash!» Yana baqa vaqillaganday, allaqanday qush qichqirganday bo'libdi. «Meni dafn et! Meni dafn et!» degan ovoz aniq eshitilibdi.

Sovuq, nam tuman hech siyraklashmabdi; Anne Lisbetning yuz va qo'llari dahshat va qo'rquvdan namiqib, muzlab ketibdi. Butun vujudi iskanja orasida qolganday bo'libdi. Shunda birdan uning fikrlash doirasi kengayib ketibdi. Ilgari hecham bunaqa bo'lmagan ekan.

Bahor faslida shimoldagi qoraqayin o'rmonlari burchechaning o'zida barg yozadi; quyosh chiqishi bilanoq ular bahor libosini kiyib oladi. Xuddi shunga o'xhash o'tmis hayotimiz – o'yimiz, fikr-u zikrimiz yoki ishimiz bilan qalbga tushgan gunoh urug'i bir lahzada barg yozishi mumkin. Vijdonimizning bir lahzalik uyg'onishi bilan bu gunohimiz ko'zga tashlanadi qoladi. Mutlaq

kutilmaganda parvardigor vijdonimizni uyg'otib yuboradi. Ana o'shanda o'zimizni oqlashga o'rin qolmaydi: qilgan ishlarimiz o'zimizga qarshi guvohlik berib turadi, o'ylarimiz so'zga aylanadi, so'zlar esa butun olamga yoyiladi. O'zimizda ardoqlab olib yurgan kalondimog'lik va yomonlik urug'lari dahshat bilan qarab turamiz. Ha, qalb bisotimizda hamma xayrli ishlarimiz, shuningdek, yomonliklarimiz yashirinib yotadi. Unisi ham, bunisi ham yer unumsiz bolsa-da, jonlanaveradi.

Anne Lisbetning xayolida xuddi shu biz aytgan narsalar keza boshlabdi; ana shu o'ylar yuki uni bosib yerga o'tqazib qo'yibdi, bir necha qadam emaklabdi ham. Qulog'iga: «Meni dafn et! Meni dafn et!» degan tovush kiribdi. «Bularni eshitgandan ko'ra o'zim o'lib qo'ya qolsam bo'lmaydimi?! – o'ylabdi u, – o'shanda bu gaplar abadiy unutilib ketardil!» Anne Lisbetning vijdoni uyg'onadigan jiddiy, dahshatli onlar yetib kelibdi. U ruhiy dahshatdan azoblanar va o'rtanarkan. Ilgarilar hech bir ahamiyat bermagan narsalar xayoliga kelibdi. Ilgari eshitib yurgan narsalari oydinli tundagi bulut soyalariday ko'z oldidan ovozsiz o'ta boshlabdi. Uning yonginasidan to'rtta ot pishqirganicha chopib o'tibdi; ularning ko'z va burun kataklaridan olov chiqib turganmish; otlar lovillab yonib, cho'qqa aylanib ketgan karetani tortib borayotganmish, karetada bundan yuz yil muqaddam shu atroflarda hammaga zulm o'tkazib, ozor berib yurgan bir pomeshchik o'tirganmish. Aytishlariga qaraganda, u har kuni yarim kechada o'z qasriga borib, o'sha zahoti orqasiga qaytarkan. U murda singari qonsiz emas, balki ko'mirday qorayib ketganmish. U Anne Lisbetga bosh irg'ab, qo'lini silkibdi: «Tarmashaver, tarmashaver! O'shanda yana garf karetasida yurasan, o'z tuqqan farzandingni unutasan!» debdi.

Anne Lisbet jon-jahdi bilan oldinga yuguribdi, hademay bir qabristonga yetibdi. Ko'ziga qora butlar va qora qarg'alar ko'rinishdi. Qarg'alar o'zi kunduzi ko'rigan qarg'a singari qag'llayotganmish, lekin hozir ularning

qag'illashini tushunib bo'larmish. Ularning har biri: «Men qarg'aning onasiman! Men qarg'aning onasiman!» – deb qag'illarmish. Anne Lisbet bir vaqtlar o'zi ham shu nomga sazovor bo'lishi mumkinligini o'yabdi. Agar hoziroq qabr qazishga kirishmasa, u ham mana shularday qora qarg'aga aylanib qolishi va ularga o'xshab hadeb qag'illayverishi mumkin ekan.

U o'zini yerga otibdi, qattiq yerni qo'llari bilan tatalab, qabr qaziy boshlabdi; tirnoqlari qonga bo'yalibdi.

Tinimsiz: «Meni dafn et! Meni dafn et!» – degan tovush eshitilib turibdi. Anne Lisbet: ishqilib, qabr kavlab bo'lgunimcha xo'roz qichqirib, tong otib qolmasin-da, deb o'yabdi. Unda hammasi tamom. Mana, xo'roz ham qichqiribdi, ufq qizarib, tong otibdi. Qabrning esa yarmi qazilibdi, xolos! Muzday sovuq qo'l, bosh va yuzidan sirg'anib yuragiga tushibdi. «Faqat yarimta qabrl!» deb xo'rsinibdi arvoj va dengiz tubiga tushib ketibdi. Ha, bu sohil arvohi ekan! Anne Lisbet qalbi majruh holda yerga hushsiz yiqilibdi.

U tushga yaqin o'ziga kelibdi; ikki yigit uni yerdan ko'taribdi. Anne Lisbet bundoq qarasa, qabristonda emas, balki dengiz sohilida o'zi qazigan chuqur tepasida turganmish. Siniq ryumka qo'lini kesib yuboribdi, uning o'tkir sinig'i moviy rangga bo'yangan yog'och dastaga o'rnatilganmish. Anne Lisbet tamoman holdan toygan ekan. Vijdoni fol ochib, endilikda Anne Lisbetning joni yarimta, qolgan yarmini o'g'li dengiz tubiga olib tushib ketgan, deb xulosa chiqarib qo'ygan ekan. Endi u jonining dengiz tubidagi yarmini qaytarib olmagunicha parvardigor uni o'z dargohiga qabul qilmaydi! Anne Lisbet uyga tamomila boshqa odam bo'lib qaytibdi. Fikrlari kalava singari yumaloq bo'lib o'ralib qolganmish, faqat bittagina uchi uning qo'lida qolibdi. Bu – sohil arvojni qabristonga olib borib dafn etish fikri ekan, ana o'shanda uning joni yana butun bo'lib qolarmish.

Uni bir necha bor to'xtatib qolishibdi, ko'pincha sohildi arvojni kutayotgan holda uchratishibdi. Shu alfozda bir

yil o'tib ketibdi. Bir kuni kechasi u yana yo'qolib qolibdi, biroq uni axtarib topisholmabdi: ertasiga kuni bo'yil qidirish ham bekor ketibdi.

Kechki payt kichik ruhoniy xudojo'ylarni kechki libodatga chorlash uchun qo'ng'iroq chalayotib, mehrob oldida cho'zilib yotgan Anne Lisbetni ko'ribdi. U sahardan beri shu yerda yotgan ekan; u butunlay holdan toygan bolsa-da, ko'zları o'tday chaqnab turganmish, yuziga qip-qizil shafaq rang o'tib qolgan emish; quyoshning ana shu qizg'ish nurlari mehrobda hamda Iso payg'ambar kitobining «Libosingizni emas, qalbingizni pora qiling, so'ng parvardigorga elaning!» degan so'zlar yozilgan sahifasiga qo'yilgan injilning yaltiroq xatcho'pida jilolanib turarkan.

- Tasodifni qarang-a! - deyishibdi odamlar odatdagiday.

Quyosh nuri yoritib turgan Anne Lisbetning yuzida tinchlik va osoyishtalik balqib turarkan, u huzur-halovat og'ushida ekan! Endi u o'zini yelkasidan tog' ag'darilganday yengil his qilibdi: kechasi o'g'lining sohildagi arvohini ko'ribdi, u: «Sen men uchun yarimta qabr kavladning, biroq mana bir yildirki, meni qalbingga jo qilib olib yuribsan, onaning qalbi esa bola uchun eng ishonchli boshpanadir!» - debdi. U onasining yarim jonini qaytarib beribdi va cherkovga olib boribdi.

- Endi men xudoning uyidaman, - debdi ayol, - najot ham xuddi shu yerda. Quyosh botgandan keyin ayolning, ruhi Anne Lisbet singari kurashib, azob chekishdan mutlaq qo'rqlmaydigan joy - osmon-u falakka qarab yo'l olibdi.

## PAT QALAM VA SIYOHDON

Kunlarning birida kimdir shoirning yozuv stoli ustida turgan siyohdonga qarab: «Qiziq, bu siyohdondan qanday gaplar chiqmaydi deysiz! Bu safar nima chiqarkin? Ha, bu judayam qiziql!» - debdi.

– Xuddi shunday! Bu aqlga sig'maydi! Buni hamisha o'zim ham ta'kidlayman! – debdi siyohdon stol ustidagi pat qalamga va boshqa eshita oladiganlarga qarab. – Ajoyib! Mendan ajoyib narsalar chiqadi! Bunga aql bovar qilmaydi! Inson siyohimga qalamini tekkizib olayotganda mendan nimalar chiqayotganini o'zim ham bilmayman! Bir tomchim yarim sahifani to'diradi, bu sahifalarga nimalar joylashmaydi deysiz! Ha, men mo'jizaning o'ziman! Mendan har xil she'riy ijodiyot namunalari chiqadi! Bularning hammasi kitobxonlar biladigan tirik odamlar, bular haqiqiy tuyg'u, humor, tabiatning beqiyos ta'rif-tavsifi! Bularning barchasi menda mujassamlash-ganiga hech aqlim yetmaydi, chunki tabiatning nimaligini yaxshi bilmayman-da! Lekin haqiqatan ham bu shunaqal Mendan xayoliy, qomatdor qizlar obrazi, pishqirib, o'ynoqlab turgan ot mingan jasur ritsarlar chiqqan va chiqadi. Sizni ishontirib aytamanki, bularning hammasi mutlaqo tasodifan ro'y beryapti!

– Juda to'g'ri! – debdi pat qalam. – Bordiyu ozgina o'ylab ko'rganingizda edi, siz suyuqlik to'dirilgan bir idishdan boshqa narsa emasligingizni tushungan bo'lardingiz. Siz o'zimda borlarini aytishim, qog'oz ustida bayon etishim uchun meni ho'llab turasiz, xolos! Bularni pat qalam yozadil! Odamlar poeziyani siyohdondan ko'ra ko'proq bilishsa kerak.

– Sizning mutlaqo tajribangiz yo'ql! – debdi siyohdon. – Qancha vaqt dan beri xizmat qilyapsiz? Ishlay boshlaganingizga bir hafta bo'lgani yo'q, allaqachon ishdan chiqibsiz. Hali men ijod qilyapman deb yuribsizmi? Siz xizmatkorsiz, xolos, sizdaqa pat qalamlarning, ingliz po'lat perolarining ko'pini ko'rganmiz! Hali inson mendan olganlarini yozishda davom etarkan, sizdaqalardan qanchadan-qanchasi xizmatimda bo'ladi!

– Siz siyoh bochkasidan boshqa narsa emassiz, – debdi pat qalam. Kechqurun shoir bir mohir skripkachining kontsertida bo'lib, uning zo'r san'atidan ta'sirlangan holda uyga qaytibdi. Uning nazarida skripkadagi yoqimli tovush

manbalari bitmas-tuganmasday bo'lib tuyulibdi. Uning sasida goh suv tomchilari durdonalari jaranglab dumalarmish, goh qushlar to'lib-to'lib sayrarmish, goh qarag'ayzorda bo'ron o'kirkanday bolarmish. Shoirga ayol kishining jozibali tovushiga o'xshash kuyga o'z qalbining yig'isi qo'shilib ketganday tuyulibdi. Faqat skripkaning torlarigina emas, balki butun vujudi jaranglayotganday bo'libdi. Naqadar ajoyib skripkachining vazifasi juda mushkul ekan, lekin uning san'ati skripka chalishda ro'yi rost sezilib turibdi. Kamon torlar ustida xuddi o'zi o'ynoqlayotgandaymish; chalish hammaning qo'lidan ham kelaveradigandaymish. Skripka o'zi kuylayotganday, kamon o'zi o'ynayotgandaymish, hamma narsa shularga bog'liqdaymish, odamlar butun vujudini, qalb qo'rini sarlab, kamon bilan torlarni boshqarayotgan san'atkorning borligini unutib qo'yishibdi. Hamma unutibdi, lekin faqat shoirgina uni unutmabdi va quyidagilarni yozibdi:

«Kamon bilan skripka o'z san'atlari bilan kerilsa, bu o'ta bema'nilik bo'lur edi. Ko'pincha biz, shoir, rassom, olim, kashfiyotchi, sarkarda odamlar shunday qilamiz! Biz qilgan ishimizdan rosa kerilamiz, vaholanki, hammamiz yaratuvchining qo'lidagi bir asbobjimiz, xolos. Parvardigorga shukronalar bo'lsin! Bizning keriladigan joyimiz yo'q!»

Shoir o'zi yozgan bu masalga «Ustoz va asbob» degan sarlavha qo'yibdi.

– Xo'sh, qoniqdilarmi, xonim? – debdi pat qalam siyohdon bilan yolg'iz qolganda, – men yozganni ovoz chiqarib o'qiganini eshitdingizmi?

– Ya'ni mendan olgan gaplaringizni! – debdi siyohdon.  
– Dimog'dorligingiz uchun yaxshigina dakki oldingiz!  
Ustingizdan kulishayotganidan hech xabaringiz yo'q! Men o'z vujudimdan sizga dakki berdim. O'zimning xususiy satiramni bilib olishga ijozat bergaysiz!

– Ha, ichi qora! – debdi pat qalam.  
– Ha, ilonning yog'ini yalagan! – deb javob qaytaribdi siyohdon.

Shunday qilib, har ikkovlari ham yaxshi javob berdi, deb o'ylashibdi, buni e'tirof etish esa yoqimli; bunaqa ong bilan miriqib uqlash mumkin, ular chindan ham uyquga ketishibdi. Biroq, shoir uqlamabdi; uning o'ylari skriptovushlariday to'lqinlanaveribdi, durdona bo'lib dumalabdi, o'rmondag'i bo'ron singari g'uvillabdi, shoir u yoqda o'z qalbining ovozini his etibdi, ulug' san'atkorning nafasini sezib turibdi...

Unga sharaf va maqtovlar bo'ssin!

### «NAQADAR CHIROYLI»

Haykaltarosh Alfredni bilasizmi? Uni hammamiz bilamiz: u oltin medal bilan taqdirlangan. Italiyaga borib kelgan; o'shanda u yosh edi, garchi o'n yoshga ulg'aygan bo'lsa-da, hozir ham yosh. U vataniga qaytgach, Zelandiya shaharlaridan biriga mehmonga boribdi. Uning kelganidan butun shahar ahli xabardor bo'libdi, kimligini bilibdi. Shaharning eng badavlat xonadonlaridan biri uning sharafiga ziyofat uyushtiribdi. Obro'li va savlatli odamlarning hammasini bu ziyofatga taklif qilishibdi. Ziyofat shaharda katta bir voqeaga aylanibdi; hammayoqda duv-duv gap. O'quvchi bolalar va shahardagi mayda hunarmandlarning bolalari, ba'zilari esa hatto ota-onalari bilan kelishib, yorug' tushib turgan deraza tagida darpardalarga tikilishganicha turishaveribdi. Bu ko'chaga tumonat odam to'planibdi. Tungi qorovul ham o'z ko'chasida bayram bo'layotganidan xabardor bo'libdi. Ko'chada turishning o'zi ham bir qiziq narsa. Ichkarida esa xursandchilik avjiga minibdi. U yerda axir, haykaltarosh Alfred janoblarini o'zlari o'tirar ekanlar-da!

U ko'rgan-bilganlaridan hikoya qilibdi, boshqalar esa butun vujudlarini quloxqa aylantirib tinglashibdi, ayniqsa, bir tul amaldor xonim uning gaplarini huzur qilib tinglabdi. Bu xonim Alfred janoblarining har bir so'zinidagi

bosma qog'oz shimganday shimb olaveribdi, undan gapirishni qayta-qayta iltimos qilaveribdi. U odatdan tash-qari ta'sirlanadigan, lekin nihoyatda nodon ayol bo'lib, yubka kiygan Kasper Gauzerning xuddi o'zginasi ekan.

- Shu Rimni bir ko'rsam edil - debdi u. - Judayam ajoyib shahar bo'lsa keraki U yerga qanchadan-qancha xorijiyalar boradi! Rimni bizga ta'riflab bersangiz! Darvozasidan kiraverishda ko'zingiz nimalarga tushadi?

- Xo'sh, buni ta'riflash ancha qiyin! - javob qaytaribdi yosh haykaltarosh. - Bilasizmi, u yerda katta maydon, maydon o'tasida esa yodgorlik bor; yodgorlik to'rt ming yoshda.

- Uni qarang-a! - debdi xonim. U umri bino bo'lib 'yodgorlik' so'zini eshitmagan ekan. Boshqalarning ham, haykaltaroshning ham kulgisi qistab ketibdi, biroq xonimning orqasida turgan qizning bir juft moviy shahlo ko'zlariga ko'zi tushibdi-yu, o'zini kulgidan tiyibdi. Shunday qizning onasi tentak bo'lishi mumkin emas.

Onasi savolning koni ekan, qizi esa suv parisiday jim turarkan. Naqadar chiroyli-al Haykaltarosh unga osongina nigoh tashlar, lekin gapirisha olmas ekan. Qiz mutlaqo indamas yoki gapirsa bir-ikki og'iz so'z qotarkan, xolos.

- Dadangizning oilasi kattami? - so'rabdi xonim.

Yosh yigit oqilona savol berilgan paytdagiday javob qaytaribdi:

- Yo'q, u katta oiladan emas.

- Men buni so'ramadim! - deb e'tiroz bildiribdi xonim.

- Uning xotini, bola-chaqalari bormi deb so'rayapman.

- Otamning xotin olishga huquqi yo'ql - deb javob beribdi haykaltarosh.

- Xo'sh, bu mening didimdagi emas, - debdi ayol. Albatta, savollar ham, javoblar ham ma'noli bo'lishi mumkin edi. Agar ular bema'ni bo'limganda oyisining orqasida turgan go'zal qiz bunchalik ma'noli jilmayarmidi?

Shunday qilib, Alfred janoblari hikoya qilishda davom etibdi. U Italiyaning alvon bo'yoqlari, ko'm-ko'k tog'lari,

moviy O'tayer dengizi, janub osmoni haqida hikoya qilibdi. Bunaqa moviylikni faqat shimolda, shimol qizlarining ko'zlarida uchratish mumkin. Yigit hikoyasining har bir so'zini chertib-chertib gapiribdi, biroq uning ilmoqli gaplaridan qiz zarracha bolsa-da, o'zgarmabdi, o'zini tushunmaganga solibdi. Qizning bu qiligi ham o'ziga juda yarashibdi, chiroyli chiqibdi. Ba'zilar:

– Italiya! – deb xo'rsinishsa, boshqalar:

– Sayohat qilish kerak! Naqadar chiroyli, naqadar chiroyli! – deb xo'rsinishibdi.

– Agar ellik ming yutib olsam, – debdi tul xonim, – qizim bilan sayohatga jo'naymiz! Alfred janoblari, siz ham biz bilan borasiz! Uchovimiz boramiz, yonimizga yaqin do'stlardan ba'zilarini olamiz! – U atrofga iltifot bilan nazar tashlabdi. Xonimning ko'zi kimlarga tushgan bolsa, ular xonim bilan sayohatga borish sharafiga muyassar bolganday tuyulibdi. – Biz Italiyaga boramiz, lekin qaroqchilar bor joylarga emas. Rimga xavf-xatarsiz katta yo'ldan boramiz.

Xonimning qizi yengilgina xo'rsinib qo'yibdi. Bu yengil xo'rsinishing ma'nosi nima yoki unga qanday ma'no berish mumkin? Yosh yigit bu xo'rsinishda katta ma'no bor deb bilibdi. O'sha kuni oqshomda, qizning moviy ko'zları uning yashirinib yotgan va Rimning eng boy xazinalaridan ham boyroq bo'lgan qalb hamda jon-u jahoni xazinasini yoritib yuboribdi. Yigit bu yerdan qanday chiqib ketganini bilolmay, u go'zal qizning asiri bo'lib qolibdi.

O'shandan beri tul xonimning uyi haykaltarosh Alfred janoblari uchun juda aziz, sevimli joy bo'lib qolibdi; biroq u bu yerga onasining hurmati uchun emas, balki qizi deb kelar ekan. Qizning ismi Karen Malena bo'lib, qisqacha Kala deb chaqirishar ekan. U naqadar chiroyli! «Faqat birozgina bo'shangroq», deyisharkan uning haqida. U erta tongda o'rinda erinib yotishni juda yaxshi ko'rarkan.

– U bolaligidan shunga odatlangan! – derkan onasi. U sal erkaroq, bunaqlar tezda charchab qoladi. To'g'ri,

u o'rinda yotishni yaxshi ko'radi, shu vajdan ko'zlari osmonday tiniq!

Tiniq, dengiz kabi moviy, ma'sum va teran ko'zlarda naqadar zo'r qudrat bor! Haykaltaroshimiz bu ko'zlar qa'riga cho'kib ketganday edi. U hikoya qilaveribdi, qizning onasi esa avvaldagidek zo'r qiziqish va havas bilan savol yog'diraveribdi. Alfred janoblarining hikoyalarini eshitishning o'zi bir huzur ekan-da. U Neapol va Vezuviy vulqonlarining otilishi haqida hikoya qilibdi. Vezuviy vulqoni surati tushirilgan bo'yoqli suratlarni ko'rsatibdi. Tul xotinning esa bunaqa narsalar haqida hech qanday tasavvuri yo'q bo'lganidan, miyasiga hech qanaqa fikr kelmabdi.

- E xudoyim-eyl - debdi. - Shunaqa yonar tog'lar ham bolarkan-da! Ulardan kishiga ziyon-zahmat yetmaydimi?

- Yetganda qanday! Bir safar Gerkulanum hamda Pompey shaharlari vayron bo'lgan!

- Oh, bechora odamlar! Bu halokatni o'z ko'zingiz bilan ko'rganmisiz?

- Yo'q, manovi suratlarda tasvirlangan vulqon otilishini ko'tmaganman, lekin men borganimda yuz bergen vulqon xurujining xomaki suratini chizganman, shuni ko'rsatishim mumkin.

U qalamda chizilgan suratni olibdi, ayol bo'yoqli suratga ko'z tashlab, hayrat bilan:

- Siz o'sha yerdaligingizda tog'dan oq olov otilganmi? - deb so'rabdi.

Alfred janoblarining bu ayolga bo'lgan hurmati uning shu savoli bilan yo'qqa chiqay debdi-yu, biroq Kalaning shu yerdaligi bunga imkon bermabdi. U o'zicha, onaxon suratlarni ko'ra bilish qobiliyatiga ega emas, bo'yoqni ham bilmaydi, vassalom, degan fikrga kelibdi. Lekin uning bebafo, go'zal xazinasi bor ekan - bu Kala ekan.

Shunday qilib, Alfred bilan Kala nikohdan o'tishibdi, shunday bo'lishi ham kerak ekan-da. Nikoh marosimi haqida mahalliy gazetada bildirish bosilibdi. Onaxon o'ttizta gazeta sonini qirqib olib, do'stlari va tanishlariga

yuboribdi. Kuyov bilan kelin ham, qaynana ham o'zlarini baxtiyor his etishibdi, bechora ayol sevinganidan Torvaldesening o'zi bilan qarindosh bo'dim, debdi.

— Axir siz uning vorisisiz! — debdi ayol. Alfred buni o'ta oqilona gap o'rnida qabul qilibdi. Kala hech narsa demabdi, ammo uning ko'zlari sevinchdan charaqlab ketibdi, labidan kulgi arimabdi, uning har bir harakatidan xushqomatligi barq urib turibdi.

Alfred Kala va uning onasi haykalini yasabdi. **Ular** haykaltarosh qarshisida o'tirib olib, uning yumshoq loyni ezg'ilab shaklga keltirishini tomosha qilishibdi.

— Oh, bizni deb mana shunaqa iflos ishga qo'l urdin-giz-a! — debdi qaynonasi. — Loyni bolalar ezg'ilaganda ma'qul bo'larmidi.

— Yo'q, buni o'zim qilishim kerak! — debdi u.

— Siz hamisha iltifotlisiz! — debdi qaynona, qizi bo'ssa erining loyga bulanib ketgan qo'llarini astagina qisib qo'yibdi.

Alfred ishi davomida ularga tabiat va butun koinot go'zalliklari haqida, tiriklarning o'liklar ustidan, hayvonlarning o'simliklar, insonning hayvonlar ustidan ustunlig haqida gapiribdi, haykaltarosh esa go'zallikning yuksak ko'rinishlarini yerdagi shakllarga mujassamlash tirishni uqtiribdi. Erining gaplaridan huzur qilib tebranayotgan Kala lom-mim demabdi, qaynonasi esa:

— Bilasizmi, so'zlaringizni tushunishga ulgurish ancha qiyin! Biroq, sekin tushunsam-da, fikrlarim miyamda ariday g'ing'illab turibdi, harholda ularni mahkam tutib turibman, — debdi.

Yigitni esa qizning go'zalligi tutib turar ekan; bu go'zallik uning fikr-u zikrini, butun vujudini o'ziga maftun qilgan ekan. Kaladan go'zallik taralib turarkan: uning og'zi, ko'z-qoshlari, hatto barmoqlarining har bir harakatida ham dunyo-dunyo go'zallik bor ekan. Bularining hammasi haykaltaroshlik sohasiga mansub bo'lib, yigit ham nuqul shular haqida gapirar, fikr-u zikri ham xotini bilan band ekan. Ikkovlari birikib, hozir bir

tan-bir jon bo'lishibdi, shu vajdan qiz ham yigit haqida tinimsiz gapirarkan.

Shunday qilib, nikoh kuni ham o'tibdi, so'ng to'y kuni yetib kelibdi. Kelinning dugonalari kelishibdi, tabrik so'zlar aytilib, sovg'alar topshirilibdi, xullas, hamma to'y takallumi bajo keltirilibdi.

Qizning onasini eng hurmatli mehmon sifatida to'rga o'tqizishibdi, yoniga kampirning ko'ngliga qarab Torval-desening haykalchasini ham qo'yishibdi. Mehmonlar kelin-kuyovga omonlik tilab qo'shiqlar aytishibdi, qadahlar ko'tarishibdi, to'y juda chiroyli o'tibdi, kelin-kuyov esa undan ham chiroylimish. Qo'shiqlardan birida hatto: «Pigmalion o'z Galateyasiga yetishdi», – deb ham kuylashibdi.

– Bu qandaydir bir afsonadan bo'lsa kerak! – debdi onaxon.

Ertasiga yosh kelin-kuyov Kopengagenga jo'nashibdi; onaxon ham ularga ergashibdi, u oilaviy hayotning eng vazmin tomoni bo'l mish xo'jalikni boshqarishni o'z zimmasiga olibdi. Mayli, Kala qo'g'irchoq uyda yashagan-day aysh suraversin! Hammasi yangi, soz, chiroyli! Nihoyat, uchovlari bitta uyga joylashibdi. Alfred maqolda aytilganday, g'oz inida yepiskop bo'lib o'tiribdi.

Uni faqat husnigina maftun etibdi, xotini timsolida faqat chiroyli g'ilofni ko'ribdi xolos, uning ichki dunyosi husni kabi chiroyli emas ekan, gap nikoh haqida boradigan bo'lsa, bu – buyuk xatolik! Vaqt kelib g'ilof ishdan chiqadi, oltin suvlar cho'kadi, ana unda keyingi pushaymon o'zingga dushman bo'ladi. Mehmonda o'tirganingda shimni ko'tarib turadigan bog'ichning tugmasi uzilganini, to'qasi ish bermasligini yoki uning mutlaqo yo'qligini payqab qolish o'ta ko'ngilsiz hodisa; xotining bilan qaynonang bema'ni narsalarni valdirashi, hammavaqt ham ularning bema'ni gaplarini hazil-mutoyiba bilan xaspo'shlab ketolmasligingni bilsang, bu o'rinda ham yomon.

Ko'pincha yosh kelin-kuyov qo'l ushlashib o'tirisharkan, kuyov tinimsiz gapirar, kelin esa onda-sonda

bir gap qaytarib qo'yar ekan, qizligidagi o'sha indamasligi kamsuxanligi... Kelinning dugonasi Sofiya bu yerga o'z bilan fayz olib kelarkan.

Sofiya uncha chiroyli emas ekan, lekin xulq-atvoride hech qanaqa kamchiligi yo'q ekan. To'g'ri, Kalaning gapiga qaraganda, uning beli sal qiyshiqmish, ammo bu nuqsonni faqat dugonaning ko'zi ko'rishi mumkin. Sofiya aqli qiz ekan, lekin u o'ta xavfli odam bo'lib qolishni xayoliga ham keltirmaganakan. U qo'g'irchoq uyga toza havo bo'lib kiribdi, chunki bu yerdagi yetishmovchilik ham shu ekan. Hamma buni bilibdi, hammalari toza havodan bahramand bo'lgilari kelib qolibdi, shunday qilishibdi ham; qaynona, yosh kelin-kuyov Italiyaga jo'nashibdi.

\* \* \*

— Xudoga shukur, yana uyimizga qaytib keldik! — deyishibdi ona-bola Alfred bilan o'z yurtlariga qaytish-gach.

— Sayohatning hech havas qiladigan joyi yo'q ekan! — debdi onaxon. — Hatto zerikarli! Dilimni yorib, ochiqchasiga gapirogtganim uchun kechiring. Bolalarim yonimda bo'lsalar ham, juda zerikdim. Hamma galereyalarni ko'rish, hamma joyini aylanish lozim. Shunday qilmasa bo'lmaydi: uyga qaytganingizda hammasini so'rashadi! Nihoyat, eng yaxshi narsani ko'ra olmaganingni payqaysan kishi! Anavi son-sanoqsiz abadiy madonnalar jonimga tegib ketdi. Ularni tomosha qilaverib, o'zingning ham madonna bo'lib qolishing hech gap emas!

— Ovqatlarichi? — deb gap tashlabdi Kala.

— Hatto quruq sho'rvaning o'zi ham anqoning urug'i, — debdi onasi. — Ovqatlarining mazasi yo'ql!

Kalani sayohat judayam toliqtirib qo'yibdi, eng yomoni shuki, hech o'ziga kelolmabdi. Sofiya ularnikiga butunlay ko'chib kelibdi, bularga ko'p nafi tegibdi.

Onaxon Sofiyaning qadriga yetibdi, chunki u ro'zg'or ishlarini bajarishda va pazandalikda tengi yo'q ekan,

qo'lda mablag'i bo'lmagandan bir ishning boshini tuta olmas ekan. Buning ustiga qiz odobli, tamizli, halol ekan, bu xislatlari Kala kasal yotgan kunlari yanada ko'proq namoyon bo'libdi.

Bordiyu, kishining turgan-bitgani g'ilof bo'sa, bu yaltiroq g'ilof mustahkamroq bo'lishi kerak, aks holda boshga balo bo'ladi; shunday bo'libdi ham. Kala vafot etibdi.

- U naqadar chiroyli edi-ya, - debdi onasi. - Bu antiqa haykallardan emasdi, ularning hammasi yorilib, nurab ketgan, Kala esa but-butun edi! U go'zallikning chinakam timsoli edi!

Alfred ham, qizning onasi ham rosa yig'lashibdi, ikkovlari motam liboslarini kiyishibdi. Qora kiyim onaxonga juda yarashibdi, u ana shu libosda uzoq yuribdi, uning motami va g'amiga yana g'am qo'shilibdi: Alfred husni uncha yoqimtoy bo'lмаган Sofiyaga uylanibdi.

- U haddidan oshib ketdi! - debdi onaxon. - Go'zallikdan badbasharalikka o'tdi! U oldingi xotinini unutishi mumkin! Ana erkaklardagi beqarorlik! Yo'q, mening erim bunaqa emasdi! U mendan keyin o'lishni ham o'ziga ep ko'rmadi!

- «Pigmalion o'z Galateyasiga ega bo'ldi», deyiladi to'y qo'shigida, - debdi Alfred. - Ha, men chindan ham og'ushimda tirilgan go'zal haykalga ko'ngil qo'yan ekanman. Tangrim ato qilgan tutash qalbga - samoda biz bilan bir tuyg'u, bir maslak, bir fikr bilan yashovchi, nochor qolgan paytimizda qo'llab-quvvatlovchi farishtalardan biriga endi ega bo'ldim. Bu - sensan, Sofiyal Sen tashqi qiyofangning go'zalligi bilan meni maftun etganining yo'q, lekin keragidan ortiq olijanob va go'zalsan! Tub ma'no ma'noligicha qoladil! Sen haykaltaroshga uning ijodi - faqat loy, chang, biz astoydil axtarishimiz kerak bo'lgan ichki dunyoning qobig'i ekanligini o'rgatding. Bechora Kala! U bilan birgalikda o'tkazgan umrimiz to'y sayriday o'tib ketdi. Bir-biriga tutash qalblar

uchrashadigan u dunyoda ehtimol u bilan begona bo'lib qolarmiz.

– Bunday gaplarni gapirish senga yarashmaydi! – deb e'tiroz bildiribdi Sofiya. – Xristianlarga xos bo'lмаган qiliq Odamlar erga tegmaydigan, uylanmaydigan u dunyoda sen aytganday tutash qalblar bir-biri bilan uchrashib qolsa, har qanday go'zallik o'zining bor bisotini namoyish etadi, ehtimol, uning qalbi ham butun chiroyi bilar namoyon bo'lib, ko'zingni qamashtirib yuborar, ana o'shanda ilk marta muhabbat izhor qilgan paytlaring dagiday «Naqadar chiroylil Naqadar chiroylil» deb yuborarsan.

## BARXANLARDA

Endigi hikoyamiz Yutland barxanlari haqida, lekin hikoyadagi voqeа u yerda emas, balki uzoq Ispaniyada boshlanadi. Axir dengiz mamlakatlarni bir-biriga tutashtiradi-ku, siz ham xayolan o'zingizni Ispaniyada deb biling! U joylar naqadar iliq, ko'r kam! Quyuq bargi dafna daraxtlarining orasidan baxmalday qip-qizil anor gullari mo'ralab turadi; tog'dan esgan salqin shabada apelsin bog'lari ichida va hashamatli Mavritaniya galereyalarida, tilla suv yogurtirilgan gumbazlar va naqshinkor devorlar atrofida g'ir-g'ir esadi. Ko'chalardan qo'llariga sham va hilpiragan bayroqlar ushlagan bolalar tantanali yurish qilib o'tadi, shahar ko'chalarining tepasida charaqlagan yulduzlarga to'la tiniq, moviy osmonl Qo'shiqlar yangraydi, raqqosalar qo'lida qayroqlar shaqillaydi, yigit va qizlar gulga burkangan akatsiya daraxtlari ostida raqsga tushishadi; gadoy marmar zinaga o'tirib olib, tarvuz yeb chanqog'ini bosadi, keyin mudrab, shirin uyquga ketadi! Ha, bu yerdagi hamma narsa allaqanday ajib tushga o'xshaydi! Shirin xayollar og'ushiga imlab chaqiradil Xuddi ana shunday shirin xayollarga dunyoning barcha ne'matlaridan bahramand

bo'lgan, endigina qovushishgan yosh kelin-kuyovlar ham berilishibdi; ularning omadi yurishgan ekan: ular sog'-bardam, baxtli, badavlat bo'lib, jamiyatda ham e'tiborli ekanlar.

- Dunyoda bizdan baxtiyor odam bo'lmasa kerak! - deyishibdi ular chin yurakdan. Harholda bular ham omad narvonidan yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarilishlari kerak ekan. Parvardigor ularga orziqib kutib yurishgan o'gil farzandni ham ato qilsa bunga erishar ekanlar.

Baxtiyor bola! Agar u tug'ilsa zo'r shodlikka ko'milib ketar, uning atrofida kecha-yu kunduz parvona bo'lishar, boylik hamda aslzoda qarindosh insonga nima bersa, shunga ega bo'lar ekan-da.

O'shanda er-xotinning umri abadiy bayramga aylanarkan.

- Umr - mehr-muhabbatning marhamati, bitmas-tuganmas tuhfasi, - debdi xotini. Bu rohat-farog'at u dunyoda bundan ham ziyoda bo'lishini tasavvur etish qanchalik yaxshi! Rostini aytsam, bu fikrni hech kallamga sig'dira olmayapman.

- Ha, bu haddan tashqari balandparvozlik! - debdi eri. - Xo'sh, bizni u dunyoda xudolarniki singari abadiy hayot kutayotganini tasavvur qilish balandparvozlik emasmi? Xudolarga o'xshab qolish fikrini bizga yolg'onning bobosi singdirmaganmi?

- Biroq kelgusi hayotimizning farog'atli bo'lishiga shubhang yo'q-ku? - debdi ayol, ularning qittak bulut bo'lma-gan fikr ufqida birinchi marotaba qora bulut suzib o'tganday bo'libdi.

- Bizga uni din va'da qildi, ruhoniylar esa bu va'dani tasdiqlaydi! - debdi er. - Bu dunyoda rohat-farog'at og'ushida yashab, u dunyoda yana farog'atli umr talab qilish manmanlik va kalondimog'lik emasmikin?! Nahotki, shu dunyoning o'zida biz uchun ato qilingan ne'matlar benihoya ko'p bo'lmasa, ulardan qanoatlanmasak?

- To'g'ri, hech narsadan kamchiligidir yo'q, - deb e'tiroz bildiribdi xotini, - biroq ming-minglab odamlar uchun

bu dunyoda yashash azob-uqubatning o'zi; qanchadan qancha odamlar dunyoga kelgan kuni dan qashshoqligida xor-zorlik, xastalik va badbaxtlikka mahkum etilgan! Yod' yerda yashab o'tganlaridan keyin u dunyoda kishilar u boshqa farog'atli umr kutmaganda, yerdagi ne'matlar baravar taqsimlanardi, parvardigor ham odil bo'lolmasdi.

– Darbadar kezib yuradigan gadoyning ham hashamatli saroy egasi bo'lmish qirollarning xursandchiligidan qolishmaydigan quvonchi bo'ladi! – deb javob qilibdi eri.

– Seningcha, kaltaklashayotgan, och qoldirish hamda ishlatish bilan holdan toydirishayotgan ish hayvoni bu dunyoda boshiga tushgan og'ir qismatni bilmaydimi? Demak, jonivorlar ham bu dunyoda boshqa jonzotlardan past turishiniadolatsizlik deb bilib, u dunyoda abadiy farog'atda umr talab qilishi mumkin ekan-da?

– «Samoviy padarim dargohida istiqomat qiluvchilar juda ko'p», degan Iso payg'ambar! – deb e'tiroz bildiribdi xotin. – U dunyoning bag'ri xudoning mehriday keng Hayvonlarni ham u yaratgan, menimcha, birorta ham tirik jonzot yo'qolib ketmaydi, ular ham o'zlariga yarasha rohat-farog'atdan bahramand bo'lishadi!

– Men esa shu dunyodagi umrimga ham ming qatla shukur qilaman! – debdi er va o'n gulidan bir guli ochilmagan go'zal xotinini bag'rige bosibdi. Sigareta tutuni burqsab ochiq derazadan apelsin gullari hidi bilan muattar bo'lgan havoga qo'shilib ketibdi: ko'chadan qo'shiq sadolari va raqsga tushayotganlar qayrog'inining shaqillashi eshitilibdi; ularning boshi uzra yulduzlar charaqlabdi, ayloning muloyim, ma'sum, mehr to'la ko'zlarini ko'zlariga boqibdi.

– Ha, mana shunaqa totli damlarning har lahzasi kishining tug'ilishi, yashashi, olamdan o'tishiga arziydi! – debdi eri jilmayib.

Yosh xotin noz-karashma bilan barmog'ini bigiz qilib eriga po'pisa qilibdi, uning yuzidagi qora bulut ko'lanksidan assar ham qolmabdi, – ular bu lahzada o'ta baxtiyor ekanlar!

Vaziyat ularning hayoti bundan keyin ham nash'ali bo'lishidan dalolat beribdi. Ha, ular o'zlarini yashayotgan joylarini o'zgartirishadigan bo'lishibdi, baxtiyor turmushlariga zarracha bo'sin xalal yetmabdi. Qirol yosh yigitni Rossiya imperiyasi saroyiga elchi qilib tayinlabdi – uning nasl-nasabi va ma'lumoti shunchalik faxrli lavozimga loyiq ekan.

Bu yigit juda boy ekan, xotini ham dabdabali sep bilan kelgan ekan: u judayam badavlat, e'tiborli bir savdogarning qizi ekan. Ana shu savdogarning eng katta va eng yaxshi kemalaridan biri o'sha yili Stokgolmga jo'naydigan bo'lib qolibdi. U ana shu kemada ko'zining oq-u qorasi bo'lgan farzandlari – qizi va kuyovini Peterburgga jo'natmoqchi bo'libdi. Kema qirollarnikiga xos hashamat bilan bezatilibdi. Kemaning hammayog'iga yumshoq gilamlar, shoyi va barqutlar yoyib yuborilibdi.

Biz daniyaliklarga azaldan ma'lum va mashhur bo'lib kelgan ingliz shahzodasi haqidagi qo'shiqda hikoya qilinishicha, uning hafsala bilan bezatilgan kemasining langarlari nuqul oltindan, jihozlari esa shoyi-ipaklardan ekan. Manovi ispan kemasiga qarab turib o'sha kema yodga tushdi; bu kema ham xuddi o'sha kema singari hashamatli qilib bezatilibdi, kema jo'nashi oldidan: «Ey xudo, oy borib, omon qaytishni nasib etgin!» – degan fikr hammaning dilida bo'libdi.

Kuchli hamroh shamol esibdi, xayrlashuv onlari uzoqqa cho'zilmabdi. Yana bir necha haftadan keyin kema mo'ljaldagi joyga yetib borishi kerak ekan. Biroq quruqlikka yetishmasdan ancha berida shamol tinibdi, ko'zni qamashtirib turgan dengiz sathi ham mavjlanishdan to'xtaganday bo'libdi; suv nur taratib, yulduzlar charaqlab turaveribdi, hashamatli kayuta bayramdagiday emish.

Biroq vaqt o'tgan sari odamlar hamroh shamol esishini tusab qolishibdi, biroq bunday shamol esmabdi, ba'zida shamol ham bo'libdi-yu, ammo orqadan emas, balki qarshidan esibdi. Haftalar ketidan haftalar o'tibdi, janubi-

g'arbdan orziqib kutilgan shamol esgunga qadar ikki o'tib ketibdi. Bu vaqt kema Shotlandiya bilan Yutlandiyalarda o'rtaida ekan; shamol yelkanlarni shishiribdi, kemani ingliz shahzodasi haqidagi qadimiy qo'shiqda aytilganday surib ketibdi. Qo'shiqda shunday deyilgan ekan:

*Dovul turdi, qoraydi osmon;  
Oltin langar tashlandi darhol.  
Yovuz shamol surdi kemani  
Daniyaga shiddat-la, jadal.*

Qo'shiqdagi voqeа qadim zamonlarda bo'lib o'tgan. O'sha zamonlarda Daniyaning taxtida yosh qirol Kristian VII o'tirardi. O'shandan beri ko'p voqealar yuz berdi, ko'p narsalar o'zgardi. Ko'l va botqoqliklar ko'm-ko'k, yashnab turgan o'tloqlarga, cho'llar ekinzorlarga aylandi. Yutlandiyaning ajoyib sohillarida dehqon kulbalarining himoyasida esa olma daraxtlari va atirgullar o'sdi. Biroq, ularni ko'z bilan axtarib arang topasiz, chunki ular kuchli g'arb shamolidan o'zlarini ustalik bilan panaga olishgan. Harholda mana bu sohilda turib, fikran Kristian VII ning davrlarigagina emas, undan ham qadim zamonlarga sayohat qilish mumkin: Yutlandiyada hozir ham o'tmishdagidek qumli yo'lkalar kesib o'tgan, har yer-har yerda qabrilar do'mpayib turgan saroqlar vatanini bo'lmish ko'z ilg'ammas qoramtiр cho'l yastanib yotadi. Katta-katta daryolar qo'ltiqlarga borib quyiladigan g'arbiy sohilni dengiz tomondan baland barxanlar himoyasida avvalgiday o'tloqlar va botqoqliklar qoplab yotibdi. O'rakach-o'rakach barxanlar tog' tizmalariday sohil bo'ylab cho'zilib ketgan, ba'zi joylarda barxanlar oralig'ida tuproqli qiyaliklar ham uchrab qoladi; ana shu yerlardan dengiz har yili oz-ozdan yamlab, natijada qiyalik va tepaliklar zilzila vaqtdagiday gumburlaganicha dengizga qulab tushadi. Hashamatli kemada baxtiyor er-xotinlar bu yerlardan o'tib ketishayotgan paytda Yutlandiyaning qiyofasi ana shunaqa ekan.

Sentabr oxirlab qolgan, lekin havo ochiq edi; yakshanba kuni edi; qo'ng'iroq sadolari bir-birini quvalab Nissum ko'rfazi sohillari bo'ylab taralardi. Bu yerdagi cherkovlar yo'nib, tarashlab qo'yilgan qoyatoshlarni eslatarkan, har bir cherkov qoyani o'yib, tarashlab qo'yilgan qoyatoshlarni eslatarkan, har bir cherkov qoyani o'yib, tarashlab qurilgan ekan. Dengiz to'lqinlari ular ustidan oshib o'taverarkan. Ularning aksariyatida qo'ng'iroqxonalar yo'q, qo'ng'iroqlar ikkita xodaga osilib, ochiq joyda turaverarkan.

Cherkov xizmati tugabdi, xaloyiq na daraxti, na butasi, na guli, hatto qabrlari ustida gulchambari ham bo'lмаган qabriston tomon to'zib chiqishibdi. Faqat unda-bunda marhumlar yotgan joylar do'mpayib turarkan; hamma qabrlar ustini hidi o'tkir, dag'al ko'kat qoplagan. Ba'zi qabrlarga yodgorliklar ham qo'yilgan – bu yodgorliklar tobutsimon qilib o'yilgan chirik xoda parchalaridangina ibirat ekan. Bu xoda siniglarini «sohildagi o'rmon», ya'ni ochiq dengiz keltirib tashlarkan. Dengizda esa sohilda istiqomat qiluvchilar uchun tayyor to'sinlar, taxtalar, yog'ochlar «o'sadi»; bularni dengiz to'lqinlari sohilga yetkazib beradi. Biroq, shamol va dengiz tumani ularni ko'p o'tmay chiritib yuboradi.

Cherkovdan chiqib, bir ayol kelib to'xtagan qabrcha ustiga ham ana shunaqa xoda sinig'i qo'yilgan ekan. Ayol qabr ustidagi yarim chirik yog'och parchasiga tikilganicha indamay turarkan. Birozdan keyin uning yoniga eri yaqinlashibdi. Ular bir-birlariga lom-mim deyishmabdi, eri xotining qo'lidan ushlab, yo'l boshlabdi, ular qoramtilr cho'l va botqoqlik osha barxanlarga yo'l olishibdi. Ular ancha vaqtgacha indamay borishibdi. Nihoyat eri gap qotibdi:

– Bugungi ibodat juda yaxshi o'tdi! Parvardigori olam bo'lмаганда hamma narsadan mahrum bo'lardik!

– Ha, – deb javob qaytaribdi xotini, – bizga shod-xurramlikni ham, g'am-hasratni ham o'sha yuboradi! U hamisha haq. O'g'limiz tirik bo'lganda, bugun besh yoshga to'lardi.

– Rostini aytsam, behudaga g‘am chekyapsan! – debdi  
eri. – U osongina jon taslim qildi, hozir u sen bilan bi  
ham boradigan xudoysi taolonning dargohida.

Ular bir-birlariga boshqa so‘z qotmay, uylariga yo‘l  
olishibdi. To‘satdan hech qanday giyoh o’smagan  
barxanlarning biridan osmonga tutun ko’tarilibdi: kuchli  
quyun mayda qumni chirpirak qilib o‘yib, yuqoriga  
o‘rlabdi, quritish uchun arqonga tizib qo‘yilgan baliqlarni  
devorlarga urib nog‘ora qilib chalibdi; keyin shamol tinib  
quyosh olov purkay boshlabdi.

Er-xotin o‘z kulbalariga kirishibdi, apil-tapil bayram  
sarpolarini yechib, yana qum to‘lqinlari yo‘lida ko‘ndalang  
turib olgan maxluq singari sohilda savlat to‘kib turgan  
barxan tomon shoshilishibdi.

Oppoq qumning har yer-har yeridan o‘sib chiqqan moviy-  
yashil rangli, uchi o‘tkir qum sulisi va yumronqoziqlar bu  
yerlarga ajib bo‘yoq berib turganmish. Sohilga qo‘shnilardan  
anchasi to‘planishibdi, erkaklar bir bo‘lib qum ustiga  
qiyiqlarni tortib chiqarishibdi. Shamol kuchayib, sovuq  
izg‘irin esa boshlabdi, er-xotin uyga qaytishayotganlarida  
shamol qum va qirrali tomchilarni ularning yuziga ura  
boshlabdi. Shiddati shamol qum to‘lqinlarini yorib, tarab,  
atrofga mayda chang qilib to‘zg‘ita boshlabdi.

Oqshom tushibdi; hali ham osmonda juda katta  
la’natlangan jinlar uvillab, hushtak chalib ingrashayot-  
ganday tovushlar eshitilib turibdi. Biroq, er-xotin hatto  
dengizning shovullashini ham eshitmabdi, vaholanki,  
ularning kulbasi dengizning naq qirg‘og‘iga joylashgan  
ekan. Qum to‘zonlari derazaga kelib urilaveribdi, kuchli  
shamol kulbani ag‘darib yuborguday g‘uvillab, avjiga  
minibdi. Qorong‘i tushibdi, lekin oy yarim kechaga borib  
chiqishi kerak ekan.

Osmon bulutdan tozalanibdi, lekin shamol dengizda  
hamon shiddat bilan esaveribdi. Er-xotin allaqachonlar  
o‘rinlariga yotishgan bo‘lsa-da, bunday to‘polonli kunda  
uyqu haqida o‘ylashmabdi; birdan ularning derazasini  
kimdir taqillatibdi, eshik qiya ochilib, bir odam:

- Yiroqdagi qoya yonida katta kema turibdi! – debdi.  
Er-xotin irg'ib o'tinlaridan turishibdi va kiyinishibdi.  
Oy nuridan hammayoq yorishib ketibdi, biroq qum quyuni ko'z ochirgani qo'yamabdi. Odamni uchirib yuborishga ham qodir bolgan qattiq shamol turibdi; bu barxanlar orasida shamol shiddati sal susaygandagina emaklab, go'r azobida zo'rg'a yurib bo'lar ekan. Dengiz sohilga oqqush parini purkaganday sho'rtak suvni purkay boshlabdi; dengizdagi kemani ko'rish uchun ko'z o'tkir bo'lishi kerak ekan. Bu ikki machtali ajoyib kema ekan, shamol uni qoyatoshlar orasidan sohilga sura boshlagan ekan, biroq oxirgi suv osti qoyasi yonida cho'kib qolibdi.

Kemaga yoki uning ichidagilarga ko'mak berishni xayolga ham keltirib bo'lmas ekan, chunki dengiz qahr bilan avjiga minib, to'lqinlar kemaga zarb bilan urilib, undan oshib tushayotganmish. Baliqchilarining qulog'iga dod-voy, nola tovushlari eshitilganday bo'libdi, ular kemadagilarni jon achchig'ida u yoqdan-bu yoqqa yugurayotganlarini ko'rishibdi. Mana, to'lqin terak bo'yini ko'tarilib, kemani ko'mib yuboribdi. Kemaning quyruq tomoni baland ko'tarilibdi, shu payt bir-birini mahkam quchoqlagan ikkita odam o'zini suvgaga tashlab, to'lqinlar qa'rida yo'q bo'lib ketibdi... Yana bir lahzadan keyin qudratli to'lqin yosh bir juvonning tanasini barxanga uloqtiribdi, ayol jonsizga o'xsharmish. Bir necha baliqchi ayollar uni qurshab olishibdi, bundoq qarashsa, u tirik ekan. Uni o'sha zahotiyoy qaqinroqdag'i kulbalardan biriga olib kirishibdi. Haligi juvon biram chiroyli emishkil Zodagon xonimlardan bo'lsa kerak!

Uni choyshabi ham yo'q ko'rimsizgina karavotga yotqizishibdi, ustiga jun adyol yopishibdi, axir, notanish ayolni isitish uchun adyolga o'rash kerak ekan-da!

Ayolni tirik saqlab qolishga muvaffaq bo'lishibdi, biroq uning isitmasi oshib, hech narsani tushunmabdi: boshiga qanday kun tushganini ham, qayooqqa kelib qolganini ham bilmabdi. Ha, xudoga shukurki, uning uchun qadrdon,

aziz bo'lgan inson endi dengiz tubida yotibdi. Hammasi ingliz shahzodasi haqida aytilgan qo'shiqdagiday *yuz* beribdi:

*Hijron kuylarini tinglagandirsan,  
Ko'rgandirsan olam mo'jizalarin.*

Dengiz kema qoldiqlarini qirg'oqqa uloqtiribdi, odamlardan faqat mana shu yosh ayol tirik qolibdi. Shamol hamon uvillashda davom etibdi, biroq kulba ichida anchagacha sukunat hukmronlik qilibdi: yosh juvon hushidan ketibdi: keyin uning vujudi og'tiq azobida qiynalibdi, azobga chidolmay dodlabdi, chiroyli ko'zlarini ochib, bir narsa debdi, ammo bu yerdagilar uni mutlaqo tushunishmabdi.

Biroq, bu azob-uqubatlar behuda ketmabdi, qo'chqorday o'g'il tug'ibdi. Bu bolani shoyi to'shakli chiroyli beshik, hashamatli xona, shod-u xurramlik, barcha ne'matlarga mo'l-ko'l farovon hayot kutayotgan ekan-u, ammo parvardigor unga boshqacha taqdirni ravo ko'ribdi: u qashshoq kulbada dunyoga kelibdi, hatto onasi ham uning peshonasidan suyib bo'sa ololmabdi.

Baliqchinining xotini chaqaloqni onasining ko'ksiga qo'yibdi, biroq ona yuragi urishdan to'xtagan, u olamdan o'tgan ekan. Hayotda faqat boylik, nuqul baxt egasi bo'lishi lozim bo'lgan bolani dengiz ochlik va qashshoqlik azobini tortishi uchun qumtepaga uloqtiribdi.

Ispan kemasi Nissum ko'rfazidan biroz janubroqdag'i qoyatoshga urilib, pachoq bo'libdi. Sohilda yashovchilarning halokatga uchragan kema odamlarini shilib, talaydigan, jabr-zulmga to'la zamonlar allaqachonlar o'tib ketgan. Hozir esa baxtsizlik, falokatga uchraganlar bu yerda mehr-muhabbat bilan qurshab olinibdi, ularga samimiyl munosabatda bo'lib, yordamga shay turishibdi. Bizning zamonamiz chinakam oljanob fazilatlari bilan faxrlanishi mumkin! Jon berayotgan ayol va bebaxt go'dak xohlagan kulbada boshpana, parvarish topishi mumkin

ekan-u, ammo hozirgi kulbadagichalik mehr-oqibat, shirin muomalani boshqalarnikida uchrata olmas ekan: bu yer kechagina o'z bolasi qabri ustida ma'yus turgan, agar tirk bolganda besh yoshga to'lishi mumkin bo'lgan bechora baliqchi ayolning kulbasi ekan.

Olamdan o'tgan juvonning kimligini, uning qayerdan kelganini hech kim bilmabdi, nima, bularni kema siniqlari aytib berarmidi?!

Ispaniyadagi badavlat savdogarning uyidagilar qizi va kuyovidan xat-xabar olishholmabdi. Ular kema ko'zlangan joyga yetib borolmaganini, keyingi hafta ichida dengizda qattiq bo'ron ko'tarilganini bilishibdi, xolos. Bir necha oy sabrsizlik bilan kutishibdi. Nihoyat: «Kema halokatga uchradi, hamma cho'kib ketdi», degan xabar kelibdi.

Qumtepadagi baliqchi kulbasida esa yangi odam paydo bo'libdi.

Parvardigorning ikki bandasiga yuborgan rizqi uchin-chisiga ham bermalol yetadi, dengiz sohilidagi baliqlar hammaga yetadi. Bolaga Yurgen deb ism qo'yishibdi.

- Yahudiy bolasi bo'sa kerak! – deyishibdi odamlar.
- Buning qorachaligini qarang-a!
- Ehtimol, u isnan yoki italyandir! – debdi ruhoniy.

Lekin nomi tilga olingan har uchala halq ham baliqching xotini nazarida bir xil odamlar ekan, ayol bolani cho'qintirganidan behad xursand bo'lib yuraveribdi. Bola katta bo'laveribdi, uning zodagonlarnikiga xos toza qoni kambag'alcha taomlardan oziqlanaveribdi; aslzodalarning bolasi qashshoq kulbada voyaga yeta boshlabdi. Daniya tili, to'g'rirog'i, g'arbiy yutland tili uning ona tili bo'lib qolibdi. Ispan tuprog'ining anor urug'i Yutlandiyaning g'arbiy sohilida yumronqoziq bo'lib o'sa boshlabdi. Odamlarning sharoitga moslashishini ko'rdingizmi?! U yangi vatanda o'zining barcha hayotiy ildizlari orqali bahra olib voyaga yetaveribdi. Unga qashshoqlik, ochlik va boshqa kulfatlar dardini tortish, shu bilan birga, kambag'allarga ato qilingan xursandchiliklardangina bahra olish nasib qilgan ekan.

Har bir kishining bolaligida butun umrini munavvar qilib turadigan o'ziga xos xursandchiligi bo'ladi. Yurgenning o'yinchoq va ermaklari kam emas ekan. Dengiz sohilida yayrab-yashnab o'ynash mumkin: dengiz qirg'oqlarida rangdor qimmatbaho toshlarga o'xshaydigan xilma-xil o'yinchoqlar to'lib yetibdi. Bu yerda marjonday qip-qizil, qahraboday sap-sariq, qush tuxumiday oppoq, sip-silliq dengiz jilo bergan turli mayda toshlarni uchratish mumkin. Sohilda oqarib turgan, toshlarning beliga kamar bo'lib bog'lanib olgan, qurib qolgan suv o'tlari va baliqlarning quruq skeletlari ham o'yinchoqlar vazifasini o'tar, ko'zni quvontirar, aqlga oziq berardi. Yurgen qobiliyatli va iste'dodli bola edi. U turli qissa va qo'shiqlarni osongina yodlab olardil Uning qo'li gul edi. Toshlar va chig'anoqlardan kemalar va devorga ilib qo'yiladigan tasvirlar yasardi. Tutingan onasining aytishicha, u o'zining fikrlarini bir parcha yog'ochga o'yib ifoda qilishga ham qodir ekan. Uning ovozi ham biram yoqimli ekanki, gapirgan gaplari ham ashulaga o'xsharkan. Ha, uning qalbida juda ko'p torlar tortilgan, bordiyu, uning taqdiri boshqacha bo'lganida – xilvat baliqchilar qishlog'iga tushib qolmaganida edi, uning qalb torlari butun jahonni musiqiy tovushlarga to'dirgan bo'lur edi.

Kunlarning birida sohilga yaqin joyda kema halokatga uchrabdi, to'lqinlar qirg'oqqa nodir gul piyozlarini uloqtiribdi. Ularning ba'zilarini baliqchilar iste'mol qilishibdi, qolganlari esa qum ustida chirib ketibdi. Bu gullar ochilmay so'libdi – o'zlarining go'zalligini ko'z-ko'z qila olishmabdi. Yurgen ham baxtli bo'larmakin? Gul piyozlar-ku, ko'p o'tmay yo'qolib ketadi, lekin uning boshida og'ir kunlar bor.

Yurgenga ham, uning atrofidagilarga ham bu yerdagi hayot zerikarli, bir maromda o'tishi hech qachon xayollariga kelmabdi: ishlari boshdan oshib yetibdi-ku, qanday qilib xayollariga keltirishsin. Dengiz ulkan darslik bo'lib, u har kuni yangi sahifani ochibdi, sohilda

yashovchilarni goh o'zining osoyishtaligi, goh yengil to'lqinlanishi, goh shamol va dovuli bilan tanishtirib turibdi. Kema halokatini bu yerda muhim voqeа deb bilisharkan, cherkovga ibodatga borish buyuk bayramga aylanarkan. Qarindoshlar va tanish-bilishlardan Bovberg yaqinidagi Fyaltringdan keladigan ilonbaliq sotuvchi tog'aning mehmonga kelishi baliqchining oиласида katta xursandchilikka sababchi boлarkan. U har yili ikki marta qizil aravasini ilonbaliqqa toлdirib, bu yerga kelarkan, uning aravasi ustiga qopqoq yopilgan yashikka o'xsharkan, har yog'iga oq lolalar surati tushirilgan ekan; aravani ikkita oriq ho'kiz sudrab kelarkan.

Bu baliqfurush hazilkash, xushchaqchaq odam bo'lib, har kelishida bir bochka araq olib kelarkan. Stakanlab ichishga ulgurmay qolganlar esa loaqlal kichik piyola yoki stakanchalarda ichib qolisharkan; yosh bo'lishiga qaramay, hatto Yurgen ham bu ichimlikdan bebahra qolmas ekan. Savdogar qarindosh yog'liq ilonbaliqni hazm qilish uchun araq ichish kerak, deb har safargi hikoyasini boshlar ekan. Bordiyu, tinglovchilar huzur qilib kulta, hikoyani yana qayta aytib berarkan. Bu – gapdon odamlarning ojiz tomonil Yurgen o'smirligida ham, katta boлganida ham bu hikoyani hech unutmabdi, biz ham bilib qo'ysak yomon bo'lmas. Eshiting:

Daryoda ilonbaliqlar suzib yurishar ekan, qizlari onalaridan daryoning yuqori oqimiga ko'tarilib, erkinlikda suzib yurish uchun hadeb ruxsat so'rashaveribdi, onalari bo'sa: «Uzoqqa ketib qolmanglar! Bo'lmasa yovuz baliqchi kelib, hammalaringni chavaqlab tashlaydi!» – debdi. Lekin qizlar o'zboshimchalik qilib ancha yiroqqa ketib qolishibdi, sakkizta qizdan faqat uchtasi uyiga qaytib kelibdi. Ular shikoyat qilishga tushishibdi: «Biz uydan sal nari borishimiz bilanoq yovuz baliqchi kelib, uch tishli panshaxasiga opalarimizni o'lar holatga boradigan qilib sanchib oldil!»

– «Xo'sh, ular yonimizga qaytib kelishadi!» – debdi onasi.  
– «Yo'q! – deyishibdi qizlar. – Axir u opalarimizning terisini

shilib, go'shtipi to'g'rab, qovurib tashladil. «Qaytishadil» – debdi onasi. «Axir, ularni yeb qo'ydi-kul!» – «Qaytishadil» – deb takrorlabdi onasi. «U opalarimizni araq bilan tanovul qildil» – deyishibdi qizlar. «Voy sho'trim, endi ular hech qachon qaytishmas ekan! – deb nola qilibdi ona. – Araq ilonbaliqlarni o'diradil!»

– Shuning uchun ham ilonbaliqdan tayyorlangan taomni yeganda albatta araq ichish kerak! – debdi savdogar.

Bu hikoya Yurgenning butun umri orqali qizil ip bo'lib o'tibdi, qiziq-qiziq hazil-mutoyibalar, matallar va o'xshatishlar uchun boy ozuqa beribdi. Ba'zida Yurgen uyidan chiqib, yorug' dunyoni kemada sayohat qilish istagini bildirib qolganda, onasi: «Olamda yovuz odamlar – baliqchilar juda ko'pli!» – deb pisanda qilarkan. Lekin barxandan uncha uzoq bo'lмаган yerlarda, cho'lda yurish mumkin ekan, u o'sha yerlarda sayr qilarkan. Uning bolaligidan to'rt kun eng esda qoladigan yorqin kunlar bo'libdi, shu to'rt kunda Yutlandiyaning butun go'zalligi, jonajon o'ikaning butun shodligi va baxti o'z ifodasini topibdi. Yurgenning ota-onalarini ziyofatga taklif qilishibdi, lekin bu dafn marosimi ekan.

Ularning badavlat qarindoshlaridan biri olamdan o'tgan ekan. U cho'lda, baliqchilar qishlog'ining shimoli-sharq tomonida yashar ekan. Ota-onalari o'sha yoqqa ketayotib Yurgenni ham o'zлари bilan olib ketishibdi. Ular qumtepalar, cho'l va botqoqlikdan o'tishib, ilonbaliqlarga serob Skerum daryosi kesib o'tgan o'tloqdan yo'lda davom etishibdi. Yovuz baliqchi tutib olgan, qovurib yeb qo'yan ilonbaliqlarning onasi ham xuddi shu daryoda qizlari bilan yashar ekan. Lekin odamlar ham ba'zida o'z nasllariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lismagan. Misol uchun qadimiy qo'shiqlarda hikoya qilinishicha, ritsar Bugge yovuz odamlar tomonidan o'dirilgan ekan, lekin u har qancha yaxshi odam bo'lmasin, o'zi uchun devori qalin, minorali qasr qurib berayotgan quruvchini o'dirmoqchi bo'lgan ekan. Bu qasr Skerum daryosi

Nissum ko'rfaziga quyiladigan, Yurgen hozirgina ota-onaliari bilan kelib to'xtagan joyda ekan. Qasrning ko'tarmasi, g'isht devorning qoldiqlari hali ham bor ekan. Ritsar Bugge o'z xizmatkoriga, ketib qolgan quruvchini qubib yetishni, hamda unga: «Hoy, usta, minora yiqliyapti!» – deyishni buyuribdi. – Agar u orqasiga qaytsa, boshini kesib, men bergen pullarni qaytarib ol, bordiyu, orqasiga o'girilmasa, ketaversin», – debdi.

Xizmatkor quruvchining orqasidan qubib yetibdi, xoja-yini buyurgan gaplarni aytibdi, lekin u orqasiga o'girilmasdan: «Minora hali-beri yiqlimaydi, lekin qachonlardir g'arb tomonidan moviy choponli odam keladi, minorani qulashga majbur qiladi», – debdi. Uning aytgani yuz yildan keyin ro'y beribdi: mamlakat dengiz suvi ostida qolibdi, minora qulabdi, lekin qasrning egasi Predbern Gyuldensterne baland joyga yangi qasr qurib olibdi; bu qasr hozir ham Shimoliy Vosborgda savlat to'kib turibdi.

Ular ana shu qasr yonidan o'tishibdi. Bu yerlar Yurgenga ilgari hadeb eshitib yurgan hikoyalari orqali allaqachon tanish bo'lib qolgan ekan-da, uzun tunlarda eshitgan bu hikoyalari unga huzur bag'ishlagan ekan, endi bo'ssa atrofi ikki qator xandaq, daraxt va butalar, qariqizlar o'sib yotgan ko'tarmalar bilan qurshalgan saroyni o'z ko'zi bilan ko'ryapti. Lekin bu yerda eng ko'r kam narsalar tomlarning ustigacha shox yozgan, havoni muattar hid bilan to'dirgan arg'uvon daraxtlari ekan. Bog'ning shimoli-g'arbiy burchagida qordek oppoq gullarga burkangan shox hammasidan go'zalmish. Bu Yurgen birinchi marotaba ko'rayotgan marjon daraxti ekan. Marjon daraxti ham, gulga ko'milgan arg'uvon ham umrining oxirigacha Yurgenning xotirasida chuqur iz qoldiribdi, bola qarigan chog'lارida ham Daniyaning go'zalligi va muattarligini hamisha eslab yuribdi.

Yo'lning qolgan qismini tez va oson yurib o'tishibdi: marjon daraxti gullab turgan Shimoliy Vosborgning naq o'zida ularning ketidan ziyofatga taklif qilingan va aravada

kelishayotgan boshqa mehmonlar yetib olishibdi va ~~bir~~<sup>bir</sup> ga ketishibdi. Har uchovlari aravaning orqa tomonidagi hammayog‘iga tunuka qoplangan sandiq ustiga joylashishibdi, harholda bu piyoda ketishdan yaxshi-da. Yo‘l do‘ngliklardan iborat cho‘ldan o‘tgani uchun aravani tortib ketayotgan hayvonlar archalar orasidagi maysalarni ko‘rib, to‘xtab-to‘xtab borisharkan. Quyosh chiqib, ~~cho‘l~~<sup>cho‘l</sup> usti jimirlay boshlabdi. Bu jimirlash havodan ham tinig bo‘lishiga qaramay, quyun singari osmonga o‘rlayotgani ro‘yi rost ko‘rinayotgan mish; go‘yoki quyosh nurlari cho‘l ustida raqsga tushib, girdikapalak bo‘layotgandaymish.

– Lokeman podasini haydab ketyapti! – deyishibdi Yurgenga, bola shu gapga ham qanoat hosil qilibdi, darhol o‘zini ertaklar olamida ko‘ribdi, hozirgina ko‘rib turgani atrofidagi manzarani ham ko‘zdan qochirmabdi. Cho‘ldagi sukunatni qarang-a!

Ajoyib gilam misol cho‘l hammayoqqa quloch yoygan, archalar gullagan; archalar orasidan ko‘m-ko‘k sarvday bo‘lib qora archa va endigini bo‘y cho‘zayotgan eman bachkilari guldastaday qad ko‘tarib turibdi. Agar bu yerda son-sanoqsiz ilonlar bo‘lmaganida, ana shu gilam ustida huzur qilib u yoqdan-bu yoqqa dumalasang maza qilasan-da. Bu yerdagi mana shu ilonlar va bo‘rilar xususida gap ketibdi; keyingi paytlarda bo‘rilar nihoyatda ko‘payib ketganidan bu yerni bo‘rilar viloyati deb atay boshlashibdi. Arava haydab borayotgan cholning hikoya qilishicha, otasi hayotlik paytlarda bechora otlar o‘zlarini bo‘rilardan jon-jahdi bilan himoya qilisharkan, kunlarning birida u bo‘rini toptab o‘ldirgan otni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ekan, biroq ot oyoqlarining ko‘p joyi g‘ajib tashlangan mish.

Hademay do‘nglik va qumlar bilan qoplangan cho‘lini bosib o‘tib, mehmonlar gavjum bir uyga yetib borishibdi, hammayoqqa aravalari tiqilib ketibdi, ot va ho‘kizlar siyrak o‘t-o‘lanlarni chimdib yeyishayotgan mish. Xutorning orqasida Yurgen yashayotgan joydagি singari baland-balad barxanlar ko‘rinib turgan mish. Ie, bu barxanlar

qayoqdan kelib qoldiykin? Axir, bu yer sohildan uch milya ichkariroqda-kul! Barxanlarni bu yoqqa shamol surib kelgan, uning qilig'i shunaqa.

Duolar o'qilibdi, ikki-uchta qariyalar ko'zyoshi qilishibdi, lekin Yurgenning fikricha, xursandchilik zo'r bo'libdi: ziyofat to'kin-sochinmish, hammani seryog' ilonbaliqlar bilan siylashibdi, lekin baliqlarni araq bilan yejish kerak. Keksa savdogar chol: «Araq ilonbaliqlarni dafn qiladil» debdi, hamma uning gapini tasdiqlabdi.

Yurgen hammayoqni izgib chiqibdi, uch kundan keyin o'zini o'z uyidagiday his etibdi. Biroq shu yerda, ya'ni cho'lda hamma narsa o'z qishloqlari, barxandagidan butunlay boshqachamish: cho'l chaman-chaman ochilgan gullarga, ko'k mevali butalarga to'lamish; yirik-yirik shirin mevalar oyoq ostlarida to'lib-toshib yotganmish, archalardan qizil shiralar oqib turganmish.

U yer-bu yerlarda qo'rg'onlar ko'zga tashlanarmish; sokin havoda tutun tarqalarmish. Yurgenga bir joy yonayotgan bo'lsa kerak, deb uqtirishibdi. Oqshom tushgach, cho'l ustida shafaq qizaribdi, rosa chiroyli tomosha bo'libdi!

To'rtinchi kuni xudoyi osh berish tamom bo'libdi: sohil bo'yidagi barxanlar yoniga – uyga qaytish vaqt yetibdi.

– Bizdagilar chinakam barxan, – debdi otasi, – manovilarda kuch-kudratdan nishon yo'q.

Ana shu barxanlarning bu yoqqa qanday kelib qolgani haqida gap ketibdi. Juda osonlik bilan kelib qolgan ekan. Sohildan jonsiz jasadni topib olishibdi: dehqonlar uni qabristonga qo'yishibdi, shundan keyin dahshatli bo'ron ko'tarilibdi, qumlarni mamlakat ichkarisiga haydabdi, dengiz qahr bilap pishqirib, sohilga intilibdi. Shunda dono odamlardan biri anavi qabrni kavlab ko'raylik, marhum bosh barmog'ini so'rmayaptimikin, deb maslahat beribdi, bordiyu barmoq so'rayotgan bo'lsa, u suv alvastisi, uni dengiz talab qilayotgan bo'ladi, debdi. Qabrni ochishibdi, qarashsa, marhum bosh barmog'ini so'rayotganmish. O'sha zahotiyoyq uni aravaga yuklashibdi, aravaga ikkita

ho'kizni qo'shibdi, ho'kizlar qo'rqqanlaridan cho'l va botqoq orqali dengiz tomonga jon-jahdlari bilan yugurishibdi. Qum bo'roni darhol tinibdi, biroq barxanlar mamlakat ichkarisida o'shandayicha saqlanib qolaveribди. Yurgen bolaligining eng baxtiyor kunlari, xudoyi osbi berish kuni haqidagi xotiralar qatorida bu hikoyani ham eslab, e'zozlab yuraveribdi.

U uyidan ajrab chiqib, yangi joy, yangi odamlarni ko'rish ishtiyoyida yashabdi. Xuddi shunday bo'libdi ham. U hali o'n to't yoshga to'lmasdanoq kemaga shogird bo'lib yollanibdi, jahongashtalik qila boshlabdi. U yog'in-sochinni ham, dengizni ham, yovuz, qahri qattiq odamlarni ham yaxshi bilib olibdi. Axir, u bekorga shogird bo'lma'bdi-da! U och-nahorlikni ham, izg'irinli tunlarni ham boshidan kechiribdi, qamchi va musht yeishidan ham bebahra qolmabdi. Ba'zida badanidagi toza ispan qoni qaynab ham ketarkan. O'shanda tilining uchiga zaharli gaplar kelarkan; bunday paytlarda tilini tishlab, eng oqilona ish qilar ekan, aks holda boshiga ilonbaliqlarning kuni tushishi hech gap emas ekan.

«Baribir, aytganim bo'ladi!» – derkan u ba'zida o'ziga o'zi.

Unga ispan sohilini, ota-onasining vatanini, hatto ular baxtiyor va mamnun yashagan o'sha shaharni ham ko'rish nasib bo'libdi, ammo u o'z vatani, o'zi tug'ilgan oila haqida mutlaqo hech narsa bilmas ekan.

Yigitchaga sohilga chiqish uchun ruxsat berishmas ekan, faqat kema ertaga jo'naydigan kuni birinchi marotaba unga sohilga chiqishga ijozat berishibdi: bozordan ul-bul xarid qilish kerak ekan, uni yordamchi sifatida birga olib ketishibdi.

Nihoyat, Yurgen egnida ariq suvida yuvilgan va trubada quritilgandek ko'rimsiz ko'yakda shaharga kelibdi. U barxanlar orasida dunyoga kelganidan beri shaharni endi ko'rishi ekan. Qarasa, hammayoqda baland-baland imoratlar, tor ko'chalar, odamlar esa hech qayoqqa sig'masmish. Olomon u yoqdan-bu yoqqa yurayotgan-

mish, go'yoki ko'chalardan daryo oqayotgandaymish; shaharliklar, dehqonlar, monaxlar, askarlar... Baqiriq-chaqiriq, shovqin-suronmish, xachir va eshaklar bo'yni-dagi qo'ng'iroqlar jiringlayotgan mish, cherkov qo'ng'iroq-xonalari jarangi, qo'shiq sadolari va raqqoslarning qayroq shiqillatishlari hukmronmish; hunarmandlar uylarining ostonalarida, yo'l chetlarida taraqa-turuq qilib ishlashayotgan mish. Quyosh olov purkab, havo odamlar nafasini qaytarib yuboradiganday isib ketibdi; Yurgen o'zini go'ng'qo'ng'izlar, tilla qo'ng'izlar, asalari va pashshalar zo'r berib g'o'ng'illab shovqin solayotgan pechka ichiga kirib qolganday his qilibdi, boshi aylanib ketibdi. To'satdan u qarshisida viqor bilan turgan cherkovga nazar tashlabdi; nimqorong'ida cherkov gumbazlari-yu, ostida shamlar yonayotgan mish, isiriqlar burqsayotgan mish. Hatto eng juldurvoqi gado ham cherkovga kirishga haqlimish. Yurgen bilan birga bozorga yuborilgan matros o'sha tomonga yo'l olibdi: Yurgen unga ergashibdi. Devorlardi oltin butlar nur sochib turgan mish. Gullar va yonib turgan shamlar orasidagi mehrobda Bibi Maryam Hazrati Isoni bag'tiga bosib turgan mish. Hashamatli sarpolar kiyib olgan ruhoniylar duolar o'qishayotgan mish, chiroyli-chiroyli bolakaylor esa isiriq tutatishayotgan mish. Bu yerdagi barcha hashamat va go'zallik Yurgenda chuqur taassurot qoldiribdi, ota-onalarining e'tiqod va dini uning qalbidagi eng yashirin torlarni chertib o'tibdi; ko'zlarida yosh yiltillabdi.

Ular cherkovdan chiqib, bozorga borishibdi, ul-bul xarid qilishibdi. Yurgen xarid qilingan mahsulotlardan ko'tarib olibdi. Yo'llari ancha yiroq bo'lganidan u charchab qolibdi, biroz dam olish niyatida ustunlari marmardan ishlangan, har qayer-har qayerga haykallar qo'yilgan, zinalari keng, hashamatli uy ro'parasida to'xtashibdi. Yurgen yukni devorga suyab qo'yibdi, biroq shu payt egniga uqali kiyim kiygan, oltin bezaklar taqqan darvozabon kelib, unga kumush sopli hassani o'qtalibdi, uni, ya'ni xo'jayininiig nabirasini haydabdi! Lekin uning

nabira ekanligini hech kim bilmas ekan-da. Yurgenning o'zi ham nabira ekanligini bilmas ekan-da.

Kema yo'nga chiqibdi. Yana o'sha bemaza hayot, turtish, haqoratlash, to'yib uxlamaslik, toliqtiradigan mehnat boshlanibdi. Xo'sh, nima bo'pti, hammasiga chidash kerak! Buni yoshlikning qattol mактабидан o'tish deydilar. Bordiyu, seni baxtli qariyalik kutayotgan bo'lsa-ku, yaxshi-ya!

Safar tugabdi, kema yana Ring Kepings ko'rfa ziga langar tashlabdi, Yurgen uyiga, qadrdon baliqchilar qishlog'iga qaytibdi, biroq u jahonni kezib yurganda tutingan onasi olamdan o'tibdi.

Qahraton qish kelibdi. Dengizza ham, quruqlikda ham qor bo'roni avjiga minibdi; cho'lda yurish juda qiyin bo'lib qolibdi. Mamlakatlarning bir-biridan farqini qarang! Bu yerda izgirin, sovuq. Ispaniyada esa havo ochiq, sovuq kunlarda ham dengiz tomondan Shimoliy Vosborgga uchib ketayotgan oqqushlar galasini ko'rib, hech bo'lmaganda yoz latofatlaridan huzur qilib, bahra olasan, degan fikrga kelibdi. Yurgen fikran gullarga ko'milgan, hil-hil bo'lib pishgan mevalari yerda yoyilib yotgan, cho' arg'uvonlari chaman-chaman ochilgan Shimoliy Vosborgni ko'z oldiga keltiribdi. Oh, o'sha yoqlarda yana bir marta bo'lsa edil!

Bahor kelib, baliq tutish boshlanibdi. Yurgen otasiga yordam bera boshlabdi. U keyingi yili juda o'sib ketibdi; u o'tirib ham, turib ham suzishni o'rganibdi, hatto suvda o'mbaloq osharkan. Unga ko'p marta skumbriya baliqlaridan ehtiyyot bo'lishni tayinlashibdi, chunki ular gala-gala bo'lib yurishar, eng mohir suzuvchilarni ham suvning tubiga tortib ketib, yeb qo'yishar ekan. Biroq Yurgenga xudo boshqa qismatni ravo ko'rgan ekan.

Qo'shnilarining Morten ismli o'g'li bor ekan. Yurgen u bilan do'stlashibdi, ular ikkovlari Norvegiyaga, keyin Gollandiyaga boradigan kemaga yollanishibdi. Ular o'rtasida janjalga sabab bo'ladigan hech bir voqeа bo'lmabdi, lekin yo'q narsadan ham janjal chiqib ketishi

mumkin ekan-da! Qiziqqon odamlarning ko'pincha qo'lli qichishib turadi; bir kuni arzimagan narsa xususida Morten bilan g'ijillashib qolganda Yurgen ana shunday holatga tushibdi. Ular kapitan hujrasi orqasidagi burchakka o'tirib olib, bitta kosadan ovqatlanishayotgan ekan; Yurgennenning qo'lida pichoq bor ekan, u pichoq bilan o'tog'iga hamla qilibdi rangi quv oqarib, ko'zлari Chaqnab ketibdi. Morten bo'lsa:

- Sen bo'lar-bo'lmasga pichoq o'qtaladigan odamlar toifasidansan! – deb qo'ya qolibdi.

Shunda Yurgennenning qo'l shalpayib pastga tushibdi, churq etmay ovqatini oxirigacha yebdi-da, so'ng o'z ishi bilan ovora bo'libdi. Ish tamom bo'lgach, u Mortenning yoniga borib: «Betimga tarsaki tort, g'ing demayman! To'g'ri, qonim xurmachadagi qaynayotgan suvdan hamisha ko'pirib turadil» – debdi.

- Bas buni unutaylik! – debdi Morten, shundan keyin ular o'tasidagi do'stlik aloqalari yanada mustahkam-lanibdi. Ular qumtepalar ko'p bo'lgan Yutlandiyaga, uylariga kelishgach, dengizda ko'rgan-kechirganlarini, o'talarida bo'lib o'tgan voqeani aytib berishibdi. Ha, Yurgennenning qoni hamisha ko'pirib, qaynab turardi. Shunga qaramay u mashhur, ishonchlik xurmacha ekan.

- Lekin u yutland xurmachasi emas<sup>5</sup>, uni yutland deb ham bo'lmaydi, – deb Morten uning jig'iga tegarkan.

Ikkovlari ham yosh, navqiron, basavlat, baquvvat yigitlar ekan, lekin Yurgen Mortendan ancha chapdastroq ekan.

Shimolda, Norvegiyada dehqonlar podalarini alohida kapalari joylashgan tog'larda boqishar, Yutlandiyaning g'arbiy sohilidagi qumtepalarда esa baliqchilarining kulbalari bor ekan: ular kema sinqlaridan yasalgan bo'lib, tomi torf va archalar bilan yopilgan ekan; kulbadagi

<sup>5</sup> Yutland xurmachasi deb atalmish idish qoramtil loydan yasalib, o'tga chidamli, pishiq bo'ladi.

devorlar yoniga uqlash uchun so'tilar qurilgan ekan. Har bir baliqchining qizlardan yordamchilari bo'lar ekan; qizlarning vazifasi qarmoqlarga xo'rak qo'yish, baliq ovidan qaytgan sohibini iliq kutib olish, pivo tutish, unga ovqat tayyorlash, qayiqdan tutilgan baliqlarni olib, tozalashi ekan.

Yurgen, uning otasi va yana bir necha baliqchilar o'z yordamchilari bilan bir kulbaga joylashibdi. Morten esa yonidagi kulbani egallabdi.

Qizlar orasida Else ismli qiz bo'lib, uni Yurgen bolaligidan bilar ekan. Ikkovlari juda inoq ekan; ularning fe'l-atvorlari bir-birlarinikiga o'xshab ketar, lekin tashqi qiyofalari bilan keskin farq qilishar ekan. Yurgen bug'doyrang, qorasoch, qiz esa qorday oppoq ekan; qizning sochlari zig'ir tolasiday oltinrang, ko'zlar esa quyosh nur sochib turgan dengizday ravshan va moviy ekan.

Bir kuri ular birga ketishibdi. Yurgen uning qo'lidan ushlab, kaftlari orasida qisibdi. Shunda Else unga:

— Yurgen, yuragim allanechuk bo'lyapti! Sen akamday bo'lib qolgansan, kel, sening qo'lingdan ushlay qolay, men yollanib ishlayotgan Morten esa qallig'im. Lekin bu haqda boshqalarga og'zingdan gullab qo'yma! — debdi.

Yurgenning oyoqlari ostidagi qum g'irchillabdi, lekin u lom-mim demabdi, mayli deganday bosh irg'ab qo'ya qolibdi, xolos. Undan shundan boshqa narsa talab qilinmayotgan ekan. U bu gapdan keyin Mortenni juda yomon ko'rib qolibdi. Ilgari u Elseni kam o'ylarkan, hozirgi suhabatdan keyin Morten uning yakka-yu yagona sevgilisi Elseni tortib olganini his eta boshlabdi. Ish chappasiga olaman desa shunaqa bo'lar ekan-da.

Baliqchilarning havo ochiq kunlari qoyatoshlar orasidan dengiz sohiliga suzib o'tishlarini tomosha qilish juda maroqli ekan. Baliqchilardan biri qayiqning old tomonida turadi, eshkakchilar undan ko'z uzishmaydi, eshkak eshishni to'xtatish, qayiqni hayqirib kelayotgan to'lqinlar ixtiyoriga qo'yib berishga qilinadigan imosini kutib turishadi, binobarin, shu to'lqinlar qayiqni qoya-

toshlar orasidan osongina olib o'tadi. To'lqin qayiqni shunchalik yuqoriga otganidan sohildan qayiq ostidagi to'sin bemalol ko'rindi, zum o'tmay u to'lqinlar girdobida qoladi; so'ng qayiqni ham, odamlarni ham, machtani ham dengiz yutib yuborganday, ko'rindiyet ketadi. Biroq, bir lahzadan keyin qoyatoshlarning boshqa tomonidan xuddi dengiz tubidan chiqqan maxluqday tepada qayiq ko'riniq qoladi; eshkaklar tez-tez eshiladi, dengiz maxluqining oyog'i-oyog'iga tegmaydi. Ikkinci va uchinchi qoyatoshlar orasida ham shu hodisa takrorlanadi; keyin baliqchilar suvga sakrab tushib, qayiqlarni sohilga sudrashadi; to'lqin orqadan itarib, ularga yordam beradi.

Qayiq tumshug'ida turgan baliqchi vaqtida imo qilmasa yoki bir lahma xato qilsa, qayiq qoyatoshlarga urilib, chil-parchin bo'ladi.

«Shunday bo'lsa men ham, Morten ham halok bo'lamiz!» degan fikrni ko'nglidan o'tkazibdi Yurgen dengizda suzib ketayotganida. Uning otasining to'satdan mazasi qochib, qaltiray boshlabdi. Bu orada qayiq so'nggi qoyatoshga yaqinlashib qolibdi; Yurgen irg'ib o'rnidan turib: «Ota, yaxshisi, qayig'imni qo'yib yuboring!» – deb baqiribdi-da, Mortendan nigohini olib, to'lqinlarga tikilibdi. Bir vaqt dahshatli to'lqin yaqinlasha boshlabdi. Yurgen otasining qonsiz yuziga boqib, yovuz niyatini amalgalashira olmabdi. Qayiq qoyatoshlar yonidan eson-omon o'tib, sohilga yetib kelibdi, lekin yovuz fikr Yurgennenning miyasiga mahkam o'rnashib olibdi; qoni qaynab ketibdi, Morten bilan do'stlashgan paytlarda qalbida o'rnashib qolgan ilk taassurotlar unga tinchlik bermabdi, shu vajdan u yovuz niyatini amalgalashira olmabdi. Ha, Morten uning umrini xazon qilibdi, buni o'zi bilib turar ekan. Uni ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. Baliqchilardan ba'zilari bu ahvolni payqashibdi, biroq Morten hech narsani payqamabdi, avvalgiday qadrdon do'st, dilkash yigitligicha qolaveribdi.

Yurgennenning otasi yotib qolibdi; kasali og'ir bo'lganidan, bir haftadan keyin olamdan o'tibdi. Yurgenga otasidan

qumtepalardagi bitta uy meros bo'lib qolibdi, uy esa kichkina, ammo shinamgina ekan, Mortenda esa shu ham yo'q ekan.

– Mana endi matroslikka yollanmaysan! Hamisha bilan birga bo'lasan! – deyishibdi Yurgenga keksa baliqchilar.

Biroq, Yurgenning o'y-niyatlari boshqa yoqda bo'lib, u jahongashtalik qilishni orzu qilar ekan. Ilonbaliq bilan savdo qiluvchi savdogarning Ko'hna Skagenda tog'asi bo'lar ekan. U baliqchilik bilan shug'ullanar ekan. U badavlat savdogar bo'lib, hatto xususiy kemasi ham bor ekan. U muloyim chol ekan; bundaylarning qolida ishlagan odam kam bo'lmaydi. Ko'hna Skagen Yutlandiyaning eng chekka shimolida, baliqchilar qishlog'i va qumtepalardan yiroqda bo'lgani uchun bu yer Yurgenga yoqibdi. U Else bilan Mortenning to'yida kayf-safo qilishni istamabdi, to'y esa ikki haftadan keyin bo'lar ekan.

Keksa baliqchi Yurgenning niyatini ma'qullamabdi, axir, endi o'z uying bor, Else ham senga moyil bo'lib qolsa hech gap emas, debdi.

Yurgen cholning gaplariga hardamxayollik bilan javob beribdi, chol uning fikriga tushunibdi. U Elseni Yurgen huzuriga olib kelibdi. Qiz ko'p gapirmabdi, shunday bo'lsa-da, ba'zi narsalarni aytibdi...

– O'z uying bor... Nega endi xayolga cho'masan!

Yurgen chuqur o'ya tolib qolgan ekan.

Dengizza mavj urgan shiddatli to'lqinlardek insonlar qalbida ham undan kuchliroq to'lqinlar tug'yon uradi. U haddan tashqari hayajonlanibdi. Yurgenning miyasiga ko'p fikrlar kelibdi, nihoyat u Elsega savol beribdi:

– Bordiyu Mortenda ham menikidaqa uy bo'lganida, qaysi birimizni xohlarding?

– Axir, Mortenning uyi yo'q, bo'lmaydi ham!

– Xo'sh, aytaylik, uyi bo'ladi deb faraz qilsakchi?

– Unda Mortenni tanlardim, uni yaxshi ko'raman! Axir sevgi qorin to'yg'azmaydi-ku!

Yurgen bu gaplarning mag'zini tuni bilan chaqib chiqibdi. Nega u shu ahvolga tushib qolganini o'zi ham bilmas ekan. Bu fikri Elsega bo'lgan muhabbatidan ham kuchliroq bo'lib chiqibdi, u shu fikr bilan ertalab Mortenning oldiga boribdi. Morten bilan uchrashib, unga tuni bilan o'ylab chiqqan gaplarini aytibdi. U o'tog'iga uning uchun foydali shart bilan uyini berib, o'zi esa kemaga yollanib, jo'nab ketajagini aytibdi. Else bundan xabardor bo'lib, sevinganidan Yurgenni o'pib olibdi, axir u Mortenni jonidan ortiq yaxshi ko'rар ekan-da.

Yurgen ertasiga ertalab safarga otlanmoqchi bo'libdi. Biroq, kechqurun ancha kech bo'lishiga qaramay, u yana bir marta Mortenning oldiga bormoqchi bo'libdi. U yo'nga tushibdi, qumtepada uning jo'nayotganini ma'qullamagan baliqchi cholni uchratibdi. «Nima balo, Mortenning ko'zida mehriyosi bormi, qizlar uning ketidan yurgani-yurgan», - debdi baliqchi chol. Lekin Yurgen suhbatni bo'libdi, u bilan xayrashib, Mortenning oldiga jo'nabdi. Uning uyiga yaqinlashganda qulog'iga begona odamlarning tovushi chalinibdi; Yurgen Mortenning uyida birov bor deb to'xtab qolibdi; U Else bilan uchrashishni xohlamabdi. Morten yaxshigina o'ylab, biror fikrga kelib, menga minnatdorchilik bildiradi deb uyga kirmay, orqasiga qaytibdi.

U ertasiga quyosh chiqmasdan tugunini tugibdi. Tepadan sohilga tushibdi, botqoq qumdan ko'ra, sohil bo'ylab yurish oson va yaqinroq ekan-da; va'daga muvofiq u avvalo F'eltiringga tushib, ilonbaliq bilan savdo qiluvchi savdogar bilan uchrashmoqchi bo'libdi.

Moviy dengiz o'ziga xos chiroy bilan mavj urib turgan emish, sohil chig'anoqlarga to'la emish, bolaligida o'yinchoq qilib bosib yurgan bu chig'anoqlar oyoqlari ostida qisir-qisir qilibdi. To'satdan Yurgenning burnidan qon kelibdi – bu arzimagan narsa bo'lsa-da, biroq oqibati xunuk bo'lishi mumkin ekan. Ikki-uch yirik qon to'mchilari ko'ylagining yengiga tomibdi, qonni artibdi, qon to'xtabdi, shundan keyin ko'zi ochilib, ancha yengil

tortibdi. Qumda dengiz karami o'sib yotgan ekan, undan bir shox sindirib olib, shlyapasiga qadab qo'yibdi: «Oldinga dadil qadam tashla! Ilonbaliqlar aytganday, yorug dunyoni ko'rish uchun uydan turib mo'ralash kerak, odamlardan ehtiyot bo'ling! Ular yovuz, sizlarni oldirishadi, nimta-nimta qilib, tovada qovurishadi!» deb o'z-o'ziga takrorlabdi va kulib yuboribdi. «Men o'z jonimni qutqara olaman. Botirlik qal'alar oladi deb bejiz aytilmagan».

U G'arbiy dengizni Nissum ko'rfazi bilan tutashtirib turadigan torgina bo'g'ozga yaqinlashganda quyosh tikkaga kelibdi. U orqasiga qarabdi, uzoqda ikkita otliq va ularning ketidan kelayotgan bir necha piyodalarning shoshilayotganini ko'ribdi. Shoshsa shoshilaverishsin, unga nima?

Qayiq narigi sohilda ekan. Yurgen qayiqchini chaqiribdi; ular bo'g'ozning o'rtasiga yetib bormasdan haliga otliqlar ko'rfazga yetib kelishibdi, baqirib-chaqirib, Yurgenga qonunni pesh qilib, orqaga qayt, deyishibdi. Yurgen ular nega shunday qilishayotganini anglamabdi, orqaga qaytish ma'qul bo'lsa kerak deb o'ylab, eshkakni eshib, qayiqni sohil tomon haydabdi. Qayiq sohilga yaqinlashishi bilanoq u yerda turgan kishilar darhol Yurgennenning qo'lini orqasiga bog'lashibdi, u nima bo'layotganini ham bilmay qolibdi.

– Shoshmay tur! Yovuzliging uchun boshing bilan javob berasan hali! – deyishibdi ular. – Yaxshi qolga tushding!

Uni qotillikda ayblashibdi; Mortenni esa kekirdagi kesilgan holda topishibdi. Bاليqchilardan biri kecha kech-qurun Yurgenni Mortenning uyiga boradigan yolda uchratgan emish, Yurgen unga oldin ham bir necha bor pichoq bilan daf qilgan emish, demak, u Mortenning qotili emish! Shuning uchun uni qattiq nazorat ostiga olish kerak ekan; eng ishonchli joy Ringk'yoping bo'lib, u ancha yiroqda ekan. Shu payt g'arbiy shamol esib qolibdi; yarim soat, hatto undan ham oz vaqt ichida bo'g'ozdan kechib

o'tib, Skerum daryosiga chiqish, daryodan Shimoliy Vosborgga chorak milya yo'l yurib yetib olish mumkin ekan, o'sha joyda ko'tarmali mustahkam qal'a bor ekan. Qayiqda boshqalar bilan birga oqsoqolning akasi ham bor ekan, u Novcha Margarita qatl qilinguncha yotgan yerto'lagaga Yurgenni qamashga ruxsat berishadi degan fikrda ekan.

Yurgennenning o'zini oqlab aytgan gaplariga qulog solishmabdi; yengidagi qon dog'lari uning yolg'on gapirayotganini fosh qilib turar ekan. O'zi aybdor emasligini bilarkan-u, boshqalar, bunga ishonmas ekan, u taqdir hukmiga bo'y sunishga majbur ekan.

Qayiq bir vaqtlar ritsar Buggening qal'asi qad ko'targan, Yurgen ota-onasi bilan xudoyi oshi yegani kelgan ko'tarma oldida to'xtabdi. Eh, baxtga to'la bolaligining unutilmas to'rt kunil Endi bo'lsa uni o'sha yo'l, o'sha o'tloqlar bilan Shimoliy Vosborgga, hozir ham marjon daraxtlari gulga ko'milgan, arg'uvon gullari muattar hid taratayotgan joyga olib ketishyapti. U bu joylardan xuddi kechagina o'tganday ekan.

Qal'aning chap tomonidagi imoratlardan birining zinapoyasi ostidan pastdag'i gumbaz shaklli yerto'lagaga yo'l bor ekan. O'sha yerdan Novcha Margaritani qatl qilishga olib chiqishgan ekan. U beshta go'dakning yuragini yeb bo'lib, yana ikkitasining yuragini yeyishni, shundan keyin osmonda uchib, ko'rinas odam bo'lib qolishni niyat qilgan ekan. Devordan kichkina tuynuk ochilibdi, biroq arg'uvon daraxtining muattar hidi yerto'lagaga qirmas ekan. Yurgen yerto'lada to'shak o'rniga namlik, po'panak, yalang'och taxtalarga duch kelibdi. Biroq, sof vijdonini yumshoq yostiqdan afzal deb bilib, shiringina uyquga ketibdi.

Og'ir va qalin eshikka zalvorli temir zulfin qoqilgan ekan, lekin xurofot arvochlari qulf teshigidan ham, boyiarning qo'shiqlari va baliqchilarining kubalariga ham o'taveradi. Yurgen o'tirib olib, Novcha Margarita haqida, uning yovuz qilmishlari haqida o'y suribdi. Go'yoki havoda

ayolning so'nggi daqiqada xayolidan kechirgan o'y-fikrlari  
charx uringdi. Yurgenning xayoliga zamindor Svagvedel  
hayotlik paytlarida yuz bergan mo'jizalar haqidagi  
hikoyalar ham kelibdi. O'shanda odamlar ko'priklari  
qo'triqlayotgan itni ertalab ko'prikka o'z zanjiri bilan osib  
ketishganini ko'rishgan ekan. Ana shu noxush o'ylar  
Yurgenning yuragiga vahima solib, uni qo'rqtibdi. Faqat  
gulga ko'milgan marjon daraxti va arg'uvonlar haqidagi  
xotiralarigina quyosh nurlariday yerto'lani munavvar qilib  
turibdi.

U bu yerda uzoq turmabdi; uni Ringk'yopingdan mana  
shunaqa zax yerto'laga ko'chirishibdi.

U zamonlarda hozirgidaqa emas ekan, kambag'alning  
ahvoli doimo voy ekan. Ko'plab dehqon xonadonlari va  
butun boshli qishloqlar boylarning mulkiga aylanib qolgani  
ko'plarning xotiridan hali ko'tarilgani yo'q, duch kelgan  
odam yoki malay sudya bo'lib olib, kambag'al dehqonni  
arzimagan aybi uchun chek yeridan mahrum qilishga yoki  
qamchilashga hukm qilavergan. Shunga o'xhash xatti-  
harakatlar Yutlandiyada ham davom etayotgan ekan. Qiro  
rezidentsiyasidan hamda ma'rifat o'rgatuvchi odamlardan  
yiroq joylarda qonundan o'z bilganlaricha foydalanishar  
ekan. Yurgenning qamoqxonada chekayotgan bu azobi  
uning oldida holva ekan.

Uni qamab qo'yishgan xona juda sovuq ekan! Azobning  
oxiri bormi? U aybsiz, uni sharmandalik va kulfatga  
mubtalo qilishadi, qismati ana shunday ekan. U bu yerda  
xoli qolib, boshiga tushgan kulfat haqida obdan o'ylash  
imkoniga ega bo'libdi. Taqdir nechun uni bunday  
ko'ylarga soldi? Hammasi siz bilan bizni kutayotgan  
kelgusi hayotimizda ravshan bo'ladi! Yurgen ana shu  
ishonch bilan o'sgan. Ispaniyaning serquyosh tabiat  
zulmat va sovuqda o'tirgan o'g'longa baxt nuri sochyapti.  
Yurgen Yaratganning marhamatiga qattiq umid bog'labdi,  
umid hech qachon dog'da qoldirmaydi.

Bahorgi qattiq shamollar yana kuchayibdi. Dengiz  
shovqini bir necha milya masofadan, hatto mamlakat

ichkarisidan ham eshitilibdi. Dengiz qattiq o'kiribdi. O'zining hayotiga biroz o'xshab ketadigan ana shu shovqinlarga diqqat bilan qulog solibdi. Hech qanday qadimiy qo'shiq uning qalbiga mana shu yugurik to'lqinlarning musiqasi, toshqin dengizning ovoziday ta'sir qilmagan ekan. Eh, dengiz, yovvoyi, erkin dengiz – Sen bilan shamol odamlarni mamlakatdan mamlakatga eltasanlar, hamma joyda inson shilliqqurt singari o'z uyini, vatanining bir qismini, jonajon tuprog'ining bir qismini o'zi bilan olib yuradi.

Yurgen to'lqinlarning bo'g'iq shovqiniga qulog solgan sari uning qalbida o'y va xotiralar tug'yon uribdi. «Erkinlikka! Erkinlikka!» Kavushing poshnasiz bo'lsa ham, egningda qirq yamoq kiyim bo'lsa-da, erkinlikda bolsang bas, shuning o'zi jannat, huzur-halovat demakdir! Uning g'azabdan qoni qaynab ketib, devorni mushtlabdi.

Shunday qilib kunlar, haftalar, oylar o'taveribdi. Hash-pash deguncha yil ham o'tipti. To'satdan Jallod laqabli o'g'ri Nilsni ushlab olishibdi, Yurgen uchun yorug' kunlar yetib kelibdi: ma'lum bo'lishicha, unga nisbatanadolatsizlarcha yo'l tutishgan ekan. Ringk'yoping bo'g'ozidan shimolroqda mayxona bo'lar ekan. Yurgen ketadigan kuni shu yerda kechqurun Nils bilan Morten uchrashgan ekan. Ular bittadan qadah ko'tarishibdi, so'ng qadah ko'tarishlar ulanib ketibdi. Morten uncha kayf qilmapti-yu, maqtangisi kelib, rosa valdirabdi: uy olganini, uylanajagini aytibdi. Nils undan shuncha pulni qayerdan olganini so'raganida Morten maqtanib hamyonini urib qo'yibdi:

– Shu yerdan boshqa qayerda bo'lardil! – debdi.

Maqtanchoqlik uning boshiga yetibdi. U uyiga jo'nabdi, Nils uning orqasidan o'g'rincha poylab borib, cho'ntagida yo'q pulni olish niyatida uning bo'g'ziga michoq tortib yuboribdi.

Bu hodisa jinoiy ishlar papkasida qayd qilinibdi. Biroq, biz Yurgenning ozod bo'lganini bilsak, shuning o'zi kifoya, u bir yil qamoqda tortgan azob-uqubatlar, och-nahor

qolishlar, odamlardan tamoman ajralgani evaziga uni qanday taqdirlashdi? Unga Xudoga shukur, aylsiz ekansan, ketishing mumkin, deyishibdi, xolos. Burgomist unga yo'l xarajati uchun o'n marka pul beribdi, shaharlik uning oldiga pivo va lazzatli taomlar qo'yibdi. Ha, bu yerda ham saxiy odamlar topilibdi, ular «bo'g'izlab, terisim shilib, tozalab, so'ng tovada qovuradigan odamlar» emas ekan! Hammasidan yaxshisi, u qamoqdan chiqqan vaqtida bu shaharga Yurgen bundan bir yil muqaddam yollanmoqchi bo'lib yurgan o'sha skagenlik savdogar Brenne kelib qolibdi.

Savdogar butun voqeadan xabar topib, tortgan azob-uqubatlari uchun Yurgenni taqdirlamoqchi bo'libdi; chol juda yumshoqko'ngil ekan, kambag'al chekkan uqubatlarni yaxshi tushunibdi, dunyoda yaxshi odamlar ham borligini bildirib qo'ymoqchi bo'libdi.

Yigit zulmatdan mehr-shafqat va hamandardlik kutayotgan yorug' dunyoga chiqibdi. Ha, uning huzur halovat nash'asini surish payti ham yetib kelibdi. Umr kosasi nuqul limmo-lim bo'lavermaydi. Bunday kosani hech bir yaxshi odam o'z yaqiniga ravo ko'rmaydi, lekin Xudoyi Taoloning esa marhamati keng.

— Tortgan azoblariningni butunlay unut, — debdi savdogar Yurgenga: — Tortgan azob-uqubatlaringni yodingdan chiqarib, kalendarni ham yondirib tashlaymiz, ikki kundan keyin yo'nga chiqib, osoyishta, xudo kulib boqqan Skagenga boramiz! Uni chekka joy deyishadi-yu, ammo u yer obod, yorug' dunyoga barcha derazalari lang ochiq shahar!

Safar maroqli bo'libdi. Yurgen ko'ksini to'ldirib nafas olibdi. U sovuq qamoqxona, bo'g'iq, iflos havodan qutulib, quyosh charaqlab turgan sof havoda yuribdi!

Archa gullab, cho'l gulga ko'milibdi, qo'rg'on ustida o'tirgan podachi qo'y suyagidan o'zi yasagan surnayini chalibdi. Ajoyib samoviy sharpalar: osma bog'lar, havoda suzib yuruvchi o'rmonlar, havo to'lqinlarining tebranishi o'ziga xos joziba kasb etibdi, buni dehqonlar: «Lokeman

o'z podasini haydayapti» deyishar ekan. Ana shu narsalarni Yurgen yana bir marta ko'ribdi.

Ularning yo'li Lim ko'rfazi orqali Skagenga, «uzun soqolli odamlar» - longobardlar chiqqan tomonga tushibdi. Qirol Sino podsholik qilgan davrlarda bu yerda ocharchilik bo'lib, barcha chollar va bolalarni qirib tashlamoqchi bo'lishgan ekan, biroq shimoliy viloyatlarning sohibasi olijanob ayol Gambaruk yoshlarni mamlakatdan tashqariga surgun qilishni taklif qilibdi. Yurgen bu afsonani yaxshi bilar ekan, u Alp tog'larining narigi tomonidagi longobardlar yurtini bilmasa-da, taxminan ular nimaga o'xshashligini yaxshi bilar ekan. Axir, u bolaligida janubda, Ispaniyada bo'lgan, mevalari mayishib yotgan daraxtlarni, qip-qizil anorlarni, asalari uyasiday g'ujg'on o'ynayotgan azim shahardagi shovqinsuron, qo'ng'iroqlar tovushini ko'rgan va eshitgan ekan. Lekin eng yaxshi mamlakat odamga xuddi o'z vataniday bo'lib qoladi, Yurgenning vatani esa Daniya ekan.

Nihoyat, ular qadimiy norveg va island solnomalarida Skagen deb nomlangan Vendil-Skaga shahriga yetib kelishibdi. O'sha zamonlarda ham sohilning sayoz joylaridan to mayoqqacha ekinzorlar kesib o'tgan ko'z ilg'ammas qumtepalar orasida Ko'hna Skagen, Vasterbyu, uylar va ko'chma qumtepalar orasiga joylashgan shamol sayozlikdagi qumlarni uchirib ketgan, bu yerdagi baliqchi qushlar, dengiz qaldirg'ochlari va yovvoyi oqqushlar quloqni qomatga keltirib qichqirishar ekan. Savdogar Brenne istiqomat qiladigan va Yurgen joylashmoqchi bo'lgan Ko'hna Skagen shahri Skagen buruning janubig'arbidan bir milya uzoqda ekan. Savdogarlarning hovlisidan qatron hidi kelib turar ekan. Hovlidagi uylarning tomida qayiqlar to'ntarib berkitilgan, cho'chqaxonalar esa kema siniqlaridan qurilgan; hovli devori bo'lmay, undagi uzun arqonlarga zich qilib baliqlar osilgan, qorni yorilgan baliqlar quritilayotgani sababli, bu yerga devorning hojati yo'q ekan. Chunki hech kimdan hadiksirashmas ekan-da. Dengiz sohili chirigan seld

balig'iga to'lib ketibdi: dengizga to'r tashlamay turibog' sohil seldga to'lib qolar ekan: ko'pligidan eplab bo'lmay, ularni yana dengizga tashlashar ekan, dengiz esa yana sohilga uloqtirar ekan, shu vajdan ular sohilda chirib yotar ekan.

Savdogarning oila a'zolari ularni zo'r xursandchilik bilan kutib olishibdi. Savdogarning qizi go'zal, ko'zlar doimo o'ynab turar ekan.

Uy ancha keng, shinam ekan. Stol ustiga baliqdan tayyorlangan lazzatli taomlar qo'yilibdi. Vinolar «skagen uzumzoridan» – ulug' dengizdan tayyorlangan bo'lib, uzum sharbati Skagenga bochka-bochka oqib kelar ekan.

Oyisi bilan qizi Yurgenning kimligidan, begunoh boshiga tushgan kulfatlardan ogoh bo'lishganidan keyin unga mehribonchiliklari yanada ortib ketibdi. Ayniqsa savdogarning muloyim, shirinso'z qizi Klara yigitga boshqacha munosabatda bo'libdi. Yurgen Ko'hna Skagenda rohat-farog'atda yashaydigan ajoyib oila topib olibdi; endi xotirjam yashasa bo'ladi, bu yosh yigit ozmuncha aziyatlar chekdimi, u qalbni izardirobga soladigan, lazzatli sevgi alamini ham totibdi. Yurgenning qalbi izardirob chekmabdi, u yanada yosharib ketibdi. Ha, aytganday, Klaraning Norvegiyaning Kristian Sann shahridagi xolasinikiga mehmonga jo'naydigan vaqt ham yetib kelibdi. Qiz o'sha yoqqa uch haftadan keyin kemada jo'namoqchi va u yerda qish bo'yi qolib ketmoqchi bo'libdi.

Klara jo'nashidan oldingi yakshanbada oila a'zolari bilan cherkovga ibodatga boribdi, cherkov katta, hashamador bo'lib, bundan bir necha yuz yil ilgari shotlandlar va gollandlar tomonidan qurilgan ekan; cherkov yaqinida shahar qad ko'targan ekan. Cherkov ancha eskirib qolgan, unga boradigan yo'l og'ir bo'lib, tepalik va o'ydim-chuqur yerlardan o'tar, qum kechishga to'g'ri kelar ekan, shunga qaramay, shahar aholisi ibodatxonaga toat-ibodat qilish uchun kelar ekan. Ba'zida ko'chma qumlar qabriston devorini ham bosib ketar ekan, lekin qabrlarni doimo tozalab turishar ekan.

Bu Lim ko'rfazining shimoliga joylashgan eng katta cherkov bo'lib, mehrobida Bibi Maryam qo'lida bolasi bilan go'yo tirikday tik turar ekan, bolaxonalarga havoriyarning yog'ochga o'yilgan suratlari o'rnatilgan ekan, yuqori devorlarga esa qadimiy skagen burgomistr va sudyalari suratlari ilingan ekan; har bir suratning ostida o'sha shaxsga taalluqli shartli yozuvlar bor ekan. Minbar ham o'yma naqsh bilan ishlangan ekan. Quyosh nurlari mis qandillarda, shipga ilingan jajji kemada jilolanar ekan.

Yurgenni bolaligida, Ispaniyadagi hashamatdor cherkovga kirganida qanday tuyg'ular qurshab olgan bo'lsa, hozir ham shunday bo'libdi, biroq bu yerdagi ibodat qiluvchilar qavmiga qo'shilgani haqidagi o'y bu tuyg'ularga qo'shimcha bo'libdi.

Ibodatdan keyin siylov boshlanibdi. Yurgen ham non va vinodan tatibdi, so'ng u Klara bilan yonma-yon turib tiz cho'kibdi. Biroq uning o'y-xayollar Ollo Taolo bilan band bo'lib, butun vujudi bilan ibodatga berilibdi, yonidagi qizni o'rnidan turgandan keyingina payqabdi. Qarasa, qizning yuz-ko'zidan shashqator yosh oqayotgan emish.

Oradan ikki kun o'tgach, qiz Norvegiyaga jo'nab ketibdi, Yurgen uuda qolib, uy-ro'zg'or ishlarini bajara boshlabdi, baliq tutibdi, o'sha vaqtarda tutishga arziydigan baliqlar ko'p ekan. Skumbriyalar galasi kechalari suvda nurli chiziq qoldirib suzib yurishibdi, to'rga tushib qolgan kertslar xirillashibdi, krablar nolaga o'xhash ovoz chiqarishibdi; baliqlar odamlar aytganday, unchalik soqov emas ekan. Lekin Yurgen ulardan ham indamas bo'lganidan, yurak sirini qattiq saqlabdi, qachonlardir bu sir albatta oshkor bo'lishi kerak ekan.

U yakshanba kunlari cherkovda o'tirib olib, nigohini mehrobda ko'z qamashtirib turgan Bibi Maryam tasviriga tikibdi, ba'zan o'zi Klara bilan tiz cho'kib o'tirgan joyga ham qarab qo'yibdi. Qiz uning xayolidan hech nari ketmabdi. U Yurgenga qanchalar mehribon ekan-a...

Kuz kelibdi, namgarchilik, zulmat, loygarchilik boshlanibdi. Suvar shahar ko'chalarida halqob bo'lib to'planib qolibdi, qumlarga shimilib ketmabdi, shaharliklar suv kechib yurishga majbur bo'lishibdi. Bo'ron qoyatoshlarga kemalarni urib, chilparchin qila boshlabdi. Qor va qum bo'ronlari boshlanibdi, uylarni qum bosib qolibdi, uy egalari mo'rilardan tashqariga chiqishga majbur bo'lishibdi, bu tez-tez uchrab turadigan hodisa ekan. Ammo savdogarning uylari hammomday issiq, shinamligicha qolaveribdi; bu uylarning o'choqlarida doimo torf va kema siniqlari lovillab yonib turibdi, savdogar esa qadimiy solnomalardan Angliyadan qaytib kelgan va Bovberg jangida halok bo'lgan Daniya shahzodasi Amlet haqidagi qissani o'qib o'tirgan emish. Uning qabri Ramme yaqinida, ilonbaliq bilan savdo qiluvchi keksa savdogar uyidan ikki milya narida joylashgan ekan; ko'z ilg'amas bepoyon cho'lda yuzlarcha qabrlar do'ppayib turar ekan; cho'l katta qabristonning xuddi o'zi ekan. Savdogar Brenne Amlet qabrini bir necha bor ziyorat qilgan ekan. Kitobxonlik me'dasiga tekkan vaqtarda u o'tmish haqida qo'shnilar, inglizlar va shotlandlar haqida suhbat boshlab yuborar ekan, Yurgen esa ingliz shahzodasi, kemani qanday bezashganligi haqidagi qadimiy qo'shiqni boshlab yuboribdi:

*Charaqlaydi tillakori kema devori,  
Bitilgandir unga Ollo-Tangri so'zлari.  
Shahzodaning quchog'ida go'zal qallig'i,  
Xushnudlikdan ikki yoshning yonar ko'zлari.*

Yurgen bu qo'shiqni zo'r hafsala va mehr bilan aytibdi, shu vaqtda ko'zлari charaqlab ketibdi; uning ko'zлari qop-qora, chaqnab turar ekan.

Shunday qilib, ular kitob o'qishar hamda qo'shiq aytishar ekan, uy ichi osoyishta, sokin, fayzli bo'lib, hatto uy hayvonlari ham o'zlarini o'z uylaridagiday his qilishar ekan. Tokchalarda yarqiratib tozalangan qalay idishlar,

qish ne'matlari – kolbasalar va son go'shtlari osib qo'yilgan ekan. Zamonamizda bunday taomlar Yutlandiyaning g'arbiy sohilidagi badavlat dehqonlar uyida bo'lib, ular xonardonida saranjon-sarishtalik, xursandchilik va oqilona fikrlar hukmron ekan, umuman, ularning turish-turmushi joyida ekan. Bu yerda arab chodirlaridagi singari mehmondorchiliklar bo'lib turar ekan.

Agar Yurgenning bolaligidagi xudoysi va mehmon-dorchilikdagi baxtiyor to'rt kunni inobatga olmaganda, uning yegani oldida, yemagani ketida – ajoyib hayot kechiribdi. Bu yerda Klara bo'lmasa-da, kunlar shod-handon o'tibdi. Garchi u uyda bo'lmasa-da, odamlarning o'y-fikrlarida, gap-so'zlarida hamisha yashar ekan.

Savdogar aprel oyida Norvegiyaga o'z kemasini yubormoqchi bo'libdi; kemada Yurgen ham jo'nabdi. Uning sevinchi olamga sig'may ketibdi. Onaxon Brenne aytganday, u to'lishib, chiroyli bo'lib ketibdi. Ko'rgan odamning havasi kelar emish.

– Sening ham yuzingdan nur tomyapti! – debdi eri. – Yurgen qish oqshomlarimizga fayz, sening rangingga esa qon kiritdi, kampirjon! Hatto yosharib ham ketding! Buni qara-ya, to'lishib, juda chiroyli bo'lib ketibsan, qaragan sari qaraging keladi-ya. Ha, bir vaqtlar Viborgda sening oldingga tushadigan qiz yo'q edi. Senday go'zal qizni hech ko'rmanganman.

Yurgen lom-mim demabdi, chunki uning fikr-u zikri skagenlik qiz xayoli bilan band ekan. Hozir u o'sha qiz yoniga ketyapti. Shamol kemaning yurishini tezlatib, yarim tun o'tmay, ular Kristiansann shahriga yetib kelishibdi.

Savdogar Brenne ertalab barvaqt dengizdan ancha narida, Skagen buruni yonida viqor bilan turgan mayoq tomon yo'l olibdi. U minora ustiga chiqqanda olovlar allaqachon o'chirilgan, quyosh ancha ko'tarilib qolgan ekan. U qarasa, dengiz sohilidagi sayoz qumloqlik bir necha milyaga cho'zilib ketibdi. O'sha kuni ufqda anchagina kemalar qorasi ko'rinishibdi, savdogar durbinda

ular orasidan o'z kemasini «Karen Brenne»ni izlab topmoqchi bo'libdi. Durbinda kemasining yaqinlashayotganini ko'ribdi. Kemada Yurgen bilan Klara bor emish. Qiz bilan yigitning ko'zi moviy dengiz uzra uzoqdan qarqara va oqqushga o'xshab turgan Skagen mayog'i va cherkow qo'ng'iroqxonasiiga tushibdi. Klara bort yonida o'tirib olib, ufqda birin-ketin ko'zga tashlanayotgan qadrdon qumtepalarga tikilibdi. Mabodo kemani oldinga yurgizadigan shamol essa, ular oradan bir soat o'tar-o'tmay uylarida bo'lishar ekan. Uchrashuv onlari xursandchiligi yaqinlashib qolgan sari o'limning dahshatli lahzalari ham yaqinlashibdi.

Bir vaqt kemaning yon tomoni teshilib, suv kema ostiga kira boshlabdi. Odamlar suvni kemadan olib tashlab, teshikka latta-puttalar tiqishibdi, yelkanlarni ko'tarishibdi, kema halokat yoqasida ekanligini bildiruvchi bayroqni hilpiratishibdi. Sohilgacha bor-yo'g'i bir milyagina masofa qolgan ekan, uzoqdan yordamga oshiqayotgan baliqchilar qayiqlari ham ko'rinishibdi, shamol kemani qirg'oqqa haydabdi, bunda oqim ham yordam beribdi, biroq kema suvgaga cho'ka boshlabdi. Yurgen o'ng qo'li bilan Klaraning belidan quchoqlab olibdi.

Yigit xudoga sig'inibdi, qizni mahkam quchoqlab olib, o'zini dengizga tashlamoqchi bo'lib turganda Klara yigitga qattiq tikilibdi. Qiz jon-poni chiqib, baqirib yuboribdi, lekin u qo'rmasa ham bo'lar ekan, chunki yigit uni bag'ridan qo'yib yubormabdi. Qadimiy qo'shiqdagi:

«*Shahzodaning quchog'ida go'zal qallig'i!*» – misralarini bir eslang.

Yurgen ham eng dahshatli daqiqada ana shunday qilishga ahd etibdi. Suzishni yaxshi bilishi unga ancha qo'l kelibdi; u goh ikkala oyog'i bilan, goh bo'sh qo'l bilan suzibdi, bir qo'lida qizni mahkam quchoqlab olgan ekan, ba'zan oyoqlarini sal qimirlatib, o'zini oqim ixtiyoriga tashlabdi, xullas, suzishda qanday usullarni bilsa, hammasini qo'llabdi; sohilga chiqib olguncha bor kuchquvvatini ishga solibdi. To'satdan u Klaraning chuqr nafas

olib, tipirchilayotganini payqab qolibdi... U qizni bag'riga mahkamroq bosibdi. To'lqin ular boshi ustidan oshib o'tibdi; dengiz suvi tiniq, musaffo emish. Yigit nazarida dengiz tubida skumbriyalar galasi suzib yurganday tuyulibdi, balki ular yigit bilan qizni yutishga shaylangan dengiz maxluqlaridir? Osmonda suzib yurgan bulutlar suv betiga yengil ko'lanka tashlabdi, so'ng unda quyosh shu'lalari o'ynabdi; suzib yurgan yovvoyi o'rdaklar u yaqinlashishi bilan qo'rqqanidan uchib ketishibdi. Yurgen darmoni quriy boshlaganini sezibdi. Sohilga yetishiga hali ancha bor ekan, lekin yordam qo'lini cho'zgan qayiq ham yaqinlashib qolibdi. To'satdan u suv tubida o'ziga tikilib turgan birovni ko'rib qolibdi... To'lqin Yurgenni surib ketibdi, kimsa unga yaqinlashibdi... U zarb yeganini ro'yi rost sezibdi, ko'z oldi qorong'ilashib darmondan ketibdi!

Suv ostidagi qoyatosh yonidagi langarga tiralib qolgan ayol suratini tasvirlovchi gallion va kema sinig'i cho'kibdi. Uning suvdan chiqib turgan o'tkir uchiga oqim surib kelgan Yurgen o'zini urib olibdi. U o'z sevgilisi bilan hushsiz holda dengiz tubiga cho'kib ketibdi, lekin zum o'tmay, to'lqin ularni yuqoriga otib yuboribdi.

Baliqchilar ularni qayiqqa chiqarib olishibdi; Yurgenning yuzi qonga bo'yalib, hushsiz yotgan emish, shunday bo'lsa-da, qizni mahkam quchoqlab olgan emish. Klarani uning bag'ridan arang ajratib olishibdi. Tanasida hayotdan asar qolmagan, rangi qordek oqarib ketgan qizni qayiqqa yotqizishib, Skagen tomon oshiqishibdi.

Kemadagilar qo'llaridan kelgan barcha tadbir-u chorralarni ko'rishibdi, biroq Klaraning hayotini saqlab qolishning hech imkonи bo'lmabdi. Yurgen allaqachon o'lib qolgan qizni bag'riga bosib uzoq suzgan, uni qutqaraman deb holdan toygan ekan.

Yurgenning hali joni chiqmagan ekan, uni qumtepalar orqasidagi uyga olib borishibdi. Ilgarilari temirchi hamda mayda savdogar bo'lgan bir feldsher uning yaralarini bog'labdi, tabibni aytib kelish uchun Gerringga yuborilgan odam uni ertasiga olib kelibdi.

Bemorning miyasi qalqigan ekan: u alahsirab, dahshatli qichqirar, uchinchi kunga kelib tamoman hushdan ketibdi. Tabibning aytishicha, uning joni qil ustida turgan emish, shu qil uzilib ketsa, ayni muddao bo'lur emish.

– Xudo, uning jonini ol! U endi odam bo'lmaydi!

Lekin u o'lmabdi, qil ham uzilmabdi: ammo uning shirin xotiralari ipi uzilgan, aqliy qobiliyatining ildizi qirqilgan ekan, bu dahshat edi. Faqat uning o'z xolicha tuzalishga tashlab qo'yilgan quruq tanasi qolibdi, xolos.

Savdogar Brenne Yurgenni o'g'il qilib olibdi.

– Jigargo'shamizni qutqaraman deb ko'p aziyat chekdil – debdi chol. – Endi u bizning farzandimiz.

Odamlar Yurgenni bir qaynovi kam deb chaqira boshlashibdi. Biroq u bunchalik emas ekan; Yurgenning hozirgi ahvoli chokidan ajralgan, torlari tovush chiqarmay qo'ygan asbobga o'xshar ekan. Bu asbob faqat bir lahzagagina ilgarigi qiyofasiga kirib, qadimiylar musiqalar jaranglatar ekan. O'tmish manzaralari lip etib bir zumga ko'rinish, yana yo'qolar ekan, Yurgen esa ma'yus tikilib o'tiraverar ekan. U qattiq dard tortayotgan odamga o'xshamas ekan. Uning qora ko'zlarining nuri so'nib, charaqlamay qo'ygan ekan.

«Aqli ojiz, sho'rlik Yurgen!» deyishar ekan odamlar uning haqida.

Onasi uning hayotini qalbida ardoqlab yurgan, baxtsaodatga ko'milgan bu insonning farzandi shu ahvolga tushib qolibdi. Qashshoqlik, g'am-alam uning qismati bo'libdi. Olio Taolo jon ato etgan bu banda boshqa qismatga arzimas edimi? Bundan chiqdi, hayotdagি hamma narsa tasodif o'yini ekan-da. Yo'q! Marhamati keng parvardigor uning bu tortgan azob-u uqubatlari evaziga u dunyoda yorlaqashi shak-shubhasiz. «Olloning marhamati uning ishlaridan yuqori turadi». Duogo'y Davidning bu so'zlarini savdogarning xudojo'y xotini e'tiqod bilan takrorlabdi, u ibodat vaqtida xudodan Yurgenning jonini tezroq olishni va uning joyini jannatda bo'lishini so'rabdi.

Klaraning jasadini tez-tez qum bosib turadigan qabristonga qo'yishibdi. Biroq, Yurgen buni sezmaganday bo'libdi, chunki u bu ahvolning unchalik ma'nosiga tushunmas ekan, u o'tmish xotiralaridan ayrimlarini arang ilg'ab qolar, oila a'zolarini cherkovga olib borib, atrofga ma'nosiz boqib o'tiraverar ekan. Kunlarning birida u cherkovda duo so'zlarini eshitib o'tirib, xo'rsinib qo'yibdi, ko'zları charaqlab ketibdi, nigohi bundan bir yil muqaddam marhum sevgilisi bilan yonma-yon o'tirgan mehrobga tushibdi. U sevgilisining nomini tilga olibdi, rangi o'chib, yig'lab yuboribdi.

Unga cherkovdan chiqib olishiga ko'maklashishibdi, u ahvolim ancha durust debdi. U hozir qanday voqeа bo'lib o'tganini hech eslolmas emish. Ha, parvardigor uni og'ir sinovdan o'tkazibdi! Biroq, Yaratganning donoligi va marhamati kengligiga kim ham shak keltira oladi deysiz? Qalbimiz ham, shuurimiz ham Olloning shafqati va marhamati kengligi haqida so'zlaydi.

Mayin shabada apelsin va dafna daraxtlarini erkalab, tilla suvi yogurtirilgan Mavritaniya gumbazlari ostida g'ir-g'ir esayotgan, qo'shiq tovushlari eshitilib, raqqoslar qolidagi qayroqlar shiqillayotgan, ko'chalardan bolalar qollariga sham va bayroqchalarni hilpiratib tantanavor o'tib ketayotgan joydagи hashamatli binoda befarzand, badavlat savdogar chol o'tiribdi. U o'z bolalari, qizi yoki uning farzandini tiriltirish uchun butun boyligini berishga tayyor. Ehtimol, uning bolalariga yorug' dunyo ham, u dunyoning jannati ham nasib etmas? «Eh, sho'rlik bola!»

Ha, bechora bola! Garchi uning yoshi o'ttizga borib qolgan bo'lsa ham, u hali bola; skagenlik Yurgen shu yoshga kirgan edi.

Qum uyumlari qabristonni butunlay bosibdi, hatto qum cherkov devorlarigacha chiqibdi, ammo o'layotganlar ilgari olamdan o'tgan qarindoshlari yoniga dafn etilishini yolvorishibdi. Savdogar Brenne va uning xotini ham olamdan o'tib qizlari yonidan, oq qum ostidan joy olishibdi.

Bo'ronlar quturadigan bahor kelibdi; qumtepalar to'zg'ibdi, dengiz to'lqinlari osmonga sapchibdi, qushlar qumtepalar ustidan baqirib-chaqirib uchib o'tishibdi. Qoyatoshlarga kema ketidan kema kelib urilibdi.

Yurgen kunlarning birida kechqurun xonada yolg'iz o'tirgan ekan, to'satdan bolaligidagi singari yiroq-yiroqlarga ketish ishtiyoqi paydo bo'libdi.

- Uygal! Uyga! - debdi u qat'iyat bilan. Uning gapini hech kim eshitmabdi; u uydan chiqib, qumtepalar tomon yo'l olibdi, qum va chang yuziga urilibdi, atrofida quyunlar o'ynabdi. U cherkovga kelibdi. Qum cherkov devorlarini, hatto derazalarni ham yarmigacha ko'mib tashlagan ekan, lekin ichkariga kiriladigan yo'l tozalab qo'yilgan emish. Cherkov eshiklari osongina ochilibdi; Yurgen ichkariga kiribdi.

Shamol shahar ustida uvillabdi, xalqning yetti uxbab tushiga ham kirmagan dahshatli bo'ron boshlanibdi, biroq Yurgen Xudoning uyiga kirib olgan ekan. Borliqni zulmat qoplabdi, ammo Yurgennenning ko'ngli chiroq yoqqanday yorug' emish, uning qalbida abadiy o'chmaydigan ruhiy alanga lovillabdi. Uning tomog'ini bo'g'ib turgan vazmin yuk birdan uzilib, pastga tushganday bo'libdi. Uning qulog'iga organ tovushlari kiribdi, lekin bu organ bo'lmay bo'ronning guvillashi, dengizning o'kirishi ekan. Yurgen o'z joyiga o'tiribdi: cherkov ichi chiroqlardan munavvar bo'lib ketibdi; bir necha shamlar yonibdi, bunaqa ravshan nurni u umrida bir martagina Ispaniyadagi jomedaga ko'rGAN ekan. Devorlardagi burgomistr va sudyalarning qadimiy suratlari tirilib pastga tushibdi. Cherkov darvozalari va eshiklari lang ochilibdi, marhumlar tirikliklaridagi bayram liboslarida cherkovga kirib kelishibdi. Ular yoqimli musiqa sadolari ostida asta-asta yurib, o'z o'tinlariga o'tirishibdi. Xor duo o'qibdi; hammayoqni qudratli musiqa sadolari tutib ketibdi. Yurgennenning tutingan ota-onasi - savdogar Brenne, uning xotini ham shu yerda emish, yonlarida esa ularning jondan aziz, yoqimtoy qizlari Klara

turgan emish. Qiz Yurgenga qo'lini cho'zibdi, ular birga mehrob oldiga borishibdi, ruhoniy ularning qo'llarini bir-biriga qovushtirib, mehr-u muhabbatli bo'lib yashashlarini tilab, nikoh o'qibdi! Karnaylar, musiqa sadolari yangrabdi, u borgan sari shodiyona ruhda jaranglabdi. U muloyim, dilni maftun qiladigan darajada eshitilibdi, sag'analar larzaga kelibdi.

Shipda ilinib turgan kema pastga tushibdi, birdaniga u kattalashib, ipak yelkanli, langari oltindan, arqonlari ipakdan bo'lgan, qadimiy qo'shiqda kuylangan hashamatli kemaga aylanib qolibdi. Kelin-kuyov kemaga chiqishibdi, hamma ularga ergashibdi. Cherkovning devor va gumbazlari marjon daraxti va xushbo'y arg'uvon singari gullab-yashnab ketibdi, bu daraxtlar kemadagilarga gulga ko'milgan shoxlarini uzatibdi, yaproqlari to'kilib, ular ustiga soyabon bo'libdi. Kema yerdan ko'tarilib, havoda suzib ketibdi. Cherkovdag'i hamma shamlar yulduzlarga aylanibdi, shamol duo o'qibdi, samo ham: «Muhabbat! Huzur-halovat. Hech qanday tirik jon o'lmaydi, u qutqariladi», deb duo o'qibdi. Bu so'zlar Yurgenning so'nggi so'zlari ekan: o'lmas jonnii ushlab turgan ip uzilibdi. Qorong'i cherkovda jonsiz tana qolaveribdi, uning atrofida avvalgiday bo'ron xuruj qilaveribdi, qum quyuni osmonga o'rlayveribdi.

\* \* \*

Ertasi yakshanba ekan; ertalab qavmlar bilan ruhoniy cherkovga yo'l olishibdi. Yo'lni qum bosib yotganidan cherkovga borish ancha qiyin bo'libdi. Nihoyat yo'l ochilibdi, bunday qarashsa, cherkov eshiklarini ham qum bosib qolgan emish, odamlar oldida katta qumtepa hosil bo'libdi. Ruhoniq qisqagina duo o'qibdi, u odamlarga parvardigor uyning eshigini berkitib qo'yganini, cherkovni boshqa yoqqa qurish lozimligini aytibdi.

Odamlar duo o'qib, uy-uylariga tarqalishibdi.

Yurgenni shaharda ham, qumtepalarida ham topisha olmabdi, uni to'lqinlar olib ketgan bo'lsa kerak, deb

o'ylashibdi. Uning jasadi ulkan tosh tobutda ibodatxonaga dafn etilibdi. Parvardigor bo'ronga qabr ustini qumga ko'mishni amr etibdi, shu vajdan u hozircha baland qumtepaligicha qolib ketibdi.

Qumlar ibodatxonaning hashamatli gumbazlarini ko'mib tashlabdi, keyinchalik uning ustidan na'matak va yovvoyi atirgullar o'sib chiqibdi. Qum ostidan faqat bitta qo'ng'iroqkona – bir necha milya naridan bemalol ko'rinit turadigan Yurgen qabrining ulkan yodgorligi mo'ralab turibdi. Hech qanday qিrol bunaqa ulug'vor yodgorlikka ega bo'lomas emish! Hech kim marhumning oromini buzolmabdi! Yurgenning qayerga dafn qilinganini hech kim bilmabdi. Menga esa bu haqda qumtepalar ustida charx urib esuvchi shamol hikoya qilib bergen edi.

### SHUHRATNING MASHAQATLI YO'LI

Qadimiy ertaklardan birida: «Garchi ovchi Bryude nomdor va hurmatga sazovor odam bo'lsa-da, bunga u ko'п sarson-sargardonlik va kulfatlardan keyin erishgan», – deyiladi. Ko'пchiligidiz bu ertakni bolaligimizda eshitgamiz, ehtimol uni katta bo'lganimizda o'qigandirmiz, hech kim sezmagan va payqamagan mashaqqatli turmush yo'limiz, boshdan kechirgan sarson-sargardonligimiz haqida o'ylamagandirmiz. Ertak bilan haqiqat bir-biriga o'xshab ketadi, lekin ertakdag'i baxtiyor damlar shu joyning o'zida hal bo'ladi, odamlar esa ko'zi tiriklik vaqtida baxtiyor bo'lib, huzur-halovat ko'rishni ko'pincha Ollo Taolonning dargohiga borgandagina erishishiga umid bog'laydi.

Jahon tarixi – bizga hayotning qora rangi fonida shuhratning mashaqqatli yo'lida bosib o'tgan insoniyat saxovati, tafakkur jafokashlarining yorqin obrazlarini ko'rsatuvchi bir sirli chiroq.

Ana shu fonda barcha zamonlar, barcha mamlakatlar shakl-shamoyili o'z ifodasini topadi, biroq bu bir

lahzagina, xolos, shu lahzaning o'zi ham insonning kurash va g'alabalarga to'la yerdagi hayotini qamrab oladi. Dunyo turguncha shuhrati o'chmaydigan jafokashlarning ko'z ilg'amas safidan joy olgan ulug' kishilardan ba'zilarining hayotiga nazar tashlaylik.

Mana, ko'z oldimizda tomoshabinlarga liq to'la amfiteatr Aristofanning «Bulutlar»i olomonni o'tkir kinoya zahri bilan zaharlayapti. Sahnada xalqni o'ttizta zolimdan qutqargan, jang to'zoni ichidan Alkiviada va Ksenofontni xalos etgan Afinaning asl farzandlaridan kulishyapti, ruhan qadimiylardan ham yuqori turgan Suqrotdan kulishyapti. Uning o'zi tomoshabinlar orasida o'tiribdi. Mana, u o'rindan turdi, qaddini rostladi: kulgidan ichaklari uzilgan afinaliklar uni o'z ko'zlar bilan ko'tishsin, u karikaturadagi rasmiga o'xsharmikan. U viqor bilan hammadan yuqori turibdi.

Ko'm-ko'k bo'lib yashnagan, zaharli sikuta o'til Afinaning nishoni bo'lib qalayi novda emas, balki sen xizmat qilasan.

Gomer o'lgandan keyin yetti shahar bir-biri bilan uning vataniman deb o'lgudek bahslashdilar. U tirikligida-chi? Tirikligida u bir burda non uchun qo'shiq aytib ana shu shaharlardan o'tdi: ertaning g'amini o'layverib, uning sochlari oqarib ketdi! Kelajak haqida bashorat qiluvchi bu ulug' insonning ko'zi ojiz, o'zi yolg'iz edi! Shoirlar shohining choponini tikanlar tilka-pora qilib tashladi.

Uning qo'shiqlari hozir ham yashayapti, shu bilan birga, bu qo'shiqlarda qadimiylardan va qahramonlar yashayapti.

Qora fonda surat ketidan surat namoyon bo'ladi. Birida sharq aks etsa, boshqasida g'arb, birida uzoq o'tmish aks etsa, boshqasida yaqin o'tmish aks etadi; biroq ularning vaqtini va joyida katta farq bo'lishiga qaramay, hammasi bir narsani - shuhratning mashaqqatli, sertikan yo'lini ko'rsatadi, shuhrat egasining qabrini yaratish kerak bo'lgandagina tikanlar gulga aylanadi, chaman-chaman ochiladi.

Xurmo daraxtlari soyasidan nil bo'yogi va turli qimmatbaho mollar ortilgan tuyalar karvoni o'tib boryapti; bu narsalarni mamlakat hukmdori qo'shiqlari xalq dili xushnudlik bag'ishlagan, shuhrat qozongan, hasad tuhmat uni vatandan judo qilgan kishiga hadya qilib yuboryapti. Karvon shoir boshpana topgan kichkina shaharga yaqinlashadi, shahardan esa karvon kelayotgan tomonga qarab odamlar ko'rimsizgina tobutni ko'tarib borishyapti. Ular xuddi karvon axtarayotgan kishini - Firdavsiyni dafn qilishadi. U shuhratning mashaqqatli yo'lini oxirigacha bosib o'tdi!

Portugaliya poytaxti saroyidagi marmar zinapoyada yuzlari dag'al, lablari qalin, qora sochlari patila-patila bir negr o'tiribdi, u odamlardan sadaqa so'rayabdi. Bu Kamoensning sadoqatli quli; agar odamlar qulga xayr qilishmassa, «Luziada»ning muallifi bo'lmish xo'jasи ochdan o'lishi mumkin.

Hozir Kamoensning qabriga hashamatli yodgorlik qo'yilgan.

Mana yana bir manzara.

Temir panjara orqasidan bir kishining qorasi ko'rinish turibdi: uning yuzi dokaday oppoq, uzun soqollari paxmoq bo'lib ketgan. «Men ulug' kashfiyat yaratdim! - deb qichqiradi u. - Meni esa yigirma yildan ortiq vaqt dan buyon qamoqda olib o'tirishibdi!»

Kim u? «Jinni! - deb javob qiladi qorovul. - Odamning miyasiga nimalar kelmaydi! Uning aytishicha, bug' kuchi yordami bilan oldinga harakat qilish mumkin emish!» U bug' kuchini kashf etgan, ammo o'z fikrini qudratli Rishelega uqtira olmagan Solomon de Ko umrining qolgan qismini jinnixonada o'tkazdi.

Mana Kolumbni olaylik! Bir vaqtlar hatto ko'cha bolalari ham undan kulishgan: u yangi dunyo ochdi, qaytib kelganida uni qo'ng'iroqxonasi qo'ng'irog'ini chalib kutib olishdi, lekin hasad qo'ng'iroqlari yanada balandroq yangradi, yangi dunyo ochgan, oltin Amerika qit'asini dengiz tubidan yuqoriga ko'tarib, o'z qiroliga hadya qilgan

kishini temir zanjirlar bilan taqdirlashdi. U o'lganimdan keyin ana shu kishanlarni zamin va zamondoshlarimning behad minnatdorchiligi belgisi sifatida tobutimga solib qo'yinglar, deb aytdi.

Bir manzara ikkinchi manzara bilan almashinadi. Shuhratning mashaqqatli yo'li hech qachon bo'sh qolmaydi.

Ana, oydag'i tog'larni o'lchagan, o'zining ziyrak ruhiy nigohi bilan olam bo'shlig'ini kezib chiqqan, beqiyos aqli bilan uning sirli tabiatini fahmlagan, yerning harakat qilishini bilgan Galiley nimqorongfilikda o'tiribdi. Ko'zi ojiz, qulog'i kar chol o'tirgan joyida tikanga parchinlab qo'yilganday inkor etishdan shunchalik azob chekyapti.

Bir vaqtlar ruhiy azob chekkan damlarida haqiqatni ro'yi rost payqagan paytlarida «Yer aylanadil» deb qichqirib, Yerni tepgan oyoqlarini endilikda ko'tarishga ham madori yo'q!

Mana, qalbi ilohiy xushnudlik va e'tiqodga to'lgan ayol tik turibdi, u jangovar qo'shinlar oldida bayroq ko'tarib boryapti, u o'z vataniga g'alaba keltirib, uni xalos etyapti. Shodon qiyqiriqlar yangraydi, gulxan tillari osmonga o'rlaydi. Janna d'Ark sehrgar, uni kuydirishadi. Kelgusi avlod esa oq nilufarni loyga bulg'aydi: ziyraklik toji Volter «la pucelle»<sup>6</sup>ni kuylaydi.

Mana, Viborgda Daniya dvoryanlari qiroq qonunlarini yondirishyapti. Qonunlar zamon va qonun yaratuvchiga yog'du sochib lovillab yonyapti, hatto uning shu'lesi barmog'ini tosh stol ustidan yurgizayotgan, sochlari oppoq, bukchayib qolgan, qorong'i zindonda o'tirgan qiroqla ham tushyapti. Bu bir vaqtlar uchta shimol davlatining hukmdori bo'lgan, dehqon va shaharliklarning suyuklisi Kristian Ikkinci. Uning qahri qattiq edi, biroq o'zi ham og'ir zamonlarda yashardi. Dushmanlari uning tarixini yozdi. Lekin biz uning qonli qilmishlari bilan birga, yigirma yetti yil qamoqda yotganini ham xotirlaymiz.

<sup>6</sup> «la pucelle» - «iffatl qiz» (frans.).

Kema Daniya sohillaridan jo'naydi. Adl va baland machtaga suyanib turgan kishi Ven orollariga xayrlashuv nigohini tashlaydi. Bu Tixo Brage edi. U Daniyaning shuhratini baland ko'tardi, lekin buning evaziga o'kinch va ranj oldi. Endi u: «Hamma yerda osmon bor, bundan boshqa narsa kerak emas menga deb, boshqa yurtga jo'nab ketyapti. Asl farzandimiz o'z vatanini tark etyapti, boshqa yurtda esa uni izzat hurmat, ozodlik kutyapti.

«Oh, ozodlik... loaqal tana chidab bo'lmas azobdan ozod bo'lsa edil» – degan nido eshitiladi qulog'imizga asrlar osha. Manovi qanaqa manzara bo'ldi? Bu qoyatoshli Mungolm oroliga zanjirband qilib qo'yilgan Daniya Prometeyi Griffenfeld<sup>7</sup>.

Biz Amerikadamiz, katta daryolarning biridan suzyapmiz. Daryo sohillariga xaloyiq sig'maydi: hozir kema tabiat qarshiligini yengib, oqim va shamolga qarshi suzishi kerak. Robert Fulton buning ro'y berishiga qattiq ishonadi. Kema qo'zg'aladi. Birdan to'xtab qoladil Xaloyiq qahqaha urib kuladi, hushtak chaladi, ular qatorida Fultonning otasi ham shunday qilyapti. «Hoy, madonna, tentak odam, endi jazongni tort! Bu telbani zindonga tashlanglar!» deyishadi. Bir zumgagina mashina harakatini to'xtatgan kichkina mix sinadi, g'ildiraklar aylanadi, parraklar to'lqin qarshiligini yengadi, kema suzib ketadi! Bug' bilan yuradigan kema soatlarni daqiqalarga aylantirib, masofani bir zumda bosib o'tadi.

Inson! Bunday totli damlar nash'asini sura olasanmi? Ruhing ravshanlashganini, bunda o'z iste'doding borligini, shuhratning mashaqqatli yo'lida chekkan azob-uqubatlarining kishiga tetiklik, kuch-qudrat, ravshan aql baxsh etadi degan shifobaxsh malhamga, nomuvofiqlik muvofiqlikka aylangan damlarni his eta olasanmi? Bunda

<sup>7</sup> Griffenfeld Peder (1635–1699) – Daniya davlat arbobi, yigirma ikki yil qamoqda yotgan.

odamlar parvadigorming bir kishiga ato etgan yangiligin ko'tadilar va u barchanining mulki bo'lib qoladi.

Shuhratning mashaqqatli yo'li yer kurrasiga yaltiroq lena bo'lib bog'lanib oladi; yer bilan osmonni bir-biriga ulash uchun ulug' me'mor tomonidan yaratilgan ko'prikkha hech xizmati bo'lmasa-da, qo'yilgan va shu ko'prikdan o'tayotganlar baxtiyor mumtozlardir.

Zamonlarning zulmati ichra tarixning ruhi qudratli qanotlarini qoqib, uchib o'tadi va bizni ruhlantirish, yupatish, qalbimizda ma'sumlik hissini uyg'otish uchun shuhratning mashaqqatli yo'li fonidagi yarqiroq manzaralarni ko'rsatadi. Bu yol ertaklardagi singari tugab qolmaydi, yerda nurini sochib, xushvaqtlik baxsh etib, bizni rohat-farog'atli boqiy dunyo sari yetaklaydi.

## O'N IKKI YO'LOVCHI

Sovuq kuchaygandan kuchayibdi. Osmon yulduzlarga to'lgan, havo qotib qolganday emish. Bum! – eshikka ko'za urilibdi. Paql! – o'q otib Yangi yilni qutlashibdi. Bu hodisa Yangi yilga o'tar kechasi, soat roppa-rosa o'n ikkiga zang urganda yuz beribdi.

Taraq-turuq, taraq-turuq. Pochta kelibdi. Shahar darvozasi oldiga o'n ikki yo'lovchi ortgan pochta soyabon aravasi ketib to'xtabdi. Aravaga bundan ortiq yo'lovchi sig'mas, hamma o'rinalar band ekan.

Odamlar Yangi yilni kutib olish uchun to'plangan uylardan «Ural» Ural degan sadolar yangrabdi. Ular qo'llarida may to'la qadah, o'rinalidan turishibdi: «Yangi yil, yangi baxt bilan tabriklayman!» – «Sohibjamol qayliq ato qilsin sizga!» – «Hamyoningiz to'la pul bo'lsin!» – «Eski gina-kuduratlar yo'qolsin!» – deb qadah ko'tarishibdi.

Odamlar ana shunday yaxshi tilaklar tilashib, qadahlar urishtirishibdi, o'n ikkita mehmonni olib kelgan soyabon arava esa xuddi shu paytda shahar darvozasi oldida to'xtabdi.

Hoynahoy, bular qanday janoblar ekan, dersizi  
Ularning yonida pasporti, qo'llarida yuki, hatto siz bilan  
menga, butun shahar ahliga atagan sovg'a-salomlari bor  
ekan. Kim ekan bu mehmonlar? Bu yerda ularga nima  
kerak, ular nima olib kelishibdi?

– Ertangiz xayrli bo'lsin! – deyishibdi ular dervozza  
oldida turgan soqchiga.

– Sizlarniki ham! – debdi soqchi ularga, vaholanki soat  
endigina o'n ikkiga zang urgan ekan.

– Sizning ismingiz nima? Unvoningizchi? – deb so'rabdi  
soqchi aravadan birinchi tushgan mehmondan.

– Pasportimga qara! – debdi u. – Men, menman! U ayin  
terisidan po'stin kiygan, mo'yna etikli basavlat yigit ekan!

– Men shuncha odam umid bog'lab o'tirgan odamman!  
Ertalab huzurimga kel, choychaqangni olasan! Men  
hammayoqqa pul sochaman, sovg'a-salomlar ulationman,  
ziyofat beraman! O'ttiz bitta ziyofat! Boshqa tunlardan  
foydalanmayman. To'g'ri, kemalarim muzlab qolgan, biroq  
idoram issiq. Savdogarman, ismim Yanvar. Hisob-kitob  
qog'ozlarim yonimda.

So'ng aravadan «Odamlar vaqtini chog' qilishga usta»,  
teatr direktori, maskarad va boshqa ko'ngil ochish  
tadbirlarining tashkilotchisi tushibdi. Uning qo'lidagi  
yukda juda katta bochka bor emish.

– Buning ichidan bayramga mushukdan<sup>8</sup> ko'ra  
durustroq narsa chiqaramiz! – debdi u. – Men boshqalarni  
ham, o'zimni ham xursand qilishni yaxshi ko'raman!  
Chunki men uchun eng qisqa muddat berilgan. Bor-yo'gi  
yigirma sakkiz kun, xolos. Ba'zida biror kun qo'shib  
qo'yishadi! Bunisiga ham shukur! Ura!

– Bunaqa baqirish mumkin emas! – debdi soqchi.

<sup>8</sup> Daniyada uzoq vaqtlardan beri davom etib kelayotgan odat:  
bayram kuni bochka ichiga mushuk solib, tubi teshilguncha  
hamda mushuk o'larcha qo'rqib tashqariga otliguncha bochkani  
taraqlatishadi.

- Menga-ya? Men shahzoda Karnavalman, Fevral nomi bilan sayohat qilaman!

Uchinchisi ham chiqibdi. U go'shtsiz, oriq bo'lsa-da, burnini osmonga ko'taribdi: u qirqajfokashga qarindosh bo'lib, ob-havo payg'ambari toifasiga kirar ekan. Xo'sh, bu lavozim ham to'qlarniki emas, shu vajdan u qanoatni maqtar ekan. Uning tugmasida judayam mayda binafsha guldastasi bor ekan.

- Mart, jo'na! - deya qichqiribdi to'rtinchi oy va uchinchi oyni itarib yuboribdi. - Mart, jo'na! Jo'na qorovulxonaga, u yoqda punsh ichishyapti! Buni sezib turibman.

Biroq, bu adolatsizlik edi: Aprel odamlarni aldasa bas - ishni ham shundan boshladni. U ko'tinishdan botir, lekin ish qilmay, nuqlum umri bekorchilikda o'tgan yigitga o'xshar ekan. Kayfiyatiga qarab goh yuqori, goh past lavozimga intilar ekan. Yomg'ir va Quyosh, uydan-uyga ko'chish uning odati ekan.

- Buning ustiga to'yda ham, azada ham boshliqman, yig'lashga ham, kulishga ham tayyorman! Chamadonimda yozlik ko'yaklarim bor, lekin ularni kiyish g'irt ahmoqlik bo'ladi! Mana men! Parad hurmati ipak paypoq hamda muftada oliftagarchilik qilib yuraman!

So'ng sayabon aravadan bir xonim tushibdi.

- Sohibjamol qiz May bo'laman! - deb tanishtiribdi u o'zini. Uning egnida yam-yashil ipak ko'yak, oyoqlarida kalish; sochlarda anemonlar bor emish, undan shunaqayam xushbo'y hid taralibdiki, soqchi beixtiyor aksirib yuboribdi.

- Salomat bo'ling! - debdi qiz salom o'rniliga. Qizi tushmagur biram chiroylimishki, asti qo'yaverasiz. Ashulaga mohirligini aytmaysizmi? U teatrning emas, balki o'rmonning erkin artistkasi emish. Ha, bu kishilar ko'nglini xushnud etuvchi davralarda kuyluvchilardan emas ekan, u yashnagan o'rmonda sayr qilib yurib, o'z ko'nglini xushnud etish uchun kuylar ekan. Uning sumkachasida xristian Vinterning «Daraxtdagi

gravyura-si bor emish, u chiroylilikda qora qayin o'rmonzorlaridan qolishmas emish. Sumkasidagi Rixard «She'rlar» i ham yovvoyi yasminday muattar bo'y taratayotgan emish.

— Endi yoshgina xonim tushadi! — deyishibdi soyabon aravadagilar. Chindan ham aravadan bir xonim tushibdi. U yosh, nazokatli, mag'rur va go'zal emish, u xilma-xil taomlarni yeb bitirishga mehmonlarning vaqt yetsin uchun yilning eng uzun kunida ziyofat beribdi. Xonim o'zining xususiy aravasida yurishga puli bema'lol yetsada, baribir u boshqalar qatori soyabon aravada kelibdi, bu bilan u o'zining o'ta dimog'dor emasligini ko'rsatmoqchi bo'libdi. Lekin u yolg'iz emas ekan, uni kenja ukasi — Iyul kuzatib kelibdi.

Iyul kuchga to'lgan yigit ekan, yozlik kiyim kiyibdi, boshida avyonni keng shlyapa emish. Yo'lda kiyadigan kiyimlari ko'p emasmish, to'g'ri-da, shunday issiqda ortiqcha kiyimning kimga keragi bor. U shim bilan shapka olib kelibdi, xolos.

Undan keyin aravadan onaxon Avgust tushibdi, u meva-chevalarni ulgurji sotar ekan. U juda ko'p baliq tutadigan kemalar, katta yer egasi ekan, hatto dalada ishlayotganlarga o'zi pivo olib borib berar ekan. «Ter to'kib, o'z noningni top, der ekan u. — Injilda ham xuddi shunday deyilgan. Kuzda marhamat qilavering! Ochiq havoda to'planib, ziyofat qilamiz!» — Bu ana shunday saxiy, tanti ayol ekan.

Onaxondan keyin aravadan kasbi suratkash bir erkak tushibdi. U o'rmondagi barglar o'z qiyofasini o'zgartira olishini ko'rsatmoqchi bo'libdi. Agar u xohish bildirsa, barglar ajib, rang-barang tusga kirar emish! U ishga tushishi bilanoq barglar qizil, sariq, qoramitir rangga kirar ekan. Suratkash qorashaqshaqday hushtak chalibdi. Uning pivo ichadigan idishini xmel novdasi bezab turgan emish, u bezak sirlarini ham yaxshi bilar ekan. Uning yuki bo'yoq taxta bilan bo'yoqlardan iborat ekan, xolos.

Aravadan o'ninchi yo'lovchi zamindor tushibdi. Uning fikr-zikri shudgor, ekish, o'rim, ov qilish bilan band emish. Uning qo'lida miltig'i, yonida iti bor emish, qopida yong'oqlar sharaqlayotgan emish. Sharaql! Sharaq! Uning xaltasi tubsiz o'pqonning xuddi o'zi emish, hatto unga ingliz omochi ham sig'ib ketaverar emish. U qishloq xo'jaligi haqida bir nimalarni g'uldirabdi, lekin keyingi chiqib kelayotgan yo'lovchi – Noyabrning yo'talib aksa urishi va pishillashi uning ovozini bosib ketibdi.

U qattiq tumov ekan! U ro'molcha o'rniqa choyshab ishlatalayotgan emish. Uning gapiga qaraganda, u joylarga kiradigan cho'ri qizlarni ham kuzatib qo'yibdi! O'tin yorish boshlanganda tumov o'tib ketadi. U albatta o'tin yoradi, axir u o'tinchilar sexining oqsoqoli-da. Oqshomlari u konkilar yasabdi, ular hademay ish berishiga aqli yetibdi.

Eng oxirgi yo'lovchi – qo'liga grelka ushlagan Dekabr momo ham aravadan tushibdi. U sovuqdan dag-dag'titrat emish, lekin ko'zlar yulduzday charaqlarmish. Uning qo'lidagi gultuvakda kichkinagina archa bor emish. «Men buni bayram arafasida parvarish qilib o'stiraman. U yerdan shiftgacha bo'y cho'zadi, unda yonib turgan shamlar, oltinrang olmalar, rang-barang setkalar ichida sovg'a-salomlar paydo bo'ladi. Grelka pechkadan ham yaxshi isitadi, cho'ntagimdan ertak kitob olib, ovoz chiqarib o'qiyman. Xonadagi hamma bolalar jim bo'lib qoladi, archaga osib qo'yilgan qo'g'irchoqlar tirilib ketadi, archaning eng yuqorisidagi shamdan yasalgan farishta oltin qanotlarini qoqadi, uchib pastga tushadi, xona ichidagi katta-yu kichikni, hatto eshik orqasida turgan va Iso payg'ambarni ulug'layotgan qashshoq bolalarni ham – hamma-hammaning oldidan bir-bir o'tib chiqadi, – debdi momo.

– Endi soyabon arava ketishi mumkin! – debdi soqchi.  
– O'n ikkita odamning bari shu yerda! Endi boshqa kareta kelsin!

– Oldin o'n ikkovlari aravaga chiqishsin! – debdi navbatchi kapitan. – Bittadan chiqinglar! Pasportlar

menda qoladi. Har bir kishiga pasport bir oy muddatga berilgan; shu muhlat tugashi bilan har kimning xulqiga haqida belgi qo'yaman. Qani, janobi Yanvar, aravaga chiqmaysizmi?

U aravaga chiqibdi.

Yil tamom bo'lishi bilanoq ana shu o'n ikki yo'lovchi senga, menga va boshqalarga nimalar olib kelgani haqida gapirib beraman. Hozircha buni bilmayman, ularning o'zi ham bilmasa kerak, ajoyib zamonlarga qoldik-da!

## QOR ODAM

Hammayog'im qisir-qisir qilyapti! Juda ajoyib sovuq bo'ldi-da, – debdi qordan yasalgan odam. – Shamolni qarang-a, chimchilab olyapti! Jonning huzuri! Anavi qurbaqako'z nega mo'ralab turibdi? – Qor odam endigina ko'tarilgan quyosh haqida shunday debdi. – Hechqisi yo'q. Aslo ko'zimni qismayman. Bardosh beraman.

Qor odamni yasaganlar uning ko'zi o'rniga cherepitsaning sinig'ini, og'iz o'rniga esa siniq xaskashni qo'yishibdi, tishi ham bo'sin deyishgandir-da. Qor odam bolalarning xushchaqchaq «ura»lari, shiqildoqlarining shiqiri, qo'shqaroqlarning gfijiri, faytonchilar qamchisining tasirlashi sadolari ostida bunyodga kelibdi.

Quyosh botibdi, moviy osmonda o'n to'rt kunlik oy paydo bo'libdi.

– Buni qara-ya, endi boshqa tomondan suzyapti! – debdi qor odam yana quyosh chiqdi deb o'ylab. – Nima qilib bo'lsa-da, uning menga ko'z olaytirishini yo'qotdim! Osmonda osilib, asta nurini sochaversin, o'zini ko'rib tursam bo'lgani! Eh, joyimdan sal nariroqqa jilishning iloji bo'lganda edi! Yaqinda bolalar sirg'anganday men ham yaxmalak otardim! Afsus, joyimdan qimirlolmayman-da!

– Yo'qoll Yo'qoll – debdi zanjirdagi it; uning ovozi xirillab qolibdi. – Bir vaqtlar u uy ichida boqiladigan it edi,

issiqqina pechka yonida yotardi. – Qimirlashni senga quyosh o'rgatadi! O'tgan yili ham senga o'xshagan odam bor edi, oldingi yillarda ham. Yo'qoll Hammasi yo'qolib ketdi!

– Nimalar deb valaqlayapsan, do'stim! – debdi qor odam. – Anavi qurbaqako'z meni yurishga o'rgatadimi? – Qor odam oyga ishora qilibdi. – Hali uning o'zi mendan qochib ketdi: men unga astoydil tikildim? Endi bo'lsa u boshqa tomondan chiqdi!

– Xo'p farosaging zo'r ekan-dal – debdi zanjirdagi it. – To'g'ri-da, seni endigina yasashdi! Hozir senga mo'ralab turgan oy bo'ladi, quyosh botib ketgan: ertaga u yana chiqadi. Seni eritib ariqqa oqizib yuboradi! Havo o'zgaradil Buni sezib turibman – chap oyog'im sal zirqirayapti. Havo albatta o'zgaradi!

– Negadir gaplaringga tushunolmayapman! – debdi qor odam. – Demak, sen menga yomonlikni ravo ko'ryapsan, shundaymi? Quyosh deb atalmish anavi qurbaqako'z ham menga do'st emas, buni ham bilib turibman.

– Yo'qol! Yo'qol! – deb vovillabdi zanjirdagi it, so'ng uch marta aylanib, uqlash uchun katagiga kirib ketibdi.

Chindan ham havo o'zgaribdi. Ertalab atrof qalin tuman bilan qoplanibdi; keyin izg'irin shamol esibdi, sovuq avjiga minibdi. Quyosh chiqqanda esa hammayoq shunaqayam go'zallashib ketibdiki, asti qo'yaverasiz!

O'rmon nuqul oq marjondan libos kiyganday daraxtlar va bog'dagi novdalarni oppoq qirov qoplabdi. Hamma novdalar oq gullarga ko'milganday emish! Yoz faslida yaproqlar ostida ko'rinxmay qolgan novdalarning eng shoxlagan joylari ham ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq gul shakliga burkanibdi: har bir novdadan jilo taralayotganday emish. Shamol tebratayotgan qayin daraxti tirilganday emish, uning uzun, qalin shokila taqqanday novdalari xuddi yozdag'i singari silkinib, qimirlayotgan emish! Boqqan sari ko'z quvonar emish. Quyosh chiqibdi. Borliq ko'z qamashtiradigan darajada yarqirab ketibdi. Go'yo olmos changlarini sepib

yuborganday, qor ustida esa yirik-yirik gavhar donalari turganday emish.

– Naqadar chiroylil – debdi yoshgina yigit bilan boqqa chiqqan qiz. Ular naq qor odam oldida to'xtab, quyosh nurida tovlanayotgan daraxtlarga qarashibdi.

– Yozda bunaqa hashamat, go'zallikni ko'rolmaysan! – debdi huzur qilganidan gul-gul yonib turgan qiz.

– Manovindaqa shovvozni ham ko'rolmaysan! – debdi yigit qor odamni ko'rsatib. – Tengi yo'q!

Qiz sharaqlab kulibdi, qor odamga bosh irg'abdi, so'ng yigit bilan qor ustidan sakrab-sakrab chopqillab ketibdi; ular go'yo kraxmal ustidan yurganday oyoqlari ostidagi qor g'ijirlabdi.

– Anavilar kim? – deb so'rabdi qor odam zanjirdagi itdan. – Sen bu yerda mendan ko'ra ko'proq yashagansan: ularni taniysanmi?

– Taniyman! – debdi it. – Qiz boshlarimni silagan, yigit esa oldimga suyak tashlagan, bunaqa odamlarni tishlamayman.

– Ikkovlari nimani anglatadi? – deb so'rabdi qor odam.

– Juftlikni! – debdi zanjirdagi it. – Ikkovlari hozir uyiga kirib olib suyak g'ajishadi. Yo'qol! Yo'qol!

– Demak, ular ham sen bilan menga o'xshagan – bir ekan-da!

– Axir ular zodagonlar! – debdi it. – Kim Ollo Taoloning dargohida endigina paydo bo'lgan bo'lsa, hech baloni tushunmaydi! Bu o'zingdan sezilib turibdi! Men badavlatman, yoshim ham katta, bilimim ham ortiq! Bu yerdagilarning hammasini bilaman! Ha, yaxshi zamonlarni ham ko'rganman! Bir vaqtlar hozirgiga o'xshab zanjirga bog'lanib,sovqotmaganman! Yo'qol! Yo'qol!

– Rosa sovuq bo'lyapti-da, – debdi qor odam. – Xo'sh, xo'sh, gapiraver, gapiraver! Faqat zanjiringni shaldiratmasang bo'lgani, zanjiring juda g'ashimga tegyapti!

– Yo'qol! Yo'qoll – vovillabdi zanjirdagi it. – Men ko'z ochmagan kichkina kuchuk bola edim, baxmal kreslolarda yotardim, uy ichida zodagonlarning tizzasida

o'tirardim. Ular tumshuqlarimdan o'pishardi, oq panjalarimni shoyi ro'molcha bilan artishardi! Meni yoqimtoym, mittivoyim deb erkalatishardi! Keyin bo'yim cho'zilib, ular uchun kattalik qilib qoldim, meni kalidtor ayolga berib yuborishdi, yerto'laga tushib qoldim. Sen o'sha yoqqa qarashing mumkin, yerto'la sen turgan joydan yaxshi ko'rindi. Shunday qilib, o'sna joyda boyvachchalary umr kechirdim! U yer ancha pastak bo'lsa-da, yuqoridagidan ko'ra tinchroq edi; meni bolalar har yoqqa sudrab, ezg'ilashmas edi. Yemishim ham yomon emasdil Yostig'im ham bor edi, yana... u yerda pechka bor edi, pechka shunaqa sovuq kunlarda jonning huzurida. Men pechka tagiga kirib ketardim! O, hozir ham o'sha pechka bo'lsa qani! Yo'qol! Yo'qol!

- Nahotki pechka shunchalik yaxshi bo'lsa? - deb so'rabdi qor odam. - U menga o'xshaydimi?

- Hecham o'xshamaydi! Gapingni qara-yu! Pechka ko'mirdan qop-qora; uning uzun bo'yni va misday qorni bor! Yeyishi nuqul o'tin, og'zidan o't-olov purkaydi! Uning yonida yo tagida o'tirsang maza qilasan! Qara, ana u, derazadan ko'rini turibdi.

Qor odam qarab, mis qorinli ajoyib qora narsani ko'ribdi. Uning vujudini to'satdan qandaydir istak qamrab olibdi, hatto qalbida bir narsa qimirlaganday bo'libdi. Nimaligini bilmabdi, tushunmabdi ham, bordiyu qor odam bo'lmanida boshqalar buni yaxshi payqardi.

- Nega u yerdan ketding? - deb so'rabdi qor odam itdan. U pechka ayol zotidan bo'lsa kerak, degan fikrga kelibdi.

- Qanday qilib ketding u yerdan?

- Noilojlikdan ketdim, - debdi zanjirdagi it. - Ular meni tashqariga quvib, zanjirga bog'lab qo'yishdi. Eng kenja boyvachcha terimni shilib, suyagimni olib qo'ymoqchi bo'lgan edi, uning oyog'ini tishlab oldim! «Suyak uchun suyak!» - deb o'yladim o'zimcha. Ular darg'azab bo'lishdi, mana, zanjirda turibman! Ovozim ham yo'qoldi... Xirillaryapmanmi? Yo'qol! Yo'qol! Shu bilan gap tamom!

yuborganday, qor ustida esa yirik-yirik gavhar donalari turganday emish.

– Naqadar chiroylil – debdi yoshgina yigit bilan boqqa chiqqan qiz. Ular naq qor odam oldida to'xtab, quyosh nurida tovlanayotgan daraxtlarga qarashibdi.

– Yozda bunaqa hashamat, go'zallikni ko'rolmaysan! – debdi huzur qilganidan gul-gul yonib turgan qiz.

– Manovindaqa shovvozni ham ko'rolmaysan! – debdi yigit qor odamni ko'rsatib. – Tengi yo'q!

Qiz sharaqlab kulibdi, qor odamga bosh irg'abdi, so'ng yigit bilan qor ustidan sakrab-sakrab chopqillab ketibdi; ular go'yo kraxmal ustidan yurganday oyoqlari ostidagi qor gjirlabdi.

– Anavilar kim? – deb so'rabdi qor odam zanjirdagi itdan. – Sen bu yerda menden ko'ra ko'proq yashagansan: ularni taniysanmi?

– Taniyman! – debdi it. – Qiz boshlarimni silagan, yigit esa oldimga suyak tashlagan, bunaqa odamlarni tishlamayman.

– Ikkovlari nimani anglatadi? – deb so'rabdi qor odam.

– Juftlikni! – debdi zanjirdagi it. – Ikkovlari hozir uyiga kirib olib suyak g'ajishadi. Yo'qol! Yo'qol!

– Demak, ular ham sen bilan menga o'xshagan – bir ekan-da!

– Axir ular zodagonlar! – debdi it. – Kim Ollo Taoloning dargohida endigina paydo bo'lgan bo'lsa, hech baloni tushunmaydi! Bu o'zingdan sezilib turibdi! Men badavlatman, yoshim ham katta, bilimim ham ortiq! Bu yerdagilarning hammasini bilaman! Ha, yaxshi zamonlarni ham ko'rganman! Bir vaqtlar hozirgiga o'xshab zanjirga bog'lanib,sovqotmaganman! Yo'qol! Yo'qol!

– Rosa sovuq bo'lyapti-da, – debdi qor odam. – Xo'sh, xo'sh, gapiraver, gapiraver! Faqat zanjiringni shaldiratmasang bo'lgani, zanjiring juda g'ashimga tegyapti!

– Yo'qol! Yo'qol! – vovillabdi zanjirdagi it. – Men ko'z ochmagan kichkina kuchuk bola edim, baxmal kreslolarda yotardim, uy ichida zodagonlarning tizzasida

o'tirardim. Ular tumshuqlarimdan o'pishardi, oq panjalarimni shoyi ro'molcha bilan artishardi! Meni yoqimtoym, mittivoyim deb erkalatishardi! Keyin bo'yim cho'zilib, ular uchun kattalik qilib qoldim, meni kalitdor ayolga berib yuborishdi, yerto'lagaga tushib qoldim. Sen o'sha yoqqa qarashing mumkin, yerto'la sen turgan joydan yaxshi ko'rindi. Shunday qilib, o'sna joyda boyvachchalarday umr kechirdim! U yer ancha pastak bo'lsa-da, yuqoridagidan ko'ra tinchroq edi; meni bolalar har yoqqa sudrab, ezg'ilashmas edi. Yemishim ham yomon emasdi! Yostig'im ham bor edi, yana... u yerda pechka bor edi, pechka shunaqa sovuq kunlarda jonning huzurida. Men pechka tagiga kirib ketardim! O, hozir ham o'sha pechka bo'lsa qani! Yo'qol! Yo'qol!

- Nahotki pechka shunchalik yaxshi bo'lsa? - deb so'rabdi qor odam. - U menga o'xshaydimi?

- Hecham o'xshamaydi! Gapingni qara-yu! Pechka ko'mirdan qop-qora; uning uzun bo'yni va misday qorni bor! Yeyishi nuqul o'tin, og'zidan o't-olov purkaydi! Uning yonida yo tagida o'tirsang maza qilasan! Qara, ana u, derazadan ko'rini turibdi.

Qor odam qarab, mis qorinli ajoyib qora narsani ko'ribdi. Uning vujudini to'satdan qandaydir istak qamrab olibdi, hatto qalbida bir narsa qimirlaganday bo'libdi. Nimaligini bilmabdi, tushunmabdi ham, bordiyu qor odam bo'lmanida boshqalar buni yaxshi payqardi.

- Nega u yerdan ketding? - deb so'rabdi qor odam itdan. U pechka ayol zotidan bo'lsa kerak, degan fikrga kelibdi.

- Qanday qilib ketding u yerdan?

- Noilojlikdan ketdim, - debdi zanjirdagi it. - Ular meni tashqariga quvib, zanjirga bog'lab qo'yishdi. Eng kenja boyvachcha terimni shilib, suyagimni olib qo'ymoqchi bo'lgan edi, uning oyog'ini tishlab oldimi! «Suyak uchun suyak!» - deb o'yladim o'zimcha. Ular darg'azab bo'lishdi, mana, zanjirda turibman! Ovozim ham yo'qoldi... Xirillayapmanmi? Yo'qol! Yo'qol! Shu bilan gap tamom!

o'rdaklar hovlisiga dimog'dor, tumshug'ini osmonga ko'targan xo'roz va tovuqlarni qo'yib yuborishibdi.

– Xo'roz dahshatli qichqirib meni haqoratlaydi! – debdi Portugalka. – Lekin u chiroqli, garchi husnda erkak o'rdakka tenglasha olmasa-da, husniga tan berish kerak. U bosiqroq bo'lganda durust bo'lardi, bosiqlik ham oly ma'lumot talab qiladigan katta san'at. Ana shu xislati bilan qo'shni bog'dagi arg'uvon daraxtiga in qurban sayroqi qushlar ajralib turadi! Ular juda yoqimli sayrashadi! Ularning kuyida men nima deb atashni bilmaydigan, qalbni qitiqlaydigan, portugalcha bir narsa bor. Bordiyu, mening ham sayroqi qushim bo'lganda unga onalik qillardim, unga g'amxo'r, mehribon bo'lardim! Bu xislat mening qonimga, portugalligimga singib ketgan.

Kunlarning birida tomdan uning oldiga bir sayroqi qush mushukdan qochib to'p etib tushib, qanotini sindirib olibdi.

– Yer yutgur, xuddi qonxo'r mushukka o'xshaydi-ya! – debdi Portugalka tomdagi mushukka ko'zi tushib. – Uni o'rdakchalar bor paytdan beri bilaman! Buni qaranglar-a, shundoq maxluqqa tomma-tom yurib yashashga yo'l qo'yishadi-ya! Yo'q. Portugaliyada bunaqa bemazagarchilikni ko'rmaysiz!

Shunday qilib, bechora sayroqi qushga achinib, unga g'amxo'rlik qila boshlabdi. Portugaliyalik bo'limgan boshqa o'rdaklar ham shunday qilishibdi.

– Bechora mitti qush! – deyishibdi ular birin-ketin unga yaqinlashib. O'zimiz sayroqi emasmiz, lekin biz qalban buni sezib turamiz. Sayramasak ham, sayrash ma'nosini butun qalbimiz bilan his etib turamiz!

– Gapim gap! – debdi Portugalka. – Unga unutilmas yaxshilik qilaman! Bu har kimning burchi! – Shunday debdi-yu suv to'la tog'ora yoniga kelib qanotlarini ho'llabdi, qanotidan yoqqan suv yomg'iri ostida qushcha cho'kib ketishiga sal qolibdi, lekin bu chin qalbdan qilinayotgan yaxshilik ekan. – Mana bu soz ish bo'libdi! – debdi Portugalka. – Hamma ko'rsin, ibrat olsin.

- Chirq! - chiyillabdi qushcha, singan qanoti silkinishga imkon bermabdi; lekin u o'zini chin yuraqdan cho'miltirishganini payqabdi. - Siz juda mehribon ekansiz, xonim! - debdi qushcha, yana cho'miltirishni iltimos qilibdi.

- Mehribonligim haqida hech qachon o'ylamaganman!  
- deb javob qaytaribdi Portugalka. - Lekin mushukdan boshqa hamma yaqinlarimni bilaman! Mushukni sev deb meni hech kim zo'r lamaydi. U mening ikkita bolamni yeb qo'ygan! Endi o'z uyingizdagiday his qiling! Bu yaxshi bo'ladi. O'zim ham bu yerlik emasman, buni patlarim va qomatimni qanday tutishimdan ko'tib turgandirsiz! Lekin erim shu yerlik, qonimiz boshqa-boshqa, lekin men dimog'dor emasman! Bordiyu, bu yerda sizni biron bir kishi yaxshi tushunadigan bo'lsa, u ham men bo'laman, degan fikrdaman.

- Uning jig'ildonida Portulakiya bor! - deb kichkina oddiy o'rdak hazil qilibdi; boshqa oddiy o'rdaklar bu hazilni o'rinsiz deyishibdi. Portulak Portugaliyaga o'xshab eshitiladi! Ular bir-birlarini turtishib:

- G'oq-g'oq! Voy hazilkash ahmoq-ey! - deyishibdi, so'ng sayroqi qush bilan hamsuhbat bo'lishibdi..

- Portugalka gapga chechan! - deyishibdi ular. - Tumshug'imizda unikichalik tumtaroqli so'zlarimiz bo'lmasa-da, sizga juda g'amxo'rmiz! Bordiyu sizga oz bo'lsa-da, naf keltirolmasak, bu haqda g'ag'illab o'tirmaymiz! Bizningcha, bu oljanoblik bo'ladi.

- Ajoyib ovozingiz bor ekan! - debdi qari o'rdaklardan biri. - O'zingizga o'xshagan qushlar ko'nglini rosa ko'tarsangiz kerak. Lekin men sayrash nimaligini yaxshi tushunmayman. Shu vajdan tilimni tumshug'imdan chiqarmayman. Bema'ni gapni gapirgandan ko'ra, shunday qilgan ham ma'qul.

- Ko'p gapirib uni bezdirib qo'y mang! - deb gapga aralashibdi Portugalka. - U dam olish, parvarishga muhtoj. Mitti sayroqim, sizni yana bir marta cho'miltirsam maylimi?

– Yo‘q, yo‘ql! Quruqqina turishimga ijozat bersangiz! – deb iltimos qilibdi u.

– Menga nuqul suvda davolanish yoqadi! – deb gapida davom etibdi Portugalka. – Suvda hordiq chiqarish juda foydalil! Hademay qo‘shti tovuqlar mehmonga kelishadi; ularning orasida ikkita xitoy tovug‘i ham bor; ular juda bilimdon tovuqlar. Ular ham bu yerlik emas, hurmatlari esa juda baland.

Tovuqlar kelishibdi; xo‘roz ham kehibdi. Bu Safar judayam xushmuomala bo‘lib, hech qo‘pollik qilmabdi.

– Siz haqiqiy sayroqi qushsiz! – debdi u qushchaga. – Mitti ovozingiz bilan qo‘lingizdan kelganicha xizmat qilasiz. Lekin sizning erkakligingizni sezzdirib turadigan, kuchliroq chalinadigan hushtak bo‘lishi kerak!

Har ikkala xitoy tovug‘i qushchani ko‘rib judayam sevinib ketishibdi: qushcha cho‘milgandan keyin patlari hurpayib, xitoy jo‘jasiga juda o‘xshab ketibdi-da. Bunchayam chiroyli, yoqimtoy qush-a, deyishibdi ular va qushcha bilan suhbatlasha boshlashibdi. Ular shivirlashib gaplashishibdi, buning ustiga zodagon xitoy xonimlarga o‘xshab pichirlashibdi ham.

– Axir, biz sizning zotingizdanmiz!.. O‘rdaklar esa, hatto Portugalkaning o‘zi ham suv parrandalariga mansub, buni o‘zingiz ham payqab turgandirsiz. Siz hali bizning kimligimizni yaxshi bilmaysiz, lekin bu yerda ko‘plar bizni bilishmaydi yoki bilgilari kelmaydi. Ko‘pchilik bo‘lmasada, hatto tovuqlar ham bizning balandroq qo‘noqda o‘tirish uchun tug‘ilganimizni bilishmaydi. Mayli, bilishmasini! Garchi bizda boshqa maqsad bo‘lsa-da, boshqalar qatori o‘z yolumidan tinchgina ketyapmiz: biz faqat bitta yaxshi narsaga qaraymiz, garchi hech narsa yo‘q joyda uni topish juda qiyin bo‘lsa-da, faqat yaxshi narsa haqida gapiramiz! Ikkovimiz! Ikkovimiz hamda xo‘rozdan tashqari tovuqxonada iste’dodli, shu bilan birga halol zotlar yo‘q. O‘rdaklar hovlisi haqida gapirmsa ham bo‘ladi. Aziz ashulachimiz, sizni ogohlantirib qo‘yaylik! Hov anavi kalta dum o‘rdakka ishonmang, o‘lgudek mug‘ombir. Anavi

qanotlarida egri-bugri chipori bor ola o'rdak uchiga chiqqan janjalkash, u hech kimga dilidagi gapini aytishga imkon bermaydi, shunga qaramay, o'zi hammavaqt nohaq bo'lib qolaveradi. Manovi semiz o'rdak bo'lsa hammani yomonlab yuradi, bu bizning tabiatimizga zid: Yaxshi gap aytish qo'lingdan kelmasa, unda indamay qo'ya qol! Portugalka bilimdonligi bilan biroz ajralib tursa-da, u bilan non-qatiq bo'lishga to'g'ri kelsa-da, u ham g'arazgo'y, nuqul Portugalkasi haqida maqtanaveradi.

- Anavi xitoy makiyonlari nimalar deb shivirlashdi? - deb ajablanishibdi ikkita oddiy o'rdak. - Ular bizni juda zeriktirib yuborishadi: ular bilan hech gaplashmaymiz.

Shu payt erkak o'rdak ham kelibdi. U sayroqi qushni chumchuq deb o'ylabdi.

- E, men qushlarni unchalik ajratolmayman! - debdi u. - Hammasi bir xilga o'xshaydi. Bunisi nag'machilar zotidan bo'lsa kerak, ular omon bo'lsa bo'pti-da.

- U valdirasa valdirayversin, unga parvo qilmang! - deb shivirlabdi Portugalka. - Ammo u ancha ishchan erkak, eng muhim shu! Xo'sh, endi men biroz orom olay. Bu o'zimga bo'lgan munosabatimdag'i bevosita burchim, bordiyu, semirmoqchi bo'sang hamda olma va qora gilos bilan mo'miyolanmoqchi bo'sang, shunday qil.

U bir ko'zini qisibdi-da, oftobli joyga o'rnashib yotibdi, chunki o'zi ham yaxshi ekan, uplashi ham shirin bo'libdi. Sayroqi qush singan qanotini qashibdi, so'ng u ham himoyachisi yoniga yotibdi. Quyosh shunaqayam isitbdiki, asti qo'yaverasiz, maza qilishibdi.

Qo'shni tovuqlar yer tita boshlashibdi; ular bu yerga faqat ovqat axtarib kelishibdi. Keyin ular tarqala boshlashibdi; eng oldin xitoy makiyonlari, ulardan keyin boshqa tovuqlar ketibdi. Ziyrakkina o'rdakcha, Portugalka haqida hademay u «o'rdak bolaligi»ga tushib qoladi, debdi. Boshqa o'rdaklar g'oq-g'oqlab: «Naqadar ziyrak! Judayam hazilkash-a», deyishibdi. So'ng uning avvalgi hazili «Portulak» takrorlashibdi. Ular rosa kulishibdi.

Oradan bir soat o'tibdi, birdan hovliga yuvindi hamda ovqat sarqitlarini tashlashibdi. Buning ovoziga uxlayotganlar uyg'onib qanotlarini qoqishibdi. Portugalka ham uyg'onibdi, u bu yonboshiga ag'darilib, sayroqi qushni ezib qo'yibdi.

– Chirq! – deb chiyillabdi qushcha. – Xonim, siz meni bosib oldingiz!

– Oyoq tagida o'ralashmang! – debdi Portugalka. – Bunchalik nozik-nihol ham bo'mang! Bizda ham asab bor, biroq sizga o'xshab chiyillamaymiz.

– Jahlingiz chiqmasin! – debdi qushcha. – Bexosdan chiyillab yuboribman.

Ammo Portugalka uning gaplariga qulq solmabdi, o'zini taomga tashlab, qornini rosa to'ydiribdi. Ovqatdan keyin yana yonboshlabdi. Qushcha unga yaqinlashib, qo'shiq aytib, uning jahlini tarqatmoqchi bo'libdi:

*Chirq, chirq, chirq!  
To'lib sayrayman,  
Sizni kuylayman!  
Chirq, chirq, chirq!*

– Tushlikdan keyin dam olishim kerak! – debdi o'rdak.  
– Bu yerdagi tartibga ko'niksangiz yaxshi bolardi! Men uxlamoqchiman, bilingizmi?

Bechora qushcha o'zini butunlay yo'qotib qo'yibdi: axir, u o'rdakning ko'nglini ko'tarmoqchi ekan-da. Portugalka xonim uyg'onganda qushcha hamon uning yonida topib olgan bir dona bug'doyni ushlab turgan ekan. Biroq o'rdakning uyqusи chala bolganidan kayfiyatni ham yomon ekan.

– Bunijo'jaga bering! – deb qichqiribdi u. Hadeb menga xiralik qilavermang!

– Menden achchiqlanyapsiz shekilli? – deb so'rabi qushcha. – Gunohim nima?

– Gunohingiz bor! – debdi Portugalka. – Aytishga ijozat bergaysiz, judayam shumshayib turibsiz!

- Kecha quyosh charaqlab turgandi, - debdi qushcha,  
- bugun havoning qovog'i soliq! Ichimga chiroq yoqsa  
yorimaydi!

- Vaqt ni bilmaysiz! - debdi Portugalka. - Hali kunduzi-  
ku. Nega tentakka o'xshab baqrayib turibsiz.

- Hozir ko'zlarigiz meni quvlagan mushukning  
ko'zlariga juda-juda o'xshab ketdi!

- Eh, uyatsiz! - debdi Portugalka. - Meni o'sha yirtqich  
mushukka tenglashtiryapsizmi? Mening qonimda  
zarracha bo'lsa-da, yovuzlik qoni yo'q! Sizga rahm-shafqat  
qilgandim, endi odobga ham o'rgatib qo'yaman!

Shunday debdi-yu, qushchaning boshini bir cho'qigan  
ekan, u til tortmay o'lib qolibdi.

- Bu qanaqasi bo'ldi? - debdi Portugalka. - Sal  
cho'qiganimni ham ko'tara olmadi-ya? Ha, mayli, uning  
qazosi yetgan ekan! Men unga ona o'rnila edim, buni  
yaxshi bilaman!

Qo'shnining xo'rozi hovliga boshini suqib, xuddi  
parovoz singari yo'g'on ovoz bilan qichqiribdi.

- Ovozingiz jonimga tegdi! - debdi o'rdak.

- Hammasiga siz aybdorsiz! Anavi bechora o'zini  
yo'qotdi, demak, men ham shu ahvolga tushaman.

- Endi u ko'p joyni egallamaydi! - debdi xo'roz.

- U haqda hurmat bilan gapiring! - debdi Portugalka.

- U ovozi shirali, qo'shiq aytish qo'lidan keladigan, bilimdon  
qush edi! U o'ta nazokatli, mehribon edi, bu sifatlar  
odamlar hayvon deb atagan jonivorlarga ham yarashadil

Olik qushcha atrofiga hamma o'rdaklar to'planibdi;  
o'rdaklar o'ta ta'sirchan bo'ladi, ular hasad qiladilar,  
achinadilar. Bu yerda hasadga o'r'in bo'limganidan,  
hamma achinibdi. Xitoy makiyonlari ham kelishibdi.

- Shunchalik o'tkir ashulachi qushcha endi oramizda  
yo'q. U, xitoy makiyonining xuddi o'zginasi edi-ya, - deb  
piqillab yig'lashibdi ular, boshqa tovuqlar ham yig'lashibdi,  
o'rdaklarning esa yig'idan ko'zlar qizarib ketibdi.

- Bizda ham ko'ngil bor! - deyishibdi ular. - Buni hech  
kim bizdan tortib ololmaydi!

- Ko'ngil! - debdi Portugalka. - Bu saxovat Portugaliyada qancha bolsa, bu yerda - bizda ham shuncha!

- Yaxshisi jig'ildonni nima bilan to'ldirishni o'ylaylik! - debdi erkak o'dak. - Bu eng muhim narsa. Bitta nagi machi o'lgan bolsa nima qipti? Tiriklari dunyoda ko'pi

## YANGI ASRNING ILHOM PARISI

Nevara-chevaralarimiz, ehtimol, ulardan ham keyinroq o'tadigan avlodlar ko'rish nasib qiladigan yangi asrning Ilhom parisi qachon paydo bo'larkin? U qanaqa bo'larkin? Nimalarni kuylar ekan? Qanaqa dil torlarini chertar ekan? O'z asrini qanchalik yuksaklarga ko'tarar ekan?

Hamma she'riyat xalaqit berib turganini, zamонави shoirlarning «o'lmas» asarlari kelajakda qamoq devorlariga ko'mir bilan yozib qo'yilgan narsaga o'xshashini va ular ayrim qiziqsingan odamlarninggina diqqatini o'ziga tortishini bilib turgan hozirgi tinib-tinchimas, alg'ov-dalg'ov zamonda shuncha savol yog'dirish o'rini bo'larmikan?

Modomiki shunday vaziyat yuz beribdi, she'riyat chor-nochor siyosatda ishtirok etishi, kishilar qon yoki siyoh to'kayotib bir paytdagi partiyalar kurashida hech bo'lmasa mahram rolini o'ynashi kerak.

Ko'plar buni bir yoqlama qarash deyishi mumkin; she'riyat bizning kunlarimizda ham unutilgani yo'q.

Hecham-da. Hali shunday odamlar ham borki, «yalqovsimon dushanba» kunlarida ta'blari she'r tilab qoladi, ular o'z jasadlarining tegishli olijanob qismlarida ma'naviy ko'tarinkilikdan ko'ra ochlikni his etib, mulozimlarini magazinlarga she'riy kitob olib kelish uchun yuborishadi. Ular to'rt skilling turadigan kitoblarni olishadi. Ba'zilar esa baqqollar xarid qilingan narsalarni o'rab bergen qog'ozdagi she'rlar bilan yoki xarid qilingan narsa qaytimi o'rnila berilgan kitobchalardagi she'rlar

bilan kifoyalanishadi. Ana shunday qilganda she'r ancha arzonga tushadi, hozirgi shoshqaloq zamonamizda arzonchilikka e'tibor bermasdan bo'lmaydi. Shunday qilib, amaldagi ehtiyojlar qondirilyapti, yana nima kerak? Kelajak she'riyati kelajak musiqasi singari donkixotlik, xayolparastlikning o'zi, bu haqda yuritilgan gap ilmiy maqsadlarda qilinadigan Uranga sayohatga o'xshagan gapdir.

Vaqtni xayolparastlikka sarflay desak, u biz uchun ancha qadrli, umuman do'ppini yerga qo'yib o'ylaylik-chi, she'riyatning o'zi nima? Bu tuyg'u va fikrlarni to'kib solish sadosi – o'yin va asabni tebratishning o'zi. Shodonlik va yaxshi kayfiyat, azob, hatto moddiy intilish – bularning hammasi olimlarning fikricha, asabning tebranishi, xolos. Ochig'ini aytganda, har birimiz arfa yoki boshqa torli musiqa asbobiga o'xshaymiz.

Lekin ana shu torlarni kim chertadi? Ularmi tebranish va titrashga kim majbur qiladi? Bunga ko'zga ko'rmas ilohiy ruh majbur etadi; uning ovozi tebratadi; tebranganda sado chiqaradi, uning musiqasi yo asosiy tovush bilan bitta garmonikakkordga qo'shiladi yoki qudratli uyg'unsizlik hosil qiladi. Erkin bilish yo'lida insoniyat buyuk taraqqiyotida shunday bo'lgan, hammavaqt ham shunday bo'ladi.

Har bir asr, to'g'rirog'i, har bir ming yillik she'riyatda o'zining yuksak ifodasini topadi. Bir davr oxirida paydo bo'lgan she'riyat keyingi davrda kuchga kirib, hukmronlik kiladi.

Yangi asrning ilhom parisi bizning shoshqaloq zamonamizda mashinalarning taraqa-turug'i, shovqini ostida tug'ildi. Unga ta'zim va salomlar bo'lsin! U buni eshitar yoki hozirgina nomi zikr qilingan, ko'mir bilan yozilgan yozuvlar orasidan o'qib qolar.

Uning beshigi bir tomoni inson qidiruv ishlar olib borib oyog'i tegib turgan eng chekka nuqtaga qadalgan, ikkinchi tomoni esa inson ko'ra oladigan qop-qora shimol ufqi chetidagi bo'shliqda tebranib turibdi. Biz uning

beshigining g'ifjirlashlarini eshitolmadik, mashinalar shov-qini, parovozlarning chinqirishi, materializm qoyalarinining portlashi va uloqtirilgan ma'naviy kishanlarning guldurashi bunga imkon bermadi.

U bizning yerimiz hisoblangan ulug' fabrikada, qonunlar hukmron bo'lgan davrda, «qonsiz» usta va uning yordamchilari tinimsiz ishlab turgan davrda tug'ildi.

Uning qalbi ayollarning qalbi singari saxovatli va mehr-oqibatga to'la: uning qalbida vestalkaning muqaddas olov va ehtiros o'ti yonib turadi. U ming yillar zulmatini yorib o'tadigan topqir, chaqmoqday yorqin aql-zakovatga ega; unda go'yo prizmada ko'ringanday bir vaqtlar hukmronlik qilgan, moda singari tez-tez almashib turgan inson tafakkuri aks etadi. Yangi ilhom parisining kuch-qudrati va xazinasi ilm tomonidan to'kilgan hamda tabiatning ibtidoiy kuchlari bilan jonlangan xayoliy oqqushlarga xos pat tashlashidir.

U ota tomonidan xalq farzandi; uning fikrlari sog'lom, ruhi tetik, qarashlari jiddiy, labidan tabassum arimaydi. Ona tomonidan u bilimdon, ma'lumotli, miyasida arxitektura va bezash uslubi oltin davrining xotiralarini saqlagan muhojirlarga borib taqaladi. Yangi asrning ilhom parisi ham ikkovining dili va vujudi mevasi o'laroq tug'iladi.

Uning beshigiga ko'rmana qilib zo'r iste'dodni solib qo'yishdi. Beshik ichida yana tabiat jumboqlarini javoblari bilan shirinlik singari sepib qo'yishdi; unga g'avvoslik qo'ng'irog'idan turli bezaklar va dengiz osti g'aroyibotlaridan sochishdi. Beshik pashshaxonasiga son-sanoqsiz orollari bor okeanni eslatuvchi osmon, dunyo xaritasi tushirilgan. Quyosh uning uchun suratlar chizib berdi; fotografiyalar esa unga o'yinchoqlar berib turishi lozim.

Enaga uning boshida shimol baxshisi Eyvind hamda sharq kuychisi Firdavsiyning qo'shiqlarini, minezingerlar qo'shig'ini hamda sho'xtabiat Geynening chinakam shoirona qalbi to'ridan otilib chiqqan qo'shiqlarni alla qilib

aytdi. Enaga unga juda ko'p hikoyalarni aytib berdi. Ilhom parisi Eddi momosi haqida to'qilgan, kishi qalbini dahshatga soladigan, eshitganda la'nat-qarg'ishlar qanotining shovqini qomatga keltiradigan asfonalarni ham biladi. U chorak soat davomida sharq fantaziyasi – «Ming bir kecha»ni ham tinglagan.

Yangi zamonning Ilhom parisi hali go'dak, lekin u beshikdan sakrab tushdi; uning oldinga intilishga ishtiyoqi zo'r, lekin nimaga intilishni hali o'zi ham bilmaydi.

U hozircha san'at xazinasi va zeb-u ziynatlarga to'la kenggina xonasida o'ynayapti. Bu yerda yunon tragediyasi va rim komediyasining marmardan yasalgan ajoyib haykallari bor; devorlarga go'yoki quruq o't-o'lanylarda turli mamlakatlarning xalq qo'shiqlari ilib qo'yilgan, ulardan bo'sa olsangiz bas – gurkirab o'sadi, gulga ko'milib, muattar hid taratadi. Uning atrofida Betxoven, Glyuk, Motsart va boshqa ulug' san'atkorlarning o'lmas asarlari jaranglaydi. Kitob javonlarida zamonasining o'lmas namoyandalari deb atalgan mualliflarning kitoblari tikilib turibdi. Lekin bu yerda ismi o'lmaslikning telegraf simi orqali berilgan, lekin o'sha zahoti nomi o'chgan kishilar asarlariga ham joy bor.

Ilhom parisi nihoyatda ko'p o'qidi; axir u bizning zamonamizda tug'ilganda, u ko'p narsani unutishi kerak edi, shunday bo'ladi.

Hali u Moiseyning ilhombaxsh asarlari va Bidpayning tulkinining ayyorliklari haqidagi bebahoh masallari singari yangi asrda yashaydigan o'z qo'shig'i to'g'risida o'ylamaydi. U hali o'z maqsadi va kelajagi haqida o'ylamaydi, u havoni larzaga keltirayotgan millatlar kurashi shovqini ostida yashayapti.

U Garibaldi shapkasini kiyib, Shekspir asarlarini o'qimoqda, unda: «katta bo'lganimda uni sahnaga qo'yaman», degan fikr tug'iladi. Kalderon o'z asarlaridagi tosh tobutda yotibdi, yodgorlik taxtasiga uning shuhrati haqidagi yozuvlar bitilgan. Ilhom parisi Xelberg asarlarini ham o'qimoqda, u kosmopolit ayol Xelbergning asarlarini

Moler, Plavt va Aristofan tomlari bilan aralashtirib yuborgan, lekin u Moler asarlarini jon deb o'qiydi.

Tog' echkisini ta'qib qiladigan notinchlik uning uchun notanish, lekin uning qalbi tog' echkisiday hayotga tashna. Uning ko'ngliga sokin, yulduzlar charaqlab turgan tunda ko'm-ko'k maysazor tekisliklarda ko'chib yurgan yahudiylarning qadimiy afsonalari nafas olgan osoyishtalik cho'kkani. Ilhom parisi ular haqida kuylaganda yuragi Fessaliya tog'larining ilhomlangan qadimiy jangchisining qalbidan ham qattiqroq tepadi.

Xo'sh, u qanaqa dinda? U hamma falsafa jadvallarini o'rgangan, «ibridoiy kuchlarning kelib chiqishi»da sut tishlaridan birini sindirgan, lekin uning o'rniiga yangisini oldi, beshikdaligidayoq bilim mevasidan bahramand bo'lib, donolik, abadiylik uning uchun insoniyatning muhim tafakkuri bo'lib qoladi.

Yangi asrning she'riyati qachon kelar ekan? Uning Ilhom parisi qachon chiqarkan? Uning ovozini qachon eshitar ekanmiz?

Kunlarning birida u parovozda keladi, tunnellardan shovqin solib o'tadi, tubsizlik ustiga qurilgan ko'priдан yoki pishqirayotgan dengizdag'i delfinga minib o'tadi, yo bo'lmasa Rok Mongolferning qushida havoda parvoz qilib, so'ng yerga qo'nadi, qo'ngan joyidan insoniyatga yo'llagan salomi birinchi daf'a eshitiladi. Uning salomi qayerdan eshitilar ekan? Mahalliy xalq yirtqichlar tomonidan quvg'in qilingan, afrikaliklar esa yukchi hayvonga aylanib qolgan. «Gayavati haqidagi qo'shiq» jaranglagan erkin odamlar mamlakati bo'lmish Kolumb yeridan eshitilarmikan? Yoki antipodlarimiz yeridan, janub dengizlaridagi oltin orollardan, bizda tun, ularda esa kunduz bo'ladigan, mimoza gullari ochilib turgan o'rmonlarda oqqushlar sayrayotgan joylardan eshitilarmikan? Biz garchi sahro sfinksining qo'shig'ini tushunmasak-da, Memnon haykallari jaranglayotgan va kuylayotgan mamlakatdan eshitilarmikan? Yo Yelizaveta zamonidan beri toshko'mir qazilayotgan, Shekspir hukmronlik qilayotgan oroldan

eshitilarmikin? Yoki qadr-qimmat topmagan Tixo Brage mamlakatida yo o'z rahnamosi o'rmonlar podshosi – vellington daraxtini osmonga bo'y cho'zdirgan, barguzashtli ertaklar yurti hisoblangan Kaliforniyadan eshitilarmikin?

Ilhom parisi peshanasidagi yulduz qachon charaqlar ekan? Har qaysi gul bargida asrning go'zalligi, bo'yoq, muattarlik va go'zallik ramzi bo'lgan gullar qachon ochilar ekan?

•Yangi Ilhom parisining rejalar qanaqa bol'sokin? – deb so'rashadi zamonamizning bilimdon vakillari. – U nimani xohlaydi?•

Yaxshisi, nimani xohlamasligini so'rab ko'ring.

U o'tgan zamoning soyasi bo'lib qolishni xohlamaydi! Arxivga topshirilgan sahnabop taassurotlardan yangi dramalar yaratishni yoki dramatik arxitektura ilohiyigini ko'zni qamashtiruvchi lirik parda bilan yashirishni istamaydi! Ilhom parisi ko'z oldimizda bu sohada Fesxis aravasidan marmar amfiteatr qancha yiroq qadam tashlagan bo'lsa, u ham shuncha yiroq qadam tashlaydi. U tabiiy insoniy nutqni bo'lak-bo'laklarga ajratishni, so'ng undan trubadurlar zamonidagi makkorona jaranglaydigan qo'ng'iroqlar yasashni xohlamaydi. U she'riyatni dvoryan xonim, nasrni esa meshchanka deb bilmaydi – she'rnii ham, nasrni ham birdek ko'rib, ularning to'laqonliligi va qudratini saqlab qoladi. U island afsonalaridagi qoyatoshlarday qudratli xudolarni qayta tilga olmaydi. Bu xudolar allaqachanlar olamdan o'tib ketgan, yangi asrda ularga hech kim achinmaydi, chunki ular yangi asrga begona! Ilhom parisi o'z zamondoshlarini fransuz romanlaridagi fohishaxonalarda hordiq chiqarishga taklif qilmaydi. Ular boshiga «oddiy qissalar»ni yog'dirib yuborishni ham istamaydi. U o'z zamondoshlariga umr malhamini hadya qilishni xohlaydi! Uning ham nazmdagi, ham nasrdagi qo'shiqlari lo'nda, siqiq, mazmundor bo'ladi! Har bir millatning yurak tepishi uning uchun taraqqiyotning alifbesidagi bitta harf bo'ladi

va u har bir harfni bir xil mehr-muhabbat bilan tanlab oladi, ulardan so'z yasaydi, bu so'zlar u o'z asrini ulug'lab kuylayotgan qasidadagi so'zlarga hamohang bo'lib ketadi. Bu davr yerda yashayotganlarga sekin, oldinga uchib ketganlarga esa tezroq keladi. Hademay xitoy devori qulaydi; Yevropa temir yo'llari Osiyoning tushunib bo'lmaydigan madaniyat arxivlariga yetib boradi, natijada ikki madaniyat oqimi bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Bu oqimlar ehtimol, dahshatli tarzda shovillasa kerak, zamonaning qarib qolgan bizzday vakillari qadimiy xudolarning halokati, qiyomat yaqinlashib qolganidan cho'chirmiz, talvasaga tusharmiz. Lekin biz davrlar va inson avlodlari bir-biri bilan almashishini hamda yo'qolishini, ulardan so'z doirasida ifodalanadigan kichik bir in'ikos qolishini, ular nilufar gullardek abadiylik oqimida oqishini, bizga bu avlodlar ham o'zimizga o'xshagan odamlar ekanini, faqat kiyinishlari boshqacha ekanligini hikoya qilib berishini unutmasligimiz kerak. Qadimiy yahudiylarning umr manzarasi Injil sahifalarida, greklarning «Iliada» va «Odisseya» larida gavdalanadi, bizning davrimizda-chi? Buni yangi asr Ilhom parisidan qiyomat paytida yangi, butunlay boshqacha Gimle<sup>9</sup> hosil bolganda so'rash kerak.

Parning butun kuchi, zamonaning bosimi Ilhom parisiga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Zamonamizning qudratli janoblari hisoblangan «qonsiz» usta va uning yordamchilari ulug' bayram kuni dasturxon tuzaydigan, xazina tashiydigan, saroy zallarida husn bo'lib turadigan mulozimlar, qora qullar bo'lib qolishadi, bu bayramda Ilhom parisi go'dakday ma'sum, o'n besh yashar qizday xushchaqchak, matronaday vazmin, bosiq, tajribali bo'lib, she'riyatning ajoyib chirog'ini baland ko'taradi, tubsiz

<sup>9</sup> Gimle – Skandinaviya mifologiyasida eng go'zal va eng yorqin samoviy maskanlardan biri; qiyomat paytida u halokatdan saqlanib qoladi; bu maskan o'ta sofdil, halol odamlarning ruhi yashaydigan joy.

idishga o'xhash inson yuragida esa ilohiy olov lovillab yonadi.

Salom senga yangi asrning Ilhom parisi! Salomimiz osmon-u falakka ko'tariladi va omoch shartta qirqib o'tgan chuvalchangning unsiz qasidasi singari eshitiladi. Yana bahor kelganda omoch tag'in yer bag'rini tilib boradi, yangi bo'liq o'rimga tuproqni o'g'itlash uchun, kelgusi avlodlarga zarur bo'sin deb bizni, ya'ni chuvalchanglarni qirqib boradi.

Salom senga yangi asrning Ilhom parisi!

## PSIXEYA

Erta tongda ufq qizarayotganda yirik, porloq yulduz yarqirab yonib turadi. Uning nuri devorda titraydi, devorga aylanuvchi dunyoda ko'rgan-kechirganlari haqidagi hikoyalarining suratini chizishga intilganday bo'ladi. Ana shu hikoyalardan birini eshitaylik.

- Yaqinda («bu yaqinda» yulduzlar uchun insonlar, hisobida bir necha yuz yil muqaddam bo'lib o'tgan voqeadir) mening shu'lam yoshgina bir rassom yigitni kuzatib qoldi; u papa poytaxti, jahonga mashhur Rim shahrida yasharkan. Garchi inson go'daklikdan qari kishiga aylanib qolishi sekin yuz berganday, davr sekin o'zgarsa-da, o'shandan buyon ko'p o'zgarishlar sodir bo'libdi. Imperator qasri o'shanda vayronaga aylangan edi; vayronalikka yuz tutgan marmar ustunlar va devorlari tilla suvi yogurtirib gul solingan yarim xaroba ko'shklar ustida anjir va dafna daraxtlari bo'y cho'zgandi. Kolizey ham xarobaga aylangandi. Biroq, cherkov qo'ng'iroqlari jaranglab turardi; buxo'r tutardi, ko'chalardan qo'llariga sham va soyabon ushlagan marosim qatnashchilari o'tishardi. Rim cherkov hashamatiga to'la shahar edi, lekin bu yerda san'at gullab-yashnar va e'zozlanar edi. Rimda jahonning mashhur rassomlari Rafael va dovrugi olamni tutgan haykaltarosh Mikelanjelo yashardi. Papa ularni

hurmatlar, huzurlariga tez-tez tashrif buyurib turardi. U paytda ham san'atni e'tirof etishar, e'zozlashar va taqdirlashardi. Albatta, barcha maqtovga loyiq san'at asarlari ham payqalavermas va taqdirlanmas edi.

Kichkinagina tor ko'chada eskigina bir uy bor, u ilgari ibodatxona bo'lgan ekan. Ana shu uyda kambag'al, uncha mashhur bo'limgan yoshgina bir haykaltarosh yigit yasharkan. Lekin uning do'stlari bor ekan, ular ham qalbi yosh, nuqul umid va olijanob fikrlar bilan yashaydigan yosh rassomlar ekan. Do'stlari unga sen zo'r iste'dod egasisan, lekin tentaksan, deyisharkan. Ammo o'zi buni aslo tan olmas ekan. Chindan ham u bitish arafasida turgan haykalini mayda-mayda qilib parchalab tashlar, hech qachon o'z ishidan mamnun bo'lmas, uni oxiriga yetkazmas ekan, vaholanki oxiriga yetkazish juda zarur ekan, bo'lmasa bu asarni kim payqab, tan olib, uning uchun pul to'laydi.

— Sen xayolparastsan! — deyisharkan unga do'stlari. — Sening baxtsizliging boisi ham shunda. Sen chinakamiga hayot kechirmaganing, hayotning achchiq-chuchugini totmaganing, hayot suvini yutoqib, to'yib ichmaganing tufayli shunday bo'lyapti. Yoshligingda hayot bilan omixta bo'lib ketishing kerak! Mana senga bir misol — jahoning mashhur rassomi Rafael; uni papaning o'zi hurmat qiladi, uning san'atiga butun jahon hayrat bilan boqyapti, u el qatori yeb-ichib yuribdi, hech narsani rad etmayapti!

— Hatto bulkafurush go'zal Fornarinadan ham yuz o'girmayapti! — debdi yoshlар kompaniyasining peshqadam hazilkashlaridan Anjelo.

Unga yana bir talay gaplarni aytishibdi. Ularni yoshlik o'zlarini nimalarga da'vat etayotganini aytishibdi, yosh rassomning aql va xohishini xushchaqchaqlik, sho'xlik girdobiga, hattoki tentaklikka tortishga intilisharkan. Ba'zan u xursandlik qilishga qarshi emas ekan. Uning qoni qaynoq, o'zi jo'shqin ekan, dasturxon atrofidagi suhbatlarga qo'shila olar, boshqalarga ko'ra yurakdan xandon tashlab kular ekan! Harholda Rafaelning

xushchaqchaq hayoti deb atalgan narsa uning uchun ulug' rassomning oldida qandaydir tutun va tumanga o'xshab ketarkan. U Vatikanda qadim zamonlarning san'atkorlari yaratgan marmar haykallarning o'chmas chiroyiga hang-mang bo'lib tikilganda ko'ngli junbishga kelarkan. Uning ko'ngli tog'day ko'tarilar, vujudiga kuch-qudrat to'lar, qalbini muqaddas bir olov yondirarkan! Ko'nglida marmardan ana shunday obrazlar yaratish niyati tug'ilarkan. U qalbining eng to'risidan samoga, abadiylikka ko'tariladigan tuyg'ularni marmarda mujassamlari tirishni istarkan. Biroq uni qanday, qanaqa shaklda yaratish mumkin? Yumshoq loy uning barmoqlari orasida ajoyib shakllarga kirar, biroq ertasi kuni ilgarigi odati bo'yicha, kecha yaratgan haykalini chilparchin qilib tashlarkan.

Kunlarning birida u son-sanoqsiz hashamatli Rim palatssolari yonidan o'tib, lang ochiq katta darvoza oldida to'xtabdi, hovli ichida naqshinkor arklar ortida xushbo'y gullar ochilib yotgan boqqa ko'zi tushibdi. Tip-tiniq suv to'ldirilgan marmar hovuzda ilonsimon o't-o'lalnarning ko'm-ko'k, yashnab turgan yaproqlari cho'milmoqda ekan. Hovuz oldida shu uy egasining yoshgina qizi paydo bo'libdi. Qiz o'zining nihoyatda latifligi, nozik va go'zalligi bilan bir qoshiq suv bilan yutib yuborgudek ekan! U umri bino bo'lib bunaqa bejirim qiz zotini ko'rмаган ekan! E, yo'q, Rim palatssolaridan birida Rafaelning suratida Psixeya obrazida ko'rgan, O'sha yerdagi suratda ayol bo'yoq bilan chizilgan ekan, bu yerda esa tirigini ko'ribdi.

Qiz uning qalbi va fikrida naqshlanib qolibdi; ko'rimsiz ustaxonasiga qaytib kelib, loydan zodagon yosh rimlik qiz - Psixeyaning haykalini yasay boshlabdi, birinchi marotaba o'z ishidan qanoat hosil qilibdi. Haykalda hayot nafasi barq ura boshlabdi; chunki bu o'sha ekan!

Do'stlari haykalni ko'rib, sevinchdan terilariga sig'may ketishibdi: bu asarda uning iste'dodi yaqqol namoyon bo'lgan ekan; hanuzgacha uning iste'dodini faqat ular tan olisharkan, endi esa butun jahon tan olarkan!

Loydan ham tirik, qaynoq tananing hissiyoti chiroyli chiqadi, lekin marmar singari tiniqlikka va pishiqlikka ega emas, Psixeya marmarda tirilishi kerak ekan, hatto rassomda ana shu qimmatbaho buyum bor ekan, hovlida ota-onasidan qolgan kattagina marmar bo'lagi yotarkan. U turli axlatlar, shisha siniqlari, sabzavot qoldiqlari bilan ko'milgan ekan: bularning hammasi marmarning tashqi tomonini ifoslantirib yuborgan, lekin ichi qorday oppoq ekan, undan Psixeya yaratilishi kerak!

Kunlarning birida – yulduz bu haqda hikoya qilmaydi, u bu hodisani ko'rмаган, lekin nima bolganini biz bilamiz – torgina qashshoq ko'chaga zodagonlar tashrif buyurishibdi. Bu yerga keluvchilar karetalarini uydan beriroqda qoldirib rassomning uyigacha piyoda borishibdi. Ular tasodifan og'izga tushib qolgan rassom yaratgan haykalni ko'rgani kelishgan ekan. Ular o'zi kim? Bechora yigit! Yoki yaxshisi: o'ta baxtiyor bola! Yigitning ustaxonasida bog'da ko'ringan o'sha yosh, go'zal turgan ekan! Otasi: «Le, anavi sening o'zing-ku, xuddi tirikday-al-deganda qiz shunaqayam shirin jilmayibdiki! Lekin bu jilmayishini, bu hayronlik ichida nigoh tashlashini ifodalashga til lol, qalam ojiz ekan!

– Psixeyani marmardan yasash kerak! – debdi zodagon kishi. Uning bu so'zlari jonsiz loyga va og'ir marmar toshga jon ato qilganday bo'libdi. Hayajonga tushgan rassomning-ku ahvolini so'ramang! – Haykal bitgandan keyin uni o'zim sotib olaman! – deb qo'shib qo'yibdi rimlik zodagon.

Qashshoq ustaxonada yangi davr boshlanganday bo'libdi; unda quvnoq hayot, ish qaynab ketibdi. Ishning oldinga qarab siljishini ko'rib charaqlagan tong yulduzi ham mahliyo bo'lib qolibdi. Qiz bu yerga kelib ketgandan buyon loyga ham jon kirganday bo'libdi, rassomning barmoqlari orasida istagan shaklga kiraveribdi, tanish, xushbichim qomat hosil bo'libdi. Hademay haykal yetuk go'zallik namunasi bo'lib charaqlab ketibdi.

– Yashash nimaligini endi bilaman! – deb quvonibdi rassom. – Bu – sevish, olijanoblik bilan mashg'ul bo'lish,

go'zallikdan zavqlanish demakdir! O'rtoqlarim hayot deb atagani g'irt yolg'on, daydib yuruvchi olomon ichidan chiqqan pufak, u insonni chinakam hayotga aralashtiruvchi musaffo, samoviy ichimlik emas!

Marmartosh kursi ustiga qo'yilibdi, rassom uni astasekin tarashlay boshlabdi. U marmarni o'lchab, nuqtalar qo'yibdi, bora-bora qo'polday tuyulgan ish bitibdi, tosh tirik inson qiyofasiga kira boshlabdi, yosh qizning ilohiy go'zal timsoli bunyodga kelibdi. Vazmin tosh havoda uchadigan, qanot qoqayotgan chiroyli Psixeyaga aylanibdi, uning tabassumi ham samoviy bo'lib, yosh haykaltaroshning qalbida abadiy naqshlanib qolibdi.

Bo'zarib turgan tong osmonida nur sochib turgan yulduz bularning hammasini ko'ribdi, yosh yigitning qalbida qanday tuyg'ular jo'sh urayotganidan ham xabardor bo'libdi, uning yuzi nima uchun naqsh olmaday qizarganini ham, marmarda xudo bandasini mujassamlashtirayotganda ko'zlar qanchaliq chaqnab ketganini ham uqibdi.

- Qadimiy yunonlar zamonida yashagan haykaltaroshlarday ulug' san'atkorsan, - deyishibdi qoyil qolgan do'stlari. - Hademay butun jahon Psixeyangga tahsin o'qib, hayratdan barmoq tishlaydi.

- Mening Psixeyamga-ya! - deb takrorlabdi u. - Mening Psixeyam! Ha, u meniki bo'lishi kerak! Men ham o'zimdan oldin o'tgan rassomlarday rassomman. Marhamatli parvardigor menga iste'dod ato qildi, o'z arzandasiday obro'yimni ko'tardi! Mening aslzoda kiborlardan qayerim kam?

U tiz cho'kib, ko'zida yosh bilan Ollo Taologa shukrona keltiribdi, keyin esa qizni, uning marmar haykali deb, go'yo qordan yasalgan va tong quyoshi shu'lesi qizartirib turgan Psixeyani deb bir zumga xudoni unutibdi.

Lekin u tirik, sohibjamol, latif qizni ko'rish, uning musiqaday muloyim ovozlarini eshitish arafasida turarkan! U hashamatli palatssoga borib, marmar Psixeya tayyor bo'lganini ma'lum qilishi kerak ekan. Yigit o'sha

yoqqa boribdi; u qasr bo'ylab delfinlar og'zidan <sup>suv</sup> quyilayotgan marmar hovuz yonidan o'tibdi; hammayoqda ilonsimon o'tlar va atirgullar o'sib yotgan mish; so'ng u keng, baland oldingi xonaga kiribdi. Uning devor va shiplariga turli suratlar va gerblarning naqshi tushirilgan mish. Yarim yalang'och xizmatkorlar karnaval paytidagi otlarday mag'rur, shildiroqlarini shildiratib, zinapoyalardan chiqib-tushib turishgan mish, ba'zilari erinchoqlik bilan o'ymakor o'rindiqlarda yonboshlab yotgan mish; go'yoki bu uyda uy egalari emas, ular xo'jayin! Yigit nima uchun kelganini ayтибди, uni gilam to'shalgan sip-silliq marmar zinapoyadan boshlab ketishibdi; zinaning har ikki tomonida haykallar qaqqayib turgan mish. So'ng yigit turli hashamatli suratlar bilan bezatilgan, gulkor farshli bir necha uydan o'tibdi. Bu hashamatlarni ko'rib allaqanday bo'lib ketibdi, nafasi qisibdi, lekin ko'p o'tmay u bu og'ir holatdan qutulibdi, o'zini erkin his qilibdi. Keksa boy uni juda iltifot bilan, qadrdon do'stlarday kutib olibdi, biroz suhbatlashgach, xonimning yoniga kirishni taklif qilibdi, chunki qiz rassomni ko'rishga mushtoq ekan-da. Xizmatkorlar uni yana hashamatli uylar va zallar orqali boshlab ketishibdi, mana, u xonimning xonasiga ham yetib bordi, xonaning birdan-bir bezagi qizning o'zi emish.

Qiz u bilan suhbatlashibdi, hech qanaqa «Miserere», hech qanday cherkov gimni qalbini bunchalik hayajonga solib, ostin-ustin qilib tashlolmas ekan! U qizning qo'llaridan ushlab o'pibdi, qo'llari shunaqayam muloyim, yumshoq emishki, uning oldida atirgulning gulbarglari ham ip esholmas ekan, biroq bu gulbarglardan xushbo'y hid emas, balki olov taralayotgan mish! Bu o't yosh yigitni omonsiz kuydiribdi, uni osmoni falakka ko'tarib yuborganday bo'libdi. Nima deyayotganini o'zi ham bilmay, qizga ko'ngil izhor qila boshlabdi. Vulqon og'zi erigan lavani uloqtirayotganini qayoqdan bilsin! Yigit qizga kuyib-yonib muhabbat izhor qilaveribdi. Qiz bo'lsa g'azabdan o'zini yo'qotib, mag'rur holda yigitga jirkanib

tikilibdi, kishi to'satdan ho'l baqaga tegib ketsa, qanday jirkansa, qiz rassomdan ana shunday jirkanibdi. Qizning yuzlari lovillab, lablari oqarib ketibdi, tundan ham qora ko'zlar g'azabda chaqnabdi.

- Tentak! - debdi qiz. - Yo'qol bu yerdan! Yo'qol! - shunday deb u teskari o'girilib olibdi. Uning xushro'y jamoli soch o'tniga ilon chiqqan mashhur tosh bosh qiyofasiga kiribdi.

Yigit ruhi tushgan, ko'zlar kirtaygan, nochor holda ko'chalarda daydib yuribdi. U uyiga yetib borgandagina o'ziga kelibdi, g'azabini hech tiya olmay, qo'liga bolg'ani olibdi va chiroyli marmar haykalni pachaqlab tashlamoq-chi bo'libdi. U orqasida do'sti Anjelo turganini payqamabdi. Anjelo uning qo'lidan ushlab qolibdi.

- Jinni bo'psani! Senga nima bo'ldi?

Olishuv boshlanibdi. Anjelo baquvvatroq ekan, shu vajdan yosh rassom yengilib, og'ir hansirab, o'zini stulga tashlabdi.

- Nima bo'ldi? - deb so'rashda davom etibdi Anjelo. - Hushingni yig'l Gapir!

U nima ham deya olardi? Nimani gapiradi? Uning palapartish, uzuq-yuluq gaplaridan Anjelo hech narsa tushunmabdi, qo'l siltab qo'yaveribdi.

- Hadeb o'y-sanoga berilaverganingdan qoning quyulib qolibdi! Sen ham bizga o'xshab odam bo'sang-chi, nuqul shirin orzular bilan yashama, bardosh berolmaysan. Bir-ikki qultum vino ich, rosa huzur qilib uxlaysan! Doktorlikka chiroylikkina bir qizni ol. Kampani qizlari juda xushro'y, marmar palatsso malikalaridan qolishmaydi; ular ham, bular ham Momo Havoning qizlari, jannatda ularni bir-biridan farqlay olmaysan. Yur men bilan. Seni har balodan saqlovchi farishtang bo'laman! Vaqt kelib qariysan, munkillab qolasan, manlarning birida charaqlagan quyoshli kunda hamma xursandchilik qilib yayraydi, sen bo'ssa ortiq o'sa olmaydigan, qurib qolgan cho'pday yerda yotasani! Paterlarning o'lganimizdan keyin go'yo bizni boshqa hayot

kutishi haqidagi gaplariga ishonmayman; bu shirin bir xayol, bolalarga yupatish uchun aytiladigan bir ertak xolos. Lekin men xayollarga berilmayman, men muhit bilan yashayman. Yur, men bilan! Sen ham odam bo'li!

Shunday qilib, u rassomni ergashtirib ketibdi; o'sha lahzada bu ish uning qo'lidan kelibdi: yosh haykaltaroshning qalbida o't yonibdi, ostan-ustun bo'lib, eski odatlaridan butunlay voz kechish istagi tobora kuchayibdi, dastlabki «men»ligidan ham yuz o'girmoqchi bo'libdi. Shuning uchun ham u Anjeloning etagidan tutibdi.

Rimning eng chekka joylaridan birida rassomlar yoqtiradigan oshxona bor ekan. U qadimiyo ko'shkning sog' qolgan qismiga joylashgan ekan. Ko'shkning eski pushtirang devorlari gurkirab o'sgan limon daraxtlan ortida ko'm-ko'k yaproqlar orasidan oltinday limonlar mo'ralab turarkan. Oshxona g'orni eslatuvchi gumbaz ostiga joylashgan ekan. Ichkarida sanam oldida chiroq yonib turarkan, shu yerning o'zida masalliqlarni qovurib, qaynatib pishirisharkan, bog'da, limon va dafna daraxtlan ostidagi salqin joyga bir necha stollar qo'yilgan ekan.

Do'stlar yangi kelganlarni quchoq ochib kutib olishibdi, xursandchilik avjiga chiqibdi. Biroz tamaddi qilishibdi, bu kishini xushvaqt qilib, sho'xligini oshirib yuborar ekan-da. Shu vajdan gitara chalib, ashula ayta boshlashibdi. Saltarella ovozi yangrabdi, raqs boshlanib ketibdi. Rassomlarga aslidan surat oldiruvchi ikkita yoshgina rimlik qiz raqs tushib aylana boshlabdi. Ikkalasi ham quling o'rgulsin qizlar ekan! To'g'ri, ular Psixeyaga o'xshamas, ular muloyim, chiroqli atirgul ham, chaman-chaman ochilgan, yashnab turgan chinigul ham emas ekan.

O'sha kuni biram isib ketibdiki, hatto quyosh botayotganda ham harorat pasaymabdi. Tomirlardagi qonda ham, havoda ham, o'tli nigohlarda ham olovnish. Havo oltin va gullar kuyayotgandaymish. Go'yoki hammaning hayoti oltin va gulga to'ladaymish!

- Biz bilan ham birga bo'ladigan kuning bor ekan-a!  
Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

- Men hech qachon o'zimni bunchalik bardam, xursand sezmag'anman! - debdi yosh rassom. - Sen haqsan, hammalarining haqsizlar: men xomxayol, ahmoq odam edim! Inson xomxayollar emas, balki chinakam hayot bandasi!

Yoshlar gitara jo'rлигida ashula aytishib oshxonadan chiqishibdi, shaharning tor ko'chalari bo'ylab jo'nashibdi: oqshom yorug', osmon yulduzlarga to'la ekan. Har ikkala chinigul, Kampani qizlari ularni kuzatishibdi.

Eskizlar, varaqlar, go'zallik va ilhomga to'la sahnani aks ettiruvchi suratlar qalashtirib tashlanibdi. Anjeloning xonasida bo'g'iq, lekin quvnoq va shodlik ovozları yangrabdi. Polga Kampani qizlari surati tushirilgan suratlar uloqtirilibdi; suratlardan hayot va go'zallik nafasi ufurib turganmish, lekin qizlarning o'zi suratdagilardan ham chiroqli emish. Olti shamli qandil lovillab yonar, uning yorug'ida qizlar butun go'zalliklari bilan namoyon bo'larkan; ularning qiyofasidan Olloning qiyofasi ko'rinishi.

«Apollon! Yuniter! Sizlar tomonga, osmonga parvoz qilaman, qalbimda hayot guli ochilayotganday bo'lyapti!»

Ha, gul ochilibdi... so'lib, kishini mast qiluvchi hid taratib to'zib ketibdi. Yuzi oqarib, fikrlari ayqash-uyqash bo'lib ketibdi. Tantanalar mushagi o'chib, qorong'ilik cho'kibdi.

U uyiga arang yetib olibdi, o'zini o'ringa tashlab, fikrlarini bir joyga yig'ishga urinibdi. Uying og'zidan va qalbining eng to'ridan: «Tuf! Tentak! Yo'qol bu yerdan! Yo'qol», - degan so'zlar otolib chiqibdi.

«Yo'qol bu yerdan! Yo'qol!» Tirik Psixeyaning bu so'zları uning qalbini ham, tilini ham tark etmabdi. U boshini yostiqqa tashlabdi, fikrlari chuvalashib ketibdi, ko'zi yumilib, uxlab qolibdi.

U sahar paytida uyg'onibdi, kechagi voqealarni xotirlay boshlabdi. Kecha o'zi nima bo'idi? Bularning hammasini

tushida ko'rmadimikin? Qizning og'ir gaplari, oshxonadagi ziyofat, gul yuzli Kampani qizlari bilan o'tkazilgan kecha ham tushmikin? Yo'q, bularning hammasi o'ngida bo'lgan, bu uning uchun yangi muhit edi.

Bo'zarayotgan osmonda porillagan yulduzlar charaqlabdi; uning nurlari haykaltaroshga va marmar Psixeyaga tushibdi. Ana shu o'lmas obrazga qarab turib, butun vujudi titrab ketibdi: nazarida o'zining iflos nigohi unga tikilishiga ortiq bardosh berolmayotgandaymish. U apil-tapil haykal ustiga choyshab tashlabdi, keyin uni olib, Psixeyani ochmoqchi bo'libdi, lekin o'zi yaratgan haykalga qarashga ortiq qurbi yetmabdi!

U bir necha kun qovog'ini solib, o'z xayollariga berilib o'tiraveribdi, atrofda nima gap – bu bilan ishi bo'lmabdi, uning ko'nglida qanday holat kechayotganini ham hech kim bilmabdi.

Kunlar ketidan kunlar, haftalar ketidan haftalar o'taveribdi; ayniqsa tunlar juda cho'zilib ketibdi. Kunlarning birida porloq yulduz shunday manzaraning guvohi bo'libdi: ranglari dokaday oqarib, bezgak tutganday titrab-qaqshagan holda o'rnidan sapchib turibdi, marmar haykal tomon yugurib boribdi. Haykal ustidan choyshabni yulqib tortibdi-da, o'zi yaratgan haykalga alamli nigoh tashlabdi, so'ng haykalni arang ko'tarib boqqa olib chiqibdi. Bog'da qurib qolgan chuqu quduq bor ekan, u o'z Psixeyasini quduq ichiga tushirib, ustidan tuproq tortibdi, yangi qabr ustini xashak va qichitqi o'tlar bilan yopibdi.

«Yo'qol bu yerdan! Yo'qol!» – Qabr ustida aytilgan nutq ham ana shunday qisqa bo'libdi.

Yulduz bu hodisalarni shafaqrang osmonda turib ko'ribdi, uning nurlari yosh haykaltaroshning ko'zidan dumalab tushgan ikki tomchida jilolanibdi. Yigit kasal bo'lib yotib qolganda, bezgakdan o'lar holatga yetibdi, degan gaplar tarqalibdi.

Monax og'a Ignatiy uning do'sti va tabibi ekan. U bemorning huzuriga kelib, ilohiy yupanch so'zlarini

aytibdi, dunyo, cherkov hadya etadigan baxt, insonlar gunohi, parvardigor marhamati, ana shu marhamat tufayli gunohlar yuvilib ketishi haqida gapiribdi.

Uning so'zlari yangigina haydalgan nam tuproqqa tushgan quyosh nurlari bo'libdi, yer ustidan bug' ko'tarilib, bulutlarga qachonlardir chin haqiqat bo'lgan xayoliy obrazlarga aylanibdi. Yigit bepoyon bo'shliqdagi samoviy sirg'anchiq ana shu bulut orollari ustidan pastga - odamlarning hayotiga nazar tashlabdi; bu hayot unga nuqul qalbaki, umidsizlik makoni bo'lib ko'rinishibdi! Eng o'tkir san'at bizning yerdagi puch shuhratparastlik gunohi sari undovchi jodugarga o'xshab ketibdi! Biz o'zimizga ham, do'stlarimizga ham, hatto xudoga ham yolg'on gapiramiz. Qalbimizga mahkam o'nashib olgan ilon hadeb: «Shuhrat nash'asini sur, sen ham xudoga o'xshab qolasan!» - deb ta'kidlaydi.

Endilikda u o'z holatini tushunganday bo'libdi, dunyoda haqiqat sari borish yo'lini bilib olibdi. Cherkovda yorqin ilohiy nur va porloq dunyo, monaxlar hujrasida esa osoyishtalik bor; faqat o'sha yerdagina inson umri daraxti boqiylik uchun o'sadi.

Og'a Ignatiy uning ko'nglidagi ana shu fikrlarni mustahkamlab qo'yibdi. Yorug' dunyo bolasi cherkov xizmatkori bo'libdi, yosh haykaltarosh yorug' dunyonidagi rad etib, monastirga ketibdi.

Qavmlar uni zo'r xursandlik bilan kutib olishibdi. Unga unvon berish ham zo'r tantanaga sababchi bo'libdi. Xudoysi taoloning o'zi ham shu yerda bo'lib, uni quyosh nurlari bilan yoritganday, payg'ambarlar va butlar shu'lesi bilan qurshab olganday bo'libdi. Nihoyat, u kechqurun kun botayotganda o'z hujrasidagi derazaning ro'parasida tik turib, qadimiylar Rimga, buzilib ketgan ibodatxonalarga, ulug'vor, lekin o'lik Kolizeyga nazar tashlabdi, bularning hammasini chaman-chaman ochilgan akatsiya gullari, baxmalsimon ko'm-ko'k maysazorlar, atirgullar, oltinrang apelsinlar, hashamatli yelpig'ichsimon xurmolar ichida ko'ribdi, qalbi ilgari hech his etmagan zo'r huzur-halovat,

rohatga to'lib-toshib ketganini bilibdi! Kaftda turganday ko'ringan osoyishta Kampani vodiysi xuddi osmoniga surati tushirilganday yarqiroq, usti qorlar bilan qoplangan tog'lar tomon cho'zilib ketibdi. Hamma go'zallik bilan nafas olayotgandaymish, hamma narsa shirin xayol bo'lib, ko'z oldidan o'ta boshlabdi, butun, olam xayolga aylanibdi!

Ha, olam xayolga aylangan edi, xayol kishini bir soat, ko'p bo'lsa ikki soat asir qilib turishi mumkin, keyin bir necha muddatga orqaga qaytishi mumkin, monastirdagi hayot uzoq-uzoq yillarga cho'zilishi mumkin!

U inson ichidan uni harom qiladigan ko'p narsa chiqishini tushunibdi! Shuncha vaqtan beri uning qalbini yoqib kelgan nima? Uning qarshiligiga qaramay, ichidan otolib chiqqan qanaqa yomonlik manbai ekan? U tanasini qancha savalamasin, yomonlik manbai tugamadi. Aqli uning vijdonini ilonday o'rab olishiga va u bilan birga tangri muhabbatni xilqati orasiga o'tmalab kirishiga nima majbur qildiykin? Qulog'iga kimningdir ovozi: «Avliyolar biz uchun ibodat qilishadi!» deb shivirladi. U go'daklik yoki yengiltaklik quvvatiga uchib, yuksak shafqat himoyasi ostiga o'tdimi, o'zini boshqa odamlardan yuqori deb bildimi? Axir, u tarkidunyochilik yo'liga qadam qo'yib, cherkov farzandi bo'lib qoldi-ku!

Oradan bir necha yil o'tgach, bir kuni u Anjelo bilan uchrashib qolibdi, u buni darhol tanibdi.

– Ana xolos! – debdi Anjelo. – Bu senmisan? Qalay, endi baxtlimisan? Sen xudo oldida gunohkorsan, u ato qilgan iste'dodni uloqtirib, o'z qobiliyatningni xarob qilding! Ishonib berilgan iste'dod haqidagi hikoyalarni o'qi! Uni hikoya qilib bergen ustoz dunyoga haqiqat keltirdi! Xo'sh, sen nimaga erishding? O'zingga bekorchi xayolparast hayotini yaratmadingmikan? Barcha monaxlar singari o'zingga o'zing xususiy din yaratmadingmikan? Bularning hammasi nuqlu xayol, ro'yo, go'zal safsatalar bo'lsa-chi?

– Nari tur mendan, shayton! – debdi monax va Anjelodan uzoqlashibdi. – U shaytonning o'zginasi. Bugun uni o'z ko'zim bilan ko'rdim! – deb shivirlabdi monax.

Bir kuni unga barmog'imi uzatsam, qo'limni bor bo'yicha ushlab oldi! Yo'q! – deb xo'rsinibdi u. – Yuragida kiri bor! Anavi odam ham yomon, lekin u yomonligi yukidan yiqlimayapti, boshini baland ko'tarib yuribdi, baxtiyor! Men bo'lsa o'zimni o'zim din bilan ovutib, baxt izlaysapman!.. Bordiyu, bu behuda yupanch bo'lsa-chi? Bu ham oldin voz kechganlarim singari chiroyli safsata, oqshomgi qizg'ish bulutlar go'zalligiday yolg'onning o'zi bo'lsa-chi, unda nima bo'ladi? Axir, yaqindan hamma narsa boshqacha bo'lib ko'rindi-da. O, boqiylik! Sen ulug', cheksiz, osoyishta okeanday ishlaysan, huzuringga chaqirasan, qalbimizni oldindan sezish hissiga to'dirasan, yaqiningga borganda esa, ehtimol, okean qa'rige cho'kib ketasan, yo'qolasan, o'lasan... Yashashdan to'xtaysan! Yolg'on! Yo'qol! Yo'qol!

U o'zining hujrasida bir tomchi ko'zyoshsiz, xayollarga berilib tiz cho'kyapti! Devorga o'yilgan, toshdan yasalgan Iso suratigami? Yo'q, faqat odati uni tiz cho'kishga majbur etibdi.

U qalbiga qanchalik chuqur nazar tashlasa, shunchalik qorong'i bo'lib ko'riniibdi; ichkari ham, tashqari ham bo'mbo'sh emish! «Umrimni behudagi xarob qildim!» Uylari qu-yilib kelaveribdi, go'yoki qor bo'lagiday o'sib, uni ezg'ilab, yer yuzidan surib tashlabdi. «Qalbimni kemirayotgan bu qurtni hech kimga ochib ko'rsata olmayman! Mening sirim – mening asirim; uni oshkor qilsam, men uning asiri bo'lib qolaman!»

Uning vujudida kichkinagina ilohiy ruh azoblanishda, kurashishda davom etibdi.

– Ey Xudo! – deb iltijo qilibdi u umidsizlikda. – Menga rahming kelsin, imonimni salomat saqla! Men sen bergen iste'dodni – o'z iste'dodimni tuproq ostiga ko'mdim. Mening qurbim yetmadi, ana shu qurbni menga bermading. Boqiy Psixeya qalbimda... Yo'qol! Yo'qol! Uni ham hayotimning eng yaxshi shu'lesi kabi tuproqqa qo'yishadi! U o'z qabridan hech qachon bosh ko'tarib chiqmaydi!

Qizg'ish osmonda yulduz charaqlabdi. Bir vaqt kelib u ham so'nadi, yo'qoladi, lekin uning ruhi hamisha yashaydi va nur sochadi! Yulduzning titroq nuri oq devorga tushibdi, lekin devorga xudoning dinga ishonuvchi har bir qalbda ovozi yangrab turgan ulug'vorligi marhamati va muhabbati haqida hech narsa chizmabdi.

— Yo'q, Psixeya shu yerda, u dilimda, u hech qachon o'lmaydi!.. Hamma narsani tushunib yashash kerakmi? Aqlga sig'maydigan narsa ro'yobga chiqarmikan? Ha, hal Aqlga sig'maydigan narsa — bu mening «men»ligin! Sen ham aqlga sig'maysan, Xudoyim! Sen yaratgan olamga tushunib bo'lmaydi! U karomating kuchi, savlating va muhabbatting!

Uning ko'zlari bir charaqlab, so'ng abadiy so'nibdi. Qo'ng'iroqlar sadosi uni qabrga uzatibdi. Uni Quddusi Sharifdan keltirilgan va xudojo'y odamlar xoki aralashtirilgan yerdan qabr kavlab dafn qilishibdi.

Oradan bir necha yil o'tgach, olamdan o'tgan monaxlarning suyagini olganday, uning suyagini ham olishibdi. Uni qora jubbaga o'rashibdi, qo'llariga tasbeh taqishibdi, uni monaxlar qabristonidan topilgan odam suyaklaridan yasalgan tokchaga tikka qilib qo'yishibdi. O'sha yerga quyosh nur sochib, isiriqning xushbo'y hidi, ibodat qilayotganlarning tovushi kelib turibdi.

Yana ko'p yillar o'tibdi.

Skelet suyaklari chirib, ezilib ketibdi. Bosh chanoqlarini yig'ishtirishib, bir qatorga terishibdi, bosh chanoqlari cherkov atrofida o'ziga xos devor hosil qilibdi. Olov purkayotgan quyosh nuri ostida boshqa bosh chanoqlar qatorida haykaltaroshniki ham yotibdi; bu bosh chanoqlarining son-sanog'i yo'q ekan, lekin ular kimi larning bosh chanoqlari ekanligi noma'lum ekan. Kunlarning birida quyosh nur sochib turgan paytda bosh chanog'i ko'z kosasida tirik bir narsa qimirlab qolibdi. Bu o'zi nima? Bosh chanog'i ichiga olachipor kaltakesak kirib olib, har ikki ko'z kosasiga kirib-chiqib turgan ekan. Shunday qilib, bu boshda — bir vaqtlar ulug'fikrlar javlon

urgan, yorqin fikrlar porlagan, san'atga, barcha go'zallikka mehr-muhabbat ortgan, abadiylik umidi yashagan, qaynoq ko'zyoshlari tomchilagan boshda yana hayot paydo bo'libdi. Kaltakesak bir sakrabdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi, bosh chanog'i to'kilib, tuproqqa qo'shilib ketibdi. Oradan bir necha yuz yil o'tibdi. Porloq yulduz hamon porlaganicha nur sochaveribdi. Bundan ming yil avval qanday bo'lsa, shunday emish. Osmon hamon atirgulday qizg'ish, qonday qip-qizil nur taratib turganmish.

Bir vaqtlar tor ko'cha o'tgan, ibodatxona xarobalari bolgan joyda hozir katta maydon bor, o'sha yerda qizlar monastiri qad ko'targan ekan. Yoshgina monax qiz o'lib qolibdi, bog' ichidan unga qabr kavlashibdi, o'sha kuni ertalab uni joyiga qo'yimoqchi bo'lishibdi. To'satdan qarashsa, oq marmar ko'rinishi; marmarning insonniki singari yelkasi bormish, hademay qoli ham ko'rinishi. Ehtiyyotlik bilan chuqurni kavlasha boshlashibdi, chuqurdan ayol boshi, keyin kapalak qanoti ko'rinishi. Yosh monax qizni qo'yishmoqchi bo'lgan qabrdan ertalabki tong shafag'i nurida marmardan ishlangan go'zal Psixeyaning haykalini tortib olishibdi. «Naqadar chiroyliya! Naqadar mukammallik! Eng yaxshi zamon yodgorliklaridan! – deyishibdi odamlar. – Buni kim yaratgan ekan-a?» Buni ming yillardan beri porlab turgan yulduzlardan boshqa hech kim bilmasdi. Faqat ana shu yulduzgina Psixeyani yaratgan odamning yerdagi hayotidan, saboqlaridan, ojizligidan, inson qadr-qimmatiga e'tiqodidan xabardor bo'lgan. Haykaltaroshning chirik tanasi tuproqqa aylanib ketdi, lekin uning qalbidagi ilohiy uchqunni o'zida jo qilgan intilishlari samarasini bo'lmish Psixeya saqlanib qoldi. U hech qachon o'lmaydi, u o'zini yaratgan odam xotirasidan ham ko'p yashaydi, u yerda ijodkorining o'lmas qalbi bo'lib xizmat qiladi. Mana, uni topib olishdi, qadrlashdi va e'zozlashdi.

Erta tongda qizg'ish osmonda porlagan yulduz o'zining titroq nuri bilan Psixeyani cho'miltirmoqda, marmardan yasalgan haykalga qaragan tomoshabinlarning unsiz

kulib turgan lablari va charaqlagan ko'zlariga shu<sup>la</sup>  
sochmoqda.

Yerdag'i hamma narsa tuproqqa aylanadi, unutiladi.  
Uni faqat yulduz xotirlaydi, chunki u intihosiz  
zamonlarning guvohi, harholda samo yulduzi o'zi  
porlaydi, xotiralarda yashaydi. Lekin bu xotira ham bir  
kun borib so'nishi mumkin, lekin Psixeya esa abadilay  
yashaydi.

## OLTIN BOLA

Nog'orachining xotini cherkovda bo'lib, turli surat va  
o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan yangi mehrobga  
tikilibdi. Naqshlar judayam chiroylimish! Matoga surati  
tushirilgan bosh tegrasidagi zarrin naqshlar ham,  
yog'ochdan o'yib yasalgan, so'ng ustidan oltin suvi  
yuritilan o'yma naqshlar ham o'ta chiroylimish. Suratdagi  
tillarang soch quyosh nurida oltinday tovlanarmish;  
chiroyi ta'rifga sig'masmish! lekin quyosh nurlari undan  
ham chiroylimish! Botayotgan quyoshning qoramtil  
daraxtlar orasidan taralayotgan nurlariga havasi  
kelarmish! Hammasidan ham parvardigorning jamoliga  
tikilish huzurmish! Nog'orachining xotini qizg'ish  
quyoshga boqarkan, xayoliga yaqinda ko'r radigan farzandi  
kelibdi. Ayol chaqaloq tug'ilishini zo'r xursandchilik bilan  
orziqib kutarkan. Quyoshga tikilib turib, uning porloq  
nuri tug'iladigan bolasiga o'tib qolishini orzu qilibdi; hech  
bo'lmasa bolasi mehrobda porlab turgan naqshlardan  
biriga o'xshab qolishini xohlabdi!

Buni qarangki, ayolning oy-kuni yetib, ko'zi yoribdi.  
Chaqalog'ini bag'riga bosgancha otasiga ko'rsatish uchun  
baland ko'taribdi, chindan ham bolaning sochlari  
tillarangmish, xuddi botayotgan quyosh shafag'iday qip-  
qizilmish.

— Oltin bolam, boyligim, quyoshim! — deb suyibdi ona  
bolasini va jingalak sochlardan o'pibdi.

Nog'orachining uyida musiqa yangraganday bo'lib ketibdi, ashula, shod-u xurramlik, shovqin-suron avjga minibdi! Nog'orachi nogorani chunon taraqlatib chalibdiki, asti qo'yavering! Nog'ora ham katta yong'in bo'lganda chalinadigan nog'ora ekan-da. Uning gumburlashidan: «Oltin soch! Bolaning sochi qip-qizil! Onasining emas, nog'oraning tak-a-tumiga qulq sol! Tak-taka, tum-tum!, degan ma'noni uqish mumkin ekan.

Butun shahar ahli ham shu gapni takrorlabdi.

Bolani cherkovga olib borib cho'qintirishibdi. Peter deb ism qo'yishibdi. Butun shahar ham, nog'ora ham uni nog'orachining oltin soch Peteri deb atabdi, lekin onasi uning tillarang sochlaridan o'pib, oltin bola deb atabdi.

Yo'l bo'yidagi qiyalikka ko'pgina ismlar chizib yozilgan ekan.

- Buning ham biror ma'nosi bo'lsa kerak! - debdi nog'orachi va o'zi bilan o'g'lining ismini o'sha yerga yozib qo'yibdi.

Qaldirg'ochlar uchib kelibdi, ular o'z sayohatlarida qoyatoshlarga va Hindistonidagi ibodatxonalar devorlariga o'yib yozilgan yozuvlarni ko'rishgan ekan. Bu yozuvlar qudratli, mashhur podsholar haqida xabar berar ekan, lekin ular juda qadim zamonlarda o'tgani uchun bu barhayot ismlarni o'qib ham, aytib ham bo'lmas ekan.

Mashhur nom! Bu shon-sharaf!

Qaldirg'ochlar ana shu qiyalik tuprog'ini o'yib, o'zlariga uya qurishibdi. Qiyalikka yozilgan ismlarning o'chib ketishiga yomg'ir va shamol ham ozmi-ko'pmi sabab bo'libdi. Ko'p o'tmay nog'orachining ham, Peterning ham nomi o'chib ketibdi.

- Har qalay, Peterning ismi bir yarim yilcha turdi! - debdi otasi.

«Ahmoq!» - deb ko'nglidan o'tkazibdi yong'inda chalinadigan nog'ora. - Taka-taka, tum-tum-tum!»

Nog'orachining oltin soch o'g'li «Peter ancha tetik, quvnoq bola ekan. Hammadan ham ovozi zo'r ekan. U ashula aytishni qoyillatarkan, kuylashi o'rmon

qushlarining sayrashiga o'xshab ketarkan. U hech qanaqa  
ohangni bilmasa-da, ashula aytganda kuy  
chiqaraverarkan.

– O'g'lim ashulachi bo'ladi! – debdi onasi. – U cherkovda  
kuylaydi, o'zi juda o'xshab ketgan zarrin naqshlar oldida  
turadi!

– Malla mushuk! – deyisharkan shaharning  
hazilkashlari. Nog'ora bu gapni qo'ni-qo'shnilar og'zidan  
ham eshitarkan.

– Peter, uyga bormal – deb qichqirisharkan ko'cha  
bolalari. – Chordoqda yotib qolsang uyning yuqori qavati  
yonib ketadi. Yong'inda chalinadigan nog'oralaringga ish  
ortadi!

– Nog'ora cho'pidan ehtiyyot bo'ling! – derkan Peter, yosh  
bo'lsa ham bolalarning oldiga dadil borib, birinchi  
o'girilganining qorniga musht tushirganda oyogi  
osmondan bo'lib yiqilarkan, buni ko'rgan boshqalari esa  
juftakni rostlab qolishar ekan.

Bir vaqtlar saroy oshpazi bo'lgan kishining o'g'li,  
shaharning musiqachisi, dimog'dor va mashhur odam  
Peterga alohida mehr qo'yibdi. Uni tez-tez o'z huzuriga  
chaqirarkan-da, qo'liga g'ijjak tutqizib, chalishni o'rgatar  
ekan. Bolaning qo'llari gul ekan, undan oddiy  
nog'orachidan ko'ta durustroq shahar mashshog'i chiqishi  
aniq sezilib qolibdi.

Peterning o'zi esa:

– Men askar bo'laman! – debdi.

U hali yosh bola bo'lgani uchun ham mundir kiyib,  
qilich taqib, bir-ikki, bir-ikki deb qadam tashlab yurish  
dunyoda eng ma'qul ish, deb bilarkan-da!

– Nog'ora sadosiga qarab qadam tashlashni o'rganasan!  
Tram-tam-ta-tam! – debdi nog'ora.

– Ishqilib, o'g'lim generallikkacha ko'tarilsin-da, – debdi  
otasi. – Unda urush bo'lishi kerak!

– Xudo saqlasini! – debdi onasi.

– Biz hech narsa yutqazmaymiz! – debdi otasi.

– Bolamiz-chi? – deb e'tiroz bildiribdi xotini.

- O'zing o'yla, o'g'liz urushdan general bo'lib qaytsa-chi?

- Qolsiz, oyoqsiz bo'lib-al Yo'q, yaxshisi, mening oltin bolam soppa-sog' qolsin.

«Tram-tam-ta-tam!» – deb gumburlabdi yong'inda chalinadigan nog'ora, boshqa nog'oralar ham chalinibdi; urush boshlanibdi. Askarlar urushga jo'nabdi, ular bilan birga nog'orachining o'g'li, malla kokilli, oltin bola Peter ham ketibdi. Onasi yig'i-sig'i qilibdi, otasi esa o'g'lining timsolida mashhur odamni ko'ribdi; shahar musiqachisi, Peter urushga bormasdan, san'at uyida xizmat qilishi kerak edi, degan fikrni aytibdi.

Bordiyu, askarlar «Malla kokil» deyishsa, Peter kulib qo'ya qolarkan, bordiyu, biror kimsa «tulki terisi» deb qolsa bormi, u lablarini tishlab, azbaroyi g'azabi qaynaganidan bunday gaplarni eshitsa ham eshitmaganga olarkan.

– Bola sho'x, to'g'riso'z, xushchaqchaq ekan, o'zidan katta odamlar «quvnoq tabiatlik – eng yaxshi safar suvdoni» deyisharkan.

Ko'pincha u tunlarni ham tashqarida o'tkazishga majbur ekan, shunday paytlarda yomg'irda ho'l bo'lsa ham, lekin xursandchilikni tark etmas, hamisha uning nog'ora cho'plari «Tram-tam, ta-tam! Safargal» deb turarkan. Chindan ham u nog'orachilikka tug'ilgan ekan.

Jang bo'ladigan kun ham yetib kelibdi. Quyosh yuz ko'rsatmagan bo'lsa-da, tong otgan ekan. Havo salqin, lekin jang qizg'in ekan. Hammayoqqa qalin tuman tushibdi, lekin o'q dori tutunlari undan ham qalinlashib ketibdi. O'qlar va granatalar odamlar boshi ustidan guvillab o'tibdi, ba'zilari boshlarga, tanaga, qol-oyoqlarga tegibdi, ammo askarlar olg'a intilishaveribdi. Goh u, goh bu askar o'q yeb, bo'rday oqarib yerga qulayveribdi. Lekin yosh nog'orachining rangi oqarmabdi, unga o'q tegmabdi. Go'yo u tevarak-atrofda o'yin bo'layotganday, zambarak o'qlari shu o'rinda dumalayotgan to'plarday oldingi marrada bemalol sakrab yurgan polk itiga tikilib o'tiraveribdi.

«Marsh! Olg‘al!» Bu buyruqni berish nog‘oraga yukianibdi, bunaqa buyruqni bajarmaslikning iloji yo‘q, ammo shu payt bajarmaslikka to‘g‘ri kelib qolibdi – aql amr berib qolibdi! Mana, jangni to‘xtatish haqida buyruq bo‘libdi, ammo yosh nog‘orachi buni tushunmay, hadeb «Marsh! Olg‘al!» ma’nosida nog‘orani gumburlataveribdi. Askarlar nog‘ora sadosiga bo‘ysunishibdi. Ha, nog‘oraga ko‘p kuch sarflabdi, lekin chekinayotganlarga yana kuch-qudrat bag‘ishlabdi.

Jangda ko‘plar halok bo‘libdi; granatalar odamlarning tanasini ilma-teshik qilib yuboribdi, bir necha soatga, balki bir umrga tark etilgan yarador jangchilar yotgan poxollarga o‘t qo‘yib yuborishibdi! Bunaqangi dahshatni o‘ylashdan nima foyda? Harholda ular haqida jang maydonidan ancha narida osoyishta shaharlarda ham bosh qotiriladi. Nog‘orachi xotini bilan jang haqida bir daqiqa bo‘sin o‘ylashni bas qilmabdi; axir ularning Peteri urushda-da!

– Hadeb zorlanishlar ham jonga tegdi! – debdi yong‘in paytida chalinadigan nog‘ora.

Jangning yettinchi kuni ekan. Quyosh yuz ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, tong otgan ekan. Nog‘orachi xotini bilan uxbab yotarkan, ular bir kun ilgari o‘g‘illari xususida gaplashib o‘tirishib, ancha vaqtgacha uplashmagan ekan, axir u jang maydonida, «Xudoning panohida». Nog‘orachi tush ko‘ribdi, tushida urush tamom bo‘lganmish, askarlar uylariga qaytishibdi. Peter ko‘ksida kumush xoch bilan qaytibdi. Onasi ham tush ko‘ribdi, tushida cherkovda turganmish, o‘yib ishlangan surati matoga tushirilgan jingalak sochi oltinrang bolalarni, ular orasida o‘zining oltin bolasini ko‘ribdi. U oq kiyimdamish, farishtalardan ham o‘ta muloyim ovozda kuylayotganmish! Keyin u farishtalar bilan osmon-u falakka, quyosh tomonga ko‘tarilibdi. Ko‘tarilarkan, onasiga mehribonlik bilan bosh irgabdi...

– Oltin bolaginam! – qichqiribdi onasi va uyg‘onib ketibdi. – Demak, Ollo Taolo uni o‘z dargohiga chaqiribdil!

- shunday deb, ayol boshini chodirga tirab, qollarini qovushtirib, yig'lab yuboribdi. - O'g'lim qayerlarda yotibdiykin? Hamma uchun qazilgan umumiy qabrdamikin? Ehtimol, chuqur botqoqlikdadir! Uning qabrini hech kim bilmaydi! hech kim uning qabri ustida duo o'qimadi. Ayolning og'zidan unsiz «Xudoyim» degan so'z chiqib ketibdi. Keyin boshi yostiqqa shilq etib tushibdi-da, charchoqlikdan mudrab ketibdi.

Kunlar shu zaylda o'taveribdi; hayot esa o'z yo'lida davom etaveribdi.

Kech kira boshlabdi, uning bir uchi o'rmonda, boshqa uchi botqoqda emish. Xalq naqliga ko'ra, kamalakning uchi qayerga tegsa, o'sha yerda xazina, oltin ko'milgan bo'ladi. Bu yerda chindan ham oltin – oltin bola yotar ekan. Yosh nog'orachi hech kimning xayoliga kelmas ekan, faqatgina onasining xayolidan o'tgani uchun tushiga kirgan ekan.

Kunlar o'taveribdi; hayot o'z yo'lida davom etaveribdi.

Ammo bolaning boshidagi tillarang kokilidan bir tola ham to'kilmabdi!

Bordiyu, o'g'lining qaytishini kutsa yoki uning qaytayotganini tushida ko'rsa, «Tram-ta-ta-tam, mana, o'zi ham!» – deb nog'ora aytsa, onasi kuylashi mumkin ekan.

Askarlar qo'shiq aytishib, «ura» deb qichqirishib, maysalarga ko'milishib uylariga qaytishibdi. Urush tugab, sulu tuzilibdi. Polk iti esa hammadan oldin chopib, katta-katta doiralar hosil qilib, shu bilan o'z yo'lini uch hissa ko'paytirayotganday bo'libdi.

Kunlar, haftalar o'tibdi va nihoyat Peter ham ota-onasining qoshiga kirib kelibdi. U rosa qoraygan bo'lsa-da, lekin yuz-ko'zları charaqlab turganmish. Onasi uni bag'riga bosib lablaridan, yuz-ko'zlaridan, tillarang sochlardan o'pibdi. Nihoyat farzandi o'z quchog'ida! U otasining tushiga kirganidek kumush xoch taqib ham emas, onasining tushiga kirganiday ham emas, balki sog'-salomat qaytibdi. Rosa xursandchilik bo'libdi! Hammalari

ham kulishibdi, ham yig'lashibdi. Peter hatto eski nog'orasini ham quchoqlab olibdi.

– Haliyam shu yerdamisan, oqsoqol! – debdi u, otasi esa nog'orani rosa gumburlatib chalib yuboribdi.

– Xuddi uyida yong'in chiqqanday chaladi-ya! – debdi nog'ora. – Kokili cho'g'day, yuragi ham o't-olov, oltin bola qaytib keldi! Tak-taka-tum!

Xo'sh, keyinchi? Keyin nima bo'ldi? Buni shahar musiqachisidan so'ra.

– Peter nog'oradan ham o'zib ketdi! Peter meni ham ortda qoldiradi! – debdi u. – Musiqachi bekorga saroy bufetchisining o'gli deysanmi. Bu bejiz emas!

U butun umrida o'rganganini Peter yarim yilda o'rganibdi.

Nog'orachining o'g'lida allaqanday samimiylik, sofkillik bor ekan. Uning yuz-ko'zлari charaqlab turar, buni hech kim inkor qilolmas ekan.

– U sochlarni bo'yatganda durust bo'larmidi! – debdi qo'shnisi. – Politsmeysterning qizi sochini boplab bo'yadiyu kelinchak bo'ldi-qoldi!

– To'g'ri-ku, keyin uning sochlari xuddi balchiqqa o'xshab ko'karib ketdi-da, shuning uchun u sochini doim bo'yab yurishi kerak!

– Xo'sh, nima bo'pti! Mablag'i soch bo'yashga bemalol yetadi! – debdi qo'shni ayol. – Peterning mablag'i ham o'ziga yetarli! U eng zodagon oiladan chiqqanga, hatto burgomistrning o'ziga o'xshaydi. U Lotta xonimni fortepyano chalishga o'rgatyapti!

Ha, u qoyillatib chalarkan! Butun ehtirosi bilan chalarkan, uning barmoqlari ostidan hech qanday nota qog'ozida bo'limgan ajoyib kuylar taralarkan. U butun tun bo'yi – xoh qorong'i, xoh yorug' bo'lsin, musiqa chalib chiqarkan. Qo'shnilar va nog'oraning aytishiga qaraganda, bunga bardosh qilib bo'lmas ekan.

U kuy chalar, xayollari uni baland-balndlarga parvoz qildirar, boshida ajoyib rejalar charx urarkan. Shuhrat!

Burgomistrning qizi Lotta fortepyano yonida o'tirarkan. Uning nozik, muloyim barmoqlari klavishlar ustida o'ynar, Peterning qalb torlarini chertar ekan. Nazarida yuragi kattalashib, qalbiga sig'mayotganday bolarkan. Bu holat bir necha bor takrorlanibdi, kunlarning birida Peter o'sha nozik, muloyim barmoqlarni ushlab o'pibdi, qizning shahlo qo'yko'zlariga tikilibdi. Bu payt qizga nima deganini xudo biladi! Bizning sal-pal fahmimiz yetadi, xolos. Lotta quloqlarigacha qizarib ketibdi, lekin hech nima demabdi, chunki shu payt xonaga begona odam – yurt maslahatchisining o'g'li kirib qolibdi; uning keng peshanasi gardaniga ularashib ketganday ekan. Peter ular bilan uzoq o'tiribdi va Lotta unga hamon muloyim tabassum qilarmish.

U kechqurun uyga kelib, begona yurtlar, g'ijjagida yashirinib yotgan o'ziga tegishli xazina haqida gapiribdi.

Shuhrat!

«Tram-tam-tam-tam! – debdi nog'ora. – U aqldan ozibdi. Uy ichida yong'in boshlanganday-a!» Ertasi kuni onasi bozorga boribdi.

– Yangilikdan xabaring bormi, Peter? – debdi u bozordan qaytgach. – Ajoyib yangilik! Burgomistrning qizi Lotta kecha yurt maslahatchisining o'g'liga unashtirilibdi!

– Bo'lishi mumkin emas! – debdi stuldan sakrab turarkan Peter. Lekin onasi bu gap rost, debdi. Bu xabarni u martaroshning xotinidan eshitibdi: ayolning eri esa unashtirish bo'lib o'tganini burgomistrning o'zidan eshitibdi.

Peterning rangi dokaday oqarib ketibdi, stulga behol o'tirib qolibdi.

– E Xudoyim! Senga nima bo'ldi? – deb xitob qilibdi onasi.

– Hech nima, hech nima! Faqat meni o'z holimga qo'y! – debdi u, ko'zlaridan marjon-marjon yosh oqibdi.

– Erkatoyim! Oltin bolam! – debdi onasi va bolasiga qo'shilib yig'labdi, nog'ora esa dimog'ida o'zicha: «Mana, qo'shiq ham tugadil!» deb kuylabdi.

Ammo qo'shiq tugamagandi: uning hali talay bandlari, ajoyib, oltinga teng baytlari bor edi.

— Anavining kerilishini qaranglar! — debdi qo'shnisi. — Butun olam uning oltin bolasi maktublarini o'qishi, o'g'li hamda uning g'ijjagi haqida gazetalar nimalar yozganini eshitishi kerakmish. O'g'li unga tez-tez mo'maygina pul ham yuborib turibdi, axir unga pul kerak-da, hozir u tul bo'lib qolgan!

— U qirol va imperatorlar oldida musiqa chaladil — debdi shahar musiqachisi. — Men ana shunday sharafga muyassar bo'lommadim, lekin u mening shogirdim, keksa ustozini unutmaydi.

— Bir vaqtlar otasining tushida Peter kumush xoch taqib uyga qaytgan ekan, lekin urushda uni olish amrimaholl Hozir unda komandor xochi bor! Otasi tirik bo'lganda rosa quvonardi-dal! — debdi onasi.

— U mashhur odam! — deb gumburlabdi nog'ora. Jonajon shahri esa yog'och kavushda chopqillab yurgan malla Peter, nog'orachining o'g'li, sobiq nog'orachi, turli kechalarda musiqa chalgan musiqachi — mashhur odam deb takrorlabdi.

— U qirol saroyidan ham oldin o'zimiznikida musiqa chalgan, — debdi burgomistrning xotini. — O'sha paytlarda u Lottamizga oshiq-u beqaror edi. U hamisha baland-parvoz edi! Lekin o'sha paytlarda uning bu qilig'i qo'pollik sanalardil! Erim bu qo'polligini bilib rosa kulgandi. Endi esa bizning Lottamiz yurt maslahatchisil!

Chekinayotganlarni olg'a da'vat etib, zafarga yor etgan sobiq yosh nog'orachi bo'lmish kambag'al bolaning qalbi ham, o'zi ham bebahoh ekan.

Uning ko'ksida ado bo'lmas tovushlar manbai — oltin xazina bor ekan. Ana shu tovushlar go'yo bir butun jism-u jondan quyilganday g'ijjak torlaridan kuylar, ana shu torlarda yoz tunlari elflar raqsga tushganday bo'larkan. Shuning uchun ham tinglovchilar unga maftun bo'lishar, shuning uchun ham uning shuhrati o'z mamlakati tashqarisida ham dovrug' taratgan ekan.

U qalblarda o't-olov yondirar, zavq-shavq yong'inini paydo qilarkan.

- Naqadar kelishgan yigit! – deyisharkan yosh-u qari xonimlar. Xonimlardan eng keksasi, hatto yosh g'ijjakchining soch tolalarini solish uchun mashhur kokil albomi ham tutibdi.

Nihoyat g'ijjakchi shahzodalarday kiyinib, qirollarday baxtiyor bo'lib, nog'orachining faqir kulbasiga qaytibdi! Uning yuz-ko'zлari quyoshtay charaqlab turganmish. Onasi uni o'pib, xursandligidan yig'lab yuboribdi, u o'g'lini bag'rige bosgancha boshi bilan qadrdon anjomlarga: piyola va gul solingan stakan turgan sandiqqa, o'zi bolaligidagi yotgan yog'och o'rindiqqa ishora qilibdi. Peter keksa nog'orani uy o'rtasiga olib chiqib qo'yibdi-da, shunday debdi:

- Otam bo'lganda hozir rosa gumburlatib chalardil! Otam uchun men chala qolay! – u nog'orani shunaqayam gumburlatib chalibdiki, hammayoq larzaga kelibdi. Nog'oraga yigitning bu qiligi juda ma'qil tushib, quvonganidan yorilib ketibdi.

- Mushtlari xo'b baquvvat-dal – debdi nog'ora. – Endi bir umrga undan esdalik bo'lib qoldi bul!

Onasi ham oltin bolasiga qarab terisiga sig'masmish.

Oltin bola haqidagi qissa ana shundan iborat ekan.

## DARBONNING O'G'LI

Generalning oilasi bolaxonada, darbonning oilasi esa yerto'lada yashar ean. Ularni bir-biridan katta oralik – birinchi qavat hamda mansab darajasi ajratib turar ekan. Baribir ikkala oila ham bir tom tagida yashar, har ikkala xonadonning derazalaridan ko'cha, hovli manzarasi ko'rinib turarkan. Hovlida o'tloq joy bo'lib, u yerda gulga ko'milgan akatsiya daraxti o'sarkan. Gul mavsumi ekan-da. Daraxt tagida yoz kunlari yasangan enaga bilan undan ham ortiqroq yasangan generalning qizi «jajji Emiliya»

o'tirarkan. Ularning qarshisida yalangyoyq, qorako'z, qorasoch darbonning o'g'li o'yinga tusharkan. Qizcha unga jilmayib boqar va qo'lchalarini uzatarkan: bir kuni ana shu hodisani general ko'rib qolibdi-da, boshini chayqab: «Charmant!» deb qo'yibdi. Generalning hali on gulidan bir guli ochilmagan qizday yosh, go'zal xotini bolib, u derazadan hech qachon hovliga qaramas, enagaga qizchani ovuntirish uchun yerto'ladan bolani chaqirishni buyurar ekan, xullas qizi bilan hech ishi yo'q ekan. Ayol shunchalik yosh ekanki, ko'rgan odamlar uni generalning to'ng'ich qizi bo'ssa kerak, deb o'ylasharkan. Enaga o'ziga berilgan buyruqlarni sira ikkita qilma ekan.

Quyosh bolaxonani ham, yerto'lani ham birday yoritarkan. Akatsiya gullab, so'ng gulini to'karkan, lekin kelgusi yili yana yangi novdalar chiqararkan. Yil sayin daraxt gullab boraveribdi, darbonning o'g'li ham gulday go'zallashib, lolaqizg'aldoqning o'zi bo'libdi qolibdi!

Generalning qizi rangi oppoq, latif, akatsiyaning pushti gul bargiday ekan. U endi hovlidagi daraxt tagida kamdan-kam ko'rinar, ko'pincha onajoni bilan usti yopiq karetada sof havodan nafas olib sayr qilarkan. Qiz karetni derazasidan darbonning o'g'li Georgni ko'rib qolgand, boshini chiroyli irg'ab qo'yar, hatto uzoqdan bo'sa hadya qilarkan, onasi esa uning katta bo'lib qolganini aytib, boshqa bunday qilma, derkan.

Bir kuni Georgning general huzuriga ro'znama va xatlar olib kirishiga to'g'ri kelibdi. U zinapoya tagidagi hujra yonidan o'tayotib qandaydir chiyillagan tovushni eshitib qolibdi, hujra ichiga jo'ja yashirinib olgan bo'ssa kerak, - deb o'yabdi. Lekin u yerda doka ro'mol va to'r pardaga o'raigan holda generalning qizi yig'lab o'tirgan mish.

- Faqat dadam bilan oyimga aytma - jahllari chiqadi! - debdi qiz.

- Nimani, xonim? - deb so'rabdi Georg.

- Hammasi yonib ketadi! - debdi qiz. - Anavi yoq yonyapti!

Georg bolalar xonasi eshigini ochibdi; qarasa, deraza darpardalari yonib bo'libdi, karnizga o't ketibdi. Georg sakrab deraza oldiga boribdi-da, darpardalarni tortqilab, odamlarni yordamga chaqiribdi. U bo'Imaganda katta yong'in chiqishi hech gap emas ekan-da.

General bilan xotini Emiliyani so'roq qilibdi.

- Men gugurtni olib, chaqqan edim, lop etib darparda yonib ketdi. O'chiraman deb tupuraverdim-tupuraverdim, tupugim ado bo'lib qoldi... Dadam bilan oyimning ko'yishidan qo'rqib bu yerga yashirinib oldim.

- Tupuraverdim-tupuraverdim emish! – debdi general.  
- Bu qanaqa gap bo'ldi? Bu gapni ilgari hech ota-onangdan eshitganmiding? Bu anavi yerto'lada gilarning gapi!

Harholda bolakay Georgga to'rt skilling berishibdi. U pulni bulkaxonaga emas, balki qutichaga tashlab qo'yibdi, ko'p o'tmay quticha ichidagi pullar ko'payib qolibdiki, ularga bo'yoq solingan yashik sotib olsa ham bo'ladigan bo'pti. Bola ko'p rasm chizar ekan-da. Suratlar uning qalami uchidan qog'ozga o'z-o'zidan to'kilib qolaverarkan. Dastlabki bo'yoq berilgan suratlar Emiliyaga sovg'a qilinibdi.

- Charmant, – debdi general, hatto xotini ham bola nimani chizmoqchi bo'lganiga aqli yetibdi. – «Uning qobiliyati bor!» – Darbonning xotini yerto'laga ana shunday xabar bilan qaytibdi.

General va uning xotini zodagonlar toifasidan ekan, ularning karetasiga ikkita gerb tushirilgan bo'lib, er-xotinning gerbi alohida-alohida ekan. General xotining gerbi uning ichki kiyimlarida, tungi qalpog'ida, hatto hojatxonasi dagi qopchiqda ham bor ekan. Uning gerbi ana shunaqa qimmatli ekan! Otasi uni bir necha chervonga olgan, otasi ham, o'zi ham gerb bilan tug'ilmagan ekan. Buni ular dan boshqa hamma bilarkan. Generalning gerbi qadimiylar yirik ekan. Bitta gerbni taqib yurish vazminlik qilar, ularda esa ikkita gerb bor ekan. Generalning xotini yasan-tusan bilan, kerilib saroy bazmlariga gerbini jaranglatib taqib borarkan.

General keksa, soch-soqoli oqarib ketgan bo'lishiga qaramay, egarda mahkam o'tirarkan. U har kuni mulozimlari qurshovida otta yurarkan, mulozimlar odob saqlab undan sal keyinda borisharkan. Odamlar orasiga kirib qolganda esa hammaga egarda o'tirganday kekkayib boqarkan. Ordenlari nihoyatda ko'p ekan, bunga uning uncha daxli yo'q ekan. U harbiy xizmatni juda yoshligidan boshlagan, barcha kuzgi mashqlarda qatnashgan ekan. O'sha vaqtlardan ancha xotiralar, latifalar qolgan ekan, latifalardan faqat bittasini aytarkan, xolos. Uning unter-ofitseri shahzodalardan birini asirga olgan, asir o'zining uncha katta bo'limgan bo'linmasi bilan shaharga generalning orqasida asir sifatida borgan ekan. Ana shu unutilmas hodisani u ko'p yillardan beri hikoya qilarkan, hech qachon esdan chiqmaydigan so'zlarni aytishni kanda qilmas ekan. General shahzodaga qilichni qaytarib berayotib: «Faqat unter-ofitserimgina siz oliv hazratlarini asirga olishga qodir, men esa hech qachon!» deganda, shahzoda: «Siz misli yo'q odamsiz!» – deb javob qaytargan ekan. General haqiqiy urushda hech qachon bo'limgan, urush ketayotganda esa u diplomatik yo'l bilan uchta chet el saroyida bo'lgan ekan. Fransuz tilini shunaqayam qiyib tashlarkanki, hatto o'z ona tilisini ham unutib qo'ygan ekan, raqs tushishga epchil bo'lib, hamisha otta yurarkan, ko'ksidagi ordenlarning son-sanog'iyo'q ekan. Sarbozlar unga salom berarkan, hatto husn bobida tengi yo'qlardan biri ham unga salom beribdi, keyin esa uning xotini bo'lib qolibdi. Hademay ular osmondan tushgan farishtaday chiroyligina qiz ko'rishibdi. Qizcha sal ulg'aygach esa darbonning o'g'li uning qarshisida o'yinga tushadigan bo'libdi, qiz sal kattaroq bo'lgach o'zi chizgan suratlarni unga hadya etibdi. Qiz suratlarni bajonidil qabul qilar, o'ynar, so'ng mayda-mayda qilib yirtib tashlarkan. Qiz biram chiroyli, nozik-nihol ekanki, asti qo'yavering!

– Atirgulim! – derkan generalning xotini, – sen shahzodalar uchun tug'ilgansan!

Shahzoda esa eshik orqasida turar, lekin buni hech kim bilmas ekan. Odamlar ostonadan narini ko'rmas ekanlar.

- Tunov kuni o'g'limiz nonini qiz bilan birga baham ko'ribdi, - debdi darbonning xotini. - Nonning orasiga na pishloq, na go'sht qo'yilmagan ekan, lekin qizning og'ziga juda yoqibdi. Bordiyu, general bilan xotini buni bilib qolishsa, rosa shovqin ko'tarilardi-da! Lekin ular hech narsani ko'rishmabdl Ha, Georg nonini qiz bilan baham ko'ribdi; agar yoqtirsa qizga qalbini ham hadya etishga tayyor ekan. Bu bola oqko'ngil, aql-idrokli, zehnli ekan. Rasm chizishni yaxshilab o'rganib olish uchun kechki rasm chizish sinfiga qatnarkan. Emiliya ham fanlarni tez o'zlashtirarkan: u murabbiyasi bilan fransuz tilida gaplasharkan va raqs muallimidan ta'lim olarkan.

- Georgimiz pasxa bayramida balog'at yoshiga yetadi! - debdi darbonning xotini. - Georgning katta bo'lib qolganini qarang-a.

- Shundan keyin uni o'qishga berilsa yaxshi bo'lardi-da! - debdi otasi. - Ozodaroq hunarni tanlashi kerak. Bizga ham bitta nonxo'r kamayib, ancha durust bo'lardi!

- Baribir uyga yotgani keladi-ku! - deb e'tiroz bildiribdi onasi. - Butunlay oladigan ustani topish amrimahol. Uni hali kiyintirishimiz ham kerak. Uning uchun bir burda non-ku, bir iloj qilib topilar. Ikki yaproq yopilgan kartoshka bo'lsa bas! Hozir ham u bekorga o'qiyapti. U o'z yo'lidan ketaversin, mana ko'rarsiz, u bizni xursand qiladil! Axir, professor ham xuddi shunday dedil!

Balog'at yoshiga yetgan kuni kiydiriladigan kiyimlar tayyor bo'libdi; ona ularni o'zi tikibdi, o'g'li usta bichiqli ekan, kambag'allik tufayli eski kiyimlarni yamab butlash ancha ish bergen ekan-da. Darbonning xotini, agar o'g'limning ustaxonasi, shogirdlari bo'lsa, u saroy tikuvchisi bo'lishi ham mumkin, der ekan!

Shunday qilib, kiyim tikilibdi, Georgning balog'at yoshiga yetgani nishonlanibdi. O'sha kuni u tutingan otasi, boy keksa sarkordan kattagina jezdan yasalgan soat

olibdi. Bu soat juda qadimiy, sinovdan o'tgan, biroz oldinga ketib qoladigan ekan. Orqada qolganidan ko'ra shunisi ham tuzuk. Bu o'ta qimmatbaho sovg'a ekan! General oilasidan saxtiyon muqovali duo kitob sovg'a qilinibdi. Sovg'anı Georg suratlar hadya qilgan oyimqiz yuboribdi. Kitobning birinchi, toza varag'iga: «Georgga esdalik uchun – marhamatli Emiliya» deb yozilgan ekan. Shunday yozishni generalning xotini aytib turgan ekan. General uni o'qib:

- Charmant, – debdi.
- Chindan ham bu mana shunday janoblar tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik! – debdi darbonning xotini. – Georgni yasantirib, qo'liga duo kitobni beribdi-da, generalnikiga minnatdorchilik bildirgani yuborishibdi.

Generalning xotini o'raniб yotgan ekan, zerikkanda tutadigan odatdagи asabiylik dardini tortayotgan ekan. Lekin u Georgga muloyimgina nigoh tashlabdi, unga yaxshi tilak tilabdi, o'ziga azob berayotgan bosh og'rig'iga hech qachon mubtalo bo'lmasligini ham tilabdi.

General bo'lsa xalat kiyib, boshiga takiya qo'ndirib, ag'darma rus etigida u yoqdan-bu yoqqa yurarkan. U o'z o'yłari va xotiralariga berilib, xona ichida u yoqdan-bu yoqqa yuribdi-da, so'ng to'xtab:

– Demak, Georg xristianlar jamiyatining to'la huquqli a'zosi bo'libdi-da, – debdi. – Halol bo'l, boshliqlarni hurmat qil! Qariganingda buni generaldan o'rgangan edim deb yurasan!

General hech qachon uzundan-uzoq nutq so'zlamagan ekan. Ana shularni aytib, yana o'z o'ylariga berilib, jiddiy qiyofaga kiribdi.

Hamma ko'rganlari ichida Georgning xotirasida oyimqiz Emiliya qolibdi. U naqadar latif, muloyim, go'zal va nazokatli! Uning suratini faqat sovun ko'pigi pufagiga chizish mumkin. Uning ko'ylaklari, tillarang sochlariдан atir hidi dimoqqa uriladi, o'zi endigina ochilgan atirgulga o'xshaydi! Bir vaqtlar u bilan nonini baham ko'rgan edi. Qiz o'shanda o'ziga tegishli nonni ochko'zlik bilan lunjini

to'ldirib yegan va minnatdorlik bilan bosh irg'atgan edi, gapiray desa og'zi band edi-da. Shular esidamikin? Albatta. Axir, chiroyli kitobcha unga «Esdalik uchun» hadya etilgan-ku. Yangi yil kirgandan keyin dastlab oy yangi bo'lganda u hovliga qo'lida non, asal surtilgan skilling, duo kitobcha bilan chiqibdi-da, kitobning to'g'ri kelgan joyini olibdi. Qani, iqboliga nima chiqarkin?

Kitobning minnatdorlik duolari yozilgan joyi ochilibdi. U kitobni yopib, Emiliya uchun ochmoqchi bo'libdi, lekin dafn duolari yozilgan joylarni ochmaslikka intilibdi. Buni qarangki, xuddi o'sha sahifalar ochilibdi! Unga ishonmassa ham bo'larkan-u, shundan keyin Emiliya betob bo'lib yotib qolibdi va ularnikiga har kuni doktor ekipaji kelib turganini ko'rib juda qo'rqib ketibdi.

- Qizni davolasholmaydi! – debdi darbonning xotini, Ollo Taolo kimni dargohiga qabul qilishni biladi!

Lekin qizni davolashibdil Georg yana rasm chizib, unga jo'nata boshlabdi. Aytganday, u podsho saroyi suratini chizibdi. Georgning suratida qadimiy Moskva Kremli o'zining ulkan bodringga o'xhash yam-yashil va oltin suvi yuritilgan minora va gumbazlari namoyon bo'libdi. Emiliyan bu suratlar juda quvontiribdi. Oradan bir hafta o'tgach, Georg yana bir necha surat yuboribdi. Ularning har birida turli bino suratlari solingen ekan: ularga qarab turib xayollarga berilishi, ana shu devor va derazalar ortida qanday hodisalar bo'layotganini bilishi mumkin edi.

Suratlar orasida o'n olti qavatli, hammayog'iga qo'ng'iroqlar osilgan xitoy binosi, adl marmar, ustunlar va ayvonlar bilan qurshalgan ikkita yunon ibodatxonasi, faqat xodadan qurilgan, naqshinkor norveg cherkovi bor ekan. Unda faqat Emiliyaning o'zi yashashi kerak ekan. U boshqa binolardagi eng chiroyli tomonlarini olib, Emiliyaning qasrida mujassamlashtirgan ekan. U norveg cherkovidan naqshinkor ustunni, yunon ibodatxonasidan marmar ustunni, xitoy binosidan qo'ng'iroqlarni, podsho Kremlidan yam-yashil oltin suvi yugurtirilgan gumbazlarni olgan ekan.

Bunaqa qasrni har qanday bola ham havas qilarkan! Har bir deraza ostiga: «Bu yerda Emiliya uxlaydi», «Bu yerda o'yinga tushadi», «Bu yerda mehmon-mehmon o'ynaydi» va boshqa yozuvchalar yozib quyilibdi. Bularning hammasiga qarash huzur bag'ishlarkan! Suratga rosa tikilishibdi.

– Charmant, – debdi general.

Lekin qari grafga (generaldan ham martabaliroq, qasr va mulkka ega bo'lgan qari graf ham bor ekan) bu suratni darbonning kichkinagina o'g'li chizganini aytishsa ham, indamabdi. U aytarli kichkina emas, yaqinda balog'at yoshiga yetdi-ku. Chol suratga tikilibdi, odamlarning gapi u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqibdi.

Nihoyat havoning qovog'i soliq turgan kunlarning biri Georg uchun quvonchli, yorug' kun bo'libdi. Rassomlik Akademiyasining professori uni huzuriga chaqiribdi.

– Menga qara, do'stim! – debdi u. – Bir gaplashib olaylik! Parvardigor seni iste'dodli qilib yaratibdi, o'zi senga sahovatlari homiyni ham yuboradi. Anavi burchakda istiqomat qiluvchi qari graf menga sen haqingda gapirdi. Suratlaringni men ham ko'rdim. Ularni qo'ya turaylik, talaygina nuqsonlari bor! Endi haftada ikki marta mening rassomlik maktabinga kelib turishing mumkin. Hademay yaxshi rasm chizadigan bo'lib olasan. Senda rassomlikdan ko'ra ham me'morlik nishonalari ko'proq mavjud deb o'ylayman. Vaqt kelib, buni bilib olasan! Lekin bugun burchakdagi uyga borib, keksa grafga minnatdorchilingning bildir, shunday homiyni yetkazgan parvardigorga ham minnatdorchilik izhor etgil!

Burchakda ulkan bino turarkan, derazalari ostida devorga yopishtirilgan fil va tuyalar bor ekan; hammayoqda o'tmish muhri sezilib turarkan. Lekin keksa graf bizning zamonamizni afzal ko'rар, uning nimasi yaxshiligining ham farqiga bormas, u qayoqdan kelyapti – bolaxonadanmi, yerto'ladanmi yo chordoqdanmi – surishtirmas ekan.

– Haq gapni aytganda, kim zodagonroq bolsa, shuncha odmi bolsa kerak! – debdi darbonning xotini. – Keksa

graf o'zini qanchalik oddiy tutadi-ya! Biz bilan faqir odamday gaplashadi! General bilan xotini bunaqa qilisholmaydi. Kecha Georg xursandligidan o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi, graf unga shunaqayam mehr-oqibat ko'tsatibdiki! U oliv hazrat bugun meni huzurlariga qabul qilgandan beri sevinchdan terimga sig'may yuribman. Georgni o'qishga bermay chakki ish qildikmikin-a? Uning qobiliyati zo'r edi!

- Gaping to'g'ri-yu, lekin unga bir suyanchiq ham kerak-dal! - debdi eri.

- Uning suyanchig'i bo'ladi! - deb javob qaytaribdi xotini. - Bu xususda graf yaxshi gaplarni aytdi!

- Harholda bu muruvvatlar general oilasining sharofatidan, - debdi eri. - Ularga ham minnatdorchilik bildirib qo'yish kerak.

- Nega minnatdorlik bildirmas ekan? - debdi xotini. - Menimcha, ularga bunchalik yelpatak bo'lmasa ham bo'ladi. Ammo Ollo Taologa chin yuragimdan shukrona keltiraman. Oyimqiz Emiliya shifo topayotgani uchun ham unga shukrona keltiraman!

Ha, generalning qizi kun sayin sog'aya boribdi; Georg ham tez odimlar bilan oldinga ilgarilabdi. O'sha yilning o'zida u kichik kumush medal, oz fursat o'tgach esa, katta kumush medal olishga tuyassar bo'libdi.

. - Oh, uni o'qishga berganimizda ko'p ma'qul ish bolardil! - deb ko'zyoshi qilibdi darbonning xotini. - Hech bo'limganda bag'rimizda bo'lardi. Rimda nima qiladi?! Qaytib kelganda ham u bilan diydor ko'risholmasak kerak! Bolaginam qaytib kelmaydi ham!

- Bu ishlar uning baxti, shon-shuhrati uchun qilinyapti-ku, - deb xotinini yupatibdi darbon.

- Barakalla sizga, erjon! - debdi xotini. - Shunday deysiz-ku, lekin o'zingiz ham bunga ishonmaysiz. Menga qanchalik og'ir bo'lsa, sizga ham shunday.

Chindan ham shunday ekan. O'g'ildan ajralish ota-oná uchun juda og'ir ekan, lekin hamma: «Yigitchaning boshiga baxt qushi qo'ndi» deb ta'kidlasharkan.

Shunday qilib, Georg hamma bilan xayrashibdi; xayrashish uchun yuqoriga – general xonasiga ko'tarilibdi. Generalning xotini boshi og'rib yotgani uchun ko'rinnabdi. General bo'ssa, xayrashayotib yosh yigitga shahzodaga nima degani va shahzoda unga nima deb javob qaytargani haqidagi birdan-bir latifasini aytib beribdi, so'ng Georgga xayrashish uchun ikki barmog'ini uzatibdi.

Emiliya ham Georgga qo'lini uzatibdi-yu, lekin ko'rinishi g'amgin emish. Georg ham ma'yuslanib qolibdi.

Vaqt huda-behuda o'taveradi; vaqt bir xilda, lekin nafsiz o'tibdi. Georg uchun esa vaqt nafsiz o'tmabdi, uyidagilarni qo'msagan paytalarini hisobga olmaganda, vaqtning cho'zilganini unchalik sezmabdi. Hamma qadrdonlari – pastdagi va yuqoridagilar qanday yashashyaptiykin? U uydan xat oldi deylik, xatga ko'p narsani sig'dirish mumkin, undan kishi qalbiga quyosh nurlari taralishi, qalbni zimiston, zulmat ichida qoldirishi mumkin. Otasining vafot etgani haqidagi xatni olganda yigitchaning qalbi zimiston bo'lib ketibdi. Onasi tul qolibdi. «Emiliya men uchun yupatuvchi farishta bo'lib qoldi, pastga – mening yonimga tushib turibdi», – deb yozarkan onasi. Darbonlik esa o'z qo'lida qolibdi, bunda qizning hissasi katta bo'libdi.

Generalning xotini kundalik yurita boshlabdi. U har bir qabulni, o'zi ishtirok etgan bazmlarni, shuningdek, tanish-bilishlarnikiga mehmonga borganlarini ta'riflab yozibdi va boshqa zodagonlarning taklifnomalari kundalikning surati o'nida xizmat qilibdi. Generalning xotini kundaligi bilan juda faxrlanibdi, asabiylashishga to'la uyqusiz tunlar, saroydagi bazmlarga to'la kunlar o'tishi bilan kundalik ham to'la boribdi. Nihoyat Emiliyanı saroydagi bazmga olib borishibdi. Onasi ispancha did bilan tikilgan qizil kiyimda, qora to'r kashtada, qizi esa boshdan-oyoq oq kiyimda, latif va nozik bo'lib boribdi. Qizning oltinrang kokillari jingala-jingala, yarqiroq yashil lentaga o'xshab to'lg'anib turganmish, sochiga oq nilufar

gul taqib olgan mish. Qizning ko'zlar shunaqayam tiniq va moviy, og'zi bejirim, labi g'unchadek emish, xullas, turgan-bitgani dengiz malikasining o'zginasimish; husni ta'rifga sig'masmish! U bilan uchta shahzoda raqsga tushibdi; albatta birdaniga emas, balki navbat bilan tushishibdi. Generalning xotinining bir haftagacha boshi og'rimabdi.

Lekin bu birlamchi bazm oxirgisi bo'lmaydi. Emiliya endi o'zini tutib turolmabdi. Yaxshiyamki bu orada yoz kelib, tabiat qo'ynda dam olish imkonи tug'ilib qolibdi.

General oilasi graf qasriga mehmonga taklif qilinibdi.

Grafning bog'i tomosha qilsa arziyidigan ekan. Uning bir qismi eskicha usul va did bilan barpo qilingan ekan: hammayoqda yashil pardaday usti tekis qirqilgan buta to'siqlar yashnab turgan mish, devorlarning har qayer-har qayeridan tuynuklar ochilgan mish: qora qayin va tis butalari esa yulduz hamda ehrom shaklida qirqilgan mish; u yer-bu yerda chig'anoqlar yotqizilgan g'orlar ko'zga tashlanibdi, ularning tubidan favvoralar otilib turgan mish; hammayoqda granitdan yasalgan haykallar boqqa fayz, ko'rк berib turgan mish, har bir gulpushta ham baliq, gerb shakliga, o'z nomiga egamish. Bog'ning bu qismi fransuzcha did bilan bezatilgan ekan. Bu yerdan yashnab turgan hashamatli boqqa o'tilarkan, bog'da daraxtlar o'z holicha o'sib yotgan mish, shu vajdan ularning shox-butoqlari har tomonga tarvaqaylab, tanasi yo'g'onlashib ketganidan quyuq soya tashlab turgan mish. Bog'dagi maysa o'tlar shunaqayam yam-yashilmishki, uning ustidan bermalol yurish ham mumkin ekan. Bu joy Inglizcha did bilan barpo qilingan bog' ekan.

- O't mish va zamonaviylik, - debdi graf. - Bular bir-biri bilan juda uyg'unlashib ketgan. Yana ikki yildan keyin bog' butunlay boshqacha qiyofaga kiradi, talay o'zgarishlar kiritish va pardoz berish harakatidamiz! Sizlarga bog'ning surati va chizmalarini, aytganday, me'morning o'zini ham ko'rsataman. U bugun biznikida bushlikda boladi!

- Charmant, - debdi general.
- Bog' bu dunyoning jannatil - deb xitob qilibdi generalning xotini. - Ana, qadimiy qasrga ham kelib qoldik!
- Bu tovuqxona! - debdi graf. - Minorada kaptarlar, ikkinchi qavatda kurkalar, birinchi qavatda esa ularga qaraydigan parrandachi Elza ismli kampir yashaydi. Kampirning xonasidan parrandalar turadigan hamma xonalarga yo'llar bor, tuxum qo'yadiganlari alohida, jo'ja ochib chiqqanlari alohida xonada, o'daklar suvga tushishi uchun alohida yo'lak bor!
- Charmant, - debdi general.
- Hammalari parrandalarni tomosha qilishga otlanishibdi.
- Elza kampir mehmonxona o'tasida, me'mor Georg esa uning yonida turarkan. Uzoq ayriliqdan keyin u Emiliya bilan mana shu yerda - tovuqxonada uchrashibdi!
- Yigit g'oz turar, unga tikilgan bilan husni jamoliga to'yib bo'lmas edi, chunki judayam chiroyli, kelishgan yigit bo'lib ketgan ekan-da! Istarasi issiq, qop-qora sochlari ko'rkar ekan, lablarida esa: «hammangizni yaxshi bilaman!» degan ma'noda mug'ambirona tabassum o'ynarkan. Elza kampir yog'och kavushlarini yechibdi, aslzodalarga hurmat yuzasidan paypoqda qolibdi. Tovuqlar qa-qalab, xo'rozlar qichqiribdi, o'daklar «g'oq-g'oq»lab yuribdi. Yigitning yoshlik paytlarida birga o'ynab yurgan yaqin o'rtog'i - generalning go'zal qizi uning yonginasida turar, oqish yuzlari gul-gul yashnar, ko'zlar chaqnar, lablari unsiz gapirib turganday ekan. Qiz yigitning ko'nglidagiday qilib nazokat va odob bilan egilib ta'zim qilibdi. Qizning bu ta'zimi yigit bilan qarindosh bo'lмаган yoki bazmlarda goh-gohida raqsga tushgan qizning ta'zimiga o'xshab ketibdi, Georg esa Emiliya bilan hech qachon birga o'yinga tushmagan ekan.

Graf uning qo'lini siqib, mehmonlarga tanishtiribdi:

- Navqiron do'stimiz, sizlar uchun uncha begona bo'lмаган janob Georg!

Generalning xotini egilib salom beribdi, qizi esa qo'lini uzatib yuborishiga sal qolibdi.

– Ie, bu o'zimizning janob Georg-kul – debdi general. – Axir, biz eski qadrdon, qo'shnimiz-kul Charmant!

– Siz butunlay italiyalikka aylanib ketibsiz! – debdi generalning xotini. – Italiyada istiqomat qiluvchilarday italyancha gapirsangiz ham kerak?

General xotinining italyan tilida so'zlamay, balki ashula aytishini bilarkan.

Dasturxonga o'tirishganda Georg Emiliyaning o'ng tomoniga o'tiribdi. Uni generalning o'zi stol yoniga olib boribdi. Graf esa generalning xotinini. Georg janoblari suhabatga berilib ketib qiziq narsalarni gapirib beribdi. Ovqat mahalida Georg o'tirishning guli bo'lib o'tiribdi. Bu borada graf ham undan qolishmas ekan. Emiliya esa butun vujudi qulqoq bo'lib jimgina o'tiribdi, ko'zlarini sevinch va shodlikdan shunday charaqlabdiki, qo'yaverasiz.

Tushlikdan keyin qiz bilan Georg ayvonga chiqishibdi; baland o'sgan atirgul shoxlari ularni boshqalardan pana qilibdi. Georg birinchi bo'lib gap boshlabdi.

– Onamga do'stona, iliq munosabatda bo'lganiningiz uchun tashakkur bildirishga ijozat bergaysiz! – deb gap boshlabdi u. – Onam vafot etgan tunda uni yolg'iz qo'yaganingizdan xabarim bor. Tashakkur sizga!

U Emiliyaning qo'lidan o'pibdi. Nima qipti, buning boisi tushunarli. Qiz nomus o'tida qovrilibdi, harholda javob tariqasida yigitning qo'lini qisib qo'yibdi va unga ajoyib, jozibali moviy ko'zlarini mehr bilan tikibdi.

– Oyingiz biram yaxshi, biram mehribonki! Sizni biram yaxshi ko'radi! U kishi xatlariningizni ham menga o'qigani berardi, shu boisdan sizni ozmi-ko'pmi bilaman! Bolaligimda menga juda mehribon edingiz, suratlar hadya qilardingiz..

– Siz bo'lsa yirtib tashlardingiz, – debdi Georg.

– Yo'q, «qasrim» hali mavjud! – deb javob qaytaribdi qiz.

– Endi sizga chinakam qasr qurib berishim mumkin! – debdi Georg shavq bilan.

General bilan xotini o'z xonalarida darbonning o'gli haqida gurunglashibdi. Uning o'zini tuta bilishi, gaplari, bilimdonligi xususida gap ketibdi.

– U informator bo'lishi ham mumkin! – debdi general.

– Daholi yigit! – debdi xotini va boshqa gapirmabdi.

Ajoyib yoz kelibdi. Janob Georg graf qasrida tez-tez suyukli mehmon bo'lib turibdi. Bordiyu, u kelmay qolsa qo'msashib qolisharkan.

– Biz bechoralarga nisbatan Ollo Taolo marhamat qilib sizga katta qobiliyat ato qilgan! – debdi Emiliya unga. – Uni joyiga qo'yib e'zozlaysizmi?

Georgga bu gap xush yoqibdi, o'zi ham bu go'zal qizni ancha iste'dodli deb hisoblarkan-da.

General esa Georgni bunchalik past tabaqadan emasligiga tobora ishonchi orta boribdi.

– Lekin onasi rahmatlik ancha muhtaram ayol edi, bunga tan berish kerak, – debdi u.

Yoz o'tib, qish kelibdi, janob Georg odamlarni yana o'z xususida gapirishga majbur qilibdi. U eng badavlat xonadonlarga, aslzodalar huzuriga taklif qilinibdi. Hatto generalning o'zi uni saroydagi bazmda kutib olibdi. Emiliya uchun ham bazm berish mo'ljallari bor ekan. Unga Georgni ham taklif qilishsamikin yo yo'qmi?

– Qirol kimni taklif qilsa, general ham o'sha odamni taklif qilaveradil – debdi general va qaddini shunday rostlabdiki, go'yo bo'yи bir qarich o'sganday bo'libdi.

Georgni taklif qilishibdi, u bazmda bo'libdi, bazmda shahzoda va graflar ham ishtirot etishibdi. Ularning biri ikkinchisidan yaxshi o'yinga tusharmish, lekin Emiliya faqat dastlabki o'yingagina tushibdi: qiz garchi ziyon yetkazmagan bolsa-da, o'zi bilan o'yinga tushayotgan yigitning oyog'ini bexosdan bosib olibdi, shundan so'ng o'zini ehtiyyotlab, ortiq o'yinga tushmay qo'yibdi. Bir joyda o'tirib, boshqalarning o'yinga tushishini tomosha qilibdi. U hamon tomosha qilar, janob me'mor bolsa yonida tik turarkan.

- Siz unga avliyo Petr soborining hammayog'ini chizib bering, - debdi general yonidan o'tib borar ekan, iltifot bilan jilmayib.

Oradan bir necha kun o'tgach, general iltifot bilan janob Georgni o'z uyida qarshi olibdi. «Yosh yigit o'zini bazmga taklif qilinganligi uchun ehtimol minnatdorchilik bildirgani kelgandir, boshqa nima uchun ham kelardi?» - deb o'yabdi general. Biroq... O, dahshat va tentaklik qursin! General o'z qulqlariga ishonmabdi. Janob Georg juda balanddan kelibdi, uning iltimosi ko'z ko'rib, qulq eshitmagan iltimos ekan! U Emiliyaning qo'lini so'rabdil

- Yigit! - debdi general sholg'omday qizarib. - Nimalar deyapsiz? Gapingizga tushunmayapman! Mendan nima istaysiz? Men sizni tanimayman! Janob! Janob! Hoy yigit! Siz uyimga bostirib kiryapsiz-a! Bu yerda xo'jayin menmi yo sizmi? Endi nima qildim-a?..

U yotoqxona eshigi oldigacha tisarilib boribdi, ichkariga kirgach, eshikni yopib, qulflab olibdi. Georg tashqarida qolibdi. Yigit bir lahza tek turibdi-da, so'ng o'girilib, qaytib ketibdi. Dahlizda Emiliyaga do'ch kelibdi.

- Dadam nima dedi? - deb so'rabi qiz titroq ovoz bilan.

Georg uning qo'lini mahkam qisibdi.

- U mendan o'zini olib qochdi. Lekin yaxshi paytlarga umid bog'lab turaveramiz!

Emiliyaning ko'zlariga yosh kelibdi, yigitning ko'zlarida esa qat'iyat va jasorat uchqunlari chaqnabdi. Ularga oq fotiha berganday quyosh nurlari har ikkala ko'zlarda jilva qilibdi.

General o'z xonasida ustiga qaynoq suv quyilgan odamday o'tiraveribdi. Yuragi qinidan chiqquday bo'lib, dukillab ura boshlabdi. «Ahmoqlik! Darbonning jinnisi!» - deb pichirlabdi.

Oradan bir soat o'tar-o'tmas generalning xotini eridan hamma gapni eshitibdi, Emiliyani chaqirib, yoniga o'tqizibdi.

- Shorlik bolaginam! Seni, bizni shunchalik haqo-ratlashsa-ya! Sen ham yig'layapsanmi? Ko'zyoshlarining

hech tinmaydi-ya! Shu ko'rinishingda ham go'zalsan-a!  
Mening to'y kunimdagiga o'xshab ketibsan! Yig'layver,  
yig'layver, jonginam!

- Yig'layveraman, - debdi Emiliya, - otam ikkovlaring  
rozilik bermagunlariningcha yig'layveraman!

- Qizginam! - deb qichqiribdi generalning xotini. -  
Tobing yo'q! Alahlayapsan! Oh, yana boshim og'rib qoldi.  
Voy, jonom! Emiliya, onaizoringning g'am-g'uussada olib  
ketishiga yo'l qo'yma! Onasiz qolasan!

Generalning xotini ham ko'zyoshi to'kibdi - u olim  
haqidagi fikrga sira toqat qilolmabdi.

Ro'znomalarda kishilarni turli lavozimlarga tayinlagani  
haqida xabarlar bosildi, chunonchi, me'mor Georgga  
professor unvoni berilgani ham ma'lum qilindi.

- Attang, ota-onasi qora yer tagida yotibdi, bu  
xushxabarlarni o'qiy olmaydi! - deyishibdi generalning  
uyi ostidagi yerto'lada yashayotgan yangi darbon bilan  
uning xotini. Ular o'zları o'tirgan uyda professor  
tug'ilganini bilishar ekan-da.

- Endi u martabaliklar ro'yxatiga tushib, soliq to'lab  
turishiga to'g'ri keladi, - debdi eri.

- Ha, kambag'al odamning bolasi uchun bu katta gap!  
- debdi xotini.

- Bir yilda o'n sakkiz taler-al! - debdi eri. - Bu hazilakam  
pul emas!

- Yo'q, men u haqda emas, hurmat xususida  
gapiryapman! - deb e'tiroz bildiribdi xotini. - Bu pullar  
nima bo'pti! U yil davomida bunaqangi pullardan ko'pini  
topadi! Xo'sh, badavlatgina qizga ham uylanib oladi. Hoy,  
er, bizda ham bola bo'lganda edi, o'g'limiz me'mor yoki  
professor bo'lishi mumkin edi!

Yerto'ladagilar Georg haqida iliq gaplarni aytishibdi,  
bolaxonadagilar ham ulardan qolishmabdi, ayniqsa,  
keksa graf ko'p yaxshi gaplarni aytibdi.

Bunga me'morning bolaligida chizgan suratlari bahona  
bo'libdi. Nega endi bu haqda gap ochildi? Gap Rossiya,  
Moskva haqida, bir vaqtlar Georg chizgan va Emiliyaga

hadya etgan Kreml haqida ketibdi. Georg qizga ko'p suratlarni tuhfa qilgan, lekin grafning xotirasida naqshlanib qolgani bitta: «Emiliya uxbaydigan», «o'yinga tushadigan», «mehmon-mehmon o'ynaydigan» xonalari bolgan «Emiliya qasri». Shunday qilib, graf professor katta iste'dod egasi ekanligini, vafot etganda ham katta martaba bilan o'lishini aytibdi. Buning shubhalanadigan joyi yo'q ekan-da! Xo'sh, nima uchun go'zal va yosh oyimqizga qasr qurishning iloji yo'q ekan?

- Bugun graf odatdan tashqari hazilkashlik qilish kayfiyatidal – debdi generalning xotini graf ketgach. General otlanibdi, boshini chayqabdi, malaylarining kuzatuvida otliq saroyga otlanibdi, mulozimlar odob saqlab sal ortda boribdi, generalning otdan tushishi ham odatdan tashqari tantanali bo'libdi.

Emiliyaning tug'ilgan kuni yetib kelibdi; hammayoqdan gullar, xatlar, vizit kartochkalari yog'ilib ketibdi. Generalning xotini qizining labidan, generalning o'zi esa peshanasidan o'pibdi, ular judayam mehribon ota-onalar ekan-da. Eng oliv martabali mehmonlar – shahzodalardan ikkitasi bu yerga tashrif buyurib, oilani o'ta baxtiyor etishibdi. Bazmlar, teatrlar, diplomatik lavozimga tayinlashlar, siyosat haqida gapirishibdi. O'zlarining va chet elning mashhur arboblari haqida ham gap ketibdi; shu payt beixtiyor yosh professorning nomi tilga olinibdi. «U abadiylik qasriga kiradil Uning familiyasi eng yaxshi nomlardan biri bo'lib qoladil!» Uning haqida ana shunaqa gaplarni aytishibdi.

- Eng yaxshi nom egasi bo'lib qoladil! – debdi general xotini bilan yolg'iz qolganda. – Lekin qanday nonida?

- Qanaqa nomga ishora qilishayotganini bilaman! – debdi generalning xotini. – Lekin aytmayman! Bu haqda o'ylashni ham xohlamayman! Albatta, buni yolg'iz xudoning o'zi biladi... Lekin men juda hayratda qolaman!

- Men hatto tasavvur ham qilolmayman! – debdi general.

Chindan ham xudoning marhamati keng, unda bitmas-tuganmas qudrat yashirinib yotadi. Georg ham

ana shu marhamatdan bebahra qolmadi. Lekin biz tug'ilgan kunni xotirimizdan chiqarib qo'ydik!

Emiliyaning xonasi do'stlari va dugonalar yuborgan gullarga ko'milib ketibdi; stol usti esa esdalik va do'stlikdan dalolat beruvchi ajoyib sovg'alarga to'libdi. Lekin Georgdan hech narsa yo'q, bo'lishi ham mumkin emas ekan. Nimaga ham bo'sin? Qizning uyi usiz ham uning haqidagi xotiralarga to'a. Bir vaqtlar qizchaning xonasidagi darpardalar kuyib ketganda, Georg o't o'chiruvchilardan ham oldin harakat qilgani, Emiliya tiqilib yig'lab o'tirgan zina ostidagi hujradan ham xotiralar guli mo'ralab turibdi. Derazadan bolalik xotiralarini jonlantirib turuvchi akatsiya daraxti ham ko'rinish turibdi. Uning hozir na guli, na yaprog'i bor, uning novdalari qirov bilan qoplangan, go'yo marjon gul taqib olganga o'xshaydi. Novdalar orasidan o'n to'rt kunlik to'linoy mo'ralab turibdi. Oy qanchalik o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay, Georg Emiliya bilan bitta nonni baham ko'rgan paytdan buyon zarracha o'zgarmabdi.

Qiz yashik ichidan «Kreml» va «Emiliyaning qasri» suratlarini olibdi. Ular ham Georg haqida gapirishayotgandaymis, qiz suratlarga suq bilan boqibdi. Suratlar uning xayollariga g'ulg'ula solibdi! Qiz ota-onasiga bildirmay o'lim to'shagida yotgan darbon xotini yoniga tushganlarini, uning yoniga o'tirib, qolini ushlaganini, ayol jon taslim qilganda duo o'qiganini, ayol o'layotib: «Georg... sendan roziman!» deganini eslabdi. Ona o'shanda faqat o'glini o'ylagandi, Emiliya uning so'zlariga alohida mazmun bag'ishlagandi. Ha, harholda Georg Emiliya bilan uning tug'ilgan kunini xayolan bo'lsa-da, birga o'tkazibdi!

Ertasi kuni generalning tug'ilgan kuni bo'libdi. U o'z qizidan bir kun keyin, albatta bir necha yillar oldin tug'ilgan ekan! Yana sovg'alar yog'ilibdi. Sovg'alar ichida odatdan tashqari qulay va qimmatbaho egar turganmish; bunaqa egar shahzodalardan birida bor edi, xolos. Buni kim yubordi ekan? General buni ko'rib terisiga sig'may ketibdi. Egari yoniga xat qo'yilganmish. Unga: «Kechagi

uchun rahmat!» deb yozilgan mish. Buning kimdan ekanligiga hammaning aqli yetar ekan-u, lekin xatning oxiriga: «General tanimaydigan shaxs dan!» – deb yozib qo'yilgan ekan.

– Olamda men tanimaydigan odam bormi o'zi? – debdi general. – Hammani taniyman! – Uning xayollari bepoyon olam bo'y lab keza boshlabdi. Yo'q, u yoqda u hammani taniydi. – Bu xotinim dan! – deb o'y labdi nihoyat. – U meni kalaka qilmoqchi! Charmant!

Lekin xotini uni kalaka qilishni xayol-xotiriga ham keltirmagan ekan. Bu tantana o'tib ketibdi.

Yana bayramga hozirlik ko'rila boshlanibdi, lekin generalnikida emas, balki shahzodalardan birinikida. Maxsus maskarad kiyimi kiyib boriladigan bazm kuni tayinlanibdi, maska kiyishga ham ijozat berilibdi.

General Rubens qiyofasiga kiribdi, u tik yoqa ispancha kostyum kiyibdi, yoniga qilich osibdi, viqor bilan kerilib yura boshlabdi. Xotini esa Rubensning rafiqasi qiyofasida, qora baxmaldan tikilgan, yoqasi hasharnatli yopiq ko'yakda issi qdan nafasi qaytib qiynalibdi. Kostyum generalga qarashli Flamand rassomi chizgan suratdan nusxa olib tikilibdi; suratda ayni qsa ayolning qollari judayam chiroyli ekan, general xotinining qollari ham aynan o'shanga o'xsharkan,

Emiliya yupqa to'r va kashtalarda xuddi Psixeyaning o'zi bo'lib qolgan ekan. U osmonda uchib yurgan oqqush pariga o'xshar, Psixeya kostyumiga mansub bo'lgan qanotchalarga ehtiyoji yo'q ekan.

Bu shunaqayam ajoyib bazm bo'libdiki! Shunaqayam rang-baranglik, hashamat zo'r bo'libdiki! Hammayoq gulga to'lib ketibdi! Ko'zlar qamashib, tinib ketibdi, Rubens xotinining bejirim bilaklariga qarash qayoqda.

Kapyushoniga akatsiya novdasi surati tushirilgan, qora domino kiygan yigit Psixeya bilan o'yinga tushibdi.

– Bu kim bo'ldi? – deb so'rabdi generalning xotini.  
– U kishi qirol oliy hazratlari! – debdi general. – Bunga ishonchim komil: u kishini qo'l qisishidan bilgandim.

Generalning xotini shubhalanibdi. General Rubens esa mutlaqo shubhalanmabdi, u qora domino kiygan kimsa-ning oldiga kelib, uning kaftiga shahzodaning otasining ismini yozib qo'yibdi. U esa boshini chayqab quyidagiicha ishora qilibdi:

- Xat egar ichidal General tanimagan shaxs!
  - Unday bo'lsa sizni taniyman-ku! – debdi general. – Egarni siz yuborgansiz. – Domino o'ng qo'lini baland ko'taribdi-da, olomon ichida g'oyib bo'libdi.
  - Anavi qora dominolik kim ekan, Emiliya? – deb so'rabdi generalning xotini. – Hozir sen u bilan o'yinga tushding-ku!
  - Men uning ismini so'ramabman! – deb javob qaytaribdi qizi.
  - Chunki uni tanigansan! U professor! Graf, siz o'z himoyangizga olgan odam shu yerdal – deb gapida davom etibdi generalning xotini, yonida turgan grafga murojaat qilarkan. – Akatsiya novdasi surati tushirilgan qora domino.
  - Bo'lishi mumkin! – debdi u. – Aytganday, shahzoda-lardan biri ham xuddi ana shunday kiyingan!
  - Men uning qo'l qisishidan sezib qoldim! – deb gapida turib olibdi general. – Shahzodadan egar sovg'a olganman. Bunga ishonchim komil, uni tushlikka taklif qilaman!
  - Mayli, shunday qila qoling! Agar u shahzoda bo'lsa, albatta keladi! – deb javob qaytaribdi graf.
  - Bordiyu, u anavi... boshqa bo'lsa kelmaydi! – debdi general va hozirgina qiroq bilan suhbatini tugallab turgan qora dominoga yaqinlashibdi. General dominoni tavoze bilan tushlikka taklif qilibdi, u bilan yaqinroq tanishish istagida ekanligini izhor etibdi. General baland ovoz bilan aniq gapiribdi, yuzida ishonchi komil odamlarga xos tabassum o'ynabdi, axir, u tushlikka kimni taklif qilayotganini bilarkan-da!
- Domino niqobini olibdi: u Georg ekan.
- General o'z taklifini takrorlaydimi? – deb so'rabdi u.
  - General yana bir qarich o'sganday bo'libdi, viqor va dimog'dorligi battar oshibdi; u ikki qadam orqaga-

tashlabdi, so'ng qadimgi menuet raqsiga tushganday bir qadam oldinga yuribdi, yuziga generalga xos olijanob xislat berishga intilib, buning uddasidan chiqibdi ham.

— Men hech qachon so'zimdan qaytmayman! Professor taklif etildi! — debdi.

U hamma gapdan xabardor bo'lib turgan qironga ko'z qirini tashlagancha uzoqlashibdi.

Generalnikida tushlik bo'libdi; tushlikda faqat graf bilan u himoyaga olgan odam bo'libdi.

«Endi g'isht qolipdan ko'chdi!» — deb o'yabdi Georg. Chindan ham eng tantanali vaziyatda g'isht qolipdan ko'chibdi.

Ha, yosh yigit yana generalning uyida paydo bo'libdi, o'zini oliy tabaqadan chiqqanday tutib gaplashibdi, general buni o'z ko'zi bilan ko'ribdi, payqamaslikning iloji bo'lmasdi-da. Bundan tashqari, yigit oliy darajada otamlashadigan ulfat chiqib qolibdi, bundan zavqlanib ketgan general beixtiyor bir necha bor: «Charmant!» deb xitob qilib qo'yibdi. Generalning xotini esa bu tushlik haqida darhol odamlarga gap tarqatibdi, saroydagi eng aqli va eng muhtaram xonimlardan biri kelgusi safar yosh professor taklif qilinishi bilanoq ularnikida tushlik ovqatini yejish istagi borligini izhor qilibdi. Professorni yana tushlikka taklif qilishga to'g'ri kelibdi. U taklifni bajonidil qabul qilibdi va yana oliy darajada yoqimtoyligicha qolibdi; ma'lum bo'lishicha, hatto u shaxmat ham o'ynarkan!

— U mutlaq yerto'la toifasidan emas! — debdi general. — Ehtimol, u oliy nasabli odam bolasi bo'lsa kerak! Bunaqalar ko'p, bu o'rinda yigitchamiz aybli emas.

Qirol saroyida bo'lgan professor generalnikida ham bo'lishi mumkin, lekin bu oilada ildiz otayotganini ham oldindan ko'ra oladimi? Bu haqda gap bo'lishi mumkin emas — butun shaharda nuqul shu haqda duv-duv gap.

U harholda ildiz otishga ulguribdi.

Xudo undan marhamatini ayamabdi, u yurt maslahatchisi bo'lganda, Emiliya ham shu lavozim egasi bo'libdi, bu hech kimni ajablantirmabdi.

– Hayot yo fojia, yo komediya! – debdi general. – Fojiada sevishganlar halok bo'lishadi, komediyada qovushishadi.

Georg bilan Emiliya qovushibdi, ular qo'chqorday-qo'chqorday uchta o'g'il ko'rishibdi, albatta, birdaniga emas.

Shirin bolakaylor bobosi va momosinikida mehmonda bo'lishib, hamma xona va zallarda yog'och ot minib chopqillashibdi, ularning ketidan general ham yog'och ot minib ergashibdi, go'yoki «jippi yurt maslahatchilarining jokeyi» bo'libdi.

Generalning xotini esa divanda o'tirib olib, hatto asabi buzilib, boshi og'rigan kunlarida ham nabiralariga jilmayib boqibdi.

Georgnинг martabasi ana shunday ulug'lashib ketibdi. Uning obro'yi yana oshibdi, shunday bo'lмаганда darbonning o'g'li haqida gapirib ham o'tirmasdig.

## BOYCHECHAK

Qish shamoli uvillabdi, uy ichi esa shinam va issiq ekan. Ana shu uychada gul yashirinib olgan ekan. Albatta, u qor va tuproq ostida o'z ildizini yashirgan ekan. So'ng yomg'ir yog'ibdi. Tomchilar qor pardasini teshib, gul ildiziga toma boshlabdi. Tomchilar yerdagi yorqin, nurga to'la hayot haqida hikoya qilishibdi, undan keyin esa muloyim va qat'iyatli quyosh nuri qor orasidan o'tib, ildizni ilita boshlabdi.

– Kimsiz? Kiravering! – debdi gul.

– Kirolmayman! – debdi quyosh nuri. – Men eshikni ocholmayman. Yozgacha sabr qil, o'shanda kuchga to'laman.

– Yoz qachon bo'ladi? – so'rabdi gul. Quyosh nuri har safar yerga yetib borganda ana shu savolini takrorlayveribdi. Lekin hali yozga ancha erta bo'lib, hammayoq qor bilan qoplangan ekan, har kuni kechasi suv muzlab qolarkan.

- Bu juda jonga tegdi-kul! - debdi gul. - Vujudim zirqirayapti. Qaddimni cho'zishim, qaddimni rostlashim, erkinlikka chiqishim, yozga ta'zim qilib, ertalabki salom berishim kerak. Oh, bu naqadar ulug' baxt!

Oxiri gul o'rnidan turibdi, kerishib cho'zilibdi, iliq tuproq, qor suvi va quyosh nuridan namlangan qobig'iga yonboshlabdi. U ko'm-ko'k poyasi uchida och yashil g'unchasini ko'targanicha darhol yuqoriga bo'y cho'za boshlabdi, g'unchaning nozik gulbarglari qor ustiga chiqibdi. Qor sovuq ekan, lekin ko'z qamashtirib yarqirab turganmish, uning orasidan chiqish ancha oson ekan, quyosh nurlari hatto ilgarigidan ham yaqinmish. Quyosh nurlari qo'ng'iroqday tovushlari bilan:

- Xush kelibsiz! Xush kelibsiz! - deyishayotganmish, hatto kuylashayotganmish.

Gul qor ustidan quyosh nuriga peshvoz chiqibdi.

Quyosh nurlari gulni silab-siypabdi, nozikkina bo'sa olibdi, natijada gul butunlay ochilib ketibdi. Gul qorday oppoq bo'lib, quvonch va sharm-hayo bilan boshini quyi egib turaveribdi.

- Chiroyli gul! - deb kuylabdi quyosh nurlari. - Naqadar nafis, latifsan! Sen ilk ochilgan gul! Sen yakka-yu yagonasan! Sevikligimiz! Sen shahar va qishloqlarga iliq yozdan darak olib borasan! Qorlar erib, sovuq shamollar bosh olib ketadi! Bizning mavsumimiz boshlanadi! Hammayoq yashil libos kiyadil Siren, tolbuta, atirgul singari do'stlaring paydo bo'ladi, lekin sen ilk gulimizsan, nafis va latifsan, beg'uborsan!

U butun havo kuylaganday, quyosh nurlari uning barglari, poyalariga singib ketganday sevinibdi, latif, nozik-nihol, lekin shu bilan birga yoshlik go'zalligi bilan och yashil libosida turaveribdi va yozni sharaflayveribdi. Lekin hali yozga uzoq ekan, bulutlar quyosh yuzini to'sibdi, sovuq izg'irin shamol esibdi.

- Sal ertaroq bosh ko'taribsan! - debdi unga ob-havo bilan Shamol; - Biz hali senga kuchimizni ko'rsatib qo'yamiz! Qudratimizni bilib olasan! Uyingda jim

o'tiraver ganing, yasanib ko'chaga chiqmaganing ma'qil edi. Sen aytgan fursat hali kelgani yo'q!

Yana sovuqlar boshlanib ketibdi. Quyosh yilt etib ko'rinnagan badqovoq kunlar uzoqqa cho'zilibdi. Kunlar shunday sovibdiki, bechora nozik gulning tomir-tomirigacha muzlab ketibdi. Lekin o'zining bu qadar kuchliligini o'zi fahmlamabdi – yoz baribir keladi, degan ishonch va surur unga kuch-quvvat bag'ishlabdi. U yozga sadoqatlilikicha qolibdi, quyosh nurlari kutishga arziydi deb dalda beribdi. U qalbi sevgi, ishonch va umidga to'la holda oq harir kiyimda qor betida turaveribdi, laylakqorlar yoqqanda va izg'irin shamollar esganda esa boshini quyi solibdi.

– Adoyi tamom bo'lasan, – deyishibdi unga. – Muzlab qolasan, xazon bo'lasan! Bu yerlarda nimani axtarib yurgan eding? Nega quyosh nuriga ishona qolding? U seni aldadi. Ajab bo'ldi, tentak. Sendaqa yoz xabarchisini qara-yu!

– Ahmoq! – deb takrorlabdi gul ayozli tong otganda.

– Yoz xabarchisi! – deb qiyqirishibdi bog' ichiga chopqillab kirishgan bolalar. – Qaranglar, biram ajoyib, chiroyli, endigina ochilgan yolg'iz gul ekan!

Gul bu gaplardan quyosh nuridan quvonganday sevinib ketibdi. Shunchalik sevinibdiki, hatto bolalar uni uzib olganini ham payqamabdi. Qarasa, u bir bolaning qo'lida turganmish, bola uni o'pibdi, hademay o'zini issiqliqina xonada ko'ribdi, atrofdan unga mehribon ko'zlar boqibdi, uni suv ichiga solib qo'yishibdi. Suv shunaqayam tetiklantirib, kuch-quvvat bag'ishlabdiki, gul uchun go'yo yoz boshlanib ketganday bo'libdi.

Yaqinda balog'at yoshiga yetganini nishonlagan uy egasi qizining ko'ngil qo'yan yigit bo'lib, u ham yaqinda balog'at yoshiga yetganini nishonlagan ekan.

– Bir uning boshini aylantiray! – debdi qiz; so'ng latif gulni olib, atir sepilgan varaq olibdi, varaqqa gul haqidagi she'r bitilgan ekan. U shunday misralar bilan boshlanarkan: «Boychechak: Yana yoz fasli keldil!» Xat

quyidagi so'zlar bilan tugarkan: «Senga aytib qo'yay, biz uchun esa sevgi mavsumi keldi!» – deb yozib qo'yibdi.

Xushro'y oyimqiz ham yigitga iliq quyosh va'da qilibdi. Bu gaplar she'rda yozilgan ekan, keyin she'rni gul bilan birga konvertga solib, jo'natib yuboribdi. Gul o'zini yana ildiz qobig'iga kirib qolganday his etibdi, atrof qorong'ilashib ketibdi-da. Shunday qilib, boychechak sayohatga otlanibdi; u pochta qopida ketibdi, boshqa xatlar uni har tomonidan qisib ezg'ilashibdi, bu unga hech qanday huzur-halovat bag'ishlamabdi. Sayohat ham tugabdi. Sevikli yigit konvertni ochib, xatni o'qibdi, nihoyatda xursand bo'lib, gulni o'pibdi; keyin gulni she'r bilan birga ko'pgina xatlar saqlanayotgan qutichaga tashlab qo'yibdi, lekin qutidagi xatlarning birortasida ham gul yo'q ekan. Quyosh nurlari aytganday, u bu yerda yakka-yu yagona bo'lib qolibdi, bu haqda o'ylash unga huzur bag'ishlabdi.

Bu haqda u istaganicha o'ylashi mumkin ekan, u butun yoz va uzoq qish davomida o'ylabdi, gul yana yigitning ko'ziga tushibdi. Bu safar yigit zarracha bo'sin xursand bo'lmasabdi: u she'rni qo'liga olib, mayda-mayda qilib yirtib tashlabdi, shunda gul yerga tushib ketibdi. To'g'ri, gul qurib g'ujanak bo'lib olgandi, lekin bu uni yerga tashlab yuborish kerak degan so'z emas-da. Xat bilan she'r lovillab yonayotgan joyga qaraganda bu yerda yaxshi. O'zi nima gap? Ko'pincha uchrab turadigan voqeа bo'ldi, xolos.

Boychechak erta bahorda yoz xabarchisi bo'lib yolg'onchiga chiqdi. Qiz ham muhabbatini izhor qilib, so'ng so'zida turmay yolg'onchi bo'lib qoldi, bu o'ta yovuz yengiltaklik. Yoz fasli kelganda qiz boshqa bir yigitning etagini tutib ketibdi.

Ertalab quyosh nuri yerda yapaloq bo'lib yotgan ~~sh~~kinagina boychechakka tushibdi, u go'yo yerga chizib qo'yilgan rasmga o'xsharmish. Cho'ri qiz o'sha yerni supirayotib gulni olibdi va kitoblardan birining ichiga solib qo'yibdi. Kitoblar changini artayotganimda tushib ketgan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da. Gul yana she'rlar,

she'r bolganda ham bosmaxonada bosilgan she'rlar ichiga tushib qolibdi. Bular qo'lyozma she'rlarga qaraganda ancha olijanobroq, ancha qimmatbaho she'rlar ekan!

Oradan yillar o'tibdi. Kitob tokchada turaveribdi; keyin uni olib, ochishibdi va o'qishibdi. Bu juda yaxshi va nodir kitob ekan: u Daniya shoiri Ambrozius Stubning she'r va qo'shiqlari ekan, o'qishga arziyidigan asarlar ekan. Kitobni o'qiyotgan odam uni varaqlay boshlabdi.

– Oh, – debdi u, – bu yerda ilk ochilgan, esi past boychechak yotibdi-ku! Menimcha, uni kitob orasiga bejiz solib qo'yishmagan! Sho'rik Ambrozius Stubl Uning o'zi ham ilk bor ochilgan boychechakka o'xshardi, uning qismati yovuz shamollar, qor va sovuqlar bo'ldi. U qadrdon Fyun orolida go'yo stakan ichida sevgi maktubi orasiga solib qo'yilgan boychechakday u pomeshchikning uyidan bu pomeshchikning uyiga sarson-sargardon kezib yurdi, lekin hech qachon soddadil, afanditabiat, ammo hamisha navqiron, yakka-yu yagona birinchi daniya shoirini payqamadi. Ha, jajji boychechak, kitob orasida esdalik bo'lib qolaver, seni bu yerga bejiz qo'yishmagan!

Shunday qilib, boychechak yana kitob orasiga tushib qolibdi. U o'zini ajoyib qo'shiqlar kitobi ichida bejiz yotmaganini va boychechakni ulug'lagan shoir ham aqli kamroq, qishga qarshi chiqqan yigitcha bo'lganini o'ylashdan huzur qilibdi: gul buni o'z bilganicha tushunibdi, biz insonlar ham ko'p narsani o'zimizcha tushunamiz-ku.

Shunday qilib, yengiltak jajji boychechak haqidagi ertak ham tugabdi.

## XOLAM

Xolamni bilsangiz edi, ular haqiqiy tilla ayoll Tilla deganda o'ta sohibjamol, go'zal ayol ekan deb o'ylamang, balki yoqimtoy, yorug' jahonda tengi yo'q ayol. Bor-yo'g' ana shu kishi bilan hazillashib, kulishing-da! U kishini!

hech ikkilanmay kulgili sahna o'yinida qatnashadirish ham mumkin. Buning boisi bor: xolamning hayoti teatr bilan, teatrga aloqador hamma narsa bilan bog'langan. Umuman, xolam ancha e'tiborli ayollardan edi, shu vajdan josus Bolman xolamni teatr savdoyisi deb ulug'lardi.

— Teatr — mактабим, bilimlarim manbai, — derdi xolam.  
— Teatr sharofati bilan muqaddas tarix «Muso», «Iso va uning akalari» bo'yicha bilimlarimni yangilab oldim. Bularning hammasi operada. Teatr sharofati bilan jahon tarixi, geografiyasi va psixologiyasi bilan tanishdim! Fransuz pesalaridan Parij hayotini bilib oldim: bu yengiltak hayot kechirish bo'lsa-da, ancha qiziql «Rikebur oilasi» ustida qanchalar ko'zyoshi qildim-al O'zingiz o'ylab ko'ring, pesa qahramoni bo'lgan qiz o'z sevgilisiga turmushga chiqishi uchun pesa qahramoni bo'lgan yigit o'lar darajada ichimlik ichadi-ya! Ha, ellik yil teatrga abonent bo'lib qanchadan-qancha ko'zyoshi to'kdim.

Xolam har bir pesa, har bir sahnaning ichki hayotini, hozir yoki ilgari sahnaga chiqqan har bir artistning nomini bilardi. Omadi gapni aytganda, u bir yilda to'qqiz oy yashardi, uch oy yoz teatr ta'tili paytida qarib qolardi, yarim kechagacha cho'zilgan bitta teatr oqshomi esa yoshartirib yuborardi. U boshqa odamlar singari «Hademay bahor ham keladil», «Laylak kelibdi», «Gazetalarining yozishicha, maymunjon pishibdi», deb o'tirmaydi, aksincha: «Hech gapdan xabarlingiz bormi? Teatr mavsumiga abonnement ochilibdi! Hademay tomoshalar boshlanadi!» — deb kuzni olqishlaydi.

U kishi uyning afzalligi va qulayligini teatrga qanchalik yaqinligi bilan o'lchardi. Teatr orqasidagi kichkinagina tor ko'chadagi ko'rimsiz uyini tark etib, sal nariroqdagi katta ko'chaga, ro'parasi xarobazordan iborat uyga ko'chib borganida judayam xafa bo'lgan.

— Men uyda ham o'z ko'shkimga — derazamga ega bo'lishni istayman! O'zingcha fikr yuritish yarashmaydi, odamlarga ham nazar tashlab turish kerak! Hozir go'yo qishloqda, ovloq joyda yashayotgandayman! Odamlarni

ko'rgim kelsa, oshxonaga kirishim, stol ustiga chiqishim kerak – o'shandagina derazadan qo'shnilarimni ko'taman. Tor ko'chada yashaganimda yaxshi edil U yerda derazadan zig'ir sotuvchi savdogarning uyi shundoq ko'rini turardi, teatr ham ikki qadam narida edi, endi bo'lsa teatrda uch ming qadam narida yashayapman!

Ba'zan xolamning tobi ham qochib qolardi, lekin qanday og'ir holatda bo'lmasin, tomoshalarni kanda qilmasdi. Bir kuni doktor unga kechqurun oyog'iga achigan xamir qo'yishni buyuribdi. U oyog'iga xamir qo'yibdi-yu, baribir teatrga boribdi, oyog'ida xamir bilan tomoshani nihoyasiga yetkazibdi. Olsa o'lardiki, lekin teatrda qolmasdi. Axir, Torvaldsen ham teatrda o'lib qolgan-ku, xolam bunaqa o'limni savobdan boshqa narsa emas, derdi.

Xolam hatto jannatni ham teatrsiz tasavvur qilolmaydi. Albatta, bu bizga va'da qilingani yo'g'-u, lekin u dunyoning jannatiga tushgan ajoyib artistlar o'sha yerda ham o'ziga yarasha ish topib olishlari haqiqatga yaqin!

Xolamning xonasiga teatrda o'ziga xos telegraf ham o'tkazilgan, telegramma har yakshanba kuni qahva ichishayotgan paytda kelardi. Pardani ko'tarishga va dekoratsiyani o'zgartirishga signal beradigan teatr mashinisti janob Sivertsen telegraf xizmatini bajarardi.

Xolam undan repertuar haqida qisqa, lekin aniq ma'lumotlar olardi. Sivertsen Shekspirning «Bo'roni»ni baloyi azim deb atardi, chunki uni sahnaga qo'yishning hashami ko'p-da! Birinchi pardada: «Dengiz dastlabki sahna ortigacha!» «Bu bilan u dengiz to'lqinlari juda yoyilib ketadi», demoqchi. Agar sahna har beshala pardada bitta xonadondagi voqealarni ko'rsatsa, bu pesa o'ta oqilona yozilgan, huzur qilib dam olish mumkin, derdi. Chunki xona o'zgarmasa, artistlar hech qanday nayrangsiz o'ynayveradi-da. Ilgari zamonlarda, ya'ni bundan o'ttiz yil muqaddam yuqorida nomi zikr qilingan janob Sivertsen mashinistlik qilayotgan yosh paytlarida, xolamning gapiga ko'ra, u xolamga nisbatan juda himmatli ekan. O'sha paytlarda shahardagi yakka-yu yagona teatrda

tomoshabinlarni sahnaning har ikki tomonidagi ship ostiga joylashgan o'ringa qo'yish odati bor edi. Mashinist ham ana shunaqa o'rnlardan bir-ikkitasiga ega edi. Bu joylar hamisha saralangan odamlar bilan liq to'la bo'lardi; aytishlariga ko'ra, hatto o'sha o'rnlarga generallarning xotinlari va boshqa zodagon xonimlar ham o'tirish orzusida bo'larkan. O'sha yerdan sahna orqasiga, parda tushirilgandan keyin asar qahramonlari sahnada o'zlarini qanday tutishlariga qarash maroqli ekan-da.

Xolam tragediya yo balet namoyish qilinayotganda o'sha o'rnlarda ko'p o'tirar ekan. Bu pesalarda artistlarning eng ko'p qismi qatnashgani uchun yuqoridan tomosha qilish ancha qiziq bo'larkan. Tomoshabinlar qorong'ilikda bo'lsa-da, bemalol o'tirisharkan; hammalari kechqurungi yeguliklarini olib kelisharkan. Bir kuni Ugolino zindonida yotgan va ochdan o'lishga mahkum etilgan kishi rolini o'ynayotgan artistga qazi va uch dona olma tashlashibdi! Tomoshabinlar ichaklari uzilgudek kulishibdi. Teatr ma'muriyati yuqoridagi o'rnlarni olib qo'yibdi, bunga o'sha qazi va olmalar sababchi bo'libdi.

– Harholda, yuqoridagi o'rinda o'ttiz yetti marta o'tirishga ulgurdim! – derdi xolam. – Janob Sivertsenni hech qachon unutmayman.

Tomoshabinlarga yuqoridagi o'ringa o'tirish uchun ijozat bo'lgan oxirgi oqshomda. «Sulaymon sudi» namoyish qilinardi; janob Sivertsenning sharofati bilan, garchi u teatrдан hamisha kulib yurgani uchun bunga sazovar bo'lmasa-da, xolam jesus Bolmanga ham bilet olgandi. Lekin u «teatrda ovoragarchiliklarni ichidan» ko'rmoqchi edi. U xuddi ana shunday gapni aytibdi ham, gapi o'ziga o'xshash sovuq ekan-da.

U yuqorida «Sulaymon sudi»ni tomosha qilib o'trib uxlab qolibdi. U o'zini son-sanoqsiz qadahlar ko'tarish e'lon qilingan katta tushlik ziyoftadan kelgan odamday tutibdi. Shunday qilib, u uxlab qolibdi, tomoshaning oxirigacha uxlabdi, uni qop-qorong'i, bo'm-bo'sh teatr ichiga qamab qo'yishibdi.

– Uyg'onsam, – debdi u keyinroq (xolam uning gaplariga hech ishonmasdi), – «Sulaymon sudi» tugabdi, hamma chiroqlar, shamlar o'chibdi, xaloyiq tarqab ketibdi, ana o'shanda chinakam tomosha – xotima boshlandi. Bunisi juda qiziq bo'ldil Hamma narsa jonlanib, «Sulaymon sudi» emas, balki «Teatrda qiyomat» boshlandi.

Ana shunaqa bema'ni gaplari bilan jesus Bolman xolamni laqillatmoqchi bo'libdi, teatr shipi ostidan joy olib bergani uchun ana shunaqa «minnatdorchilik» izhor qilibdi!

Josus aytgan gaplarning hammasi sirdan qaraganda qiziqqa o'xshab ko'rinarshan-u, aslida u zaharxandaga to'la ekan.

– Yuqori judayam qorong'i ekan! – debdi u. – Lekin «Teatrda qiyomat» degan sirli tomosha boshlanib ketdi. Eshik yonida turgan nazoratchilar har bir tomoshabindan teatrga qo'li bog'liqsiz, burniga burundiq tutmay kirishga huquqi bor yo yo'qligini tasdiqlovchi qog'ozlarni talab qila boshladи. Teatrga kech qolib kelgan janoblar – vaqtga qarab ish tutish qiyin-da! – teatrga kiraverishda aylanib yurishdi, keyingi pardanining boshlanishida teatrga shovqinsiz kirib olish uchun poyafzallariga kigiz bog'lab olishdi. Bundan tashqari, ularga burundiq ham taqildi. Shundan keyin «Teatrda qiyomat» boshlandi.

– Bularning hammasi Xudoga xush kelmaydigan zaharxandalik, ko'ngli qoralik, xolos! – deb javob qilibdi xolam.

Josus hamon gapida davom etibdi:

– Osmonga ko'tarilishni istagan dekorator o'zi chizgan narvon bilan ko'tarilishi kerak ekan, narvon esa kelgusidagi hamma qonunlarni yoppasiga inkor etar ekan! Sozlash qismining mudiri samoga ko'tarilishdan oldin to xo'rozlar qichqirgunga qadar tegishli bo'lмаган mamlakatlarga o'rnatilgan bino va o'simliklarni lozim bo'lgan joylarga ko'chirib o'rnatishi kerak ekan!

– Janob Bolmanning o'zlari qanday qilib bo'lsa-da, samoga ko'tarilish g'amini yesalar bo'lardil

Xolamning gapiga qaraganda, uning komediya va tragediyada o'ynaydigan artistlar, ashulachilar va balet o'yinlarini ijro etuvchilar haqida aytgan gaplari ichiqoralikning o'zi ekan! U yuqori o'rinda o'tirishga arzimas ham ekan! Xolam uning zaharxanda gaplarini takrorlashni ham xohlamabdi. U bo'sha, bularning hammasi yozilgan, men o'lgandan keyin albatta bosilib chiqadi, deb ishontiribdi. Bo'lmasa xolam uni g'ajib tashlar ekan!

Xolam o'zining huzur-halovat qasri – teatrda faqat bir marta dahshatga tushgan. Voqeа qishning «birpaslik» tund kunlaridan birida sodir bo'lgandi. Tashqari sovuq, qor yog'ayotgandi, lekin xolam albatta teatrga borishi kerak edi. Bunaqa tomoshani qoldirib bo'ladimi. Ustigustak xolamnikida yashaydigan odam xolamga tizzasigacha keladigan mo'yna etik ham bergen edi.

Xolam teatrga boribdi, lojaga o'tiribdi, oyog'i isib ketsa ham, etigini yechmabdi. To'satdan odamlar: «Yong'in!» – deb baqirib yuborishibdi. Sahna orqasida, ship ostida tutun buruqsabdi. Hammayoq to's-to'polon bo'lib ketibdi. Xolam chap tomondagi ikkinchi yarus lojasida yolg'iz qolibdi; uning gapiga ko'ra, o'sha joydan sahna bezagi chiroyli ko'rinarshan, qiroq lojasini ham sahna bezagi yaxshi ko'rinaridigan qilib o'rnashtirishadi-da! Nihoyat xolam eshik oldiga yetib boribdi, oldin chiqib ketgan tomoshabinlar shoshilishda eshikni yopib qo'yishibdi. Xolam tuzoqqa ilinganday bo'lib qolibdi. To'ppa-to'g'ri dahlizga chiqishning iloji yo'q ekan, qo'shni lojadan oshib o'tishning ham imkoni yo'q ekan, panjaralar ancha baland ekan. Xolam baqirib-chaqiribdi, hech kim eshitmabdi. U egilib, pastdagagi yarusga qarabdi, u yerda ham hech kim yo'qmish. Xolam dahshatdan yasharib, qushday yengil, chaqqon bo'lib ketibdi, u panjaradan oshib, pastga tushmoqchi bo'libdi, hatto oyog'ini oshiribdi, ikkinchi oyog'i o'rindiqda ekan. U ana shunday holatda, ot minib olganday, yasangan-tusangan, guldor ko'ylakda, mo'yna etigini osiltirganicha o'tiraveribdi. Ajoyib manzara! Odamlarning ko'zi unga tushganda, baqiriq-chaqiriqlarini

eshitganda uyat o'tida yonib ketay debdi, chunki teatr yonmayotgan ekan-da.

Uning gapiga qaraganda, o'sha kun uning hayotida<sup>agi</sup> eng unutilmas oqshom bo'lib qolibdi. Yaxshiyamki, o'shanda u o'zining qanday ahvolga tushganini ko'rman, bo'limasa uyatdan o'lib qolarkan.

Uning mehriboni, mashinist Sivertsen xolamning uyiga har yakshanba kelarkan, u yakshanbadan-bu yakshanbagacha kutish cho'zilib ketgani uchun keyingi paytlarda chorshanba kunlari uyiga «qorin to'yg'azishga» (dasturxonda qolgan ovqatlarni yeyishga) kichkina bir qizni taklif qiladigan bo'libdi. Qizcha baletlarda qatnashar, lekin qorin qayg'usida yurar ekan. U Elf hamda mahrambachcha rollarida chiqarkan; uning eng qiyin rollaridan biri «Sehrli surnay»<sup>dagi</sup> «sherning orqa oyogi», ekan. Bora-bora u oldingi oyoq rolini ham bajaradigan bo'libdi, lekin unga bir marta rol bajargani uchun atigi uch taler to'lashibdi, vaholanki, orqa oyoq rolini bajarganda bir riksdaler to'lanardi. Shunga yarasha uch buklanar va nafasi qaytib ketardi! Bularning hammasi xolamni qiziqtirardi.

U eski teatr yopilgunga qadar yashasa bo'lardi-yu, yasholmadil! Teatrda ham o'lmadil! U izzat-hurmati bilan o'z uyi, o'z o'rnida jon berdi. Uning so'nggi gaplari ham qiziq edi. U: «Ertaga qanaqa pesa qo'yiladi?» – deb so'radi.

Xolam vafotidan keyin undan besh yuz riksdalerga yaqin pul qoldi. Har yigirma riksdalerdan bir foiz foyda olish uchun shartnomaga tuzamiz. Bu foydani bunga munosib, yolg'iz qizga umrbod qarilik nafaqasi tariqasida beramiz. Xolam shunday vasiyat qilgan. Bundan tashqari, qiz teatrda chap tomon yarusi lojasida o'tirib, shanba kunlari ko'rsatiladigan eng yaxshi pesalarni tomosha qilardi. Pensioner qizga faqat bitta majburiyat yuklangan – har shanba kuni u teatrda marhum xolamni eslab qo'yadi.

Xolam butun umri bo'yicha ana shu narsaga ta'zim qilgan va xizmat qilgan.

## BAQA

Quduq chuqur bo'lganidan arqon ham uzun edi. Suv to'la paqirni tortib olishayotganda chig'ir arang aylanardi. Quyosh shu'lasi hech qachon quduqning tiniq, musaffo suviga tushmasdi, quyosh nuri tushgan joylarda esa yo'sin o'sardi. Xuddi ana shu yerda kattagina baqalar oilasi istiqomat qilardi. Quduq ichida ularni ko'chmanchilar deb atashardi. Rostini aytganda, bu yerga eng avvalo oyog'i osmondan kelib, eng keksa baqa - baqalarning momosi kelib qolgandi, u hozir ham bor. Azaldan quduq ichida yashayotgan ko'm-ko'k baqalar suvda o'zlarini yaxshi sezishar, keksa baqani o'zlarining qarindoshi deb bilar, unga qarashli baqalarni «cho'milgani kelgan chorborg'chilar» deb atashardi. Chorborg'chilarga esa bu yer yoqib qolibdi, ular «quruqlikda» mustahkam o'rashib olishibdi va quduqning nam devorlarini «quruqlik» deb nomlashibdi. Baqalarning momosi bir kuni sayohatga chiqibdi - paqirni tortib olishayotganda uning ichiga tushib ketibdi. Tepaga ko'tarilsa, hammayoq yop-yorug'mish, hatto ko'zları qamashib ketibdi. Baxtiga, paqirdan o'z vaqtida sakrabdi. U suvga shaloplاب tushibdi, uch kungacha qimirlay olmabdi, yelkalari zirqirab og'ribdi. U tepadagi olamdan uncha xabardor emas ekan, lekin o'zi ham, boshqalar ham quduq ichi butun olam emasligini yaxshi bilisharkan. Albatta, momo baqa yuqoridagi hodisa va voqealarni aytib bera olar ekan-u, lekin u hech qachon savollarga javob bermagan ekan, shu vajdan unga hech kim savol ham bermas ekan.

- Eh, anavi semiz kampir muncha xunuk-a! - deyisharkan yosh baqalar g'azablanib. - Judayam badbashara-yal Uning bolalari ham, nevaralari ham o'ziga o'xshagan xunuk bo'ladi.

- Bo'lishi mumkin, - debdi momo baqa. - Lekin ulardan birortasining yoki o'zimning boshimda qimmatbaho tosh yashiringan.

Ko'm-ko'k baqalar uning gaplarini ko'zlarini lo'q qilib eshitishibdi, lekin bunaqa gaplar ularga yoqmabdi, shu vajdan aftlarini bujmaytirishib, suv ostiga sho'ng'ishibdi. Yosh baqachalar esa g'urur bilan orqa oyoqlarini ko'tarib qo'yishibdi. Ular go'yo qimmatbahoh tosh har birining boshida turganday qimirlashmabdi, oxir-oqibat ular momolaridan nima uchun kerilishlari lozimligini va qimmatbahoh toshning nimaligini so'rashibdi.

– U judayam chiroyli, qimmat narsal – debdi momo. – Uni ta'rif-tavsiflashga ham ojizman. Kishilar o'zini xursand qilish va boshqalarning havasini keltirish uchun taqib yurishadi. Boshqa savol bermanglar, javob bermayman.

– Axir, menda qimmatbahoh tosh yo'q-ku, – debdi eng kenja va eng xunuk baqacha, undan ham xunugi yo'q ekan-da. – Menga bunaqa chiroyning nima keragi bor? Boshqalar havas qilsa, buning qanaqa xush yoqadigan joyi bor? Yo'q, men butunlay boshqa narsani orzu qilaman, bir marta bo'lsa ham quduq qirg'og'iga ko'tarilib, tashqariga nazar tashlasam, mayli. Yuqorida ta'rifga sig'maydigan go'zalliklar bor bo'lsa kerak!

– Joyingda o'tiraver! – deb gapga aralashibdi momo baqa. – Bu yerda sen hammani, hamma esa seni taniydi. Paqirdan ehtiyyot bo'l, yana ezib-netib qo'ymasini Paqirga tushib qoldingmi, darrov pastga sakrash payida bo'l. Lekin hech kim quduqqa mendek epchillik bilan tusholmaydi, mana, terim ham, suyagim ham bus-butun.

– Vaq! – debdi kichkina baqa, bu bizning «oh!» deganimizning o'zginasi ekan.

Uning qirg'oqqa chiqqisi, tashqarini tomosha qilgisi, ko'm-ko'k o't-o'lamlarni judayam ko'rgisi kelibdi! Ertasi kuni suv to'sha paqir bir zumga kichkina baqa o'tirgan tosh oldida to'xtab qolgan ekan, uning yuragi gup-gup uribdi, paqirga sakrab tushibdi va uning tubiga yashirinib olibdi. Paqirni yuqoriga tortib olishibdi-da, darhol suvini to'kib tashlashibdi.

– Rosa omadim keldi-ku! – debdi baqaga ko'zi tushgan bir kishi kinoya bilan. – Buning xunukligini qarang-a!

Bunaqa badbasharasini hech uchratmaganman! – Shunday debdi-da, yog'och kavushi bilan baqani tepib yuboribdi, sal bo'lmasa mayib qilayozibdi. Yaxshiyamki, baqa darhol o'zini qichitqi o't ichiga olibdi. U har bir poyani ko'zdan kechiribdi, osmonga qarabdi: quyosh nurlari yaproqlar orasidan mo'ralabdi, yaproqlar judayam tiniqlashib ketibdi. Baqa qichitqi o't poyalari orasida odamlar o'zini o'tmonda yurganda qanday his etsa, u ham o'zini shunday his etibdi.

– Bu yer quduqqa qaraganda ancha go'zal ekan! Bu yerlarda umrbod qolish mumkin, – debdi jajji baqacha. U qichitqi o't ustida bir soat o'tiribdi, ikki soat o'tiribdi. – Qiziq, buyog'i qanaqa bo'larkin? Shu yerga yetib kelgandan keyin atrofni ham tomosha qilish kerak-dal! U shosha-pisha oldinga intilibdi, hademay o'zini yo'l yoqasida ko'tibdi. Qarasa, quyosh charaqlab turganmish, ham mayog'i tuproq bo'lib ketganmish, shunday bo'lsa ham yo'lni kesib o'tibdi.

– Mara bu yerni quruqlik desa bo'ladı. Atrofning ko'rksamligini qara-ya! Qanday yaxshil! Hatto ichlarim jimirlab ketyapti!

Ko'p o'tmay ariq bo'yiga yetib boribdi. Bu yerda bo'tako'z va tabulg'alar gullab yotganmish. Ariq bo'yida jonli devorday do'lana va marjon daraxtilarining bo'talari qalin o'sganmish. Oq pechakgul chirmoviqday yuqoriga intilibdi. Umuman, bu yerda gullarning hisobi yo'qmish! Ularning ustida kapalaklar uchib yurganmish. Baqa uni ham gul bo'lsa kerak, olamni kezish uchun yuqoriga ko'tarilgan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi.

– Men ham ana shunaqa tez harakat qilolsaydim, – deb xo'rsinibdi baqa. – Vaq! Vaq! Naqadar go'zal!

Baqa ariq ichida sakkiz kecha-yu sakkiz kunduzni o'tkazibdi. Yegani oldida, yemagani ketida bo'libdi. To'qqizinchı kuni: «Olg'al Olg'al» deb oldinga intilibdi.

Yaxshilikdan yaxshilik izlamaydilar, lekin u nimani axtarmoqchi bo'libdi? Yo o'ziga o'xshagan bir-ikkita cho'l baqa va ko'k baqalarni topmoqchimikin? To'qqizinchı kun

kechasi shabada o'ziga qadrdon ovozlarni olib kelibdi, qarindosh-urug'lар shu yaqin о'ttada bo'lsa kerak-da.

— Hayot go'zal! Quduqdan chiqib olish, qichitqi о't ustida о'tirish, chang yo'llarda sakrab-sakrab yurish, namgina ariq ichida huzur qilib dam olish naqadar yaxshil Lekin olg'a, olg'al Baqalarni izlab topish kerak! Do'stlarsiz yashay olmaysan, yolg'izga dunyo ham torlik qiladi!

Shunday deb baqa yo'lg'a tushibdi.

U dalani kesib о'tib, atrofi qamish bilan qurshalgan katta anhor labigacha sakrab boribdi, qamishzor ichiga qarabdi.

— Siz cho'lbaqa ekansiz; bu yer sizga namlik qilmaydimi? — deyishibdi anhordagi baqalar. — Lekin kelganingizdan behad xursandmiz. Siz yigitmisiz yo'xonim? Aytganday, o'z uyingizday bemalol yuravering.

Kechqurun uni uy kontsertiga taklif qilishibdi. Bu yerdagi shovqin xuddi odamlarnikiga о'xsharmish. Uni kechki ovqat bilan siylashmabdi, lekin ichimlik tekin ekan, bir anhor-a, ming ichgan bilan tugamaydi!

— Xo'sh, endi men ketay, — debdi kichkina cho'lbaqa. Uni bundan ham yaxshiroq narsalar kutayotgandaymish.

U osmonda charaqlab turgan katta-kichik yulduzlarni, yangi chiqqan oyni, quyosh chiqishini va osmon-u falakka ko'tarilishini ko'ribdi.

— Men hamon quduqdaman, lekin oldingidan kattaroq quduqdaman! Men yuksakka ko'tarilishim kerak. Meni yuksaklik o'zi tomon imlayapti, o'zimni qo'ygani joy topolmayapman!

O'n to'rt kunlik oy chiqqanda esa, bechora o'ylabdi: «Ehtimol, bu ulkan paqir bo'lsa kerak? Uni pastga tushirishsa unga tushib olaman, yanada balandga chiqaman! Ehtimol, quyosh paqirdir? U biram katta, yarqiroqki! Hamma baqalar unga bemalol sig'amiz. Faqat kuzatish, fursatni qo'ldan boy bermaslik kerak. Oh, olam, olam! Hatto qimmatbaho tosh ham bunchalik yarqiramasa kerak. Lekin u tosh boshimda yo'q, bo'lmasa ham mayli — uning menga keragi yo'q. Yo'q, men

yuksaklikka, nur va baxt sari ko'tarilmoqchiman! Men shunga jazm qildim, lekin sal hadiksirab turibman, bunga jazm etish hazilakam ishmi? Lekin kerak bo'lgandan keyin kerak-da. Olg'a, olg'a, yo'lga!

U oldinga shunaqayam qattiq sakrabdiki, anchamuncha cho'lbaqa bunaqa sakray olmaydi, u o'zini qishloq yo'lida ko'ribdi. Atrofda odamlar yashayotganmish. Hammayoqda bog' va polizlar yastanganmish. Cho'lbaqa damini rostlab olish uchun karam bargi ostida to'xtabdi!

- Atrofda shuncha mavjudotlar bor-a, bu mening xayolimga ham kelmagan ekan. Oh, dunyo naqadar keng, unda yashash qanchalik zarur, hamma narsani yaxshilab ko'rish lozim.

Shunday deb, u tomorqaga o'tibdi.

- Voy, bunchayam o't-o'lan ko'p-a! Jonning huzuriyal!

- Bo'lmasamchi! - debdi karam yaprog'ida o'tirgan kapalak qurti. - Men o'tirgan yaproq judayam katta! U yarim dunyoni o'z soyasi ostiga oladi, lekin shunday bo'lsa ham yaxshi yashayman!

- Qo-qo-qo! - degan tovushni eshitibdi cho'lbaqa. Qarasa, tomorqa ichida tovuqlar yurganmish. Oldindagi tovuqning ko'zi o'tkir ekan. U darhol karam bargi ustida o'tirgan kapalak qurtini ko'ribdi va cho'qishga chog'lanibdi. Lekin kapalak qurti o'zini yerga tashlabdi va jon-jahdi bilan o'rmalay boshlabdi. Tovuq unga bir ko'zi bilan qarabdi, keyin boshqasi bilan qarabdi: qurtning nima uchun bunchalik jil panglashini tushunmabdi.

«U o'z xohishi bilan shunday qilmayapti», - deb o'ylabdi tovuq va uni cho'qishga hozirlanibdi. Cho'lbaqa shunaqangi dahshatga tushibdiki, tovuqqa qarab sakraganini o'zi ham bilmay qolibdi.

- Ha, hali shunaqami? Uning ko'maklashadigani ham bor ekan-da! - deb xitob qilibdi tovuq. - Buning xunukligini qarang! - U teskari o'girilib olibdi. - Bu badbashara maxluqni yeb zarur kelibdimi, uni o'ylaganim sayin ko'nglim aynib ketyapti.

Boshqa tovuqlar ham uning fikriga qo'shilishibdi va nari ketishibdi.

— Xo'b buralib qochdim-dal — debdi kapalak qurti. — Yaxshiyamki hammavaqt dadil turaman. — Lekin eng mushkul ish oldinda — karam bargi ustiga chiqib olishda. U qayerda qoldiykin?

Jajji cho'ibaqa hamdardlik bildirgani uning yoniga sakraganicha boribdi. O'zining badbasharaligi bilan dushmanlarni qo'rqitib yuborganidan quvonib ketibdi.

— Siz nimalar deyapsiz o'zi? — debdi kapalak qurti. — Sizning ko'magingizsiz o'zim qochdim. Sizga tikilish biram malol kelyaptik! Meni o'z uyimda o'z holimga qo'yishingizning iloji yo'qmikin! O, men karam hidini sezyapman! Yaproq'im qayerdaligini endi bilaman. O'z uyingdan ham aziz, ajoyib narsa yo'q bo'lsa kerak. Faqat yuqoriroqqa chiqib olish kerak.

«Ha, yuqoriroqqa, — debdi cho'ibaqa o'z-o'ziga. — Menga o'xshab kapalak qurti ham yuksaklikka intilmoqchi. Faqat uning avzoyi buzuq. Bo'imasam-chi, uni rosayam qo'rqitishdi-dal Hammamiz ham yuqorilamoqchimiz», — shunday debdi-yu, u boshini baland ko'taribdi, bunaqa qilish cho'ibaqa uchun ancha qiyin.

Dehqon uyining ustiga laylaklar uya qurgan ekan. Nar va moda loylak tinimsiz shaqshaqlashaveribdi.

— Ular naqadar yuksakda yashashadil — deb ajablanibdi cho'ibaqa, — o'sha yoqqa men ham chiqib olsam edi!

Ana shu uyda ikkita yoshgina talaba yashar ekan. Ularning biri shoir, boshqasi tabiatshunos ekan. Biri chin ko'ngildan xudo yaratgan mavjudotlarni qisqa, musaffo, jarangdor she'rlarda kuylarkan. Boshqasi esa har bir hodisa mohiyati va tafsilotini o'rganar, ular orasidagi aloqalar sirini ocharkan. Uning uchun dunyo qiyin va murakkab arifmetik masala ekan, u hisoblar, ko'paytirar, har bir narsani bilib olish ishtiyoyqida yonar, fikr yuritar, hamma narsa haqida oqilonan va berilib gapirarkan. Xullas, studentlar xushchaqchaq, ajoyib yigitlar ekan.

– Qara, cho'lbaqaning ajoyib nusxasi, – debdi tabiatshunos, – uni spirtlab qo'yilsa soz bo'lardi.

– Yana ikkita baqa bor-ku, – deb e'tiroz bildiribdi shoir, – uni o'z holiga qo'y, hayot nash'asini sursin.

– Bu naqadar xunuk, lekin ajoyib-al – deb xitob qilibdi sherigi.

– Agar uning boshida qimmatbaho tosh borligiga ishonchim komil bo'lganda edi, – debdi shoir, – uni yorishga ham rozi edim.

– Cho'lbaqada qimmatbaho tosh bo'larkanmi? – deb kulibdi sherigi. – Tabiatshunoslikdan hech xabaring yo'q ekan.

– Eng badburush jonivor – baqaning boshi ichida qimmatbaho tosh yashiringani haqidagi xalq afsonasi ajoyib narsa emasmi? Buni odamlarga nisbat bersa ham bo'ladi. Ezop, Suqrotlarni xotirla!

Cho'lbaqa ortiq hech narsa eshitmabdi, eshitganlarining ham yarmini tushunmabdi. Do'stlar uning yonginasidan o'tib ketishibdi, u esa spirtli shishaga tushish xavfidan qutulib qolibdi.

– Ular ham qimmatbaho tosh haqida gapirishdi! – deb ajablanibdi cho'lbaqa. – Uning menda yo'qligi naqadar katta baxt, bo'lmasa sho'rimga sho'rvva to'kilarkan.

Tomdag'i laylaklar battar shaqshaqlashibdi. Mundoq qarasa, ota laylak oila a'zolariga ma'ruza o'qiyotibdi-yu, oila a'zolari esa tomorqada yurgan ikkita yosh yigitga tikilib turishgan ekan.

– Inson – o'ta shuhraparast maxluq! – deb uqtiribdi laylak.

– Ularning nimalar deyayotganiga qulq soling! Ularning valaqlashidan nima foyda? Ular nuqul o'zlarining shirinsuxanligi, til boyliklari bilan kerilishadi. Ularning tili ham til bo'ptimi? Ular bir joydan boshqa joyga borib qolsa, bir-birlarining tilini tushunishmaydi. Bizniki haqiqiy til! Tilimiz yer kurrasining hamma burchaklarida, Daniyada ham, Misrda ham hammamizga tushunarli. Eh, odamlar, odamlar! Hatto ular hozir tezroq harakat

qiladigan bo'lib qolishdi, allaqanday temir yo'lni o'ylab topishdi, lekin ko'p odam bu yo'llarda hayot bilan vidolashdi! Bularni o'ylasang, dahshatdan hatto tumshuqlaring ham zirqirab ketadi! Yo'q, odamlar bo'lmanaganida ma'qul edi. Baqalar, yomg'ir chuvalchanglar serob bolsa, ularsiz ham binoyidek yashayveramiz.

«Naqadar tantanavor nutqi! – deb o'ylabdi jajji cho'lbaqa. – Engyuqorida o'tirganidan uning donishmand, mashhurligi sezilib turibdi! Hech kimni bunchalik yuksaklikda ko'rmagandim!» Laylak qanotlarini yozib parvoz qilganda esa: «Uning suzishini qarang-al!» deb xitob qilibdi.

Moda laylak uyasida o'tirib olib javrashda davom etibdi. U bolalariga Misr, Nil daryosi, ajoyib botqoqliklar haqida gapiribdi. Jajji cho'lbaqa uchun bu gaplar yangi va hayajonlantiruvchi gaplar edi.

– Misrga jo'nashga to'g'ri keladi, – debdi cho'lbaqa. – Erkak laylak va uning bolalaridan birontasi meni birga olib ketganda edi. Keyin yaxshiliklarini unutmasdim, to'ylarida xizmat qilardim. Oh, Misrga borsam kerak, omadim yurishib turibdi-ku! Mana shunday oshiqish, intilish og'ushida yashash qanday yaxshi! Qimmatbaho toshni olib yurgandan shu ma'qul-da.

Qimmatbaho tosh esa xuddi uning boshida saqlanar ekan! Hamisha yiroq-yiroqlarga, oldinga intilishdan ham qimmatli narsa bormi? Ana shu intilish qalbiga harorat berib, hayotini munavvar qilib, bitmas-tuganmas xursandchilik, baxt keltirib turarkan.

Xuddi shu payt unga laylak yaqinlashibdi. U o't-o'lan ichidagi cho'lbaqani ko'rib qolibdi, pastlab, sho'ng'ib osmonga ko'tarilibdi, cho'lbaqanining qulqlari shamol shovqinidan qomatga kelibdi. Bundan u juda quvonib ketibdi. Bo'lmasam-chi, uni yuksaklikka ko'tarishdi, uni Misrga olib ketishyapti! Cho'lbaqanining ko'zлari charaqlab, undan uchqunlar sochilibdi.

– Vaq! Vaq!

Shunday qilib, cho'lbaqa yo'q bo'libdi. Xo'sh, uning ko'zлардан taralayotgan uchqunlar qayoqda qoldi?

Uni quyosh nurlari o'z bag'tiga olibdi, quyosh nurlari cho'lbaqaning boshidagi qimmatbaho toshni olib ketishibdi. Lekin qayoqqa?

Buni tabiatshunosdan emas, yaxshisi, shoirdan so'ra! U senga kapalak qurti, laylak bolalari haqida chinakam ertaklar aytib beradi! O'zing o'ylab ko'r! Qurt chiroyli kapalakka aylanadi. Laylaklar dengiz va tog'lar ortidagi yiroq Afrikaga otlanishadi, so'ng qisqa yo'llar bilan yana Daniyaga qaytishadi, o'sha joy, o'sha tomda bo'lishadi. Lekin bular ertakka o'xshaydi-yu, aslida u turgan-bitgani haqiqat. Buni tabiatshunosdan so'ra, u ham shunday deydi. Buni o'zing ham bilasan, bunaqa hodisalarni ko'p ko'rgansan.

Cho'lbaqaning boshidagi qimmatbaho tosh qayoqda goldi? Uni quyoshdan axtar, uning ichidan topib olishga intil.

To'g'ri, quyosh judayam yorqin porlaydi, nur sochadi. Ollo Taolo ato qilgan quyoshga boqish uchun ko'zimiz bardosh berolmaydi. Lekin qachon bo'lmasin qarashga o'rganamiz. Bu esa eng ajoyib ertak bo'ladi, axir, u bizning haqimizdagи ertak-da.

## YOVUZ PODSHO

(Afsona)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, kalondimog' bir podsho o'tgan ekan. U nuqul butun olamni o'ziga bo'ysundirish, o'z nomi bilan hammaga dahshat solish xayoli bilan yasharkan. Kunlarning birida u o'zga yurtga o't ochib, qilich yalang'ochlab bostirib kiribdi; uning jangchilarini ekinlarni payhon qilishibdi, dehqonlarning uylariga o't qo'yishibdi; olovning qizil tillari daraxt yaproqlarini yalabdi, g'ujanak bo'lib qolgan novdalardagi mevalar qora qurumga aylanibdi. Tutuni osmonga ko'tarilayotgan devorlar ortida onalar qipyalang'och bolalarini bag'tiga bosib yashirishibdi, lekin jangchilar ularni axtarib

topishibdi, kishini dahshatga soladigan hangomalar  
boshlashibdi!

Yovuzlikda devlar ham bular oldida ip esholmaydigan bo'libdi. Lekin podshoning nazarida hamma ishlar silliq ketayotganday tuyulibdi. Kun sayin uning qudrati oshib boribdi, uning nomi hammani talvasaga solibdi, har bir yurishda omad unga yor bo'libdi. U bosib olingan shaharlardan oltin va behisob xazinalarni talab kelib, poytaxtida bitmas-tuganmas boylik to'plabdi; dunyoning biror yerida bunaqa boyliqni uchratish qiyin ekan. U hashamatli saroylar, ibodatxonalar va arklar qurishni buyuribdi, bu qurilishlarni ko'rgan odamlar: «Naqadar buyuk podshol» – deb xitob qilishibdi. Lekin ular podshoning o'zga yurtlar boshiga solgan kulfatlarini o'yashmabdi, talangan va yondirilgan shaharlar aholisining oh-vohlari, shikoyatlarini eshitishmabdi.

Podshoning o'zi ham oltinlariga, hashamatli binolariga tikilib, boshqalar singari: «Qanday ulug' podshoman-a! Lekin bular ham mening uchun oz! Bundan ham zo'rroq bo'lmoqchiman! Jahonda hech kimning hukmronligi menikidan o'zish u yoqda tursin, hatto tenglashishi ham mumkin emas!» – deb o'yлarkan.

Shunday qilib, u qo'shni mamlakatlarga yurish qilibdi va ularni o'ziga bo'ysundiribdi.

U poytaxt ko'chalarini aylanmoqchi bo'lsa asir olingan qirolliarni oltin zanjirlar bilan o'z aravasiga bog'lab qo'yishga amr qilar ekan. U ovqatlanishga o'tirgan paytda ular arkoni davlatning oyog'i ostida yotishi, zodagonlar tashlagan burda-burda nonlarni ilib olishi kerak ekan.

Nihoyat podsho o'ziga hamma maydonlarda va saroylarda haykallar o'rnatmoqchi bo'libdi; u o'zining haykallaridan birini ibodatxonadagi mehrob ro'parasiga ham qo'yamoqchi ekan, lekin ruhoniy: «Podsho, sen ulug'san, ammo Ollo Taolo sendan ham ulug', shu vajdan bunday qilolmaymiz», – debdi.

– Bo'pti! – debdi yovuz podsho. – Men xudoni ham bo'ysundiraman!

Bema'ni mag'rurlikdan boshi aylangan podsho havoda uchadigan ajoyib kema qurishni buyuribdi. Kemaning hammayog'iga bo'yoq bilan gul solib tashlanibdi, u minglarcha tangalari bor tovus dumiga o'xshab qolibdi, u har bir tangadan miltiq og'zini chiqarib qo'yibdi. Podsho kemaga o'tiribdi; bitta prujinani bosgan zahoti minglarcha o'q otilarkan, miltiqlar yana o'z-o'zidan o'qlanib qolarkan. Yuzta bahaybat lochin kemaga qo'shilibdi, kema osmoni falakka ko'tarilib, quyosh tomon yo'l olibdi. Pastda yer arang ko'rilib, tog' va o'monlar avvalo shudgor qilingan qo'riqqa, keyin esa sip-silliq xaritaga tushirilgan manzaraga o'xshab ketibdi va, nihoyat, ular ham bulut tumani orasida ko'zga ko'rinxay qolibdi. Lochinlar tobora yuksakka ko'tarilib; shunda parvardigor son-sanoqsiz farishtalaridan birini unga peshvoz chiqaribdi, lekin yovuz podsho uni o't ochish bilan qarshi olibdi. O'qlar farishtaning yarqiroq qanotlariga borib tegibdi va pastga tutday to'kilibdi, qorday oppoq qanotdan faqat bir tomchi qon podsho o'tirgan kemaga tomibdi. Tomchi kema yog'ochini o'yib kirib, kema tubini ming pudlik qo'rg'oshinday pastga tortqilabdi. Kema ko'z ko'rmagan, qulqoq eshitmagan tezlik bilan pastga tusha boshlabdi; lochinlarning qudratli qanotlari sinib ketibdi; podshoning qulqolarida shamol guvillabdi; yongan shaharlardan to'plangan bulutlar jipslashib bahaybat shaklga kira boshlabdi; qisqichini podsho tomonga uzatayotgan ulkan qisqichbaqalarga, tog'lardan dumalayotgan qoyatoshlarga, olov purkayotgan ajdaholarga aylanibdi. Podsho kema tubida dahshatdan chalajon bo'lib yotaveribdi. Nihoyat kema qalin daraxtzorda shoxlar orasiga tiqilib qolibdi.

- Baribir Xudoni yengaman! - debdi podsho. - Men uni yengaman deb ont ichganman, aytganimni qilaman!

- Shunday qilib, u yangi havo kemalari yasashga buyruq beribdi; kema yasash yetti yil davom etibdi. Shuningdek, u chaqmoqdan mustahkam po'lat quyishga ham amr qilibdi, samo qal'asini hujum qilib olmoqchi bo'libdi; o'z

davlatining hamma burchaklaridan qo'shin to'plabdi; qo'shinlar bir necha kvadrat milya joyni egallabdi. Askarlar kemalarga o'tirishga tayyor ekan, podsho o'z kemasiga yaqinlashibdi, shu payt parvardigor unga qarshi kichkinagina chivinlar galasini yuboribdi. Chivinlar podsho atrofida g'ung'illab, yuz-ko'zlarini chaqa boshlabdi. Ujon achchig'ida qilichini yalang'ochlab chivinlarga hamla qilibdi, lekin qilich chivinlarga tegmay, nuqul havoni kesibdi, xolos. Shunda u qimmatbaho gilamlarni keltirib, chivinlar chaqmasligi uchun o'zini o'rab tashlashlarini aytibdi. Buyruq bajarilibdi, lekin chivinlardan biri gilam ichiga kirib olibdi. Podshoning qulog'iqa kirib chaqibdi. Podshoning tomirlarida olov yugurganday bo'libdi, chivin zahari uning miyasigacha yetib boribdi, u gilamlarni uloqtirib, kiyim-kechaklarini tilka-pora qilibdi, qipyalang'och holda qahri qattiq askarları oldida u yoqdan-bu yoqqa yugurib irg'ishlay boshlabdi. Olomon esa xudoni yengmoqchi bo'lgan, lekin o'zi mag'lub bo'lgan tentak podshoning ustidan rosa kulibdi.

### AKA-UKALAR

Daniya orollaridan birida, bug'doyzorlar o'ttasida qadimiylar yashaganini bildirib turuvchi yarim doira shaklidagi toshlar yotgan, o'rmonlarda bahaybat qora qayinlar yashnab turgan joyda bir shahar bor ekan, shaharning uylari pastak-pastak, tomi qizil cherepitsa bilan yopilgan. Ana shu uylardan birining o'chog'ida o't yonib turibdi, bu yerda allaqanday bir narsa tayyorlanyapti, shisha idishlarda nimalardir qaynayapti, nimalarnidir aralashdirib, nimalardir bug'sifatida haydalayapti, havonchada ildizlar maydalanyapti. Bu ishlarning hammasini keksaroq bir kishi bajaryapti.

– Haqiqatga erishmoq kerak! – debdi u. – Chinakam haqiqatga, hammayoqda haqiqat bo'lmog'i lozim. Unga erishib, mahkam ushslash kerak.

Mehmonxonada, saxovatli uy bekasining yonida ikkita o'g'il bola o'tiribdi: ular yosh, lekin yoshiga qaraganda ancha zehnli. Onalari ham ularga hamisha haqiqat, chinakam yaxshilik haqida ko'p gapirar, haqiqatga amal qilishga o'rgatar ekan. Axir, yerdagi haqiqatda Ollo Taoloning jamoli namoyon bo'larkan-da. To'ng'ich o'g'ilning ko'zlari ma'noli va qat'iyat bilan boqarkan; u tabiatning qudrati, quyosh va yulduzlar haqida ko'p o'qishni yoqtirarkan. Hech qanaqa ertak uning tasavvurini shularchalik boyita olmagan ekan. Eh, yorug' dunyo bo'ylab uzoq-uzoqlarga sayohat qilish, kashfiyotlar ochish, qushlarniki singari uchsa bo'ladigan qanotlar kashf etish qanday ulug' baxt! Mana shuni «haqiqatga yetish» deyiladi! Dadasi bilan oyisi haq: olam haqiqat bilan mavjud.

Kenja o'g'il yuvosh, kamgap, nuqul kitob o'qirkani. U otasidan birinchi bo'lib tug'ilish uchun fotiha olgan, echki terisini kiyib olgan Yoqub payg'ambar haqidagi kitobni o'qiganida alamdan g'azablanib, mushtchalarini tugarkan. U olamdagi zolimlar,adolatsizliklar va yovuz qilmishlar haqida o'qiganida yig'lab yuborishiga sal qolarkan. U jahonda nuqul haqiqat tantana qiladi, degan fikr bilan yashar ekan.

Bir kuni oqshom paytida bola o'ringa yotibdi, lekin pashshaxona pardasi yaxshi yopilmagan ekan, unga yorug' tushibdi, o'sha yorug'da o'qishi mumkin ekan. U kitob bilan o'ringa yonboshlabdi: u Solon voqeasini oxirigacha o'qib qo'yishi kerak ekan-da. Bolaning fikrlari uni yiroq-yiroqlarga yetaklabdi. Karavot kemaga aylanibdi, kemaning hamma yelkanlari ko'tarilib suzib ketibdi. Bu tushimi yo o'ngimi? Kema zamonalarning ulkan to'lqinlari ustidan suzib boribdi, bola hatto Solonning tovushini ham eshitibdi: garchi notanish tilda bo'lsa ham, Daniyaning: «Davlat qonun bilan quriladi!» – degan shiorini eshitibdi.

Insoniyat dahosi shu lahzada faqir xonadondagi bola ko'rpassi ustida parvona bo'lar va uning peshanasidan

o'par: «Bardam, halol bo'l, hayot bilan kurashda astoydil bo'l! Jahonda haqiqatni qo'riqlovchi bo'l, abadiy haqiqat sari intil!» – deb aytarkan.

Akasi hali uxmlamay, deraza oldida turganicha o'tloqdan ko'tarilayotgan tumanga tikilarkan. Bu rostgo'y xizmatchi ayol aytganday, elflar o'yini emas ekan. Yo'q, bola buni yaxshi biladi, bu bug', u havodan ko'ra issiqroq va yengilroq, shuning uchun ham yuqoriga ko'tarilarkan. To'satdan falakdan yarqiroq yulduz tushibdi, bolaning fikrlari bir lahzada yerdagi bug'lanishlardan yarqiroq yulduzga ko'chibdi. Osmon yulduzlari ravshan charaqlar ekan, go'yo ulardan yergacha ingichka zarrin ip cho'zilganday ekan. «Men bilan birga uch!» – degan sado yangrabdi bola qalbida, so'ng insoniyatning buyuk dahosi uni kurraning yorug'lik nurlari o'zaro bir-birlari bilan qo'shib aylanayotgan cheksiz fazoga olib ketibdi. Ular o'sha yoqqa qushdan ham, o'qdan ham, yerdagi har qanaqa uchar mavjudotdan ham tez uchishibdi. Bizning yerimiz yupqa atmosfera qatlami bilan qoplanib harakat qilibdi, shaharlar bir-biriga birikib ketganday bo'libdi, shu payt: «Seni buyuk daho o'z qanotlarida olib uchayotganda «yaqin» va «uzoq» degan tushunchalar nimani bildiradi? – degan nido yangrabdi.

Bola yana o'zini deraza yonida ko'ribdi, tik turib tumanni tomosha qilayotganmish; ukasi o'rnila yotganmish; oyisi ikkovolarini chaqiribdi: «Andres, Xans Kristiani!»

Daniya bu nomlarni biladi, butun jahon aka-uka Erstedlarni<sup>10</sup> biladi.

---

<sup>10</sup> Aka-uka Erstedlar – Anders Sende Ersted (1778–1860) – Daniya yuristi va davlat arbobi, Hans Kristian Ersted (1777–1851) – Daniya fizigi.

## KO'HNA CHERKOV QO'NG'IROG'I

Nemis yurtida, bahor chog'larida yo'l chetlaridagi akatsiyalar chaman-chaman gulga ko'miladigan, kuzda esa mevasining mo'lligidan olma va noklar mayishib ketadigan Vyurtembergda Marbax degan shaharcha bor. U uncha mashhur bo'lman shaharchalar qatoriga kiradi, lekin u shaharlar, ritsarlarning qal'alari, yam-yashil uzumzorlar yonidan chopqillab o'tib, tezroq mag'rur Reyn suvlariga qo'shilishga oshiqqan xushmanzara sohilli Nekkar daryosi yoniga joylashgan.

Kech kuz edi: uzum barglari qizg'ish tusga kirgan, yomg'irlar yog'ib, izg'irinli shamollar esayotgan ekan; kambag'allar uchun xursandchilik damlari yetib kelgan ekan. Yomg'irli, qovog'i soliq kunlar boshlanibdi, shahardagi ko'hna uylar ichi bundan ham badqovoq ekan. Ana shu uylardan birining old tomoni ko'chaga qaragan, yon devorlarida pastak derazalari bor ekan; sirdan qaraganda ko'rimsizgina uy ekan. Unda yashovchi xonadon egalari garchi halol, mehnatkash, xudojo'y bo'salar-da, ancha faqir kishilar ekan. Ularga Ollo Taolo yangi farzand ato qilaman deb turgan paytlar ekan. O'sha kun yetib kelibdi, onani to'lg'oq tuta boshlabdi, to'satdan qo'ng'iroqxonadagi katta qo'ng'iroq jaranglab qolibdi – odamlarni tantanali ibodatga chorlay boshlabdi. Qo'ng'iroq ovozi ona qalbining eng to'rida ham jaranglab, Olloga bo'lgan ehtirom hislariga to'ldiribdi. Fikrlari parvardigor bilan band bo'libdi, shu lahzada Xudo tole yor etibdi – ayol o'g'il tug'ibdi. Cherkov qo'ng'irog'i butun shahar va mamlakatga ona quvonchini taratayotganday tuyulibdi. Onaga go'dak tiniq ko'zlarini tikib turganmish, oltinrang sochlari jingalakmish. Bola nimqorong'i noyabr kunlarida, cherkov qo'ng'irog'i sadolari ostida tug'ilibdi. Ota-onas o'g'illarining peshanasidan o'pib, uylaridagi Injilga shu so'zlarni yozib qo'yishibdi: «1759-yil o'ninchisi noyabr kuni Ollo Taolo bizga o'g'il ato qildi». Keyinroq uni cho'qintirilganda Iogann Kristof Fridrix nomini olibdi.

Marbax shaharchasida tug'ilgan faqir bolakay ~~kim~~  
bo'lib yetishdi deng! O'shanda uning kim bo'lishini hech  
kim bilmas ekan: qancha yuksaklikda bo'lsa ham,  
bolaning dunyoga kelishini tabriklagan ko'hna qo'ng'iroq  
ham buni bilmas ekan, vaholanki, u «qo'ng'iroq haqidagi  
qo'shiq»ni qoyillatib kuylaydigan yigit bo'lib yetishibdi.

Bola balog'atga yetibdi, uning ko'z oldida olam ham  
kamol topibdi. Ota-onalari boshqa shaharga ko'chib  
ketibdi, do'stlari esa Marbaxda qolibdi, shuning uchun  
ham bir kuni ona-bola bu yerga mehmonga kelishibdi.  
O'shanda bola olti yoshda ekan, lekin u Injildan ba'zi  
narsalarni, duolarni bilarkan, ko'pincha u novdadon  
to'qilgan kreslosida o'tirib olib, oqshomlari otasining  
Gellert masalalarini va «Messiada»ni o'qishini tinglarkan.  
O'shanda uning ko'zlarida yosh yiltillarkan, o'zidan ikki  
yosh katta opasi ham bizni qutqarish uchun Isoning  
butga mixlanishga rozi bo'lganini eshitib yig'larkan.

Bu yerga mehmonga kelganlarning nazarida shahar  
uncha o'zgarmaganday ekan, ularning ko'chib ketganiga  
ham ancha bo'lgan ekan-da. Uylar hamon devor va pastak  
derazalarini yopib turgan uchlik tomlarini ko'z-ko'z qilib  
turisharkan: faqat qabristondagi go'rilar ko'payibdi, devor  
yonida, qalin maysa ustida esa ko'hna qo'ng'iroq yotibdi.  
U qo'ng'iroqxona ustidan qulab tushibdi, yorilib ketibdi,  
ortiq xizmat qilishga yaramay qolibdi; uning o'tniga esa  
yangi qo'ng'iroq osilibdi.

Ona-bola qabristonga kirishibdi, ko'hna qo'ng'iroq  
oldida to'xtashibdi, onasi yuz yil davomida qo'ng'iroqning  
qilgan xizmatlarini, cho'qintirish, to'y, dafn, marosimlarida  
jaranglaganini, bayram shodiyonalari va yong'in  
dahshatlari haqida ma'lum qilganini, xullas, inson  
hayotining muhim lahzalarida hamroh bo'lganini aytib  
beribdi! Bola ona hikoyasini yodida yaxshi saqlab qolibdi;  
bu hikoya to u balog'atga yetib, qo'ng'iroq haqida  
kuylaguncha bola qalbida jaranglab turibdi. Ona yana  
tug'ish asnosida dahshat va qo'rquvda qolganda  
qo'ng'iroq ovozi madad bo'lganini, kichkina o'g'ilchasi

tug'ilgani bilan tabriklaganini ham hikoya qilibdi. Bola ulkan, ko'hna qo'ng'iroqqa kamoli ehtirom bilan boqibdi, so'ng egilib, uni o'pibdi, u qichitqi o't ustida yorilgan holda, eskirib behuda yotmayapti.

Qo'ng'iroq faqirlikda o'sgan bolaning xotirasida naqsh-lanib qolibdi. U novcha, oriq, malla sochli, yuzi sepkilli ekan, lekin ko'zları tiniq, jozibali, dengizday moviy ekan. U qanday hayot kechirarkan. Uni harbiy maktabning zodagonlar bolasi tarbiyalanadigan maxsus bo'limgiga bajonidil qabul qilishibdi. Bu uning uchun katta obro', baxt ekan! U mardona botinkalarda, galstuklar taqib, upa sepilgan yasama sechlar kiyib yurarkan. Uni: «Olg'al Safga tur! Frontgal» degan qichqiriqlar ostida ko'p narsalarga o'rgatisharkan. Bunday ta'limgan naf kelmaydi deb o'ylaysizmi?

Ko'hna qo'ng'iroq qayta quyiladigan bo'libdi; undan nimalar yasasharkin? Lekin yigitchaning qalbida jaranglayotgan qo'ng'iroq ovozidan nima hosil bo'lishini aytish qiyin bo'lganidek, uni ham oldindan aytish qiyin. Qo'ng'iroq toza metalldan yasalgan ekan, uning jarangi butun olamga taralishi kerak ekan! U yigitchaning qalbida qancha baland yangrasa, uning uchun maktab dargohi shunchalik torlik qila boshlabdi, «Olg'al», «Safga turl», «Frontgal» degan xitoblar qulog'ini rosa qornatga keltiribdi. U do'stlari orasida qo'ng'iroq haqida kuylabdi, qo'shiq ovozi mamlakat tashqarisigacha taralibdi! Lekin unga qo'shiq aytishi uchun tarbiya va bilim, kiyim-kechak va ovqat berilmagan-da! U raqam qo'yilgan vint bo'lib, el-qatori ulkan soat mexanizmida sezilarli naf keltirishi kerak ekan. Xo'sh, nima bo'pti, ko'pincha o'zimizni o'zimiz tushunmaymiz-u, bizni boshqalar, hech bo'limasa jahonning eng yaxshi odamlari tushunishini qanday talab qilamiz? Lekin olmos yuqori bosim bilan bunyodga keladi; bu yerda bosimda nuqson yo'q ekan, faqat vaqt kelib olmosni ko'rish jahonga nasib qilarmikan?

O'sha mamlakat poytaxti katta tantanali bayram qilarkan; minglarcha chiroqlar porillab yonar, raketalar

otilarkan; o'sha oqshomdagi tantanalar hozir ham mol-ko'l ko'zyoshi to'kib, g'am-alam o'tida qovrilib, hech kimga sezdirmay, o'zga mamlakatga ketishga urinayotgan yigit sharofati tufayli xotirlanadi. U ikkidan birini tanlab olishi kerak ekan: yo o'z vatani, onasi, qarindoshlarini tashlab ketishi, yo umumiy oqimda nafasi qaytib yurishi kerak ekan.

Ko'hna qo'ng'iroqning ishi yaxshi ekan, u ibodatxona devorlarining himoyasida xilvatgina joyda turarkan. Uning tepasida shamol charx urib o'ynarkan, qo'ng'iroq bola tabriklaganini shamolga aytishi ham mumkin ekan. Shamol bo'lsa qo'shni mamlakat o'rmonida yerga behol o'tirib qolgan, yuz-ko'zlarini izg'irin yalagan, butun boyligi Fiyesko haqida hikoya qiluvchi, kelajakka bo'lgan umidi varaqlarga bitilgan yo'lovchi to'g'risida gapirib berishi mumkin ekan. U yigit yaratgan asarning qadriga yetuvchilar haqida ham gapirishi mumkin. Hamma gap rassomlarda. Asar o'qiyotganda ular sekingina xonadan chiqib, kegli o'ynasharkan-dal U haftalab, oylab ko'timsiz, bema'ni ko'ngilochishlar hukmron bo'lgan karvonsaroyda yashagan, rangi somon qochoq yigit haqida gapirishi mumkin ekan. Karvonsaroy egasi uchib turar, yigit esa o'z shirin orzularini kuylardi. Og'ir, mashaqqatli kunlar! Lekin kuylashga mahkum etilgan qalb hammasiga bardosh berishi kerak.

Ko'hna qo'ng'iroq boshidan ham og'ir kunlar, izg'irinli tunlar o'tibdi, lekin u buni payqamabdi, inson qalbidagi qo'ng'iroq bu dunyo g'am-alamlari yukini his etyaptimi? Yosh yigitning ahvoli nechuk? Ko'hna qo'ng'iroq ahvolichi? Ha, qo'ng'iroq qo'ng'iroqxona ustida qachonlardir jaranglaganda ovozi qayerga yetgan bo'lsa, undan ham yircqqa sayohat qilibdi, yosh yigitning qalbida jaranglagan qo'ng'iroq ovozi esa hali yigitning mutlaqo oyog'i ham, ko'zi ham yetmagan uzoq joylargacha taralibdi; uning jarangi hozirgacha butun olamda kezib yuribdi. Avvalo ibodatxona qo'ng'iroq'i hikoyasini eshit. Uni Marbaxdan olib kelishibdi, temir-tersak o'rnida Bavariyaga sotib

yuborishibdi. U yoqqa qanday va qachon borib qolibdi? Qolidan kelsa, bu haqda o'zi gapirib bersin; buning ahamiyati yo'q. Biz uning Bavariya poytaxtiga borib qolganini bilishimiz kifoya. U qo'ng'iroqxonadan uzilib tushgandan buyon ko'p yillar o'tibdi; uni qayta qurish vaqtি yetgan ekan, undan nemis xalqi va mamlakatining ulug' farzandi haykalining bir qismini quymoqchi bo'lishibdi. Keyin nima bo'lganini eshititing! Bu dunyoda ko'p ajoyib o'xshashliklar bo'ladi-da!

Daniyaning ko'm-ko'k ajoyib orollaridan birida, qora qayin o'rmonlari shovillab turgan, ko'pgina qo'rg'onlar bor joyda o'taketgan kambag'al bir bola yashagan ekan; u yog'och kavush kiyib yurarkan, kema yasaydigan joyda o'ymakor usta bo'lib ishlaydigan otasiga eskigina ro'molda tushlik ovqat olib borar ekan. Ana shu kambag'al bola o'z vatanining faxri bo'lib qolibdi – u marmardan jahonni hayratga soladigan haykallar yasabdi. U bir vaqtlar otasi Injilga nomini yozib qo'ygan Logann Xristof Fridrixning tasvirini, ajoyib va ulug'vor siyemoni loydan yashash sharafiga tuyassar bo'libdi. Buni esa keyinroq metalldan quyib olishibdi.

Metall erib forma ichiga quyilibdi. Ko'hna qo'ng'iroqdan haykalning boshi va ko'ksini yasashibdi, haykal hozir ham Shtutgartdagi ko'hna qal'a ro'parasida, haykalda ifodalangan odam tirikligida yurib o'tgan o'sha maydonda vigor bilan savlat to'kib turibdi. Ko'hna qo'ng'iroqning kelib chiqishi va tinib qolgan jarangi haqida hech kim o'ylamabdi. Ana shu maydondan muhtojlikning og'ir azobiga bardosh bergen va jahon kurash olib borgan marbaxlik bola, harbiy mакtabning tolibi, qochoq, Shveytsariyani ozod qiluvchi kishini va ilhombaxsh fransuz qizini madh etgan, kuylagan mashhur va nomi abadiy nemis shoiri o'tgan.

Quyosh charaqlab turgan ajoyib kun edi; Shtutgartdagi minora va uylar tomida bayroqlar hilpiradi, barcha qo'ng'iroqlar tantanavor va shodon jarangladi. Faqat bitta qo'ng'iroq jaranglamadi – haykalning yuzi va ko'ksi

quyosh nurida yarqiradi. Marbax qo'ng'irog'i jaranglab, to'lg'oqdagi ayolga madad bergan, o'gil tug'ilgan o'sha kunga rosa yuz yil to'ldi. Bola faqir xonadonda, kambag'alchilik avj olgan vaziyatda tug'ildi, lekin u oqibat-natijada butun olam sharaflayotgan katta xazinaning egasi bo'ldi. Xo'sh, bu bola kim ekan o'zi?

U ayollarning olijanob qalbini kuylagan, barcha go'zallik va ulug'veorlikni madh etgan shoir logann Kristof Fridrix Shiller ekan.

### DRIADA<sup>11</sup>

Biz Parijga jahon ko'rgazmasiga ketyapmiz.

Ko'z ochib-yumguncha Fransiyaga yetib keldik. Sayohatimizda qanot bog'lab uchdirik desak ham bo'ladi, buning hech qanaqa sehrli tomoni yo'q, avvalo dengizda, so'ng esa quruqlikda yo'l bosdik.

Zamonamiz ertaklar zamoni!

Mana, biz Parijning qoq o'tasidagi mehmonxonadamiz. Zinapoyalarni gullar bezab turibdi, unga yumshoq gilamlar to'shalgan.

Xonamiz shinam, balkon eshigi ochilsa, maydon kaftdagiday ko'riniб turadi. Maydonda bahor, u biz bilan bir vaqtning o'zida Parijga kelibdi. U endigina barg yozayotgan yoshgina, baland kashtan qiyofasida tashrif buyuribdi. Kashtan maydondagi hamma daraxtlardan ilgariroq bahor libosini kiyibdi. Biroq, kashtanlardan birini tiriklar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, chunki uni ildiz-pildizi bilan ko'chirib tashlashgan, u yerda sulayib yotibdi. Uning o'tniga boshqa kashtan niholi o'tkazisharkan.

Uni hozirgina katta aravada, Parijga juda uzoqdan, keng va bepoyon qishloqdan keltirishibdi. Kashtan u

<sup>11</sup> Driada - daraxt bilan birga tug'ilib, daraxtning o'zida yashaydigan va daraxt bilan birga o'ladigan ayol. Daniya xalq ertaklarida u o'rmon qizi deb ham yuritiladi.

yerda bir necha yil azim eman daraxti bilan yonma-yon o'sgan ekan. Emanning tagida bir muhtaram ruhoniyo t'rib olib, bolalarga qissalar aytib berarkan. Bolalar uning ertaklarini diqqat bilan tinglashar ekan! Yosh kashtan bilan unda yashayotgan driada ham cholning ertaklarini eshitishar ekan. Chunki driadaning o'zi go'dak ekan-da, kashtan ham yosh bo'lib, baland o't-o'lan va qirqquloqlar orasida endigina bo'y cho'zayotgan ekan. O't-o'lanlar undan baland o'sa olmas ekan, shu vajdan kashtan osmonga bo'y cho'zaveribdi. Musaffo havo bilan quyosh nurlari uni sug'oribdi, yomg'ir va shabnam esa yuvibtarabdi, qattiq shamol vaqtı-vaqtı bilan savalab turibdi.

Driada tirikligidan, mo'l-ko'l nur sochayotgan quyoshdan behad quvonibdi, hammasidan ham odamlarning hikoyasini eshitish unga huzur bag'ishlabdi, chunki u hayvonlarning tilini qancha yaxshi bilsa, insonlarning tilini ham shunchalik bilar ekan.

Kapalaklar, ninachilar, pashshalar – ishqilib uchish qo'lidan keladigan jamiki hasharoqlar driadanikiga mehmon bo'lib kelisharkan. Shu vaqtlar suhbat rosa qizir ekan! Ular bir-birlariga gal bermay shahar, uzumzor va o'rmon haqida, qadimiy qal'a va kanal hamda ariqlarga serob istirohat bog'lari haqida, suv ostida u yerdan-bu yerga uchib yuradigan tirik jonzotlar haqida gapirisharkan. Bular teranligi va donishmandligi bilan dong taratishgan ekan, o'zlari haqida esa churq etishmas ekan – ular ana shunaqa aqli ekan!

Suvga sho'ng'igan qaldirg'och chiroyli oltinbaliqlar, zog'orabaliqlar, tovonbaliqlar va boshqa baliqlar haqida hikoya qilib beribdi. Daldirg'och ularni yaxshilab ta'rif-tavsiflab, eng yaxshisi o'z ko'zi bilan ko'rgan ma'qul, debdi. Ammo driada bu ajoyib jonzotlarni borib ko'ra olarmidil! U qarshisidagi ko'zni quvontiradigan manzaralardan qanoat hosil qilish, odamlarning sertashvish hayotini kuzatish bilan kifoyalanar ekan.

Bularning bari qiziq bo'lib, driadaga hammadan ko'ra ham keksa ruhoniying ertaklari yoqib qolibdi. U eman

daraxti tagiga o'tirib olib, shogirdlarini Fransiya tarixi, uning nomlari, shon-shuhuratga burkangan o'g'il va qizlarining jasoratlari bilan tanishtiribdi.

Driada yosh podachi qiz Janna d'Ark va Sharlotta Kord, Genrix IV va Napoleon I ning podsholigi, qadimiy zamonlar va yangi zamonning ulug'vorligi haqida hikoyalar eshitibdi. Ruhoni tilga olgan ajoyib nomlar kishilar qalbida faxrlanish tuyg'ularini uyg'otibdi, chunki Fransiya aql-zakovat tayanchi, ozodlik o'chog'i, ulug' mamlakatda.

Dehqon bolalari ruhoni aytganlarini diqqat bilan tinglashibdi, driada ham xuddi shunday qilibdi, u ham ularning tengdoshiga, maktab o'quvchisiga aylanibdi. U osmonda suzib yurgan bulutlarga tikilibdi, ularning ko'rinishi o'zi eshitayotgan hikoyalarning manzarasi bo'lib gavdalanimibdi, ular tez-tez almashinib turibdi.

Bulutlar uning suratli kitobiga aylanibdi.

U go'zal Fransiyada tug'ilganidan quvonibdi, lekin qushlar, uchish qo'lidan keladigan boshqa mavjudotlar uchun ko'p narsa ochiq bo'lsa-da, o'zi bunga ega bo'lolmasligini his qilibdi. Driada o'z daraxtida turib ko'rGANidan pashsha uchib yurib ko'proq narsani ko'radi.

Fransiya keng va bepoyon bo'lib, driada esa uning kichkinagina burchagini bilar ekan, xolos. Uning uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan uzumzorlari, o'rmonlari, ulkan shaharlari bo'lib, shaharlar ichida eng ulkan, eng go'zali Parij ekan. Lekin driadaga uni ko'rish nasib etmagan, u yerga esa faqat qushlargina uchib borishi mumkin ekan.

Dehqon bolalari orasida kambag'al, juldur-juldur kiyimli jajjigina, chiroyli bir qizcha bor ekan, undan ko'zni uzish qiyin ekan. U hamisha qo'shiq aytib, xandon otib kular, timqora sochlariiga chiroyli gulchambarlar taqib yurar ekan.

— Hoy qiz, Parijga aslo borma! — debdi keksa ruhoni unga. — Agar borgudek bo'sang bormi — nobud bo'lasan.

Lekin qiz baribir Parijga jo'nabdi.

Driada qizchani vaqtı-vaqtı bilan eslabdi, axir, ularning ikkovlari ham ulug' shaharga talpinishayotgan ekan-dal!

Bahor o'tib, yoz kelibdi, keyin kuz va qish kiribdi.  
Oradan yillar o'tibdi.

Driada istiqomat qilayotgan kashtan birinchi marotaba gullabdi, bu haqda quyosh taftida maza qilib isinayotgan qushlar sayrab ma'lum qilishibdi. Bir vaqt yo'lda hashamatli arava ko'rinish qolibdi, unda dimog'dor bir xonim o'tirgan emish, xonim chiroyli va o'ynoqi otlarni o'zi haydab ketayotgan emish. Uning orqasida yasangan-tusangan yoshgina malay yigit o'tirgan emish. Driada ham, keksa ruhoniy ham xonimni bir ko'rishda darhol tanishibdi. Qariya boshini g'amgin chayqab:

- Baribir Parijga ketib qolding, bechora Mari! Shahar seni xarob qilibdi! – debdi.

- O'sha bechora shumi? – deb ajablanibdi driada. – U butunlay o'zgarib ketibdi-ku! Yasangan-tusangan, xuddi gersoginyaning o'zi-ku! Uni sehrli Parij shunchalik o'zgartirib yuboribdi-ya! Oh, qani endi men ham shaharga borib, u yerdagi go'zallik, hashamat-u dabdabani bir ko'rsam edi! Hatto kechasi ham Parij osmoni yorishib turadi, o'sha tomonga qarasam buni ko'raman, – der ekan.

Driada har oqshom, har tunda Parij tomonga tikilarkan. Shunda ufqda kamalakday tovlanayotgan nurlarni ko'rur ekan. Yorug' va oydinli tunlar driadaga juda zarur ekan. Chunki u shahar tarixidan chizilgan suratlarni anglatuvchi osmonda suzayotgan bulutlarga juda tashna ekan!

Bolalar suratli kitoblarga talpinishsa, driada esa osmondag'i bulutlarga talpinar ekan, axir ular driada uchun maroqli kitob ekan-da.

Bulutsiz yoz osmoni uning uchun top-toza sahifaday tuyular ekan, mana, bir necha kun unda bir parcha ham bulut ko'rinxabdi.

Yoz issiq, kunduzi quyosh olov purkar, qilt etgan shabada yo'q, gul barglari mudraganday bosh egib turar, odamlarni ham uyqu elitar ekan.

Lekin osmonning hov anavi burchida «Bu yer Parij!» deb xabar berib, kamalaksimon nur taratib turadigan joyda bulut paydo bo'libdi.

Bulutlar tobora yuqorilayveribdi, qalinalashib, tog' qiyofasiga kiribdi, so'ng oldinga intila boshlabdi, driada osmon ufqqacha bulut bilan qoplanganini ko'ribdi.

Bulutlar qoramtil, moviy rangdagi qoyatoshlarday bir-biriga mingashib, driadaning boshi ustida muallaq turib qolishibdi. Bulutlar ichida chaqmoq chaqibdi. «Bu ham Olloning xizmatkor!» – deya uqtiribdi ruhoniy. Birdan shunaqayam tiniq, ko'zni qamashtiradigan darajada chaqmoq chaqibdiki, qoyatoshlar orasidan quyosh ajralib chiqqanday bo'libdi. Chaqmoq pastga tushib, quadratli eman daraxtini tag-tomiri bilan qo'porib, tanasini ham, uchini ham sindirib tashlabdi. Eman ikkiga ajralgan holda samo elchisini o'z bag'tiga bosmoqchi bo'lganday yerga ag'darilibdi.

Momaqaldiroq dahshatli guldurabdi, birorta taxt vorisi tug'ilganda uning sharafiga to'plardan o'q otilganda ham bunchalik guldurash bo'lмаган екан. Jala yog'ibdi, ko'p o'tmay mayin shabada esibdi, bulutlar tarqab, atrof-tevarak tinch va sokin bo'lib qolibdi. Yiqilgan eman atrofida odamlar to'planibdi, keksa ruhoniy uning sharafiga nutq so'zlabdi, rassom esa esdalik uchun daraxt suratini chizibdi.

«Hamma narsa so'nadi! – deb o'ylabdi driada. – Suzib yurgan bulutlarday hamma o'tib ketadi, hech kimsa qaytmaydi.»

Keksa ruhoniy kashtan yonida boshqa ko'rinnabdi, chunki maktabining tomiga ham daraxt shoxlari qulab, minbari ham yo'q bo'lib ketibdi. Bolalar ham kelmay qo'yishibdi. Kuz, undan keyin esa qish kelibdi, so'ng bahor, yoz kiribdi. Yil fasllari almashinaveribdi, driada esa oqshomlari Parij ustida huzurbaxsh kamalak paydo bo'ladigan ufqdan hech ko'z uzmabdi. O'sha yoqlarda parovozlar guldirabdi, kechasi, ertalab, kechqurun temir yo'llarni taraqlatib poyezd ketidan poyezd o'tibdi. Bu poyezdlar jahoning turli mamlakatlaridan kelgan talay odamlarni tashir ekan. Ularni Parijdagi yangi karomatlar qiziqtirar ekan.

U o'zi nima edi?

– Marsova maydonining unumsiz qumlarida san'at va sanoat e'zozlagan ajoyib bir gul ochildi, – deb hikoya qilibdi ba'zi odamlar. – Bahaybat kungaboqar, uning gulbarglaridan geografiyani, statistikani o'rganish, o'z ishining ustasi bo'lgan kishilarning ijodlari bilan tanishish, san'at va she'riyat sirlaridan ogoh bo'lish, jahonning turli mamlakatlarining katta-kichikligini bilish mumkin ekan.

– Misli topilmas gul, – deyishibdi boshqalar, – qum ustiga barqt yopganday yam-yashil yaproqlarini yozgan ajoyib nilufar guli erta bahorda gullabdi. Yoz uni kamolga yetkazibdi, kuz uni to'zitib, har yoqqa uchiribdi, uning na bargi, na ildizi qolibdi, hatto izi ham yo'qolibdi.

Harbiy bilim yurti ro'parasida tinch davrlarda harbiy mashqlar o'tkaziladigan maydon bo'lib, bu yerda esa na o't-o'lan, na xascho'p bor ekan. Bu yerda faqat Afrikaning sharpasimon qasrlari qad ko'targan va bog'-rog'li sahrolardan olib kelinib qum to'kilgan bir parcha yer bor ekan, xolos. Lekin Marsova maydonida ulardan ham go'zal, ajoyib bog'-rog'lar va qasrlar paydo bo'libdi: bularni insoniyat dahosi yo'qdan bor qilibdi.

– Zamonamizning Aloviddin qasri tiklandi, – deb quvonishibdi yana bir toifa odamlar. – U kun sayin, soat sayin o'sib, go'zallahaveribdi. Uning behisob zallari, qorday oppoq marmarlari, ko'zni qamashtiruvchi bo'yoqlari yarqirab turibdi. Juda katta, yumaloq mashina zalida usta «Qonsiz» hukmron bo'lib, bu yerda uning po'lat va temir muskullari ishlarkan. Metall, tosh va gazlamalardan mohirona tayyorlangan buyumlar bizni jahon mamlakatlarining ma'naviy hayoti bilan tanishtirarkan. Kartina galereyalari, ajoyib gulzorlar – bularning hammasini insonning mohir qo'li bilan iste'dodi yaratgan. Buyumlar bu yerga namoyish qilish uchun qo'yilgan. Bu yerda biz ko'hna qasrlardan keltirilgan, torf kavlab olindigan botqoqliklardan topilgan qadimiy yodgorliklarni ham uchratamiz.

– Bu ulkan rango-rang manzarani ko'rib mushohada etib, ta'rif-tavsiflab nihoyasiga yetkazib bo'lmaydi! Bir

qarashda ilg'ab olish uchun uni kichraytirish, o'yinchoqdek shaklga keltirish lozim.

Marsova dalasida, rojdestvo bayrami vaqtida katta stolga sovg'a-salomlar, noz-ne'matlar qo'yilganday, ilm-san'at barpo etgan Aloviiddinning qasri muallaq turibdi. Uning atroflariga turli mamlakatlardan keltirilgan sovg'alar qo'yilgan ekan. Har bir millat o'z yurtining ulug'vorligini eslatadigan burchak yaratibdi.

Mana, yiroq sahrodan kelgan Misr fir'avnining qasri va karvonsaroy. Uning yonidan quyosh mamlakatining farzandi badaviy tuyu minib shoshilib o'tib ketyapti. Ruslarning otxonalarida o'ynoqi cho'l tulporlari yer tepinishyapti. Mana bu mo'jazgina dehqon kulbasi, uning ustida Daniyaning Danneborg bayrog'i hilpirab turibdi, uning yonida esa naqshinkor qilib, yog'ochdan qurilgan shved Gustav Vazaning<sup>12</sup> uyi. Atrofda Amerika kulbalari, ingлиз kottejlari, fransuz pavilonlari, teatrlar, suhbatlashib o'tiradigan joylar, cherkovlar, bu yerning husniga husn qo'shgan. Hammayoqda gilamday yam-yashil maysalar, ariqchalarda zilol suvlar shildirab oqib yotibdi, gullagan butalar, nodir daraxtlar o'zgacha husnga ega, bu yerga kirib qolgan kishi o'zini tropik or'monlarda yurganday his qiladi. Boshqa bir tom tagida Damashqdan keltirilgan gulzor bo'lib, undagi gullar juda chiroyli, rango-rang, xushbo'y.

Sun'iy stalaktit g'orlar qurshab olgan hovuzlarda chuchuk va sho'rtak suvlar jilolanib turadi. Bu yerdan suv osti podsholigi ko'rindi, shu vaqtida kishi o'zini dengiz ostida baliqlar va poliplar orasida turganday sezadi.

Aytishlariga qaraganda, bularning hammasini Marsova maydonida ko'rish mumkin emish, xuddi mana shu nozne'matlarga to'la stol ustida tinib-tinchimas chumoli galalariday odamlar biri piyoda, biri aravada yurishibdi,

---

<sup>12</sup> Gustav Vaza (1496–560) Shvetsiyani Daniya hukmronligidan ozod etgan shved qiroli.

bunaqa holdan toydirilgan sayrga har kim ham bardosh berolmaydi.

Ertalabdan kechgacha bu yerga keluvchilarining keti uzilmaydi. Odamlarga liq to'la paroxodlar tinimsiz Sena daryosidan qatnaydi. Aravalarning keti uzilmaydi. Otliq va piyoda kelayotgan kishilarining sanog'i yo'q. Dilijonlar va aravalarga yo'lovchilar sig'maydi, bular Parijdagi jahon ko'rgazmasini ko'tish maqsadida kelishyapti.

Ko'rgazmaga kiriladigan joy fransuz milliy bayroqlari bilan bezatilgan, turli mamlakatlar pavilonlari ustida barcha millatlar bayroqlari hilpiraydi, mashina zalidan shovqin va gulduros tovushlari eshitiladi, minoralardan qo'ng'iroqlarning musiqaviy tovushi, cherkovdan organ ovozları eshitiladi. Bunga sharq qahvaxonalarida kuylanayotgan hirqiroq, do'rillagan qo'shiq tovushi qo'shib ketadi. Vaviloncha shovqin-suron, tillar vaviloncha aralash-quralash bo'lib ketgan – bu olamning yangi karomati.

Ko'rgazma haqida hammayoqda ana shunday ovozalar tarqalibdi, bu ovozalarni kimlar eshitmabdi deysiz? Bu karomat haqida poytaxtlarning poytaxtidagi driada ham eshitibdi.

– Hoy, qushlar, o'sha yoqqa uchinglar, ko'rgan-kechirganlaringizni menga aytib berish uchun tezroq qaytinglar, – deb qushlarga yalinibdi u.

Uning orzulari to'xtatib bo'lmas intilishga, hayotiy maqsadga aylanibdi. Driada to'satdan sokin va osoyishta tunlarning birida osmondag'i to'linoydan uchqun ajrab chiqqanini ko'rib qolibdi. Uchqun uchayotgan yulduzday yaraqlabdi, bo'ron paytida shoxlari tebranayotgan daraxt oldida nur taratayotgan muloyim tovushlar yangrabdi, ulug'vor bir manzara namoyon bo'libdi.

Atrofda muloyim tovushlar yangrabdi, bu tovushlar qudratli va erkalovchi tovushlar emish. Ayniqsa, qudratli tovush kishini hayotga chorlaydigan va qiyomat kuni savol-javobga chaqiradigan karnay ovoziga ham o'xshab ketar emish.

– Sen ana shu afsonaviy shaharga tushasan. O'sha yerda ildiz otasan, uning shovqini, havosi, quyoshidan bahramand bo'lsan. Lekin shuni bilib qo'y, umring qisqaradi. Sen bu yerda erkinlikda uzoq yillar yashashing mumkin bo'lsa, shaharda kechirgan yillar kunlarga aylanadi. Sho'rlik driada, seni u yerda halokat kutyapti. Biroq havasing uch baravar, qalbingni kemirayotgan intilish hissi o'n baravar ortadi, kashtaning qamoqxonaga aylanib, o'z qobig'ingni tashlab, tabiating o'zgaradi, odamlar bilan aralashib ketasan. O'shanda senga ajratilgan joyda umring chivin umri muddatidan ham qisqarib ketadi: faqat bir kechagina yashaysan, xolos. Keyin nafas olishing to'xtaydi, kashtan yaproqlari so'liydi, uni shamol har tomonga uchirib ketadi, hamma narsa adoyi tamom bo'ladi.

Ana shu so'zlar tugamasdanoq ajoyib manzara g'oyib bo'libdi, lekin driadaning orzulari hech so'nmbabdi, uning Parijga borish ishtiyoqi yanada oshibdi. U betoqatlikdan, hayajondan titrab-qaqshab ketibdi.

– Men bu ulug' shaharga albatta boraman! – deb tipirchilabdi u. – Yangi hayot boshlanadi, ana u butunlay tez yaqinlashib kelyapti. Kim bilsin, u meni qayoqlarga olib ketadi?

Oydan rang ketib bulutlar bo'zarib, tong otganda kecha bashorat qilib aytilgan gaplar ro'yobga chiqibdi.

Bir to'da odamlar belkuraklar bilan daraxt ostini kavlab, ildizigacha ochishibdi. Bir vaqt ot qo'shilgan arava kelibdi. Kashtanni tuproq aralash ildizi bilan aravaga ortishibdi, ustiga ko'rpa va bo'yralar yopishibdi. Yo'lyiroq bolgani uchun daraxtni aravaga mahkam bog'lashibdi. Daraxtlarning Parijga olib kelinib, Fransiyaning ulkan shahrida, shaharlarning ko'rkida o'sishi va yashashi kerak ekan-da.

Arava joyidan qo'zg'alibdi, daraxt lapanglab, novdalari titrabdi, driada ham betoqatlikdan titrab-qaqshabdi.

«Yo'nga chiqilsin! Yo'nga chiqilsin!» – deb yuragi duk-duk uribdi.

Driada qadrdon o'tloq, shabadada selkillab turgan maysalar, soddadil moychechaklar bilan xayrlashishni ham unutibdi. Vaholanki, ular hamisha pastdan yuqoriga boqib, Ollo Taolonning eng suygan guli, tabiat qo'ynida raqsga tushgan, yosh va go'zal malika o'tnida ko'rib, uni e'zozlashar ekan.

Kashtan aravada turib: «Yaxshi qolinglar! Ehtimol endi yo'lga chiqarmiz», deganday, novdalarini silkitibdi. Driada buni eshitmabdi. Uning butun fikr-zikri o'zi oshiqib borayotgan ajoyib, notanish, shu bilan birga, o'ziga ma'lum kelajakda ekan. Go'dakning beg'araz xursandchiligi ham, o'y-xayollarga qattiq berilib ketgan ashaddiy xayolparast ham driadamizning Parij tomon ketayotgan paytdagi totli iztiroblari va hayajonlariga sherik bo'lomabdi.

Uning qulqlarida «Yaxshi qolinglar!» – degan ovoz jaranglabdi, lekin lablari:

– Yo'lga chiqilsin! Yo'lga chiqilsin! – deb shivirlabdi.

Arava jadallab boribdi, uzoqda qorasi ko'ringan narsalar yaqinlashib, ortda qolib boraveribdi. Dalalar bulutlarday almashinaveribdi. Ufqda uzumzorlar, o'rmonlar, kichik shaharlar, chorva va bog'lar namoyon bo'libdi, yaqinlashib yana orqada qolaveribdi. Kashtan yiroq-yiroqlarga ketaveribdi, u bilan birga driada ham birga boraveribdi. Ular oldidan guldurab ketma-ket poyezd o'taveribdi. Parovozlar ortlarida tutun qoldirib ketishibdi, bulutlar rasmga aylanib, bir vaqt driada oshiqayotgan Parij namoyon bo'libdi.

Uning qayoqqa ketayotganini atrofdagilar bilib turishganday emish, bilmaslikning iloji ham yo'q ekan-da. Nazarida qarshisida uchragan har bir daraxt shoxlari egilib: «Meni ham o'zing bilan birga ola ket!» – deb yalinayotganday emish. Axir bu daraxtlarda ham jahongashtalik qilish orzusida yashayotgan driadalar bor edi-da.

To'satdan hamma narsa o'zgarib ketibdi: go'yo yer ostidan uylar qad ko'tarib chiqqanday bo'libdi, ular

tobora ko'payaveribdi. Bu uylar bir-birlariga zichroq yopisha boshlashibdi. Gultuvaklarga o'xshagan pechka mo'rilari tomlar ustida tizila boshlabdi. Uylarda katta-katta yozuvlar, bahaybat harflar ko'rina boshlabdi, suratlar uylarning devorlari-yu bo'g'otlarigacha tutib ketibdi.

— Parij shumikin? Ehtimol, yetib kelgandirman? — deb o'z-o'zidan so'rabdi driada.

Odamlar ko'paygandan ko'payib, shoshib- elishayotgan mish. Birin-ketin aravalalar ham o'ta boshlabdi, piyodalar tez ildamlab, otliqlar ot choptirib o'tayotgan emish. Bir vaqt do'konlar ko'zga tashlanibdi, qo'shiq, ola-g'ovur, musiqa, baqiriq-chaqiriqlarning nihoyasi yo'q emish.

Driada kashtani bilan Parijning qoq o'tasiga borib qolibdi.

Og'ir arava tevarak-atrofini daraxtlar, balkonli baland-balad uylar o'ragan kichik maydon oldida to'xtabdi. Odamlar balkonlarga chiqishib uzoq yo'ldan keltirilgan yosh kashtanni qurib qolgan daraxt o'niga o'tqazilishini tomosha qilishayotgan emish. O'tkinchilar to'xtab, bahorda ko'm-ko'k barg yozgan kashtanga jilmayib boqishibdi. Endigma kurtagi bo'rtayotgan boshqa daraxtlar esa: «Xush kelibsан! Xush kelibsан!» deb shox-novdalarini shildiratishibdi. Favvora suvlarini kuch bilan balandga otibdi, suv keng idishga tushib, shaloplاب ovoz chiqaribdi, shabada tomchilarini mehmonga uchirib borishini, unga bardamlik bag'ishlovchi qadah o'nida so'nishini xohlabdi.

Driada kashtanni aravadan tushirib, yangi joyga olib borishganini payqabdi. Ildizlarini tuproq bilan ko'mishibdi, ustidan yangi chim bosishibdi. Atrofiga gul ko'chatlari o'tqazishibdi, yashikda to'la gul qo'yishibdi, shunday qilib, maydon o'tasida kichkinagina bog' paydo bo'libdi. Gaz taomlar, boshqa ziyon-zahmat keltiruvchi bug'larning hididan bo'g'ilib, olamdan ko'z yumgan, tag-tomiri bilan ko'chirib tashlangan eski daraxtni aravaga

yuklab, olib ketishibdi. Yosh kashtan atrofida odamlar to'planishibdi: bolalar va qariyalar hozirgina o'tqazilgan daraxt ostidagi o'rindiqqa o'tirishibdi, uning yaproqlari orasidan osmonga qarashibdi. Bu qissani hikoya qilayotgan kishilar, ya'ni biz, balkonda turib pastga, bahorning yosh xushxabarchisiga tikilardik, erkin dala qo'yndidan ko'chirilib, bu yerga keltirilgan kashtanga keksa ruhoniyl albatta aytishi lozim bo'lgan gapni takrorlar edik.

- Sho'rlilik driada! - derdik.

«Men qanday baxtiyorma! - deb o'yabdi shu payt driada. - Bu yerga kelib qolganimga hanuz ishongim kelmaydi. Naqadar baxtli ekanligimni ta'riflashga til ham ojiz. Sal boshqacha bo'sa-da, hamma narsa o'zim o'ylagancha bo'ldi!

Uylar shu qadar baland ekanki, ular driadani chor atrofdan qurshab olibdi. Quyosh faqat bitta devorni yoritarkan, unga afisha va e'lolar yopishtirilgan bo'lib, uning oldida odamlar uymalashisharkan. Devor yonidan faytonlar, odamlar, liq to'la aravalalar g'izillab o'tar, ular xuddi g'ildirakli uylarga o'xsharkan. Ot choptirib o'tayotgan otliqlardan arava va izvoshlar ortda qolmabdi.

«Ajabo, - o'yabdi driada, - tezda qad ko'targan anavi baland binolar o'rnidan qachon jilarkin? Ular osmondag'i bulutlar singari o'z qiyofasini o'zgartirib, biror tomoniga harakat qilarmikin?»

Ana o'shanda u Parijni, uning hamma yerlarini tomosha qilolgan bolardi. Axir u Notrdamni, Vandomning mo'jizakor kolonkalarini ko'tish uchun dunyoning turli tomonlaridan kelgan mehmonlarni ko'tolmaydi.

Biroq, uylar joylaridan jilmabdi.

Qorong'i tushmasdan chiroqlar yoqilibdi, magazin derazalaridan tushgan va gaz shu'lalari kashtan shox-shabbalarini yozgi quyoshday yoritibdi. Osmonni driada o'z jonajon yurtida tomosha qilib yurgan yulduzlar qoplabdi. Nazarida dalaning musaffo havosi, xushbo'y hidi hammayoqni tutib ketganday bo'libdi. Driadaning ruhi ko'tarilib, ko'ngli sevinchga to'libdi, ildizlar va

yaproqlardan bahra olgandek tetiklashib ketibdi. Nihoyat u odamlar davrasida o'ziga nisbatan qaratilgan muloyim nigohlarni his etibdi, atrofda hayot qaynarmish, odamlar qayoqqadir shoshar emish, chiroqlar nur sochib, bo'yoqlar turli rangda tovlanarmish.

Tor ko'chadan duxovoy orkestr tovushi <sup>va</sup> sharmankachining qo'shig'i eshitilibdi. Kuy bilan qo'shiqning sehri shunchalik zo'rmishki, u odamlarni raqsga tushishga, xursandchilik qilishga, hayot lazzatlaridan bahra olishga da'vat etarmish.

Ha, mana buni musiqa desa bo'ladi! Faqat odamlar emas, balki otlar ham, uylar ham, arava-yu daraxtlar ham raqsga tushib ketishga tayyormish-u, lekin ular raqsga tushishni bilishmas ekan-da. Driadaning qalbi sevinch-u quvonchga to'lib-toshibdi:

– Naqadar sozl Naqadar ulug' baxt – deb sevinibdi. – Men endi Parijdaman!

Oradan bir necha kecha-kunduz o'tsa-da, atrofda hech narsa o'zgarmabdi; o'sha o'ylar, o'sha osmon, o'sha qayoqqadir shoshgan odamlar, hayot hamon o'sha-o'sha maydondagi emish. Hayot uzlusiz o'zgarib tursa-da, biroq hech narsa o'zgarmas emish.

– Men bu maydondagi har bir daraxt, har bir gulni yaxshi bilib oldim! Men hamma uylar, balkonlarni, bu tang-u tor burchakdagi jamiki magazinlarni ham bilaman. Ular mendan azim va dabdabali shaharni yashirib turishibdi. Zafar darvozasi, xiyobonlar qani, jahonning yangi mo'jizasi qani? Nahotki ularni ko'rmasam? Bu yerda qafasda o'tirganday baland uylar o'rtasida o'tiribman. Viveska, afisha va yozuvlarni bilib oldim, lekin bora-bora hammasi jonga tegdi. Men intihosiz eshitgan narsalar qani, negayam bu tomonga oshiqdim, bu yerga kelib nima orttirdim? Ilgarigiday juda zerikyapman. Atrofda hayot qaynayapti, men esa uning kichik bir zarrasi bo'lgim kelyapti! Odamlar orasida bo'lishni, hayot to'lqiniga boshim bilan sho'ng'ishni, qush singari parvoz qilishni istayman, hamma narsani ko'rib,

sinab, insonlarga o'xshamoqchiman. Chivinning yarim umriga zerikarli, mashaqqatli bir necha yillik umrimni almashtirishga tayyorman. Bu yerda sovqotib so'nib qolaman, oxiri yo'qolib, o'tloqlar ustidagi tumanday tarqalib ketaman. Men bulutlarday tovlanishni, hayotbaxsh quyosh shulalarida jilvalanishni istayman, bulutlarday hammayoqni ko'rgim, ularday sayr qilgim, so'ng allaqayerlarda yo'q bo'lib ketgim keladi.

Shunday qilib, driada xudoga iltijo qila boshlabdi:

- E Xudo, umrimni qaytarib ol! Menga chivinning yarim umrini bersang kifoya! Meni bandilikdan ozod qilib, bir lahzagina bo'lsa-da, inson umrini ato qil, bir kechagina yashasam bas, shakkokligim, inson hayotiga tashnaligim uchun har qancha jazolasang roziman. Meni o'ldir, qobig'im bo'l mish manovi yosh, yashab turgan kashtan so'lib, kul bo'sin, shamol kulini to'zitsin!

Shu payt kashtanning barglari shildirabdi, daraxt titrab-qaqshabdi, xuddi olov tili yalaganday hatto barglarigacha jon yuguribdi, qattiq shamol turib, daraxt tanasini silkitibdi, novdalar orasida ayol gavdasi qaddini ko'taribdi, bu driada ekan. U o'sha zahoti o'zini pastda, gaz nuri yoritib turgan daraxt ostida ko'ribdi. Odamlar: «Bechora, shahar seni xarob qiladi!» deyishayotgan emish.

Driada daraxt ostida xuddi eshigini bir umrga berkitib, kalitini irg'itib yuborgan uyda o'tirganday bemalol o'tiraveribdi. U biram sohibjamol ekanki, asti qo'yaversiz! Osmondag'i yulduzlar unga jilmayib qarashar, gaz fonarlari qizga ko'z qisib nur sochar ekan. Driada latif, kuch-g'ayratga to'lgan go'dak, shu bilan birga balog'atga yetgan qiz ekan. Uning egnida daraxt yaprog'iday yashil, yupqa shoyi ko'ylak bo'lib, timqora sochlari o'zi uchun qadron bo'lgan daraxtning endigina ochilgan gullariga o'ralashib turar ekan. U yosh Bahor ma'budasiga o'xshar ekan.

U bir lahma qimirlamay o'tiribdi, so'ng ohuday sakrab o'rnidan turibdi, maydonni kesib o'tib, burchakka yetganda burilibdi. Driada goh u yer, goh bu yerda paydo

bo'lib, quyosh nuriday lipillab, tutqich bermasmish. Uni kuzatishning hech iloji yo'q emish, bordiyu buning iloji bo'lsa, ajoyib bir narsani ko'rish mumkin bo'lar ekan. U biron joyda sal to'xtab qolsa, uning qiyofasi ham, kiyim-boshi ham o'zgarib ketar ekan. U qayerga borsa, o'sha joyning qiyofasiga kirar, o'sha yerdag'i muhitga, uylar darazalaridan tushib turgan chiroq nurlariga moslashar ekan.

Mana, u xiyobonda. Magazin va qahvaxonalardagi gazfonarlari charog'on qilib turganidan yer nur dengizga o'xshar ekan. Yosh va qari daraxtlar qator tizilgan, ular ham nur qo'yinda bo'lib, har birida o'z driadasi yashiringan. Uzun ketgan hiyobon go'yo bazm o'tkaziladigan katta zalga o'xshar ekan: hammayoqqa chanqoq bosdi ichimliklar qo'yilgan stollar, u yer-bu yerga shampan vinolari, shartrezlar, hatto qahva va pivolar ham qo'yilgan mish. Qayoqqa qaramang, ko'zingiz gullar, suratlar, haykallar, kitoblar va rango-rang gazlamalarga tushar ekan.

Baland uylar oldidagi odamlarga aralashib ketgan driada daraxtlar ostida harakat qilayotgan olomon oqimiga dahshat bilan nazar tashlabdi. Arava va kabrioletlar, otliqlar go'yo sershovqin girdobga tushib qolganday, bir-birlarini quvib o'tishar, bir tomonda soldatlar mashq qilishar ekan. Qanday qilib sog'-omon narigi sohilga, ya'ni ko'chaning narigi betiga o'tib olish mumkin. Bir vaqt allaqanday ko'k chiroqlar lipillab yonib, hammayoq gaz nurlariga to'libdi, osmonga mushak otilibdi. Mushak qayerdan, nima uchun otildiykin?

Chindan ham bu yerdan azim shaharning qon tomiri o'tgan ekan.

Bir tomonda muloyim italyancha kuylar yangrar, boshqa tomonda esa qayroqlarni shiqillatib ispancha qo'shiq aytishar, lekin bularni chapanicha chalinayotgan sharmankaning tovushi bosib ketarkan. Bunaqa musiqani Orsey eshitmagan. Sohibjamol Yelena ham bilmagan, lekin bunaqa musiqaga bir gildirakli zambilg'altak ham o'yinga tushib yuborar ekan! Driada

ham o'yinga tushibdi, har bir uy oldida kapalakday charx urib aylanibdi, har bir chiroq yoniga borganda uning egnidagi kiyim rangi o'zgaribdi. Uzib olingan nilufar suv yuzida oqqanday u ham kishilar oqimida ketaveribdi. Har qadam, har muyulishda uning qiyofasi o'zgarib boribdi. Driadani hech kim ko'rmabdi, uning ortidan kuzatishmabdi, hatto unga qarashmabdi ham. Uning ko'z o'ngida hamma narsa bulutday suzib borar, shakl-shamoyilini o'zgartirarkan. Ularning hammasi driadaga qandaydir notanish, begonaday ko'rinar ekan. To'satdan u kimningdir o'tli ko'zlarini xotirlabdi, xayolida ust-boshi bir holatda, qora sochlari ga gul taqqan holda Mari namoyon bo'libdi. Axir u ham mana shu azim shaharda-ku, ehtimol bir vaqtlar ruhoniying, driadaning va keksa eman daraxti yonidan yasan-tusan holda xushchaqchaq o'tgan paytidagiday yurgandir.

Albatta, u shu yerda, qulogni kar qiladigan mana shu shovqin-suron va to's-to' polon ichida. Hozirgina kelgan hashamador faytondan tushgan xonim o'sha emasmikin? Bu yerdan juda ko'p izvoshlar bo'lib, izvoshchilar zarrin jiyakli kiyimlar, mulozimlar esa oyoqlariga shoyi paypoqlar kiyishgan ekan. Izvoshlardan badavlat, yasangan-tusangan xonimlar tushibdi. Ular ochiq turgan panjarai darvozadan ichkariga kirib, baland zinapoyadan yuqoriga ko'tarilishibdi. Zinalardam ustunlari qorday oppoq binoga chiqishibdi. Jahon mo'jizasi shu emasmikin? Mari ham shu yerdamikin?

Eshik orqasidan «Sancta Maria» kuyi eshitilib turar, oltin suvi yuritilan gumbaz ostida buxo'r tutuni aylanar, tepa tomoni esa nimqorong'i ekan.

Bu avliyo Magdalini cherkovi ekan.

Qora kiyimlar kiygan zodagon xonimlar silliq polda tamanno bilan qadam bosisharkan. Ularning egnidagi qimmatbaho kiyimlari eng so'nggi modada tikilgan bo'lib, barqut muqovali duo kitoblarining kumush bandlarida gerblar yarqirab turar, gerblar atir sepilgan nafis ro'molchalarga ham qadalgan ekan. Ba'zi xonimlar unsiz

duo o'qib, mehrob oldiga tiz cho'kishibdi, ba'zilar esa tavbaxonalarga yashirinishibdi.

Driada qandaydir taqiqlangan joyga tushib qolganday tashvish va besaranjomlikda qolibdi. Uni bu sokinlik maskani cho'chitibdi. Bu yerda qandaydir sir hukmron bo'lib, hamma shivirlashib gaplashar, ovoz chiqarmay o'z niyat-orzusini izhor qilisharkan.

Driada turish-turmushiga nazar tashlabdi: egnida ipak kiyimlar-u yuziga to'r tutilgan bo'lib, boshqa zodagon xonimlardan hech farqi yo'q emish. Ehtimol, bular ham o'zi singari jo'shqin hayotga o'ta tashna odamlardir?

Cherkovga g'am va alamli chuqur xo'rsinish tarqalibdi. U qayerdan chiqdiykin?

Bu ovoz burchakda tavba qilayotganlar orasidanmi yoki driadaning ko'ksidan chiqdimi?

U to'r bilan yuzini berkitibdi. Cherkovning xushbo'y hidlari orasida unga sof havo yetishmaganday bo'libdi. Yo'q, bu yer uning joyi emas.

U dam olish nimaligini bilmay, vaqt g'animatida yo'l bosibdi. Chivinlar dam olarmidi? Ular uchishgani-uchishgan.

Driada bir vaqt yana gaz chiroqlari munavvar qilib turgan, favoralar otilayotgan ko'chaga chiqib qolibdi.

– Bu yerda to'kilgan begunoh qonlarni manovi suvlar bilan yuvib bo'lmaydi! – degan tovushni eshitib qolibdi driada.

Hammayoqda chet elliklar, ular baland ovozda gaplashishar ekan, hozirgina driada tark etgan sir maskanida bunaqa gaplashishmas ekan.

Mana, tosh ko'chadagi kattakon tosh plitani chetga olib qo'yishibdi. Driada buning sababini bilolmabdi. Bir vaqt u yer tagiga ketadigan tuynukni ko'rib qolibdi, odamlar yulduzlar chaqnab turgan osmon, ko'zni qamashtiradigan gaz chiroqlari, jo'shqin hayot bahridan o'tib, pastga tushib ketishayotgan emish.

– Men qo'rqtyapman! – xitob qilibdi bir ayol. – Pastga tushgani yuragim dov bermayapti. Pastdag'i ajoyibotlarni

ko'rgani ko'zim yo'q. Pastga tushmay, shu yerda qolaveraylik.

- Qo'ysangchil - ajablanibdi eri, - insonning aql-zakovati bilan barpo qilingan, zamonaning chinakam mo'jizasi bo'l mish eng qiziq bu narsani ko'r may, Parijni tashlab, uyg'a qaytamizmi?

- Yo'q, pastga tushmaymanl - deb oyog'ini tirab olibdi ayol.

«Zamonamizning mo'jizasi», - dedi-ya haligi kishi. Driada uning gaplarini eshitibdi. U murod-u maqsadiga yetganini, pastga tushish lozimligini, Parijni esa tepada qoldirish zarurligini tushunibdi. U zamona yaratgan mo'jizani bunchalik tasavvur qilmagan ekan. Odamlar shunday deb, pastga tushayotgan ekan, u ham pastga tushsa, nima bo'pti?

Cho'yandan yasalgan vintli zina keng va qulay emish. Kiraverishda ham, pastroqda ham chiroqlar yonib turganmish.

Bir-birini kesib o'tgan gumbazsimon zallar labirintida odamlar son-sanoqsizmish. Bu yerda go'yo xira oynada aks etganday tepadagi Parijning hamma ko'cha va tor ko'chalari aks etayotgan emish. Jadvallarda ko'chalarining nomlari, uylarning nomerlari ham yozib qo'yilganmish. Uylarning poydevorlari iflos suv ko'pirib oqayotgan kanal sohilidagi shag'al to'kilgan yo'kalarga, kimsasiz joylarga tobora kirib ketganmish. Yuqorida, gumbaz ostida quvurlardan toza suv oqayotganmish, undan ham yuqorida bir-biriga kashak qilib biriktirilgan gaz quvurlari va telegraf simlari o'tganmish. Yiroqdan shahar ustini qoplab yotgan qudratli olov shu'lasiday chiroqlar nur sochib turganmish. Ba'zi-ba'zida yuqoridan bo'g'iq gulduros tovush eshitilib qolarmish, bu yuqoridan yer ostiga kirib kelayotgan og'ir aravalarning ovozi ekan.

Driada qayerga tushib qoldi?

Katakomba nimaligini bilasizmi? Ular yangi yer osti dunyosi bo'lib, asrimizning karomat va mo'jizasi bo'l mish Parijning yer osti quvuriga biroz o'xshab ketar emish.

Driada Jahon ko'rgazmasida emas, balki xuddi ana shu yerda edi.

U tevarak-atrofdan hayratlanish, shod-u xandon, minnatdorchilik ovozlarini eshitayotgan emish.

- Tepadagi ming-minglab odamlarning sihat-salomatligi shunga bog'liq ekan-da! - debdi atrofdagi odamlar. - Zamonamiz chinakam taraqqiyot zamoni, undan rozi bo'sang arziydi.

Odamlar ana shunday fikr yuritib, ana shunday deb o'ylasharkan. Biroq shu yerda tug'ilib, shu yerda istiqomat qilayotgan kalamushlar butunlay boshqacha fikrda ekanlar. Ularning chiyillash ovozlari driadaning qulog'iqa ham chalinibdi. U kalamushlarning gaplarini yaxshi tushunar ekan.

Kalamushlar oilasining eng e'tiborli otaxonlaridan biri, dumি tishlangan keksa kalamush jon-poni chiqib valdirabdi, o'zining gaplari haq ekanligini isbotlabdi, oila a'zolari esa uning har bir so'zini ma'qullashibdi,

- Anavi nodon, johil odamlarning mushuk singari miyovlashlari jonimga tegdi! Bu yer gaz va kerosin chiroqlari nurida naqadar chiroyli bo'lmasin, baribir bularning menga keragi yo'q. Axir men unisini ham, bunisini ham yemayman-ku! Hozir bu yer shunaqayam yorug', top-tozaki, o'z-o'zingdan uyalib ketasan, nega shunday ekan-a? Sham yoqiladigan bir zamonlarda shunday hayot kechirishganmidi? Aytishlariga qaragan-da, u zamonlar romantizm davri bo'lgan ekan.

- Nimalar deyapsan? - so'rabdi driada. - Sendaqalarni hech uchratmagan edim. Nima haqida gapiryapsan?

- Qaytib kelmas o'tgan kunlar haqida gapiryapman, - deb javob beribdi kalamush. - Bobokalonlarimiz, momolarimiz huzur-halovatda yashagan zamonlar haqida gapiryapman! O'shanda bu yoqqa tushish juda katta jasorat hisoblanar edi. Bu yerda Parijdan ham katta kalamushlar podsholigi joylashgan edi. Podsholikda vabo hukmron bo'lib, u odamlarga qiron keltirar, lekin kalamushlarga aslo tegmas edi. Bunda qaroqchilar,

kontrabandistlar, panoh istab kelgan odamlar yashirinishar edi. Hozir ularni ko'rib bo'psan! Ularni faqat sahna va melodramalarda ko'rish mumkin. Ha, biz kalamushlarning romantizmga to'la davrimiz ham o'tib ketdi. Bu yerda sof havo bilan kerosindan boshqa nimani ham ko'rarding?

Bir kalamush chiyillab, zamonamizni yomonlabdi, vabo avj olgan o'tmish zamonni maqtabdi.

Odamlarni tashish uchun kichkina otlar qo'shilgan aravaga o'xshash fayton berilibdi. Hamma aravaga o'tirib, Sevastopol xiyoboni bo'ylab yo'nga tushibdi, xiyobon yer ostida bo'lib yer betidagi Parij xiyoboni singari uzoqqa cho'zilgan ekan.

Fayton nimqorong'ilikda ko'zdan g'oyib bo'libdi, u bilan birga driada ham g'oyib bo'libdi. Driada tepaga, gaz chiroqlari hammayoqni munavvar qilib turgan sof havo tomon ko'tarilibdi. U kishi nafasini qaytaradigan, shipi gumbazli yer osti yo'lagidan emas, balki tepada jahon mo'jizasi va karomatini axtaribdi; bu mo'jiza gaz chiroqlaridan ham, to'linoydan ham ravshanroq nur sochishi kerak ekan. Axir, u ana shu mo'jizani deb butun umrini qisqa muddatli tunga almashtirgandi-da!

Mana u. Oldinda nur jilva qilyapti, u osmondagи Zuhro yulduziday charaqlab, lipillab turibdi.

Driada nur munavvar qilib turgan boqqa kiraverishdagi joyda to'xtabdi. Ichkaridan quvnoq raqs, musiqa sadolari yangrab turganmish. Gaz chiroqlari jonli to'siqday tinch oqayotgan ariq suvlarida jilolanayotgan emish, suv betiga ullarning aksi tushgan emish, ular gaz chiroqlari nurida tovlanib, suvni yuqoriga itqitayotganmish. Chiroqli majnuntollar bahordagiday yashil libos kiyib, muloyim novdalarini suv betiga tekkizganmish, suv go'zal qiz-u, novda va uning mayin barglari qiz yuziga tutilgan nafis to'rga o'xsharmish. Butalar orasida gulxanlar yonayotganmish, ularning shu'lesi kishilar suhbatlashib o'tiradigan sokin, yarim qorong'i joylarni yorita-yotganmish. Tepada esa musiqa sadolari kishilar qalbini

rom etib, yangrayotgan mish. Musiqä ta'sirida tomirlardagi qon qizib, olov bo'lib oqayotgan mish.

Driada go'zal, yasangan-tusangan, labidan tabassum arimagan, shodlik va yoshlik nash'u namosidan mast bo'lgan talay yoshgina qizlarni ko'ribdi. Ular Mariga o'xsharmish: sochlariga taqqan gul ham o'shanikiga o'xshar emish, faqat arava bilan yasangan mulozim yigitcha yo'q emish, xolos. Qizlar borliqni unutib raqsga tushishgan emish! Qizlar timmay kulishar, o'zlarini hech qayoqqa sig'dirolmay, entikishar, olamni bag'rilariga bosmoqchi bo'lisharkan.

Raqs driadani o'ziga rom qilibdi. Mundoq qarasa, jajji va chiroyli oyoqchalaridan kashtan rangiga o'xshagan shoyi tuflichalar paydo bo'lib qolibdi. Yalang'och yelkasiga tushib turgan lentasi ham xuddi shu rangda emish. Yam-yashil yaproq rangli burma ko'ylagi chiroyli boldirini yopib qo'ymabdi. Driada jazmani bilan doira yasab, raqsga tushib ketibdi.

U qayerga kelib qoldi? Bu Armidanining sehrli bog'imi?  
Bu yerning nomi nima ekan?

Bog'ning «Mabille» degan nomi lipillab yonib turgan mish.

Tovushlar qo'ng'iroqday jaranglabdi, qarsaklar avjga chiqibdi, mushaklar otilibdi, ariqlarda suvlar shildirab oqibdi, shampanskiy tiqinlari poqillab otilibdi, raqsga berilib ketganlar tobora tezroq aylana boshlashibdi. Samoda suzib yurgan oy bu xursandchiliklarga hasad bilan boqibdi. Osmon musaffo, bir parcha ham bulut yo'q emish.

Driada xuddi nasha chekib olganday mast, yashash nash'asi uning butun vujudini egallab olibdi. Uning ko'zları bir narsalarnidir imo qilayotganday bo'lib, lablari pichirlabdi, biroq surnay va gijjak sadolari uning so'zlarini eshittirmabdi. Uning jazmani musiqä sadosiga mos tebranib driadaning qulog'iga bir nima deb shivirlabdi. Lekin qiz buning ma'nosiga tushunmabdi, siz bilan biz ham uni tushunmaymiz. Yigit qizni bag'rige bosish

niyatida qo'lini cho'zibdi, lekin u gaz chiroqlari nuri bilan munavvar bo'lgan tip-tiniq havonigina quchibdi, xolos.

Shamol driadani gul yaprog'ini uchirganday uchirib ketibdi. Driada qarshisida yonib turgan mash'alani ko'ribdi, yorqin olov minora tepasida yonayotgan emish. Bu driadaning orziqib kutgan maqsadi ekan, uni Marsovo maydonida yonib turgan qizil mayoq nur sochib kutib olibdi. Bahor shamoli driadani mana shu yerga olib kelib tashlabdi. U minora atrofini aylanib uchibdi, so'ng pastlabdi. Bu yerdagi ishchilar bu ilk bor paydo bo'lgan bahor kapalagi bo'lsa kerak deb o'yashibdi. U juda erta paydo bo'libdi, shuning uchun tez o'lib ketadi-da, deb achinishibdi.

Hamma millatlarning pavilonlari va binolari ustida to'linoy nur sochib, gaz chiroqlar va mash'alalar yonib turganmish. Oy bilan chiroq nurlari chim o'tloqlarni, mohir qo'llar yaratgan qoya toshlarni yoritayotgan emish, qoyalardan «Qonsiz» ustaga bo'ysunib shalola oqayotganmish. Driadaning ko'z oldida dengiz g'orlari, sokin daryolar, gala-gala baliqlar namoyon bo'libdi. Go'yo kishi o'zini katta shisha idish ichida dengiz yoki teran anhor tubiga tushib qolganday his qilarmish. Har tomondan qalin shisha devorlarni suv qisayotganmish. Uzun va ilang-bilang qilib yurgan ilon baliqday kichkina dengiz hayvonlari goh ko'tarilib, goh suv ostiga cho'kib, jonli qaltiroq qo'llarday shisha devorlariga yopisharmishda, yana suv tubiga cho'kib ketar emish.

Boshqa tomonda ulkan qalqonbaliq bemalol yonboshlab yotganmish. Kattakon o'rgimchakka o'xshagan dengiz qisqichbaqasi baliq ustidan qoqinasuqina o'tayotganmish, boshqa mayda-chuyda baliqchalar uning atrofida girdikapalak bo'lib yurganmish.

Suvda qamishlar, oppoq ochilgan nilufarlar o'sib yotganmish. Oltinbaliqlar o'tloqda o'tlab yurgan nigrillarday gala-gala bo'lib turgan emish, ular bir tomonga burilib, oqimga qarshi og'izlarini ochishayotgan emish.

Semiz va yog'liq qora baliq tumshug'ini shishaga qadab, ko'zlarini ma'nosiz olaytirayotgan emish. Bu baliqlar Parij ko'rgazmasida ekanliklarini yaxshi bilishar, bu yerga kelguncha uzoq va toliqtiruvchi sayohat qilganlari xotiralarida ekan. Ularni bochkaga solib, temir yo'dan olib kelishibdi, odamlar dengiz safarida yurganda dengiz kasalligidan qanchalik azob tortishsa, ular ham quruqlikda shuncha azob chekishibdi. Baliqlar bu yerga ko'rgazmani tomosha qilgani kelishgan ekan, hozir esa ular dengiz suvi to'ldirilgan hovuzlarda emish-u ularni odamlar qiziqish bilan tomosha qilishayotganmish. Baliqlar erta tongdan to oqshomgacha yonlaridan o'tayotgan odamlar oqimiga boqishibdi. Axir, barcha mamlakatlar ko'rgazmaga o'z vakillarini yuborgan ekan-da. Baliqlar odamlar xususida fikr va mulohazalar yuritishibdi.

— Anavi xonim tangaliklar turkumidan bo'lsa kerak, — debdi hammayog'i balchiq jajjigina bir chavaq baliq, — ular tangalarini har kuni ikki-uch marta almashtirib turishadi. Bular og'zidan ovoz chiqarishadi — buni ularda gaplashish deyiladi. Biz bo'lsa tangalarimizni almashtirmaymiz, o'zaro gaplashishimiz ham oson, og'iz va ko'zlarimizni qimirlatib qo'ysak bas. Biz ulardan ancha yetukroqmiz.

— Ular endi suzishni o'rganib olishgan, — debdi boshqa bir baliqcha. — Men katta ko'lda yashayman. Yozning jazirama kunlarida odamlar bu yerga kelib, o'zlarini suvg'a otishadi, tangachalarini sohilda qoldirib, yalang'och suzib yurishadi. Ular suzishni baqalardan o'rgangan bo'lishsa kerak; orqa oyoqlarini siltab, oldingi oyoqlari bilan suzishadi, bo'lmasa cho'kib ketish mumkin. Bechora odamlar har qadamda o'lib-tirilib bizga taqlid qilishadiyu, baribir niyatlariga yetisholmaydi!

Baliqlar atrofga olazarak bo'lib qarashibdi: ular kunbo'yi timmagan odamlar oqimi hozir ham o'tib turibdi, deb o'ylashibdi. Ha, ularning shunday o'ylashida jon bor, agar gapirish joiz bo'lsa, ularning tasavvurini chalg'itgan narsalarining, yuz va ko'lankalarining farqiga borishardi.

Yo'lbars singari ola-bula to'nli, barchaning havasini keltirgan olabug'a baliq hozirgina «inson ko'pigi»ni ko'rganini aytibdi.

— Men ham ko'rdim! Men ham ko'rdim! — debdi sariq kasaliga uchraganday oltinrang baliq. — Odamlar «sohibjamol» deb ataydigan qaddi-qomati kelishgan qizni ko'rdim. Uning og'zi ham, ko'zi ham biznikiga o'xshaydi, egnidagi kiyimi shokilali, zeb-u ziynatga belangan, yopiq soyabonni tutib turardi. Agar u liboslarini yechib, asl qiyofasiga kirsa, odamlar biz baliqlarga o'xshagan qobiliyatga ega bo'lsa, unda qalqon baliqning xuddi o'zi bo'lardi-qolardil!

— Qarmoqqa ilingani qani?

— Haligi qo'lida qog'oz, siyoh, ruchka, tinmay yozib o'tirgani kim bo'ldi o'zi? Uni reportyor deyishyapti.

— Ha, u hozirgacha shu yerda, — debdi tomog'ida oilaviy janjallar izi ko'p qolgan, mog'or bosgan tovonbaliq, bir kuni qarmoq yutib yuboribdi, hozirgacha qorinda o'sha qarmoq bilan suzib yurar ekan, faqat gapirganida biroz xirillar ekan. — Reportyor degani, — deb tushuntiribdi u, — biz baliqlar tilida malyuska, u ham o'zidan siyoh sachratadi.

Shunday qilib, baliqlar o'z tillarida gurunglashaverishibdi. Lekin bu yerda, suv to'dirilgan sun'iy g'orda odamlar ovozi ham eshitilibdi. Bular bolg'alarining taraqturuqiga hamohang kuylayotgan ishchilar bo'lib, ular ertalabgacha ishni tugatish uchun shoshilayotgan ekan. Ularning qo'shig'i driadaning shirin o'ylarini bo'lib yuboribdi, u oldinga intilib, bu yerdan jo'nashga shaylanibdi.

— Sizlar mana shunaqasizlar-da, oltin baliqlar! — debdi driada ularga va bosh irg'abdi. — Harholda sizlarni ko'rdim. Ha, ha, sizlarni bilaman, siz haqingizda allaqachonlar eshitganman. O'z yurtida sizlar haqingizda qaldirg'och hikoya qilib bergandi menga. Biram chiroyli, yarqiroq ekansizlarki, ko'rgan kishining ko'zi quvonadi-ya! Boshqa baliqlarni ham bilaman. Anavi semiz tovonbaliq, manovisi

mazali zog'ora baliq, balchiqqa bulanib turgan anavisi esa tovonbaliq bolsa kerak! Sizlarni yaxshi bilaman, sizlar esa meni tanimaysizlar!

Baliqlar ko'zlarini ola-kula qilib, nimqorong'ilikka tikilishibdi, lekin u yerdan eshitilgan birorta so'zni tushunisholmabdi.

Driada esa, g'orni tark etib, musaffo havoga ko'tarilibdi. Tepada muattar hid gupillab dimoqqa urilibdi: olamning yangi mo'jizasi hidini – ulkan gul – jahonning hamma mamlakatlarining hidini taratibdi. Bu yerda javdar nonining ham, atirning ham, rus charmining ham, gul yog'ining ham, qoq baliqning ham hidi anqib turgan emish.

Tongga yaqin ko'zimizda uyqu, bazmdan uyimizga qaytayotganimizda kechasi tinglaganimiz musiqa sadolari hamon qulog'imizda jaranglab turar edi. Bu kuylarni ming'irlab kuylaymiz. Oldirilgan kishi o'layotgan so'nggi daqiqada ko'rganini ko'zida aks ettirib qolganday, tun sokinida kunduzgi hayotning shovqin-suroni, jilvagarligi hamon yashardi. Driada ana shu ovozlarni ilib olib, ana shu tovushlarda ertangi kun tug'ilishini his etibdi.

Driada bir vaqt muattar hid taratayotgan atirgullar orasida to'xtab qolibdi. Ko'ziga ular tanishday tuyulibdi, chunki bu gullar o'z yurtida, ko'hna istirohat bog'ida va ruhoniynipg bog'ida ham o'sar ekan-da. Mari timqora sochlariga taqqan anorning qip-qizil gullarini ham tanibdi.

Tabiat qo'ynida o'tgan bolalik yillari xotirotlari driadaning ko'z o'ngidan birma-bir o'tibdi, u atrofdagi manzaraga suq bilan boqibdi, orom bermas betoqatlik uni hamon mo'jizalarga to'la zallar tomon yetaklabdi.

To'satdan u holdan toyganini, darmoni quriganini sezibdi. U hammayoqqa yoyib tashlangan yumshoq Sharq gilamlari ustida yostiqqa yonboshlab dam olgisi, majnuntol shoxlari bilan birga tiniq suvga egilib, muzdek suvga sho'ng'lgisi kelibdi.

Lekin chivinlar tinim nimaligini bilishmaydi, unga atalgan hayot esa bir necha daqiqadan keyin tugar ekan.

O'y-fikrlari driadaga itoat etmay qo'yibdi, oyoqlari hadeganda o'rnidan jilmabdi. Uning madori qurib, shildirab oqayotgan suv bo'yidagi maysa ustiga o'tirib qolibdi.

– Sen yer ostidan yugurib chiqasan, sen hamisha yangilanib turasan! – debdi u. – Og'zimga tomchilab, meni tetik qil.

– Men jonsiz suvman, – debdi oqim; – Meni mashina haydayapti.

– Yam-yashil maysa, yashnab turishingni men bilan baham ko'rgin, – deb yalinibdi driada, – xushbo'y gulingdan menga bitta uzib ber.

– Bizni uzishsa, qurib qolamiz, – deyishibdi gullar bilan maysalar.

– Hayotbaxsh shamol, yuzimdan bir marta bo'sa ol, u menga hayot ato qiladi!

– Hademay quyosh bulutlardan bo'sa oladi, shunda ular qizg'ish tusga kiradi, – deb javob qilibdi shamol. – Bu yerda sen yo'q bo'lasan, sen marhumlar mamlakatiga yo'l olasan, barcha ulug' narsalar yo'q bo'lib ketganiday, sen ham yo'qolasan. Oradan bir yil o'tmay, men yana shu bepoyon yalanglikda o'ynoqlab yuguraman, qumlarni, changlarni uchirib, havoni chang-to'zonga to'ldiraman. Borliq chang-to'zonga aylanadi.

Driada vannada yotib o'z qon tomirlarini kesibdi, qoni qolmagach, holsizlangan ayolday dahshat ichida titrab-qaqshabdi. U o'rnidan qo'zg'alib, bir necha qadam oldinga yuribdi, so'ng kichkina cherkov ro'parasidagi o'tloqqa yana behollanib o'tirib qolibdi. Cherkov eshigi ochiq bo'lib, mehrobda shamlar yonib turganmish, organ chalinayotganmish.

Naqadar huzurbaxsh musiqa! Driada hech qachon bunaqa musiqani eshitmagan ekan, harholda u musiqada tanish tovushlarni farqlay olibdi. Nazarida musiqa sadolari jahoning qalbidan taralayotganday emish.

Uning qulog'iga qari eman daraxti va ruhoniyning tovushi kirganday bo'libdi. Ruhoniy jasorat, dovrug'i doston bo'lgan qahramonlar haqida, xudoning har bir

bandasi o'lmaslik huquqini qo'lga kiritish uchun nimalarni bajo keltirishi xususida gapirayotgan mish.

Organ tovushlari zo'rayib, yuqoriga o'rlabdi, ular driadaga quyidagilarni kuylab berishibdi:

«Sening hayotga tashnaliging, betoqatliging ildiz-pildizing bilan qadrdon tuprog'ingdan sug'urib oldi. Sho'rilik driada, seni xuddi ana shu xarob qildi».

Yumshoq va muloyim tovushlar yig'laganday bo'lib asta-sekin tinibdi.

Osmondagi bulutlar bo'zaribdi. Shamol shovqin ko'taribdi:

– O'lik soyalar, yo'qoling, quyosh chiqyapti.

Quyoshning ilk nuri driadaga tushibdi. U sochilib, bir tomchi yosh, bir tomchi shudringga aylanib, yerga tushibdi, iz qoldirmaydigan sovun ko'pigiday bir necha rangda kamalakdek tovlanibdi.

Sho'rilik driada! U ham bir tomchi yosh shudringday tovlanibdi-da, yerga singib ketibdi.

Quyosh nurlari Marsovo maydonida, shaffof qasrlar, baland uylar qurshab olgan, daraxtlar o'sib, favvoralar otilayotgan kichkina maydon ustida porlabdi. Quyosh kashtanga ham nur sochibdi, shunda uning navdalari shalpayib, barglari so'lib qolibdi, vaholanki, u kuni kecha bahordagiday ko'm-ko'k bo'lib yashnab turgan ekan.

«Kashtan o'ldi», – deb aytishlari bilan driada yengil bulutday bir ko'zga ko'rinishdi-yu g'oyib bo'libdi.

So'ligan kashtan guli yerda yastanib yotgan emish, hatto hayotbaxsh suv ham unga jon ato qilolmabdi. Ko'p o'tmay birov uni toptabdi, gul ezilib, qumga aralashib ketibdi.

Bu voqealar chindan ham 1867-yilda Parijda o'tkazilgan jahon ko'rgazmasi paytida bo'lib o'tgan. Bunday hodisalar ajoyib o'zgarishlar yuz berib turgan hozirgi kunlarda ham sodir bolyapti, bunga o'zimiz shohid bo'ldik.

## PARRANDABOQAR GRETANING AJDODLARI

Parrandaboqar Greta xo'jayinlar hovlisida o'rdak va tovuqlar uchun qurilgan binoyidek uyda yashar ekan. Bu uy bir vaqtlar minorali, kiraverishi kungurador, xandaq va ko'tarma ko'priklari bo'lgan xo'jayinlarning ko'hna uyi o'tnida qad qo'targan ekan. Uning yonginasida qalin chakalakzor bo'lib, bir vaqtlar bu yerda hozir botqoqlikka aylangan, bir tomoni ko'lcha bilan tutashgan bog' bor ekan. Asriy daraxtlar ustida behisob qarg'a, quzg'un va zag'chalar charx urar, garchi ularni ko'plab qiyratib turilsa-da, sira kamaymas ekan. Bu qushlarning tovushlari qushxonaga ham eshitilib turar, qushxonada esa keksa Greta o'tirar, o'rdakchalar uning yog'och kavushlari ustida o'ynashar ekan. Parrandaboqar Greta har bir o'rdak va tovuqni tuxumdan chiqqan kunidan boshlab yaxshi bilar ekan. U tovuq, o'rdaklari va ular uchun qurilgan hashamatli uy bilan faxrlanar ekan. Gretaning xonasasi ozoda va shinam ekan, shunday bo'llishini qushxona sohibasi – xonim talab qilar ekan; u kishi bu yerga tez-tez o'zining oliynasab va zodagon mehmonlari bilan kelib turar, ularga o'zi aytganday, «tovuq va o'rdaklar kazarmasi»ni ko'rsatar ekan.

Gretaning xonasida ko'ylik ilib qo'yadigan shkaf, kreslo, hatto javon ham bor ekan. Javonda yarqirab tozalangan mis taxta bo'lib, unga «Grubbe» degan so'z o'yib yozilgan ekan. Bu sobiq xo'jayinning uyida bir vaqtlar istiqomat qilgan dvoryanning ismi ekan. Mis taxtani shu yerni kavlagan paytda topib olishgan ekan, kichik ruhoni yu sariq chaqaga ham arzimaydi, u faqat ko'hna zamondan yodgorlik, debdi. Ruhoni o'tmish zamonalarni va bu yerlar tarixini yaxshi bilar ekan; buni u kitoblardan o'qib olgan ekan, hozir ham uning stoli ustida talay kitoblar qalashib yotar ekan. Ruhoni o'ta bilimdon odam bo'lib, binobarin qarg'alarning eng qarisi undan ham ko'p narsani bilar ekan. Shu qarg'a bu haqda o'z

tilida hamma yerda baqirib, qag'illab yurar ekan, ruhoniyl  
qanchalik bilimdon bo'lmasin, qarg'a tilini bilmas ekan.

Yozning jazirama kunlarida oqshom kirishi bilan bot-  
qoqlik ustidan qalin tuman ko'tarilar, go'yo ko'l tepasida  
qarg'a, quzg'un va zag'chalar keksa daraxtlarga chiqib  
ketganday bo'lar ekan. Bu yerlarda ritsar Grubbe  
yashagan va qalin g'isht devorli ko'hna uy u turgan  
paytlarda xuddi shunday bo'lar ekan. O'shanda uzun  
zanjirga bog'langan it ba'zan darvozadan tashqariga ham  
chiqib ketar ekan; xo'jayinning minorali uyiga tosh terilgan  
torgina yo'lak olib borar ekan. Uyning derazalari tor,  
oynalari kichkina bo'lib, raqs tushiladigan katta zal  
derazalari ham shunaqa ekan. To'g'ri, garchi zalda eski  
nog'ora bo'lsa-da, eng so'nggi Grubbe zamonida zalda  
biron marta o'yin-kulgi bo'lganini hech kim eslolmasakan.  
Bu yerda mohirona ishlangan o'yma naqsh solingan shkaf  
ham bor ekan, uning ichida nodir gullar piyozi saqlanar,  
chunki Grubbe xonim bog'bonchilikni yaxshi ko'rganidan  
ko'chatlar o'tqazib, hammayoqni yashnatib yuborgan  
ekan. Eri esa ot minib ovga chiqishni, bo'ri va to'ng'izlarni  
ovlashni yaxshi ko'rар ekan; har safar ovga chiqqanida, u  
bilan jajjigina qizi Mariya birga borar ekan. U endigina  
besh yoshga to'lgan bo'lsa-da, otda yaxshi yurar va atrofga  
sergaklik bilan boqar ekan. Otasi qizini tomosha qilgani  
kelgan dehqon bolalarini urib haydar, qizi esa shu  
vaqtarda itlarni qamchilar, shu bilan u xumordan chiqar  
ekan.

Xo'jayinning qo'rg'oni yonidagi yerto'lada istiqomat  
qiluvchi dehqonning oliynasab, yosh oyimqiz bilan  
tengqur Seren ismli o'g'li bor ekan, u daraxtlarga  
tirmashib chiqishga usta ekan, shu vajdan Mariya uni  
doimo daraxtdan qush uyasi olib tushishga majbur qilar  
ekan. Shu vaqtarda qushlar jon-jahdlari bilan  
chirqillashar ekan. Bir safar qushlardan sal kattarog'i  
Serenning qovog'ini cho'qib olganda tirqirab qon oqib  
ketgan ekan. Ko'ziga ziyon yetmagan bo'lsa go'rga edi,  
deb hammaning o'takasi yorilib ketibdi, xayriyat, ko'zi

omon qolibdi. Mariya Grubbe bolani «mening Serenim», deb chaqirar ekan. Bir kuni Serenning otasi kambag' al Yon ham qizning marhamatidan bahramand bo'libdi. Kunlardan bir kun u ayb ish qilib qo'yibdi, uni yog'och baytalga mindirib, jazo bermoqchi bo'lishibdi. Otning belida bitta yupqa qirrali taxta bo'lib, uning oyoqlari to'rtta tirkakdan iborat ekan; Yon baytalga minibdi, u otda o'rashib o'tirsin deb ikki oyog'iga og'ir g'ishtlar bog'lab qo'yishibdi. Dehqonning yuzi azob-uqubatdan burishib ketibdi. Buni ko'rgan Seren dodlab yig'lay boshlabdi va kichkina Mariyadan yordam so'rab yalinib-yolboribdi; qizcha shu zahotiyoy Yonni otdan tushurishga buyruq beribdi, mulozimlar uning buyrug'iga itoat qilishmabdi, shunda qiz yer tepinib, otasining yengidan qattiq tortqilagan ekan, uning yengi yirtilib ketibdi. Mariya aytgan gapini qildiradigan qiz ekan, aholi Yonni qo'yib yuborishibdi.

Shu payt Grubbe xonim qizining yoniga kelib, uning boshini silab, unga mehribonlarcha tikilibdi. Mariya onasining bu qarashiga tushunmabdi.

Qizcha onasi bilan sayr qilishdan, ovchi itlar oldiga borishni ma'qul ko'ribdi. Onasi esa o'zi yolg'iz bog' oralab pastga – ko'l tomonga yo'l olibdi, ko'l betida nilufarlar chaman-chaman ochilib yotganmish. Grubbe xonim chiroyli gullarga havas bilan boqibdi.

– Naqadar go'zal-a! – debdi u.

Bog'da xonim o'z qo'lli bilan o'tqazgan nodir bir daraxt bor ekan; uning nomi qonxo'r qoraqayin bo'lib, boshqa daraxtlar orasida xabashga o'xshab turar, hatto barglari ham qoramitir ekan. Qonxo'r qoraqayin oftobda jizg'inagi chiqishi kerak ekan, agar u soya-salqinda o'sganda boshqa daraxtlar singari yashil tusga kirib, o'zining odatdan tashqari qiyofasini o'zgartirishi mumkin ekan. Bahaybat kashtanlarga ham, butalarga ham, bo'ychan o't-o'lanylarga ham son-sanoqsiz qushlar uya qurib yuborgan ekan. Qushlar bog'da o'zlari uchun xavf-xatar yo'qligini bilganday dorilamon yurishar ekan.

Bir vaqt bog'da jajji Mariya bilan Seren paydo bo'libdi. Seren ilgari xabardor bo'lganimizday, daraxtlar ustiga chiqishga, qush uyalarini buzishga, tuxumlarni va qip-qizil qush bolalarini olib tushishga mohir ekan-da. Katta-yu kichik hamma qushlar bezovta bo'lishibdi. O't-o'anlar orasida qizg'ish qushchalar chiyillab, baland daraxtlar tepasida qarg'a, quzg'un va zag'chalar jon-jahdlari bilan qag'illashibdi. Qanotli jonivorlar hozir ham ana shunday chirqillashadi.

– Nima qilyapsizlar, bolakaylar! – deb dahshatga tushibdi xonim. – Bu g'irt insofsizlik-ku!

Seren uyalib ketibdi, oljanob oyimqiz xijolatdan qizarib, qovog'ini solib to'ng'illabdi:

– Otam bunga ruxsat berdi! – debdi.

– Yo'qol bu yerdan! Yo'qol! – chinqirishibdi ulkan qushlar, so'ng ular uchib ketishibdi, lekin boradigan boshqa yerlari bo'lмагanidan ertasi yana qaytib kelishibdi. Ma'sum va yuvosh xonim ko'p umr ko'rmabdi. Olio Taolo uni o'z dargohiga chaqirib olibdi. U samoda o'z qo'rg'onidan ham shinam va hashamatliroq uyga uchrabdi. Uning jasadini cherkovga olib kelishganda cherkov qo'ng'iroqlari jaranglabdi, kambag'allarning ko'zi jiqla yoshga to'libdi – u beva-bechoralarga juda mehribon ayol ekan-da.

Xonim o'lgandan keyin u o'tqazgan daraxtlarga hech kim qaramay qo'yibdi, bog'dan fayz ko'tarilibdi.

Aytishlariga qaraganda, Grubbe janoblari o'jar va qaysar odam ekan, lekin qizi yosh bo'lishiga qaramay, otasiga so'zini o'tkazar ekan: otasini kuldirib, o'z aytganini qilar ekan. Qiz o'n ikkiga kiribdi: u bo'ychan, baquvvat, ko'zlari charosdek qora qiz bo'lib, yigitlarday ot choptirar, merganlikda ham hech kimdan qolishmas ekan.

Bir kuni ularnikiga mo'tabar mehmonlar, mamlakatning eng mashhur odamlari – yosh qirol bilan uning o'gay akasi va sadoqatli do'sti Ulrik Frederik Gyuldenlyove kelishibdi, ular to'ng'iz ovlab, bir-ikki kun Grubbe janoblarnikida mehmon bo'lish niyatida ekan.

Gyuldenlyove dasturxon atrofida Mariya Grubbe bilan yonma-yon o'tribdi, u qizning boshini ushlab, go'yo yaqin qarindoshiday peshanasidan o'pibdi. Qiz esa yigitning basharasiga shapaloq tortib yuboribdi, uni ko'rgani toqati yo'qligini izhor qilibdi. O'tirganlar buni beg'araz hazilga olib, sharaqlab kulib yuborishibdi.

O'shanda qizchaning gaplari yigitga sariyog'day yoqib qolibdi, oradan besh yil o'tgach, Mariya o'n yetti yoshga tolganda, chopar qiroldan yorliq olib kelibdi. Yorliqda janob Gyuldenlyove olijanob oyimqizga uylanajagini izhor qilibdi.

- U butun qirolikda eng mashhur va axloqli odam! – debdi qiziga Grubbe janoblari. – Taklifiga rozi bo'l.

- Uning afti qursin, – debdi Mariya Grubbe, lekin nozfiroq qilmabdi, mamlakatning eng mashhur odami, qirolning sirdoshiga tegishga rozi bo'libdi,

Kumush uy-ro'zg'or jihozlari, jun kiyimlar, oshxona asboblari va ko'rpa-yostiqlar dengiz orqali Kopengagenga jo'natilibdi. Mariya esa quruqlik orqali o'n kun yo'l bosib Kopengagenga yetib kelibdi. Yelkan yo'l olgan tomonga shamol esmagani sababli qizning sepi Kopengagenga to'rt oy deganda, Gyuldenlyove xonim allaqachon g'oyib bo'lganda yetib kelibdi.

- Uning shoyi ko'rpa chasida yotgandan ko'ra, dag'al to'shakda uxlagan ma'qull!! – debdi xonim. – U bilan bir karetada yurgandan, yalangoyoq yo'l bosganim yaxshi!

Kech kuz kunlarining birida Orxus shahriga ikkita ayol kelibdi: bular janob Gyuldenlyovening xotini Mariya Grubbe va uning oqsoch qizi ekan. Ular Veyledan otliq, u yerdan Kopengagenga esa kemada kelishibdi. Ayollar Grubbe janoblaring toshdan qurilgan qo'rg'oniga kirishibdi. Ritsar qochoqlarni yaxshi kutib olmabdi. U qizini do'q-po'pisa qilib qarshi olibdi, shunday bo'lsa-da, unga tunash uchun joy beribdi, ertalab nonushtada uning oldiga pivo bilan qora non qo'yibdi. Ertalab ham qovog'idan qor yog'ilib, qizini urishibdi. Otasining bu holatini ilk marta ko'rgan qiz bunga chidolmabdi. Mariya yuvosh qizlar toifasidan bo'lmaganidan, otasiga bo'sh

kelmabdi, u adi desa, qiz badi debdi! Eri bilan birga yashashdan bezor bo'lgan qizning qalbi g'azab va nafratga to'libdi. Qiz pokdomon va oriyatlari bo'lganidan u bilan yashashni or bilibdi.

Oradan g'am-g'uussaga to'la bir yil o'tibdi. Ota-bola uchrashib qolgan paytlarda hatto bir-birlariga achchiqtiziq gaplarni aytishni ham ravo ko'rmay qo'yishibdi. Allaqachon g'isht qolipdan ko'chgan edi. Yomon gaplar oqibati yaxshilikka olib bormaydi.

– Ikkimiz bir uyda ortiq yasholmaymiz! – debdi otasi nihoyat. – Eski qo'rg'onimizga jo'na, tilingni tiy, yo'qsa, malomatga qolasan.

Shu-shu ular ajrashib ketishibdi: qiz oqsochi bilan o'zi tug'ilib o'sgan uyga, cherkov daxmasida mas'um va muloyim onasi abadiy uqlab yotgan joyga ko'chib kelibdi; bu uyda keksa podachi yashayotgan ekan. Xonalar iflos, bog'ni o't-o'lalar bosib ketgan, daraxtlarning shox va butalari o'sib, chirmoviqlar chirmashib yotgan emish. Qonxo'r qoraqayinning atrofi chakalakzor bo'lib ketibdi, barglari boshqa daraxtlarning yaprog'i singari ko'm-ko'k bo'lib qolibdi, ilgarigi ko'tkidan asar ham qolmagan mish! Quzg'unlar, qarg'a va zag'chalar azim kashtan daraxtining uchlarida gala-gala bo'lib qo'nib turishgan emish; ular ovozlari boricha qag'llab, bir-birlariga:

– Inlarimizni buzib, jish bolalarimiz bilan tuxumlari-mizni o'rtog'iga majbur qilib oldirgan qiz qaytib kelibdi! O'g'ri bola esa, hozir shox-yaproqsiz machta degan daraxt ustiga tarmashib chiqyapti, agar shunday qilmasa uning adabini berib qo'yishadi! – deyayotgan emish.

Bu voqealarni shu kunlarda ruhoniyligi aytilib berdi: u eski kitoblar va qo'lyozmalardan bu haqda bilib olgan, endilikda boshqa yozuvlar qatorida uning stoli ustida Mariya Grubbe qissasi ham saqlanar emish.

– Taqdir kishini ne ko'ylarga solmaydi-da: goh ko'klarga ko'taradi, goh yerga urib chilparchin qiladi, bu dunyoning ishlari shunaqa, – derdi u. – Bunaqa qissalarni tinglab hayratga tushasan kishi.

Kelinglar, Mariya Grubbe nima bo'lganini eshitaylik, lekin shu kunlarda o'zining yaxshigina qushxonasida yashayotgan parrandachi Gretani ham esdan chiqarmaylik. Ilgari zamonlarda Mariya Grubbe xuddi shu qushxona o'rnidagi qo'rg'onda yashagan, lekin Mariyaning fe'li Gretanikiga mutlaqo o'xshamas edi.

Qish bilan bahor o'tib, yoz kelibdi, yana izg'irin shamol esgan hamda nam dengiz tumani atrofni qoplab olgan kuz boshlanibdi. Bu yerdagi qo'rg'onda yolg'iz yashash zerikarli ekan.

Bir kuni Mariya qo'liga miltiq olib, ov qilgani yalanglikka kelibdi; u quyon, tulki va uchragan qushlarni ovlabdi. Ov qilib yurgan paytida bir necha bor unga Nyorrebek qo'rg'onida istiqomat qiluvchi taniqli dvoryan Palle Dyure to'qnash kelibdi, u ham yonida itlari bilan ov qilib yurgan ekan. Bu novcha va barvasta yigit Mariyaga ko'rsatgan jasoratlari haqida maqtanishni yaxshi ko'rар ekan. U Fyun orolida yashar, Egeskou qo'rg'onining marhum egasi, jasorati shu kunlargacha doston bo'lgan janob Brokenxyus bilan ham kuch sinashgan ekan. Palle Dyure unga taqlid qilib darvozasidagi zanjirda ovchilar burg'usini osib qo'yishni buyuribdi, otliq tashqariga chiqib ketayotib zanjirga osilibdi, shunda ot-poti bilan yuqoriga ko'tarilib, burg'uni chalgan ekan.

– Mariya xonim, biz tomonlarni ham bir ko'rib keling, – deb taklif qilibdi u. – Nyorrebekning havosi muşaffo!

Mariyaning uning qo'rg'oniga borgani hech qayerda yozilmagan, lekin Nyorrebek cherkovining shamdonlaridagi yozuvlardan Nyorrebek qo'rg'oni sohiblari Palle Dyure va Mariya Grubbelar uchun qurbanlik qilinganini o'qib olish mumkin ekan.

Palle Dyure baquvvat yigit bo'lib, sira aroqqa to'ymas ekan, uxlasa xurragi cho'chqanining xo'rillashiga o'xshar, yuzlari qip-qizil bo'lib, hamisha terlab yurar ekan.

Grubbe janoblarining qizi Palle Dyure xonim eri haqida:

– To'ng'izday behayo, mushukday aymaqi, – der ekan. Uning Palle bilan birga turishi ko'p o'tmay

me'dasiga tegibdi, u bilan birga yashashning qizig'i qolmabdi.

Bir kuni qo'rg'onda dasturxon tuzashibdi, lekin qo'yilgan ovqatlarni yeydigan odamlar bo'lmanidan, u sovib qolibdi: Palle Dyure tulki ovlab yurar, xonimni har qancha axtarishsa ham, topisha olmabdi. Palle Dyure uyiga tunda qaytibdi. Dyure xonim kechasi ham, ertalab ham uyiga qaytmabdi. U hech kim bilan xayrashmay Nyorrebek qo'rg'onini tark etibdi.

Havo sovuq, izg'irin shamol esib, bir gala qora qushlar qag'illab Mariyaning boshida charx uribdi. Mariya qushlardan ham battar boshpanasiz ekan.

Dastlab Mariya janubga yo'l olib, Nemetchinaga kiribdi, u yerda bir necha qimmatbaho uzuklarini sotib pullabdi, u yerdan sharqqa, so'ng g'arbga yo'l olibdi. U butun olam, hatto parvardigor bilan ham chiqisholmay, maqsadsiz yashay boshlabdi, uning ruhi ayanchli va ojiz bo'lib qolibdi; ko'p o'tmay uning jismi ham shu qiyofaga kiribdi; u oyog'ini arang sudrab bosibdi. Tinka-madori qurigan Mariya holsizlanib yerga yiqilibdi, shunda qizg'ish qushni bosib olishiga sal qolibdi. Qushcha arang o'zini qutqarib qolibdi.

– Chug'! Chug'! Eh, o'g'ri qiz! – deb chiyillabdi qizg'ish qush, ular ana shunday chiyillashar ekan.

Mariya hech qachon yaqinlarining narsasiga ko'z olaytirmagan ekan, lekin yoshlida odamlarni qushlar uyasini buzishga, tuxum va jish bolalarini olishga majbur qilgan ekan, u ana shularni xotirlabdi.

Mariya yotib qolgan joydan sohildagi qumtepalar ko'rinish turar ekan; u yerda baliqchilar yashar ekan. Mariya tamoman holdan toyganidan baliqchilar oldiga yetib borishga madori qolmabdi. Sohilning ulkan baliqchi qushlari bir vaqtlar o'z uyidagi qarg'a, quzg'un va zag'chalar singari uning tepasida chinqirib charx uribdi. Qushlar unga yaqinlashib kelganidan nazarida oppoq baliqchi qushlar qorayib ketganday bo'libdi, tun tushganday ko'z oldi qorong'ilashibdi.

O'ziga kelib, bunday qarasa, birov uni qo'lida ko'tarib ketayotgan emish; u o'zini baquvvat bir yigit qo'lida ko'ribdi. Mariya uning soqol bosgan yuziga, qoshini ikkiga bo'lib yuborgan tirtig'iga boqibdi. Yigit bu bebaxt qizni kemaga olib boribdi, buni ko'rgan boshliq yigitning ta'zirini beribdi.

Ertasiga kema yelkanlarini ko'tarib, dengizda suzib ketibdi. Mariya Grubbe esa sohilda qolmabdi; u ham safarga otlanibdi. Lekin u safardan qaytib keldimikin? Qaytgan bo'lsa ham, qayerga kelganini hech kim bilmas ekan.

Bu haqda ham ruhoniy xabar berishi mumkin, bu ajoyib qissani o'zi to'qimagan, uni ishonchli manbalardan, o'zimiz olib o'qishimiz mumkin bo'lgan eski kitobni o'qib, bilib olgan.

Ajoyib kitoblar va hajviyalar yozgan Daniya yozuvchisi Lyudvig Xolberg o'z xatlarida Mariya Grubbe haqida, taqdir uni qaysi ko'ylarga solgani haqida yozgan. Uning kitoblarida o'tmisht va uning odamlari ko'z oldimizda xuddi tirikday gavdalananadi. Mariya voqeasini eshitish foydadan xoli emas, uni eshitarkanmiz, hozir ham o'zining yaxshigina qushxonasida mammun va xushchaqchaq yashagan parrandachi Greta beixtiyor yodimizga tushadi.

Kema yelkanlarini ko'tarib, yo'lga chiqibdi. Undan keyin Mariya Grubbe ham yo'lga otlanibdi, biz xuddi shu yerda qolgan edik.

Oradan ko'p yillar o'tibdi.

1711-yil kiribdi, Kopengagenda vabo avj olibdi. Daniya qirolichasi o'z yurti Germaniyaga jo'nab ketibdi, qirol ham poytaxtni tark etibdi, majoli kelgan hamma odam shahardan qochib ketibdi. Kopengagendan talabalar ham, hatto ular orasidan qirollik uylarida yashayotganlari ham ketishga harakat qilibdi. Binobarin, Regensen yonidagi Borxov kollegiyasida ko'proq ushlanib qolgan so'nggi student ham shahardan chiqib ketmoqchi bo'libdi. Uning ko'ziga kiyim-kechaklari ko'rinnabdi. U kitob va

yozuvlarga to'la xaltachasini ko'tarib, tungi soat ikkilarda ko'chaga chiqibdi. Shaharni nam, rutubatli tuman qoplab olgan emish; ko'chada tirik jon ko'rinas emish, hamma hovli darvozalariga xoch alomati qo'yilgan emish; bu belgi shu uyda yo vabo tarqalgan yoki odamlari butunlay qirilib ketgan, degan ma'noni bildirar ekan. Bir vaqtlar Yumaloq minoradan qirol saroyigacha boradigan Chyodmannegrade deb nomlangan uzun va aylanma ko'chada hech zog' yo'q emish. Talabaning yonidan o'liklar ortilgan katta aravalalar guldurab o'tibdi, aravakash qamchisini o'ynatgan ekan, otlar chopib ketibdi. Yosh talaba qutidagi spirt shimdirlgan lattani burniga olib borgan ekan, o'tkir hid dimog'iga urilibdi.

Tor ko'chalardan biridagi yerto'ladan baland aytayotgan ashula va tuni bilan tinimsiz ichkilikbozlik qilayotgan shaharliklarning qahqahasi eshitilibdi; ular vabo eshik orqasida yashirinib turganini, sal beparvo bo'sang, boshqa marhumlar singari o'lik aravaga uloqtirilishi mumkinligini unutish niyatida shunday qilishayotgan ekan. Talaba saroy ko'prigi yonidagi kema to'xtaydigan joyga boribdi, u yerda bir necha kichik kemalar turgan emish; kemalardan biri vabo tarqalgan shahardan tezroq jo'nab qolish niyatida langarini ko'tara boshlabdi.

– Yelkanimiz yo'l olgan tomonga shamol esib qolsa, eson-omon Gryonsundan Falsterga yetib olamiz, – debdi boshliq va ular bilan birga ketishga hozirlanayotgan talabandan ismi nimaligini so'rabdi.

– Ismim Lyudvig Kolberg! – debdi talaba.

Bu nom boshqa nomlarday jaranglamabdi, unchalik e'tiborni ham tortmabdi. Endi bu nom Daniyadagi eng mashhur nomlardan biri bo'lib qolibdi: o'sha paytlarda Kolberg yosh, hech kim uni tanimas ekan.

Kema saroy yonidan o'tibdi. Tong otmay u ochiq dengizga chiqib olibdi. Yengil shabada esib, yelkanlarni shishiribdi, talaba esayotgan shabadaga yuzini tutib, uyquga ketibdi; bu ishi unchalik yaxshi bo'lmabdi.

Uchinchi kuni ertalab kema Falsterda langar tashlabdi.

- Uyni arzonga ijara qo'yadigan odamni bilmaysizmi?  
- deb so'rabdi Xolberg kema egasidan.

- Yaxshisi, siz Burrexyus kechigiga borib, parom haydovchi ayolga uchrang, - debdi boshliq. - O'zingizni odobli yigit qilib ko'rsataman desangiz, u kishini onaxon Seren Serensen Meller deb atang. Lekin ehtiyot bo'ling, odob me'yorini oshirib yubormang, jahli chiqadi. Erini qandaydir jinoyati uchun qamab qo'yishgan, paromni ayolning o'zi haydaydi, qo'llari juda baquvvat.

Talaba xaltasini ko'tarib, paromchi ayolning qorovulkxonasiha boribdi. Eshik zanjirlanmagan ekan, bola tutqichidan sal tortgan ekan, eshik ochilib ketibdi, u yeriga tosh yotqizilgan xonaga kiribdi. Bola xonada kenggina qishloqicha so'ri ustiga solingan o'rinni ko'ribdi.

Endigina jo'ja ochib chiqqan, so'ri poyasiga bog'lab qo'yilgan oq tovuq suv idishini ag'darib to'kib yuboribdi. Belanchakda yotgan boladan tashqari bu xonada ham, qo'shni xonada ham hech kim yo'q emish. Nihoyat parom ko'rinishibdi. Unda boshdan-oyoq keng plashga burkanib olgan, erkakligini ham, ayolligini ham ajratib bo'lmaydigan bir odam o'tirgan emish. Parom qirg'oqqa kelib to'xtabdi.

Ko'p o'tmay xonaga qaddi-qomati kelishgan, viqorli bir ayol kirib kelibdi; timqora qoshlari ostidagi qora ko'zlari mag'tur boqar emish. Bu - paromchi onaxon Seren ekan; agar quzg'unlar, qarg'a va zag'chalar bo'lganda, bu ayolning nomini boshqacha, ya'ni bizga tanish bo'lgan nomini aytardi.

Ayol qovog'ini uyib bolaga nazar tashlabdi, ko'rinishidan kamgaproqqa o'xshar emish, binobarin, u talaba bilan gaplashibdi, to Kopengagenda vabo tugaguncha uni uyida boqib turajagini aytibdi.

Yaqindagi shahardan paromchi xotinning qorovulkxonasiha ba'zi bir insofli shaharliklar tashrif buyurib turishar ekan. Frants Dastarrasoz bilan Sivert Bojxonachi<sup>13</sup> ham

<sup>13</sup> Frans Dastarrasoz va Sivert Bojxonachi - L. Xolberg pyesalari qahramonlaridan.

bu yerga kelib turishar ekan; ular qorovulxonada bir krujkadan pivo ichib, yosh talaba bilan suhbat qurishar, ularning aytishicha bu yigitcha gapning fahmiga boradigan, grekcha va lotinchani bermalol o'qiy oladigan, olimlarga xos zakovatga ega bo'lgan odam emish.

– Qancha oz bilsang, hayot mashaqqatini shuncha oz tortasan, – debdi bolaga bir kuni onaxon Seren.

– Ishingiz og'ir ekan! – debdi Xolberg kunlarning birida ayolning kir yuvib bo'lib, o'tin yorayotganini ko'rib.

– Bu ishni men qilmay, kim qilardil! – debdi Seren.

– Yoshligingizdan beri shunaqa og'ir ish qilasizmi?

– Qo'llarimdan payqamayapsizmi? – debdi ayol, so'ng kichkina, lekin baquvvat, dag'al qo'llarini ko'rsatibdi. – Qo'limga qarab bir o'qib yuboring-chi. O'qishga ustasizku!

Rojdestvo bayrami arafasida qattiq bo'ron ko'tarilibdi; sovuq zabitga olibdi, shamol odamlar yuziga zahrini sochib, o'kiribdi. Onaxon Serenni hech qanaqa ob-havo tashvishga solmabdi, u chakmoniga yaxshiroq o'tanib, ko'zigacha qalpoqni tushirib olibdi. Tush paytidayoq qorovulxona nimqorong'i bo'lib qolibdi. Ayol o'choqqa shox-shabba va torf tashlab, boshmog'ini yamay boshlabdi. Orolda bitta ham yamoqchi yo'q ekan. Kechga yaqin talaba bilan suhbatlashibdi, u odatdagidan ancha ko'p gapirib, eri haqida hikoya qilibdi.

– Erim to'satdan dragerlik bir kema boshlig'ini o'dirib qo'ydi, uni Xolmada oyog'iga iskanja urib, uch yil qamoqqa hukm qilishdi. U oddiy bir matros edi, hech kim uning yonini olmadi, qonun shuni talab qilar edi.

– Qonun hammaga bir xil, zodagonlar uchun ham, – deb e'tiroz bildiribdi Xolberg.

– Sizningcha u shunday! – debdi onaxon Seren, o'choqdagi olovga tikilganicha jim qolibdi; so'ng yana gap boshlabdi. – Siz Kay Lyukke haqida eshitganmisiz? O'z cherkovlaridan birini buzishga buyruq bergan-chi? Gap bunday, rohib Made uning bu qiligi uchun cherkov minbarida turib haqorat qilayotganida Lyukke rohibning

oyoqlariga iskanja urishga buyruq berib, ishini sudga oshiradi, o'z mavqeidan foydalanib, uning boshini kesishga hukm qiladi, janob Madening o'sha zahotiyoy qallasi tanidan judo qilinadi; bu tasodify qotillik emas, bu undan ham yomon ish, Kay Lyukke o'shanda erkin qush bo'lganidan xuddi o'sha ko'yil qolaveradi.

— Sudlar ham o'zgarmadi! — debdi Xolberg. — Hozircha esa ko'p narsa o'zgarib ketdi.

— Bu safsatangizni kallavaram odamlarga ayting, — debdi onaxon Seren.

U o'rnidan turib qo'shni xonaga — qizalog'i yotgan joyga kirib ketibdi. Uyni yig'ishtirib, bolani yaxshilab yotqizibdi, keyin so'riga talabaga o'rin sohib beribdi, yigit garchi Norvegiyada tug'ilgan bo'lsa-da, tezda sovqotib qolibdi, buni sezgan ayol jun adyolni unga beribdi.

Yangi yil tongida havo ochiq, quyosh charaqlab turgan emish, sovuq zo'rligidan yer muzlab, qatqaloq bo'libdi, yurish ancha osonlashibdi. Shahar qo'ng'iroqlari odamlarni ibodatga chaqiribdi. Talaba Xolberg jun plashga o'rnavolib shaharga borishga jazm qilibdi.

Burrexyus kechuvi ustida quzg'unlar, qarg'a va zag'chalar qag'llab, shovqin-suron ko'tarib, gala-gala bo'lib uchib yurishgan emish; ularning tovushlari hatto qo'ng'iroqlar ovozini ham bosib ketibdi. Onaxon Seren qorovulxonadan chiqib, mis qozonga qor to'ldiribdi, uni eritib, ichimlik suv tayyorlamoqchi bo'libdi; u boshi uzra charx urayotgan qushlarga boqib, o'zicha xayollarga botibdi.

Xolberg cherkovga boribdi; cherkov yo'li shahar darvozasi yonidagi Sivert Bojxonachi uyi oldidan o'tar ekan, u qaytib kelayotganda uni zanjabil solingan yovg'on atalaga taklif qilishibdi; bu yerda onaxon Seren xususida gap ketibdi, lekin Bojxonachi ayol haqida unchalik ko'p narsa bilmas, uni biladigan odamlar ham oz ekan. Bojxonachi ayolni bu yerlik, falterlik emasligini, bir vaqtlar yegani oldida, yemagani ketida hayot kechirganini, eri oddiy matros bo'lib, ancha qiziqqon kishi ekanini, achchiq

ustida dragerlik kema boshlig'ini otib tashlaganini bilar ekan, xolos.

– U xotinini rosa do'pposlardi, shunga qaramay, u doimo erining yonini olardi.

– Men bunaqa muomalaga toqat qilolmasdim, – debdi Bojxonachining xotini. – Men ham oddiy odamning qizi emasman! Otam qirolning paypoqdo'zi bo'lgan.

– Shuning uchun ham eringiz qirol amaldori-da, debdi Xolberg va odob bilan ta'zim bajo keltiribdi.

Oqshom tushibdi, yangi yil oqshomida kichik Isoga ta'zim qilgani kelgan uchta sharq podsholari xotirasi uchun bayram qilishar ekan. Onaxon Seren Xolbergning oldiga «uch podsho shami»ni qo'yibdi.

– Har bir erga bittadan – sham, – debdi Xolberg.

– Har bir erga bittadan sham deysizmi? – so'rabi ayol uning yuziga tikilib...

– Ha-da, har uchala sharq podsholariga bittadan sham!

– deb uqtiribdi Xolberg.

– Shunaqa deng! – debdi ayol va ancha vaqt jim bo'lib qolibdi.

Lekin o'sha bayram oqshomida talaba ko'pgina sirlardan voqif bo'libdi.

– Eringizni qattiq sevarkansiz, – debdi Xolberg onaxon Serenga. – Odamlarning gapiga qaraganda, u har kuni sizni xo'rлarkan, urarkan.

– Ularning nima ishi bor! – debdi ayol. – Bolaligimda ana shunday kaltak yeganimda foyda bo'lardi, endilikda bu kaltaklar qilgan gunohlarimning jazosi bo'lyapti. Erim menga qanchalik yaxshilik qilganini yolg'iz o'zim bilaman, – ayol shunday debdi-yu qaddini rostlabdi. – Izg'irin shamol suyak-suyakdan o'tib esayotgan yalanglikda behol, bemador, hech kimga keragim yo'q bo'lib yotganimda, qarg'a-quzg'unlarga yem bo'lishga sal qolganimda u meni ko'tarib, kemaga olib bordi, buning evaziga boshliqdan yaxshigina so'kish eshitib oldi. Men nimjon ayollardan emasdim, tuzalib ketdim. Har kimning o'ziga yarasha fe'l-atvori, Serenning ham o'z fe'l-atvori bor,

qirchang'i otning yuganiga qarab baho berilmaydi. Qirol noiblari ichida eng nazokatli va eng zodagon hisoblangan oldingi erimga qaraganda bu erim bilan baxtliroq hayot kechirar edim. Men qirol noibi Gyuldenlyovega ham tekkanman, u qirolning o'gay akasi edi; keyin Palle Dyuraga turmushga chiqdim. Ikkovi ikki xil olam bo'lib, men esa boshqa bir olam edim! Rosa valaqladim-da, evaziga siz ko'pgina narsalarni bilib oldingiz.

Shunday deb, ayol xonadan chiqib ketibdi.

Bu ayol Mariya Grubbe edi: uning taqdiri ana shunaqa ajabtovur bo'ldi.

Ayol Sharq podsholariga bag'ishlangan yana uchta bayramni ko'ribdi; Xolberg uni 1716-yilda vafot etdi deb yozdi. Lekin u onaxon Serenning qachon tobutga tushganini, Burreyxus kechuvi ustida qora quzg'unlar charx urib aylanganini yozmagan, bu haqda u hech narsa bilmas edi, ko'mish marosimi vaqtida tinchlik zarurligini bilganday, quzg'unlar shovqin ko'tarishmabdi. Onaxon Serenning jasadi yerga qo'yilishi bilanoq qushlar g'oyib bo'lishib, o'sha kuni kechqurunoq Yutlandiyada paydo bo'lishibdi. Ko'hna qo'rg'on usti qarg'a-quzg'un va zag'cha galalariga to'lib ketibdi. Ular bir-birlariga gal bermay chug'urlashibdi, qag'illashibdi, bir gapni tezroq aytishga oshiqishibdi. Ehtimol, ular uyalarini buzgan, tuxumlari va pati chiqmagan jish bolalarini o'g'irlab ketgan, hozir esa oyog'iga temir iskanja urilib, Xolm orolida yurgan dehqon o'g'loni yoki o'z hayotini Gryonsundda paromchilikda tugatgan olijanob xonim haqida gapirishmoqchi bo'lsa kerak.

- Qag'-qag'l Chir-r-roylil! Chir-r-roylil! - deb qiyqirishibdi ular.

Ko'hna qo'rg'lonni buzishganda esa o'sha quzg'unlarning avlodi ham:

- Qag'-qag'l Chir-r-roylil! Chir-r-roylil! - deb qichqirishibdi.

- Garchi qichqirishga o'r'in qolmasa-da, ular hamon burungiday qichqirishyapti, - dedi ruhoniy bu qissani

hikoya qilar ekan. – Dvoryan Grubbening zoti tugadi, qal’ani buzib tashlashdi, uning o’rniga tilla suvi yugurtirilgan flyugeri bor hashamatli qushxona qurildi. Unda hozir keksa parrandachi Greta o’tiribdi. U bu binodan behad xursand! Agar u bu yerga tushib qolmaganida, birorta ibodatxonada umri o’tib ketgan bo’lardi.

Uning atrofida kaptarlar charx urib, kurkalar kurkullab, o’rdaklar g’a-g’alab yuribdi.

– Greta haqida hech kim hech narsa bilmaydi! – deyishibdi parrandalar. – U surriyotsiz ayol edi. Unga rahmlari kelganidan bu yerda yashashga ijozat berishgan. Uning na o’rdak otasi, na o’rdak onasi va na jigargo’sha jo’jali bo’lgan.

Harholda Gretaning nasl-nasabi bor bo’lib, o’zi esa bundan bexabar edi, stoli ustida talay yozuvlar bo’lsa-da, ruhoni hech narsa bilmasdi. Lekin qari qarg’alardan biri Gretaning ajdodlarini bilar edi, shu vajdan u bu haqda hikoya qilib beribdi. Qarg’a o’z oyisi va momosidan Gretaning onasi va momosi haqida hikoya eshitgan ekan. Biz ham bu hikoyani bilamiz, momosi yoshligida ot choptirib, butun olamga va barcha qush uyalariga xo’jayinday atrofga viqor bilan nazar tashlab, gerdayib yurgani xotiramizda. Biz uni archagullar o’sgan yalanglikda, qumtepalar ortida yotganini, keyinroq Burrexyus kechuvida ishlaganini ko’rganmiz. Uning eng so’nggi ajdodi – nabirasi bir vaqtlar ko’hna qo’rg’on bo’lgan, qora yovvoyi quzg’unlar yotgan joyga, o’z uyiga qaytib keldi. Lekin u qolga o’rgatilgan uy parrandalari orasida o’tiribdi, u qushlarni, qushlar esa uni yaxshi bilishar edi. Parrandachi Gretaning zarracha armoni yo’q, u olamdan o’tsa ham xursand, chunki oshini oshab, yoshini yashab bo’ldi.

– Tobut! Tobut! – deb qag’illashibdi qarg’alar. Shunday qilib parrandachi Gretani tobutga solishib, dafn qilishibdi, lekin uning qayerga ko’milganini hech kim bilmaydi, agarda qari qarg’a tirik bo’lgan-da, o’sha bilardi, xolos.

Biz endi ko’hna qo’rg’on tarixi, qadimiy dvoryan zoti va parrandachi Gretaning avlod-ajdodlarini bilib oldik.

## NIMA O'YLAB TOPISH MUMKIN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yigit bo'lgan ekan; u shoir bo'lish uchun astoydil tirishibdi, pasxa bayramigacha shoir bo'lib olib, keyin uylanmoqchi, ijod qilib boy-badavlat yashamoqchi bo'libdi. Shoir bo'lish uncha qiyin emas; bir nimalarni o'ylab topsa boldi-da, lekin nimani o'ylab topish mumkin? Hamma gap ana shunda! Esiz, kechikib tug'ilgan ekan-da! U olamga kelgunga qadar hamma voqealar tamom bo'lib, hammasi she'riyatda kuylanib bo'libdi.

- Bundan ming yil muqaddam tug'ilganlarning baxti bor ekan! – debdi u. – O'z nomini abadiylashtirish ularga oson bo'lgan. Hozirgi zamonamizdan yuz yil ilgari ~~tug'ilganlar~~ ham baxtiyor bo'lishgan, ular uchun yozishga arzigiday narsalar bo'lgan. Lekin hozir olamda hamma narsa kuylanib, hatto qayta kuylanib bo'lgan.

U shunaqayam bosh qotirbdiki, oxiri kasal bo'lib qolibdi. Hech qanaqa doktor uning dardiga darmon bo'lomabd, tabibga ko'rsatishdan boshqa iloji qolmabdi. Tabib ayol chekkaroqdagi kichkina uyda yashar, vazifasi aravalor va yo'lovchilarga darvoza ochishdan iborat ekan. Lekin uning bundan ham muhimroq boshqa ishi bor ekan, o'z xususiy faytonida yuradigan va amali yuzasidan davlatga soliq to'laydigan har qanday doktorni donoligi bilan bir cho'qishda qochirar ekan.

- O'shaning oldiga borish kerak! – debdi yigitcha. Tabib xotin mo'jazgina, ozoda, lekin ko'rimsizgina uyda yashar ekan, uy atrofida na gul, na daraxt bor ekan! Uyning oldida asalari yashigi, kartoshka ekilgan poliz va tikanli o't-o'lalar bosib ketgan ariq bor ekan, xolos. Na'matak allaqachon gulini to'kib, marjon-marjon meva tugibdi, uning mevasini sovuq urgunga qadar yeb bo'lmas, aks holda tishni qamashtirib qo'yishi mumkin ekan.

«Zamonamizning bu ko'rinishida hech qanday she'riyat yo'ql!» – deb o'ylabdi yigit. Shunday qilib, u tabib ayol

ostonasida she'riyatning gavhar donasini topibdi, uning miyasida yangi fikr paydo bo'libdi.

— Buni yozib qo'y! — debdi kampir. — Uvoq ham non-da! Nega bu yerga kelganiningni bilaman. Sen hech narsa o'ylab topa olmayapsan, lekin pasxa bayramigacha shoir bo'lmoqchisan!

— Hamma voqealar tanlab bo'lingan! — debdi yigit. — Zamonamiz o'tmishdagi saxovatli zamon emas!

— Yo'q! — deb e'tiroz bildiribdi kampir. — U zamonlarda tabib ayollarni yondirishgan, shoirlar bo'lsa xor-zor bo'lib yurishgan. Zamonamiz eng yaxshi zamon! Lekin sen narsalarga sinchiklab nazar tashlamaysan, qulog'ingni o'tkirlaganing yo'q, oqshomlari «Otche nash»ni kam o'qiysan. Zamonamizda kuylash va hikoya qilishga arzirli narsalar ko'p, ishni nimadan boshlashni bilish kerak! Istagan yerdan, ko'katlardan, boshhoqlardan, hatto oqin hamda ko'lmak suvlardan — hamma-hammasidan tegishlisini olib, fikringni boyit! Lekin buning uchun fahm-farosat bo'lishi, quyosh jilosini ham tutib olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak! Qani, ko'zoynagimni taqib, qulog'imga nayimni tutib eshit, Ollo Taoloni yordamga chaqirib, o'zing haqingda o'ylashni bas qil!

Yigitga oxirgi shartni bajarish qiyin bo'libdi; dono xotinning bunaqa talab qo'yishi insofdan emas-da, axir.

Yosh yigit ko'ziga ko'zoynak taqibdi, qulog'iga nay tutibdi, tabib ayol uni kartoshkapoyaning o'rtafiga olib borib, qo'liga kattagina bir dona kartoshkani ushlatib qo'yibdi. Uning qo'lidagi kartoshkadan ovoz chiqibdi. Yigit ovozga qulop solibdi, kartoshkalar hayotidan o'n qismdan iborat «oddiy voqealari»ni eshitibdi. Voqealar qo'shiq tarzida aytilibdi. Bu voqeani hikoya qilish uchun o'n satr ham kifoya qilar ekan.

Xo'sh, kartoshka nimalarni kuylabdi?

U o'zi va o'z oilasi, dastlabki kartoshkaning Yevropaga qanday kelib qolgani, qadr-qimmat topgunga qadar talay qiyinchiliklarni boshidan kechirgani haqida kuylabdi.

- Bizni qiroq amriga binoan hamma shahar mahkamalariga tarqatishdi; buyuk ahamiyatimiz hammaga e'lon qilindi, biroq bunga hech kim ishonmadi, hatto odamlar biz bilan qanday muomala qilishni ham bilishmadi. Ba'zilar kartoshkalarni bir chuqurga tashlab qo'yishdi, boshqalar esa u yer-bu yerga ekib, undan daraxt unib chiqishini, kartoshkasini esa qoqib olishni kutib o'tiraverdi! Nihoyat ko'karib chiqdik, gulladik, keyin esa pulaklarimiz so'lidi, butun huzur-halovat, boylik yerning tagida ekanligi hech kimning xayoliga ham kelmadi. Ha, ko'p og'ir kunlarni boshimizdan kechirdik, to'g'rirog'i, otabobomiz talay ko'rgiliklarni ko'rди!

- Voqeani qarang! – debdi yigit.

- Bo'ldi, endi yetar! – debdi kampir. – Anavi na'matakka qara!

- Kartoshkaning vatanida ham yaqin qarindoshlarimiz bor, – deb gap boshlabdi na'mata, – lekin ular kartoshka bitadigan joylardan sal shimolroqda. O'sha yoqlarda normanlar paydo bo'lishdi; ular tuman va bo'ronlarga qarshi suzib, muz va qor ostida o't-o'lanlarga o'xshash mevasi bor butalarga duch kelishdi, ana shu mevalardan vino qilish mumkin. Bu na'matak edi: uning mevalari menikiga o'xshabsov uqqa pishadi. Bu yer Grilandiya bo'lib, «vino mamlakati», «yashil mamlakat» nomini oldi.

- Bu ham butun bir poemaning o'zi-kul! – debdi yigit.

- Ha, shunaqa, endi mana bu yoqqa yuri! – debdi tabib ayol va uni asalari uyasi oldiga olib boribdi.

Yigit yashik ichiga qarabdi. Ana hayot-u mana harakat! Hamma yo'laklarga asalarilar o'tirib olib, bu ulkan fabrikani shamollatish niyatida hadeb qanotlarini qoqishayotgan emish, shunday qilish ularning burchi ekan-da. Yuk ko'tarib kelayotgan asalarilar ko'paygandan ko'payibdi, ular oyoqlaridagi cho'tkalarda gul changiarini keltirib qoqishibdi, navlarga ajratishibdi, ularning bir qismi asalga, qolgani esa mumga ketibdi. Asalarilar kelketishaveribdi, podsholari ham uchib ketgisi kelibdi-yu u uchsa boshqalar ham uning orqasidan uchishi kerak

ekan, uchish vaqtı bo'lмаганыдан олий hazratlarining qanotlarini qirqib qo'yishibdi; shu vajdan u joyidan qimirlamay o'tiraveribdi.

– Endi ariq bo'yidagi tepalik ustiga chiq! – debdi tabib ayol. – Yo'nga, yaxshi odamlarga nazar tashla!

– Ie, u yer zimiston-ku! – deb xitob qilibdi yigit. – Shovqin-suron! Voqealar bijib yotibdi! Oh, ko'z oldim qorong'ilashib ketyapti! Yiqilib tushmasam go'rga edi!

– Qo'rqma, oldinga dadil qadam tashla! – debdi kampir.

– Hayot qaynagan, odamlar eng gavjum bo'lgan joyga dadil boraver, lekin ko'zing, qulog'ing, qalbing hamma narsani chuqur sezsin! O'shanda darhol biron narsani o'ylab topasan! Avvalo menga ko'zoynagimni, qulopqa tutib eshitadigan nayimni bergen-da, yo'lingdan qolma!

Kampir yigitdan buyumlarini olibdi.

– Endi hech narsani ko'rmayapman-ku, – debdi yigit. – Qulog'im ham hech narsani eshitmayapti!

– Bo'lmasa, sendan pasxa bayramigacha shoir chiqmas ekan! – debdi tabib ayol.

– Qachon shoir bo'laman? – so'rabdi u.

– Hech qachon! Sen hech narsani o'ylab topolmaysan!

– Modomiki ijod orqasida yashamoqchi ekanman, nima ish qilay?

– Qish oxiridagi bayramda biror narsalik bo'larsan. O'shanda shoirlarni bochka ichiga solib, bochkani taqillatasan! Shoirlarning ijodini yaxshilab savalasang ishing yurishib ketadi. Faqat ruhing tushmasin, shunday qilsang, anchagini pul ham ishlab olasan! Bu pullar oilingga bema'lol yetadi!

– Ana shunaqa narsani o'ylab topish kerak ekan-dal! – debdi yigit va shoirlarni birin-ketin savalay boshlabdi. O'zi shoir bo'lomaganandan keyin shunaqa qiladi-da.

Bularning hammasini tabib xotindan bilib oldik, nima o'ylab topishni u yaxshi biladi!

## BURGA BILAN PROFESSOR

Bor ekan, yo'q ekan, bir uchuvchi odam bo'lgan ekan. Uning omadi yurishmabdi: shari portlab, o'zi yerga yiqilib, burda-burda bo'lib ketibdi. U yiqilishidan bir necha daqiqa oldin o'g'lini parashyutda yerga tushirib yuborgan ekan. U yerga eson-omon tushibdi. Unda otasi singari havoda uchuvchi bo'lish uchun yetarli zehn-qobiliyat bor ekan-u, biroq uning shari ham, shar olish uchun puli ham yo'q ekan. Ammo tirikchilik o'tkazish uchun biron ish qilish kerak ekan, ko'zboylag'ich va og'zini ochmay gapirish yo'llarini o'rgana boshlabdi. U yosh, kelishgan yigit ekan, sal katta bo'lgach, egniga yaxshi ust-bosh kiyibdi, mo'ylov qo'yibdi, ko'rganlar uni graf bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Xonimlar ko'ziga boshqacha ko'rindigan bo'libdi, hatto bir qiz uning husn va chaqqonligiga tasanno o'qib, sevib qolibdi. Bu qiz yigit bilan turmush qurib, yot ellarda sarson-sargardonlikda bo'lsa-da hayot kechirishga rozi bo'libdi. O'zga yurtlarda yurib, yigit professor bo'libdi, bundan past unvonga u ko'nmas ham ekan-da.

Uning birdan-bir orzusi havo shari sotib olish, yoshgina xotini bilan osmon-u falakka ko'tarilish ekan, lekin shar olishga puli yo'qligi uni qiyabdi.

- Bir kunmas bir kun pulimiz ham bo'ladi, - debdi u.
- Aytganingiz kelsin, - javob qaytaribdi xotini.
- Hali yoshman, professorman! Uvoq ham non! Xotini eriga har tomonlama ko'maklashibdi, u eshik oldida turib, tomoshaga kelgan odamlarga bilet sotibdi. Qishda bilet sotishga qiynalibdi, hatto bir fokusni bajarishda ham eriga yordam beribdi. Eri uni stol yashigiga yashirib qo'yar, stol katta bo'lganidan, ayol orqa yashikka emaklab o'tib, oldingi yashikda yo'q bo'lib qolar ekan. Shunday qilib, ular tomoshabinlar ko'zini boylashar ekan.

Bir kuni kechqurun u yashikni sursa, xotin chindan ham u yerda yo'q emish! U oldingi yashikda ham, keyingi yashikda ham, uyda ham yo'q emish, u nom-nishonsiz

yo'q bo'libdi. Bu – xotinning ko'z boylog'ichi ekan! Ayol bundan keyin erining oldiga qaytib kelmabdi, chunki bunday hayot kechirish uning joniga tekkan ekan. Eri esa xotinini sog'inib, hijron azobida kuyibdi. G'am-qayg'uga botib, tomoshabinlarga o'z hunarini ko'rsatolmay, ularni kulдиrolmay qolibdi. Odamlar uning tomoshalariga kirmay qo'yishibdi. Maoshi kamayib, kiyim-boshlari bir holatda bo'lib qolibdi. Nihoyat uning bor bisotida atigi bitta katta burgagina qolibdi – bu xotinidan yodgorlik ekan! U burgani turli o'yinlarga o'rgatibdi: burga kichkina zambarakdan o'q otishni ham o'rganibdi.

Professor o'z burgasi bilan faxrlanar, burga esa buni ko'tib g'ururlanar ekan: axir u ba'zi narsalarni o'rganib olibdi-da, uning tomirlarida inson qoni oqmoqda ekan, buning ustiga u turli shaharlarda bo'libdi, shahzoda va malikalar oldida tomoshalar ko'rsatibdi, ularning olqishiga sazovor bo'libdi. Uning tomoshalari gazeta va afishalarda e'lon qilinibdi. Burga o'zini mashhurman, deb hisoblab, faqat professornigina emas, balki butun bir oilani boqishga qurbi yetishini bilar ekan.

Burga mag'rur, ma'lum va mashhur ekan, ajabo! U poyezdda professori bilan sayohat qilganda, hamisha to'rtinchı klass vagondan o'rın olar ekan. Ammo to'rtinchı klass vagonda ketish birinchi klass vagondagidek tinch emas ekan! Professor bilan burga bir-birlari bilan unsiz mustahkam do'st tutinishibdi, hech qachon bir-birlaridan ajralmaslik, uylanmaslikka va'da berishibdi. Burga bo'ydoqligicha, professor esa tulligicha qolmoqchi bo'libdi.

– Katta muvaffaqiyatga erishilgan joyga qayta bosh suqmaslik kerak! – der ekan professor; u odamlarni bilarkan-da, bu gapda bir hikmat bor.

Nihoyat, u yovvoyilar mamlakatidan tashqari hamma mamlakatlarda bo'libdi, bir vaqt yovvoyilar yoniga borishga ahd qilibdi. To'g'ri, u yovvoyilar xristianlarni yejishini bilar ekan, lekin u haqiqiy xristian emas ekan, burga esa chinakam inson emas ekan, burganing o'zi ham

buni yaxshi bilar ekan. Ular yovvoyilar mamlakatiga borib mo'maygina pul ishlab olishga jazm etishibdi.

Ular yo'lning bir qismini paroxodda, qolgan qismini esa yelkanli kemada bosishibdi; burga o'z hunarini ko'rsatibdi, shunday qilib, ular yovvoyilar mamlakatiga yetib kelishibdi.

Mamlakatni mitti bir malika idora qilar ekan, malika ota-onasidan hokimiyatni tortib olgan ekan. U o'zboshimcha bo'lib, buning ustiga husndor va o'jar ayol ekan.

Burga harbiycha salom berib, zambarakdan o'q uzib, o'z hunarini namoyish qilganini ko'rgan malika uni sevib qolibdi.

– Men faqat shunga erga tegaman! – xitob qilibdi malika.

Malika yovvoyitabiat odam bo'lib, burganing ishqida battar yovvoyilashib ketibdi.

– Jon bolam, o'rgilay bolam! O'zing aqli qizsan-kul! – deb gap boshlabdi otasi. – Burga avvalo inson zotiga aylanganda boshqa gap bo'lardi!

– Nima ishing bor, miyasi achigan chol! – deb jerkib beribdi malika.

Axir otasi bilan kim shunaqa muomala qiladi. Ha, qiz ana shunday yovvoyitabiat ekan.

Malika burgani kaftiga o'tqizib, unga shunday debdi:

– Endi sen insonsan, men bilan birga podsholik qilasan! Lekin sen gapimdan chiqmasliging kerak, yo'qsa, seni o'ldirib, professorni yeb qo'yaman!

Professorni kattagina bir xonaga olib borishibdi. Uning devorlari shakarqamishdan qurilgan ekan, uni huzur qilib yalash mumkin ekan-u, ammo bu shakarqamish shirin emas ekan. Professorga ko'rpa-yostiq o'rniga osma belanchak berishibdi, u o'zi orzu qilib yurgani havo sharida o'tirganday belanchakda uchaveribdi.

Burga malikaning yonida qolibdi, u malikaning qo'lchalari va bo'yнida o'tiraveribdi: burga malikaning sochidan bir tola uzib, uning bir o'chini o'zining oyog'iga, boshqa uchini esa malikaning qulog'idagi isirg'aga bog'lab

qo'yishni professorga buyuribdi. Malika bundan rohatlanib ketibdi. Uning nazarida burga ham shunday rohat qilayotganday bo'libdi. Lekin hammadan ham professor norozi emish: u sayohatni jondan sevib, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safar qilib, burgani insonlar bajaradigan ishlarga o'rgatishdagi sabr-qanoati va epchilligi sha'niga aytilgan gaplar yozilgan maqolalarni gazetalardan o'qishni istar ekan.

U kunbo'yi hech ish qilmay, belanchagida tebranib yotaveribdi, yenish-ichishdan boshqa ishi bo'lmaabdi. Uni juda yaxshi boqishibdi: unga yangi parranda tuxumlari, fil ko'zi va jirafaning son go'shtini qovurib berishibdi. Odamxo'rlar faqat odam go'shti yenish bilan kifoyalanishmaydi, odam go'shti ularning eng suygan ovqati.

— Ayniqsa, bolalarining yelka go'shtini achchiqqina qayla bilan tushirsang rosa maza-da! — debdi malikaning onasi.

Professor o'lgudek zerikibdi, yovvoyilar yurtidan qochib ketishga harakat qilibdi; lekin burgasini bu yerda qoldirishni xohlamaabdi. Axir, burga uning uchun shonshuhrat bo'lib, uni yeb-ichiradi-da. Burgani qanday qilib ko'ndirish mumkin? Bu qiyin ish ekan.

U butun fikrlash qobiliyatini ishga solibdi va nihoyat «Topdim!» — deb xitob qilibdi.

— Malikaning otasi! Biror ish bilan shug'ullanishimga ijozat ber! Men mamlakatning xalqlarini miltiq bilan harbiycha salom berishga o'rgatsam. Dunyoning eng buyuk mamlakatlarida bunday salom berish yuksak madaniyatlilik belgisi hisoblanadi!

— Meni nimaga o'rgatasan? — deb so'rabdi malikaning otasi.

— O'zimning eng zo'r hunarimni o'rgataman! — debdi professor. — Senga zambarak otishni o'rgataman. Har zambarak otganimizda yer-u ko'k larzaga keladi, osmondan qovrilib pishgan qushlar yomg'irdek yog'iladi! Bildingmi!

— Zambarakni keltir bu yoqqa! — debdi malikaning otasi.

Biroq mamlakatda burga olib kelgan zambarakdan boshqa birorta ham zambarak bo'lmay, u kichkina ekan.

– Men katta zambarak quyaman! – debdi professor. – Faqat menga mato bering! Menga yupqa shoyi, gazlama, ip, igna, arqon, havo shari uchun me'da tomchilari kerak, ular sharni puflab shishiradi, osmonga olib chiqadi, ular zambarak qornida ham portlatishni yuzaga keltiradi.

U nimani talab qilgan bo'lsa, hammasi muhayyo qilinibdi.

Mamlakatning barcha aholisi katta zambarakni tomosha qilgani kelibdi. Lekin professor shar tayyor bo'lib havoga ko'tarilishiga shay bo'lgunga qadar hech kimni chaqirmabdi.

Burga malikaning qo'lida o'tirib, professorning ishini tomosha qilibdi. Sharning ichi gazga to'ldirilibdi, u shishibdi, uni arqonlar bilan arang tutib turishibdi, shar junbushga kelibdi.

– To zambarak sovuguncha osmonga ko'tarilishim kerak! – debdi professor va shar ostiga o'rnatilgan savatchaga o'tiribdi. – Biroq bir o'zimning qo'limdan hech ish kelmaydi! Menga ish biladigan yordamchi kerak! Burgadan boshqa hech kim menga ko'maklasha olmaydi.

– Uni qo'limdan chiqarib yuborgim kelmaydi! – debdi malika, lekin shunday bo'lsa-da, burgani professorga beribdi. U burgani kaftiga o'tqizibdi.

– Endi arqonlarni yechib yuboringlar! – deb baqiribdi u haloyiqqa. – O'yinchoq osmonga ko'tariladi.

Bu gap yovvoyi odamlar qulog'iga «zambarak ko'tariladi» deb eshitilibdi.

Nihoyat shar bulutlargacha ko'tarilibdi va yovvoyilar yurtidan uchib ketibdi.

Malikadan tortib, uning ota-onasi-yu, butun haloyiq engrayib qolibdi, ular hozir ham o'yinchoqning qaytishini kutishayotgan emish. Agar ishonmasang, yovvoyilar amiakatiga bor, u yerda har bir bola senga professor bilan burga haqida gapirib beradi, ular zambarak sovugandan keyin qaytib kelishiga ishonishadi. Biroq

qaytish fikri burga bilan professorning xayolida yo'q; ular allaqachonlar o'z uylarida, vatanlarida, ular hozir poyezdning to'rtinchi klass vagonidagi o'rinda emas, balki birinchi klass vagondagi o'rinda qatnashyapti, endi ular katta pul topishadi, ularning kattagina o'z havo sharlari bor. Bu sharni ular qayerdan, qanday qilib qo'lga kiritganini hech kim bilmaydi, chunki ular hozir puldor, obro'-e'tiborli bo'lib ketishibdi-da.

## **PAYRAHADA HAM BAXT YASHIRINISHI MUMKIN**

Endi men sizlarga baxt haqidagi hikoyani aytib beraman. Hamma baxt nimaligini biladi, lekin ba'zilarga u har yili, boshqalarga esa faqat ma'lum yillardagina kulib boqadi, shunday paytlar ham bo'ladiki, baxt kishi umrida atigi bir marta keladi, shu bilan birga baxt kulmay qolgan vaqtlar ham bo'ladı.

Ollo Taolo endigina tug'ilgan go'daklarni yer bag'riga kiritganini, bu hodisa hashamatli qal'adagi shinam xonadonda ham, yashnagan dalada ham, sovuqda va shamolda ham yuz berishini aytib o'tirmayman, buni hamma biladi. Lekin hamma bilmagan narsa shuki, parvardigor jon ato qilayotib, u bilan birga baxtini ham yaratadi, bu haqiqat. Lekin baxtni ko'zga ko'rsatib, uni bola yoniga solib qo'ymaydi, baxtni topib olish sir hisoblanadi. U ertami-kechmi albatta topiladi, agar shunday bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'lardi-da. Aytaylik, Nyutonday ulug' olimning baxti olma ichida bo'lishi mumkin. Olma tap etib uning oldiga tushadi-da, u o'z baxtini topib oladi. Agar sen bu hikoyani eshitmagan bo'sang, bilgan odam uni senga hikoya qilib berishini iltimos qil, men esa boshqa, ya'ni nok haqidagi hikoyani aytib bermoqchiman.

Bor ekan, yo'q ekan, bir kambag'al odam bo'lgan ekan; u yo'qchilik va kambag'alchilikda tug'ilib, o'sib ulg'ayibdi.

Xotinining sepi o'rniغا ham muhtojlikni olibdi. Uning kasbi chilangarlik bo'lib, soyabonlarga sop va halqalar yasar ekan, topgani ro'zg'origa arang yetar ekan.

- Bebaxtman! - debdi u o'z-o'ziga.

Bu haqiqatda bo'lgan voqeа, men chilangarimiz yashagan mamlakat va joyni aniq aytib berishim mumkin, lekin voqeа qayerda bo'lib o'tgan bo'lsa ham sizga baribir emasmi?

Uning bog'ida bir tup nordon ryabina daraxti o'sar ekan, yana bog'da nok daraxti ham bor ekan, ammo hali u hosilga kirmagan ekan. Chilangarning baxti ana shu nokning ko'zga ko'rinxmas mevalarida yashiringan ekan!

Bir kuni qattiq bo'ron ko'tarilibdi, gazetalarda yozishlaricha, bo'ron hatto bir dilijonni uchirib ketib, payrahadek yerga ko'tarib uribdi. Bo'ronga nokning butoqlari ham bardosh berolmabdi.

Butoqni ustaxonaga olib kelishibdi, chilangar hazilhuzul bilan undan kattagina nok yasabdi, keyin undan kichikrog'ini, oxiri judayam kichkina noklar yasabdi.

. - Bu daraxt allaqachonlar hosilga kirishi kerak edil - debdi u hazillashib, so'ng yasagan noklarini quvonishsin deb bolalarga ulashibdi.

Namgarchilik va yog'in-sochin mo'l bo'ladigan mamlakatlarga zarur bo'ladigan buyumlardan biri soyabon bo'lib, chilangarning butun oilasi soyabon yasashga kirishibdi. Kuchli shamol soyabonlarni yirtib tashlar, lekin chilangar uni yamab-yasqab, eski holatiga keltirar ekan. Shunisi achinarli ekanki, har safar buklama soyabonni yig'ganda, halqani ushlab turadigan tugma uzilar yoki halqa sinib ketar ekan.

Bir safar tugma uzilib ketibdi, chidangar uni axtarib Turganida uning o'rniغا o'zi yasagan, bolalarga o'ynagani bergen kichkina nok topib olibdi.

- Tugmani endi topolmayman! - debdi chilangar. - Uning o'rniغا manovi nokni ishlatish mumkin! - U nokning o'tasidan teshik ochibdi, nok halqaga loyiq

kelibdi. Ilgari halqa tugmaga hech bunchalik mos tushmagan ekan!

Kelasi yili chilangar poytaxtga soyabon soqlarini jo'natayotib tugma o'rniغا bir necha dona taroshlab ishlangan nokchalarni va ularga mos keladigan yarim halqalarni yuboribdi-da, do'kon sohibidan yangi ilgaklarni sinab ko'rishni iltimos qilibdi. Uning yuborgan mollari Amerikada paydo bo'libdi; u yerdagilarning tugmaga qaraganda nokchalar halqani mahkamroq ushlab turishiga fahmlari yetibdi. Chilangardan bundan keyin ko'plab ana shunaqa halqali soyabonlar yetkazib berishni talab qilishibdi.

Ish qizib ketibdi! Ming-minglab noklar darkor bo'lib qolibdi! Chilangar yog'ochni tarashlayveribdi, butun boshli nok daraxti mayda nokchalarga aylanibdi! Nokchalar chilangarga katta boylik – skilling va dalerlar keltiribdi.

– Baxtim nok daraxtiga yashirinib yotgan ekan! – debdi chilangar. Keyinroq u kattagina ustaxonaga va bir necha shogirdlarga ega bo'libdi, yuzidan tabassum arimabdi, hamisha: «Payrahada ham baxt yashirinishi mumkin!» – deydig'an bo'libdi. Men ham xuddi shunday deyman. «Og'zingga oq payrahani solsang, qo'tinmas odam bo'lib qolasan!» – deyishadi-ku, axir. Buning uchun chinakam payrahani – Xudo bergen baxtni hadya etadigan payrahani og'izga olish kerak. Menga ham ana shunaqa payraha nasib etgan, men ham undan chilangar singari yarqiroq, jarangdor, dunyodagi eng asl oltinlarni olishim mumkin. Bu oltin bolalarning ko'zida o't bo'lib chaqnayapti, ularning ota-onalari labidan kulgi bo'lib jaranglab to'kilyapti. Ular mening ertaklarimni o'qishyapti, men esa xona o'tasida ko'tinmas odam bo'lib o'tiribman, chunki og'zimda oq payraha bor! Agar ular ertagimdan qanoat hosil qilishganini ko'tsam, men ham: «Ha, payrahada ham baxt yashirinishi mumkin!» – deyman.

## QUYRUQLI YULDUZ

Bir vaqt osmonda quyruqli yulduz paydo bo'libdi, u nur sochibdi, dumi xivichday xavf solibdi. Unga badavlat qal'adagi odamlar ham, faqir xonadonlardagilar ham qarashibdi, xullas, jami odamlar, kimsasiz sahroda ketayotgan yolg'iz yo'lovchi ham yulduzga tikilibdi, ular o'zlaricha fikr yuritishibdi.

- Samo bayrog'ini tomosha qilinglar! Qanday ko'r-kam-a! - debdi ular orasidan kimdir. Odamlar quyruqli yulduzni tomosha qilgani uylardan ko'chaga chopib chiqishibdi.

Lekin bir xonada ikki kishi: yosh o'g'il bola onasi bilan yulduzni tomosha qilgani chiqmabdi. Xonadagi stol ustida sham yonib turar ekan, ayol mundoq qarasa, shamning piligi so'xta bo'lib, ayol tomonga qarab qolibdi, xalq orasidagi diniy aqidaga ko'ra, so'xta qaysi tomonga yuz o'girsa, o'shaning umri tugar emish, kuyindi ayol tomonga egilibdi.

Ona ana shu aqidaga ishonar ekan. Biroq bolaning peshonasiga ko'p yillar yashash, quyruqli yulduzni yana oltmis yildan keyin ikkinchi marotaba ko'rish nasib qilgan ekan.

Bola shamdag'i so'xtani payqamabdi, o'zi hayotligida paydo bo'lgan yulduz haqida o'ylamabdi ham. Uning oldidagi stol ustidasovunli suv to'la idish turar, bola idishga kichkinagina sopol nayni botirib, uning boshqa uchidan puflarkan, undan har xil kattalikdagi pufakchalar uchib chiqar ekan. Pufakchalar havoda o'ynab, bir necha - qizil, binafsha rangdagi pufakchalardan moviy pufak hosil bo'lar, keyin esa u quyosh nurida cho'milgan to'q yashil yaproq rangiga kirar ekan.

- Ilohim, qancha pufak uchirgan bo'sang, shuncha yil yasha! - debdi onasi.

- Eh-he, pufaklar juda ko'p-a! - deb xitob qilibdi bola.

- Busovunli suv bir necha asr pufaklar yasashga yetadi.

U yana pufak yasab, havoga uchiraveribdi.

– Ana, bir yildan beri uchyapti! Ana, yana bittasi uchib ketdi! Uning uchishini qara! – debdi bola. Ikkita pufak uchib kelib, uning ko'ziga tushibdi, bolaning ko'zi achishib, yosh chiqib ketibdi! Bola har bir pufakda kelajakning yorqin, ko'z o'ynatadigan ajoyib manzarasini ko'tibdi.

– U endi ravshan ko'rinyapti! – deb qichqirishibdi qo'shnilar. – Yulduzni tomosha qilgani chiqinglar! Nega uyda o'tiribsizlar!

Ona bolasining qo'lidan ushlab tashqariga yetaklabdi, bola nayini qo'yib, o'yinni to'xtatishga majbur bo'libdi, axir yulduzni tomosha qilish kerak ekan-da.

Bola ham porlab turgan yulduzga va uning yarqiroq dumiga tikilibdi. Ba'zilar uning dumini uch arshin deyishsa, boshqalari uch milliard keladi, deyisharmish... Har kim o'z o'lchovi bilan o'lchaydi-da.

– Bu yana ko'ringuncha bolalarimiz ham, nabiralarimiz ham allaqachon olamdan o'tgan bo'ladi! – deyishibdi odamlar.

Darhaqiqat, yulduz yana osmonda ko'ringanda o'sha odamlarning aksariyati olamdan o'tgan ekan. Lekin onasining fikricha, shamning so'xtasi qiyshayib, o'limi yaqinlashgan bola, garchi sochi qorday oqarib ketgan bolsa-da, hozir hayot ekan. «Oq soch – qarilik gul!» – deyiladi maqollarda. Uning boshi ana shu gullarga ko'milgan ekan. U keksa o'qituvchi bo'libdi.

Maktab o'quvchilari uni o'ta bilimdon, aqlii, tarix bilan geografiyani, shu bilan birga samoviy jismlarni ham yaxshi biladi, deyishar ekan.

– Hamma narsa takrorlanadi, – der ekan u. – Kishilarning yuziga sinchiklab nazar tashlasangiz, voqeahodisalarning uzlusiz takrorlanayotganining, orqaga qaytayotganining guvohi bo'lasiz, lekin bu odamlar boshqa kiyimda, boshqa mamlakatlarda bo'ladi.

Maktab o'qituvchisi misol tariqasida o'g'lining boshiga qo'yilgan olmaga o'q uzgan Vilgelm Tell voqeasini aytib beribdi. U yovuz Geslerga otlishi kerak bo'lgan o'qni

qo'ynida yashirib yurar ekan. Bu voqeal Shveytsariyada bo'lib o'tibdi, lekin xuddi shunga o'xhash voqeal bundan ko'p yillar muqaddam Daniyada ham yuz bergen ekan. Palnatok<sup>14</sup> ham o'g'li boshidagi olmaga o'q uzgan, u ham o'ch olishi uchun boshqa bir o'qni qo'ynida yashirib yurgan ekan. Qadimiy solnomalarda yozilishicha, o'sha voqeadean ming yil ilgari shunday hodisa Misrda ham bo'lgan ekan. Ha, voqealar kishilarning aft-angorida takrorlanaveribdi, yulduz singari orqaga qaytaveribdi.

O'qituvchi bolaligida ko'rgan, yana paydo bo'lishi muqarrar bo'lgan yulduz haqida hikoya qila boshlabdi. U samoviy jismlar haqida ko'p narsa bilar, ular xususida ko'p o'ylar ekan, shu bilan birga tarixni ham, geografiyanı ham unutmabdi.

U o'z bog'ini Daniya xaritasiga o'xshatib barpo qilibdi. Mamlakatning har bir qismi, har bir viloyati o'sha joylarga monand gullar va daraxtlar bilan tasvirlanibdi.

- Qani, menga no'xat topib beringlarchi, - der ekan u, shunda o'quvchilar Lollanni anglatuvchi egatlar oldiga borishar ekan. - Qora bug'doyni topinglar! - deganda esa Langelanni bildiruvchi egat yoniga borar ekan. Ajoyib moviy gullarni shimolda - Skagenda, chiroyli Iso na'matagini Silkeborg yaqinidan topish mumkin ekan. Shaharlar haykallar bilan belgilangan ekan. Ajdahoni o'ldirayotgan Avliyo Knud Odensa shahrini, yepiskoplik hassasini ushlab turgan Absalon Soryo shahrini, Ichkinagina eshkakli kema Orxus shahrini bildirar ekan. Ha, o'qituvchi bog'idan Daniya xaritasini o'rganib olish mumkin ekan, lekin avvalo uning o'zidan ta'lim olib, so'ng xaritani o'rganish maroqli bo'lar ekan!

Shunday qilib, odamlar yana yulduz paydo bo'lishini kutishayotgan ekan, o'qituvchi esa yulduz haqida, u dastlabki paydo bo'lgan vaqtida odamlarning fikr-

<sup>14</sup> *Palnapok* - Daniyaning afsonaviy qahramoni. U haqidagi afsona Elenshlegerning mashhur tragediyasiga syujet bo'lgan.

mulohazalari xususida gapiribdi, o'shandagi voqeal o'qituvchi xotirasiga naqshlanib qolgan ekan-da.

- Yulduz paydo bo'ladijan yili vinolarning quvvati baland bo'ladi! - debdi u. - Vinofurushlar unga suv qo'shishi ham mumkin, buni hech kim payqamaydi. Binobarin, ular shunday yillarda norozi bo'lib yuradilar.

Mana ikki haftadan beri osmon betini bulut qoplab, paydo bo'lgan yulduz ko'rinas ekan.

Keksa o'qituvchi sinfonasi yonidagi hujrasida o'tirar ekan. Burchakda ota-onasidan meros qolgan qadimiy Bornxolm soati turar ekan. Soatning og'ir qo'rg'oshin toshlari ko'tarilmas, tushirilmasakan, chunki tebratgich ishlamas, ilgari teshikdan boshini chiqarib kukulaydigan kakku bir necha yillardan beri qimirlamas, ichkarida yotar, xullas, soatning hamma mexanizmlari ishlamas ekan. Lekin o'qituvchining ota-onasidan qolgan klavishli ko'hna musiqa asbobi hozir ham ishlar ekan. Uning torlari jaranglab, qariyalarday hirqiroq ovoz chiqarar ekan. O'qituvchi undan umrida eshitmagan musiqalarini tinglar ekan. Bu musiqalar keksa o'qituvchi ruhida sevinchli va g'amgin xotiralarni uyg'otar ekan. O'qituvchi yulduz dastlab paydo bo'lgan vaqtligi bolaligidan boshlab to uning ikkinchi marotaba ko'rinishiga qadar o'tgan ko'p voqealar marjonday xayolidan o'tibdi, shu yillarda ko'p sarguzashtni boshidan kechiribdi. U shamdag'i so'xtani ko'rib, onasi nimalar deganini, o'zi uchirgan sovun pufakchalari yodiga tushibdi. Uchirilgan har bir pufak uning umrining bir yiliga teng ekan, pufaklar yarqiroq, chiroyli ekan! Ular bolaga g'aroyibot va shodlik, bola o'yini, yoshlik farog'ati baxsh etar ekan! Butun olam quyosh nurlarida cho'milib, uning ko'z o'ngida namoyon bo'libdi! Bu kelajakning sovun pufaklari ekan! Endi u qarib qolgan, musiqa asbobida o'tmish musiqalarini jaranglatyapti - bular xotira ranglariga bo'yalgan pufaklar ekan. Bir vaqt momosining paypoq to'qib o'tirib aytadigan qo'shig'i yangrabdi:

*Dastlabki paypoqni  
Suvora tikmaganmi?*

Manovinisi esa uning go'daklik vaqtida keksa oqsoch ayol aytib bergen qo'shiq ekan:

*Kim yosh bo'lsa yo ahmoq,  
Kulfat tushar boshiga,  
Qodir egam bilar buni  
Rahm qilar yoshiga!*

Keyin dastlabki bazm, menuet, Molinaska<sup>15</sup> kuylari, undan keyin esa hazil va mayin tovushlar taralibdi, chol yig'lab yuboribdi, so'ng harbiy marsh, duo musiqasi, keyin esa yana o'ynoqi sadolar yangrabdi. Bola uchirayotgansovun pufagiday musiqalar ham almashinib turibdi.

Chol derazaga nigoh tashlabdi; osmonni qoplab yotgan bulutlar birdan tarqalibdi, u porlab turgan yulduzni, uning yarqiroq dumini ko'ribdi.

U o'zini yulduzni kechagina ko'rganday his etibdi; aslida esa yana yulduz ko'ringunga qadar oradan xotiralarga to'lاب inson umri o'tib ketibdi. O'sha oqshom u yosh bola edi,sovun pufaklarida kelajakni ko'rgan edi, endi bo'lsa ular o'tmish xotiralari bo'lib qolibdi. Uning qalbi bolalarnikiga xos ishonch tuyg'usi bilan to'libdi, ko'zlari chaqnabdi, qo'li esa klavishlar ustiga tushibdi... Tor uzilganga o'xhash ovoz eshitilibdi.

- Yulduzni tomosha qilgani chiqing! – deb qichqirishibdi unga qo'shnilar. – Osmon biram tiniqli! Chiqing, yulduz juda ravshan ko'rinyapti!

Biroq keksa o'qituvchi javob bermabdi: u yulduzni yaxshiroq tomosha qilish uchun bulatlardan ham yuksakka yo'l olibdi. Uning ruhi yulduz uchadigan

---

<sup>15</sup> Molinaska – qadimiy raqs.

bo'shliqdan ham kattaroq va kengroq fazoga uchishga hozirlanibdi. Yulduzga esa hashamatli qal'a va faqir xonadondagi odamlar, to'p-to'p olomon, kimsasiz sahroda ketayotgan yolg'iz yo'lovchi qarabdi. O'qituvchining ruhiga esa parvardigorning o'zi nigoh tashlabdi, uning ruhi tirikligida yerda orziqib kutgan, yuragiga yaqin, qadrdon samoga ko'tarilibdi!

## KATTA BOBOM

Katta bobom dono va muruvvatli odam edi, hammamiz uni sevar va hurmatlar edik. Elas-elas esimda: ilgarilari uni bobo deyishardi, to'ng'ich akam Frederik degan o'g'il ko'rgandan keyin uni katta bobo deb ataydigan bo'ldik. U bundan ham yuqori martabaga erisha olmasdi. Hammamizni jonidan yaxshi ko'rardi-yu, biroq zamonamiz uning qadriga yetmadi.

– Eski zamon yaxshi edil! – derdi bobom. – U zamonlar binoyidek edi. Hozir hamma oyog'ini qo'ltiqlab yugurgani yugurgan, hammayoq alg'ov-dalg'ov! Yoshlar mahmadonalik qilishadi. Qirollarni tengurlarday bilib, ko'chadan kelgan har qanday janob lattasini iflos suvga botirib, muhtaram arbobning boshida suvini siqishi mumkin!

Bobom shu gaplarni aytar ekan, qizarib ketar, birozdan keyin o'ziga kelib, odatdagiday kulardi-da, gap boshlardi:

– Xo'sh, ehtimol, gaplarim uncha to'g'rimasdir! Lekin men eski zamon kishisiman, yangilikni uncha yoqtirmayman. Zamonani Olloning o'ziga havola qilib qo'ya qolganimiz ma'qul!

Katta bobomning eski zamonlar haqidagi hikoyalarini eshitarkanman, o'zimni go'yo o'sha zamonlarda yashaganday his etardim, xayolan gayduklar bilan oltin karetalarda yurardim, sex viveskasini musiqa chalib, bayroqlar ko'tarib ko'chirish tantanalarini tomosha qillardim, diniy bayram va o'yinlarda ishtirot etardim.

To'g'ri, u zamonlarda talay dahshat va noma'qulchiliklar yuz berardi: iskanjaga olish, charxpalakka tortib o'dirish, qon to'kish hollari uchrardi, lekin ana shu dahshatli voqealar ham qandaydir jozibali narsani yashirib turar edil! Katta bobomning hikoyalaridan yaxshi-yomon hodisalarni: masalan, dehqonlarni ozod qilgan daniya dvoryanlari, qul sotishga chek qo'ygan shahzoda haqida ham ko'p narsalarni bilib oldim.

Ha, katta bobomning yoshlik paytlarida ko'rgan-kechirganlarini eshitish maza edi, lekin bobom zamonidan oldingi davrlar undan ham yaxshi va qudratli ekan!

– Yovuz, vahshiy zamona ekan! – derdi akam Frederik.

– Xudoga shukur, u zamonlar o'tib ketdil!

Akam xuddi shu gapini to'g'ridan-to'g'ri katta bobomga ham aytdi! Uning bunday qilishi odobdan emasdi, harholda men Frederikni hurmat qilar edim. U mening to'ng'ich akam, «otam o'tnida ota edi», u qiziq tabiatli odam edi! U studentlik imtihonlarini qoyillatib topshirdi, otamning idorasida yaxshigina ishladi, birozdan keyin uni firma ishlariga aralashishga ham qo'yishdi. U katta bobomning erkatoyi edi, lekin ular hamisha bir-birlari bilan bahslashgani-bahslashgan edi. «Bular hech qachon bir-birlarining gapiga tushunishmaydi, biron to'xtamga ham kelisholmaydi», – deyishardi oila a'zolari, men esa ular bir-birlarini ko'rmasa turolmasligini bilardim!

Frederik katta bobomning huzurida zamonamiz shuhratini oshirayotgan yangi ilmiy kashfiyetlar va ixtiolar haqida gapirsa yo o'qisa, cholning ko'ziari o'ynab ketardi.

– Odamlarning aqli ortib boryapti, ammo bu bilan o'z boshlariga balo orttirishyapti! – der edi u, keyin gapida davom etardi. – Ular bir-birlariga qiron keitiradigan qurollarni kashf etishyapti.

– Lekin urush tezroq tamom boladi-kul! – deb e'tiroz bildirardi Frederik. – Endilikda yetti yil sulh kutib o'tirmaymiz! Olam ko'pqonlikdan azob chekyapti, ora-sira qon to'kib turish zarur!

Bir kuni Frederik bobomga bir shaharda bo'lib o'tgan hodisani aytib berdi. Shahar mahkamasi minorasiga o'rnatilgan burgomistrning katta soati shahar vaqtini belgilab turar ekan. Soat unchalik to'g'ri yurmasa-da, shahar ahli o'shang aqarab ishga turar ekan. Bir vaqt temir yo'l qurishibdi, u boshqa mamlakat temir yo'llari bilan tutashgan ekan, shu vajdan soat aniq yurishi zarur ekan, aks holda poyezdlar bir-biri bilan to'qnashib ketishi mumkin ekan! Vokzalga quyosh soati o'rnatilibdi; bu soat burgomistr soatiga qaraganda vaqtini to'g'ri ko'rsatibdi, natijada shahar ahli o'z soatlarini temir yo'l soatiga qarab to'g'rilay boshlashibdi.

Bu voqeя menga qiziq tuyulganidan kulib yubordim.

Lekin bobom kulmadi, aksincha, u yanada jiddiyashdi.

- Gapingda jon bor! - dedi bobom Frederikka. - Bu hikoyani nega aytganingga ham tushunib turibman. Sening soating havas qilsa arziydig'an soat. Buni ko'rib esimga eski, ota-onamning og'ir qo'rg'oshin toshli oddiy bronxolm soati tushdi. Ota-onam ana shu soatga qarab yashashgan, o'shanda men yosh go'dak edim. Ehtimol, o'sha soat to'g'ri yurmagandir, harholda yurib turardi. Biz esa uning ichidagi g'ildiragini xayolga ham keltirmay, miliga qarardik, xolos. O'sha paytlarda davlat soatlari ham o'shanaqa edi: odamlar mil ko'rsatgan vaqtga ishonaverar edi. Endilikda davlat mexanizmi shishadan yasalgan soatga aylanib qoldi, uning tuzilishi aniq ko'rinib turadi; g'ildiragini vizillab aylanishini ko'ryapsanmi, har bir tish, har bir g'ildirakdan qo'rqasan, soat to'g'ri zang uryaptimi yo'qmi, deb shubhalanasan kishi. Zamonamizning ojizlig'i ham xuddi ana shunda!

Katta bobom gapini qizishib tugatdi. Ular Frederik bilar hech bir fikrga kelisholmas, lekin o'tmishni hozirgi zamon bilan ajratib bo'lмагaniday, ularni ham bir-birlaridan ajratib bo'lmas edi. Frederik firma ishi bilan uzoq safarga - Amerikaga jo'naganida buni ikkovi ham, butun oila a'zolari ham yaxshi tushunadi. Axir, Frederik

juda uzoqqa – dengiz ortiga, dunyoning boshqa qismiga  
jo'nab ketgan edi-dal!

– Har ikki haftada mendan xat olib turasan! – dedi Frederik. – Men yuboradigan xat telegraf simi orqali senga tez yetib keladi. Unda vaqt tejaladi. Dastlabki xat telegraf orqali Angliyadan keldi; bu xatni u Amerikaga jo'naydigan kemaga chiqish vaqtida yuborgan ekan. Uning ketidan yana bir xat keldi, Frederik bu xatni bundan bir necha soat ilgari Amerikaga yetib kelib oq jo'natgan ekan.

– Zamonamizni chinakam ilohiy fikr munavvar qilib turibdi! – dedi o'shanda bobom. – Telegraf jonning rohati!

– Bu narsa birinchi bizning mamlakatimizda kashf etilganini Frederik menga aytgan edi, – dedim bobomga.

– To'g'ril – dedi katta bobom va peshanamdan o'pdi. – Tabiatning bu yangi kuchi sirlarini ko'rghan mehribon ko'zlarga tikilganmani O'sha ko'zlarda senikiday bolalar ruhi nur sochib turar edi! U bilan ko'rishish sharafiga ham muyassar bo'lganman!

Shunday deb bobom meni yana o'pdi.

Oradan bir oy o'tgach Frederikdan yana xat oldik. U xatida hammamizga yoqadigan bir go'zal xonimga uylanganini ma'lum qilibdi. Xatda kelinning surati ham bor ekan, suratni oddiy ko'z bilan ham, katta qilib ko'rsatadigan shishada ham ko'rdik. Surat katta qilib ko'rsatadigan shishada ravshanroq ko'rindi. Portretchi rassomlar, hatto eng qadimgi mohir ustalar ham bunga erisha olmadilar.

– Mana shu kashfiyotni o'tmishda qilishganda, hozir o'sha davrning mashhur odamlarini – insoniyat valine'matlarini ko'tib turardik! – dedi katta bobom. – Manovi qiz juda chiroyli-a! – U yana katta qilib ko'rsatadigan shisha ostidagi suratga qaradi. – Endi ostonamizga qadam qo'yishi bilanoq uni darhol taniyman!

Ammo bu shodiyona bo'lmasligi ham mumkin ekan! Boshlariga kulfat tushishiga sal qolibdi! Buni xavf-xatar o'tib ketgandan keyin bildik!

Yosh kuyov-kelin eson-omon Angliyaga yetib kelishibdi, u yerdan paroxodda Kopengagenga yo'l olishibdi. Ular Daniya sohillarini va Yutlandiyaning g'arbiy qumtepalarini ko'rishibdi, bir payt bo'ron ko'tarilib, paroxod qoya toshga urilib to'xtab qolibdi. To'lqinlar terak bo'yи ko'tarilib, paroxodni pachaqlab tashlamoqchi bo'libdi; suvga qutqaruvchi qayiqlarni tushirishning ham iloji bo'lmasdi. Qorong'i tushibdi, nihoyat osmonni sohildan halok bo'layotgan kemaga otilgan raketaning yorug' nuri yoritibdi. Raketa kemaga arqon tashlab, u bilan sohil o'rtasida aloqa o'rnatilibdi. Ko'p o'tmay, mavj urayotgan qora to'lqinlar ustidagi arqonda go'zal xonim tushgan qutqaruvchi savat oldinga siljibdi. Ayol eson-omon qirg'oqqa chiqibdi. U yonida erini ko'rib yanada sevinibdi. Hamma yo'lovchilar va komanda tong otguncha shu usulda qutqarilibdi.

Biz bo'sak o'sha halokat yuz bergen vaqtida xavf-xatarni xayolimizga ham keltirmay, Kopengagendagi uyimizda shiringina uqlab yotardik, ertalab nonushtada qahva ichib o'tirganimizda shahar telegrafining g'arbiy sohilda ingliz kemasi halokatga yo'liqqani haqidagi xabari bizga ham yetib keldi. Lekin shu daqiqada halokatdan qutulganlari va yaqin orada uyda bo'lislari haqida aziz odamlarimizdan xabar keldi.

Hammamiz sevinganimizdan yig'lab yubordik; men ham, katta bobom ham yig'ladik. Keyin bobom qo'lini qovushtirdi – u yangi zamonga shukrona keltirdi, bunga ishonchim komil.

O'sha kuni u Gans Xristian Ersted xotirasiga yuz riksza pul sarfladi.

Frederik yosh, go'zal xotini bilan uyga kirib kelganda bobomning bu saxovatidan xabardor bo'lib:

– Ish degan bunaqa bo'pti, bobol Endi sizga bundan bir necha yil muqaddam Erstedning eski va yangi zamon haqida nimalar yozganini o'qib beraman! – dedi.

– U ham sening fikringda bo'lsa kerak? – deb so'radi katta bobom.

– Bo'lmasam-chi! – dedi Frederik. – Siz ham hozir shu fikrdasiz-ku, yo'qsa, unga o'rnatilgan yodgorlikka ulushingizni qo'shmagan bo'lardingiz!

## AQLGA SIG'MAYDIGAN HUNAR

Kimki aqlga sig'maydigan ish bajarsa, malikaga uylanadi, shu bilan birga sep o'rniغا yarim qirolikka ham ega bo'ladi.

Shu gap e'lon qilinishi bilanoq yetti yashardan yetmish yashargacha bo'lgan odamlar nima qilsak ekan, deb rosa o'ylay boshlashibdi. Ikkita odam ko'p ovqat yeb bo'kib qolibdi, ikkitasi esa esini yo'qtoguncha ichibdi, ular nazarlarida aqlga sig'maydigan ish qilyapmiz deb o'ylashibdi-yu, lekin bo'lmabdi! Ko'cha bolalari yelkalariga tupuklarini tushirish uchun rosa urinishibdi, ular aqlga sig'maydigan hech qanaqa hunar ko'rsatisha olmabdi.

Nihoyat, har kimning qilgan aqlga sig'maydigan hunarlarini muhokama qilinadigan kun kelibdi. Muhokama qiluvchi sudyalar orasida uch yashardan tortib to'qson yashargacha odam bor ekan. Sudyalarga bir necha aqlga sig'maydigan hunarlar ko'rsatilibdi, lekin hammalari bir ovozdan eng aqlga sig'maydigan narsa ham tashqi, ham ichki tuzilishi ajoyib bo'lgan oshxona soati deb hisoblashibdi. U har zang urganda soat necha bo'lganini bildiruvchi tirik manzaralar namoyon bo'libdi. Bunaqa suratlar o'n ikkita bo'lib, har birining harakat qiluvchi shakllari, ashula va o'z gaplari bor ekan.

– Bu eng aqlga sig'maydigan! – debdi hamma.

Soat birga zang uribdi – tog' ustida Muso paydo bo'libdi va shu zahoti dastlabki diniy buyruqlarni yozibdi.

Soat ikkiga zang urganda odamlar oldida jannat bog'i namoyon bo'libdi; Odam Ato bilan Momo Havoning garchi kiyim iladigan javoni bo'lmasa ham, huzur-halovatga to'la kulbalari ko'rinishibdi, biroq ular javonga muhtoj emas ekan! .

Soad uchda sharqdan Isoga ta'zim qilib kelgan uchta podsho paydo bo'libdi; ularning biri qozonday qop-qora emish, lekin u qilgan aybiga qaramay, uni quyosh qoraytirib yuborgan ekan, ularning uchovi ham qo'lida qimmatbaho sovg'alar va xushbo'y tutatqichlar ushlab turgan emish.

Soad to'rtda yilning to'rt fasli: bahor endigina yaproq yozgan shoxida kakku o'tirgan qoraqayini bilan; chigirtka mahkam tarmashib olgan, doni pishgan javdar boshog'i bilan; kuz hamma qushlar uchib ketganini bildiruvchi bo'm-bo'sh laylak uyasi bilan; qish pechkaning bir burchagida o'tirib, qadimiylafsonalarni aytib beradigan qari ertakchi qarg'asi bilan namoyon bo'libdi.

Soad beshga zang uribdi – beshta sezgi chiqibdi; optika qiyofasida ko'rish, misgar qiyofasida eshitish, binafsha va yovvoyi yasminlarni sotuvchi ayol qiyofasida hid bilish, oshpaz qiyofasida maza bilish, badan sezgisi yoki sezuvchanlik bo'lib, egniga uzun qora kiyim kiygan, dafn marosimini boshqaruvchi chiqibdi.

Soad oltiga zang uribdi – osmonga soqqa irg'ituvchi o'yinchi sakrab chiqibdi, pastga tushib, eng yuqori ochko – oltini ko'rsatibdi.

Shundan keyin haftaning yetti kuni yoki yettita gunohkor banda ko'rinishi; bu xususda turli fikrlar bo'libdi, chunki ularni bir-biridan ajratish qiyin ekan.

Shundan keyin monaxlar xori – sakkiz kishi chiqib, ertalabki ibodatni o'qishibdi.

Soad to'qqizga zang urganda to'qqiz nafar ilhom parisi paydo bo'libdi; ularning biri astronomiya bilan shug'ullanibdi, ikkinchisi esa tarix arxivida ishlar ekan, boshqalari o'z umrlarini teatrga bag'ishlashgan ekan.

Soad o'nga zang uribdi – o'nta diniy buyruqlar bitilgan ikkita lavhani ushlab yana Muso chiqibdi.

Soad o'n birga zang urganda o'n bitta o'g'il va qiz bola chiqib, «Soad o'n birga zang urdi» musiqasiga o'yinga tusha boshlabdi!

Nihoyat soat o'n ikkiga zang uribdi – boshida dubulg'a,  
qo'lida •tong yulduzi•ni ushlagan tungi qorovul ko'rinibdi  
va qorovullarning qadimiy qo'shig'ini kuylabdi:

*Tun yarimdan og'di,  
Haloskor tug'ildi!*

U qo'shiqni aytayotganda atrofda gullar ochilibdi, har  
bir gul osmonda qanot qoqayotgan farishtalarga  
aylanibdi.

Ko'rishga ham, eshitishga ham arziyidigan ajoyib  
tomosha bo'libdi! Umuman, soat «aqlga sig'maydigan,  
ajoyib mo'jizaning o'zi» bo'libdi, hamma shu fikrni aytibdi.

Soatni yaratgan rassom hali yosh, ko'ngilchan,  
go'daklarday beg'araz, ma'sum, do'st bo'lishga arziyidigan,  
kambag'al ota-onasiga juda mehribon bir yigit ekan. U  
halikaning eri va yarim qirolikka ega bo'lishga munosib  
ekan.

Mukofotni taqdim etish kuni ham yetib kelibdi;  
shaharni bayramlardagiday bezatishibdi, malikaning o'zi  
esa taxtda o'tiribdi; uning yostig'iga yangi yunglarni  
tiqishibdi, lekin bu bilan taxt o'tirishga qulay bo'lmabdi.  
Sudyalar mukofot olishi kerak bo'lgan yigitga qarashibdi.  
Yigit bo'lsa xursand, bardam, o'z baxtiga qattiq ishongan  
holda turgan emish, axir, u aqlga sig'maydigan hunar  
ko'rsatdi-da.

– Men hozir bir ish qilaman! – deb qichqiribdi novcha,  
muskullari bo'rtib chiqqan bir yigit, – hozir eng aqlga  
sig'maydigan hunar ko'rsataman!

Shunday deb u mo'jizali soatni chopaman deb og'ir  
bolta ko'taribdi.

Taraq! – soat mayda-mayda bo'lib ketibdi. Soatning  
g'ildirak va prujinalari yerda har yoqqa yumalab ketibdi,  
soat yakson bo'libdi!

– Qanaqaligimni ko'rib qo'ying! – debdi polvon. – Bir  
zarba bilan uning ijodini hamda hammangizni hayratga  
soldim. Men eng aqlga sig'maydigan ish qildim!

– Shunday san'at mo'jizasini pachoqlading! – deyishibdi sudyalar. – Ha, bu aqlga sig'maydigan ish!

Butun shahar xalqi shu gapni takrorlabdi, malika bilan yarim qirollik polvonnikи bo'lishi kerak ekan, uning qilgan ishi qanchalik aqlga sig'maydigan bo'lsa-da, qonun qonunligini qilishi kerak ekan.

Shahar devori va minoralarida to'y bo'lishini ma'lum qilib jarchilar jar solishibdi. Ishning bunday chappasiga aylanib ketishidan malika rozi emas ekan. U nikoh kiyimida juda chiroyli bo'lib ketibdiki, cherkov sham yorug'idan munavvar bo'libdi. Nikoh o'qish oqshomga belgilangan ekan. Shaharning mo'tabar zotlarining qizlari kelinni qo'shiq aytib cherkovga olib kelishibdi; ritsarlar ham qo'shiq aytib kuyovni qurshab olishibdi, kuyov boshini baland ko'tarib mag'rur turgan emish.

Qo'shiq tugabdi, oraga og'ir sukunat cho'kibdi. Bir vaqt cherkov eshiklari sharaqlab ochilib, gumbur-gumbur ovozlar eshitilibdi. Eshikdan tantanali suratda mo'jizali soat kirib kelibdi va kuyov bilan kelinning o'rtasida to'xtabdi. Marhumlar go'rida tik turolmaydi, bu hammaga ma'lum, lekin san'at asari qayta tiklanishi mumkin, u qayta tiklanibdi: uning shakli, tashqi ko'rinishigina chilchil bo'lgan edi, xolos, lekin asarni ruhlantirgan tirik edi:

San'at asari yakson qiluvchining qo'li tegmaganday yana soppa-sog' turaveribdi. Soat zang ura boshlabdi, avvalo birga zang uribdi, keyin ikkiga, qolaversa, o'n ikkigacha zang uribdi, manzara ketidan manzara ko'rinaraveribdi. Avvalo Muso ko'riniibdi; uning peshanasidan o't chiqib turgan emish, u qo'lidagi lavhalarni kuyovning oyog'i tagiga tashlab yuboribdi, uni turgan yeriga mixlab qo'yibdi.

– Oyog'imni yerdan uzolmayman! – debdi Moisey.

– Sen qo'limni chopding. Turgan joyingda turaver! Keyin Odam Ato bilan Momo Havo, sharq podsholari va yilning to'rt fasli paydo bo'libdi. Ular polvonga «uyat-ey!», degan ma'noda boqishibdi.

Lekin u uyalishni xayoliga ham keltirmabdi.

Qolgan bo'lak va shakl navbat bilan soat ichidan chiqib kelishib, dahshatli ulkan qiyofaga kirishibdi. Birozdan keyin cherkovda haqiqiy odamlarga joy qolmabdi. Oxiri soat o'n ikkiga zang urganda boshida dubulg'a, qo'liga «tong yulduzi»ni ushlagan tungi qorovul paydo bo'libdi: u to'ppa-to'g'ri kuyovning oldiga boribdi, qo'lidagi hassasi bilan uning peshanasiga tushiribdi.

– Yotaver! – debdi u. – Qilmish – qidirmish deydilar! Biz ham, rassom ham sendan qasos oldik! Endi ketaylik!

San'at asari ko'zdan g'oyib bo'libdi, cherkov shamlari nur sochayotgan katta-katta gullarga aylanibdi; shipga sochilgan oltin yulduzlar porlabdi; organ o'z-o'zidan chalinib ketibdi. Bular manovi «eng aqlga sig'maydigan ish» bo'ldi deyishibdi.

– Bu yerga tantananing haqiqiy aybdorini chaqirsak qanday bo'larkin! – debdi malika. – Mo'jiza yaratgan rassom mening erim bo'ladi!

Shunday qilib, rassom xaloyiq qurshovida cherkovga kirib kelibdi. Hamma unga baxt kulib boqqanidan kursand bo'libdi, orada birorta ham hasadgo'y topilmabdi. Ha, mana shuning o'zi «aqlga sig'maydigan ish» bo'libdi!

## ULKAN DENGIZ ILONI

Bor ekan, yo'q ekan, bir kichkinagina dengiz baliqchasi bor ekan, u yaxshi oiladan chiqqan ekan. Uning qanday atalishini bilmayman, agar bilging kelsa, olimlarga murojaat qil. Baliqchaning bir ming sakkiz yuzta akalari va singillari bor ekan. Ular egizak ekan. Baliqchalar na otasini va na onasini bilishar ekan, dastlabki kunlardanoq o'z g'amlarini o'zlari yeb, qayer to'g'ri kelsa, o'sha yerda suzib yurishaveribdi, bundan ham maza ish bormi o'zi? Butun bir okean ular ixtiyorida ekan. Ovqatni hech o'yashmas, u to'ppa-to'g'ri og'izlariga kirib ketaverar ekan. Egizaklarning har biri o'z bilganicha yashar, har birining

o'z taqdiri bo'lib, lekin ularning hech biri bu haqda o'yamas ekan.

Tepadan quyosh nur sochib, baliqlarni, suv osti dunyosini yoritibdi. Bu yerda nimalarni ko'rmasiz! Suvda g'alati maxluqlar ham uchrar, ularning ba'zilari shunaqayam ulkan, dahshatli ekanki, birdaniga ming sakkiz yuz aka-singilni yutib yuborishga qodir ekan. Egizaklar bu haqda aslo o'ylashmas, ularni hali hech kim yutmagan ekan-da.

Ular seld yoki makrel baliqlariga o'xshab bir-birlariga yaqin, gala-gala bo'lib yurishar ekan. Bir kuni ular bamaylixotir suzib yurib, hech narsani o'ylashmabdi, to'satdan tepadan uzun va zalvorli bir maxluq ularni har tomonga tirqiratib pastga tusha boshlabdi. Uning oxiri ko'rinas emish. U bilanglab ilgarilab borar, baliqchalar ozgina tegib ketsa, ular mayib bo'lib, o'zini o'ngolmay qolar ekan. Suv tagida va betida suzib yuradigan hamma baliqlar dahshatdan qo'rqib, tirqirab qochishibdi. Zalvorli va ulkan maxluq esa tobora suv tubiga tushaveribdi, bor bo'yи dengizda cho'zilib ketaveribdi.

Baliqlar, chig'anoqlar va suzadigan hamma dengiz mavjudotlari bu maxluqning paydo bo'lganidan xabardor bo'lishibdi, nihoyatda uzun, ko'z ko'rmasan dengiz ilon balig'i baloyi nogahonday ularning ustida paydo bo'libdi.

Bu qanaqa maxluq o'zi? Bu bizga-ku ma'lum! Bu eng uzun telegraf kabeli bo'lib, uni odamlar dengiz tubidan Yevropa bilan Amerika oralig'iga tortishgan ekan.

Kabelni dengiz tubiga tushirishganda tinch-osoyishta hayot kechirayotgan mavjudotlar orasida vahima boshlanibdi. Uchar baliqlar dengiz betida biri ikkinchisidan balandroq uchibdi, dengiz xo'rozi osmonga o'qday otilibdi. Boshqa baliqlar o'zlarini dengiz tubiga urishibdi, ular shu qadar shoshibdilarki, kabel dengiz tubiga yetishga ulgurmay, ular o'zlarini dengiz tubida ko'rishibdi, pastda bamaylixotir suzib, o'z yaqinlarini yeb yurgan qalqonbaliq va treskalarning o'takasini yorib yuborishibdi.

Bir nechta dengiz bodringlari dahshat ichida oshqozonlarini tuflab tashlashibdi, lekin o'zlarini qolishibdi. Bunaqa nayrang ko'rsatishga yana kim qodir? Dengiz qisqichbaqalari kosalaridan chiqishibdi, ular kosalari bilan birga oyoqlaridan ham judo bo'lishibdi.

Ana shu vahima va alg'ov-dalg'ovda bir ming sakkiz yuz egizaklar ham har yoqqa tirqirab ketibdi, ular bir-birlarining diydorini ko'rishmabdi, bordiyu uchratib qolishsa, bir-birlarini tanishmabdi. Faqat bir gala egizaklar birga bo'lishibdi, ular bir necha muddat yashirinib yotishibdi, so'ng dastlabki dahshat xavfi o'tgandan keyin ular dadillashib, atrofga qiziqsinib nazar tashlashibdi.

Ular tepaga va dengiz tubiga qarashibdi, pastda hammaga dahshat solgan qo'rinchli maxluqni ko'rishibdi. Maxluq dengiz tubida yotgan emish, u uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan emish. U juda ingichka emish, bu shishib, ulkan maxluqqa aylanib ketishi mumkin deb o'ylashibdi egizaklar. U tinch yotgan emish, ehtimol bu uning mug'ambirona nayrangidir?

– Yotgan joyida yotaversin! Bizga buning aloqasi yo'q!  
– debdi eng ehtiyyotkor baliqchalaridan biri.

Ulardan eng kichkinasi bu narsa nima ekan, deb rosa o'yabdi. Bu maxluq tepadan tushib keldi, demak tepada u haqda biron narsa bilish mumkin, deb baliqchalar na shamol va na chayqalish bo'lgan sokin dengiz sathiga ko'tarilishibdi.

Tepada ular delfinga duch kelishibdi. Bu yengiltak daydi dengiz hayvoni suvda o'mbaloq oshib yugurishdan boshqa ishni bilmas ekan. Lekin uning ko'zi bo'lib, hamma narsani ko'rар ekan. Baliqchalar undan dengiz maxluqini so'rashibdi. Biroq delfin o'zi bilan o'zi ovora ekan. U hech narsani ko'rmagan, hech narsani bilmas ekan, shu vajdan churq etmay, gerdaiyib turaveribdi.

Shundan keyin baliqchalar tyulenning huzuriga borishibdi. Garchi u mayda baliqchalarni yeb tirikchilik o'tkazsa-da, hozir ularga tegmabdi, chunki hozir uning

qorni to'q ekan. Tyulen delfinga nisbatan ko'proq narsani bilar ekan.

– Men tuni bilan ho'l toshda yotib, yiroq sohilga tikilib chiqdim. Sohilda makkorlar yashaydi, ular o'zlarini odam deb atashadi. Ular ko'pincha bizni ta'qib qilib yurishadi, lekin ko'pincha ulardan qutulib ketamiz. Sizlar so'rayotgan dengiz iloni qutulib ketdi. U azaldan odamlarning asiri bo'lib kelgan. Uni bir qit'ada ushlab turishardi, keyin kemada boshqa yiroq mamlakatga olib ketishga jazm etishdi. Dengiz ilonini olib ketishayotganda rosa qiynalishganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Nima qilib bo'lsa-da, uni yengishdi. Chunki quruqlikda turganda rosa holdan toygan edi. Uni g'altaklarga o'rashdi, shunda g'ijirlab tovush chiqardi. To'satdan u odamlar qo'lidan chiqib, o'zini dengizga otdi. Odamlar bor kuchi bilan unga tarmashib, to'xtatib qolmoqchi bo'lishdi. U odamlar qo'lidan sirganib chiqib, dengiz tubiga tushib ketdi, hozir pastda yotib, kuch-quvvat yig'yapti.

– U juda ingichka! – deyishibdi baliqchalar.

– Bo'masam-chi, uni rosa och qoldirishdi-da, – debdi tyulen. – Hechqisi yo'q, ko'p o'tmay u kuchga to'lib, yana qudratli, dahshatli maxluqqa aylanadi. Menimcha, u odamlar o'gudek qo'rqaqidan ulkan dengiz iloni bo'lsa kerak. Odamlar faqat uning haqida gapirishadi. Men ulkan dengiz ilonini ko'rmanaganman. Shuning uchun ilgarilari ham odamlarning gapiga ishonmay, ilon yo'q, deb o'ylaganman. Endi bo'lsa ulkan ilon borligiga ishonaman! – Tyulen shunday debdi-da, suv ostiga sho'ng'ib kirib ketibdi.

– U juda aqli-al Gaplari juda shirali-al! – deyishibdi baliqchalar. – Bunaqa dono gaplarni hech eshitmaganmiz. Uning gaplari to'g'ri.

– Kelinglar, dengiz ostiga tushib, hamma narsadan voqif bo'laylik! – debdi eng kichkina baliqcha. – Yo'l-yo'lakay boshqalarning gapini ham eshitamiz.

– Biror narsani o'rganishga hali yoshlik qilamiz! – deyishibdi aka va singillar. So'ng ular har tomonga suzib ketishibdi.

– Men bilihni istayman! – debdi jajji baliqcha va dengiz tubiga sho'ng'ibdi. Dengiz ostida «yuqoridan qulab lushgan uzun maxluq» yotgan emish. To'lqinlar baliqlarni asta tebratar, ular esa go'yo uxlayotgan emish. Baliqcha juda qo'rqib ketibdi, u ona-bolaning hech qachon yg'onmasligini bilmas ekan. Yo'sinlar pechak gullarday abadiy uyquga ketgan ona-bola ustida osilib turganmish. Bu yer juda xoli va sokin emish. Baliqcha quyosh nuri charaqlab, baliqlar o'ynoqlab yurgan tomonga oshiqibdi, u biroz suzib borgan ekan, bahaybat, yoshgina kit bilan to'qnashib qolibdi.

– Tag'in meni yutib yuborma! – debdi baliqcha. – Men juda kichkinaman, hatto tishing orasiga ham yuq bo'lmayman! Mening o'lgim kelmaydi.

– Bunchalik chuqurlikda nima qidib yuribsan? – deb ajablanibdi kit. – Sening qarindoshlaring bunaqa joylarda yurishmaydi-ku.

Baliqcha jasur dengiz mavjudotlarini vahimaga solgan baliq haqida gapirib beribdi.

– Ho-ho! – debdi kit, u shunday ko'p suv chiqaribdiki, agar bu suv dengiz betida bolganda baland favvora hosil bolarkan. – Ho-ho! – deb takrorlabdi u. – Burilganimda yelkamni qitiqlab o'tgan o'sha ekan-da! Men uni kema machtasi deb o'ylabman, undan tish cho'tkasi o'nida foydalanoqchi edim! Lekin u maxluq bu yerda yo'q, u ancha yiroqda. Sen bilan birga o'sha tomonga suzib borib, uning nimaligini bilib olaman. Baribir, hozir ishim yo'q. – Kit oldinda, baliqcha esa orqada suzib ketishibdi. Baliqcha kitdan sal orqaroqda yurishga intilibdi, chunki kit yurishini zlatganda dengiz alg'ov-dalg'ov bo'lib ketar ekan!

Bir vaqt ularning ro'parasidan akula va arrabaliq chiqib qolibdi. Ular ham uzun dengiz ilonbalig'i haqida eshitishgan ekan. Ular ilonbaliqni ko'rishgan ekan-u, amma hozir uni yana bir ko'rgilari kelibdi.

Keyin ularning yoniga dengiz mushugi suzib kelibdi.

– Meni ham birga olib ketinglar! – deya yalinibdi u, uning ham tomosha qilgisi kelibdi.

— Agar o'sha dengiz iloni langar arqonidan yo'g'on bo'lmasa, uni bir zumda g'ajib tashlayman, — debdi dengiz mushugi va og'zini katta ochibdi, bu bilan hammaga olti qator tishi borligini ko'rsatmoqchi bo'libdi. — Kema langarlarida tamg'a qoldiraman-u, bu mening oldimda nima degan narsa bo'pti! Uni g'ajib tashlayman!

— Ana u! — deb xitob qilibdi kit. — Ilon ko'rindil!

Biroq u dengiz iloni bo'lmay, balki uzunligi bir necha metr keladigan ilonbaliq ekan. U to'ppa-to'g'ri ular tomonga suzib kelaveribdi.

— Uni taniyman. Biz u bilan uchrashganmiz, — debdi arrabaliq, — u endi dengizda to's-to'polon ko'tarib, baliqlarga tegmaydi.

Ular ilonbaliqqa yangi dengiz iloni haqida gapirib berishibdi, sen ham uni ko'rasanmi, deb so'rashibdi.

— Nahotki u mendan uzun bo'lsa? — debdi dengiz iloni, — boshimizga biron kulfatni solmasa go'rga edi.

— Kulfat solib bo'pti, — deyishibdi boshqalar. — Biz ko'pchilikmiz, adabini berib qo'yamiz! — Shunday deb suzib ketishibdi.

Yo'lda ularga bahaybat jonzot uchrabdi, agar ularning hammasini bir qilganda ham, u bulardan katta emish, u suv sathida turolmaydigan suzuvchi orolga o'xshar emish.

Bu juda qari kit ekan, uning boshida yo'sinlar o'sib yotgan emish, yelkasi har xil maxluqlarga to'la emish, yon tomonlariga shilliqqurt va chig'anoqlar yopishib olganidan, uzoqdan xuddi oq dog'larga to'ladek ko'rinishibdi.

— Biz bilan birga yur, qariya! — deyishibdi baliqlar. — Dengizda allaqanday bir maxluq paydo bo'libdi, bunga biz chidolmaymiz.

— Yaxshisi yotgan joyimdan qimirlamay qo'ya qolay, — debdi qari kit. — Meni o'z holimga qo'yinglar. Voy-voy, og'ir kasalman. Tepaga ko'tarilib, orqamni suvdan chiqarish menga foyda beradi, xolos. Shunday qilsam saxovatli dengiz qushlari uchib kelib, orqamni lash-lushlardan tozalab qo'yishadi. Ular orqamga tumshuqlarini qattiqroq botirib olishmasa bo'lgani, shunda jonim kiradi. Ba'zan

qushlar cho'qib go'shtimni chiqarib yuborishadi. Mana, ko'ringlar! Orqamda hozir qush skeleti bor. U tumshug'ini chuqurroq botirgan edi, orqamga yopishib qolib, o'zini qutqarolmadi. Shunda men dengiz tubiga sho'ng'idim. Keyin mayda baliqlar uning go'shtini g'ajishdi. Unga ham, menga ham bir qaranglar. Og'ir betobligimni payqayapsizlarmi?

– Bu vahimaning uyasi, – debdi yosh kit. – Men hech qachon kasal bo'lmayman. Umuman, baliqlar hech kasal bo'lismaydi.

– Yo'q, meni afv etasiz, – deb e'tiroz bildiribdi keksa kit, – ilonbaliqlarda teri kasali bo'ladi, zog'orabaliq chechak bilan og'riydi, biz esa gjijadan azob chekamiz.

– Bo'lмаган gap! – debdi akula, qari kitning valaqlashi uning ham, boshqalarning ham me'dasiga tegibdi, ularning bundan ham muhimroq ishlari bor ekan.

Nihoyat ular telegraf kabeli yotgan joyga yetib kelishibdi. Kabel Yevropadan Amerikaga suv ostidagi qum va balchiqlar ustidan, qoyatoshlar va yo'sinlar, marjonlar orasidan o'tgan bo'lib, atrofida girdoblar aylanayotgan emish. Uning ustidan to'da-to'da baliqlar o'tayotgan emish. Dengiz tubi qulqullar, guvillar, shovillar emish. Agar ulkan dengiz chig'anog'iga qulog'ingni tutsang, bu shovqinni payqash mumkin ekan.

Xuddi shu yerdan ular axtarganlarini topishibdi.

– O'sha maxluq anavi yerda yotibdi, – deyishibdi katta baliqlar, kichkina baliqcha ham shunday debdi. Kabel larning oldida yotgan emish, uning boshi ham, keti ham ko'rinas emish.

Polip va meduzalar dengiz tubida tebranib, kabelni goh to'sib, goh ko'rsatib turgan emish. Atrofda dengiz kirpilari, hilliqqurtlar, qurt-chuvalchanglar bijillab yotgan emish. Kabeldan nariroqda bahaybat o'rgimchaklar yelkalarida son-sanoqsiz tekinxo'r jonivorlarni ko'tarib olib, viqor bilan ovqatlarini yutishayotgan emish. Ular yangagina paydo bo'lgan kabel – hayvonni hidlashibdi. Qalqonbaliq bilan treskal kim nima deyayotganini bilish niyatida

u yoq-bu yoqqa alanglashibdi. Dengiz qa'ridagi balchiqqa ko'milib olib tashqariga faqat ko'zini chiqarib turadigan yulduzcha ham bu alg'ov-dalg'ovning oqibati nima bo'lar ekan, deb ko'zini tikibdi.

Telegraf kabeli miq etmay joyida yotaveribdi, lekin uning ichida hayot jo'sh urar, fikrlar qaynar, inson tafakkuri u yoq-bu yoqqa borib kelar ekan.

– U o'zini beozorlikka solyapti, – debdi kit, – to'satdan u burilib, qornimga bir solsa-ya, qornim eng nozik joyimku, axir!

– Hozir buni tekshirib ko'ramiz, – debdi polip. Mening qo'llarim uzun, panjalarim esa baquvvat, uni ushlab ko'rghanman, endi qisib, ezg'ilab tashlayman.

Shunday deb u uzun qo'llarini pastga cho'zib, kabelni mahkam qisibdi.

– Buning tangalari yo'q ekan, – debdi polip, terisi ham yo'q! Menimcha, u tirik bolalar tug'olmasa kerak.

Dengiz ilonbalig'i kabel yoniga suzib kelib, cho'zilib yotib olibdi.

– U menden ham uzun ekan, – debdi u. – Faqat uzunlikning o'zi kifoya qilmaydi, bunga yana teri, qorin hamda xushqomatlik ham kerak.

Yosh va baquvvat kit kabelga yaqinlashibdi, u shu vaqtgacha bunchalik teranlikka tushmagan ekan.

– Kimsan o'zi – baliqmisan yo o'simlikmisan. Yoki yuqorida yasaladigan, biz bilan birga yashay olmaydigan maxluqmisan? – deb so'rabdi kit.

Biroq telegraf kabeli indamabdi, chunki u gapirmas ekan-da. U orqali inson fikrlari daqiqa ichida bir mamlakatdan boshqa mamlakatga yuz milya yo'l bosib o'tar ekan.

– Javob berasanmi, yo'qmi? Bo'lmasa seni ezg'ilab tashlaymiz, – debdi badnafs akula. Boshqa katta baliqlar ham:

– Gapir, bo'lmasa dabdala qilib tashlaymiz! – deb baqirishibdi.

Kabel miq etmabdi, u o'z o'ylari bilan band ekan, ichi g'ij-g'ij fikrga to'la bo'lgandan keyin nima qilsin axir.

«Meni ezg'lashsa ezg'ilayverishsin, – debdi u o'z-o'ziga, – o'shanda meni yuqoriga olib chiqib tuzatishadi. Bundan sayoz joylardagi og'aynilarim boshiga ham shu kunushgan».

Shu vajdan u javob bermabdi, o'z ishi bilan mashg'ul bo'laveribdi, har tomonga telegrammalar yuborib, dengiz tubida davlat xizmatini bajaraveribdi.

Tepada quyosh yotog'iga qayta boshlabdi, u olovday qizg'ish tusga kiribdi, osmondag'i bulutlar ham quyosh nurida lovillabdi.

– Mana, qizil chiroq ham yondi, – debdi polip, – endi manovi xumpar durustroq ko'rinyapti.

– Uringlar uni, uringlar! – deb qichqiribdi dengiz mushugi, u og'zidagi olti qator tishlarini g'ijirlatibdi.

– Uringlar unil – deb qichqirishibdi qilichbaliq, kit va ilonbaliqlar.

Dengiz mushugi oldin, so'ng hammalari kabelga tashlanishibdi. Lekin dengiz mushugi kabelga tishini endi botiray degan ekan, arrabaliq uning yelkasini tilib tashlabdi. Katta anglashilmovchilik yuz beribdi, dengiz mushugining kabelni tishlashga ham darmoni yetmay qolibdi.

Rosa to's-to'polon ko'tarilibdi! Suv qorayib ketibdi, hammaning boshi aylanibdi, baliqchalar, qisqichbaqalar bir-birlarining ustiga minib, mushtlasha ketishibdi. Bir-birini g'ajib, tiriklayin yeya boshlashibdi. Faqat kabelgina qimirlamay, o'z ishini bajaraveribdi, bu eng to'g'ri yo'l ekan.

Tepada suv ustini tun pardasi qoplابdi, dengiz tubida esa millionlab, hatto milliardlab chiroqlar miltillab yonibdi. Bular zig'irday-zig'irday keladigan shilliqqurt, qisqichbaqalar ekan. Bu mo'jizaning xuddi o'zi, chunki dunyo shunday qurilgan ekan.

Dengizda yashovchilar kabelga qarashibdi.

– Bu o'zi nima ekan-a?

Ha, buning nima ekanligini bilolmay, rosa boshlari qotibdi.

Shu payt ularning yoniga keksa dengiz sigiri kelibdi. Odamlar buni har xil nom bilan, goh suv parisi, gohida suv alvastisi deb atashadi. Dengiz sigirining osilib tushgan yelini, dumi, suzishga yordam beradigan ikkita qo'li bor ekan, boshida esa yo'sinlar o'sgan, uning ichida qisqichbaqalar bijillab yotar, bundan u g'ururlanib yurar ekan.

– Aqlli bo'lishni istaysizlarmi? – deb so'rabdi u. – Unday bo'lsa gapimga qulq solinglar, buning sirini sizlarga faqat men tushuntirib bera olaman. Lekin buning evaziga menga va qarindoshlarimga dengizning hamma yaylovlarida xavfsizliklarini ta'minlashlaringizni talab qilaman. Men bilan baliq sizlarga o'xshaymiz, lekin shu bilan birga, men qisqichbaqa singari o'rmalashni ham bilaman, hayot har narsaga o'rgatar ekan. Bu yerda, dengizda, hammadan ko'ra aqli zotman. Dengiz tubida bijillab yotgan mavjudotlar haqida ham, dengiz ustidagilar haqida ham ko'p narsalarni bilaman. Sizlarning boshlaringizni qotirayotgan manovi narsa tepadan qulab tushgan. Tepadan qulab tushganlarning hammasi yo o'lik bo'ladi, yo shu yerga tushgandan keyin o'ladi, unda hech kuch-mador bo'lmaydi. Uni qo'yinglar, joyida yotaversin. Bular bari insonlarning qilmishi.

– Menimcha, unday emas, – debdi baliqcha.

– Tilingni tiy, tirancha, – deb do'q uribdi dengiz sigiri. Baliqcha bu gapdan xafa bo'libdi.

Keyin dengiz sigiri baliqlarga hozircha churq etmayotgan bu dahshatli yirtqichni odamlar bu yoqqa ataylab tashlashgan, deb uqtiribdi. So'ng u odamlarning makkorligi haqida kichikroq nutq o'qibdi.

– Ular hammamizni tutib olishmoqchi, – debdi u. – Ular faqat shuning uchungina yashashadi. Ular bizni aldab qo'nga tushirish uchun to'rlar to'qishadi, chuvalchangli qarmoqlar tashlashadi. Qarmoqning iplari juda uzun! Ular bizni shu qarmoqqa ilinadi deb o'ylashyapti. Voy tentaklar-ey! Biz ham anoyi emasmiz. Faqat bu qarmoq ipiga tegा ko'rmanglar, u nam tortib balchiqqa aylanib ketadi.

Tepadagi hamma narsada bir ishkallik bor, ular hech vaqoga yaramaydi.

– Ha, yaramaydi, – deb dengiz sigiri fikriga, qo'shilibdi boshqalar ham, axir biror fikr bildirish kerak ekan-da.

Biroq baliqcha o'z fikrida mahkam turib olibdi:

– Ehtimol, bu ingichka, uzun ilon dengizimizdag'i ajoyib baliq bolsa ham ajab emas. Ko'nglim shunday deb turibdi.

– Ha, juda ajoyib baliq, – deb biz, odamlar ham baliqchaning fikriga qo'shilamiz, bu gaplarni o'z ishini puxta bilgan odamlarday ishonch bilan aytamiz.

Axir, bu qadimiylar qo'shiq va afsonalarda aytilgan o'sha ulkan dengiz ilonining o'zginasi.

U inson tafakkuri va dahosining mahsuli o'laroq tug'ildi, inson dahosi uni dengiz tubiga tushirdi, sharqdan g'arbga qarab tortdi, u orqali ma'lumotlarni yubora boshladi, bu ma'lumotlar quyosh nuri yerga tushgandan ham tez yuguradi. Bu ilon yil sayin kuchga to'lib, dengiz va okeanlardan cho'zilib borib, butun yer yuzini aylanib chiqadi, u pishqirgan to'lqinlar, jimirlamay turgan, oynaday tiniq suv ostidan ham yo'l topadi, ana shunday suvi tiniq joylarda kapitan o'zini havoda suzganday his qiladi, chunki suv tubidagi baliqlar turli rangda tovlanayotgan mushaklarday ko'rindi-da.

U afsonaviy Midgordsorm<sup>16</sup> ilonidagi suvning eng tubida yotadi. U yer yuzini aylanib o'tib, yana dumni bilan tutashadi. Baliqlar va dengiz maxluqlari tepadan tushgan bu mojizaning nimaligini bilishmay hayron. U insoniyatning fikri bilan guvillayapti, dunyoning barcha tillarida gapiryapti. Harholda indamay yotgan bu dono ilon, yaxshilik va yomonlik xabarchisi, jahon okeanining mojizalaridan biri monamizning ulkan dengiz iloni ekan.

<sup>16</sup> Midgordsorm – Skandinaviya mifologiyasida dengizda yashovchi, odamlar istiqomat qiladigan Midgordni chulg'ab olgan ulkan ilon. U shunaqayam uzunki, yer atrofini belbog'dek o'rabi lib, o'z dumini tishlashi ham mumkin.

## TUTINGAN OTA ALBOMI

Tutingan otam qisqa va uzundan ertaklarni boplab aytardi. U rasm qirqish va chizishga ham usta edi, rojdestvo bayrami arafasida u varaqlari top-toza qalın albom olib, unga gazeta va kitoblardan olingen rasmlarni yopishtirardi, bordiyu hikoya qilishga arziyidigan rasm topilmay qolsa, shartta o'zi rasm chizib tashlardi. Bolaligimda undan tuhfa tariqasida rasm yopishtirilgan anchagina albom olganman, lekin hammasidan ham muqovaning orqasiga: «Kopengagen burungi yog' chiroqlari o'rniغا gaz chiroqlarga ega bo'lgan ajoyib yil», deb yozib qo'yilgan albom yaxshi edi.

– Bu kitobni ehtiyyot qill! – deyishgan edi dadam bilan oyim, – xuda-behudaga uni ochaverma. Tutingan otam esa albomga manovi satrlarni yozib qo'ygan edi:

*Falokatmas gar kitob yirtsang, azizim,  
Bolalar goh ish tutishar bundan battar.*

Kitobni tomosha qilish kishini juda sevintirardi. Tutingan otam kitobni ovoz chiqarib o'qib bergen vaqtlarida bu kitobdag'i she'r va boshqa narsalarni eshitardik. Yana u ko'p narsalarni o'zidan qo'shib-chatib gapirib berardi. Xullas, o'shanda ertak chinakam ertakka aylanardi.

Birinchi sahifasiga «Uchar pochta» dan qirqib olingen, rasm yopishtirilgan suratda dumaloq minorali Kopengagen cherkovlari tasvirlangan edi, chapdag'i suratda esa ko'chaga qo'yilgan osma chiroqlar tasvirlangan bo'lib, uning tagiga «varvan»<sup>17</sup> deb yozib qo'yilgan edi. O'ng tomondagi tikka qilib solingan chiroqlar tagida esa «gaz» degan yozuv bor edi.

– Afishani ko'ryapsanmi, – dedi tutingan otam. – Bundan keyin sen tinglaydigan voqealar boshlanadi.

---

<sup>17</sup> Varvan – dengiz hayvonlaridan olinadigan moy (tarj.).

Undan «Varvan bilan gaz yoki hayot va Kopengagen ishlari» degan kulgili tomosha chiqqan bo'lardi. Ajoyib nomlar! Sahifaning eng pastida yana bir surat bo'lib, unda nima tasvirlanganini darhol payqab olish qiyin, buni o'zim tushuntirib beraman: bu o'lik ot<sup>18</sup> surati u kitobning eng so'nggi sahifasida bo'lishi kerak edi-yu, ammo o'zida nimalar borligi haqida hikoya qilish uchun oldinga chopib o'tib olibdi-da. Lekin bu hikoyaning boshlanishi ham, o'rtasi ham, oxiri ham hech vaqoga arzimaydi: qo'lidan kelsa uni durustroq hikoyaga aylantirishi mumkin edi. Bilasanmi, o'lik otlarni kunduz gazeta sahifalarida saqlashadi, kechqurun esa otlar qochib ketib, shoir yashayotgan uy oldiga borib, uy egasi o'ladi deb kishnay boshlaydi, ammo u chinakam tirik bo'lsa, o'lmaydi. O'lik ot sho'rpeshanaga o'xshagan narsa, o'z ahvolini ham tushunolmaydi, durustroq qorin to'ydirishni ham bilmaydi, shu vajdan shataloq otib, kishnab yurib, nafas olib, qorin to'yg'izadi. «Tutingan ota albomi»ning unga yoqmasligini bilaman, lekin bu albomga ketgan qog'ozlar hayf ketibdi, degan gap emas.

Mana, kitobning birinchi betidagi afishalarni ham ko'rib oling!

– Bu voqeа ko'hna yog'fonarlar so'nggi marta yoygan, butun shaharda gaz chiroqlar yona boshlagan, ular ravshan nur sochib, eskilari xiralashib qolgan oqshomda yuz bergen edi.

– O'sha kuni kechqurun ko'chada yurgan edim, – dedi tutingan otam. – Xaloyiq bamaylixotir sayr qilib yurar, yangi va ko'hna chiroqlarning nur sochishiga havas bilan boqishardi. Odam ko'p edi, oyoqlar kallalarga qaraganda ikki marta ko'p edi. Chiroq yoquvchilar o'ta g'amgin

<sup>18</sup> O'lik ot – xalq orasidagi xurofiy aqidalarga ko'ra, yangi qurilayotgan cherkov poydevori ostiga ko'milgan ot arvohi. Biron xonadon oldida o'lik ot paydo bo'lib qolsa, u kimnidir o'lishini bildiradi.

qiyofada turishardi, chunki o'zlar ham ko'hna chiroqlar bilan birga iste'foga chiqishganini bilib turishardi-da. Ko'hna chiroqlar esa uzoq o'tmishni xotirlashar, kelajak haqida xotirlash qo'llaridan kelmasdi. Ularning xotiralarida qanchadan-qancha mana shunaqa sokin oqshomlar va zimiston tunlar saqlanib qolgan-kul! Men eski chiroqqa suyandim, – dedi tutingan otam, – uning piligi vishillab yog' sachratardi, shu payt fonarning hikoyasini eshitib qoldim, hozir sen ham uni tinglaysan. «Qo'lizdan kelgan hamma ishni qildik, – dedi chiroq. – Bir vaqtlar yaxshi edik, xursandlikka ham, g'amga ham nur sochdik, umrimizda ne-ne voqealarning guvohi bo'lmadik... axir, biz Kopengagenning tungi ko'zlar edikda. Mayli, yangi chiroqlar o'nimizni olishsin, bizning vazifamizni o'tashsin, qani, ular qachongacha nur sochisharkin, boshimiz omon bolsa hammasini ko'tamiz. Ular biz qariyalarga qaraganda yorug'roq nur sochishyapti, ammo azaldan seni gaz chiroq qilib yasashgan bolsa, hammayoqdan kelayotgan quvurlardan madad olib tursang, ana shu quvurlardan faqat shaharning o'zidan emas, balki boshqa yoqlardan ham kuch oqib kelayotgan bolsa, gaz chiroqlarning xizmati katta-da! Biz yog' fonarlari esa o'z kuchimiz bilan nur sochamiz, har birimizning o'z zapasimiz bor, qarindoshlardan madad kutmaymiz. Qadim zamonlardan beri bobolarimiz ham, o'zimiz ham Kopengagen shahriga nur sochib kelamiz. Bu oqshom oxirgi marta nur sochayotgan ekanmiz, siz, ochiqko'ngil o'rtoqlardan keyinda turarkanmiz, na chora, sizga hasad ham qilmaymiz, qovog'imizni ham solmaymiz, aksincha, chin ko'ngildan xursand bo'lamiz. Bizdek keksa soqchilar o'niga yangi mundir kiygan sizday yangi askarlar keldi. Endi katta bobokalonimizdan tortib hozirgi davrgacha umrimizda ko'rgan-kechirganlarimizni, Kopengagen tarixini sizlarga aytib beramiz. Sizga, sizning avlod-ajdodlaringizga, eng oxirgi gaz chirog'iga to iste'foga chiqqunlaringizgacha uzoq hikoya qilishga arziguday biz

ko'rgan voqealarni ko'rishingizga ishonamiz. Axir, vaqt kelib sizlar ham dam olishga chiqasizlar. Shu kunga oldindan hozirlik ko'rib qo'ying. Odamlar albatta sizlardan ham yorug'roq nur sochadigan chiroqlarni o'ylab topishadi. Men bir studentdan dengiz suvini yoqish yo'li qidirilyapti, deb eshitdim».

Pilik ana shu gaplarni aytayotib suv tiqilganday bir vishillab olibdi.

Bu gaplarning hammasini tutingan otam e'tibor bilan tinglabdi va yog' chiroqdan gaz chiroqqa o'tar kechasi ko'hna chiroqlarning Kopengagen tarixini hikoya qilishni o'ylab topgani antiqa ish bo'pti, degan xulosaga kelibdi.

— Ajoyib fikrlarga amal qilish kerak, — dedi tutingan otam. O'sha kuni uyga borib, chiroqning gaplariga amal qildim, senga atab suratli albom yasadim, bu suratlar yog' fonarlar ham bilmagan qadim zamonlar haqida hikoya qiladi.

Mana «Kopengagen hayoti va ishlari» tarix kitobi. Bu tarix zulmatdan boshlanadi, manovi qurumday qop-qora sahifa – asrlar zulmati.

— Kel, sahifani varaqlaylik — dedi tutingan otam. — Suratni ko'ryapsanmi? Pishqirgan dengiz-u sharqi-shimoldan esgan shamol, u muzlarni suryapti, muzlar ustida esa yiroq Norveg tog'laridan muzga ag'anagan xarsangtoshlar suzyapti. Sharqi-shimoldan esayotgan shamol ulkan muzlarni suryapti, chunki u nemis tog'lariga uzoq shimolda qanaqa muzlar borligini ko'rsatmoqchi. Mana, muz flotiliyasi Zundga qadar, hozir Kopengagen turgan Zeland orollari sohillarigacha surib bordi, o'sha paytlarda Kopengagendan nom-nishon ham yo'q edi. Bu joylarda uzundan-uzun suv osti sayozliklari cho'zilgan edi, ana shu sayozliklardan birining ustida ulkan xarsangtoshi bor muz qadalib qoldi. Hamma flotiliya to'xtadi, shamol uni sayozlikdan ko'chira olmadi, shunda shamol darg'azab bo'lib ana shu sayozlikni, «o'g'ri yerni» la'natladi, qachonlardir u dengizdan ko'tarilsa, unga o'g'ri va qaroqchilar uya quradi, bu yerda qaynoq iskanjalar va dorlar quriladi deb qasamyod qildi.

Lekin u so'kish va la'natlash bilan ovora bo'lib turganida bulutlar orasida quyosh mo'raladi, uning nurida huzurbaxsh daho nur bolalari raqsga tushdi va tebrandi. Ularning oyoqlari muzlarga tegishi bilanoq muzlar erib ketdi, ulkan qoyatoshlar suv ostiga cho'kdi.

«Eh, quyoshning ablak bolalari! – debdi shamol. – Shu ham o'rtoqlig-u, shu ham qarindoshchilik bo'ptimi? Bu yomonligingni hech ham unutmay, doimo eslatib yuraman. Hozirgidek qarg'ab, la'natlayman!»

«Biz duo qilamiz, – deb kuylashibdi quyosh bolalari. – Sayozlik ko'tariladi, biz uni asraymiz! Bu yerda haqiqat, ezungulik va go'zallik tantana qiladi.»

«Bo'lмаган гап!» – debdi shamol.

– Mana shular haqida ko'hna yog' chiroqlar hech narsa bilmaydi-da, – dedi tutingan otam. – Lekin buni men bilaman, bu Kopengagenning hayoti va ishi uchun juda muhim.

– Yana varaqlaymiz! – dedi tutingan otam. – Oradan ko'p yillar o'tdi, sayozlik tepaga ko'tarildi, suvdan ilk bor ko'tarilgan qoyatoshga dengiz qushi qo'ndi. Buni suratda o'zing ham ko'rishing mumkin. Yillar ketidan yillar o'taverdi. Dengiz qumlikda o'lgan baliqlarni uloqtirdi, qumlikda o'tloq paydo bo'ldi, keyin ular so'lib, chirib, tuproqni o'g'itladi, boshqa o't-o'lan va o'simliklar bunyodga keldi, sayozlik yam-yashil orolchaga aylandi. Uning sohiliga vikinglar tushishdi. Bu yakkama-yakka kurashishga qulay joy bo'lib, buning ustiga orolga yaqin, Zelandiyadan unchalik olis bo'lмаган yerda langar tashlaydigan qulay joy ham bor edi.

Bu yerda birinchi marotaba yog' chiroq yondi; menimcha, unda baliq pishirilgan bo'lsa kerak, chunki bu yerlarda baliqlar juda ko'p edi. Seld baliqlar shu darajalik zinch yotganidan hatto kemalar to'xtab qolardi, shunday paytlarda dengiz ostida shu'la chaqnaganday yorishib ketardi, dengiz tubida shimol shafagi' jilva qilganday bo'lardi. Zund baliqqa serob joy edi, shu vajdan

Zelandiya orollari sohiliga uylar, eman daraxtidan devorlar qura boshlashdi, o'rmonda po'stloq ko'p bo'lganidan, undan tom yopishdi. Gavanga kemalar kira boshladi. Kemaning barcha asbob va jihozlari orasida tebranib yog' chiroq yondi, shimal shamoli guvillab: «Yo'qoll» – deb o'kirdi. Orolda o'g'rinchcha chiroq yoqiladigan bo'ldi. Biroq «o'g'rilar oroli» o'g'rilar va kontrabandistlarning sevimli joyi bo'lib qoldi.

«Mana, qanchadan-qancha yovuzliklar bo'lib o'tdi bu yerda; men xohlasam shu bo'ladi. Hademay daraxtlar ham o'sadi, uni silkitib, mevalarini to'kaman».

– Mana, daraxt ham paydo bo'ldi, – dedi tutingan otam.  
– Ko'ryapsanmi, bu «o'g'rilar oroli»dagi dor. Unga zanjirband qilingan qaroqchilar va qonxo'rлarni osishadi, shunday qilishdi ham. Shamol shunaqayam zo'r kuch bilan quturdiki, dordagi skeletlar bir-biriga sharaq-shuruq urilib turdi, oy ularga kumush nurlarini sochdi, bu nur o'rmonda o'tkazilgan tungi bazm paytalarini yoritib turgan hozirgi oy nuriday mayin, muloyim edi. Quyosh ham yoqimli nur sochib, suyaklarni quritdi, uning nurida guyosh bolalari qo'shiq aytishdi:

«Biz bilamiz, biz bilamiz! Kelgusida bu yerlar gullabyashnagan joylar bo'ladi».

«U-u, jo'jaday chiyillamay o'linglar!» – dedi shamol.

. – Endi yana varaqlaymiz! – dedi tutingan otam. Roskille shahrida qo'ng'iroqlar jarangladi, u yerda yepiskop Absalon<sup>19</sup> yashardi, u Injil o'qishni ham, qilichbozlikni ham yaxshi bilardi; u pahlavon odam edi. Absalon gavan atrofidagi savdo shahriga aylangan serharakat qishloq baliqchilarini himoya qilmoqchi bo'libdi. Uning buyrug'i bilan nopok joylarga muqaddas suvlar sepilibdi. «O'g'rilar oroli»ga halol tamg'a berilibdi, u yerda g'isht teruvchilar

<sup>19</sup> *Absalon yoki Aksel (1128–1201)* – arxiyepiskop Lundskiy va yepiskop Roskilskiy Valdemar I zamonida ministr va bosh qo'mondon bo'lgan. Akselning uyi mustahkam qal'a bo'lgan.

bilan duradgorlar ish boshlab yuborishibdi, yepiskopning buyrug'i bilan kattagina bino qad ko'taribdi. Quyosh nurlari balandlashib borayotgan bino devorlarini yoritibdi. Orolda Aksel uyi bunyodga kelibdi:

*Ajib minora,  
Adl, chiroyli.  
Tong sahargacha  
Yonar chirog'i:  
Ajoyib qasr!  
Me'mori asl.  
Shamol-jodugar  
Zarbla o'kirdi  
Hamlang behuda  
Shamoli tezgir:  
Ajoyib qasr,  
Me'mori asl!*

Uy qarshisida Gavan – savdogar Gavani bor edi.

*Sersuv, yashil o'tloqlar aro,  
Suv parisiga qurildi bino.*

Bu yerga uzoq mamlakatlardan baliq xarid qilish uchun odamlar kela boshladи, uy va do'konlar qurildi, derazalarga oyna оrniga ho'kiz pufaklari sirildi – u vaqtarda oyna juda qimmat edi; tomlari qubba shaklida qurilgan, og'ir yuklarni tepaga ko'taradigan baland chig'iriq оrnatilgan uylar qad ko'tardi.

Do'konlarda o'tirgan gumashtalarni ko'ryapsanmi? Ularning uylanishi mumkin emas, ular zanjabil bilan qalampir sotishadi, shu vajdan ularni qalampir bo'ydoqlar deb atashadi.

Katta va tor ko'chalarda quyun aylanib qolsa bormi, poxol tomlarni uchirib ketadi! Ariqlarning bo'yida sigirlar, cho'chqalar rizq-ro'zini terib, yeb yurishadi.

«Uchiraman, yakson qilaman! – deb qichqiradi shamol. Aksel uyiga hujum qilaman, gapim to'g'ri chiqdi, uning uyini «o'g'rilar orolindagi qamoq deb atashmoqda!»

Tutingan otam darhol o'zi chizgan o'sha joyning suratini ko'rsatdi. Hamma devorlarda zinch qoqilgan qoziqlar dikkayib turar, ularning uchiga qo'lga tushgan qaroqchilarning kallasi qoqilgan, kallalar ishshayib turardi.

– U shunday bo'lgan edi, – dedi tutingan otam, – buni bilish, ma'nosiga tushunish foydadan xoli emas.

Yepiskop Absalon mehmonxonasida o'tirar edi. Qaroqchilar kemasi paydo bo'lganini payqashi bilanoq tashqariga otiladi, u o'z kemasi tomon yuguradi, burg'u komandasini chaqiradi, qaroqchilar yelkasiga o'q-yoy sanchila boshlaydi, ular jon borida qochib qolishga harakat qilishadi, o'qlar ularning qo'llariga ham sanchila boshlaydi, uni olishga sabrlari chidamay, jon-jahdlari bilan eshkak eshishadi. Yepiskop tirik qolganlarning hammasini asir oladi, ularning kallalari kesilib, qal'a devorlaridagi qoziqlarga qoqiladi. Shamol lunjini shishirib puflaydi – dengizchilar aytganday, bo'ronni yanada avj oldiradi.

«Mana shu yerga yotib, biroz orom olaman, bunda nimalar bo'layotganini ko'raman».

Bo'ron biror soat tinadi. Yana ko'tarilib, kun bo'yи quturadi. Oradan yillar o'tdi.

Kuzatuvchi minora ustiga chiqdi, avval g'arbga, sharqqa, so'ng esa shimolga, janubga nazar tashladi.

– Manavi manzarani qara! – dedi tutingan otam va o'sha manzarani menga ko'rsatdi. – Kuzatuvchini ko'ryapsanmi? U nimani ko'rgan bo'ssa, hammasini senga aytib beraman.

Qamoq-qal'a devoridan to Kyog ko'rfazigacha yastanib dengiz yotadi. Zeland sohillarigacha keng dengiz yo'li cho'zilib ketgan Serriyslev va Solberg dalalari ro'parasidagi katta qishloqda yog'och to'sinli, tomlari qubba shaklida toshdan qurilgan uylar borgan sari kengayardi. Shaharda

kavushdo'zlar, ko'nchilar, shirinlik va yog' savdo qiluvchi savdogarlar ko'chalari, savdo maydoni va gildiya savdogarlari uyi bor edi. Sohilda, ilgari orol bo'lgan joyda avliyo Nikolayning hashamatli cherkovi qad ko'tarib turibdi. Uning minoralarida haddan tashqari uzun nayzalari bo'lib, uning butun go'zalligi-yu hashamati tiniq suvda aks etib turadi. Undan sal napiroqda Bibi Maryam cherkovi bo'lib, unda qavmlar mum shamlar yoqib, isiriq tutatib, xonish qilishadi. Savdogarlar Gavani - Kopengagen shahri yepiskoplar shahri bo'lib qoldi. Shaharni yepiskop Roskillskiy idora qiladi.

Aksel uyiga yepiskop Erlandsen joylashdi. Uning oshxonasida go'sht qaynaydi va qovuriladi, pivo va boshqa ichimliklar daryo bo'lib oqadi, nog'ora gumburlaydi, g'ijjak nola qiladi. Shamlar va yog' chiroqlar yonadi. Shu vaqtarda qal'a shunday yorishib ketadiki, chiroqlari butun mamlakat va qirollikni yoritib yuborgandek bo'ladi. Shimol shamoli devor va minoralarga uriladi, lekin ular qimirlay demasdi, so'ng u shaharning g'arb tomonidagi istehkomlarni qo'zg'atmoqchi bo'ladi, u yerlarda yog'och devorlar bo'lib, ular ham miq etmaydi. Devorning nariyog'ida esa Daniya qiroli Xristofor I bo'lib, u Skvelsken yonidagi jangda isyonchilardan yengilib, yepiskopdan boshpana izlab kelgan edi.

Shamol yepiskop nomidan: «Kiritmayman, kiritmayman! Darvozani ochmayman!» – deb uvillaydi.

– Alg'ov-dalg'ov, og'ir zamonlar keldi, hamma o'zi bilan o'zi ovora. Golshtin bayrog'i qal'a minorasida hilpirab turardi.

Hammayoqda yig'i-sig'i, dahshat va dilsiyohlik, butun mamlakatda nizo, ajal hukmron, tunlar huzur-halovatsiz o'tar, shu paytda Valdemar Atterdag paydo bo'libdi.

Yepiskop shahri endilikda qirolikka o'tibdi. Shaharda tomi qubba shaklida qurilgan uylar, to'sinli tosh uylar, tor ko'chalar, qorovul va shahar mahkamasi bor edi. Shaharning g'arbiy darvozasi oldida dor bo'lib, dorga osilish sharafiga har kim ham tuyassar bo'lavermasdi.

Osiladigan odam shu yerlik bo'lishi kerak. Dor tepasidan savdogarlarning katta-kichik kemalari yaqqol ko'rini turadi.

«Dor xo'b yaxshi narsa-dal – deydi shamol. – Go'zallikka go'zallik qo'shilyapti!» – u hushtak chalib, guvillaydi.

U Germaniyadan ofat keltirdi.

– Rostok, Lyubek, Bremenden ganzeychilar, boy savdogar, do'kondorlar kelishdi, – dedi tutingan otam, – ular Valdemar minorasidagi oltin o'rdakdan ham qimmatroq mol-dunyoga ega bo'lishga intilishdi. Ular Daniya qiroldan ham qudratliroq bo'lib olib, uning poytaxtida hukmronlik qila boshlashdi, ular jangovar kemalarda kelishgan edi, ularni kutib olishga shay turgan kuch yo'q edi. Qirol Erikning esa nemis qarindoshlari bilan jang qilgisi kelmadi, ular bilan juda ko'p odamlar birga kelgan, kuchlari ham juda katta edi. Qirol Erik o'z arkoni davlati bilan shosha-pisha g'arbiy darvozadan chiqib, zudlik bilan ko'l bo'yidagi yam-yashil Soryo shahri o'rmoniga yashirindi; bunda ular kecha-yu kunduz ichkilikbozlik qilib, sevgi haqidagi qo'shiqlarni aytishadi.

Faqat bitta odam qirol ruhi va qalbi bo'lib Kopengagen shahrida qolibdi. Mana, suratda sen yosh, xushbichim, latif, ko'zları dengizday moviy, sochlari oltinday tovlangan ayolni ko'rib turibsan. Bu Daniya qirolichasi, ingлиз malikasi Filippa bo'ladi. U odamlar ko'cha va tor ko'chalarda, aylanma, tik zinapoyalarda, saroylar va tor do'konlarda uymalashib, nima qilishini bilmay, qo'rquvdan talvasaga tushgan shaharda qoldi. Qirolicha jasur, mard ayol edi, u shaharliklar va dehqonlarga murojaat qilib, ularni ruhlantirdi, dushman bilan kurashishga da'vat etdi. Mana, kemalar yelkanlarini ko'taradi, jangchilar mudofaa istehkomlarini egallahshadi, zambaraklar gumburlaydi, hammayoq o't va tutun ichida qoladi, qalblarda jasorat jo'sh uradi – Ollo Taolo Daniyani o'z marhamatidan bebahra qilmaydi. Quyosh hammaning ko'nglini munavvar qiladi, odamlarning qo'zi g'alabadan

chaqnab ketadi. Omon bo'l, Filippa! U badavlat xonadon-lardagi, qashshoq kulbalardagi yaradorga malham bo'ladi.

– Men gulchambar suratini qirqib olib, uni mana shu rasm atrofiga yopishtirdim, – dedi tutingan otam. – «Umring uzoq bo'lsin, qirolicha Filippa!»

– Endi bir necha yil keyingi voqealarga o'tamiz! – dedi tutingan otam. – Kopengagen ham bir necha yil orqaga hatlab o'tdi. Qirol Kristian I Rimga borib, papadan oq fotiha oladi, uyiga qaytayotganda yo'lda odamlar uni izzat-hurmat bilan kutib olishadi, uning shuhrati ortib ketadi. U yurtida pishiq g'ishtdan katta bino qurdiradi, unda olimlar yashab, odamlarga lotin tilini o'rgatadigan bo'ladi. Bu yerga qo'lida bolta, omoch orqasidan yurgan kambag'allarni ham qo'yishdi. Agar ular iltimos qilishsa, egnilariga uzun, qora shoyidan tikilgan mantiya kiygizib qo'yishardi, ular shaharliklar darvozasi oldida va'zlar aytishardi.

Faqat lotin tilidan boshqa tilni e'tirof etmaydigan bilim saroyi yonida kichkinagina uy bo'lib, bu uyda daniyaliklar tili, urf-odatlari o'rgatilardi. Bu yerda ertalabki nonush-taga non bilan pivo berilardi, o'n yarimlarga borib esa tushlik ovqat yeyilardi. Panjarali derazalardan mo'ralayot-gan quyosh nuri ovqat va kitob turgan shkaflarga tushardi. Kitob shkafida esa nodir qo'lyozmalar turardi: u yerda «Rosenkrants»ni va Mikkelsning «Ilohiy komediya»sini, Xenrik Xarpenstrangning tabib kitobi, soryolik Nils og'aning «Daniya qofiyali xronikasi»ni uchratish mumkin edi; uy egasining aytishicha, bu kitoblarni har bir daniyalik bilishi kerak emish. Bu odam Daniyada birinchi kitob bosuvchi golland Gottfred van Gemen edi. U kitob nashr etish san'atini yaratdi.

Mana, kitoblar qiro qasriga ham, shaharliklar uyiga ham kirib boryapti. Maqol va matallar abadiylashtiriladi. Bu haqda kishi xursand bo'lganda yoki boshiga qayg'u tushgan vaqtida gapirolmaydi, bu haqda xalq qo'shiqlarining erkin kuychisi qushchagini kuylaydi,

xolos. U sirli, shunday bo'lsa-da hammaga tushunarli tilda kuylaydi, uning tovushi erkin qanot qoqadi, shaharliklar xonadonlariga, ritsarlar qal'asiga kiradi, oljanob xonimning qo'liga qo'nib, kuylay boshlaydi, hatto krepostnoy dehqonning kulbasiga kichkinagina sichqonday bir amallab kirib olib, sayraydi.

«Endi ob-havoning ham tovushi chiqib qoldi-ya!» deydi shiddatli shimol shamoli.

«Bahor kelyapti, — deydi quyosh nurlari, — ko'rmayapsanmi, bir necha o't-o'lalar yerdan bosh ko'tarib qoldil!»

— Albomdan yana bir varaq ochaylik! — dedi tutingan otam. — Kopengagenda tantana! Musobaqalar, o'yinlar, dabdabali marosimlar,sovut kiygan behisob oljanob ritsarlar, shoyi-atlas, oltin bezaklarga ko'milgan taniqli xonimlar! Qirol Gans qizi Yelizavetani Brandenburg kurfyursiga erga beryapti. Qiz juda yosh, biram baxtiyorki, u barqut poyondozlar ustidan yurib boryapti, xayollari kelajak, baxtiyor oilada. Kelinning yonida qiziqqon, qarashlari g'amgin akasi shahzoda Kristern<sup>20</sup> boryapti. Shaharliklar uni yaxshi ko'rishadi, chunki u kambag'allarning boshiga tushgan kulfatni biladi, niyati — ularga yordam berish edi!

Ammo taqdir Xudoning qolida!

— Kitobdan yana bir varaq ochamiz! — dedi tutingan otam. — Shamol kuchi boricha guvillayapti, u po'lat qilich, behalovat, jang-u jadallarga to'la yillar haqida kuylamoqda.

Hammayoqni muz qoplagan aprel kunlaridan biri. Nega xaloyiq qadimgi bojxona oldidagi bayroqlar bilan bezatilgan kema ro'parasida turgan qal'aga qochib kirdi? Derazalarda, tomlarda — hammayoqda xaloyiq ymalashadi. Butun shaharda sarosimalik, g'am-koyish

<sup>20</sup> Shahzoda Kristern — keyinroq Daniya qiroli bo'lgan. Kristian II (1513–1523).

va dahshat hukmron. Hamma ilgari o'yin-kulgi bo'lib turadigan, zallarida tilla suvi yogurtirilgan chiroqlar shu'lasida raqsga tushishgan, hozir esa huvillab, kimsasiz bo'lib qolgan qal'aga tikiladi. Hammaning nigohi qiroq Kristian II tez-tez mo'ralab turgan derazaga qadalgan. Qirol qasr ko'prigining nariyog'ida, qasrning tor ko'chasiga joylashgan, Bergandan o'zi olib kelgan go'zal sevgilisining uyiga tikilmoqda edi. Deraza eshiklari berk. Olomon qasrga tikiladi, bir vaqt darvoza ochilib, ko'tarma ko'priq tushiriladi. Qirol sadoqatli umr yo'ldoshi bilan birga tashqariga chiqadi.

Qirolning tomirlarida ham, fikrlarida ham qon jo'sh urar, o'tmisht bilan aloqani uzib, zulmga barham bermoqchi, ezilgan dehqon va shaharliklarga yaxshilik qilmoqchi, ko'payib ketgani uchun ochko'z kalxatlarning qanotini qirqmoqchi bo'ldi, bu ishda yolg'iz o'zining qolidan biron narsa kelishi qiyin edi. U mamlakatni tark etyapti, o'sha o'zga yurtlarda do'stlar va qarindoshlarning ko'magiga suyanish niyatida Daniyadan chiqib ketyapti. Uning yonida xotini, sadoqatli xizmatkorlari bor, vidolashish onlarida hammaning ko'zidan qaynoq tomchilar dumaladi.

Asrlar qo'shig'ida turli ohanglar yangradi, birovlar qirolni yoqlasa, boshqalari esa unga qarshi edilar, uch ovozda xor aytildi. Dvoryanlar gapida quyidagi so'zlar ochiq-oydin aytildi.

«Sho'ring qursin, Yovuz Kristern! Stokholm maydonida to'kilgan qonlar senga qarshi dod-faryod ko'taryapti, sho'ring quridi, la'nat sengal!»

Monaxlarning gapi ham ularnikidan qolishmaydi:

«Xudo ham sendan biz singari yuz o'giradi! Sen mamlakatni Lyuter ta'limotini o'rganishga da'vat etding, unga va'z aytish uchun cherkov bilan minbar berding, shayton gaplarining tarqalishiga yo'l qo'yding, sho'ring qursin, Yovuz Kristern!»

Lekin dehqonlar bilan shaharliklar achchiq-achchiq yig'lashdi:

«Kristern, sen xalqning pushti-panohisan! Dehqonni hayvon singari sotish, ovchi itga almashtirish mumkin emas! Ana shu qonuning uchun seni qoralashyapti! Ammo kambag'allarning ovozi shamolda to'ponday uchib ketdi.

Kema qasr oldidan o'tdi, shaharliklar oxirgi marta qiroq kemasini ko'rish niyatida qasr devori tomon yugurdi.

— Yillar asta-sekin o'tdi. Shunda u g'am-g'ussa olib keladi, boshga kulfat tushganda qarindosh-urug'lar suyanchiq bo'lmaydi, do'stlar ham himoya qilisholmaydi.

Kilda qirolining tog'asi o'zi qora qiroq bo'lishni orzu qilibdi.

Kopengagen ostonasida qiroq Frederik qo'shinlari turibdi. «Kopengagen sadoqatli shahar suratini ko'ryapsanmi? Atrofni qora bulutlar qoplab olgan zulmat ichidan surat ko'tinyapti, har biriga sinchiklab qara! Bu ovoz chiqaradigan rasm, uning haqidagi xotiralar hozirgacha qo'shiq va afsonalarda yashab kelmoqda; zamon og'ir, g'am-kulfatga to'la yillarni olib keldi.

Erkin qush qiroq Kristernga nima bo'ldi? Bu haqda qushlar kuyladi – ular uzoq-uzoqlarga, dengiz ortidagi yot mamlakatlarga uchib borishadi. Laylak erta bahorda janubdan, german yurtidan uchib keladi, u bundan keyin mytiladigan voqealarning shohidi bo'libdi.

«Men yot o'kalarda archagul o'sgan cho'llarda qochoq qiroq Kristernning o'tganini ko'rdim, uning ro'parasidan bitta ot qo'shilgan ko'rimsizgina arava chiqib qoldi, aravada qiroq Kristernning opasi Brandenburg markgrafi o'tirardi. Lyuter ta'limotiga sadoqati zo'r bo'lgani uchun uni eri uydan haydar yuborgan edi. Qorong'iliq qoplagan cho'lda surgundagi odamlar – qiroq bolalari uchrashib qolishibdi. Arang o'tayotgan yillar g'am-g'ussa keltirardi, boshga kulfat tushgan vaqtida qarindosh-urug'lar suyanchiq bo'lmaydi, do'stlikni himoya qilishmaydi.»

Syonderborg qal'asidan uchib kelgan qaldirg'och ham munigli sayradi:

— Qirol Kristernni tutib berishdi. U quduqday chuqr va qorong'i minorada o'tiribdi, uning og'ir qadam

tashlashlaridan tosh ustida yo'l paydo bo'ldi, qattiq marmarda esa qo'l izlari qoldi.

*Tosh aytgan hikoya dahshat, shubhasiz,  
Uni bayon etmoqqa tillar ham ojiz.*

Moviy dengizdan dengiz lochini uchib keldi, dengiz erkin, unda g'ov-to'siqlar yo'q, dengizda kema shitob bilan suzmoqda, kemada Fyun orolining mard-u maydoni Syoren Nordbyu bor. Unga omad yor bo'lyapti, lekin bu omad shamol singari beqaror.

Yutlandiya hamda Fyunda qarg'alar va zag'chalar osmonni boshlariga ko'tarib: «Yo'nga chiqish vaqtি bo'ldil Noz-ne'matlar mo'l-ko'l! Inson va ot murdalari tog'-tog' bo'lib uyulib ketgan! Zamon notinch, graf urush qilyapti. Dehqonlar qo'liga tayoq, shaharliklar pichoq olib: «Bo'rilarни o'ldiramiz! Bo'ri zotini yo'qotamiz!» – deb qichqirishmoqda. Yondirilgan shaharning burqsagan tutuni osmonni qoplab olgan edi.

Qirol Kristern Syondenborg qal'asida tutqunlikda, u erkinlikka chiqolmaydi, kulfat yog'ilgan Kopengagenni ko'rolmaydi. Shimoldagi yaylovda Kristian III bir vaqtłari otasi turgan joyda turibdi. Poytaxt dahshat ichida, Kopengagenda o'lat avjiga mingan.

Cherkov devoriga kiyimlari juldur, ozib-to'zigan bir ayol suyanib o'tiribdi. U jonsiz, tizzasida esa ikki tirik go'dak o'sha o'lik onani emmoqda.

O, vafoli Kopengagen, ortiq orzu-umid ham, jasorat ham qolmadi.

– Karnaylar chalindi. Chorlov sadolari, nog'ora ovozini eshityapsanmi?

Shoyi va barqut kiyimlarga o'ralgan, boshlariga jig'a taqqan otliq dvoryanlar o'tishadi, otlarining egar-jabduqlari o'tindan, ular eski bozor tomon ketishyapti. U yerda musobaqami yoki odatdagи ot o'yini bo'lyaptimi? O'sha yoqqa eng yaxshi kiyimlarini kiyib olgan dehqonlar, shaharliklar ham ketishyapti. U yerda nimani tomosha

qilishadi? Papa kitoblarini gulxan qilinadimi yoki Slagxuk<sup>21</sup> o'zi yondirgan gulxanda tik turganday o'sha yoqda jallod turibdimi? Mamlakat hukmdori, lyuterchi qirol haqidagi ovoza hammayoqqa tarqalsin.

Ochiq derazalar oldida baland yoqali paltolar, gavhar qadalgan shapkalar kiyib olgan taniqli xonimlar, olijanob oyimqizlar dabdabani havas bilan tomosha qilishyapti. Baxmal soyabon ostidagi qirol o'tirgan taxt yoniga to'shalgan gilamda eski kiyimlar kiyib olgan kengash a'zolari o'tirishardi. Xalqqa qirol va kengashning amri e'lon qilinadi. Shaharliklar olijanob dvoryanlikka qarshi ko'tarilgan isyonni qoralovchi xunuk so'zlarni e'tibor bilan tinglaydi. Shaharliklar kansitiladi, dehqonlar esa yana qulga aylantiriladi. Mana, Daniya yepiskoplari sha'niga xunuk gaplar aytilyapti. Cherkov va monastirlarning hamma mol-mulki qirol va dvoryanlar qo'liga o'tadi.

Qahr va halovatlik, shuhratparastlik va ablakhlik yanada zo'raydi.

*Faqir qushcha yuvosh va qo'rqoq  
Oyog'ini sudraydi arang.  
Boyqush esa mag'rur, xiraroq,  
Hovliqishdan boshi ham garang.*

Alg'ov-dalg'oviarda u o'tgan zamon betini qora bulut qopladi, lekin ba'zan yarq etib quyosh nuri ham ko'tinib qoldi; olimlar va studentlar uyi tepasida quyosh charaqladi, bu uylarda hanuzgacha unutilmagan odamlarning nomlari yana tilga olinadi. Gans Tausen Fyun orolidagi kambag'al temirchining o'g'li:

*Birken shahri bilan Gansni bolaligidan,  
Endi bo'lsa Tausen nomi taratmoqda shan:*

<sup>21</sup> Slagxuk Didrix – vrach, Kristian II ning yaqinlaridan; u 1522-yilda qatl etilgan.

*Daniya Lyuter nomin oldi azamat,  
Olov so'zla yuraklarni eta oldi zabt.*

Petrus Palladius nomi dong taratyapti – uning nomi lotinchada ana shunday yangraydi. Yepiskop Roskillskiy Peder Plade bo'lib jaranglaydi. U yutlandiyalik kambag'al temirchining o'g'li edi. Dvoryanlar orasida davlat kantsleri Gans Frisning nomi mashhur. U studentlarni yedirib-ichirdi, ularga g'amxo'rlik qildi, bu g'amxo'rlikdan gimnaziya talabalari ham bebahra qolmadilar. Hammadan burun boshqa odamga shon-sharaf va maqtovlar bo'lzin:

*Poytaxtda mакtabdor, barmog'i chaqqon  
G'ayrat-la varaqlar ekan kitobni,  
Kristian nomin shon-u shuhrati  
Nur соchdi xijolat etib oftobni.*

Mana, alg'ov-dalg'ovlarga to'la zamонни qoplab yotgan bulutlarni yorib quyosh nuri yaraqlab chiqdi.

– Yana varaqlaymiz!

Samsyo sohillaridagi Katta Belt ustida yoqimli tovushlar, dilrabo qo'shiqlar yangrayapti! Dengiz qa'ridan yam-yashil sochlarni yoyib suv parisini chiqadi va u bir dehqonga: «Bir shahzoda tug'iladi, u ulug' va qudratli qirob bo'ladi» – deb aytadi.

Shahzoda dalada, gulga ko'milgan do'lana daraxti tagida tug'iladi, o'shandan beri uning nomi qo'shiq va afsonalarda aytilib, ritsar qal'alarida, qasrlarda tildan tushmaydi.

Cho'qqaygan minorali birja, Rosenborg shahri qalin devor ortidan qad ko'tardi. Studentlar uyli bo'lishdi, uning yonida Yumaloq minora – Uraniya ustunlari yuksaklikka bo'y cho'zdi, u hali ham savlat to'kib turibdi. Minora ilgari chiroyi bilan ko'zlarni maftun etgan Uraniyeborg tomonga qaragan. Uning oltinrang gumbazlari oy nurida yarqiraydi. Suv parilari shu yerda yashagan, odamlar ta'zim bajo keltirish uchun kelgan qirollar va mashhur kishilar

haqida, taniqli zotlar orasida eng donosi Tixo Brage haqida kuylashadi. Bu odam Daniyaning shuhratini shunchalik yuksaklikka ko'tardiki, yulduzlar charaqlagan osmon haqida gap ketganda uning nomini barcha ma'rifatparvar mamlakat xalqlari hurmat bilan tilga oladigan bo'ldi.

Ammo Daniya quvib yubordi. U o'zini yupatish uchun shunday qo'shiq aytdi:

*Hammayoqda osmon bor ekan,  
Ortiq menga nima ham kerak?*

Bu qo'shiq suv parilarining qirol Kristian IV haqida aytgan qo'shiqlari singari xalq orasida yashab kelmoqda.

– Manovi sahifaga yaxshiroq nazar tashla. Bu suratdagi zulmat qasida baytlaridan ko'proq. Qasida xushchaqchaq boshlansa-da, oxiri g'amgin tugaydi. Ana, husnda tengi yo'q, yoqimtoy malika qirol qasrida raqs tushyapti. U qirolning tizzasida o'tiribdi, u Kristian IV ning sevikli qizi Eleonora bo'ladı. Uni ayollarga xos yaxshi xulq-atvor va saxovatli bo'lishga o'rgatishyapti. Uning kuyovi eng aslzoda dvoryanlardan Korfits Ulfeld bo'ladı. Qiz hali yosh. Ba'zan qattiqqo'l enaga uni xipchin bilan savalab ham turadi, qiz bo'lsa ba'zida nohaq jazolanganidan shikoyat qilib kuyovi huzuriga borib turadi. Qizcha o'ta aqli, dono, bilimdon bo'lib, lotin va grek tillarini biladi, italyancha qo'shiq aytadi, udni qotirib chaladi, papa hamda Lyuter haqida fikr-mulohaza yuritadi.

Qirol Kristian Roskill shahridagi qirol maqbarasida abadiy uyquda yotibdi, Eleonoraning akasi yangi qirol bo'ldi. Kopengagen qasrida hashamat va dabdaba hukmron, bu yerdagи dono va go'zal xonimlarning hisobi yo'q, lekin ular orasida eng go'zali malika Sofiya Amaliya Lyunburgskaya hisoblanadi. Chavandozlikda, shirinsuxanlikda Daniya malikasi oldiga kim tusha olardi?

– Eleonora Kristian Ulfeld! – dedi Fransiya elchisi. – Aql va husnda hammani yo'lda qoldirib ketdi.

Mana, qiroq qasrining oynadan tiniq parket poli ustida to'ng'iztayoq o'simligiga o'xshash qora hasad bo'y cho'zib qariqizday chirmashib, xafalik hamda zaharxanda urug'ini socha boshladi. Eleonoraning karetasi saroy ko'prigiga yetmasdan to'xtasin, deb amr qilindi, chunki malika kretasida ketayotgan vaqtida uning atrofida oddiy ayollar piyoda yurishlari kerak edi. Shundan ig'vo, mishmish, yolg'onlar to'qib-bichildi.

Qorong'i tunda Ulfeld xotinini dast ko'tardi. Shahar darvozasining kaliti uning qo'lida edi, u darvozani ochdi, ular mingan otlar chopib ketdi. Er-xotin dengiz sohiliga yetib kelishib, kemaga tushishdi-da, Shvetsiyaga jo'nashdi.

Kelgusi sahifani ochamiz – baxt ulardan ana shunday yuz o'girdi.

Kuz keldi, kunlar qisqarib, tunlar uzaydi, havoning avzoyi buzilib, yomg'ir yog'di, izg'irin shamol kuchaydi. Shahar ihota ko'tarmasidagi daraxtlar shoxi shamolda guvillaydi, yaproqlar Peder Oksen qo'rg'oni tomon uchadi, qo'rg'on bo'm-bo'sh, uning egalari jo'nab ketishgan. Shamol Kristiansavn tomon esadi, Kaya Lyukke uyi atrofida uvillaydi. Endilikda bu yer qamoqxona. Uyning egasi quvg'inda tamg'asi pachoqlanib, tasviri eng baland dorga osilgan, hazrati olyalari Daniya malikasiga hazil qilgani, o'ylamay gapirib qo'ygani uchun ana shunday jazoga hukm qilingan edi. Ilgari qiroq gofmesterining qo'rg'oni bo'lib, hozir esa vayronaga aylangan bu joyda shamol hushtak chalib chiyillaydi. Qo'rg'on o'rnidagi faqat bitta tosh qolgan, xolos. «Toshni suzuvchi muz ustida o'zim bu yerga olib kelganman, – deb guvillaydi shamol, – tosh suv ostiga cho'kdi, keyin «o'g'ilar oroli» bo'lib o'sib chiqdi, men uni duoyibad qildim, keyin tosh taroshlanib, graf Ulfeld saroyiga aylandi, saroyda grafinya qo'shiq aytdi, qoyillatib ud chaldi, grek va lotin tillarida yozilgan kitoblarni o'qidi, husnidan mag'rurlandi. Endilikda shunday yozuvlar bitilgan faqat bitta toshgina savlat to'kib turar edi.

## ABADIY SHARMANDAI SHARMISORLIK VA HAQRATGA MAHKUM XOIN KORFITS ULFELDga:

– Olinasab beka qayoqda qoldi? Uuu-uuu, – qulojni kar qilguday hushtak chaldi shamol. – U moviy minora qal'asining dengiz suvlarini devoriga urilib turgan pastqam bir uyda bir necha yildan beri o'tiribdi. Uy ichida issiqliqdan ko'ra tutun ko'proq, derazalari kichkina, tor shipga tegay deydi. Qirol Kristian IV ning erkatoj, aslzoda qizlar va xonimlar orasida eng latofatli qizi ana shunday qashshoq kulbada yashayapti!

Xotiralar is bosgan qamoq devorlariga darparda va gulqog'oz bo'lib ilinadi. Ayol baxtli bolalik yillarini, doimo otasining yuzidan arimaydigan yoqimli tabassumni, o'zining ajoyib to'yini, shon-shuhrat, dabdabaga to'la kunlarini, Gollandiya, Angliya va Bornxolmdagi azob-uqubatga to'la kunlarini xotirlaydi.

*Erga agar sadoqat zo'r bo'lsa beshak,  
Og'ir kunda ayolga sevgidir tirkak.*

Yo'q, yo'q, o'shanda u eri bilan birga edi, hozir yolg'iz, umrbod yolg'iz! Uning qabri qayerdaligini o'zi ham, boshqalar ham bilmaydi!

*Yakka-yu yagona nuqsoni faqat  
Eriga vafoli qoldi umrbod.*

Qo'shiqlarda kuylanganidek:

*Qashshoqlik, g'urbatlari yillarda tamom  
Sadoqat hamisha yor bo'ldi mudom.*

– Bu suratni ko'ryapsanmi? – deb so'raydi tutingan otam. – Bunda qish fasli tasvirlangan. Sovuq Lolanddan to Fyungacha ataylab muzdan ko'prik qurdirgan shved qiroli Karl Gustav shiddat bilan oldinga intilmoqda. Butun

mamlakatlarda talonchilik, yong'in, dahshat va kulfat zo'raygan.

Shvedlar Kopengagen devorlariga yaqinlashishdi. Qahraton sovuq, bo'ron qorlarni to'zg'ityapti, shunday bo'sa-da, yurtini jordan sevgan, sadoqatli erkak va ayollar jangga shay turishibdi. Shahar devori ustiga hunarmandlar va do'kondorlar, studentlar va magistrler - hamma chiqqan. Hech kim ajal olovi purkovchi zambaraklarning og'zidan cho'chimadi. Qirol Frederik kindik qoni to'kilgan yerda o'limiga rozi bo'lib, qasamyod qildi. Ana, qirol malika bilan o'rnidan qo'zg'aldi. Qalbi jasorat, vatanga muhabbat tuyg'ulariga to'lib-toshgan odamlar jangga shay. Qani, kafanga o'ralgan shvedlar qor ustida o'rmalab, shahar ostonasiga yaqinlashib ko'rsinchil. Ular sal oldinga siljishi bilanoq devor ustidan xoda va toshlar yog'iladi, xotinlar qozon olib kelib, hujumga o'tgan dushman ustiga qaynoq qoramoy quyib yuborishdi.

O'sha tunda qirol bilan xalq yagona qudratli kuch bo'lib birlashdi, Ular shvedlar assoratidan qutuldi, g'alaba qozonishdi! Qo'ng'iroqlar jarangladи, xalq toat-ibodat qildi. Kopengagen xalqi, sen hozir ritsarlik shporiga ega bo'lding!

- Undan keyin nima bo'ldi? Endi manovi suratga qara!

Yepiskopning xotini Svane yopiq karetada ketyapti. Bunday huquqqa taniqli zodagonlar, qudrati zo'r dvoryanlargina ega. Mana, mag'tur dvoryanlar aravaning pachog'ini chiqarishdi. Endi yepiskopning xotini uyiga piyoda qaytishga majbur.

Bu bilan tamom deb o'ylaysanmi? Yaqinda yana ham katta narsalar parchalanib, xurofot sultanati yiqitiladi.

Burgomistr Gans Nansen yepiskop Svane bilan hamkorlikda xayrli ishni boshlab yuboradilar. Cherkovda ham, burgomistr uyida ham ta'sirchan va chin qalbdan nutqlar so'zlana boshlandi. Darvozalar berkitilib, bong urildi, eng og'ir damlarda yurtini tashlab ketmagan qirol butun mamlakatda hukmron bo'lib qoladi.

Bu yakka hukmronlik davri edi.

— Endi sahifani varaqlab, boshqa zamonalarni ko'ramiz.

«Ol, bos!» Omoch-bo'yinturuqlar uloqtirildi, dalalarni supurgigullar bosib ketdi. Bu yerlar ovbop yerkirada aylanibdi! «Ol, bos!» Atrofda ovchilar burg'usi ovozini, ovchilar hayqirig'i, ovchi itlarning vovillashini eshityapsanmi? Ovchilarni ham ko'ryapsanmi? Bu qirol Kristian V bo'ladi, u yosh, xushchaqchaq odam! Qal'ada ham, shaharda ham xursandchilik. Qal'ada shamlar, saroyda mash'alalar yonmoqda, shahar ko'chalarida fonarlar yoqildi. Hammayoq yaraqlaydi, hamma narsa yap-yangi. Germaniyadan chaqirilgan yangi dvoryanlar, graf va baronlar unvon, martaba olib qirol marhamatidan bahramand bo'lishibdi. Nemis tilining hurmati ortibdi. Qadimiy daniya tilida ovoz yangrab qolibdi: u to'quvchining o'g'li edi, endilikda yepiskop bo'libdi. Bu yepiskop Kingoning tovushi bo'lib, u duo o'qiyotgan ekan.

Yana uncha mashhur bo'limgan vinochining o'g'li bor ekan, uning aqli huquqshunoslik sohasida qirol nomining oltin oynasi bo'lib, qonunlari uzoq umr ko'ribdi. Oddiy odam farzandi, Daniyaning qudratli kishisi dvoryanlik gerbini olish sharafiga tuyassar bo'lib, o'ziga dushmanlar ham orttirib olibdi. Griffenfeldning boshida jallod qilichi o'ynabdi. Shu payt uning gunohi kechirilib, o'lim jazosi umrbod qamoqqa almashtirilibdi. Uni qoyatoshlari serob Tronxeym ro'parasidagi Munkxolm oroliga jo'natishibdi. Munkxolm — Daniyaning Muqaddas Yelena oroli ekan.

Saroy zallarida aslzodalar ilgarigiday raqsga tushishyapti, hashamat va dabdaba, o'yin-kulgi avjida, xonimlar bilan ularning xushtorlari o'yinga tushishyapti.

— Mana, Frederik IV zamoni ham yetib keldi.

Qara, kema ustida zafar bayroqlari mag'rur hilpirayapti! Mavj urayotgan to'lqinlarga boq! Ular Daniyaning ulug'vorligi, uning shon-shuhratni haqida qayta hikoya qilishga qodir. Biz Seestedt va Gyuldenlev singari g'oliblarning ko'plab nomlarini xotirlaymiz. Biz Daniya flotini qutqarib qolish uchun o'z kemasini

portlatgan va Daniya bayrog'i bilan birga osmonga uloqtirilgan Vidtfeldtni ham xotirlaymiz. Biz o'sha zamonlardagi urushlarni, Norvegiya tog'larida tug'ilib, Daniyani himoya qilgan qahramon Tordensheldni ham xotirlaymiz! Bepoyon va pishqirgan dengizda uning nomi gulduraydi, uning aks-sadosi uzoq-uzoq sohillargacha yetib boradi:

*G'azab-la chaqmoq urib qahqaha,  
Pardozim boshlardan to'zitdi upa.  
Go'yo chevar-yashin dushman zulmatin  
Yoritdi tashlab igna-savog'in.  
Shimolning ko'pirgan suvida hamon  
Yana vikinglarning ruhi hukmron.*

Grenlandiya sohillaridan esgan shamol muqaddas o'kaning xush bo'yini keltiradi: U Yevangeliya Gans Egede va uning xotini yorug'lik olib kelayotganini xabar qilibdi.

Shuning uchun sahifaning bir tomoni zarhal, ikkinchi tomoni motam belgisi bo'lganidan kulrang, qora dog'lari bor, uchqun kuydirganga, xuddi o'lat va kasalliklar asorati qolganga o'xshaydi.

Kopengagenda vabo tarqalibdi. Ko'chalarda odam ko'rinnmaydi, hamma eshiklar berk, hamma joyga bo'r bilan but surati chizib tashlangan emish, demak, ana shu uylarga vabo tekkan, agar but surati qora rangda chizilgan bo'lsa, o'sha uydagilarning hammasi o'rgan bo'lardi.

Kechalari o'liliklarni yig'ishtirishibdi, qo'ng'iroqlar jaranglamay qo'yibdi, uylardan o'layotgan odamlarni olib chiqishibdi, aravalarning ovozi eshitilibdi, unga o'liliklarni sarjin qilib qalashtirishibdi. Mayxonalardan bema'ni qo'shiqlar, mastlarning hayosiz baqiriq-chaqiriqlari eshitilib turibdi. U yerdag'i odamlar dahshatli kulfatni biroz bo'lsa-da, unutish uchun qo'shiq aytishyapti! Qachon bo'lmasin hamma narsaning ham oxiri bo'ladi-da. Kopengagen boshiga tushgan dahshatli vabo hamda sinov daqiqalari ham tugadi.

Qirol Frederik IV hali hayot, yillar uning sochini qorday oqartirib yuborgan. U o'z qal'asi derazasidan tashqariga qarayapti; kech kuz payti bo'lgani uchun havoning qovog'i soliq emish.

G'arbiy darvoza yonidagi kichkinagina uyda bir bola koptok o'ynayapti, uning koptogi chordoqqa tushib qoladi. Bola sham olib, koptogini axtaribdi, bir vaqt shamdan o't chiqib, uy yonib ketibdi, yong'in ko'chaga o'tibdi. Alanga osmon betini qoplab olganidan hatto bulutlar ham yorishib ketibdi. Alanganing osmonga o'tlashini qara! Yonginga yem bo'ladigan narsalar ko'p, bu yerda somon ham, poxol ham bor emish. Hamma narsa yonibdi. Atrofda yig'i-sig'i, oh-voh, sarosima ko'tarilibdi. Ana shu to's-to'polonda qirol otilq kelibdi, odamlarni yupatib, yo'l-yo'riq ko'rsatibdi. Porox portlab, uylar qulabdi. Shimoliy rayon yong'in ichida qolibdi, avliyo Petr, Bibi Maryam cherkovlari yonibdi! Eshityapsanmi, organ oxirgi marta: «Ey, parvordigor, g'azabingdan qaytl!» - deb jaranglabdi.

Faqat Dumaloq minora bilan qal'agina omon qolibdi. Hammayoqda kul, tutun. Qirol Frederik IV xalqni sevadi, u ochlarni yupatib, qornini to'yg'azadi, uysizlarga yordam beradi. Hamisha omon bo'l, Frederik IV!

- Endi manovi varaqqa qara!

Zarrin karetani ko'ryapsanmi? Yonlarida mulozimlar, orqa va oldida qurolli chavandozlar borishyapti, kareta saroydan chiqib kelyapti, saroy qarshisidagi maydonga xaloyiq kirmasin uchun temir zanjir o'ralgan. Oddiy odamlar maydondan o'tayotganda bosh kiyimlarini olishi kerak, lekin odamlar ko'p emas, ular maydonni aylanib o'tishyapti. Ana, bir nuqtaga tikilganicha bir odam kelyapti. U shlyapasini qo'liga ushlab olgan, o'sha zamon haqida gapirarkanmiz, albatta bu odamni sharaflaymiz.

*Qalam tili va qudrati bilan  
Kelajakka bo'lди o'tmishdosh.  
Yot tillar jarangin quvdi umrbod  
Sahnamizda porladi quyosh.*

Bu eng ziyrak, eng quvnoq kim o'zi? Lyudvig Xolberg! Uning qo'li ostidagi Daniya teatri va saroy yovuzlik maskaniday yopib qo'yildi. Xursandchilik barham topdi, raqs, ashula va musiqa taqiqlandi. Xristianlikning zulmatga to'la zamonlari boshlandi.

– Onasi uni Daniya shahzodasi deb erkalardi. Vaqt kelib, u quyosh, qush sayrashi, xursandchilik, Daniya tili va shavq-zavqini olib keldi. Frederik V qirol bo'ldi. Saroy maydonidagi zanjirlar olib tashlandi, Daniya teatri yana ochildi, hammayoqni xursandchilik va qahqaha egalladi, odamlar shod-u xandon. Dehqonlar yozda shaharga kelishadil Xafalik o'tnini xursandchilik egalladi. Go'zallik barq urdi, uning mevalari musiqada, tasviriy san'atda, haykaltaroshlikda aks etdi. Gretri musiqasini eshityapsanmi? Ko'ryapsanmi, sahnada Londemani o'ynayapti. Qirolichcha daniyacha hamma narsalarni sevadi. Saxovatli va go'zal Luiza Angliyskaya, seni Xudo yarlaqasin! Quyosh nurlari Daniya mamlakati qirolichalari Filippa, Yelizaveta, Luizalarga shonsharaflar bo'sin deb kuylamoqda.

– Chirigan tana allaqachon dafn etilgan bo'lsa-da, lekin ularning ruhi va nomi hamon tirik. Yoshgina qirol qallig'i Matilda bir o'zi Angliyadan qaytib keldi. Ey, malika, seni shoirlar uzoq vaqt kuylashadi, yosh qalbing og'ir izardob chekkanini hammaga ma'lum qilishadi. Qo'shiq chegara bilmaydi, uning qudrati zo'r. Kristian qal'asining yonishiga qara! Eng qimmatbaho narsalarni qutqarib qolish kerak. Odamlarning u yerdan savatda kumush va qimmatbaho toshlarni olib chiqayotganini ko'ryapsanmi? Bular katta boylik. Odamlar to'satdan ochiq eshikdan yong'inda qolgan qirol Kristian IV ning byustini ko'rib qolishadi. Ular qo'llaridagi oltin, kumushlarni tashlab, byust tomon yugurishadi. Qirolning byusti ular uchun juda qadrli, u qancha og'ir bo'masin, baribir uni qutqarib qolish kerak-da. Axir, ular bu qirolning nomini Xartmanning Evalda qo'shig'idan yaxshi bilishardi.

So'z va qo'shiqning qudrati benihoyadir. Qo'shiqlarda qashshoq qirolicha Matildaning nomi ham mag'rur jaranglaydi.

— Keyingi sahifani ochaylik!

Ulfeld maydonida la'nat toshi turar edi: kishilarni sharmandai sharmisor qiladigan tosh boshqa qayerda bor? G'arbiy darvozadagi kolonnalar tiklanibdi; bunaqa kolonnalar jahonda ko'pmikin?

Hozir ozodlik yodgorligi o'rnatilgan toshdan quyosh nurlari bo'sa olibdi. Qo'ng'iroqlar jaranglabdi, bayroqlar hilpirabdi, xalq shodiyonasi avjga minibdi va taxt egasi shahzoda Frederikni sharaflabdi. Katta-yu kichik — hammaning dilida Bernstorf, Revontlov, Kolbernson nomlari saqlanibdi. Yodgorlikka bitilgan quyidagi so'zlarni o'qib, odamlarning ko'zi sevinchdan chaqnab, qalblari minnatdorchilik his-tuyg'ulari bilan to'lib toshibdi.

«Qirol amr qildi; krepostnoylik huquqi barham topdi, bugundan boshlab boshqa qonun kuchga kiradi, ozod bo'lgan, jasur va ma'rifatli, tirishqoq va saxovatli, halol dehqon oddiy fuqaro va baxtiyor kishi bo'ssin!»

Olam naqadar charog'on! Shahar bamisoli yashnagan yoz!

Olam ruhi kuylab yuboribdi: «Yaxshilik o'syapti! Go'zallik o'syapti! Hademay Ulfeld maydonidagi tog' ag'dariladi, lekin xudo, qirov va xalq e'zozlagan «ozodlik yodgorligi» quyoshda yashnab turadil!»

*Bizda ko'hna bir yo'l bor nuqul  
Dunyo chetiga yetkazar butkul.*

Ochiq dengiz, u do'stga ham, dushmanga ham ochiq, bir kuni yov kelibdi. Dushman kemalari — qudratli ingliz floti suzib kelibdi, ulug' davlat kichik mamlakatga hujum boshlabdi. Tengsiz kurash bo'lib, bu kurashda xalq jasorat ko'rsatibdi.

*Har botir jang qildi mardona  
Ajaldan qo'rqmay, to'lib paymona.*

Botirlar tengsiz jang qilib, dushmanni lol etib, buni ko'rgan Daniya kuychilar iilhomlanib ketibdi. Jang bo'lgan kunni hozirgacha bayroqlar ko'tarib nishonlashadi – Daniya xalqi ikkinchi aprel payshanba kuni bo'lib o'tgan shonli jangni hamon xotirlaydi.

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Zundda flot paydo bo'libdi. U kimga qarshi jang qilmoqchi – Rossiyaga qarshimi yo Daniyagami? Buni hech kim, hatto ingliz matroslari ham bilishmas emish.

Xalq o'tasida shunday gap yurar ekan: o'sha tongda bo'g'ozga kirilganda konvert olibdi, unda Daniya floti egallab olinsin, deyilgan ekan. Bir vaqt boshliq oldida niyati sof, xatti-harakatlari samimiy, halol, Britaniya farzandi yosh kapitan hozir bo'lib, shunday debdi: «Men so'nggi nafasimgacha ingliz bayrog'i ostida ro'yrost, halol jang qilishga qasamyod qilaman, ammo o'zimdan ojizlar bilan aslo jang qilmayman.

U ana shu so'zлarni aytib, o'zini dengizga tashlabdi.

*Kopengagen sari kelar la'nati flot  
Xilpiraydi bayroqlar, dengiz ko'pirib.  
Suv tubida uxlaydi kapitan, hayhot  
O'z qa'riga olmish uni qora to'lqinlar.  
Shvedlar yigitni topdi nogahon,  
E'zozlab sohilga qo'yishdi asta.  
Kun tig'ida jilolandi yarqiroq pog'on.  
Shildiradi hoshiyalari yelga payvasta.*

Dushman Kopengagenga yaqinlashib, shaharga o't qo'yibdi. Biz o'z flotimizdan ayrildik, lekin jasoratni, xudoga e'tiqodni yo'qotmadik, uni parvardigorning o'zi jazolaydi, shu bilan birga qutqaradi ham, u'tubbsiz o'pqonga tashlaydi-da, undan o'zi chiqarib oladi. Yaralar botirlarnikiga o'xshab tezda bitib ketadi. Kopengagen

tarixida ko'plab tasalli beruvchi damlarni uchratish mumkin.

*Oollo shafqati-yu marhamatiga  
Elning e'tiqodi edi ko'p cheksiz.  
Qayg'uli damlarning g'am-kulfatiga  
Chidolsak yorug' kun kelar shubhasiz.*

Ko'p o'tmay aql va iste'dod sarflab qurilgan shahar, serhosil ekinzorlar ustida yana quyosh charaqlabdi, ajoyib va fayzli yoz mavsumi boshlanibdi, poeziya Elenshleger qo'li bilan ko'z qamashtiruvchi samoviy qasrini bunyod qilibdi.

Fan sohasida o'tmishning oltin burg'u singari topilmalaridan ham ulug'roq, zo'rroq kashfiyotlar qilinibdi: oltin ko'priq «tafakkur ko'prigi» topilibdi.

*Ko'priordan g'irillab o'tar flkrlar,  
Zamon va ellarni qarshilab mudom.*

O'sha yerga Gans Xristian Ersted o'z nomini yozib qo'yibdi. Qora cherkov yaqinidagi qasr oldiga bino qurilyapti, unga eng kambag'al odam ham qo'lida borini berishga tayyor.

Kitobning dastlabki varaqlaridagi suratlarni xotirla, unda norveg tog'laridan qulab tushgan qadimiy qoyatoshlar bor edi; muzlar ularni bu yoqqa olib kelgan, ular dengiz tubidan yuqoriga ko'tarilgan hamda Torvaldsening buyrug'i bilan ajoyib marmar toshlarga aylangan, ular juda chiroyli!

Dengizning ko'tarilgani, gavanni himoya qilgani; unda Aksel uyi, yepiskop qal'asi, qirol saroyi qad ko'targanini aytganim esingdami? Endi bu yerda go'zallik qasri savlat to'kib turibdi. La'nat so'zlarini shamol har yoqqa to'zg'itib yubordi, quyosh bolalarining kelajak haqida kuylab, qilgan orzulari ro'yobga chiqdi.

Qanchadan-qancha bo'ronlar bo'ldi, yana bo'ron ko'tarilib, hujum qilishi mumkin, ammo ular ham o'tib

ketadi. Lekin haqiqat, yaxshilik, go'zallik o'z o'rnida qolaveradi.

Shu bilan kitob ham tugadi, biroq Kopengagen tarixi hali tugagani yo'q. Kim bilsin, ehtimol o'zing ham hali ko'p narsalarni ko'tarsan!

Osmanni bir necha bor qora bulutlar qoplabdi, bo'ronlar bo'kiribdi, lekin ular quyoshni haydab yubora olisholmabdi, u o'z o'rnida turaveribdi. Eng qudratli quyoshdan ham qudratli parvardigorning o'zil U o'z qolida faqat Kopengagenni ushlab turgani yo'q.

Tutingan otam shu gaplarni aytib, qo'limga albom-kitobni tutqazdi. U o'zining haqligiga qattiq ishonganidan hatto ko'zları ham odatdagidan ko'ra boshqacharoq charaqlab ketdi. O'zim ham behad xursand bo'lib, go'dak singilchamni avaylab ko'tarib olganday, kitobni faxrlanib qo'limga oldim.

Tutingan otam shunday dedi:

- Bu kitobni istagan odamingga ko'rsatishing, gaplarimni, albomga suratlar yopishtirib bezaganimni ham aytishing mumkin. Eng muhimi, o'sha odamlar buni qanday o'ylab topganimni bilishsin. Sen bilganlaringni hikoya qilib ber! Bu fikrlarni oxirgi marta yoqilgan ko'hna yog'chiroqlar aytib bergan, dastlabki chiroqdan tortib to so'nggi marta yoqilganigacha, Kopengagen ham yog'chiroq, ham gaz chiroqlar bilan yoritilgan kungacha yashab o'tgan ota-bobolarning ko'rgan-kechirganlarini samoviy rasmlar orqali ko'rsatib berishdi.

Kitobni istagan odamingga ko'rsatishing mumkin, lekin ular sof niyatli, halol, fikri ravshan odamlar bo'lsin, bordiyu qachon bo'lmasin o'lik ot kelib qolguday bolsa, o'shanda darhol «tutingan otang albomi»ni yopib qo'y.

## KEKSA BO'YDOQNING TUNGI QALPOG'I

Kopengagen shahrida nomi g'aroyib – Xyusxenstrede ko'chasi bo'larkan. Ko'chani nega shunday deb atashadi, buning ma'nosi nima? Nomi nemischaga o'xshab ketarkan, biroq bu shu qadar buzib aytilgan ekanki, asti qo'yaverasiz. Aslida Hauschen deyish kerag-u, ammo Xyusxen deyisharkan; Hauschenstrayede degani kichik uychalar ko'chasi, degani ekan. Chindan ham qadim zamonda bu ko'chada yarmarka tomoshaxonalariga o'xhash, ulardan sal kattaroq derazali uylar joylashgan ekan. Lekin derazalarning oynasi bo'lмаган ekan, ularning o'miga chipta yoki ho'kiz terisini tutisharkan, o'shanda oyna qimmat bo'lganidan derazaga oyna qo'ydirishga hammaning ham qurbi yetavermas ekan. Bunga ko'p zamonlar bo'libdi, hatto bobolarimizning bobolari ham o'shanda «eng qadimiy zamon» deb gapirisharkan. O'shandan beri bir necha yuz yil o'tibdi.

O'sha vaqtarda Kopengagenda Bremen va Lyubek shaharlarining boy savdogarlari o'z gumashtalari orqali savdo ishlari olib borarkan. Xuddi o'shalar kichik uychalar ko'chasi dagi mayda yog'och kulbalarga joylashgan ekan; har bir uychaning pastki qismida do'konlar joylashgan bo'lib, ularda pivo va ziravorlar sotilarkan. O'sha davrlarda nemis pivolari dong taratgan ekan, ularning xil va navlari juda ko'p ekan. Bremen, prus, em, braunshveyg navlari bo'lar ekan. Ziravorlardan za'faron, arpabodiyon, zanjabil, hammasidan ham qalampirning bozori chaqqon ekan; qalampir savdoning asosiy dastmoyasi ekan, shu vajdan nemis gumashtalarini Daniyada «qalampir shovvozlari» deb atasharkan. Xo'jayinlari ulardan begona yurtdan uylanmaslik haqida so'z olishgan ekan, ular to qarigunlariga qadar bo'ydoqligicha qolisharkan. Ularning kiyimini hech kim tikmas, kir-chirini yuvmas ekan; ro'zg'or ishlarini o'zлари qilishar, o'chog'i borlar o't yoqib, o'zлари ovqat pishirisharkan. Ularning ko'plari hali aytilganday,

qariguncha yashabdi; ularda qari bo'ydoqlarga xos o'z didi, odatlari yuzaga kelibdi, shu alfozda umr o'tkazishibdi. O'sha davrlardan boshlab qariguncha uylanmagan kishilarni «qalampir shovvozlar» deyish odat tusiga kirib qolibdi.

Ertagimizni tushunish uchun shularni bilish kerak.

Keksa bo'ydoqlardan hamma kularkan, chunki ular tungi qalpoqiarini bostirib kiyganicha yonboshlab yotishdan boshqa narsani bilishmas ekan-da. Hatto bo'ydoqlar haqida qo'shiq ham to'qishibdi:

*Arrala o'tin,  
Hoy, keksa bo'ydoq!  
Soching oq, butun  
Hamrohing tungi qalpoq..*

Ha, ular haqida ana shunaqa qo'shiq to'qishibdi! Bo'ydoqdan ham, uning boshidagi qalpoqdan ham kulishsa-da, ular haqida kim nima biladi? Evoh, hech kim ana shu «tungi qalpoq»ning egasi bo'lmasin! Nega deysizmi? Mana, eshitining!

Qadim zamonalarda kichik uychalar ko'chasida tosh yo'l yo'q ekan, odamlar go'yo kavlab tashlangan qatnov yo'lidan yurganday yurisharkan. Buning ustiga ko'chaning torligini aytmaysizmi? Uylar bir-biriga qapishib ketganidan ikkita bir-biriga qarab turgan uylar oralig'ida judayam tor yo'l qolarkan, natijada har ikkala uy oralig'iga yozda yelkan yopib qo'yisharkan, butun ko'cha bo'ylab tim hosil bo'larkan, tim tagida qalampir, za'faron va zanjabil hidi gupillab ketarkan. Peshtaxta orqasida yosh gumashtalar oz bo'lib, aksariyati chollar bo'larkan. Biroq ularning hammasi yasama soch yoki tungi qalpoq, uzzasiga arang yetadigan charm shim, hamma tugmalari qadalgan kurtka yoki kaftan kiyib yurarkan, deb o'ylamang. Yo'q, ularning bobokalonlari ana shunday kiyinishgan, suratlari ham ana shunday kiyimda chizilgan. Qalampir shovvozlar o'z suratlarini

chizdiray desa, hamyonlari ko'tarmas ekan, biroq ulardan eng qariyasining peshtaxta orqasida turgan yoki bayram kuni cherkovga ibodatga borayotgan paytini suratga tushirsa arzir ekan! Ularning kiyimi soyaboni keng, cho'qqayma shlyapadan (gumashtalarning yoshroqlari ko'pincha shlyapalarini pat bilan bezasharkan), qaytarma bo'z yoqali jun ko'yakdan, tugmalari qadalgan kurtkalardan, splash va shimdan, tumshug'i yalpoq kavushlardan iborat ekan, ular paypoq kiyishmas ekan. Bellariga pichoqqoshiq va pichoq taqib yurisharkan, o'sha zamonlarda katta pichoq taqishga ehtiyoj zo'r ekan. Bayram kunlari Kichik uychalar ko'chasida azaldan istiqomat qiluvchi keksa Anton ham ana shunday kiyinarkan, u shlyapa o'niga qulqochin, uning tagidan chinakam tungi qalpoq kiyib yurarkan. Chol qalpoqqa shunchalik o'rganib ketgan ekanki, kechasi ham, kunduzi ham qaipoqsiz yurmas, kunduziga ham maxsus qalpoqlari bor ekan. Qalampir shovvozlar suratini xuddi mana shu Antonga qarab chizish kerak: uning eti suyagiga yopishgan, og'iz va ko'z atroflarida sanoqsiz mayda ajinlar, qoqsuyak barmoqlari uzun, ko'zi ustida qalin oppoq qosh, chap qoshining yonida Antonga husn bag'ishlamasa-da, harholda, uni taniqlik qilib turadigan bir tutam uzun soch. Odamlar Antonni bremenlik deyisharkan, aslida esa uning xo'jayini Bremenda yasharkan. U esa Tyuringiyaning Eyzenax shahridan bo'lib, Vortburg yaqinidan ekan. Biroq Anton o'z yurti haqida to'lib-toshib gapirishni yoqtirmas ekan, lekin u haqda ko'proq o'yarkan.

Keksa gumashtaiar bir-birlari bilan kamdan-kam ko'rishar, ko'pincha har biri o'z burchagida o'tirar ekan. Do'konlar ancha erta yopilar va uychalarga darhol qorong'ilik cho'karkan; faqat chordoqdagi hujrachaning tuynukday derazasidan, tom tagidan miltillagan yorug'lilik tushib turarkan; shu hujrada yashovchi qariya bunday paytlarda yotadigan o'niga o'tirib, qo'liga nemischa duo kitobini olarkan-da, kechki duoni o'qirkhan yoki tun

oqqunga qadar orom bilmay o'z yumushlari bilan mashg'ul bo'larkan. Hayoti uncha gashtli emas ekan: hammaga begona bo'lib, musofirlikda yashash qanday taskin bersin! Hech kimning u bilan ishi yo'q, uning ham hech kim bilan ishi yo'q.

Bu ko'cha kimsasiz, qop-qorong'i, yog'ingarchilik avjiga mingan tunlarda yanada huvillab, fayzsiz bo'lib ko'rinarlar; butun boshli ko'chada bittagina chiroq, u ham bo'lsa ko'chaning eng oxirida, devorning Bibi Maryam surati tushirilgan joyiga qo'yilgan ekan. Ko'chaning boshqa bir uchi kanalga taqlaganidan, sohilning yog'och qoplamasiga suv chapillab urilgani eshitilib turarkan. Bunaqa oqshomlar biror narsa bilan mashg'ul bo'imasangiz juda uzoq tuyularkan. Keksa bo'ydoq nima bilan mashg'ul bo'lardi? Mollarni yoyar va yana o'rab qo'yarkan, qalampir solish uchun qog'ozlarni karnaycha qilib qo'yarkan, tarozilarni har kuni tozalamasa ham bo'laverar ekan; boshqa biror ish bilan mashg'ul bo'lish kerak-da. Keksa Anton o'zibop ish topib olibdi - kiyim va etigini o'zi yamarkan. Nihoyat, o'ringa yotgach, odati bo'yicha qadrdon qalpog'ini ko'zigacha tushirib kiyarkannda, sham yaxshi o'chirilganini ko'rish uchun yana sal ko'tararkan, stol ustidagi shamni paypaslab topib, pilikni ikki barmog'i bilan ezg'ilarkan, keyin o'ringa cho'zilib, bir yoni bilan yonboshlab, qalpog'ini qoshigacha bostirib qo'yarkan. Xuddi ana shu daqiqalarda uning miyasida do'konda qolgan manqaldagi ko'mir yonib bitganmidi, yo'qmi, degan fikr kelarkan. Bitta uchqun sachrasa kifoya - falokat yuz berdi deyavering! U yana o'rnidan asta turarkan, narvon deyish qiyin, ammo ko'rinishdan narvonga o'xshagan bir narsadan sekin pastga tusharkan, manqalning oldiga borgach, unda yiltiragan birorta ham cho'g' qolmaganiga ishonchi komil bo'larkan. Endi hujrasiga bemalol qaytsa ham bo'laverar ekan-u, lekin ko'pincha yarim yo'lda yuragiga g'ulg'ula tushar ekan: eshik va darchalarning ilgagi solinganmikin deb, qiltiriq oyoqlarini arang sudrab pastga tusharkan. To o'ringa

borib yotguncha sovuqdan tishi taqillab, a'zoyi badanini titroq bosarkan; titroqning ham esi bor-da, kishi issiq o'rindan qo'zg'alganini ko'rsa darhol hujumga o'tadi. Anton bir kuni joyiga kelib yotgach, par ko'rpani ustiga yopib, qalpog'ini ko'zigacha tushiribdi, o'ylari kunduzgi g'am-tashvishlardan xoli bo'libdi, lekin u taskin beruvchi o'ylar emas ekan! Tashvish va g'am o'rnini o'tmisht xotiralari egallabdi, uning ko'z oldidagi devorga o'zining rango-rang gilamini ilib qo'yibdi. Lekin bu gilamda ignalar ko'p bo'lib, nayzasini shunday sanchar ekan-ki, og'riqdan beixtiyor dodlab yuborish hech gap emas ekan. Agar uni nozik joyingizga chuqurroq botirilsa, hatto ko'zdan yosh chiqarishi ham mumkin! Anton buning azobini ko'p marta tortgan ekan. Uning ko'zidan par ko'rpgaga yoki polga tushgan gavharday tiniq, musaffo tomchilar xasta yurak torlari uzilganday jaranglab ketar ekan. Ko'zyoshlari ko'p o'tmay porlarkan, porlash oldidan xotiradan o'chmas, chuqur iz qoldirgan o'tmisht manzaralaridan birini yoritishga ulgurarkan, Anton ana shu ko'zyoshlarini tungi qalpog'ini bilan artar, ko'zyoshi va manzara artilarkan-u, biroq uning manbai qolarkan, ana shu manba qariyaning qalbi ekan. Manzaralar uning ko'z oldida jonli namoyon bo'lmay, balki eng qayg'uli, eng g'amginlari gavdalanarkan, ba'zan yorqin, quvnoq manzaralar ham ko'rinish qolarkan, xuddi ana shular uni chuqur qayg'uga solar, bir g'amiga o'n g'am qo'shar ekan.

«Daniyaning qora qayin o'rmonlari xo'pam go'zal-dal» deyishadi bizdagilar, biroq Anton uchun Vortburg atrofidagi qora qayin o'rmonlari bundan ham go'zal ko'rinarlar. Gurkirab yotgan o'simliklar qoplangan toshloq qiyalikdagi ulug'ver ritstar qal'asi atrofida o'sadigan qadrdon nemis emanlari uning nazarida Daniya dublaridan qudratliroq va izzatliroq ekan; bu yernikiga qaraganda qadrdon, gulga ko'milgan olmalar xushbo'yroq hid taratarkan! U hozir ham ularning hidini hidlayotganday, ko'zlaridan yosh dumalab tushibdi, lop etib yonib, birga o'ynayotgan ikki bolani - o'g'il va qiz

bolani ro'yi rost ko'rsatibdi. Bola yuzlari shirmonday, sochlari qo'ng'ir va ma'sum ko'zları moviyimish; u boy savdogarning o'g'li bo'lib, ismi Anton emish... Ha, bu uning o'zi emish! Qizchaning ko'zları, sochlari ham timqoramish, qarashlari ma'noli va dadilmish; bu shahar hokimining qizi Molli ekan. Ular olma o'ynab o'tirishgan mish, olmani silkitib, ichidagi urug'ining shiqillashiga qulog solishayotgan mish. Keyin ular olmani o'rtasidan kesishibdi, ikkovilariga yarimtadan olma tegibdi. Ular olmaning urug'ini ham taqsimlab yeishibdi, faqat bitta urug' qolibdi, qizcha uni ekishni taklif qilibdi.

— Undan nima chiqishini keyin ko'rasan! Butun boshli katta olma chiqadi, faqat birdaniga emas!

Shunday qilib, bolalar ishga tushib ketishibdi: tuproq solingan gultuvak topishibdi. Bola tuproqqa barmog'ini tiqib, chuqurcha hosil qilibdi, qizcha unga urug'ni tashlabdi, ikkovlari urug' ustini hafsala bilan berkitishibdi.

— Tag'in ertaga urug' undimikin deb bu yoqqa olib yurmagan! — debdi Molli Antonga. — Bunday qilib bo'lmaydi! Bir marta o'syaptimi, yo'qmi, ko'rmoqchi bo'lganman, bunday qilmaslik kerakligini tushunmabman, keyin gullari so'lib qolgan!

Gultuvak Antonda qolaveribdi, bola har kuni olma ko'karmadimikin deb xabar olib turibdi. Lekin tuvakda qop-qora tuproqdan boshqa hech narsani ko'rmabdi. Nihoyat bahor kelibdi, quyosh durustroq isita boshlabdi, tuproqdan ikkita nozik, mittigina yashil yaproq bo'y cho'zib chiqibdi.

— Bu men bilan Molli! — debdi Anton. — Xo'p ajoyib ish bo'ldi-dal!

Ko'p o'tmay uchinchi yaproq ham ko'rinishibdi. Bunisi kim bo'ldi ekan? Keyin yana va yana! Kunlar ketidan haftalar, haftalar ketidan oylar o'tibdi, urug'dan bir butun daraxt hosil bo'libdi. Bularning hammasini bir tomchi ko'zyoshi yoritibdi. Mana, uni artishgandan keyin hammasi ko'zdan g'oyib bo'libdi. Biroq ko'zyoshlari

manbai tūganmas ekan, bu manba esa keksa Antonning qalbi ekan.

Eyzenax yaqinidan balandgina tosh tizmalari o'tarkan; ana shu tizmalardan biri aylana yaydoq cho'qqi bo'lib, unda na daraxt, na buta, na o't-o'lan – hech narsa o'smas ekan, uni Zuhra tog'i deb atasharkan: rivoyatlarga ko'ra, bu yerda qadimiy ma'jusiylar ma'budasi Zuhra yashagan ekan; biroq nemislar unga o'zlaricha Golle xonim deb nomi qo'yib olishgan ekan. Bu joyni Eyzenaxdag'i yetti yashardan yetmish yashargacha hamma bilarkan. Bu joy hatto vartburglik minneznger oljanob ritsar Tangeyzerni ham maftun qilgan ekan.

Molli bilan Anton toqqa ko'p kelishar ekan, bir kuni qizcha:

– Qani, eshikni taqillatib: «Golle xonim, Golle xonim! Tangeyzerga eshikni och!» – deb qichqirgin-chi, – debdi.

Anton bunga jur'at etolmabdi, lekin Molli dadil va aniq qilib faqat: «Golle xonim, Golle xonim» debdi-yu, ammo qolganini g'o'ldirab qo'ya qolibdi. Antonning fikricha, u hech narsa demagan mish. Molli judayam jasur qiz ekan! Jasurligi shu darajada ekanki, o'z tengdoshlarining ichida faqat u Antonni o'pib olishga jur'at qilgan ekan, boshqa qizlar ham shunday qilishga qilishar ekanlar-u, ammo Anton ham qo'li, ham oyog'ini ishga solib, o'zini o'ptirgani qo'ymas ekan.

– Men esa o'pa olaman! – debdi Molli g'urur bilan, so'ng Antonning bo'ynidan quchoqlab olibdi.

Bu qizning tantanasi bo'libdi, Anton nima qilayotganini o'ylab o'tirmay, unga bo'ysunibdi. Eh, u naqadar shaddod, jasur qiz edi-ya!

Aytishlaricha, tog'da istiqomat qiluvchi Golli xonim ham go'zal ekan-u, ammo uning go'zalligi yovuzlikning vasvasaga soluvchi, ozdiruvchi husni ekan. Avliyo Yelizaveta dunyodagi eng barkamol husnu jamolga ega ayol deb hisoblanarkan. Mamlakat hukmroni, pokdomon, tyurenglik bu malika gertsogning ezgu ishlari shu yerlarda g'oyat ommaviy va mashhur bo'lib ketgan afsona

hamda rivoyatlarda yashar ekan. Kichik butxonaga uning surati, surat ro'parasiga kumush ischiroq qo'yilgan ekan. Biroq avliyo Yelizaveta Molliga hech o'xshamas ekan.

Bolalar o'tqazgan olma o'saveribdi, oxiri boqqa o'tqazishga to'g'ri kelibdi, olma ko'chati ochiq havoda shudring emibdi, quyosh nurida isinibdi, ancha baquvvatlashib, qishga ham bardoshli bo'libdi. Bahor faslida esa, qahraton qishdan omon-eson chiqib olganidan sevinganday gullabdi, kuzda ikkita nishona qilibdi: biri Molliga, ikkinchisi Antonga ekan – bundan oz olma qilishi mumkin emas ekan-da.

Olma daraxti shoshib o'saveribdi. Molli ham undan ortda qolmabdi: u o'zining latofati bilan xuddi olma guliga o'xsharmish. Biroq Anton bu guldan oxirigacha bahra ololmabdi. Hamma narsa o'tib ketadi, hamma narsa o'zgaradi-dal Mollining otasi jonajon yurtini tark etib, Molli bilan uzoq-uzoqlarga jo'nab ketibdi. Bizning zamonamizda qiz bilan yigitning qovushishi uchun bir necha soat kifoya qiladi, lekin ular jo'nab ketgan shaharga yetib borish uchun bir sutkadan ortiq vaqt kerak bo'lar ekan. U joy Eyzenaxning sharq tomonida, mamlakatning boshqa burchagida bo'lib, shaharni Veymar deb atasharkan.

Ayriliqdan Molli ham, Anton ham yig'labdi: ularning ko'zyoshlari qo'shilib, kishi ko'ngliga ziyobaxsh etadigan rangda tovlanibdi. Molli Antonga uni Veymardagi barcha hayot lazzatlaridan ham ortiq bo'ladigan kelajagini aytgan ekan!

Oradan bir, ikki, uch yil o'tibdi. Shu muddat ichida Mollidan ikkita xat kelibdi: bittasini bir dalol, ikkinchisini qandaydir yo'lovchi keltirib beribdi. Veymar yo'li yiroq, uqubatli bo'lib, turli shahar va joylardan ilang-bilang bo'lib o'tarkan.

Anton bilan Molli har gal Pristan bilan Izolda haqidagi afsonani eshitishganda, garchi Pristan nomi «g'urbat uchun tug'ilgan» degan ma'noni bildirsa-da, uning nazarida afsona o'zi bilan Molli haqida aytilganga o'xshab

ketaverarkan, vaholanki, Antonning nomi Pristannikiga mutlaqo mos tushmas ekan. Axir u Pristan singari «u meni unutdi» deb oh-voh chekmaydi-da. Aytmoqchi, Izolda sevgilisini unutmagan, ikkovlari qazo qilgach, har ikkovlarining jasadlarini cherkovning ikki tomoniga dafn qilishganda, ularning qabridan bittadan arg'uvon daraxti o'sib chiqqan, cherkov tomi ustida shoxlari bir-biriga chirmashib ketgan ekan. Bu afsona Anton uchun shunchalik nafis va qayg'uli tuyulgan ekanki, asti qo'yavering... Biroq uning Molli bilan bo'lgan munosabatlarida qayg'udan asar ham yo'q ekan. U doimo minnezinger Valter fon der Fogelveydining qo'shiqlarini ming'illab aytib yurarkan:

Oh, arg'uvonning tagida, jazirama sahroda!.. Ayniqsa, quyidagi misralar juda boshqacha jaranglarkan:

*Muattar o'rmondan yangrar baralla,  
Bulbulning xonishi, jarangdor yalla!*

Bu qo'shiq uning tilidan hech tushmas ekan; u Mollini ko'rib kelish uchun otliq Veymarga jo'nab ketayotgan oydinli tunda ham shu qo'shiqni aytibdi. U kutilmagan mehmon bo'lib bormoqchi bo'libdi, shunday bo'lib chiqibdi ham.

Uni xushnudlik bilan kutib olishibdi, qadahlarda vinolar ko'piribdi; u bu yerda quvnoq zodagonlar bilan uchrashib, shinam xonada, bilqillagan yumshoq ko'rpalarda yotibdi, harholda u bularni kutmagan, bularni orzu qilmagan ekan! U o'zini ham, boshqalarni ham tushunmabdi, lekin gap nimadaligini biz tushunamiz! Kishi uyda, oilada xursandchilik bilan qabul qilinishi mumkin, harholda u o'zini begonaday his qiladi; pochta aravasidagiday suhbatlashasan, tanishasan, tortinasan, o'zing chiqib ketging keladi yoki yaxshi qo'shningni bir iloj qilib kuzatib qo'yasan! Anton ham xuddi shunday ahvolga tushib qolibdi.

– Men halol qizman! – debdi unga Molli. – Bor gapni senga o'zim aytmoqchiman. Bolaligimizdan buyon ko'

narsa o'zgarib ketdi. Bu ichki hamda tashqi o'zgarishlar. Ko'nikish va xohish xalq oldida ojiz! Sen uzoqlarga ketyapsan, sen bilan yot odam sifatida ajralishga hech ko'nglim yo'q! Menga ishon, seni yaxshi ko'raman, lekin seni hozir bilganimday sevgandan ko'ra, boshqa odamga ko'ngil qo'ygan ma'qul. Men seni hech qachon sevmaganman! Bunga tan ber. Ko'nik... Xayr, Anton!

Anton ham «Xayr!» debdi. Uning ko'zlarida yosh yiltiramabdi, lekin ortiq Mollining sevgilisi bo'lomasligini anglabdi. Laqqa cho'g' bo'lgan yoki qirov bog'lagan temirni o'psangiz, labingizning bir qavat etini shilib oladi, Anton esa qizning labidan ham mehr, ham qahrla qattiq bo'sa olibdi!

Oradan bir kecha-kunduz o'tar-o'tmas u uyiga yetib kelibdi. Otini ham ayovsiz choptiribdi.

– Mayli! – debdi u. – O'zim haydalganman, men ham hamma narsani haydashni xohlayman, Golle xonim, la'nati ma'jusiy Zuhra xonimni eslatuvchi hamma narsalarni yer bilan yakson qilgim keladil! Olmani ham tag-tomiri bilan ko'chirib tashlayman. Mayli, u gullamasin, meva ham qilmay qo'ya qolsin.

Biroq daraxt emas, balki Antonning o'zi sinibdi: beomon bezgak uni yotqizib qo'yibdi. Uni qanday qilib oyoqqa turfizish mumkin! Majruh tana va aziyat chekayotgan jonni larzaga soluvchi barcha achchiq dorilardan ham achchiq – taqdir zarbasi kelib ulguribdi. Antonning otasi qashshoqlashibdi. Judayam og'ir, musibatlari kunlar eshik qoqibdi, baxtsizlik eshikni pachaqlab ichkariga kiribdi, qachonlardir badavlat bo'lgan xonadonga o'nashib olibdi. Antonning otasi kambag'allashibdi. Qayg'u va tashvishlar uning salomatligini izdan chiqarib, holdan toydiribdi, Antonning ham sevgi dardi va Molliga bo'lgan kekidan boshqa tashvishlari paydo bo'libdi. Endi u uyda ham xo'jayin, ham beka bo'lib qolibdi, ro'zg'ordagi hamma ishlar bilan shug'ullanibdi, hammayoqni tartibga keltiribdi, keyin o'z yurtini tark etib, bir burda non topish ilinjida begona yurtlarga jo'nabdi. U Bremenga boribdi, u yerda yo'qchilik

va g'am-g'uissa alamini tortibdi, bu azoblar jonni yo chiniqtirar yoki butunlay bo'shashtirib yuborar ekan - ba'zida bu hol haddan tashqari zo'rayib ketarkan. Bolaligida olam va odamlar haqidagi tasavvuri bir-biriga mos tushmaganday bo'lib ketibdi. «Minnezgerlarning qo'shig'i-chi, ular nima? - deb o'z-o'zicha o'yabdi u. - Ma'nosiz tovush!» Lekin ba'zida uning qalbida yana jozibali kuy jaranglab kelarkan, o'shanda uning ko'ngli yurnshab ketarkan.

«Parvardigor hammasini yaxshi tomonga buryapti! - debdi u o'z-o'ziga. - Mollini butun vujudi bilan menga bog'lab qo'ymay, juda yaxshi ish qildi. Baxt mendan yuz o'girgan hozirgi paytda bu nimalarga olib kelmasdi? Mening xonavayron bo'lganimni bilishi yoki gumon qilishidan oldin meni undan uzoqlashtirdi. Xudo mendan marhamatini ayamadi! Hammasi yaxshilik alomati! Xudo oqilona yo'l tutyapti! Qizning hech qanday aybi yo'q! Men esa undan nafratlandim!»

Yillar o'taveribdi. Antonning otasi olamdan o'tibdi; ularning qadrdon uylariga begona odamlar joylashibdi. Harholda Anton uylarini yana bir karra ko'rishga muyassar bo'libdi. Xo'jayini uni savdo ishlari bilan boshqa yoqqa jo'natibdi, u yo'l-yo'lakay jonajon shahri Eyzenax orqali o'tibdi. Qarasa, qadimiyl Vartburg qasri qoya ustida boyagiday turganmish; uning atrofini hamon tosh «monaxlar» va «monax ayollar» hamda bahaybat dublar qurshab yotganmish, hammasi bolalik davrida ko'rgandaymish. Zuhra tog'ining kumush cho'qqilari hamon quyosh nurida charaqlayotganmish. Qasr eshigini taqillatib: «Golle xonim, Golle xonim! Eshikni och, meni ona yer bag'riga yashirgill!» deb aytgisi kelibdi.

Bu qabih o'y bo'lgani uchun u cho'qinib olibdi, shu payt qush sayrabdi. Antonning esiga bolaligidagi qo'shiq tushibdi.

*Muattar o'mondan yangrar baralla,  
Vulbulning xonishi, jarangdor yalla!*

Bolaligi o'tgan shaharni ko'rishi bilan uning qalbida qanchadan-qancha xotiralar tug'yon uribdi, ko'zlaridan yosh shashqator bo'lib oqibdi. Ota uyi hamon eski joyida turganmish, lekin bog'ning bir qismiga qatnov yo'l qurilibdi, u sug'urib tashlamagan olma daraxti bog'da emas, balki yo'lning narigi tomonida qolibdi. Lekin quyosh uni hamon o'z nurida cho'miltirayotganmish, olma shabnam shimayotganmish, mo'l-ko'l meva tukkanidan shoxlari yerga egilib ketibdi.

— O'z holicha o'syapti! — debdi Anton. — Ahvoli qalay ekan?

Lekin uning bir shoxini qandaydir bema'ni qo'l sindiribdi; axir u qatnov yo'l chetida turibdi-da!

Hatto rahmat ham aytmay uning gullagan novdasini qayirib ketishadi, mevalarini o'g'irlab, shoxlarini sindirishadi. Ha, daraxt haqida ham odamlar to'g'risida aytiganidek: «Uning beshigi ustida, qachonlardir xuddi mana shunday qaqqayib turadi, deb alla aytilmagan!» deyish mumkin. Uning umr tongi shunchalik porloq, go'zal, lekin taqdir unga nima in'om qildiykin? Bog'daraxtiga ariq bo'yida, ochiq dalada, qatnov yo'l chetida o'sish nasib etibdi! U bu yerda yakka-yolg'iz, unutilgan, himoyasiz holda turibdi! Hamma uni yulqiydi! Shoxini sindiradi! Ammo u bu bilan so'lib qolmaydi, biroq yillar o'tishi bilan uning gullari kamayib boradi, meva tugmay qo'yadi, keyin umri ham tugaydi.

Anton daraxt tagida o'tirib ana shularni o'ylabdi; hech qachon uylanmaslik haqida bremenlik boy savdogar undan va'da olgandan keyin o'zi yuborgan begona yurt Kopengagenda, Kichik uychalar ko'chasiga joylashgan, xilvatgina hujrasida uyqusiz uzun tunlarni o'tkazganda xuddi shu fikrlar bir necha bor oromini buzgan. O'shanda u: «Uylanish? He-hel!» — deb g'alati kulib qo'ya qolgan ekan.

Shu yili qish erta kelibdi, sovuq avjga minibdi, tashqarida qattiq bo'ron bo'libdi, odamlar iloji boricha issiqliqna xonasidan chiqmay o'tirishaveribdi. Shuning uchun ham Antonning qo'shnilarini cholning do'konini ikki

kundan buyon ochilmayotganini payqashmabdi — uyda qolishning imkonini bo'lganda, shunday sovuqda kim ham tashqariga chiqardi?

Qish kunlari fayzsiz, g'amgin o'tibdi. Antonning kichik, xira derazalarida uzun tun ma'yus zimiston bilan almashaveribdi. Keksa Anton ikki kungacha o'rnidan turolmabdi — madorsizlanib qolibdi. Qish havosi a'zoyi badanini zirqiratib og'ritibdi. Har tomonlama unutilgan, yolg'iz, ojiz keksa bo'ydoq karavotda yotaveribdi, hatto bosh tomoniga qo'yilgan krujkani ham zo'rg'a qo'l uzatib olibdi. Biroq krujkada bir tomchi ham suv qolmagan ekan. Antonni bezgak ham, kasallik ham emas, qarilik yiqitib qo'yibdi. Anton uchun uzundan-uzun tun yetib kelibdi. Antonning xira ko'zları ko'ra olmagan kichkinagina bir o'rgimchak chol abadiy uyquga ketgunga qadar yangicha motam libosi to'qishga shoshilayotganday uning ustida o'z to'rini xushnud, astoydil to'qiy boshlabdi.

Antonni og'ir uyqu bosibdi. Ko'zidan yosh ham oqmabdi, og'riqni ham sezmabdi. Mollini ham xotirlamabdi. Olam o'zining shovqin-suroni va hayoti bilan ovoradek, u bilan hech kimning ishi yo'q emish. To'satdan uning qorni ohib, chanqaganday bo'libdi. Ha, u chindan ham ochlikni, tashnalikni his etibdi. Biroq hech kim unga suv bergani kelmabdi. U o'z yurti va bolaligining homisiy়ি, kambag'allarning kulbasiga o'zi tashrif buyurgan va hammaga umid, yengillik baxsh etgan Tyuringenning oljanob gertsog xotini avliyo Yelizavetani o'ylabdi. Antonning xayolida uning savob ishlari aniq jonlanibdi; u avliyoning uqubat chekuvchilar yoniga kelib yupatishlarini, yaralarini yuvishlarini, garchi qahri qattiq eri g'azab qilsa-da, ochlarga non berishlarini xotirlabdi. Bir kuni odati bo'yicha avliyo Yelizaveta savatni ovqatlarga to'ldirib borayotgan ekan, to'satdan ro'parasidan uning har bir qadamini ta'qib qilib yurgan eri chiqib qolibdi, yo'lini to'sib, savatingdag'i nima, deb so'rabdi. Bechora avliyo qo'rqib ketganidan: «Bog'dan gul uzdim» debdi. Eri savat betidagi dasturxonni yulqib tortibdi. Shu payt

muruvvatli ayolning baxtiga mo'jiza yuz beribdi: savatdag'i vino va nonlar gulga aylanib qolibdi!

Avliyo Yelizaveta Antonning xayolidan hech nari ketmabdi, u Antonning karavoti oldida, ko'rimsiz hujrasida, begona yurtda xuddi tirikday turaveribdi! U boshidan qalpog'ini olib, uning ma'sum ko'zlariga boqibdi – atrof munavvar bo'lib, hujra ichi gulga to'libdi... Gullar shunaqayam muattar hid taratayotgan mishkil! Uning hidiga olma guli hidi aralashib ketibdi... Anton o'zini soya tashlab turgan olma tagida ko'ribdi. Bu olma daraxti bir vaqtlar Anton bilan Molli ekkan urug'dan ko'karib, shunchalik bo'lganmish.

Olma daraxti xushbo'y yaproqlarini Antonning lovillab turgan peshanasiga, quruqshagan lablariga to'kibdi, bundan u ancha dadillanibdi, u o'zini non yeb, vino ichayotganday his qilibdi, uning yuragi ham, o'zi ham yengillashibdi, shirin uyquga ketgisi kelibdi.

– Endi uxlayman! – deb shivirlabdi u. – Uyqu odamga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Ertaga yana sog'ayib, o'nimdan turib ketaman! Oh, qanday yaxshi, qanday yaxshi! Muhabbat urug'idan o'sib chiqqan olmaning gulga burkanganini ko'ryapman.

Shunday qilib, u uyquga ketibdi.

Ertasi kuni, bu uchinchi kun ekan, Antonning do'kon ochilmabdi – bo'ron tinibdi, qo'shnilar cholning holidan xabar olishibdi. Uni o'nida o'lib yotgan holda ko'rishibdi; u tungi qalpog'ini qo'liga mahkam ushlab olgan ekan. Lekin qalpoqni Anton bilan birga tobutga solishmabdi, chunki undan tozarog'i, kiyilmagani bor ekan-da.

Antonning ko'zyoshlari qayoqqa ketdiykin? O'sha durdonalar qayoqqa yo'qoldiykin? Durdonalar uning tungi qalpog'ida qolibdi, chunki ularni hech qandaysovun bilan yuvib bo'lmaydi-da, ko'zyoshlar qalpoqda yashiringan va unutilgan holda qolaveribdi. Uning barcha orzulari, o'y-fikrlari ham keksa bo'ydoqning qalpog'ida qolibdi. O'sha qalpoqni kiyib ko'rishni xayolingizga ham keltirmang! Chunki peshanangiz misday qiziydi, qon

tomirlaringiz tez-tez ura boshlaydi, o'ngingizda ko'rganingiz singari tushlar ko'rasiz. Buni birinchi bo'lib qalpoqni kiygan kishi o'z boshidan kechirgan, bu hodisa oradan roppa-rosa ellik yil o'tgandan keyin yuz beribdi! Qalpoqni rohat-farog'atda yashayotgan xotin, o'n bir bolaning otasi bo'lgan shahar sudyasi kiyibdi, o'sha zahoti tushiga baxtsiz sevgi, xonavayron bo'lish, bir burda non uchun azob-uqubatlar chekish kiribdi.

— Vuy, bu qalpoqning qizitishini qarang-a! — debdi u qalpoqni boshidan yulqib olarkan, shu payt qalpoqdan bir necha durdona dumalab tushibdi; ular shunaqayam jaranglab, porlabdiki! Bu — bod! — xayol qilibdi bosh. — Qulog'im ham shang'illayapti, ko'zlarimdan ham o't chaqnab ketyapti!

Bular durdona emas, balki bundan ellik yil muqaddam eyzenaxlik Anton cholning to'kkkan ko'zyoshlari ekan.

Qalnoqni kim boshiga kiysa, yuqoridagidek qayg'uli tushlarni ko'raveribdi; tush ko'rgan odam Antonning iztiroblarini o'zi tortganday bo'larmish. Bu haqda bir emas, ikki emas, ko'pgina ertak to'qilibdi.

O'sha ertaklarni boshqalar aytaversin, biz ulardan bittasini aytdik. Ertakni: «Hech kim keksa bo'ydoqning qalpog'iga ega bo'lmasin!» degan so'zlar bilan tugataylik.

## G'ARQ BO'LGAN MONASTIR

Neyenkirxdan unchalik uzoq bo'lмаган qalin о'rmonzor orasida bitta ko'l bilan yalanglik yashiringan ekan; bu tomonlarga odamlar juda kam kelishar ekan, chunki bu yerning borligini kamdan-kam kishi bilar ekan-da. Ko'l va unga oqib keladigan irmoqlar chetidagi qora archalarda kishi qalbini notinch qiladigan allaqanday bir mung, qayg'u-xasrat alomatlari bo'lib, ular bu joylarni sirli parda bilan qoplab olganday ko'rinar ekan, bu yerlarda qushlar sayramas, quyosh nurlari ham tushmas, ko'l esa tubsiz, shu vajdan odamlar uni chetlab o'tib ketishar ekan.

Qadim zamonlarda bu yerda minoralari baland-balandoq, qizil g'ishtdan qurilgan devorlari orasida tosh haykallar qator ketgan qizlar monastiri bo'lar ekan.

Izg'irinli qish kunlarining birida monastirga bir bemor tilanchi chol kelibdi; tinka-madori qurigan chol eshikni taqillatib, tunashga ijozat so'rabdi. Biroq darvozabon hamshira dangasa va bag'ritosh ayol bo'lganidan, sovuq kunda pastga tushib, qulflarni ochib, tambalarni tushirib, eshikni ochgisi kelmabdi. Shuning uchun u cholni yo'lingdan qolma, boshqa joyda tunashga joy axtar, deb jerkib beribdi. Lekin musofir chol shu qadar charchagan vasovqotganidan o'rnidan turib yurishga madori yo'q ekan; u yana yolvorib iltimos qilibdi, ko'ziga yosh olibdi, biroq iltijolari zoye ketibdi. Hamshira ham, boshqa monax qizlar ham uning oh-vohiga parvo qilishmabdi, faqat hali monaxlikni bo'yniga olmagan hamshiralardan biri cholning ko'zyoshlariga rahmi kelib, uning yonini olibdi, lekin monax qizlar uni jerkib, soddaligidan kulishibdi, bechora chol bo'lsa tashqarida qolib ketibdi.

Shu payt havo battar sovubdi, chol hassasini ushlab turib devorga suyangan ekan, o'sha zahoti hech kim kirolmaydigan monastir yer qa'riga kirib ketibdi. Monastir cho'kib ketgan o'pqonlikdan olov va tutun ko'tarilibdi, so'ng o'pqonlik bir zumda suvga to'libdi. Ertalab bo'ron tinganda quyosh nurlari baland qo'ng'iroqxonada qo'ng'iroqlarida jilolangan kechagi joyda katta ko'l hosil bo'libdi.

Cholga achingan ko'ngilchan va rahmdil hamshira o'sha o'lkadagi eng badavlat bir ritsarni dil-dilidan yaxshi ko'rар ekan, shuning uchun ham monastir qizga zindonday tuyular ekan. Ritsar bir necha marta o'mon orqali yashirin holda monastirga kelibdi. Hamma uyquga ketganda monastir hujrasi derazasining panjarasi oldida qiz bilan bir necha marta gaplashishib, tong oqarayotgandagina arang ajralishar ekan.

Bo'ron quturgan o'sha kuni ham ritsar monastirga kelibdi, biroq monastir o'rnida, quyuq tutun orasida

bilqillab o'kirayotgan suv tovushlarini eshitib, yurak-bag'ri ezilib ketibdi. Ritsar o'zini urib, o'kirib yig'labdi, sevgilisini bor ovozi bilan chaqiribdi, uning tovushi atrofda yangrabdi.

— Hech bo'lmasa bir marta seni bag'rimda ko'rsam armonim yo'q edi! — deb xo'tsinibdi u.

Shu payt o'pqonlik o'tnida ko'pirayotgan notinch ko'l ustida:

— Ertaga kechasi soat o'n birlarda xuddi shu yerga kel! To'lqinlar ustida qip-qizil ipak ipni ko'rasan, uni ushlab, tort! — degan ovoz yangrabdi.

Ovoz tinibdi. Ritsar yurak-bag'ri ezilib uyiga qaytibdi, taqdir uni nimalarga duchor qilishini xayoliga ham keltirmabdi. U ertasiga belgilangan muddatda o'sha joyga kelib, avvalgi kuni nima eshitgan bo'lsa, hammasini bajo keltiribdi.

U hayajondan titrab-qaqshab qondek qip-qizil ipni ushlab tortibdi — qarshisida sevgilisi paydo bo'libdi.

— Taqdir tavba qilmas menday begunoh qizni boshqa gunohkorlar qatori yer qa'rige tortib ketdi, — debdi qiz, — lekin menga tunda, soat o'n birdan o'n ikkigacha sen bilan ko'rishib turishga ruxsat berilgan; oldingda shu muddatdan ortiq turolmayman; agar shartni bir marta buzsam, meni umrbod ko'rolmaysan. Bundan tashqari meni sendan boshqa hech kim ko'rmasligi kerak, aks holda ko'zga ko'rinas qo'l mening umr iplimni uzib qo'yadi.

Ko'l sohilidagi uchrashuvlar bir necha marta takrorlanibdi, har safar ritsar qondek qip-qizil ipni tortganda moviy suv ostidan sevgilisi chiqar ekan. Ana shu yashirin uchrashuvlardan ular xursand ekan, hammaga dahshat soladigan, kimsasiz, avloq bu joyda birov bexosdan ko'rib qolishini ular xayollariga ham keltirishmas ekan. Biroq hasad va yovuzlik ritsarni ta'qib etibdi, kunlarning birida sevishganlar ko'l sohilida qo'l ushlashib sayr qilib yurishganini begona bir odam ko'rib qolibdi. Ritsar ertasiga jonajon ko'l sohiliqa kelsa, ko'ldagi

suv oy nurida qonday qip-qizil ko'tinibdi. U titrab-qaqshab qolni ipga cho'zgan ekan, u oqarib ketibdi, qarasa, ip uzilgan emish.

Ritsar o'zini har tomonga urib, yig'lab-siqtabdi, sevgilisini chaqirib ko'l bo'yida zir yuguribdi. Lekin hammayoq sokin emish. Bunga chidolmagan yigit o'zini ko'lga otibdi, to'lqinlar uni bag'rige olibdi.

## TUMOR

Bir shahzoda bilan malika yoshlik gashtini surib yashashar ekan. Ular baxtiyorliklardan mammun ekanlar. Baxtiyorligimiz umr bo'yи davom etarmikin, degan fikr ularga tinchlik bermas ekan. Ular o'zlarini har qanday balo-qazodan asraydigan tumor orzu qilishibdi. Er-xotin bir odam haqidagi ovozani eshitib qolishibdi; bu odam o'monda yashar, donishmandligi uchun uni juda hurmat qilishar ekan. U har qanday kulfat yuz berib, boshga mushkul ish tushganda oqilona maslahat bera olar ekan. Shahzoda bilan malika ana shu donishmand huzuriga borishibdi va ko'ngillaridagi gapni unga aytishibdi. Donishmand ularning gapini eshitib bo'lib, shunday debdi:

– Dunyo kezinglar, eng baxtiyor, hayotdan mammun er-xotinni uchratsangiz, ularning ko'ylagidan bir paroha so'rab olib, uni bo'yiningizga tumor qilib taqib yuringlar. Bu hayotda sinalgan usul.

Shahzoda bilan malika otga minib, yo'nga ravona bo'lishibdi, bir vaqt ular odamlardan boshqalardan ko'ra o'ta baxtiyor hayot kechirayotgan bir podsho haqida eshitib qolishibdi. Ular podsho qasriga borishibdi.

Podsho bilan malikadan rostdan ham ana shu ovozalar to'g'rimi, deb so'rashibdi.

– To'g'ril – deyishibdi ular, – faqat bitta g'amimiz bor: farzandimiz yo'q.

Demak, bu yerda tumor axtarishdan naf yo'q, deb shahzoda bilan malika baxtiyor va mammun er-xotinlarni axtarib, yana yo'nga tushishibdi.

Ular odamlarning mish-mishiga ishonib, xotini bilan ahil-inoq yashayotgan halol bir shaharlik odam istiqomat qilayotgan shaharga kelishibdi. Ular ana shu odam huzuriga borib, chindan ham baxtli hayot kechiriyapsizlarmi, deb so'rashibdi.

– Ha, baxtiyormiz! – debdi eri. – Er-xotin juda inoqmiz, ammo bolalarimiz ko'p, ularning tashvish-g'ami bizni ado qilyapti!

Demak, bu yerda ham tumor axtarishning hojati yo'q, shahzoda bilan malika yana yo'lga ravona bo'lishibdi, yurgan yo'llarida baxtiyor er-xotinlarni surishtirishibdi. Ammo bunaqa er-xotin hech yerdan topilmabdi.

Bir kuni ular dala va o'tloqlardan o'tib borishayotgan ekan, bir vaqt nay chalib o'tirgan bir podachini uchratib qolishibdi. Bundoq qarashsa, podachi oldiga emizikli bolasini ko'tarib, boshqa bir bolasini esa yetaklab bir ayol kelayotgan emish. Podachi ayolni ko'rishi bilanoq uning qarshisiga peshvoz chiqibdi, salomlashibdi, bolakayni uning qo'lidan olib, o'pib, erkalay boshlabdi. Podachining iti esa xursandligidan vovillab, likanglab bolaning yoniga chopib kelibdi, uning qo'lchalarini yalay boshlabdi. Bu orada ayol o'taga o'zi olib kelgan ko'zachani qo'yibdi.

– Dadasi, ovqatlanib oling, – debdi u.

Eri o'tirib ovqatlana boshlabdi, birinchi bo'lakni emizikli bolasiga, ikkinchi bo'lakni esa o'g'li bilan itiga bo'lib beribdi. Bu hodisalarni shahzoda bilan malika ko'rib turishgan ekan. Ular er-xotin oldiga kelib, savol berishibdi:

– Sizlar dunyodagi eng baxtiyor, mammun odamlar bo'sangiz kerak, to'g'rimi?

– Haq gapni aytdingiz! – debdi eri. – Xudoga shukur, baxtiyormiz. Dunyoda bizdan baxtli bironta shahzoda va malika yo'q.

– Bizga yordam beringlar, – debdi shahzoda, – yaxshililingiz sizlarga ham qaytadi! Egningizdag'i ko'ylagингиздан bir parcha yirtib bersalaringiz!

Bu gaplarni eshitib podachi xotini bilan g'alati ko'z urishtirib olibdi. Keyin shunday debdi:

— Xudo shohid, agar egnimizda ko'ylagimiz bo'lganida bir parcha emas, uni sizlarga yechib berardik. Xonadonimizda bir parcha latta ham yo'q.

Shahzoda bilan malika quruqdan-quruq yo'lga ravona bo'lishibdi. Nihoyat uzoq va befoyda jahongashtalik jonlariga tegib, ular uylariga qaytishibdi. Shahzoda bilan malika donishmand kulbasi yonidan o'tishayotganda, durustroq maslahat bermagani uchun undan gina qilishibdi, so'ng sayohatlari qanday o'tganini aytib berishibdi.

Donishmand jilmayib shunday debdi:

— Nahotki behudaga aylanib kelgan bo'salarining? Uylaringga ko'pni ko'rib, tajriba orttirib qaytmadilaring-mi?

— Men o'z baxting hamda taqdiringdan mamnun bo'lish katta baxt ekanligini angladim. Bu kishiga kamdan-kam nasib etadigan in'om ekan! — debdi shahzoda.

— Men esa baxtli bo'lishi uchun kishi o'z taqdiridan mamnun bo'lishi kerakligini uqdim! — debdi malika.

Shahzoda malikaga qo'llini uzatibdi, ular bir-birlariga mehr bilan boqishibdi. Donishmand ular haqiga duo qilib, shunday debdi:

— Sizlar o'z qalbingizdan chinakam tumorni izlab topdingiz! Uni avaylab saqlang, o'shanda hech narsadan qanoat qilmaslikdek yovuz ruh sizlarga yaqinlasholmaydi.

## KARTOSHKA

Yaxshi narsa qachon bo'lmasin qadr topadi, — deydi momom. — Kartoshkani olaylik, gapirishni do'ndirsa, u bu xususda talay gaplarni aytardi!

Chindan ham kartoshka uzoq yillar qadr topmadi. Hatto raqiblar ham va'z aytayotganlarida kartoshka bizga naf keltirish va shodlik baxsh etish uchun ato etilganini aytishdi: biroq bu gaplar behudaga ketdi: xalq bu gaplarga ishonmadi. Hatto qirollar odamlar eksin deb kartoshka tarqatdi. Lekin uni kim ekdi?

Mana, Prussiyani olaylik, u yerda Keksa Frits nomli ulug' qiroq bor edi; u juda ajoyib odam bo'lib, u ham kartoshka eka boshladi. U bir shahardan qirollikka bir arava kartoshka keltirdi, nog'oralar chaldirib, shahar aholisini katta maydonga to'pladi. Shahar kattalari xaloyiqqa kartoshka donalarini ko'rsatishdi, uni qanday ekish, parvarish qilish, undan qanday qilib ovqat tayyorlash yo'llarini baqirib-chaqirib uqtirishdi. Lekin bu gaplar u qulogdan kirib bu qulogdan chiqib ketdi. Odamlar nimalar gapirilganini uqishmay, xom kartoshkani tatib ko'tishibdi.

– Tuf, o'lgudek qo'lansaligini qarang! – deyishibdi va kartoshkani oqova oqadigan ariqqa uloqtirishibdi, ulardan hatto itlar ham hazar qilganini ko'tishibdi. Kartoshka ekadiganlar ham topilibdi: ular kartoshkalarni bir-biridan ancha yiroqqa ekib, undan daraxt unib chiqib, meva tugishini kutishibdi. Birovlar esa kartoshkalarni chuqurga tashlashibdi, natijada, ular bir-biriga yopishib, palak chiqaribdi. Kelgusi yil qiroq ishni yana boshqatdan boshlashga majbur bo'libdi, odamlar kartoshka ekishni bilib olgunga qadar oradan ko'p yillar o'tibdi.

– Hamma yerda shunday bo'lgan! Ollo Taolo biz bandalarga ato qilgan mevalarning eng zo'ri bo'lmish kartoshkani hech kim u vaqtarda qadrlamadi, – dedi momo. – Hozir uning bahosi yo'q! Hozir uni qadrlashyapti. Yaxshi narsa qachondir o'z qadrini topadi!

Odamlarning ahvoli tang bo'lib qolganda, xotiramga kartoshka va momomning gaplari keladi.

## SHOHLAR, MOTKALAR VA SALLOTLAR

Qog'ozdan kesib, yelimlab ajoyib o'yinchoqlar yasash mumkin! Kunlarning birida qog'ozni kesib, yelimlab, judayam katta o'yinchoq qal'a yassashibdi, u stol ustini butkul egallabdi, uni boplab bo'yashgan ekan, xuddi qizil g'ishtdan qurilgan qal'aga o'xshab qolibdi. Qal'aning

chiroyli mis tomi, minoralari, ko'tarma ko'priklari bo'lib, xandaqlaridagi suv oynaday tiniq ekan, chunki xandaq o'rniغا ko'zgu qo'yishibdi-da. Qorovullar turadigan eng baland minorada yog'ochdan yasalgan maxsus karnayi ham bo'lib, u chalinmas ekan.

Ana shu o'yinchoq qal'aning egasi Vilyam degan bola ekan, uning o'zi ko'prikni ko'tarar va tushirar, qalay askarlarni ko'prik ustidan saf tortib o'tishga majbur qilar, keyin qal'a eshiklarini ochib, kattakon ritsar zaliga mo'ralar ekan, zal haqiqiy ritsar zallariga o'xshagan bo'lib, devorlariga ramkalarga solingan suratlar osilgan ekan. Bular surat – kartalar bo'lib, ular karta dastasidan sug'urib olingan ekan. Ular ichida qo'llariga saltanat hassasi ushlagan, boshlariga toj kiygan tappon, g'ishtin, chillik, qora mashoq shohlar, qo'llariga gul yoki yelpig'ich ushlagan, ro'mollari yelkasidan pastga tushib turgan, boshiga jig'a taqilgan qalpoq kiygan, qo'liga bolta ushlagan sallotlar ham bor ekan.

Kunlarning birida u stolga yonboshlab, lang ochiq qal'a eshiklaridan ritsarlar zaliga mo'ralabdi, nazarida shohlar saltanat hassasini tik qilib salom berayotganga, qora mashoq motka qo'lidagi lola qimirlab ketganga, tappon motka esa yelpig'ichini ko'targanga o'xshab ketibdi. To'rttala malika Vilyamga sizni payqab turibmiz, deganday ishora qilishibdi. Bola ularni durustroq ko'rish uchun yanada yaqinlashibdi, lekin boshi qasrga tegib, qasr tebranib ketibdi. Shunda chillik, qora mashoq, g'ishtin, tappon – to'rttala sallot boltalarini birlashtirib, zal eshigini to'sishibdi, uning ichkariga kirishiga yo'l qo'yishmabdi.

Bola ularning niyatini fahmlabdi va do'stona bosh irg'ab, xavotirlanmang, debdi. Javob kutmasdan yana bosh irg'abdi, so'ng:

– Biron og'iz gapiringlar! – deb iltimos qilibdi u.

Lekin kartalar lom-mim deyishmabdi; shunda bola tappon sallotga bosh irg'abdi, u o'z kartasidan irg'ib chiqibdi, zal o'rtafiga kelibdi.

— Isming nima? — deb so'rabdi u boladan, — ko'zlarining ravshan, tishlaring durday, faqat qo'l yuvishni hush ko'rmaydiganga o'xshaysan.

Bolaga bu tanbehtar uncha yoqmabdi:

— Ismim Vilyam! — debdi bola, — bu mening qasrim, sen esa chillik sallotim bo'lasan!

— Men sening emas, balki tappon shoh bilan tappon motkaning sallotiman, — debdi sallot. — Men karta dastasidan ham, romka ichidan ham chiqsa olaman, zodagon janoblar haqida gapirmay qo'ya qolay. Biz jahongashtalik qilishimiz ham mumkin-u, lekin bu tezda janga tegadi; karta dastasida o'tirganimiz ma'qul.

— Demak, ilgari odam bo'lganlaring rostmi? — deb so'rabdi bola.

— Biz ham odam bo'lganmiz, — deb javob qaytaribdi tappon sallot, — lekin niyati qora odam bo'lganmiz. Yaxshisi sen qizil shamlarni yoq, chunki bu o'zimning, xo'jalarimning rangi, ana shundan keyingina qasr egasiga tariximizni hikoya qilib beraman. Faqat gapimni bo'lma: modomiki gapirar ekanman, gaplarim xuddi kitobda yozilganday silliq bo'ssin.

Hov anavi tappon shohni ko'ryapsanmi? U mening shohim bo'ladi: u dunyoga eng oldin kelgani uchun to'rttala shoh ichida eng keksasi hisoblanadi, u boshida oltin toj, qo'lida esa sultanat hassasi bilan tug'ilib, shu daqiqadan boshlab hukmdorlik qilavergan. Uning xotini esa onadan oltin yelpig'ich bilan tug'ilgan; yelpig'ichni hozir ham ko'rishing mumkin. Ular yoshliklaridan ma'murchilikda yashashgan, mактабга borishmagan, kunbo'yи o'yinchoq qasrlar qurib, uni buzishgan, qalay askarlarni sindirishgan, qo'g'irchoq o'ynashgan; ikki tomoniga yog' surtilib, ustiga shakar sepilgan buterbrodlarni o'ynashayotgan joylariga keltirib berishgan. Oltin asr nomini olgan ko'p ajoyib zamonlar bo'lgan, ammo shunaqa zamon ham ularning me'dasiga tekkan. Mening ham me'damga tegdi. Ana o'shanda uning o'tniga g'ishtin shoh keldi.

Sallot boshqa hech narsa demabdi; bola hikoyaning davomini eshitgisi kelibdi, lekin sallot churq etmabdi; shunda bola savol beribdi:

– Keyin nima bo'ldi?

Tappon sallot indamabdi, u g'o'dayganicha qizil shamga tikilib qolibdi. Bola unga hadeb bosh irg'ayveribdi, lekin javob ololmabdi; shunda u g'ishtin sallotga yuzlanibdi, unga uch marta bosh irg'agandan keyin, u o'z kartasidan chiqibdi, g'o'dayganicha turaveribdi, faqat:

– Sham! – debdi xolos.

Bola o'sha zahoti qizil shamni yoqib, uning ro'parasiga qo'yibdi: g'ishtin sallot boltasini tik qilib salom beribdi va hikoya boshlabdi:

– Shunday qilib, ko'ksida romb shaklidagi shisha derazali g'ishtin shoh paydo bo'ldi, malikaning ko'ksida ham ana shunaqa romb bor. Ana shu derazadan mundoq qarasang, er-xotin boshqa odamlarday bir xil xamirdan qorilganiga ishonch hosil qilasan. Ularga haykal o'rnatilgani hammaga ma'qul bo'ldi, u yetti yil turdi, u asrlarga tatiydig'an qilib tiklangan edi-da.

G'ishtin sallot yana bir salom beribdi-da, qizil shamga tikilganicha jim qolibdi.

Kichkina Vilyamning taklifini kutmasdan botqoqda odimlagan laylakday qadam tashlab, o'rtaga chillik sallot chiqibdi. Kartadan qush singari qora sebarga uchib tushibdi. U chillik sallot boshi ustidan uchib o'tib, kartaning burchagidagi o'z joyiga borib qo'nibdi. Chillik sallot oldingilariga o'xshab sham yoqishni iltimos qilmasданоq gap boshlabdi:

– Ikkala tomoniga yog' surtilgan non hammaga ham nasib qilavermaydi. Bunaqa buterbrodni shohim ham, malikam ham ko'rmadi; ular mактабга qatnab, o'tmishda shohlar va malikalar о'ганмаган bilimlarni о'ғанишди. Ularning ko'ksida shisha deraza bor edi, lekin hech kim unga qaramagan. Qarashgan bo'lsa ham soat mexanizmi buzilmadimikin, bordiyu buzilgan bo'lsa, uni haqorat qilaylik deb qarashgan. Uni men bilmasam kim biladi,

chunki ko'p yillar ular xizmatida boldim, egalarim ixtiyoridan tashqari ish qilmadim. Xo'jalarim kechki payt ortiqcha gapirishimni istashmasa, indamay qo'ya qolaman, g'oz turaveraman.

Vilyam unga oppoq nur taratadigan sham yoqib beribdi.

«Ajabo!» Vilyam sham yoqishga ulgurmasdan ritsarlar zali o'rtaida qora mashoq sallot turgan emish, garchi u oyog'i oqsasa ham, bir zumda hozir bo'libdi; u salom bermay, parchalanib ketayotgan bo'lakday g'ijirlabdi, chamasi boshidan ko'p savdolar o'tgan bo'lsa kerak-da. U ham gapga tushibdi:

– Har birimizga bittadan sham tegyapti, – debdi u, – menga ham tegsa kerak, buni bilaman. Lekin biz sallotlarga bittadan sham yoqilar ekan, xo'jayinlarimizga esa uch baravar ortiq yoqish kerak, qora mashoq shohim bilan uning xotiniga kamida to'rttadan sham yoqish yarashadi! Ularning azob va qynoqlarga to'la qissalari qayg'uli! Ular behudaga qora kiyim kiyib yurishmaydi, ularning ham, mening ham gerbimda qabr kavlaydigan belkurak bor! Shu vajdan meni masxaralab Qora Pari ham deyishadi. Undan ham xunuk nomim bor, uni aytishga tilim bormaydi! – u yana shivirladi: – Meni axlat tozalovchi deyishadi. Bir vaqtlar saroyda qora mashoq shohning e'tiborli askarlaridan edim, endi bo'lsa kartalar dastasining eng oxiridaman. Xo'jayinlarim tarixini aytib o'tirmayman. Qo'lingdan kelsa o'zing bilib ol. G'alati, yomon zamonalr keldi, bu zamondan yaxshilik umid qilib bo'lmaydi, vaqt kelib, hammamiz qizil otlarda bulutlardan ham yuksaklikka ko'tarilamiz.

Kichkina Vilyam har bir shoh va har bir motka uchun uchtadan sham yoqibdi, qora mashoq shoh bilan motkaga to'rttadan sham qolibdi. Katta ritsarlar zali eng qudratli imperatorning saroyiday yop-yorug' bo'lib ketibdi, zodagon janoblar bolaga podsholarga xos, viqor bilan salom berishibdi! Tappon motka oltin yelpig'ichi bilan o'zini yelplibdi. Qora mashoq motka qo'lida oltin lola jilva

qilibdi, u o'zidan olov chiqarayotganga o'xshab ketibdi. Shoh va malikalar o'z kartalaridan irg'ib chiqishib, zalda raqsga tushib ketishibdi, sallotlar ham ulardan qolishmabdi. Ular ham sham yorug'ida raqsga tushishibdi. Butun zal yonayotganday bo'libdi; olov chirsillab, derazalardan tilini chiqaribdi, olov tili devorlarni yalabdi, qasr o't ichida qolibdi.

Vilyam qo'rqqanidan o'zini orqaga tashlabdi va baqirib yuboribdi:

– Dada! Oyi! Qasr yonyapti!

Hammayoqqa uchqunlar sachrabdi, qasr yonaveribdi, yonaveribdi, to'satdan olov ichidan kuy taralibdi:

– Endi qizil otlarga minib, ritsarzodalar va ularning xotinlariday bulutlardan ham yuksaklikka ko'tarilamiz. Sallootlar ham biz bilan birga bo'ladi.

Vilyamning o'yinchoq qasri va ular ichidagi karta qasri, karta dastasidan sug'urib olingan shoh, motka va sallootlar ana shunday yo'q bo'lib ketibdi. Vilyam hozir ham bor, u tez-tez qo'lini ham yuvib turibdi.

Qasrning kuyib ketganiga u aybdor emas.

## MUNDARLJA

Botqoqlik shohining qizi .....	3
Qo'ng'iroqli girdob .....	45
Shamol Valdemar Do va uning qizlari haqida hikoya qiladi .....	49
Nonni bosgan qiz .....	62
Qo'ng'iroqxonha qorovuli Ole .....	71
Anne Lisbet .....	79
Pat qalam va siyohdon .....	91
«Naqadar chiroylis» .....	94
Barxanlarda .....	102
Shuhratning mashaqqatli yo'li .....	142
O'n ikki yo'lovchi .....	147
Qor odam .....	152
O'tdak hovlisida .....	157
Yangi asrning ilhom parisi .....	164
Psixeya .....	171
Oltin bola .....	186
Darbonning o'g'li .....	195
Boychechak .....	216
Xolam .....	220
Baqa .....	227
Yovuz podsho (afsona) .....	235
Aka-ukalar .....	238
Kohna cherkov qo'ng'irogi .....	241
Driada .....	246
Parrandaboqar Gretanining ajdodlari .....	273
Nima o'ylab topish mumkin .....	289
Burga bilan professor .....	293
Payrahadan ham baxt yashirinishi mumkin .....	298
Quyruqli yulduz .....	301
Katta bobom .....	306
Aqlga sig'maydigan hunar .....	311

Ulkan dengiz iloni .....	315
Tutingan ota albomi .....	326
Keksa bo'ydoqning tungi qalpogi .....	355
G'arq bo'lgan monastir .....	369
Tumor .....	372
Kartoshka .....	374
Shohlar, motkalar va sallotlar .....	375

*Adabiy-badiiy nashr*

H+ANS KRISTIAN ANDERSEN

**QOR ODAM**  
*Ertaklar*

Muharrir  
Muhabbat MENGNOROVA

Musahhih  
Feruza SHOSAIDOVA

Badiiy muharrir  
Uyg'un SOLIHOV

**Kompyuterda sahifalovchi**  
Feruza BOTIROVA

БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ

ДИСТАНЦИЯДА НА МАЛЛАҚСЫЗ АДАМДЫН САХИФАЛАВЧИ  
ЖАҢАМАРДЫ НА БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ

ИДАРЕНДІЛДІМДЕ ЖАРГУН АДАМСЫЗДЫ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ  
БОЛГАРДА ИМПЕРИЯСЫНДАКИ АДАМ САХИФАЛАВЧИ